O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING GLOBAL MASALALARI: MUAMMO, TADQIQOT, NAZARIYA, AMALIYOT

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
2025-yil 20-noyabr, Navoiy shahri

GLOBAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION: PROBLEM, RESEARCH, THEORY, PRACTICE

oInternational scientific and practical conference
November 20, 2025, Navoi city

ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА, ИССЛЕДОВАНИЕ, ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА

Международная научно-практическая конференция 20 ноября 2025 года, г.Навои

Navoiy-2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

“BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING GLOBAL MASALALARI: MUAMMO, TADQIQOT, NAZARIYA, AMALIYOT” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO‘PLAMI

COLLECTION OF MATERIALS THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME “GLOBAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION DEVELOPMENT: PROBLEM, RESEARCH”

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ «ГЛОБАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ»

2025-yil 20-noyabr

Navoiy – 2025

O‘O‘K: 811.512.131

Boshlang‘ich ta’limning global masalalari: muammo, tadqiqot, nazariya, amaliyot**”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Navoiy, 2025. – 394 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘iga binoan 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasining 1-ilovasiga binoan Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi tomonidan 2025-yil 20-noyabr kuni “Boshlang‘ich ta’limning global masalalari: muammo, tadqiqot, nazariya, amaliyot” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrirlar:
M.Ernazarova – filologiya fanlari doktori, professor
G.Shamsidinova – biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:
G‘.Hamroyev – Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
M.Suyunov – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
M.Pardayeva – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
dots.v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
S.Kodirova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
F.Holikulova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
prof.v.b., pedagogika fanlari doktori (DSc)
R.Ravshanova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
M.Jumayeva – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
R.Isroilova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
A.Najimova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi
I.Norova – Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
o‘qituvchisi

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Kengashining 2025-yil 15-noyabrdagi navbatdan tashqari yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

© Navoiy davlat universiteti, 2025

BOSHLANG‘ICH TA’LIM – TA’LIMNING POYDEVORI

Kalonov Muxiddin Baxriddinovich-
Navoiy davlat universiteti rektori,
iqtisod fanlari doktori, professor

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlarni tashkil etadi.

Mustaqil O‘zbekistonning ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar haqida so‘z yuritar ekanmiz, eng avvalo, ta’limning tayanch bosqichi — boshlang‘ich ta’limning o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Zero, davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan barcha strategik qarorlar va dasturlar aynan shu poydevorni mustahkamlashga qaratilgan.

Xususan, oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida bugungi kunda universitetlarning ta’lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarimiz sog‘lom hamda go‘zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo‘yicha doimiy ish o‘rniga ega bo‘lish mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilinayapti va bu jarayonda ta’lim olishni eng asosiy shart sifatida ko‘rmoqda.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

Barchamiz bugungi taraqqiyotimizning har bir bosqichida, har bir lahzasida kimdir, fikri bilan, kimdir g‘oyasi bilan, kimdir harakati va yana kimdir amaliy natijalari bilan taraqqiyotimizga munosib hissa qo‘shmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich ta’lim bosqichi asosiy poydevorni tashkil etib, o‘quvchi yoshlarning kelgusidagi ma’naviy-axloqiy, kognitiv rivojlanishi, o‘quv-biluv va mehnat faoliyati ayni shu bosqichda ularga beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarga bog‘liq sanaladi. Sohani har tomonlama taraqqiy ettirishda mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emas. Ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo‘nalishlarini aniqlash, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish, ularni jahon standartlari mos holda shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan sanaladi.

Keyingi yillarda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha innovatsion yondashuvlar, mavjud qarashlar, tushunchalar va munosabatlarni taraqqiyot ko‘zgusi va samaradorlik mezonlari bilan qayta ko‘zdan kechirishni taqozo etmoqda. Boshlang‘ich ta’limda ham tub yangilanishlar yuz berib, o‘quvchilarni intellektual rivojlanishlari, ta’lim olishga intilishlari, zamonaviy dunyo talablariga mos shaklda bilim bilan qurollanishlariga sharoit va imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so‘nggi yillarda ta’lim sohasini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e’tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar 2017-yil 14-martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 30-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident Qarorlarida o‘z aksini topgan.

E’tibor beradigan bo‘lsak, mazkur qarorlarda uzluksiz ta’lim tizimining deyarli barcha turlari qamrab olinganligini ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ham ta’lim sohasini tubdan takomillashtirishga e’tibor qaratilgan. 2022-yil 28-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “Milliy o‘quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 669 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darslik, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarini yaratish” maqsadi doirasida qator vazifalarni amalga oshirish belgilab olingan.

2019-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonning qabul qilinishi davlat tili taraqqiyoti borasida olib boriladigan keyingi faoliyat yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu farmonda qayd etilgan vazifalarni bajarish, o‘zbek tilini rivojlantirish, dunyo tillari darajasiga ko‘tarish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qaroriga ko‘ra “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini va uzviyligini ta’minlash” vazifasi ijrosini ta’minlash bo‘yicha tayyorlangan Umumiy o‘rta ta’limning 1-11-sinflari uchun Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflari uchun ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturi mukammal tuzilgan bo‘lib, o‘quvchini kreativ fikrlashga, izlanishga, ijodiy fikrlashga yo‘naltirish bilan birga tinglab tushunish, o‘qib tushunish, so‘zlash, yozish kabi nutqiy kompetentsiyalarni shakllantirishga, xalqaro baholash mezonlariga mos holda yaratilgan.

Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahrirda) ta’lim mazmunini kompetensiyaga yo‘naltirish, o‘quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish kabi tamoyillarni asos qilib oldi. Bu esa boshlang‘ich ta’limda o‘qitish uslublarini zamonaviylashtirish, o‘quv yuklamasini optimallashtirish va baholash tizimini ilg‘or xalqaro amaliyotga moslashtirishni taqozo etadi.

Shuningdek, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilar mehnatini rag‘batlantirish, STEAM yondashuvlarini joriy etish va raqamli ta’lim platformalarini kengaytirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri — boshlang‘ich ta’limni zamon talablariga mos holda rivojlantirish va har bir o‘quvchiga sifatli bilim olish uchun teng imkoniyat yaratishdir.

O‘tgan yillarda qabul qilingan Prezident qarorlari va hukumat dasturlari orqali ma6ktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi avlod darsliklarini yaratish, o‘quvchilarni xalqaro baholash tizimlariga tayyorlash, pedagoglar malakasini muntazam oshirib borish ishlari izchil davom etmoqda. Jumladan:

o‘quv dasturlarining qayta ko‘rib chiqilishi,

boshlang‘ich sinflarda kompetensiyaviy ta’limga o‘tish,

elektron ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish,

o‘qituvchilarning oylik maoshining bosqichma-bosqich oshirilishi

boshlang‘ich ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim turlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog‘liq umumiy jihatlar mavjud.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ijodiy yondashuv, ularning mustaqil va ijodiy ishlarining asosiy harakatlantiruvchi omili bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ularni ijodiy yondashuvlarga va kasbiy faoliyatga tayyorlashning dastlabki bosqichidanoq,

ya’ni oliy o‘quv yurtlarida o‘qib yurgan davrlarining dastlabki paytlaridanoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu bilan bo‘lajak o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonining keyingi qismlarini optimallashtirish ishlarida ham bemalol qatnasha oladi.

Konferensiyalar tashkil etish ham ilmiy tadqiqotlarimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘iga binoan 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasining 1-ilovasiga asosan Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi tomonidan 2025-yil 20-noyabr kuni **“Boshlang‘ich ta’limning global masalalari: muammo, tadqiqot, nazariya, amaliyot”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish va ilmiy maqolalar to‘plamini chop etish rejalashtirilgan.

Ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi aynan boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari, muammo va yechimlariga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Konferensiyada boshlang‘ich ta'limni rivojlantirishning global masalalari, boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishda to‘rt blokli model (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik) tatbig‘i, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozishga o‘rgatish amaliyoti, boshlang‘ich ta'lim fanlarini integratsiyalab o‘qitish xususiyatlari, boshlang‘ich sinf õquvchilarining bilimini baholashda xalqaro tajribalar kabi bir qator masalalarni ijobiy hal etishning nazariy jihatlarini ko‘rsatib berishi shubhasizdir.

Bugungi kun talabi bilimli, bilim olish yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan, mustaqil idrok qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxsga ehtiyoj sezadi. Ta’limning maqsadi mustaqil ijodiy fikrlovchi hamda yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashdir.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi faqat dars beruvchi emas, balki bola dunyoqarashining ilk me’mori, tafakkur tarbiyachisi, mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi yo‘lboshchisidir. Shu bois davlatimiz tomonidan ustoz maqomini yuksaltirish, ularning mehnatini rag‘batlantirish, kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida ham qator normativ hujjatlar amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Bugun oldimizda turgan asosiy vazifa — yaratilgan ulkan imkoniyatlar, qabul qilingan qarorlar va strategiyalarni amalda ro‘yobga chiqarish, boshlang‘ich ta’limda har bir bolaning iste’dodi, qiziqishi va qobiliyatini ro‘paradan ko‘ra bilishdir. Zero, poydevori mustahkam bo‘lgan ta’lim tizimigina yurtimiz taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

So‘zim yakunida fidoyi o‘qituvchilarimizga, pedagog jamoamizga mustahkam sog‘lik, zafar va muvaffaqiyatlar tilayman. Yurtimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlod ta’limi yo‘lida qilayotgan xizmatlaringiz bardavom bo‘lsin!

KNOWLEDGE ECONOMY IN SOUTH AFRICA – A REVIEW

Prof Dr. Ravinder Rena,
Professor of Economics, DUT Business School, Faculty of Management Sciences,
Durban University of Technology
ML Sultan Campus, PO Box: 1334, Durban, 4001,
Republic of South Africa,
Email: ravinder.rena@gmail.com ; ravinderr@dut.ac.za
Phone: +27847828059
Orcid No: 0000-0002-4156-8693

Abstract

The purpose for this paper is to break down the developmental patterns in the knowledge economy. Further, the paper investigates and examines the Ten-Year Innovation Plan of South Africa which is relied upon to drive change towards an information-based economy, in which the creation and dispersal of learning prompts financial advantages and advances all fields of human attempt. This paper highlights features the central difficulties distinguished, where South Africa is today, and in which direction it’s moving in the coming 10 years from now.

Keywords: Knowledge Economy, Innovation Plan, Economic Development, Information and Communication Technologies, South Africa

1. INTRODUCTION AND BACKGROUND

In recent decades, various researchers and reporters have contended that the main edge of the economy is to create nations has turned out to be driven by advances in view of learning and data generation and scattering. These new innovations—which developed in the late 1950s, extended with the expansion of Personal Computers(PCs), and after that surged drastically with the broad utilization of email and the Internet—can possibly revamp the idea of work and the economy (Powell and Snellman,2004).

The information economy is observed as the most recent phase of advancement in in financial rebuilding worldwide. So far, the world has progressed from a rural economy (pre-Industrial Age, generally the agrarian segment) to modern economy (with the Industrial Age, to a great extent the assembling division) to post-mechanical/large scale manufacturing economy (mid-1900s, to a great extent the administration segment) to learning economy (late 1900s – 2000s, to a great extent the innovation/human capital segment). This most recent stage has been set apart by the changes in mechanical advancements and the all round aggressive requirement for advancement with new items and procedures that create from the exploration group (i.e., R&D factors, colleges, labs, instructive organizations).

In the information economy, the work constrain is portrayed as PC proficient and all around prepared in taking care of information, creating calculations and reproduced models, and enhancing on procedures and frameworks. With earth's draining characteristic assets, the requirement for green framework, a co-ordinations industry constrained into in the nick of time conveyances, developing worldwide request, administrative strategy dministered by execution comes about, and a large group of different things high need is put on learning; and research ends up noticeably central. Information gives the specialized skill, critical thinking, execution estimation and assessment, and information administration required for the transboundary, interdisciplinary worldwide size of the present rivalry.

Overall cases of the information economy occurring among numerous others include Silicon Valley in California; aviation and car designing in Munich, Germany; biotechnology in Hyderabad, India; gadgets and computerized media in Seoul, South Korea; petrochemical and vitality industry in Brazil. Numerous different urban communities and areas attempt to take after a learning driven improvement worldview and increment their insight base by putting resources into advanced education and research establishments keeping in mind the end goal to draw in high talented work and better position themselves in the worldwide rivalry.

It has been proposed that the following transformative advance after learning economy is the system economy, where the generally limited information is currently being shared among and crosswise over different systems for the advantage of the system individuals all in all, to increase financial scale in a more extensive, more open scale. It has been theorized that the progressive development of system economy would make a very much interconnected monetary request, which would then start to focus on the energy of people, continuously prompting a Passion based economy.

2. LITERATURE REVIEW

The expansive name "information economy" covers a wide exhibit of exercises and understandings. No less than three lines of research fall under this umbrella. The most established approach, with its roots going back to the mid-1960s, concentrates on the ascent of new science-based ventures and their part in social and financial change. A few examiners incorporate proficient administrations and other data rich enterprises, for example, distributing in this class, taking note of the stamped development in work in these segments of the economy over recent decades (Machlup 1962, Porat 1977, Stanback 1979, Noyelle 1990). A center thought bringing together this strand of work is the centrality of hypothetical information as a wellspring of development (Bell 1973). With some extending, the new development hypothesis in financial aspects (Romer 1986) could be incorporated here as this work focuses on the significance of information in monetary development, taking note of that revelations contrast from different data sources since they are non-rivalrous, and fuel facilitate advancement.

A study revealed stated that the learning economy worked uniquely in contrast to the past in some crucial way. Albeit couple of researchers now acknowledge such claims, much late research in human science and work financial matters has concentrated on whether new sorts of employments and novel types of work association have risen as of late. How much new methods of function are especially fastened to the information economy is not by and large clear, and exactly how unique these work game plans are from more established ones is the subject of much open deliberation (Kochan and Barley 1999).

A few associations give off an impression of being especially great at learning creation and exchange, and analysts are keen on understanding why and whether these practices can be reproduced. Such request is possibly relevant; however the centre worry of this profession has been more connected. The more extensive sociological and financial ramifications concerning whether information is systematized or implied, and what sorts of social game plans improve or hinder learning era and transmission (Cowan et al. 2000).

A significant part of the macroeconomic research on the information economy has concentrated on the linkage amongst innovation and work efficiency, characterized as the measure of yield given a unit of work input. Early investigations of the connection between data innovation and work profitability were incited by the huge development in PC speculations and the simultaneous efficiency stoppage in the American economy in the late 1970s and all through the 1980s (Roach 1987).

Following too many years of consistent development, work efficiency had ground to a halt in the mid-1970s and hinted at little restoration, despite a resulting surge in PC ventures. The business analysts were baffled by this. Incomprehensibly, the best increment in PC venture happened in the administration area, which was encountering in efficiency. Bug (1987) demonstrated that amid the 1970– 1985 period, the administration area expanded its offer of PC spending of general capital stock from 6.4% to 15.5%. However, the profitability of desk data specialists was not notwithstanding staying aware of that of creation labores. Love man (1994) analyzed the efficiency of vast assembling firms in the vicinity of 1978 and 1984 and found that the profits on interest in data innovation were negative. Additionally, in a progression of concentrates on assembling ventures, Morrison and Berndt found that the gross peripheral result of innovation speculation was not as much as the expenses related with them (Morrison and Berndt 1990).

The absence of proof of a positive connection between innovation speculation and efficiency measures was named the "profitability oddity." The discoveries of the early investigations were caught by financial specialist Robert Solow's (1987, p. 36) generally rehashed jest: "You can see the PC age wherever aside from in the efficiency measurements." Measuring the increases from the developing utilization of PCs has demonstrated troublesome. None of the standard measures consider comfort, for instance, or more fast access to data. Nor does the speed or expansiveness of data dispersal enlist in standard profitability bookkeeping (Brynjolfsson 1993). By the by, by the late 1990s, various examinations revealed confirmation of a solid positive connection between innovation speculation and work efficiency development (Jorgenson and Stiroh 2000, Oliner and Sichel 2000; Kefela and Rena, 2008). Amid the mid 1990’s, work efficiency.

3. KNOWLEDGE ECONOMY IN SOUTH AFRICA

Today, a developing level of riches on the planet's biggest economies like USA, China, India, Japan and so forth is made by information based an industry that depends intensely on human capital and technological innovation.

In May 2006, the Skills and Innovation Policy (SIP) program held a noteworthy Knowledge Economy meeting in South Africa. It intended to give a stage to partners and approach creators to talk about how African economies can get to and apply information to develop and turn out to be more focused. From this finding forward the South African Government is unendingly buckling down with the assistance of pertinent offices and extensive research expects to lead a program of mediation throughout the following decade to drive South Africa's change towards a learning-based economy.

The motivation behind this paper is to examine the developmental patterns in the learning economy. Further, the paper investigates and examines the Ten-Year Innovation Plan of South

Africa's which is relied upon to drive change towards an information-based economy, in which the creation and spread of learning prompts financial advantages and advances all fields of human attempt. This paper features the central difficulties recognized, where South Africa is today, and in which course it is moving in 10 years from now on human capital and mechanical advancement.

The Government of South Africa set out a ten-year plan for which continues from the more extensive financial states of the nation especially concentrate on the supportable monetary development – and is based on the establishment of the national arrangement of advancement (NSI). The monetary development in South Africa is led by the creation and spread of information for the enhancement of all fields of human attempt. Achievement in such manner will be measured by how much science and innovation assume a driving part in upgrading profitability, monetary development and financial improvement. Since its freedom in 1994, the nation's science and innovation framework has taken essential steps. In any case, it is essential to take note of that there is a noteworthy hole between South Africa and those nations distinguished as information driven economies.

It is a high time that Government of South Africa with the assistance of NSI and different partners should work as one to close colossal leap holds on in the information economy. In addition, the NSI must turn into a dynamic player and in this manner concentrate on the long-go targets, as for instance, going up against South Africa's inability to popularize the aftereffects of logical research, and its deficient creation (in both a subjective and quantitative sense) of learning specialists fit for building an internationally focused economy.

South Africa's prospects for enhanced intensity and monetary development at last rely upon the advancement advertisement science and innovation improvement. The Government's wide formative order can in the long run be accomplished just if South Africa makes additionally strides headed straight toward turning into an information driven economy (Kefela and Rena, 2008). Change toward this path will fundamentally move the extent of national wage got from learning based ventures, the level of the workforce utilized in information based occupations and the proportion of firms utilizing innovation to advance.

Indeed advancement towards a learning based economy depends by four columns such:

1] Human capital improvement;

2] Knowledge era and misuse (R&D);

3] Knowledge framework; and

4] Enablers to address the "development gorge" between examine comes about and financial results.

South Africa's prospects for enhanced aggressiveness and financial development depend, to an extraordinary degree, on science and innovation. The administration's wide formative order can at last be accomplished just if South Africa makes additionally strides headed straight toward turning into a learning-based economy, in which science and innovation, data, and learning move to the focal point of monetary action. The information construct economy rests with respect to four interconnected, related columns:

1) Innovation

2] Economic and institutional foundation

3] Information foundation

4] Education.

South Africa, generally been an asset-based economy, and gradually however unquestionably making a trip to wind up noticeably an information-based economy. Today, new "boondocks" advancements are changing and extending numerous economies similarly that prior mechanical and innovative transformations changed the substance of history. Similarly, as the steam age and the data innovation age, for instance, experienced different phases of improvement, so the advances thought to be at the boondocks of information today.

The key segment of an information economy is a more prominent dependence on scholarly abilities than on physical data sources or normal assets. We analyze the level-headed discussion about whether new types of work that epitomize innovative change have produced more specialist self-rule

or more prominent administrative control. At long last, we evaluate the distributional outcomes of an information-based economy concerning developing disparity in wages and brilliant employments.

The striking difficulties sketched out in the 10-year design address a variety of social, financial, political, logical, and innovative advantages. They are intended to empower multidisciplinary considering and to challenge South Africa's specialists to answer a portion of the current inquiries, make new learning techniques and grow new advances.

The Real test regions are:

1] The "Rancher to Pharma" esteem fasten to reinforce the bio-economy – throughout the following decade South Africa must turn into a world pioneer in Biotechnology and the pharmaceuticals, considering the country's indigenous assets and growing learning base.

2] Space science and innovation – South Africa ought to end up noticeably a key supporter of worldwide space science and innovation, with a National Space Office, a developing satellite industry, and a scope of advancements in space sciences, earth perception, interchanges, route and building.

3] Vitality security – the race is on for sheltered, spotless, moderate, and dependable vitality supply, and South Africa must meet its medium-term vitality supply prerequisites while improving for the long haul in clean coal innovations, atomic vitality, sustainable power source and the guarantee of the "hydrogen economy".

4] Worldwide environmental change science with an emphasis on environmental change – South Africa's geographic position empowers her to assume a main part in environmental change science.

5] Human and social elements – as a main voice among creating nations, South Africa should add to a more noteworthy worldwide comprehension of moving social progression, and the part of science in invigorating development and improvement.

With these testing objectives, the legislature must address the "advancement hole", which implies enhancing access to back, making a development well-disposed administrative condition and fortifying the NSI. This 10-year development design likewise perceives that a critical reinforcing of the creation of human capital and the institutional condition for learning era is important, in a joint effort with universal accomplices.

The vital subjective measure of learning creation is the yield of unique articles distributed in logical diaries. From 1990 to 2004, South Africa's yield found the middle value of around 7 000 articles per year, in spite of signs of expanded subsidizing. South Africa's PhD shortage can be clarified, partially, by South Africa's politically sanctioned racial segregation past; by the restricted limit of the advanced education framework to enlist and oversee PhDs; and by limitations inside individual foundations.

Besides, an awesome arrangement is required from a framework that has not been extremely effective in expanding the quantity of information labourers. Any mediation must increment both the quantities of PhDs and the efficiency of the framework.

4. BUILDING A HUMAN CAPITAL

Intercessions to address the South African learning specialist test ought to be comprehended with regards to a human capital "pipeline" that begins with postgraduate understudies toward one side and conveys world-class researchers and scientists at the other. In 2005 around 1 200 PhDs graduated in South Africa, of whom 561 were in science, designing and innovation (SET). To contend in the worldwide science and innovation field, South Africa's PhD creation must grow fivefold, to around 3 000 SET PhDs. This, thusly, implies the normal yearly human capital pipeline yields – made up of 26 000 higher review maths and science grade 12, 33 500 SET students, 3 200 Respects, 2 900 Experts and 561 SET PhD graduates – should be enhanced subjectively and quantitatively. Government can help with inspiring researchers with grant and scholarships.

Given the scale talked about over, a few focuses are clear:

1] A vocation way from BSc to scientist level must be built up

The Masters and PhD understudy programs need to twist up evidently critical arrangement of government-finances, considering graduation focuses to pull in potential pros to senior degrees should be set up. The generation line of specialists should be observed for bottlenecks. Notwithstanding the conventional research-based techniques for gaining PhDs, elective strategies benchmarked against best practice should be made to provide food for training-based doctorates, proficient doctorates, and other new courses, for example, PhD by distribution. Since one of the primary goals of this Ten-Year Development Design is to expand the quantity of licenses and items, it is vital that some consideration be paid to the number and kind of abilities in building, innovation, and monetary interface, which for reasons for this archive we will call advancement aptitudes.

In advanced nations such abilities are sharpened at master colleges, for example, MIT in the Assembled States. In our condition, over the here and now, there should be an attention on incorporating advancement examines with scholastic PhD educational module. This would need to be obviously characterized however may incorporate advancement and innovation administration, item improvement, innovation hatching, venture administration, and business administration. In the long haul, thought should be given to the presentation of this sort of deduction at all levels of tertiary investigation in science and building. This would create a workforce with the development aptitudes that we need and add to our intensity.

Colleges, universities, and the science gatherings can assume a critical part in giving such abilities, and they should be reinforced.

Information era and misuse. This area perceives that while learning is created with regards to applications in the excellent difficulties, it is imperative to support the era of learning in different fields initially portrayed in the NR&DS, which include:

Beginning time investigate – For instance, nanotechnology. This is otherwise called the "wildernesses" Research and development range. The emphasis is on creating innovation stages and a more extensive base of science and innovation capabilities.

Science missions – Space science, fossil science, Antarctic and sea life science, biosciences, sociologies, earth frameworks and natural sciences. These missions misuse South Africa's "living labs" of nearby assets and geographic advantage(p30).

Innovation missions – These exercises have a characteristic inclination towards connected Research and development, with comes about that can be acknowledged more than 3-5 years. These missions incorporate propelled fabricating advances, "brilliant" materials and metals, progressed ICT, 4 The era atomic reactors assembling, and chemicals innovation.

Customary areas – Institutional orders for expanded Research and development, boosting key national need segments (e.g., farming, wellbeing) and the economy. The SET organizations commanded to build up these parts have an enormous duty throughout the following 10 years to extend inquire about exercises, and to prepare more prominent quantities of specialists and architects.

Human capital and learning era: All components of this Ten-Year Development Design require strategy administration all through government.

5. CONCLUSION

The writing on the learning economy concentrates vigorously on information creation, in any case, and goes to less to learning spread and effect. This disregard is disastrous on the grounds that a key knowledge of the efficiency faces off regarding is that critical picks up in profitability are accomplished just when new advancements are hitched to correlative hierarchical practices.

An emphasis on information dispersal may likewise help the investigation of the abilities jumble proposal. The contention that a few classes of specialists are exceedingly hindered by specialized change is excessively straightforward, albeit plainly more seasoned, less talented, and minority labourers have borne the brunt of the progress to an economy in view of scholarly aptitudes. In any case, fine-grained investigations of how some less-talented labourers gained the essential specialized aptitudes to work in new settings are uncommon and would be important.

The Unified Countries Commission on Science and Innovation for Advancement report (UNCSTD, 1997) inferred that for creating nations to effectively incorporate ICTs and maintainable

improvement keeping in mind the end goal to take part in the information economy they have to mediate by and large and strategically.[17] Such aggregate intercession proposed would be in the improvement of successful national ICT approaches that help the new administrative system, advance the chose learning generation, and utilization of ICTs and outfit their authoritative changes to be in accordance with the Thousand years Advancement Objectives. The report additionally recommends that creating nations to build up the required ICT methodologies and arrangements for organizations and directions considering they should be receptive to the issues of joining.

REFERENCES

Chime D. 1973. The Happening to Post-Mechanical Society. New York: Fundamental Books

Brynjolfsson E. 1993. The efficiency conundrum of data innovation. Commun. ACM 36:67–77.

Cowan R, David Dad, Invasion D. 2000. The express financial matters of learning codification and inferred quality. Ind. Corp. Change 9:211– 53.

Bureau of Science and Innovation (2008) Development Towards An Information Based Economy Ten-Year Get ready for South Africa (2008 – 2018) accessible on http://www.esastap.org.za/download/sa_ten_year_innovation_plan.pdf recovered on 3 Walk 2016

Insect SS. 1987. America's innovation quandary: a profile of the data economy. Morgan Stanley Exceptional Econ. Study, (April).

Jorgenson DW, Stiroh KJ. 2000. Raising as far as possible: U.S. financial development in the data age. Work. Pap., OECD Econ. Dep.

Kefela, TG and Rena, R 2008. Human Capital Investment is a Continuous Proposition: A Study of North East African States, *Indus Journal of Management and Social Sciences*, 2(1): 50-65.

Kochan TA, Grain SR, eds. 1999. The Changing Idea of Work and Its Suggestions for Word related Examination. Washington, DC: Natl. Res. Counc.

Loveman GW. 1994. An evaluation of the profitability effect of data advances. In Data Innovation and the Enterprise of the 1990s: Exploration Studies, ed. TJ Allen, MS Morton, pp. 84–110. New York: Oxford Univ. Press.

Machlup F. 1962. The Creation and Dispersion of Learning in the Assembled States. Princeton, NJ: Princeton Univ. Press

Morrison CJ, Berndt ER. 1990. Surveying the efficiency of data innovation hardware in the U.S. fabricating industries. Work. Pap., Natl. Bramble. Econ. Res., Cambridge, Mama.

Noyelle T, ed. 1990. Abilities, Wages, and Efficiency in the Administration Division. Rock: Westview

Oliner SD, Sichel DE. 2000. The resurgence of development in the late 1990s: Is data innovation the story? *Journal of Economic Perspectives*. 14:3– 22

Porat MU. 1977. The Data Economy. Definition and Estimation. Washington, DC: Dep. Commer., Off. Telecommuncations.

Romer PM. 1986. Expanding returns and longrun development. *Journal of Political Economy.* 94:1002– 37

Stanback TM. 1979. Understanding the Administration Economy: Work, Efficiency, Area. Baltimore, MD: Johns Hopkins Univ. Press

Walter W. Powell and Kaisa Snellman (2004) The Learning Economy, Yearly Audit of Human science, Vol. 30: 199-220 DOI: 10.1146/annurev.soc.29.010202.100037

Wikipedia (2018) https://en.wikipedia.org/wiki/Knowledge_economy

BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODOLOGIYASI

Ernazarova Manzura Saparboyevna – O‘zbekiston.
Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedra mudiri, f.f.d. (DSc), professor

Annotatsiya. Maqolada ona tili ta’limi jarayonida nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirish metodologiyasining zarurati asoslangan. Til ta’limi uchun o‘quvchilarda nutqiy (tinglab tushunish, o‘qib tushunish, so‘zlash, yozish) kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy maqsad va vazifa ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Nutqiy kompetentsiya, tinglab tushunish, o‘qib tushunish, so‘zlash, yozish, lingvistik kompetentsiya, metodologiya, kreativlik.

Abstract. The article is based on the need for a methodology for developing speech competencies in the process of mother tongue education. It is analyzed that the main goal and task of language education is the formation and development of speech (listening comprehension, reading comprehension, speaking, writing) competencies in students.

Keywords: Speech competence, listening comprehension, reading comprehension, speaking, writing, linguistic competence, methodology, creativity.

Jahon globallashuv sharoitida davlat va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida eng muhim omil deb qaralayotgan ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Kanada, Koreya, Shveytsariya, Vengriya, Turkiya va Xitoy kabi mamlakatlarining ta’lim muassasalarida nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirish yetakchi o‘rinda turadi.

Ta’lim tizimining dunyo amaliyotida o‘qitish metodikasini individuallashtirish va kompetentsiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida o‘qitish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ta’lim sifatini oshirishning yetakchi omili sifatida qaraladi.

Bu o‘rinda nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirish metodologiyasiga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud manbalarda metodologiya tushunchasiga hodisaning turli qirralarini e’tiborga olgan holda turlicha yondashuvlar, nuqtai nazarlar bilan munosabatda bo‘lingani kabi, unga berilgan ta’riflar ham turlicha, bu ta’riflar bir-biriga ziddek tuyuladi. Falsafiy nuqtai nazardan bir narsaga berilgan xilma-xil ta’rif, baho, aslida, bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tavsiflar sifatida baholanishi lozim, ularning har birini to‘g‘ri qabul qilish uchun qaysi asosdan kelib chiqilayotganligini anglamoq va qabul qilmoq kerak bo‘ladi. Masalan, metodologiya tushunchasiga «ilmiy tadqiq metodlari haqida ta’limot, ma’lum bir fanda qo‘llaniladigan metodlar majmuasi»[Filosof. slov. 1968: 215], «bilish jarayoniga dunyoqarash tamoyillarini qo‘llash» [Stepanov, 1975: 3], «biror fanga tatbiq etiladigan tadqiqot usullarining majmui; ilmiy bilish va dunyoni o‘zgartirish metodi»[Falsafa. Qomusiy lug‘at, 2004: 258], «ilmiy metod hamda xususiy fanlar metodlari, ya’ni bilish faoliyati yo‘llari haqidagi ta’limot sifatida har qanday fan nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega»[Shermuhammedova, 2005: 211], «inson bilish faoliyatining vositalari, maqsadi va nazariy asosini aniqlab beruvchi»[Bushuy, 2007: 8], «u yoki bu falsafiy sistemaga xos bilish metodi tamoyillariga muvofiqlik, u yoki bu fan tarmog‘iga xos tadqiqot metodlari haqidagi ta’limot»[Nurmonov, 2012: 45] degan ta’riflar berilgan. Qolaversa, uning muayyan ilmiy tadqiqot sohasida ishlatiladigan xilma-xil metod, tahlil usullari majmui yoki ular haqidagi ta’limotni emas, balki o‘rganish ob’ektini qay tarzda tushunish hamda unga qanday nuqtai nazar asosida munosabatda bo‘lishni, shu bilan birga, qanday natija yoki samarani mo‘ljallashini, umuman olganda, o‘qituvchining qaysi dunyoqarash asosida ish tutishini bildirishi haqidagi fikrlar ham mavjud.

Metodologiya quyidagi uch omilning yaxlitlikda mavjud bo‘lishini taqozo qiladi: 1) tadqiq ob’ektini bilishning qaysi bosqichida (empirik yoki nazariy) tekshirayotganligi; 2) o‘rganish ob’ektiga qanday usul bilan yondashishni; 3) tadqiq obyektiga qaysi nuqtayi nazardan yondashuv, ya’ni qaysi omillarga tayanib ish ko‘rilishi nazarda tutiladi [Ernazarova, 2016, 8].

Davr taqozo qilayotgan yangi tarixiy zaruratni idrok etish, undan kelib chiqqan holda o‘rganish ob’ektiga munosabatda bo‘lish, fanning dolzarb vazifalariga mos zamonaviy metodologiya, metodlar va metodikani tanlash yoki ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasida lisoniy ziddiyatlarni tadqiq qilishdan, birliklarning lisoniy sathda mavjud bo‘lgan mavhum va «jonsiz» qarama-qarshi qutblarini zid qo‘yishdan ko‘ra ularning nutq jarayonida bog‘lanuvchi, mavhum lisoniy ziddiyatlar nafaqat so‘nuvchi, balki bir-biri bilan birlashib, hamkorlik qilib, yaxlitlik kasb etadigan jihatlariga e’tibor qaratish kuchaymoqda. Bu ijtimoiy hayotda hodisalarni dialektik miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuniga tayangan holda jonli sistemalar va ularning funktsionallashuvini o‘rganuvchi sinergetik metodologiya asosida ish ko‘rish zarurati kuchayganligi bilan belgilanadi.

Nutq insoniy ong asosida nutqiy qobiliyatning ishga solinishi, uning natijasi ta’sir qamrovining kengayib ketishi bilan belgilanadi. Nutq lisonning jonli voqelanishi va real namoyon bo‘lishidir. Unga lisoniy qonuniyatlar, lisoniy birlik va strukturaga xos barqaror belgilarning foydalanuvchi ongli faoliyati asosida, nutq yo‘nalishi va oqimi sifat hamda miqdoriga bevosita yoki bilvosita ta’sir qiluvchi nolisoniy omillar bilan qorishgan holda moddiylashuvi sifatida qaraladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida ona tilini o‘qitishni rivojlantirish kontsetsiyasining bosh yo‘nalishi, maqsad, vazifalari, mazmuni, tamoyillaridan kelib chiqqan holda tilshunoslik hamda metodika fanlarining so‘nggi yutuqlari, ulardan ta’lim oluvchilarning hayotiy ehtiyojlariga moslarini tanlagan holda ta’lim muassasalarida ona tili ta’limini amaliy jihatdan samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ona tili ta’limining mazmuniy tuzilishini, shaklini va eng asosiysi, metodologiyasini yangilash zarurati, bugungi kunda til ta’limi uchun o‘quvchilarda nutqiy (tinglab tushunish, o‘qib tushunish, so‘zlash, yozish) kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy maqsad va vazifa sifatida belgilangan. Nutqiy kompetentsiyalarni shakllantirishga asoslangan yangi metodologiya ishlab chiqilgan.

Ona tili ta’limida lingvistik kompetentsiyalarga oid bilimlarning amaliy-nutqiy kompetentsiyalar ustida ishlash asosida amalga oshirilishi yetakchi tamoyil sifatida belgilanganligi natijasida ta’lim oluvchilarning mustaqil, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvorlik kasb etishi, o‘quv materiallarini amaliy o‘zlashtirishda yordam beradigan metodik ta’minotning yaratilishi ahamiyatlidir.

O‘quvchilarining ona tilidan egallagan bilim darajasi ko‘pdan beri hammamizni tashvishga solayotgani hech kimga sir emas. Ayniqsa, o‘quvchilarning nutqiy kompetentsiyasi va ijodiy fikrlash darajasi eng asosiy muammolardan biridir. Biz ko‘p hollarda o‘quvchini daryo o‘rtasida turib suv izlayotgan shaxsga o‘xshatamiz. Daryo to‘la suv–bola chanqoq. Lug‘atlarimiz so‘zga to‘la, o‘quvchining bisotida so‘z kam. Bu holat, avvalo, ona tili ta’limi mazmuni bilan chambarchas bog‘langan.

Ta’lim mazmuni dastur va darsliklar hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarda o‘z ifodasini topadi. Ona tili fanini o‘qitishning samaradorligi juda ko‘p omillar bilan chambarchas bog‘langan. Bular ichida ona tili ta’limi mazmuni muhim va etakchi sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o‘quvchilarga “Nimani o‘qitish” masalasi bilan chambarchas bog‘liq. Ona tili ta’limidan o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko‘nikmalar tizimi to‘g‘ri belgilansa, mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati, ya’ni kompetensiyasini shakllantira olsak, “Qanday o‘qitish kerak” degan savolga javob topish mumkin. Samaradorlik ana shu ikki omil bilan bevosita aloqador bo‘lib, bir jarayonning ikki qirrasidir. Bular shu darajada bir-biri bilan bog`langanki, biri ikkinchisiz hech qanday samara bermaydi.

Umumiy o‘rta ta’limning “Ona tili” (1-11-sinf) fanining Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarda amaliy ko‘nikmalarni, nutqiy kompetentsiyalarni, ijodiy, kreativ fikrlashni rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Nazariy ya’ni lingvistik-grammatik mavzular amaliy-nutqiy mavzular, matnlar ichiga singdirilgan. Bunda ona tili butun borliqni: tabiatni, jamiyatni, fanlarni, o‘zlikni anglash va o‘rganish vositasiga aylantirilgan. O‘quvchi tilning qonun-qoidasini emas, balki har qanday vaziyatda, turli ijtimoiy munosabatlarda uni qo‘llashni o‘rganadi. Olgan bilimlari evaziga til birliklaridan foydalanish, ifodali va ravon o‘qiy olish malakasi shakllanadi, bir so‘z bilan aytganda, nutq so‘zlashga, teran fikrlashga o‘rganadi. Berilgan mavzularning hayotiyligi kundalik

faoliyat uchun zaruriy ko‘nikmalarni, nutqiy kompetentsiyalarni, ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini berishga qaratilganligi, topshiriqlarning o‘quvchi hayotida uchraydigan vaziyatlarda keng qo‘llashi nazarda tutilgan holda o‘quvchining mantiqiy fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarga e’tibor qaratilganligini alohida ta’kidlash lozim.

Nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning sifat va samaradorligini ta’minlash maqsadida o‘quvchilarning bilim, ong va tafakkurni rivojlantirish asosida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo‘llashga o‘rgatadigan kompetentsiyaviy, innovatsion yondashuvga asoslangan ta’lim tizimini jahon andozalariga to‘liq moslashtirish, strategiya, innovatsiya va sifrovizatsiya mohiyatini anglagan, islohotlar ijrosini ta’minlashga qodir bo‘lgan kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Nutqiy kompetentsiyalar ustida ishlash o‘quvchilarning o‘qish, anglash, tafakkur qilish, bunyod etish, yangi g‘oyalar, kreativlik, tashabbuskorlik kompetentligini, zamonaviy ko‘nikma va malakalarini rivojlanishiga hamda xalqaro mehnat bozorida tengdoshlari bilan barobar raqobat qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’limda tilshunoslikning ilmiy masalalariga doir qoidalar keskin qisqartirilib, uncha chuqurlashtirilmagan lingvistik ma’lumotlar tafakkur va nutq o‘stirish amaliyoti “soyasi”da bo‘lishi va unga xizmat qilishi, o‘quvchining miyasi zinhor samarasiz lingvistik qoida va idroki til qurilishiga doir mashqlar bilan band qilib qo‘yilmasligi maqsadga muvofiq [Mengliev, 211: 23]. O‘quvchiga amaliyot uchun kerak bo‘lgan ayrim qoidalarnigina berish, fikrni ifodalash usullarini, nutq sharoitiga mos ravishda qo‘llash yo‘llarini, bunga asoslangan topshiriqlarni berib, nutqiy malakalarni rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirish ona tili ta’limining asosiy maqsadidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bushuy T., Safarov. Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B.8.
2. Ernazarova M. Grammatik ma’no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitilgida. Toshkent, 2016, 158.
3. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2004. – B.258.
4. Filosoficheskiy slovar. – M.: PL, 1968. – C.215.
5. Mengliev B. Ijtimoiy buyurtma va til tadqiqi hamda ta’limi. Toshkent, 2011, 23-bet.
6. Milliy o‘quv dasturi. Toshkent, 2021.
7. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. I jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.45.
8. Stepanov Yu.S. Metodы i printsipы sovremennoy lingvistiki. – M., 1975. – S.3.
9. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. Bobomurodova A. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2012, 380.
10. Shermuhammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2005. – B.211.

“BARQAROR TARAQQIYOT -2030” DASTURI MAQSADLARINING AMALGA OSHIRILISHI MASALALARI

Shamsidinova G. D. – NavDU - Maktabgacha va BT fakultet dekani,
gulchikhra.shamsiddinova@mail.ru.

Annotatsiya: Maqolada global yuksalish davrida Barqaror rivojlanish yo‘lidagi barcha sa‘yi-harakatlar ham o‘zining ijobiy natijalarini berayotganligi, yangi asr boshlariga kelib, rivojlangan davlatlarda ekologik inqirozlarning oldini olish tadbirlariga yalpi ichki mahsulotlarning (YaIM) 1,5-2,5% ulushi sarflanishi lozim ekanligi e’tirof etilgan edi. Sanoati rivojlangan, ishlab chiqarish jarayonlarining kuchaytirilishi hisobiga, ekologik ko‘rsatkichlar ancha ayanchli holga tushib qolgan mamlakatlarda esa mazkur ko‘rsatgich 4-5% dan kam bo‘lmasligi kerakligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: “Barqaror taraqqiyot -2030” dasturining yangi 17 ta Barqaror taraqqiyot maqsadlari, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot, kislotalar, ishqorlar, tuzlar, mineral o‘g‘itlar,

polimerlar, sintetik tolalar va boshqa mahsulot turlari ishlab chiqarish, suv resurslarini tejash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik taraqqiyot, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi, tashqi siyosat, jahon savdo tashkilotiga a'zolik.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tabiatdagi mavjud ekologik muammolarni bartaraf qilish, har qanday rivojlangan mamlakatlarning kishilik jamiyatini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi 1992 - yil 2-martda BMTining a'zoligiga qabul qilinib, uning qator dasturlari va maxsus tashkilotlari: BMT Rivojlanish Dasturi, YUNEP - atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha, YUNESKO - ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha, YUNIDO - sanoat rivojlanishi hamda uning mintaqaviy komissiyalari bo‘yicha, Xalqaro meterologik tashkilot, Sog‘liqni saqlash xalqaro tashkiloti, BMT - EIK -Evropa iqtisodiy komissiyasi, FAO - oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, yer, suv, o'simlik va hayvonlardan kompleks foydalanish, ularning unumdorligini oshirish muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilot, XSST - xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti, XMT- iqlimdagi umumsayyoraviy o'zgarishlar bilan shug'ullanadigan xalqaro meteorologik tashkilot, IMKO - dengiz va okeanlaridan foydalanishning ekologik jihatlari bilan shug'ullanuvchi davlatlararo maslahat tashkiloti, EKOSOS -BMTning ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bilan shug'uilanuvchi kengashi hamda ESKATO - Tinch okeanning iqtisodiy va ijtimoiy komissiyalari tashkilotlariga a'zo bo‘ldi va hozirgi vaqtda ular bilan hamkorlikda turli amaliy ishlar olib bormoqda. 1992 - yilda Rio-de Janeyroda o‘tkazilgan BMTning "Atrof-muhit va rivojlanish masalasi"to‘g‘risidagi anjumani O‘zbekiston uchun global ekologik barqarorlikka erishish yo‘lidagi muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Dunyoda XVIII-XIX asrning buyuk biologlari ham biologiya fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, o‘simlik va hayvonlarning yashashi, hayot tarzi va tarqalishini o‘rgandilar. Mazkur davrda ekologiya fanlari ancha jadal rivojlangan, dunyoning turli burchaklarida turli olimlar tomonidan ekologik tadqiqotlar olib borilib, ularning barchasi tashqi organik olamning muvozanatini ushlash uchun xizmat qiladi.

Ekologiyaga mustaqil fan sifatida XX asrning boshlarida vujudga kelib, uning rivojlanishiga usha davr olimlaridan Byuffon M., Lamark J.B., Anton van Levinguk, Rechard Bredli, Myobius, Ernest Gekkel, A.Gumboldt, K.F.Rule, N.A.Severtsov, Ch.Darvin, A.N.Beketov, G.F.Morozov, V.N.Sukachev, V.G.Ramenskiy, K.Raunkier, Ch.Elton, M.S.Gilyarov, N.S.Serebryakov, A.Tensli, G.Odum, Yu.Odum, B.A.Keller, V.V.Alexin, V.G.Ramenskiy, A.P.Shennikov, A.F.Middendorf va boshqalarning fitotsenologiya sohasidagi ishlari umumiy biotsenologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar.

"Barqaror taraqqiyot maqsadlari" konsepsiyasi BMTning 2015 yilda bo‘lib o‘tgan Barqaror taraqqiyot mavzusidagi Rio+20 konferensiyasida dunyoga kelib, mazkur konferensiya davomida barqaror taraqqiyot konsepsiyasining uchta tamoyili: xususan, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash tamoillarini qamrab oluvchi vazifalar ham belgilab olingan edi. "Barqaror taraqqiyot -2030" dasturi yangi 17 ta Barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM)dan, yoki Global maqsadlardan iborat bo‘lib, keyingi 15 yillik davrdagi umumjahon siyosati va sarmoyalar yo‘nalishlarini belgilab beruvchi dasturlardan bo‘lib hisoblanadi. Global maqsadlar ham aynan shu vazifalarning yechimini 2030 yilga qadar topish zarurligini nazarda tutib, dunyo mamlakatlarining yetakchilari global maqsadlarni amalga oshirish maqsadida, dunyoning barcha nuqtalarida - qashshoqlikka batamom barham berishga va'da qilmoqdalar.

Asosiy qism. "Barqaror taraqqiyot -2030" dasturining yangi 17 ta Barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM)ning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

- Ekologik tamoyil- atrof muhitning musaffoligi, ona zaminning pokligi, unga xos bo‘lgan tabiiy unsurlar: suv, havo va tuproqning tarkibini ozoda saqlash, tabiatdagi ekologik muvozanatni saqlab qolish, hozirgi davrdagi eng asosiy muammolardan biri bo‘lib, har bir hududning musaffoligi nafaqat mazkur hududga xos bo‘lgan, balki tevarak atrofdagi boshqa maydonlarni ham ekologik tozaligi uchun xizmat qiladi;
- Iqtisodiy tamoyil- mamlakatlarning milliy iqtisodiyotni isloh qilish, tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo‘yicha bir qancha ta'sirchan choralar ko‘rishdan iboratdir.

• Ijtimoiy rivojlanish tamoyili- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, 2026-yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to‘liq qamrab olish;

Global maqsadlar Mingyillik taraqqiyot maqsadlari dasturi tomonidan boshlab qo‘yilgan ishlarni oxiriga yetkazib, hech bir inson taraqqiyot jarayonidan orqada qolib ketmasligini ta’minlashni nazarda tutadi. Barqaror taraqqiyot jamg‘armasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (BMTTD) tomonidan Ispaniya hukumatining boshlang‘ich sarmoya tariqasida ajratilgan mablag‘i hisobiga joriy etilgan bo‘lib, Mingyillik taraqqiyot maqsadlari bosqichidan Barqaror taraqqiyot maqsadlari bosqichiga o‘tishni ta’minlashga xizmat qiladi.

“Business Call to Action” (BCtA) nomli global tashabbusning asosiy maqsadi Mingyillik taraqqiyot maqsadlariga erishish jarayonni tezlashtirishdan iborat bo‘lib, u tijorat sohasidagi yuksalish va shu bilan birga umumiy taraqqiyot jarayoniga yordam beruvchi biznes-modellarni hayotga tadbiq etuvchi kompaniyalarni rag‘batlantirishga qaratilgandir. Hozirgi globallashuv jarayonida barcha mamlakatlarning yetakchilari qashshoqlik va tengsizlik darajasini pasaytirish hamda ona-yerimizni himoyalashga qaratilgan aniq va izchil choralarni ko‘rishga undash har birimizning burchimizdir.

BMT ning global maqsadlarni amalga oshirishda 4-maqsad: Sifatli ta’lim deb belgilab quyilgan bo‘lib, mazkur jarayonlarni amalga oshirish, o‘ziga murakkab bosqichlarni bosib o‘tishni talab etadi. O‘zbekiston respublikasida yangi kirib kelgan 2023 yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yili deb e’lon qilinib, mamlakatda mana shu maqsadlarni amalga oshirishga oid bir qator keng ko‘lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

BMT tinchlik va xavfsizlik muammolari bilan shug‘ullanishdan tashqari, aholini to‘liq sifatli ta’lim bilan ta’minlash, mavjud ta’lim muassasalarini ilmiy- texnik taraqqiyotini ta’minlab berish, dunyoviy talablarga javob beradigan yangi ta’lim muassasalarini barpo etish, aholini ish bilan ta’minlash, uning turmush darajasini ko‘tarish, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashish masalalarini hal qilishga amaliy yordam beradi. BMTning Taraqqiyot borasidagi sayi-harakatlari dunyodagi millionlab kishilarning hayotiga, farovon turmush kechirishlariga katta ta’sir ko‘rsatib, BMT o‘z faoliyatida, dunyoda mustahkam tinchlik va xavfsizlikka faqatgina insonlarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi tufayligina erishish mumkinligiga ishonch nuqtai nazariga amal qiladi. Rivojlanish jarayonida ko‘pgina yutuqlarga erishilganiga qaramay, dunyoda hanuz boylik va farovon hayot kechirish borasida ulkan nomuvofiqliklar mavjuddir. Kambag‘allik bilan kurashish, bir mamlakat ichidagi va davlatlar o‘rtasidagi tengsizlikni yo‘qotish BMTning asosiy maqsadlaridan bo‘lib qolmoqda. BMT tizimi faqat siyosiy yo‘nalishni ishlab chiqibgina qolmay, o‘z iqtisodiy hamda ijtimoiy maqsadlariga erishish uchun turli yo‘llar bilan faoliyat ko‘rsatadi, ya’ni hukumatlar bilan taraqqiyot dasturi va rejalari yuzasidan maslahatlashadi, xalqaro meyyor va standartlarni joriy qiladi. Har yili 25 mlrd dollar investitsiyalashgan jamg‘armalarni mobilizatsiya qiladi. Bunga taraqqiyot dasturini amalga oshirishga qaratilgan moliya institutlaridan tushadigan tushumlar ham qo‘shiladi.

Tabiatni muhofaza qilish, butun insoniyat manfaatlarini ko‘zlab, tabiatdan oqilona foydalanish, uni saqlash, qo‘riqlash va tabiiy boyliklarini ko‘paytirish yo‘lida davlatlar va xalqlarning ilmiy jihatdan asoslangan harakatlar majmuini amalga oshirishdan iboratdir. Bugungi kunda tabiatdagi kelib chiqayotgan ekologik muammolar hech kimga sir bo‘lmay qoldi, bu inqirozning oldini olish shu maskanda yashayotgan har bir vijdonli kishining burchi hisoblanadi.Tabiatni muhofaza qilish, yer yuzidagi butun insoniyatni baxt-saodati, kelajakda yashaydigan avlod taqdiri uchun g‘amxo‘rlik qilishdir.Bugungi kunga kelib esa tabiat boyliklari ham cheksiz emas, balki tugashi mumkinligi, ulardan tejab-tergab foydalanish kerakligini tushundilar. Tabiiy muhit va tabiiy resurslar hozirgi davrda duhyo miqyosida nihoyatda ehtiyot qilinishi kerak bo‘lgan qimmatli ijtimoiy boylikdir. Tabiiy muhit ayrim davlat fuqarolari, shuningdek, butun insoniyatning kelajakda farovon hayot kechirishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish yo‘li bilan muhofaza qilinishi lozim va buning uchun barchamiz birdek mas’ul bo‘lishimiz lozimdir.

Yer sayyorasining hozirgi qiyofasini shakllanishida tabiat va jamiyatning mutanosib rivojlanishi - koevolyutsiya deb yuritilib, mazkur jarayonlarda jamiyatning rivojlanish sur’atlari juda yuqori, tabiat evolyutsiyasi tezligi esa o‘zgarmaydi. Koevolyutsiyaga erishish uchun jamiyat o‘zining

ayrim ehtiyojlaridan voz kecha olishi lozimdir. Mazkur jarayon juda murakkab bo‘lib, unga erishish uchun insoniyatning ongi, tafakkuri va real imkoniyatlari o‘zgarishi lozim. Hozirda dunyo aholisi bunday sharoitlarga rozilik bildirishlari alohida masala bo‘lib, mazkur masala ochiq turganligi ma’qul sanaladi.

Hozirgi vaqtda tabiat va inson hayotining ekologik xavf ostida qolish jarayoni yanada murakkablashib, mushkullashib bormoqda. Atrof-muhit bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqalar muvozanatining buzilishi, insoniyatning tabiiy turmush tarziga va holatga putur yetkazmoqda. Yer yuzi tabiatining barqarorligi, turg‘unligi va uning o‘ziga xos qonunlarini insoniyat tomonidan buzilishining asosiy sabablaridan biri – bu aholi qatlamida atrof-muhit muhofazasi haqidagi bilimlarning yetishmasligi hamda tabiatning kelajakdagi ekologik holatini ko‘ra bilmasliklaridadir.

O‘zbekiston respublikasida tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlarda ko‘rsatilganidek, barcha ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim- tarbiya jarayonlari majburiy deb belgilangan edi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, litsey va kollejlarda ekologiya bo‘yicha alohida fan o‘qitilishi shart va zarurdir. Oliy ta’lim muassasalarida amal qilayotgan o‘quv rejalariga asosan “Ekologiya va atrof-muhit muhofaza qilish” fani o‘qitilayotgan edi. 2021- 2022 o‘quv yilidan boshlab esa Oliy ta’lim vazirligining buyrug‘iga asosan, respublikadagi barcha Oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejalaridagi fanlarni OTMlarni o‘zlari tanlash imkoniyati berildi. Shuning uchun ko‘pgina ta’lim muassasalari Ekologiya fanlarining o‘rniga, o‘zlarining mutaxassisligiga oid fanlarni quyib, Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining bunday tarzda tashkil qilinishi, Ekologiya fanlarning o‘qitilishiga oid ba’zi bir kamchiliklarni namoyon qiladi. Mamlakatda barqaror rivojlanish jarayoniga erishish uchun ekologik ta’lim masalalari Oliy ta’limning asosini tashkil qilishi lozimdir. Mazkur jarayonlarda barcha mutasaddilarga faqat omadlar tilaymiz.

Barqaror taraqqiyot -2030” dasturining yangi maqsadlari, 17 ta global maqsadlardan iborat bo‘lib, jamiyatni rivojlantirish nuqtai- nazaridan bir- biriga bog‘liq bo‘lgan bir necha guruhga bo‘linadi. Bular quyidagilardir:

I.Aholi turmush tarzini yuksaltirish, oziq – ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maqsadlar. (1,2 maqsadlar);

II. Aholining sihaat- salomatligini ta’minlash (3 va 5 maqsadlar);

III. Ta’lim jarayonlarini sifatini oshirishga qaratilgan (4- maqsad);

IV. Ekologik maqsadlar (6, 7,13, 14, 15 maqsadlar);

V. Iqtisodiy o‘sish va munosib mehnat sharoitlarini yaratish (7,8,9 maqsadlar);

VI. Tengsizlik va adolatsizlikni oldini olish (10,11, 12, 16, 17 maqsadlar).

Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati.

1.O‘z.R.Prezidenti SH.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiysidagi nutqini o‘rganish bo‘yicha risola.T.”Ma’naviyat”2017 y.183 b.

2.BMT Asosiy omillar.Toshkent,2001 yil.

3.BMT Yevropa iqtisodiyoti komissiyasining barqaror rivojlanish uchun ta’lim bo‘yicha strategiyasi.-T., 2007.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING DOLZARB MASALALARI

Sayfullayeva Ra’no Raufovna-
O‘zbekiston. O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori

ANNOTATSIYA maqolada o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda aqliy faoliyat usullariga o‘rgatish yo‘llari, kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullaridan unumli foydalanish, “subyekt-subyekt” munosabati, “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quv topshirig‘i” orasida hamkorlik jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: aqliy faoliyat usullari, kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish, “4 K” modeli: kommunikatsiya, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash.

ANNOTATION in the article, ways of teaching mental activity methods to increase students' vocabulary, effective use of mental activity methods such as observation, comparison, grouping,

generalization, "subject-subject" relationship, "teacher-student- the cooperation processes between the educational task" were analyzed.

Key words: methods of mental activity, observation, comparison, grouping, generalization, "4 K" model, communication, collaboration, creativity, critical thinking.

Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o‘quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta’kidlab, maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi,[1] - deb hayotiy haqiqatni asoslab berganlar.

Til o‘qitishda til va nutq hodisalarining farqiga yetmaslik ko‘pgina chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash o‘qitish metodikasi uchun o‘ta muhimdir. Chunki til birliklarining grammatik belgilarini, birikuvini va vazifasini bilishning o‘zi mazkur tildagi nutqni egallash uchun yetarli emas. Asosiy maqsad tilning grammatik qurilishi asosida nutq faoliyatini egallash bo‘lganligi sababli, mashg‘ulot materiallarini tanlash, darslarni tashkil etish ishlari o‘quvchilarning nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Ona tili o‘qitishning samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan uni adabiyot bilan bog‘lab olib borishga bog‘liq. Aslida, ona tili adabiyot darslarida ham o‘rganiladi. Masalan, badiiy asarning tilini tahlil etish davomida ba’zi grammatik shakllarning uslubiy ahamiyati, sinonimlarning nutqda tutgan o‘rni izohlanadi va hokazo; o‘quvchilar tilning turli ifoda vositalari bilan tanishib boradilar. Badiiy asar tili bo‘yicha muayyan bir izchillikda olib boriladigan ishlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi va nutqini o‘stiradi. Adabiy asarning tasviriy vositalari bo‘yicha sinfda va undan tashqari bajarilgan ishlar natijasida o‘quvchilar so‘z haqida, uning turli nutq uslubidagi o‘rni haqida kengroq tushunchaga ega bo‘ladilar. Xilma-xil ifoda jilolari tilning estetik ta’siri va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ona tili o‘rta maktab, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o‘rganiladigan barcha fanlarni puxta o‘zlashtirish uchun muhim “kalit” sanaladi. Til vositasida o‘quvchi boshqa fanlarni o‘rganadi. Barcha fanlar yuzasidan fikrni yozma va og‘zaki ravishda bayon qilish orqali u o‘z ona tiliga oid bilimlarini mukammallashtirib boradi.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit maktab ta’limi oldiga mustaqil fikrlay oladigan, har qanday o‘quv qiyinchiliklarini mustaqil yenga oladigan shaxsni tarbiyalashni bosh vazifalardan biri qilib qo‘ydi. Ona tili ta’limi oldida turgan bu asosiy vazifa o‘quvchilarda aqliy faoliyat ko‘rsatishni, kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullaridan unumli foydalana olishni talab etadi. Aqliy faoliyat usullariga o‘rgatish, avvalo, o‘quvchini ta’lim jarayonining subyekti (faol ishlovchisi)ga aylantirishni taqozo etadi. O‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishlovchisiga aylansagina, u til hodisalarini kuzatib, taqqoslab, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, muayyan belgilariga qarab guruhlarga ajratadi. Har bir guruhni qanday qilib mustaqil davom ettirish mumkinligini anglab yetadi, shaxsiy kuzatishlarga asoslanib, hukm va xulosalar chiqara oladi. O‘quvchini ta’lim jarayonining subyektiga aylanishi, o‘qituvchini bu jarayondan chetda qoldirmaydi, aksincha, uning ta’sirini kuchaytiradi. Bu murakkab jarayonda o‘qituvchi nafaqat nazoratchi, balki tashkilotchiga, bevosita o‘quvchi faoliyatining boshqaruvchisiga aylanadi. Bugungi kunda o‘quv jarayoning asosiy subyekti (faol ishlovchisi) ham o‘qituvchi ham o‘quvchidir. Dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar birdek harakatda bo‘ladi, birga izlanadi, hamkorlikda (kollaboratsiya) birga ishlaydi, o‘quvchilar guruhi namoyon bo‘ladi, yuzaga keladigan muammolarni hal etishadi, ularning yechimlarini birgalikda izlashadi. Bu o‘rinda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar guruhi “subyekt-subyekt” munosabatlariga kirishib, “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quv topshirig‘i” orasida hamkorlik o‘rnatiladi.

Bugun yaratilayotgan zamonaviy maktab darsliklari metodikasi “4 K” modeliga asoslanadi. Buning natijasida esa o‘quvchilarda muloqot, hamkorlikda ishlash, ijodiy yondashuv va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish o‘zaro chambarchas bog‘langan shunday aqliy faoliyat usullariki, ta’lim jarayoni ularning barchasini zaruriyatga aylantiradi. Ayni vaqtda bu faoliyat usullarining birortasi e’tibordan chetda qolsa, ikkinchisi ko‘zlangan natijani bermaydi. Til

1 Мирзиёев Ш. Таълим-тарбия тизими: тараққиётнинг янги босқичи муҳокамаси бўйича видеоселектор йиғилиши. 2020 йил 30 октябрь.

hodisalarini taqqoslash uchun ularni diqqat bilan kuzata olmoq, guruhlash uchun qiyoslay olmoq, xulosa va hukmlar chiqarmoq uchun kuzatilgan, qiyoslangan va guruhlanganlarni umumlashtira olmoq talab etiladi. Masalan, shaxsning xususyatini ifodalovchi so‘zlarni o‘rgatishda insonning xususiyati, uning belgilarini ifodalovchi so‘zlar aralash holda berilgan mashqdan faqat insonning xususiyatini bildiruvchi (mas, chiroyli, xushmomila, serjahl, bosiq, samimiy, o‘jar v.h) so‘zlarni bir uyaga guruhlash topshiriladi. Ayniqsa, namuna sifatida bir uyaga mansub 2-3 ta so‘zni berib, bu so‘zlar ro‘yxatini mustaqil davom ettirish, bolalarda aqliy faoliyat usullarini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

So‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini aniqlashda ham o‘qituvchi o‘quvchilarning aqliy faoliyat usullariga tayanib ish ko‘radi. O‘quvchilar oltin, temir, kumush singari modda-ma’dan nomlarining asl ma’nosini yaxshi bilishadi. Ulardan bu so‘zlarni o‘z ma’nosida va ko‘chma ma’noda qo‘llab, so‘z birikmalari hosil qilish (mas., oltin bosh, oltin kuz v. h.) talab etiladi. Shundan so‘ng qiyoslash usulidan foydalanib, ular o‘z va ko‘chma ma’noli so‘zlar singari guruhlarga ajratiladi va “so‘zning o‘z ma’nosi” hamda “so‘zning ko‘chma ma’nosi” singari tushunchalarga o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda ta’rif chiqariladi.

Berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llab gaplar tuzish, o‘qilgan badiiy asarlardan parchalar tanlab, ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni aniqlash, hayvon nomlari, o‘simlik nomlari yoki qarindosh-urug‘chilikni ifodalovchi nomlarni ko‘chma ma’noda qo‘llab gaplar qurish va matnlar yaratish singari ijodiy-amaliy ishlar ham o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga tayanib bajariladi. Ona tilidan har bir mashg‘ulot til hodisalarining tahlili bilan boshlanib, matn yaratish bilan yakunlanishi kerak.

Berilgan murojaat so‘z birikmalari qatorini davom ettirish ham o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishda o‘ta muhimdir. Agar ularga “Mehribon onajonim” yoki “Aziz otajonim” singari murojaat so‘z birikmalari berilgan bo‘lsa, bu birikmalarning har biri “mehribon onaizorim, uyqusiz tunlar hamdamim, oq sut bergan azizim, hayot bergan farishtam” yoki “tabarruk qiblagohim, padari buzurgvorim, toji sarvarim” singarilar bilan davom ettiriladi. Bu o‘rinda sinf zukkolariga qatorlarni mustaqil ravishda davom ettirish, qolganlariga esa aralash holda berilgan murojaat so‘z birikmalarini ma’no yaqinligiga ko‘ra guruhlash topshiriladi.

O‘quvchilar nutqining sinonim so‘zlarga qashshoqligi sababli, ular uchun mo‘ljallangan maxsus “Sinonim so‘zlarning izohli lug‘ati” daftarini tashkil etish hamda doimiy ravishda bu lug‘atni to‘ldirib borishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Kuzatish va guruhlashdan umumlashma hosil qilishga o‘tiladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan shu bajarilgan ishlar va oldin egallangan bilimlarga asoslangan holda uyadosh so‘zlarga ta’rif berishni so‘raydi. Ular bir uyaga mansub bo‘lgan yoki bir turdagi predmet, belgi, harakatni atab kelgan so‘zlarning uyadosh so‘zlar ekanligi xususida umumlashma hosil qiladilar. Har bir o‘quvchi uyadosh so‘zlarni bilishi, ayniqsa, matn yaratish uchun o‘ta muhimligini tushunib yetmog‘i kerak.Chunki gullarning turlarini atovchi so‘zlarni bilmay turib, “Gulzorda” mavzusida yoki qovunning uyadoshlarini bilmay, “Polizda” mavzuida matn yaratish mumkin emas. Uyadosh so‘zlar nutq uchun nodir ma’no va ifodalar xazinasi sanaladi. Har bir o‘quvchi bu boylikni to‘ldirishi uchun muttasil o‘qib - o‘rganmog‘i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Таълим-тарбия тизими: тараққиётнинг янги босқичи муҳокамаси бўйича видеоселектор йиғилиши. 2020 йил 30 октябрь.

2. Ernazarova M., Matnazarova G. Leksikologiya bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarni aqliy faoliyat usullariga o‘rgatish. Navoiy, 1996, 16 b.

3. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. Toshkent. O‘qituvchi, 1995, 128 b.

4. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: 2012, 380 b.

5. G‘ulomov A., Sayfullayeva R., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. –T.: 2023, 371b.

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASHNING LINGVOMETODIK ASOSLARI

S.Matchonov-
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlashning lingvometodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda matnni o‘qish, tushunish, qayta hikoyalash, mazmuniy bog‘liqlikni aniqlash kabi jarayonlarni shakllantirishda qo‘llaniladigan lingvistik va metodik yondashuvlar yoritiladi. Xususan, matnning til birliklari (so‘z, birikma, gap, mavzu, asosiy g‘oya) bilan ishlash orqali o‘quvchilarda leksik ko‘nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, matn ustida ishlashning bosqichlari, o‘quvchilarda tafakkur, muloqot, tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar (klaster, savol-javob, mantiqiy xarita, muammoli savollar)ning samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, matn ustida ishlash, lingvometodik asoslar, boshlang‘ich ta’lim, matnni tushunish, leksik ko‘nikmalar, metodik yondashuvlar, tafakkurni rivojlantirish.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвометодические основы работы с текстом на уроках читательской грамотности в начальных классах. В исследовании освещаются лингвистические и методические подходы, применяемые при формировании процессов чтения, понимания текста, пересказа и установления смысловых связей. В частности, обосновывается значимость развития лексических навыков учащихся через работу с языковыми единицами текста (слово, словосочетание, предложение, тема, основная идея). Кроме того, научно-теоретически раскрывается эффективность методов, способствующих формированию у учащихся навыков мышления, коммуникации и анализа (кластер, вопросы-ответы, логическая карта, проблемные вопросы).

Ключевые слова: читательская грамотность, работа с текстом, лингвометодические основы, начальное образование, понимание текста, лексические навыки, методические подходы, развитие мышления.

Annotation: This article analyzes the linguo-methodological foundations of working with texts in early grade reading literacy lessons. The study highlights linguistic and methodological approaches used to develop processes such as reading, comprehension, retelling, and identifying semantic connections. In particular, the importance of enhancing students’ lexical skills through working with textual language units (word, phrase, sentence, topic, main idea) is substantiated. The article also provides a theoretical examination of the effectiveness of methods that help develop students’ thinking, communication, and analytical competencies (cluster, question–answer, mind map, problem-based questions).

Keywords: reading literacy, text analysis, linguo-methodological foundations, primary education, text comprehension, lexical skills, methodological approaches, development of thinking.

Boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan “O‘qish kitobi” darsliklaridagi matnlar o‘quvchilarda nutq ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim vositasidir. O‘qish darslarining bosh maqsadi – bolalarga matn mazmunini to‘g‘ri anglash, ongli va ifodali o‘qish, matndagi ma’lumotni idrok etish hamda undagi voqealarga munosabat bildirish malakasini shakllantirishdir. Shu bois o‘qituvchi darsni rejalashtirishda o‘quv materialining mazmuni, dars maqsadi va o‘quvchilarning bilim hamda ko‘nikmalari darajasini inobatga oladi.

Matnni o‘qishga tayyorlash jarayonida avvalo uning mavzusi, til xususiyatlari, g‘oyaviy mazmuni va badiiy-estetik ahamiyati bilan tanishtiriladi, shuningdek, o‘quvchilarning matn asosida to‘g‘ri xulosa chiqarishiga e’tibor qaratiladi. O‘qish faoliyati nutqning bir ko‘rinishi bo‘lgani sababli, o‘quvchining fikrni aniq va ravon ifoda eta olishi uning bilim olish faolligi va ko‘nikmalarini aniqlashga imkon beradi.

Matnni anglashga qaratilgan savol va topshiriqlar o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtirishi, javob berishda muallifning iboralari va badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga undashi, nutqda yangi so‘z va iboralarni qo‘llashga yo‘naltirilishi lozim.

O‘qish darslarida matnning mazmuni asosiy o‘rinda tursa-da, uning tuzilishiga ham e’tibor berish zarur. Masalan, voqealar tasviri, tabiat manzaralari, qahramonlarning ruhiyati yoritilgan jumlalarda fe’l-kesimlarning o‘tgan, hozirgi yoki kelasi zamonda qo‘llanishini kuzatish o‘quvchilarga matnni og‘zaki bayon qilishda xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka yordam beradi. Matndagi bir mazmundagi tasvirlarda fe’llarning odatda bir xil zamonda kelishini anglash esa o‘quvchilarning o‘qish, yozuv, mazmunni idrok etish va fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.2

Shuningdek, matndagi jumlalararo bog‘lanish ham muhimdir. Odatda, bir shaxs yoki bitta voqea haqida hikoya qilinadigan matn qismlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, yangi xatboshidan boshlanadi. Dars jarayonida o‘quvchilarga matn qismlarini o‘qish yoki ko‘chirib yozish topshirig‘ining berilishi ularning diqqatini ma’lum bir maqsadga yo‘naltirishga yordam beradi.

Matn yuqorida sanab o‘tilgan belgilar asosida mazmunan tugallangan, o‘quvchida ma’lum munosabat uyg‘otishga qodir bo‘lgan yozma axborot shakli sifatida tavsiflanishi mumkin. Ammo bizning fikrimizcha, “matn” tushunchasining g‘oyaviy-nazariy talqini hali yetarli darajada to‘liq ochib berilmagan. Shu nuqtada L. Loseva tomonidan ta’kidlangan matn belgilarini quyidagilar bilan boyitish mumkin:

1. axborotning yozma shaklda berilishi;
2. mazmunining muayyan tugallikka egaligi;
3. o‘quvchida voqelikka nisbatan ma’lum munosabat uyg‘ota olishi;
4. kompozitsiya, syujet, tarkibiy tuzilma hamda tarkibiy bo‘laklar o‘rtasidagi bog‘liqlikning mavjudligi;
5. muayyan sohaga daxldor bo‘lishi;
6. aniq bir mavzu doirasida axborot taqdim etishi;
7. o‘ziga xos bayon uslubiga ega bo‘lishi;
8. ma’lum bir adresatga – masalan, o‘quvchi yoki o‘qituvchiga – yo‘naltirilganligi;
9. belgilangan maqsadga xizmat qilishi.

Matnni sintaktik nuqtai nazardan mazmun jihatidan bog‘langan gaplar majmui sifatida anglash ham to‘g‘ri yondashuvdir. Bu borada “matn murakkab sintaktik butunlikdan iborat bo‘lib, o‘zaro bog‘langan erkin gaplarning yaxlit tizimini tashkil etadi. Matnning sintaktik tahlili esa gaplar orasidagi munosabatlarni o‘rganish, matnni gapdan yirik sintaktik birliklarga – murakkab sintaktik butunliklarga bo‘lish jarayonini o‘z ichiga oladi”, degan fikrlar ham e’tiborga molikdir [4].3

Ma’lumki, savod o‘rgatish jarayonidagi o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish orqali bolalarda to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, bu davr o‘quvchilar lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini rivojlantirish, bilimini kengaytirish, tafakkurini shakllantirish, eshitish va qabul qilish sezgisini o‘stirishda mas’uliyatli bosqich sifatida alohida ahamiyatga ega.

Yangi tovush va harf o‘rganiladigan o‘qish darsining asosiy ish turlari quyidagilardan iborat:

1. **Yangi tovushli so‘zni bo‘g‘in-tovush tahlili orqali ajratish.** Bunda tovush so‘zning boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelgan holatlar misolida o‘rganiladi. So‘zni ajratishda rasm asosida o‘quvchilar tuzgan gaplardan foydalaniladi. Tovushlarni aniqlashda so‘zning sxemasi-modeli yordam beradi. Tovushlarni eshitish, talaffuz qilish, artikulyatsiyasini kuzatish va mashq qilish amalga oshiriladi.
2. **Kichik va bosh harflar bilan tanishtirish.** Bo‘g‘inlar jadvali o‘qitiladi.
3. **So‘zlarni xattaxtadan va “Alifbe”dan o‘qish.** Harf va bo‘g‘inlardan harf terish kartoni yordamida so‘z hamda gap tuzish, ularni o‘qish, so‘z ma’nosi ustida ishlash.
4. **Matnni o‘qish va tahlil qilish.** Matnni qayta o‘qish, rasm mazmuni bilan bog‘liqligini aniqlash.
5. **Savollar va rasm asosida matn mazmunini qayta hikoyalatish.** Rasm asosida mazmunni to‘ldirish, mantiqiy mashqlar yordamida lug‘atni boyitish, o‘quvchilarning nutqida qo‘llash

2 Abdullaeva Q., SHodmonova SH., Yo’ldosheva SH. Savod o’rgatish metodikasi. –T.: O’zbekiston, 1996. –80 b.
3 Bekniyazova N. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratuvchini o‘rgatish metodikasi (ta’lim o‘zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012.

ko‘nikmasini shakllantirish. Kesma bo‘g‘inlar asosida o‘qilgan va ma’nosi izohlangan so‘zlarni tuzdirish.

6. **Umumlashtirish.** Yangi harfni jadvalga qo‘yish, uning unli yoki undosh ekanini aniqlash, ilgari o‘rganilgan harflar bilan qiyoslash, tovush va harfni o‘rganish ahamiyatini tushuntirish va boshqalar.

7. **Mustahkamlash.** Bu darslarda yangi tovush va harf bilan tanishtirishdan tashqari barcha ish turlaridan foydalaniladi. Qo‘shimcha so‘zlar va matnlar bilan ishlash, matnni o‘qish va tahlil qilish, ko‘rgazmali vositalar (harf terish kartoni, magnit doska, sirli mato, rasmlar) yordamida nutq o‘stirishga e’tibor qaratiladi. Ilgari o‘rganilgan tovushlar va harflarni takrorlashga alohida e’tibor beriladi. Tarqatma materiallardan foydalaniladi.

8. **Birinchi uchragan so‘zlar bilan ishlash.** Ochiq bo‘g‘inda avval undosh, keyin unli o‘qiladi. Yopiq bo‘g‘inda esa unli bilan tugagan bo‘g‘in o‘qilib, keyingi undosh qo‘shiladi va so‘zni yaxlit o‘qish o‘rgatiladi. Yangi so‘z urg‘u qo‘yilgan holda beriladi. So‘z xattaxtada katta bosma harflar bilan yozilib, shivirlab o‘qitiladi; kesma harf va bo‘g‘inlar yordamida tuziladi.

9. **Darslikdagi syujetli rasm bilan ishlash.** O‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari asosida o‘quvchilarga rasm bo‘yicha gapirtiriladi, hikoya tuziladi, asosiy fikr ajratiladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

Yangi bo‘g‘in va so‘z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato va xattaxtada so‘zni “yasash”ning ahamiyati kattadir. O‘qish uchun xilma-xil bosma materiallardan foydalanish jarayonni yanada ongli va qiziqarli qiladi hamda malakani puxta shakllantiradi.4

Savod o‘rgatishning boshlang‘ich bosqichida bolalarni qatorni yo‘qotmaslikka, so‘zdagi keyingi harf yoki keyingi so‘zni topishda adashmaslikka o‘rgatish muhimdir. Bu vazifani xatcho‘p va tayoqcha yordamida bajarish mumkin. O‘qilayotgan qatorni kuzatib borish ko‘nikmasi o‘quvchilardan o‘rtog‘ining xatosini to‘g‘rilashni so‘rash orqali ham shakllanadi. Bu esa ularning darsga e’tiborini oshiradi.5

Demak, o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish, o‘qish sur’atini oshirish, ifodali va ongli o‘qish elementlarini shakllantirish, shuningdek, tarbiyalash — o‘qish darslarining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash o‘quvchilarning tilni ongli o‘zlashtirishi, leksik boyligining kengayishi va mantiqiy fikrlashi uchun muhim metodik jarayon hisoblanadi. Lingvometodik yondashuv matnni faqat o‘qish jarayoni emas, balki uni tahlil qilish, mazmunini anglash, mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida ko‘rib chiqadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matn bilan tizimli ishlash o‘quvchining lug‘at boyligini oshiradi, grammatik kompetensiyasini mustahkamlaydi va muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, o‘qituvchilar o‘qish savodxonligi darslarida lingvistika va metodikani uyg‘unlashtirgan holda, o‘quvchilarni matn asosida mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi texnologiyalardan foydalanishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaeva Q., Shodmonova Sh., Yo‘ldosheva Sh. Savod o‘rgatish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 80 b.

2. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. – 12–31 b.

3. Matchonov S., Bakiyeva H., Gulyamova X., Yo`ldosheva Sh., Xolboyeva G. Ona tilini o‘qitish metodikasi. – Chirchiq: 2020. – 227 b.

4. Bekniyazova N. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratuvchini o‘rgatish metodikasi (ta’lim o‘zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 6 b.

4 Mahmudov N. O’qituvchi nutqi madaniyati.– T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. – 12-31 b.

5 Matchonov Safo, Bakiyeva Hilola, Gulyamova Xolida, Yo`ldosheva Sharofat, Xolboyeva Gulnora “Ona tilini o’qitish metodikasi” Chirchiq – 2020 .227-b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA XALQARO BAHOLASHNI TATBIQ ETISHDA KITOBXONLIK MADANIYATINING O‘RNI

G.N.Qurbonova
Buxoro davlat tibbiyot instituti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-intelektual darajasini rivojlantirishda xalqaro baholash talablaridan kelib chiqib o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning intensiv shakl va metodlarini amaliyotga tadbiq etish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: *xalqaro baholash darturi, PIRLS tadqiqotlari, ma’naviy-intelektual daraja, kitobxonlik madaniyati, xalqaro talablar, standartlar.*

В данной стате рассматривается внедрение интенсивных форм и методов формирования культуры чтения у учащихся, исходя из требований международного отсенивания в развитии духовно-интеллектуалного уровня учащихся началных классов.

Ключевые слова: *международная программа отсенки, исследование ПИРЛС, духовно-интеллектуалный уровен, культура чтения, международные требования, стандарты.*

This article discusses the implementation of intensive forms and methods of forming a culture of reading in students, based on the requirements of international assessment in the development of the spiritual and intellectual level of primary school students.

Keywords: *international evaluation program, PIRLS research, spiritual-intellectual level, reading culture, international requirements, standards.*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq quyidagi xalqaro baholash dasturlari PIRLS (inglizcha – Rrogress in International Reading Literacy Study – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot)da boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish hamda ularning yutuqlari, turli ta’lim tizimlarida innovatsion jarayonlarni o‘rganish, tahlil qilish va baholash maqsad qilib olingan. Bu xalqaro baholash dasturi- boshlang‘ich ta’limda o‘qish va o‘qitishni yaxshilash va maktabdan tashqarida ta’lim olishni, ma’lumotga ega bo‘lish va o‘z hayotiy tajribasida foydalanish ko‘nikmalarini baholashni o‘z ichiga qamrab oladiMa’lumki, PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta’lim institutlari assosiatsiyasi (IEA) (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan muvofiqlashtiriladi va ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assosasiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Ushbu dasturda o‘qish savodxonligining ko‘plab o‘qish nazariyalarini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, o‘quvchining matn bilan ishlash jarayonida konstruktiv va interaktiv muloqot asosida matn ustida mushohada yuritish, o‘qish ko‘nikmalari ongli ravishda amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bunda keng qamrovli jarayon an’anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, sinfda va sinfdan tashqari o‘qish maqsadiga qaratilgan. PIRLS o‘qish maqsadlarining har birida to‘rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi: *diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish, g‘oyalar va axborotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.* Matnlar PIRLS dasturida murakkabligiga qarab, o‘rtacha 500 dan 800 tagacha, o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darajasi past bo‘lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, PIRLSda esa, taxminan, 1000 ta so‘zdan iborat bo‘lib, tanlangan matnlar uchun aniqlik va izchillik muhim mezon hisoblanadi.

Xalqaro dasturlarda ishtirok etish yosh avlodning intelektual-ma’naviy darajasini aniqlash, shu orqali natija va samaradorlikning yangi yo‘nalishlarini belgilab olishga imkoniyat yaratsa, milliy baholash tizimining yanada takomillashtirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash bilan birga ularning kreativligini va kompetentligini va o‘z navbatida ta’lim sifatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu xalqaro baholash darturi boshlang‘ich sinf

o‘quvchisini o‘ylantirishga, fikrlay olish doirasini kengaytirishda, ya’ni intellektual-ma’naviy salohiyatini rivojlantirish yo‘naltirilgan ekan, boshlang‘ich sinflarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intelektual-ma’naviy darajasini rivojlanishida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi xalqaro baholash dasturini (PIRLS) amaliyotga qo‘llash va yuqori samaradorlikka erishishning asosiy muhim omilidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-intelektual darajasini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini optimal-intensiv shakl va metodlarini tanlash, zamonaviy axborot resruslaridan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish, komponentlar, tushunchalar, ko‘nikmalar, jarayonlarni o‘rganish va baholash yo‘nalishlarini ta’minlab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma’naviy-intelektual darajasini rivojlantirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish extiyojini anglagan holda pedagogik imkoniyatlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Shu jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish madaniyatini xalqaro baholash dasturi (PIRLS) asosida baholashda ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda quyidagilarga etibor qaratish lozim:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning intelektual-ma’naviy darajasini xalaro dastur (PIRLS) asosida baholashga tayyorlashda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning optimal-intensiv shakl va metodlaridan foydalanish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning intelektual-ma’naviy darajasini rivojlantirishning uchta o‘zaro bog‘liq komponentlari- tushunchalar, ko‘nikmalar, jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xalaro dastur (PIRLS) mezonlarini bajarishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘z navbatida ta’lim sifat-samaradorligi yanada takomillashtirishga erishish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish asosida xalqaro dastur (PIRLS) ga ishtirok etish va ijobiy natijalarni qo‘lga kiritish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) da muvaffaqiyatli o‘rinlarni egallashga xizmat qiladi.

Demak, boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intelektual-ma’naviy darajasini aniqlash, balki ularning ta’lim mazmunini o‘zlashtirishlari uchun innovatsion o‘qitish usullarini tadbiq etish orqali umume’tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga munosib bo‘lishlarini ta’minlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori.

2. Ismoilov A va boshqalar Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). T.: Sharq. 2019. 92 b.

3. Mejdunarodnoe issledovanie «Izuchenie kachestva chteniya i ponimaniya teksta» PIRLS 2001. Institut strategii razvitiya obrazovaniya, Rossiyskoy akademii obrazovaniya Sentr otsenki kachestva obrazovaniya. Tetrad 1.

4. Rustamova N.R Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilari mediamadaniyatini shakllantirishning muhim yo‘nalishlari // Maktab va hayot. – Toshkent, 2017. − №3. – B. 25-28.

TEACHING PAREMIOLOGICAL UNITS TO MASTER'S STUDENTS THROUGH INTERACTIVE AND INTERCULTURAL-ORIENTED METHODS AND TECHNOLOGIES

Kuysin Tukhtaeva-
Associate professor English Linguistics Department at NavSU

Abstract

This article examines the system of teaching paremiological units (proverbs, sayings, idioms) to master's level students through interactive and intercultural-oriented pedagogical methods. The study highlights the linguistic and cultural specificity of paremiological units and the need for their systematic instruction within advanced language education. A mixed-method design was applied to investigate the effectiveness of interactive and intercultural approaches, including collaborative tasks, digital tools, simulation activities, and cross-cultural comparative techniques. The findings demonstrate that integrating intercultural communicative competence (ICC) with interactive methodology significantly enhances students' understanding, retention, and appropriate contextual use of paremiological units. Recommendations for designing a comprehensive instructional model for higher education institutions are provided.

Introduction

Paremiological units - proverbs, idioms, and sayings represent culturally encoded meanings that shape the communicative behavior of language communities. Teaching such culturally rich units is particularly important at the master's level, where learners are expected to achieve advanced proficiency and intercultural communicative competence. However, traditional instruction often focuses on literal memorization, neglecting the pragmatic and cultural dimensions essential for authentic communication.

In the context of global academic mobility, multicultural classrooms, and the increasing role of intercultural dialogue, teaching paremiological units through interactive and intercultural-oriented methods becomes fundamental. This article aims to develop a pedagogical system that integrates modern educational technologies, interactive strategies, and intercultural awareness to enhance the learning experience of master's students.

The research problem lies in the fact that, despite the growing emphasis on intercultural competence, paremiological units remain insufficiently represented in graduate-level curriculum design and teaching methodologies.

The purpose of the study is to develop and empirically validate an instructional system for teaching paremiological units to master's students through interactive, technology-enhanced, and interculturally oriented approaches. The effective teaching of paremiological units (proverbs, sayings, idioms) at the master's level relies on a set of interconnected methodological principles that address both the linguistic and cultural complexity of these units. The most essential principles include:

5. Kichik hajimdagi she’rlarni intonatsiyalarga rioya qilib yod olish va ta’sirchan qilib aytib berish.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda maktablarda kichik teatr to‘garaklarini tashkil lozim.

1.O‘quvchilarni yangi badiiy asar bilan tanishtirish.

2. Asardagi obrizlar sujtlarini o‘quvchilarga bo‘lib berish.

3. O‘quvchi ijro etayotgan obrazning haraktiri ustida to‘g‘ri ishlash

4. Ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish

Kichik teatr to‘garaklari o‘quvchilarda badiiy asarni yaxshi anglash, tasavvur dunyosini boyitish, bolada fiktni to‘g‘ri bayon qilishni oshirish, ko‘pchilikni orasiga kerganda bolalarda bo‘ladigan vaxima hurujini yo‘qotish va bolani ravon nutq bilan so‘zlay olish qobilyatini oshiradi.

Maktablarda badiiy kechalarni tashkil etish. Yosh shoirlar va yozuvchilar bilan suhbatlarni o‘tkazish. O‘quvchilarda kitob mutolasiga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otishga yordam beradi.

Maktab zallarida va sinfxonalarda kichik kitobxonlik burchaklarini tashkil etilishi, bolalarda kitobga bo‘lgan munosabatni shakllantiradi.

Ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish o‘quvchilarda oila muhitida ham badiiy asarlar mutolasiga bo‘lgan qiziqishini oshishiga xizmat qiladi.

Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiyning “Onalar maktabi” asarida

bolani dastlab oilada tarbiyalash va rivojlantirish g‘oyasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yuqotmagan. Chunki oila ta’lim tarbiyaning bosh bo‘g‘ini hisoblanib, o‘quvchida kitobxonlik madniyatini o‘stirishda oiladan boshlash, ota-onalar bilan birgalikda hamkorlikda ish olib borish zarur.

Ota-ona farzandlari bilan kitob mutola qilishi , bolada kitobga bo‘lgan mehirni oshiradi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilariga badiiy asarni ota-onasi bilan birgalikda o‘qib kilishga birish va badiiy kechalarda asarni birga so‘zlab berishi o‘quvchida kitobxonlikni shakllantiriga ko‘maklashadi.

Dunyo buyicha eng ko‘p kitob o‘qiydigan davlatlar ro‘yhati e’lon qilindi World Population Reviewning taqdim etgan ma’lumotiga ko‘ra top 5 talik AQSH, Hindiston, Buyuk, Britaniya , Fransiya va Italiya keritildi .AQSH haftasiga 7 soat yiliga 357 soat 15 kun .Hindiston haftasiga 6.55 soat yiliga 14.5 kun. Buyuk Britaniya haftasiga 6.5 soat yilliga 343 soat.Fransiya haftasiga 5.50 soat.Italiya haftasiga 5.20 soat

Mamlakatimizda ham bu borada salmoqli ishlar olib borilmoqda “ Yosh kitobxon” (2018-yil 12 may PQ-3721-son qarori) tanlovining joriy etilishi kitobxonlik madaniyatini shakillantirish birgina davlat doirasida emas balki davr talabi darajasida ko‘tarilmoqda. Maktab zallarida va sinfxonalarda kichik kitobxonlik burchaklarini yaratish. Maktablarda kichik teatr to‘garaklarni ochish bolalarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish.Ota-onalar bilan hamkorlikda izchil ish olib borish. Kitobxonlik haftaliklarni tashkil etish va kitobni ko‘p mutola qilgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib, badiiy asarlar sovg‘a qilish. Yosh shoir va yozuvchilar bilan birgalikda badiiy kechalar tashkil etish.

Kitobxonlik madaniyatini shakllanishi, har bir xalq va mamlakat ma’naviyati va madaniyatini yuksaltiradi. Mamlakat taraqiyotiga zamin yaratadi va komil inson, o‘z fikriga ega jamyatni barpo etadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni kitobxonlik madaniyati ruhida tarbiya topishi, boshlang‘ich ta’limdan boshlash bugungi kun talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyeva. D.R. “Nutq o‘stirish nazarriyasi va metodikasi “. Toshkent .2018

2. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon , demakratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent : O‘zbekiston. 2016

3. Samarqand 2025-yilda YuNESKO bosh Assambleyasining 43-Sessiyada Welcome to Samarkand

4. Q.Shodiyeva “Nutq o‘stirish uslubiyoti”. “O‘qtuvchi” nashiryot-matbaa ijodiyb uyi . Toshkent -2008

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ERTAKLARNI O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdihalimova G‘oliba-
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)
yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: dots. A.E.Botirova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida ertak janrini o‘rgatishning metodik asoslari, o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda ertaklarning o‘rni va ahamiyati, shuningdek, o‘qituvchining metodik yondashuvlarini takomillashtirish yo‘llari yoritilgan. Ertaklarni tahlil qilishda interaktiv metodlardan, muammoli savol-javob, rolli o‘yin va ijodiy topshiriqlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qish savodxonligi, ertak, metodika, boshlang‘ich ta’lim, badiiy tafakkur, ijodkorlik, interaktiv usullar, o‘qish motivatsiyasi.*

Abstract: *This article describes the methodical basis of teaching the genre of fairy tales in primary reading literacy classes, the role and importance of fairy tales in the development of students' artistic thinking, as well as ways to improve the teacher's methodological approaches. The effectiveness of using interactive methods, problematic question-and-answer, role-playing, and creative tasks was analyzed in the analysis of fairy tales.*

Key words: *reading literacy, fairy tale, methodology, primary education, artistic thinking, creativity, interactive methods, reading motivation.*

Аннотация: *В статье описаны методические основы преподавания жанра сказки на начальных занятиях по читательской грамоте, роль и значение сказки в развитии художественного мышления учащихся, а также пути совершенствования методических подходов учителя. При анализе сказок анализировалась эффективность использования интерактивных методов, проблемных вопросов и ответов, ролевых игр, творческих заданий.*

Ключевые слова: *читательская грамотность, сказка, методика, начальное образование, художественное мышление, творчество, интерактивные методы, мотивация чтения.*

Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qish savodxonligi fanining asosiy maqsadi o‘quvchilarda o‘qish, tushunish, tahlil qilish va badiiy asardan hayotiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda ertaklar o‘quvchilarning nafaqat til va tafakkurini, balki axloqiy qarashlarini, hayotiy pozitsiyasini shakllantiruvchi asosiy vositadir. Ertaklar orqali o‘quvchi yaxshilik va yomonlikni ajratadi, ijobiy fazilatlarni qadrlashni o‘rganadi, milliy qadriyatlarimizni anglaydi. Shu bois, o‘qish savodxonligi darslarida ertaklarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish — o‘quvchilarning mustaqil o‘qish, fikrlash va ijod qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur shartdir.Ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va ta’sirchan janrlaridan biridir. Ular bolalarda tasavvur, mantiqiy fikrlash, ma’naviy sezgi va nutq madaniyatini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ertak orqali: o‘qishning mazmunini tushunishga, voqealar ketma-ketligini aniqlashga, asosiy g‘oya va xulosani topishga, qahramonlarga baho berishga, ijodiy fikrlashga o‘rganadi.

Ertaklarda o‘quvchi uchun yaqin bo‘lgan hayotiy obrazlar, sodda til, takroriy syujetlar mavjudligi sababli, ular o‘qish savodxonligini shakllantirishda qulay material hisoblanadi. Shu jihatdan o‘qituvchi ertak tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarligini inobatga olishi lozim. Ertakni o‘rganish jarayoni uch bosqichda tashkil etiladi: tayyorgarlik bosqichi, o‘qish va tahlil bosqichi, hamda ijodiy yondashuv bosqichi.

a) Tayyorgarlik bosqichi.

Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiborini ertak mavzusiga qaratadi, syujetni anglash uchun kerakli so‘zlar, obrazlar va voqealarni tayyorlaydi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagini o‘rganishdan oldin o‘qituvchi “Mehr”, “adolat”, “hasad” kabi tushunchalar ustida suhbat o‘tkazishi mumkin.

b) O‘qish va tahlil bosqichi.

O‘quvchilar ertakni o‘qish jarayonida voqealar zanjirini kuzatadi, asosiy g‘oyani aniqlaydi. Bu jarayonda quyidagi metodlar samarali:

“Klaster” usuli – ertakdagi qahramonlar va ularning fazilatlarini tarmoqli tarzda tasvirlash;

“Insert” usuli – o‘qish davomida tushungan, yangi bilgan yoki tushunmagan joylarini belgilash;

“Rolli o‘yin” – o‘quvchilarning ertakdagi rollarni ijro etishi orqali mazmunni chuqur anglashiga yordam beradi.

c) Ijodiy yondashuv bosqichi.

O‘quvchilarga ertak asosida yangi yakun yaratish, yangi qahramon qo‘shish, chizmalar yoki dramatizatsiya orqali ifodalash topshiriqlari beriladi. Bu, bir tomondan, ularning ijodkorligini, ikkinchi tomondan, o‘qish savodxonligini rivojlantiradi. Ertaklarni o‘qitishda an’anaviy metodlardan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhimdir. Masalan:

- Multfilmlar asosida ertakni taqqoslash (“Qizil shapkacha” matni va animatsiyasi);
- Elektron taqdimotlar orqali ertak qahramonlari xaritasini yaratish;
- Onlayn platformalarda “Ertakni tugat” yoki “Qahramonni tanla” kabi interaktiv topshiriqlar tashkil etish.

Xalq og‘zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkirligi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko‘pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo‘shilib ketadi.Ertakning o‘tkir, maroqli sujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so‘z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir.Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochko‘z kishilar timsoli bo‘ladi. Ertakning pedagogik qiymati shundaki, o‘quvchilar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya’ni yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, vovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo‘lishini istaydilar. Masalan, „Halollik" ertagida asosiy fikr kambag‘allarga yordam ko‘rsatish, o‘z mehnati bilan hayot kechirish bo‘lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lsa, „Hiylagarning jazosi" ertagida esa soddadilning to‘g‘riligi hiylagarning makri ustidan g‘olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g‘oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to‘g‘riso‘zlilikning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g‘alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan. Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko‘nikmasini o‘stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g‘alaba qozonishiga iShonch uyg‘otadi. O‘quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida „kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)", „Nima uchun?", „... nima uchun jazolandi? (yoki rag‘batlantirildi?)", „Nima uchun ertakdagi ba’zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba’zilaridan yuz o‘giradi?)" kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib xulosaga keladilar.

Bunday yondashuv o‘quvchilarda qiziqish, tahlil qilish va fikr bildirish kompetensiyalarini kuchaytiradi. Shuningdek, milliy ertaklarni o‘rganish orqali o‘quvchilar o‘z xalqining qadriyatlari, urf-odatlari va axloqiy me’yorlarini chuqurroq anglaydi. Ertaklarni samarali o‘qitish o‘qituvchining metodik mahoratiga bog‘liq. Har bir o‘qituvchi:

o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olishi;

darsni muammoli va interaktiv shaklda tashkil etishi;

savol-javob, dramatizatsiya, munozara kabi usullarni uyg‘unlashtirishi;

badiiy asarning tarbiyaviy jihatlarini yoritib berishi lozim.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘z faoliyatida milliy va jahon tajribalarini o‘rganib, o‘z metodikasini doimiy takomillashtirib borishi zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida ertaklarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish o‘quvchilarning nafaqat o‘qish ko‘nikmalarini, balki ularning ma’naviy dunyosini, tafakkurini va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiradi. Ertaklarni o‘rganishda zamonaviy interaktiv va axborot texnologiyalarini qo‘llash, ijodiy topshiriqlarni berish orqali o‘quvchilarning o‘qishga

bo‘lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shunday qilib, ertaklarni o‘rgatish metodikasi faqat matnni o‘qish emas, balki bolada hayotiy qadriyatlarni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash va badiiy tafakkurni rivojlantirishning kuchli vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2022.

2. Yo‘ldoshev, J., Hasanboeva, O. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.

3. Nurmatova, M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

4. Qodirova, D. O‘qish savodxonligi darslarida badiiy asarni o‘rganish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

5. Shirinov, A. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. — Toshkent: Ilm ziyo, 2021.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI FAOLLASHTIRISH: GLOBAL YONDASHUVLAR VA MILLIY AMALIYOT

Allamberganova Shaxnoza Rustam qizi-
Urganch Davlat Pedagogika Instituti magistranti
+998978590623 allamberganovashaxnoza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni faollashtirish jarayonining nazariy-metodik asoslari, zamonaviy global yondashuvlar hamda O‘zbekiston ta’lim tizimidagi milliy amaliyotning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada o‘quvchilarning faol bilish faoliyatini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda o‘qituvchining fasilitatorlik roli haqida ilmiy dalillar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, boshlang‘ich ta’lim, interfaol metod, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ ta’lim, global tajriba.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методологические основы активизации учащихся на уроках родного языка в начальной школе, а также анализируются глобальные подходы и национальная практика Узбекистана. Особое внимание уделено развитию познавательной активности, коммуникативных компетенций и применению инновационных педагогических технологий.

Ключевые слова: родной язык, начальное образование, активность, инновационные методы, компетентностный подход, глобальный опыт.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations of student activation in primary school native language classes, analyzing global approaches and the national practice of Uzbekistan. Special attention is paid to the development of cognitive activity, communicative competence, and the implementation of innovative pedagogical technologies.

Keywords: native language, primary education, interactivity, competence-based approach, communicative method, global education.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim jarayonining asosiy maqsadi — o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, ijodkor va faol shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinfda ona tili darslari faqat grammatik bilimlarni o‘rgatish emas, balki o‘quvchining muloqot madaniyatini, tilni ijtimoiy hodisa sifatida anglashini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. UNESCO, OECD, va World Bank ma’lumotlariga ko‘ra, XXI asrda ta’lim tizimlarida “Active Learning” (faol o‘qitish) modeli yetakchi o‘ringa chiqmoqda [1]. Bu model o‘quvchining o‘z bilimini o‘zi kashf etishiga, fikrlash, tahlil qilish, hamkorlikda muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchini darsning markaziga qo‘ygan holda, uni faol bilish subyekti sifatida shakllantirishi zarur [2].

1. O‘quvchilar faolligini oshirishning nazariy-metodik asoslari.

O‘quvchilarni faollashtirish ta’lim psixologiyasida faol bilish nazariyasi (L. S. Vygotskiy, J. Piaget, J. Bruner) bilan asoslanadi. Unga ko‘ra, o‘quvchi passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ijtimoiy-sotsial subyektdir [3]. O‘quvchi mustaqil faoliyat olib borganda, bilim yanada chuqurroq o‘zlashtiriladi.

Ona tili darslarida faollashtirish uchun o‘qituvchi quyidagi strategiyalardan foydalanadi:

- Muammoli vaziyat yaratish (problem-based learning);
- Savol-javob orqali muloqotga jalb qilish;
- Klaster, sinkveyn, aqliy hujum kabi metodlardan foydalanish;
- Tahliliy, ijodiy yozuv mashqlari orqali tafakkurni rivojlantirish.

Bu jarayonda o‘quvchi o‘z tajribasiga asoslanib, tilning ijtimoiy-madaniy mohiyatini anglaydi va kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi [4].

2. Global yondashuvlar: innovatsion va kommunikativ ta’lim modeli.

Dunyo miqyosida Finlyandiya, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya kabi davlatlar boshlang‘ich ta’limda faol o‘quvchi modelini muvaffaqiyatli tatbiq etmoqda. Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimida darslarda o‘yin va ijodkorlik asosidagi yondashuvlar qo‘llanadi, o‘quvchi xatolardan o‘rganishga undaladi [5]. Janubiy Koreyada esa “4S” modeli (Self-study, Sharing, Speaking, Solving) asosida o‘quvchilarni faol muloqotga jalb qilish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodikasi keng tarqalgan [6]. Shuningdek, CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi orqali o‘quvchilar tilni boshqa fanlar bilan integratsiyada o‘rganadilar, bu esa ularning bilish faolligini yanada kuchaytiradi [7].

3. Milliy amaliyot: O‘zbekiston tajribasi va ta’lim islohotlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarorida “faol o‘quvchi modeli”ni rivojlantirish, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirish va ta’lim jarayonini raqamlashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [8].

Ona tili darslarida o‘quvchilarni faollashtirishda quyidagi metodlar keng qo‘llanmoqda:

- Interfaol metodlar: “Debat”, “Rol o‘ynash”, “Venn diagrammasi”, “Sinkveyn”;
- Raqamli texnologiyalar: “Kahoot”, “Quizizz”, “Wordwall”, “Nearpod” platformalari;
- Hamkorlikdagi o‘qitish: “Juftlikda ishlash” va “Kichik guruhlar bilan ishlash” metodlari.

Bu usullar o‘quvchilarda muloqot ko‘nikmalarini, ijodkorlikni, o‘z fikrini erkin ifodalashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarining mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta qurilmoqda, bunda nutqiy, axborotli, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalar birgalikda shakllantiriladi.

4. Raqamli integratsiya va o‘qituvchining yangi roli.

Raqamli transformatsiya davrida o‘qituvchining vazifasi o‘zgarib, u endi “bilim beruvchi” emas, balki “bilim jarayonini boshqaruvchi” – fasilitatorga aylanmoqda [9]. Zamonaviy ona tili darslarida interaktiv platformalar, sun’iy intellekt vositalari, onlayn lug‘atlar va mobil ilovalar o‘quvchilarni mustaqil ta’limga jalb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar yordamida o‘tilgan darslarda o‘quvchilarning motivatsiyasi 30–40% ga oshadi, faol ishtiroki esa ikki baravar ko‘payadi [10]. Bu esa O‘zbekistonning raqamli ta’lim siyosatida belgilangan “Raqamli avlod uchun raqamli ta’lim” konsepsiyasiga to‘liq mos keladi [11].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni faollashtirish jarayoni — bu murakkab, ammo zamonaviy ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi. Global yondashuvlarda o‘quvchi shaxsini markazga qo‘yish, hamkorlikda o‘qitish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, kreativ fikrlashni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy amaliyotda esa bu tajribalar bosqichma-bosqich tatbiq etilib, o‘qituvchining fasilitatorlik roli mustahkamlanmoqda. Kelgusida o‘quvchi faolligini oshirish, o‘quv jarayonini motivatsiyalash, kommunikativ yondashuvni kuchaytirish O‘zbekiston ta’lim tizimining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. UNESCO. Global Education Monitoring Report. – Paris, 2022.
2. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2019.
3. Vygotsky L. S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard Univ. Press, 1978.
4. Bruner J. The Process of Education. – Harvard Univ. Press, 1960.

5. Pasi Sahlberg. Finnish Lessons. – Teachers College Press, 2015.
6. Lee, H. Korean Education Reforms and Challenges. – Seoul, 2020.
7. Marsh D. CLIL in Europe. – Jyväskylä University Press, 2002.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-son qarori. – 2020-yil.
9. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2019.
10. Anderson T. Digital Learning in Primary Schools. – London: Routledge, 2021.
11. O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli ta’lim” konsepsiyasi. – 2022-yil.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINING LEKSIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

G‘anibayeva Bayyan Sharipbay qizi-
ChDPU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning leksik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda leksik ko‘nikmalarni rivojlantirishda psixologik jarayonlar, kognitiv rivojlanish bosqichlari, motivatsiya, xotira va e’tibor kabi omillar o‘rganiladi. Shuningdek, o‘qituvchi yordami, darsda yangi so‘zlarni o‘rgatish strategiyalari va amaliy metodlar (kontekstual o‘rgatish, takrorlash, kommunikativ vazifalar) orqali leksik bilimni mustahkamlash usullari yoritiladi. Maqola pedagoglar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: leksik ko‘nikma, pedagogik-psixologik xususiyatlar, boshlang‘ich sinflar, kognitiv rivojlanish, motivatsiya, o‘qitish metodikasi

Аннотация: В статье анализируются педагогико-психологические особенности формирования лексических навыков у учащихся начальных классов. В исследовании рассматриваются психологические процессы, стадии когнитивного развития, мотивация, память и внимание как факторы, влияющие на развитие лексических навыков. Кроме того, освещаются способы укрепления лексических знаний с помощью помощи учителя, стратегий обучения новым словам и практических методов (контекстное обучение, повторение, коммуникативные задания). Статья содержит практические рекомендации для педагогов и учителей начальных классов.

Ключевые слова: лексические навыки, педагогико-психологические особенности, начальные классы, когнитивное развитие, мотивация, методика обучения

Annotation: The article analyzes the pedagogical and psychological characteristics of developing lexical skills in primary school students. The study explores psychological processes, stages of cognitive development, motivation, memory, and attention as factors influencing lexical skill acquisition. Additionally, methods for reinforcing lexical knowledge through teacher support, strategies for teaching new words, and practical methods (contextual teaching, repetition, communicative tasks) are highlighted. The article provides practical recommendations for educators and primary school teachers.

Keywords: lexical skills, pedagogical and psychological characteristics, primary school, cognitive development, motivation, teaching methodology

Har qanday tilni o‘rganishda birinchidan, uning aspektlarini o‘rganish keyin esa, uni kommunikativ vazifasida qo‘llay olish- ta’lim jarayoning eng murakkab masalalaridan biridir.

Leksik ko‘nikmalarni shakllantirishda nazariy, metodologik hamda amaliy faoliyat psixalogik jarayonlar orqali amalga oshiriladi.

L.S.Vigotskiyning fikriga ko‘ra, til o‘rganishdagi psixologik jarayonlar harakat orqali rivojlanadi. “Fikrning so‘zga munosabati- bu fikrning so‘z ichida tug‘ilish jarayonidir, fikrdan holi so‘z o‘lik so‘zdir”-deb ta’riflaydi. Fikrlar so‘z bilan ifodalanadi, u bir marttalik jarayon yoki tug‘ma

bog‘lanish emas ba’lki, rivojlanishda paydo bo‘ladi. So‘z ongning alohida funksiyalari emas ba’lki, butun ongda markaziy ro‘l o‘ynadi. Ma’noli so‘z inson ongining mikroskomidir.7

Injilda “avval so‘z bo‘lgan” degan so‘zlariga Gyote Faust “Avval amal bo‘lgan deb javob beradi. Gutsman ham bu fikrni qo‘llab -quvvatlaydi va “so‘z inson rivojlanishining eng oliy pog‘onasi bo‘lib, hatto eng yuksak amaldan ham ustun turadi”-deb ta’riflaydi. L.S.Vigotskiy “Amallar yoki ehtiyoj natijasida motivlar (aynan nima uchun bu fikrni aytmoqchiligi) paydo bo‘ladi. Motivlar fikrga, fikrlar ichki nutqqa, ichki nutq- tashqi nutqqa aylanadi va bu zanjir teskari yo‘nalishda bo‘lishi yoki istalgan joyda uzilishi mumkin”-degan fikrni ilgari suradi..

Bu fikrni A.N.Leontyev, A.R.Luriyalar va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida ham uchratashimiz mumkin.

Tilni o‘rgatishdagi psixologik jihatlar I.A.Zimnyaya, B.B.Belyayev, K.Orazbekova, Ye.Sufiyev va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

Bu o‘quv qo‘llanmalarda chet tilini o‘qitishda psixologiyaning o‘rni, boshqa tilni o‘rganishning psixologik qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan, shu bilan birga dars samaradorligining psixologik jihatlari haqida keng ma’lumotlar berilgan.

Qaysi tilda bo‘lmasin inson o‘z fikrini ifodalash uchun lug‘at ta’rkibidan o‘ziga kerakli bo‘lgan leksik birlikni ajratib olishi kerak. Leksik birlikni o‘rgatish jarayonida o‘rganuvchilarning xilma-xilligi o‘qitish metodikasining fanlararo jarayon ekanligi isbotlaydi. O‘quvchilar shaxsiy, fiziologik va psixologik farqlari tufayli tilni o‘qitish metodikasi faqat tilshunoslik bilan cheklanmaydi. U psixologiya, fiziologiya va pedagogika bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘quvchilarning o‘qish jarayonidagi turli holatlari va motivatsion tomonlari o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. “So‘z psixologiyasi, so‘z yaratilish mexanizmlarini o‘rganish, inson psixofiziologiyasi funksiyasining rivojlanishi P.P.Blonskiy, B.G.Ananyev, S.L.Rubinshteyn, N.I.Jinking va boshqa olimlar tarafidan o‘rganilgan. Bu ilmiy ishlar nafaqat metodika fanining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi, ba’lki metodika sohasini psixologiya sohasi bilan bevosita bog‘laydi.

Psixologlarning fikriga ko‘ra, o‘quvchilarning ona tilida olgan bilimlari, tafakkur qobiliyati ikkinchi tilni o‘rganishda va nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda foydali bo‘lar ekan. Shu orqali kerakli ko‘nikmalar hosil bo‘ladi.

Olim S.L.Rubinshteyn: “Ko‘nikma ongli tarzda avtomatlashrilgan harakat shaklida namoyon bo‘ladi, keyinchalik esa harakatning avtomatlashtirilgan usuli sifatida xizmat qiladi”-deydi.

Olima F.Orazbayeva “leksikani o‘qitishda so‘zga katta ahamiyat qaratiladi”- deb, har bir so‘zni vaziyatga qarab to‘g‘ri qo‘llash orqali fikrni izchil yetkazish mumkinligini ta’kidlaydi.8

Tildagi ko‘p ma’noli so‘zlarni tushunish, tahlil qilish va to‘g‘ri tanlab qo‘llashda leksik ko‘nikmalarni shakllantirishning o‘rni juda katta. Demak, nutq faoliyati bilan tilning leksik vositalarini9 bitta tusuncha deb qaralmasa, til o‘rganishda muloqot qilishning samarali usulini aniqlash mumkin emas.10

O‘quvchilarga Samarali muloqot qilishni va rangba-rang so‘z boyligini o‘rgatish bugungi ta’lim jarayoning asosiy talabidir. Bu nafaqat lingvistik, pedagogic va psixologik jihatdan ham ahamiyatliydir.

Erishilgan leksik bilim orqali o‘qib tushinish, tushunarli va mantiqiy yozish qobiliyati va kreativlik xususiyatlari rivojlanadi. Kelajakda bu ko‘nikmalar akademik muvaffaqiyat va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni kafolatlaydi.

O‘quvchilarning psixologik xususiyatlari ya’ni kognitiv rivojlanish bosqichlari, diqqatining davomiyligi, xotira kuchi va emotsional faolligi- leksik bilimni qabul qilishda, qayta ishlashda va o‘zlashtirish jarayonida bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan o‘qitish strategiyalari, metodlari va texnologiyalari o‘quvchilarning psixologik xususiyatlariga mutanosib

7 Выготский Л.С. Мышление и речь. Изд. 5, испр. – М.: Издательство «Лабиринт», 1999. – 352 с

8 Оразбаева Ф.Ш. Тілдік қатынас: теория және әдістемесі. – А.: Білім, 2000. – 208 б.

9 nutqda fikrni ifodalash uchun ishlatiladigan so‘z va so‘z birikmalari majmui, ya’ni tilning so‘z boyligi orqali muloqot qilish vositalaridir.

10 А.Н. Ораз қазақ тілін оқытуда лексикалық дағдыларды қалыптастырудың әдістері(қазақ тілінде оқытпайтын сыныптарда) ясауи университетінің хабаршысы, №2 (128), 2023 411-b.

bo‘lmog‘i kerak. Shundagina lug‘at zahirasini kengaytirish va leksik ko‘nikmalarini shakllantirishga erishish mumkin. 11

Psixolog L.S.Vygotskiy o‘zining ilmiy ishlarida bolalarning aqliy funksiyasi, tili va tafakkuri rivojida ijtimoiy ta’sirning ahamiyatini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, yaqin rivojlanish funksiyasi (ZDP) bolalarning o‘qituvchi yordamida yangi so‘zlarni o‘rganishida muhim o‘ringa ega. Ya’ni bolaning hozirgi mustaqil ishni bajara olishi uning potensiyalini bildirmaydi, ba’lki o‘qituvchi yordami (yo‘naltitilgan yordam) orqali ko‘proq ishlar bajarishi mumkinligini psixologik nuqtayi nazardan asoslab bergan.

J.Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari haqidagi nazariyasi bolalarning yosh hususiyatlariga ko‘ra leksik birliklarni idrok etishi, tasniflashi va xotirada saqlab qolish qobiliyatini tadbiq etadi. Nazariyaga ko‘ra bolalar predmet yoki tushunchaning tuzilishini o‘rganadi va yetarli fikr paydo bo‘lganidan keyin bu narsaning nomini, so‘zni o‘rganishadi12.

L.S.Vygotskiy bolalarning o‘qituvchi yordamida avval so‘zni o‘rganishi fikrlarning rivojlanishini ta’minlaydi desa, J.Piagmet fikr rivojlanib, so‘zga aylanadi deb izoh beradi. Har ikkala taraf ham so‘zlarni o‘rganish jarayonida amalga oshadi. Chunki dastlab bola predmet yoki tushunchaning tuzilishini o‘rganish orqali yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi. Maktab yoshida esa o‘qituvchi (yo‘naltitilgan yordam) orqali o‘rgangan so‘zlardan fikr va tushunchalarni hosil qiladi va o‘rganadi.

Dars davomida o‘quvchilarga matndagi yangi so‘zlarni qaysi vaqtda o‘rgatish kerak degan savolga I.Beck va boshqa olimlar matnni o‘qish davomida o‘rgatish maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan. Chunki bola matn mazmunini tushunishda qiyinchilik tug‘diradigan so‘zlarni bilib ketadi. Matn so‘ngida esa yangi so‘zlar ustida ishlaydi. Kontekst ichida qayta takrorlash orqali doimiy xotiraga o‘tkazadi. Ba’zan o‘qituvchilar yangi so‘zlarni o‘rgatish maqsadida dars boshida yangi so‘zlarning ma’nosini o‘quvchilardan so‘rab ko‘rish orqali ba’zi xatolarga duch keladi. Chunki o‘quvchilar bu so‘zni bilmasligi mumkin va taxminiy javoblar berish orqali qimmatli vaqtlari sarflanadi. Ikkinchidan, o‘quvchilar noto‘g‘ri berilgan ma’no bilan bo‘g‘langan tasavvurlarni eslab qoladi va to‘g‘ri ma’noni eslab qolishi qiyinlashadi. Bu fikrlar ingliz olimlari Roediger va McDermottlarning “False Memory Paradigm” nomli tadqiqotlarida o‘z isbotini topgan.

Shu bilan birga, A.Baddeleyning ham ishchi xotira haqidagi taqdqiqotlar xotira va e’tibor so‘z boyligini egallashda muhim ahamiyat kasb etishini isbotlagan. Uning ta’kidlashicha fonologik xotirasi kuchli bo‘lgan o‘quvchilar yangi so‘zlarni samaraliroq o‘zlashtiradilar va uzqo muddat xotiralarda saqlaydilar.13

E.Deci va R.Ryanlarning motivatsiya va ichki rag‘bat haqidagi izlanishlarida o‘quvchilarning leksik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarishga undovchi psixologik omillar haqida yoritadi.14

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, leksik ko‘nikmalarni shakllantirishda pedagogik va psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning kognitiv rivojlanish bosqichlari, xotira va e’tibor kuchi, ichki motivatsiyasi dars samaradorligini belgilaydi. Leksik bilimni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi yordami va amaliy metodlarning qo‘llanilishi muhimdir. Shu orqali o‘quvchilarda nutq va kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanadi, o‘qib tushunish, ifodali va mantiqiy yozish qobiliyatlari oshadi, akademik muvaffaqiyat va o‘rganishga qiziqish mustahkamlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. Изд. 5, испр. – М.: Издательство «Лабиринт», 1999. – 352 с.

2. Оразбаева Ф.Ш. Тілдік қатынас: теория және әдістемесі. – А.: Білім, 2000. – 208 б.

11 Qurbonova Baxtixon Qo'chqarboyevna va Erkinova Nazokatxon Anvarjon kizi “Psychological and pedagogical features of developing lexical knowledge in primary grades” Psychological and pedagogical features of developing lexical knowledge in primary grades.2025.122.p

12 Piaget, J. (1952). The origins of intelligence in children. International Universities Press.

13 Baddeley, A. D. (1992). Working memory. Science, 255(5044), 556–559.

14 Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227–268.

3. А.Н. Ораз. Қазақ тілін оқытуда лексикалық дағдыларды қалыптастырудың әдістері (қазақ тілінде оқытпайтын сыныптарда). – Ясауи университетінің хабаршысы, №2 (128), 2023, 411-б.

4. Qurbonova B.Q., Erkinova N.A. Psychological and pedagogical features of developing lexical knowledge in primary grades. – 2025, 122 p.

5. Piaget, J. The origins of intelligence in children. – International Universities Press, 1952.

6. Baddeley, A. D. Working memory. Science, 255(5044), 556–559, 1992.

7. Deci, E. L., & Ryan, R. M. The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227–268, 2000.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI DIDAKTIK O‘YIN-TOPSHIRIQLAR ORQALI AQLIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

Badalova Baxtiniso Xamdulloyevna-
Karmana tumani 12-maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ta’limning samaradorligini oshirishda didaktik o‘yinlarning roli, ularning o‘quvchilarning aqliy, jismoniy, psixologik va nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati hamda “Galereyani aylanish”, “Insert” kabi didaktik o‘yinlar, o‘quvchilarning mustaqil bilim egallashi va fikrlash faoliyatini rivojlantirish usullari, ularni hayotiy tajriba va o‘quv dasturlariga mos qo‘llash imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so‘z: didaktik o‘yin, aqliy faoliyat, metodika, pedagogik texnologiya,o‘quv ko‘nikmalar, interaktiv ta’lim.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ЧЕРЕЗ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГРЫ И УПРАЖНЕНИЯ

Аннотация: В статье рассматривается роль дидактических игр в повышении эффективности образовательного процесса и их значение в развитии у учащихся когнитивных, физических, психологических и речевых навыков. Также обсуждаются конкретные дидактические игры, такие как методы «Галерея» и «Insert», стратегии поощрения самостоятельного усвоения знаний и критического мышления у учащихся, а также исследуются возможности их практического применения в реальных жизненных ситуациях и в рамках учебных программ.

Ключевые слова: *Дидактическая игра, познавательная деятельность, методика , пдагогическая технология, учебные навыки, интерактивное обучение.*

ENHANCING COGNITIVE DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH DIDACTIC GAMES AND EXERCISES

Abstract: The article examines the role of didactic games in enhancing the effectiveness of the educational process and their importance in fostering students’ cognitive, physical, psychological, and verbal skills. It also discusses specific didactic games, such as the “Gallery Walk” and “Insert” techniques, as well as strategies for promoting independent learning and critical thinking among students, and explores their practical application within real-life contexts and educational curricula.

Key words: *Didactic game, cognitive activity,* m*ethodology,* p*edagogical technology, learning skills, interactive learning.*

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta’limi tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlar “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ko‘rsatib o‘tilgandek, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldiga muhim vazifa qo‘yilmoqda bu vazifalar boshlang‘ich ta’lim uchun xos bo‘g‘inlarni ajratish imkonini beradiki, bu bo‘g‘inlar xilma xil o‘quv fanlari dasturlarida, o‘quv rejalarida, darsliklarda, ta’limning joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilishi mumkin.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytgan jumlalarini keltirib o‘tishimiz mumkin: ‘‘Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimlı bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muommolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab quvvatlaydi. 15

Bolaning o‘quv faoliyatini rivojlantirishda turli o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘yin orqali o‘z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o‘zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayoning samaradorligini oshiradi, ta’lim jarayonida o‘quvchilar faolligini, o‘qish motivlarini rivojlantiradi. O‘quv motivlari ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o‘rin tutadi. Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinflarda ta’limning samarali bo‘lishiga, o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya’ni didaktik o‘yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o‘quvchilarning qiziqishlari ortadi.

Metodika va didaktika uzviy bog‘liqdir. Metodika deganda bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tushuniladi. Didaktika va metodikaning maqsadi: ta‘lim berish, o‘qitish, o‘rgatishni amalga oshirishdir. Didaktika ‘nimani? va nima uchun? o‘qitish kerak degan savollar bilan shug‘ullansa, metodika esa u bilan uzviy bog‘liq holda qay tarzda, qanday? va nimalar yordamida o‘qitish? lozim masalalari bilan shug‘ullanadi. Didaktikaning an‘anaviy qanday o‘qitish kerak? degan savoli bizni o‘qitish metodlari kategoriyasiga olib keladi. Metodlarsiz qo‘yilgan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. U qo‘yilgan maqsad bilan natijani bog‘laydi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi o‘quv predmetlarining mazmunidan, o‘quvchilarning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda metod, usul va o‘qitish vositalarini tanlaydi. ***“Metod”*** yunoncha ***“metodos”*** so‘zidan olingan bo‘lib, ***“bilish va tadqiqot yo‘li”, “nazariya”, “ta‘limot”****16* kabi ma‘nolarni bildiradi17.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta‘lim tarbiya jarayonida asosan o‘quvchlarda ta‘lim olish motivlarini ularning turli yo‘nalishdagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Bolalar tarbiyasida didaktik o‘yinlardan ikki yo‘nalishda: baramol insonni shakllantirish va tor didaktik maqsadlarda foydalaniladi. O‘yin o‘qituvchi faoliyatining asosiy shaklidir. O‘yin muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchining turli-tuman qobiliyatlari, idroki, nutqi va diqqatining rivojlanishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Didaktik o‘yinlarni uch turga ajratish mumkin; og‘zaki, so‘zlar yordamida o‘y naladigan o‘yinlar, o‘yin mashg‘ulotlari, mashq(harakatli) o‘yinlar.

“Galereyani aylanish” didaktik o‘yini. Bu didaktik o‘yin ‘‘Pinbord’’ didaktik o‘yiniga o‘xshash tarzda o‘tkaziladi. Kichik guruhlarga 1 ta muammo taklif etiladi. Har bir guruh 10 minut davomida o‘z fikrlarini o‘zining rangli markerida yozadi-da, javob yozilgan varaqlarni 2-guruh bilan almashtiradi. Keyingi guruh oldingi guruhning javoblarini baholashi va javob to‘liq bo‘lmasa, o‘z javobi bilan to‘ldirishi kerak. Javoblar yozib bo‘lingach, flipchaterlar doskaga osib qo‘yiladi va guruhlar bilan birgalikda muhokama qilinadi. Har bir o‘quvchi flipchaterlardagi javoblarni ko‘rishi, o‘rganishi va baholashi mumkin.

“Insert” didaktik o‘yini. Bu didaktik o‘yin samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interaktiv tizimidir. U o‘quvchilarning bilimlarini tekshirishga, fan yoki mavzu bo‘yichaqay darajada bilimga ega ekanligi, qaysi bilimlarga ko‘proq e‘tibor berish kerakligi haqida ma‘lumot olishga mo‘ljallangan. Bu didaktik o‘yin pedagogga o‘quv materialini o‘zlashtirish va

15 Sh.Mirziyoyev ‘‘ Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – faravon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir’‘ T.- ‘‘ O‘zbekistonv-2018 31-b

16 O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 5-jild, 2003. 613-bet.

17 A.g’ulomov, M. Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova Ona tili o‘qitish metodikasi -T:„ Fan va texnologiya’’

mustahkamlash borasidagi qator muammolarni hal qilishga yordam beradi. O‘quvchilarga matn bilan, kitob bilan mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirish xususiyatiga ham ega.

Ushbu didaktik o‘yin ikki xil usulda qo‘llanilishi mumkin. O‘quvchilarga mavzuning tayyor matni tarqatiladi va ular mavjud bilimlaridan kelib chiqqan holda, matnda quyidagi belgilarni belgilab chiqadilar.

Matnda belgilash tizimi:

- men buni bilaman

+ men uchun yangi axborot

- to‘g‘ri kelmadi, mening bilganlarimga qarama-qarshi

? men uchun noma‘lum, tushunmadim, menga qo‘shimcha axborot kerak

Ikkinchi usuli o‘quvchilarga tayyor jadval beriladi. Ular avval egallangan bilimlaridan kelib chiqqan holda fan yoki mavzu bo‘yicha tushuncha va atamalarni jadvalga belgilab boradilar.

- men buni bilaman

+ men uchun yangi axborot

-to‘g‘ri kelmadi, mening bilganlarimga qarama-qarshi

? men uchun noma‘lum, tushunmadim, menga qo‘shimcha axborot kerak

Xulosa qilob aytganda bolaning o‘quv faoliyatini rivojlantirishda turli o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘yin orqali o‘z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o‘zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlarning roli beqiyosdir.

Adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev ‘‘ Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – faravon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir‘‘ T.- ‘‘ O‘zbekistonv-2018 31-b

2. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 5-jild, 2003. 613-bet.

3. A.G‘ulomov, M. Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova Ona tili o‘qitish metodikasi -T:,, Fan va texnologiya’’

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA IQTISODIY RESURSLAR TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK OMILLARI.

Zaynutdinov Ismoil Samariddin o‘g‘li-
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Iqtisodiyot va menejment kafedrasi v.b. dotsenti, PhD
+998942270000
ismoil_zaynutdinov@tsuos.uz

Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li-
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
+998889099293
shohruh_mardonov@tsuos.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda iqtisodiy resurslarni taqsimlash samaradorligi tahlil qilinadi. Ta’lim tizimining iqtisodiy infratuzilmasi, byudjet mablag‘larining maqsadli yo‘naltirilishi hamda ta’lim jarayoniga xususiy sektorni jalb etish mexanizmlari o‘rganiladi. Shuningdek, global tajriba asosida resurslardan oqilona foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish omillari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, iqtisodiy resurslar, samaradorlik, ta’lim sifati, byudjet siyosati, inson kapitali.*

1. Kirish.

Boshlang‘ich ta’lim inson kapitalini shakllantirishning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1: 45]. Ta’lim sifati qanchalik yuqori bo‘lsa, kelajakdagi mehnat unumdorligi va innovatsion salohiyat shunchalik oshadi

[2: 61]. Shu bois boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida so‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, maktablarni jihozlash, o‘qituvchilar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha sezilarli mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Biroq resurslar taqsimoti hamisha ham natija bilan bog‘lanmagan: mablag‘lar ko‘proq infratuzilmaga yo‘naltiriladi, o‘quv sifatini bevosita belgilovchi omillar – o‘qituvchi malakasi, darslik sifati, raqamli ta’lim muhitining mavjudligi – yetarli darajada moliyalashtirilmay qoladi [3: 92].

Ilgari olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish rentabellik va barqarorlikka olib kelishi isbotlangan. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini samarali boshqarish foyda marjasini oshirishi mumkinligi ko‘rsatilgan [4: 101]. Moliyaviy aktivlarni to‘g‘ri tasniflash va boshqarish esa tashkilotning umumiy barqarorligini ta’minlaydi [5: 47]. Ushbu yondashuvni ta’lim tizimiga moslashtirish shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda ham mablag‘ nafaqat qancha ajratilgani, balki u qanday sarflanayotgani va qanday natija berayotgani bo‘yicha baholanishi kerak.

2. Adabiyotlar sharhi.

Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish va uning iqtisodiy asoslarini tahlil qilish masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda o‘rganilgan. Jahon tajribasida inson kapitali nazariyasi ta’limni iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida talqin etadi. G. Bekker (1993) ta’limga qilingan har qanday investitsiyani inson kapitaliga sarmoya sifatida baholab, bu sarmoya mehnat unumdorligi va milliy daromadning o‘sishiga olib kelishini ta’kidlaydi [1: 45]. Shunga o‘xshash xulosalar OECD (2021) va UNESCO (2023) hisobotlarida ham qayd etilib, boshlang‘ich ta’limning sifatini oshirish uchun resurslarni adolatli taqsimlash va natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish muhimligi ko‘rsatilgan [2: 78].

Jahon bankining (2022) “Uzbekistan Education Sector Analysis” hisobotida mamlakatda ta’lim sohasiga yo‘naltirilayotgan mablag‘larning hajmi ortgani, biroq ularning samaradorligi bo‘yicha tahliliy mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagani ta’kidlanadi [3: 91]. Mazkur holat O‘zbekiston ta’lim tizimida iqtisodiy resurslarni taqsimlashda nazorat va natijadorlik baholash tizimlarini kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlar ichida Zaynutdinov I. S. tomonidan olib borilgan ishlar alohida e’tiborga loyiq. 2021 yilda muallif “Analysis of the Effectiveness of Receivables Management” nomli maqolasida moliyaviy oqimlarni tahlil qilishning samarali usullarini ishlab chiqib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy resurslarning aylanish tezligi muhim ahamiyatga ega ekanini ilmiy asoslab berdi [4: 89].

Mavjud adabiyotlar ta’limning iqtisodiy samaradorligi masalasi global miqyosda dolzarb ekanligini tasdiqlaydi. Biroq boshlang‘ich ta’lim darajasida resurslar taqsimotining iqtisodiy mexanizmlarini mahalliy sharoitda modellashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Shu bois ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga, ya’ni ta’lim resurslari taqsimotining iqtisodiy tahlilini ishlab chiqishga qaratilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda iqtisodiy resurslar taqsimoti va samaradorlik omillarini tahlil qilish uchun **tizimli, qiyosiy va empirik yondashuvlar** qo‘llanildi.

Birinchidan, **tizimli tahlil metodi** yordamida ta’lim tizimining moliyaviy, tashkiliy va ijtimoiy tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganildi. Bu yondashuv orqali iqtisodiy resurslar taqsimoti bilan ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar orasidagi sabab-oqibat munosabatlari aniqlangan [1: 45].

Ikkinchidan, **qiyosiy tahlil** usuli asosida Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va O‘zbekistonning boshlang‘ich ta’limdagi moliyalashtirish modellari solishtirildi. Qiyosiy yondashuv global tajribadan samarali elementlarni mahalliy sharoitga moslashtirish imkonini berdi [2: 78].

Uchinchidan, **empirik tahlil** metodlari orqali O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi va Jahon banki ma’lumotlari tahlil qilindi. Ushbu statistik bazalar asosida ta’lim sohasiga yo‘naltirilayotgan mablag‘larning dinamikasi, hududlar kesimidagi taqsimoti va natijadorlik darajalari o‘rganildi [3: 91].

To‘rtinchidan, muallifning avvalgi ilmiy ishlari metodologik asos sifatida foydalanildi. Jumladan, 2021 yilgi ishda ishlab chiqilgan **debitorlik qarzlarini boshqarish modeli**, 2022 yilda taklif etilgan **moliyaviy aktivlar tasnifi tizimi**, hamda 2023 yilda ishlab chiqilgan **pul oqimlarini samarali boshqarish konsepsiyasi** ushbu tadqiqotda **“Resurs – Sifat – Natija”** modelini ishlab chiqishda asos bo‘ldi [4: 89; 5: 47; 6: 101].

Metodologik jihatdan tadqiqot **“iqtisodiy samaradorlik = resurs / natija”** formulasiga tayanadi. Bu formula asosida ta’limga yo‘naltirilgan mablag‘larning ta’lim sifatiga ta’siri o‘lchandi va boshlang‘ich ta’lim tizimida natijaga yo‘naltirilgan moliyaviy boshqaruv mexanizmi ishlab chiqildi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi ta’lim iqtisodiyoti, resurslarni boshqarish nazariyasi va inson kapitali kontsepsiyasini uyg‘unlashtirishga asoslangan bo‘lib, u keyingi tahlil va muhokama bo‘limlarining ilmiy asosini tashkil etadi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda iqtisodiy resurslarning to‘g‘ri taqsimlanishi eng muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti tahliliga ko‘ra, 2024 yilda umumiy ta’lim tizimiga yo‘naltirilgan mablag‘larning qariyb **26,4 foizi** ta’lim sohasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa-da, bu mablag‘larning atigi **7,8 foizi** boshlang‘ich bosqichga yo‘naltirilgan [1: 45]. Bu esa resurslar taqsimotining nomutanosibligi va samaradorlik ko‘rsatkichlarining pastligiga olib kelmoqda.

Resurslar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ajratilgan mablag‘larning 68 foizi o‘qituvchilar ish haqi va ijtimoiy to‘lovlarga sarflanadi, 22 foizi infratuzilma va ta’mirlash ishlari uchun, atigi 10 foizi esa o‘quv-uslubiy vositalar, darsliklar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun yo‘naltirilmoqda [2: 61]. Bu holatda ta’lim natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi resurslar ulushi juda past.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich ta’limda iqtisodiy samaradorlikni baholashda **“Resurs – Sifat – Natija” modeli** eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Ushbu model bo‘yicha o‘quvchilar savodxonligi darajasi (PIRLS mezoni bo‘yicha) bilan bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan xarajat o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti **r = 0,63** ni tashkil etdi, bu o‘rtacha ijobiy bog‘liqlikni bildiradi. Ya’ni, mablag‘lar oqilona taqsimlanganda ta’lim sifati sezilarli oshadi.

Muallifning 2023 yildagi tadqiqotida aksiyadorlik jamiyatlarida **pul oqimlarini boshqarish samaradorligi** foyda marjasini 12–15 foizgacha oshirganligi aniqlangan [3: 101]. Ushbu modelni ta’lim tizimiga moslashtirib, moliyaviy resurslarning qaytish darajasi (ROI – Return on Investment) o‘rganilganda, samarali boshqaruv sharoitida ta’limga sarflangan har 1 milliard so‘m **1,3 milliard so‘mlik ijtimoiy-iqtisodiy qiymat** yaratishi mumkinligi hisoblab chiqildi.

Finlyandiya va Singapur tajribalarida resurslar taqsimoti natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (Result-Based Budgeting) tamoyiliga asoslanadi [4: 78]. Ushbu mamlakatlarda o‘qituvchilar malakasini oshirishga ajratilgan xarajatlar umumiy ta’lim byudjetining **15–20 foizini** tashkil etadi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich **7–8 foizdan oshmaydi**, bu esa o‘qituvchi kompetensiyasining resurs samaradorligiga bevosita ta’sirini cheklaydi.

Hududiy tahlil natijalariga ko‘ra, poytaxt va viloyatlar o‘rtasidagi ta’lim resurslari taqsimotidagi tafovut 1,8 baravarga teng. Masalan, Toshkentda bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan yillik xarajat **7,2 mln so‘m**, Qashqadaryoda esa **4,1 mln so‘m**ni tashkil etadi. Bunday nomutanosiblik ta’lim sifatining hududlar kesimidagi farqlarini kuchaytiradi [5: 47].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Resurslarning faqat hajmi emas, balki **ularning tuzilmasi va yo‘nalishlari** ham muhim. Muallifning oldingi ilmiy ishlari [3; 5; 6]da ishlab chiqilgan pul oqimlari va aktivlarni boshqarish yondashuvlari asosida ta’lim tizimida ham natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv modelini tatbiq etish samarali natijalar beradi.

Demak, boshlang‘ich ta’lim tizimida iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi shartlar muhim:

1. Moliyalashtirishni natijaviy ko‘rsatkichlarga bog‘lash;
2. O‘qituvchilar malakasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushini oshirish;
3. Hududlar kesimidagi resurs taqsimotini balanslash;
4. Davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish;
5. Xarajatlar monitoringi va natija auditi tizimini joriy etish.

5. Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish jarayonida iqtisodiy resurslarning hajmidan ko‘ra ularning **oqilona taqsimlanishi va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvi** muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimiga ajratilayotgan mablag‘larning samaradorligi ko‘p hollarda ularni qanday sarflashga bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi malakasi, o‘quv-uslubiy ta’minot va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar eng yuqori qaytish (ROI) darajasini beradi.

Resurslardan foydalanishda mavjud nomutanosibliklar (hududlar o‘rtasidagi farqlar, infratuzilma ustuvorligi, o‘quv jarayoniga bevosita ta’sir qiluvchi xarajatlarning kamligi) ta’lim sifatining izchil oshishiga to‘siq bo‘lmoqda. Shu sababli, ta’lim iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda “Resurs – Sifat – Natija” modeli asosida moliyaviy monitoring tizimini joriy etish zarur.

Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlashga yo‘naltirilgan xarajatlar ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, bu yo‘nalishdagi moliyalashtirish ulushini kamida **15 foizgacha** oshirish, xalqaro tajribada qo‘llaniladigan **doimiy kasbiy rivojlanish (CPD)** tizimini joriy etish zarur.

Hududlar o‘rtasidagi moliyalashtirish tafovutlari ta’lim sifati tengsizligiga olib kelmoqda. Shu bois, **“Hududiy ta’lim fondi”** tashkil etilib, kam ta’minlangan hududlarga qo‘shimcha resurslar ajratish mexanizmini yo‘lga qo‘yish lozim.

Mablag‘larning ma’lum qismini raqamli o‘quv vositalari, onlayn ta’lim platformalari va elektron baholash tizimlarini rivojlantirishga yo‘naltirish ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu jarayonda xalqaro tashkilotlar (UNESCO, World Bank) grantlarini jalb qilish maqsadga muvofiq.

Boshlang‘ich ta’limda davlat-xususiy sheriklik (PPP) loyihalarini yo‘lga qo‘yish orqali darsliklar, laboratoriya uskunalari va raqamli kontent ishlab chiqishda xususiy investorlarni jalb etish mumkin. Bu ta’lim tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Har bir ta’lim muassasasida **“Efficiency Index”** yoki **“Resurs – Natija”** modeli asosida o‘z faoliyati natijasini moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan baholovchi ichki tahlil tizimi yaratilishi lozim. Bu tizim har bir maktab uchun shaffof va solishtiriladigan moliyaviy monitoringni ta’minlaydi.

Resurslardan foydalanish samaradorligini nazorat qilish uchun Xalq ta’limi vazirligi huzurida **mustaqil iqtisodiy tahlil markazi** tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Markaz ta’lim sifatini moliyaviy samaradorlik mezonlari bilan bog‘liq holda baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Becker, G. S. (1993). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*. – Chicago: University of Chicago Press. – 412 b.
2. OECD. (2021). *Education at a Glance 2021: OECD Indicators*. – Paris: OECD Publishing. – 487 p.
3. UNESCO. (2023). *Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education*. – Paris. – 264 p.
4. World Bank. (2022). *Uzbekistan Education Sector Analysis*. – Washington, DC: World Bank Group. – 198 p.
5. Samariddinovich, Z. I. (2021). *Analysis of the Effectiveness of Receivables Management*. *American Journal of Economics and Business Management*, 4(7), 86–92.
6. Samariddinovich, Z. I. (2023). *Ways to Increase Profit Margins through Effective Cash Flow Management in Joint Stock Companies*. – *American Journal of Economics and Business Management,* 5(3), 112–120.
7. Zaynutdinov, I. (2022). *МОЛИЯВИЙ АКТИВЛАРНИНГ ТАСНИФЛАНИШИ ВА УЛАРНИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРИШНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ЭЛЕМЕНТЛАРИ*. *Архив научных исследований*, 2(1).
8. Rahimov, M. (2020). *Ta’lim iqtisodiyoti asoslari*. – Toshkent: TDYUI nashriyoti. – 328 b.
9. OECD & World Bank. (2020). *Effective Financing of Education Systems in Developing Countries*. – Paris–Washington. – 232 p.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI NUTQIY SAVODXONLIGI METODOLOGIYASINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Jo‘rayeva Turg‘unoy Umarjonovna-
Namangan davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim innovatsiyalari kafedrasi o‘qituvchisi (PhD),

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy savodxonlikni integrativ yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Muallif zamonaviy ta’limning strategik talabi sifatida nutqiy savodxonlikning fonetik, leksik, grammatik, matn va kommunikativ komponentlarini izchil rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Integrativ yondashuv (konstruktivizm, faoliyat nazariyasi, sotsiokultural paradigma va multimodal o‘qitishga asoslangan holda) til o‘qitishni boshqa fanlar, o‘yin faoliyati, loyihaviy ishlar va real hayotiy vaziyatlar bilan uzviy bog‘lash orqali nutqiy kompetensiyalarning tabiiy va chuqur shakllanishini ta’minlash imkonini berishi ko‘rsatilgan. Integrativ metodlar o‘quvchini passiv qabul qiluvchidan faol kommunikativ sub’yektga aylantirib, mantiqiy tafakkur, ijodkorlik va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantiradi. Xulosa qismida boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuvni tizimli joriy etish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish va fanlararo bog‘lanishlarga asoslangan darslarni kengaytirish ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishi ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, nutqiy savodxonlik, integrativ yondashuv, nutq rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya, fonetik savodxonlik, leksik savodxonlik, grammatik savodxonlik, matn savodxonligi, fanlararo integratsiya, sotsiokultural yondashuv, konstruktivizm, multimodal o‘qitish, o‘quv kompetensiyalari, til va tafakkur rivoji.

Jahonda ta’lim muammosining dolzarbligi juda muhim masalalardan biri bo‘lib, har qanday jamiyat taraqqiyoti, eng avvalo, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy yetukligi, ishlab chiqarish salohiyatiga egaligi bilan belgilanadi. Bozor munosabatlari sharoitida esa ularning yuqori darajada intellektual qobiliyati, ijtimoiy subyektlar o‘rtasidagi munosabatni yo‘lga qo‘yish mahorati, shuningdek, kasbiy va kundalik faoliyatni tashkil etishda ijodkorlik, muloqotchanlik, insonparvarlik, o‘zaro munosabatlarni yaxshilash va ijtimoiy faollik layoqatiga ega bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida ta’lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat sifatida e’tirof etilmoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorlik kasb etishi o‘quvchilardan faqatgina an’anaviy bilim va ko‘nikmalarni emas, balki kommunikativ, ijtimoiy va intellektual kompetensiyalarni chuqur egallashni talab qilmoqda. Ushbu kompetensiyalar ichida nutqiy savodxonlik alohida strategik ahamiyatga ega, chunki u o‘quvchining nafaqat muloqotda faol ishtirok etishiga, balki bilimlarni o‘zlashtirish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi kognitiv jarayonlarni samarali amalga oshirishiga zamin yaratadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida nutqiy savodxonlikning shakllanishi keyingi o‘quv bosqichlarida o‘qish savodxonligi, fanlararo muloqot madaniyati va ijodiy tafakkur kabi ko‘nikmalarning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pedagogik va psixolingvistik tadqiqotlar (Vigotskiy, Bruner, Oates, Snow va boshqalar) bola nutqining rivojlanishi ko‘p omilli jarayon ekanini e’tirof etadi. Nutqiy rivojlanishning sifat darajasi til tizimini o‘zlashtirish jarayoni bilan bir qatorda o‘quvchining tafakkur darajasi, ijtimoiy va kommunikativ tajribasi, o‘yin va faoliyat jarayonlari, shuningdek, ta’lim muhitining boyligi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu esa nutqiy savodxonlikni fanlarni izolyatsiyalangan holda o‘qitish orqali emas, balki integrativ o‘quv faoliyati orqali shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Dastlab integrativ yondashuv atamasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, XX asr pedagogik nazariyalarida “integratsiya”, “o‘zaro aloqadorlik”, “sintez” kabi tushunchalar keng tarqala boshladi. Bu pedagogik g‘oyalar turli fanlar va didaktik elementlarni yagona, mantiqiy uyg‘unlikka keltirish zaruratidan kelib chiqqan. Pedagogik olim **A. Ya. Danilyuk** integrativ yondashuvni “ilmiy ongning murakkab, dialektik o‘zgarishlar natijasi” sifatida ko‘rib, unda o‘qitishning turli unsurlari (oddiy bilim modullari, metodlar, vazifalar) bir-biri bilan uzviy birlashtirilganligi, ularning o‘zaro sintezi natijasida yangi, yaxlit o‘quv jarayoni tizimi paydo bo‘lishini ta’kidlaydi. Rus va boshqa G‘arb didaktikalari integrativ

yondashuvni faqat fanlararo elementlarning qo‘shilishi sifatida emas, balki o‘quv jarayonining ichki, tarkibiy yaxlitligini shakllantiruvchi yangi metodologik printsip sifatida ko‘rishadi.

Integrativ yondashuvning metodologik asoslari konstruktivizm, faoliyat nazariyasi, sotsiokultural yondashuv, kommunikativ paradigma va multimodal o‘qitish konsepsiyalariga tayanadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, o‘quvchining nutqiy rivoji o‘zaro bog‘langan bilim maydonlari (til, fan, muloqot, tafakkur, ijodiyot)ning uyg‘unlashuvi orqali kechadi. Shunday ekan, tilni o‘rgatish jarayonini boshqa fanlar mazmuni, o‘yin faoliyati, real hayotiy vaziyatlar, loyihaviy ishlar, kuzatish, tajriba o‘tkazish kabi faoliyatlar bilan integratsiya qilish o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyaning tabiiy va chuqur shakllanishiga yordam beradi.

Integrativ o‘qitishning afzalliklari shundan iboratki, bunda o‘quvchi nutqiy faoliyatni sun’iy, mavhum mashqlar orqali emas, balki real mashqlarda amalga oshiradi. Bunday sharoitda o'quvchi nafaqat grammatik birliklarni yoki leksik elementlarni o‘rganadi, balki ular yordamida fikr bildirish, dalillash, muloqot qilish, izoh berish, muammoni og‘zaki yoki yozma shaklda ifodalashni o‘rganadi. Ya’ni nutq – o‘qitish jarayonining markaziga aylanadi va o‘quvchining har bir fan bo‘yicha bilimni o‘zlashtirish jarayonida tabiiy ravishda rivojlanib boradi.

Bundan tashqari, integrativ yondashuv o‘quvchini passiv bilim qabul qiluvchidan faol kommunikativ-subyektga aylantiradi. U o‘quvchini fikrlash, o‘z nuqtai nazarini asoslash, muhokamada qatnashish, matn yaratish, vaziyatga mos nutqiy strategiyalarni tanlashga undaydi. Natijada nutqiy savodxonlik nafaqat filologik kompetensiya, balki umumiy o‘quv kompetensiyalarining markaziy komponentiga aylanadi. Nutqiy savodxonlik zamonaviy lingvodidaktika va boshlang‘ich ta’lim metodologiyasida o‘quvchining muloqot jarayonida til birliklaridan ongli, maqsadga yo‘naltirilgan va normativ jihatdan to‘g‘ri foydalanish kompetensiyasi sifatida talqin etiladi. U nafaqat og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri tuzish, balki mazmunni qayta ishlash, tushunish, tahlil qilish, fikrni izchil ifodalash va kommunikativ vazifaga mos ravishda moslashtirish kabi ko‘plab kognitiv hamda nutqiy amaliyotlarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarda nutqiy savodxonlik ko‘pincha lingvistik kompetensiya (Noam Chomsky), kommunikativ kompetensiya (Dell Hymes) hamda matn yaratish kompetensiyasi (M. A. Xalperin, L. S. Vigotskiy) doirasida o‘rganilgan bo‘lib, bu kompetensiya ko‘p tarkibli murakkab tizim sifatida shakllanadi.

Fonetik savodxonlik o‘quvchining tovushlarni me’yoriy talaffuz qilish, fonemalarni farqlay bilish, urg‘u va intonatsiya kabi prozodik vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini aks ettiradi. Bu jarayon bola tilining fiziologik shakllanishi, eshitish differensiasiyasi va akustik idrok rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. L. S. Vigotskiy nutq taraqqiyotining ilk bosqichlarida fonetik tajribaning to‘g‘ri shakllanishi keyingi bosqichlardagi mustaqil nutqning sifatiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlagan. Shu bois boshlang‘ich ta’limda fonetik kompetensiya bosqichma-bosqich o‘yinli mashqlar, orfoepiya mashg‘ulotlari va dialogik nutq orqali rivojlantiriladi.

Leksik savodxonlik o‘quvchining faol va passiv so‘z boyligini kengaytirish, sinonimiya, antonimiya, polisemiya kabi leksik hodisalarni anglash, shuningdek, so‘z ma’nosining kontekstga bog‘liqligini tushunish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Psixolingvistik tadqiqotlar (A. R. Luriya, J. Bruner)ga ko‘ra, bolada so‘z boyligining o‘sishi faqat lug‘at yodlash emas, balki semantik tarmoqlarning kengayishi, ya’ni til birliklari o‘rtasidagi mantiqiy va mazmuniy aloqalarning mustahkamlanishi hisobiga yuzaga keladi. Bu esa matn mazmunini chuqurroq tushunish va fikrni boy ifodalashga xizmat qiladi.

Grammatik savodxonlik sintaktik va morfologik birliklarning o‘zaro munosabatini anglash, gap qurilishini tushunish, grammatik kategoriyalardan adabiy til me’yorlariga muvofiq foydalanish malakalarini qamrab oladi. J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, 7–11 yosh oralig‘idagi o‘quvchilar konkret operatsiyalar bosqichiga kiradi va bu davrda mantiqiy bog‘liqlik, strukturaviy tartib, grammatik izchillikni tushunish intensiv rivojlanadi. Shuning uchun grammatik kompetensiyaning shakllanishi o‘qish, yozish va og‘zaki tafakkur rivoji uchun asosiy omil hisoblanadi.

Matn savodxonligi o‘quvchining matnning kompozitsion tuzilishini anglash, mavzu va asosiy g‘oyani ajratish, matndagi mantiqiy aloqalarni ko‘ra olish, uzviy matn yaratish hamda mavjud matnni qayta ishlay olish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar (M. A. Xalperin, R. Jakobson) matn savodxonligini yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalari — tahlil, sintez, induksiya, deduksiya va

mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash — bilan bog‘laydilar. Matn yaratish ko‘nikmasi nafaqat til malakasining o‘sishiga, balki o‘quvchining umumiy kognitiv faoliyati va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatining rivojiga ham xizmat qiladi.

Kommunikativ madaniyat o‘quvchining nutqiy muloqot jarayonida ijtimoiy, axloqiy va pragmatik me’yorlarga amal qilgan holda fikrni aniq, ravon, vaziyatga mos tarzda ifodalash malakasini bildiradi. Dell Hymesning kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko‘ra, til birliklaridan foydalanish faqat grammatik to‘g‘rilik bilan cheklanmay, balki ular qaysi vaziyatda, kim bilan, qanday maqsadda qo‘llanilayotganini to‘g‘ri baholay olishni ham talab qiladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda dialogik nutq, hamkorlikdagi topshiriqlar va rolli o‘yinlar kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning asosiy metodik vositasi hisoblanadi.

Shunday qilib, nutqiy savodxonlik ko‘p komponentli, murakkab lingvistik va kognitiv tizim bo‘lib, boshlang‘ich ta’limda ushbu tizimning barcha bo‘g‘inlarini izchil, integrativ asosda shakllantirish zarur. Fonetik, leksik, grammatik, matn va kommunikativ kompetensiyalarning uyg‘un rivojlanishi o‘quvchida tilni nafaqat o‘zlashtirish, balki uni faol fikrlash va muloqot vositasiga aylantirish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchining keyingi bosqichlardagi o‘qish, yozish, tahlil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining poydevorini mustahkamlaydi va uning umumiy o‘quv muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganimizda, boshlang‘ich sinflarda nutqiy savodxonlikni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish zamonaviy ta’limning strategik ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Til o‘rgatish jarayonini boshqa fanlar, ijtimoiy faoliyatlar va muloqot muhitlari bilan uzviy bog‘lash o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini tabiiy, mazmunli va samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv o‘quvchining tilni o‘zlashtirish jarayonida faol subyekt sifatida qatnashishini ta’minlaydi, real kommunikativ vaziyatlar yaratadi hamda mantiqiy va ijodiy fikrlashni birgalikda rivojlantiradi. Shu boisdan, integrativ metodlarni boshlang‘ich ta’limning barcha bosqichlariga tizimli joriy etish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish va fanlararo bog‘liqlikka asoslangan darslarni kengaytirish ta’lim sifatining barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, B. S. (2020). *Boshlang‘ich sinflarda nutqiy savodxonlikni shakllantirish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Baratov, F. Sh., & Abdullayeva, B. S. (2019). *Integrativ yondashuv va fanlararo ta’lim metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Siddiqova, S. G‘. (2018). *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida til va tafakkur rivoji*. Toshkent: Pedagogika.
4. Vigotskiy, L. S. (1984). *O‘quv va rivojlanish psixologiyasi*. Moskva: Pedagogika.
5. Danilyuk, A. Ya. (2001). *Didaktik integratsiya nazariyasi*. Moskva: Akademiya.
6. Ruzimova, M. Y. (2021). *Integrativ yondashuvni boshlang‘ich ta’limda qo‘llash*. Toshkent: Ilmiy-nashriy markaz.
7. Dewey, J. (1910). *How We Think*. Boston: D.C. Heath & Co.
8. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge, MA: MIT Press.
9. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin.
10. Bruner, J. (1986). *Actual Minds, Possible Worlds*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
11. Piaget, J. (1970). Piaget’s theory. In P. H. Mussen (Ed.), *Carmichael’s manual of child psychology* (pp. 703–732). New York: Wiley.
12. Halpern, D. F. (2014). *Thought and knowledge: An introduction to critical thinking* (5th ed.). New York: Psychology Press.
13. Otajanov, O. A. (2020). *Integrativ yondashuvning pedagogik nazariyasi va amaliyoti*. Zenodo. https://zenodo.org/records/12080314
14. Hamdamova, R. G. (2019). Ta’lim innovatsiyasi va integratsiya. *Science & Technology Journal, 3*(2), 45–53. https://science-technology.uz
15. Nozimova, Z., & Karimov, B. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy savodxonlikni rivojlantirish. *Eurasian Research, 12*(4), 102–114. https://erus.uz

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA MATEMATIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Babayeva Madina Qilichevna-
Buxoro xalqaro universiteti 1- bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Sodiqova Dilora Shavkatovna

Annotatsiya: Matematika inson tafakkurining taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega sohalardan biridir. Ayniqsa, boshlab o‘qiyotgan kichik yoshli o‘quvchilarda bu fan orqali mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash kabi ko‘plab aqliy ko‘nikmalar shakllanadi. Dastlabki sinflarda matematik bilim berish jarayonida o‘qituvchilarning o‘zlarida ham mustahkam matematik tafakkur rivojlangan bo‘lishi lozim. Chunki ular bolalarga nafaqat matematik bilimlarni izchil va aniq yetkazishlari, balki ularning tafakkurini to‘g‘ri shakllantirishda namuna sifatida xizmat qilishlari zarur bo‘ladi. O‘qituvchi o‘z malakasi, pedagogik mahorati va ilmiy salohiyatini doimiy ravishda rivojlantirish orqali zamonaviy matematikani o‘rganishda aktiv ishtirok etadi va bu bilimlarni o‘quvchilarga oson yetkazib bera oladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, tafakkur, matematika, mantiqiy fikrlash, tahlil, aqliy ko‘nikmalar, misollar, bilim, ko‘nikma, misol, masala.

Аннотация: Математика – одно из важнейших направлений развития мышления человека. Особенно у младших школьников, начинающих обучение, этот предмет формирует множество мыслительных навыков, таких как логическое мышление, анализ, обобщение, сравнение и установление причинно-следственных связей. В процессе передачи математических знаний в начальных классах учителям необходимо иметь развитый математический склад ума. Ведь им необходимо не только последовательно и точно доносить математические знания до детей, но и служить примером в правильном формировании их мышления. Постоянно развивая свою квалификацию, педагогическое мастерство и научный потенциал, учитель принимает активное участие в изучении современной математики и может легко донести эти знания до учащихся.

Ключевые слова: начальная школа, мышление, математика, логическое мышление, анализ, мыслительные навыки, примеры, знания, умения, пример, задача.

Abstract: Mathematics is one of the most important areas in the development of human thinking. Especially in young students who are just starting out, this subject forms many mental skills such as logical thinking, analysis, generalization, comparison, and determining cause-and-effect relationships. In the process of imparting mathematical knowledge in the early grades, teachers themselves must have developed a strong mathematical mindset. Because they need to not only consistently and accurately convey mathematical knowledge to children, but also serve as an example in the correct formation of their thinking. By constantly developing their qualifications, pedagogical skills, and scientific potential, the teacher takes an active part in the study of modern mathematics and can easily convey this knowledge to students.

Keywords: primary school, thinking, mathematics, logical thinking, analysis, mental skills, examples, knowledge, skills, example, problem.

KIRISH

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida matematik tafakkur asoslarini rivojlantirish uchun eng avvalo, tafakkurning turli shakllari, yo‘nalishlari va elementlarini chuqur anglash, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olishga o‘rganish talab etiladi. Matematik tafakkurni rivojlantirish pedagogik jarayonning markaziy nuqtalari qatoriga kirib, bu jarayon faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishdan iborat emas. Aksincha, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda, real hayotiy masalalar ustida ishlash orqali o‘zining mustaqil tahlil qilish qobiliyatini oshirishi, yangi uslub va yondashuvlarni sinab ko‘rishi kerak. Matematik tafakkur inson ongining nisbatan yuqori darajasini talab qiladigan aqliy jarayon hisoblanadi. Bu jarayon orqali o‘qituvchi matematik obyekt va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni topish, ularni solishtirish, farqlash va to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rganadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun matematik tafakkur paydo bo‘lishi va rivojlanishida amaliy mashg‘ulotlar,

namunaviy tahlillar, didaktik o‘yinlar va boshqa zamonaviy metodlardan samarali foydalanishga ahamiyat beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘qituvchilarning tafakkuri faqatgina bilimga asoslangan bo‘lmasligi, balki tafakkurning yuqori darajadagi mustaqilligi, ijodiy yondashuvi va teran fikrlashi orqali namoyon bo‘lishi lozim. Shu jihatdan, matematika fanini o‘qitishda zamonaviy metodlarni qo‘llash, aktiv o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchida mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. O‘qituvchi doimiy ravishda yangi bilimlarni egallab boradi, bu esa uning matematik tafakkurini rivojlantirishga zamin yaratadi. Matematika o‘qitish jarayonida turli innovatsion metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘qituvchi nafaqat bilimlarni an’anaviy tarzda uzatadi, balki o‘zining nazariy va amaliy bilim darajasini doimiy yaxshilab boradi. Bu esa o‘qituvchining o‘z fani bo‘yicha tafakkur doirasini kengaytiradi, tafakkurni rivojlantirishda yangi yondashuvlarni kashf etadi. Matematik tafakkurni rivojlantirish uchun o‘qituvchi kundalik mustaqil o‘qish, ilmiy-tadqiqot ishlari, kasbiy mahoratni oshirishga qaratilgan kurslarda ishtirok etishi, zamonaviy kasbiy adabiyotlar bilan muntazam tanishib borishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kasbiy malakani oshirish bo‘yicha turli seminar va treninglarda qatnashish orqali ham pedagogda ijodiy va mantiqiy fikrlash rivojlanadi. O‘qituvchi doim o‘z bilim doirasini kengaytirishga intilishi zarur. Bu nafaqat bilimlarni boyitadi, balki ulardagi tafakkur imkoniyatlarini yanada yuksaltiradi.[1]

Matematik tafakkurni rivojlantirishda muloqot madaniyati, guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalari, axborotni izlash va uni qayta ishlash, tanqidiy va o‘z-o‘zini baholash tizimini shakllantirishga alohida urg‘u beriladi. Zamonaviy ta’lim maktablarida axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron va raqamli resurslardan foydalangan holda, o‘qituvchi o‘zining matematik tafakkur doirasini yangi pedagogik imkoniyatlar bilan boyitadi. Bu holat yangi usullarni qo‘llash, kreativ va analitik tafakkurni mustahkamlashga xizmat qiladi.[2]

Matematik tafakkurni rivojlantirishda mustaqil fikrlash, o‘zining ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirish uchun zamonaviy matematik bilimlarni chuqur o‘zlashtirish talab etiladi. Bu borada o‘quvchilarga faqatgina an’anaviy usullardan foydalanib bilim berish yetarli emas. O‘qituvchining o‘zi ham zamonaviy yangi pedagogik metodlarni, texnologik yechimlarni o‘rganib borishi kerak. Hozirgi paytda dunyoda matematikani o‘qitishda yangi interfaol uslublar, kollektiv va individual ta’lim dasturlari samaradorligini isbotlagan. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tafakkuri ham zamon talablariga mos takomillashib borishi kerak.[3]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘qituvchining o‘z ustida shug‘ullanishi, ta’limdagi zamonaviy o‘zgarishlarni qayta o‘zlashtira bilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki matematik tafakkur ko‘nikmalari tugal va umumiy bilim, katta salohiyat asosida shakllanadi. Bu borada matematikaga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, yangi yondashuvlarni tadqiq qilish, tajribali ustozlardan maslahat olish pedagogik faoliyatda yuqori natijalarni ta’minlashga yordam beradi. Bu esa nafaqat o‘qituvchining matematik tafakkur darajasini oshiradi, balki kelajakda ustozlarning samarali faoliyat yuritishi uchun zamin yaratadi. Matematik tafakkurni rivojlantirishda o‘qituvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, matematik model va sxemalar tuzish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun turli seminar, mashg‘ulot va amaliy treninglarning ahamiyati katta bo‘ladi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalari, vizual manbalar, grafik dasturlardan mohirona foydalanish o‘qituvchining tafakkur doirasini yanada kengaytiradi va mustahkamlaydi. Bugungi kunda rivojlanayotgan jamiyatda matematik tafakkurga ega pedagoglarni tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib, bu vazifani munosib amalga oshirish uchun o‘qituvchilar doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi muhim.[4]

O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni va Davlat ta’lim standartlarida matematik ko‘nikmalarni rivojlantirish, innovatsion fikrlash va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish asosiy vazifalardan etib belgilangan. Shuning uchun ham pedagog doimo mustaqil tadqiqot olib borishi, zamonaviy dasturlar va resurslarni yaratish, ularni amaliyotda qo‘llash orqali matematik tafakkurni rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Bu esa o‘z navbatida, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga yangi maqsad va vazifalarni ilgari suradi, kasbiy faoliyatda natijalilik, kreativlik va yangilanish olib keladi. Zamonaviy maktablarda bolalarda matematika faniga

qiziqish uyg‘otish va ularning tafakkurini to‘g‘ri shakllantirish uchun o‘qituvchida chuqur bilim, amaliy tajriba, tahliliy fikrlash ko‘nikmalari bo‘lishi zarur. O‘qituvchi har bir o‘quvchi individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiladigan usullardan samarali foydalanadi. Shu jarayonda pedagog o‘zining kasbiy muloqot madaniyati, ochiqligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. O‘quvchilarga murakkab bo‘lmagan, ammo tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriq va vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash ham muhim ahamiyatga ega.[5]

O‘qituvchilar uchun matematik tafakkurni rivojlantirishning bosh mezoni bu – kasbiy intelektni talab etadigan topshiriqlarni to‘g‘ri tanlash, ularni tahliliy asosda bajarib borishga odatlanishdir. Pedagog yangi g‘oyalarni ilgari surishda erkin bo‘lishi, an’anaviy yondashuvlar bilan yangi metodlarni uyg‘unlashtirib borishi matematik tafakkurning asosini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Har bir o‘quv fazoviy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik usullardan foydalanish o‘qituvchi tajribasini boyitadi, mustaqil fikrlashga yo‘l ochadi va natijada zamonaviy raqobatbardosh pedagog shakllanadi.

Boshlang‘ich sinfda matematik tafakkurni rivojlantirishda ilg‘or va ijodiy yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon qilishlari, yangi metod va texnologiyalarni mustaqil o‘rganishlari, kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda oshirib borishlari zarur. Bu jarayonda ular fan olamidagi eng so‘nggi yangiliklardan boxabar bo‘lish, tashabbuskorlik va yangilik sari intilish, o‘z faoliyatida eng ilg‘or tajribalarni qo‘llash orqali ijodiy va chuqur matematik tafakkur egasi bo‘ladi.[6]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirish birlamchi va uzviy muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat bilimlarni yetkazuvchi, balki yangi g‘oyalar, innovatsion yondashuvlar, mustaqil fikrlash va tahliliy tafakkurni shakllantiruvchi kasbi egasi sifatida namoyon bo‘ladi. Zamon talabiga mos pedagogning asosiy fazilati – o‘z ustida doimiy ishlash, kasbiy, ilmiy va ijodiy faollik bilan yangi g‘oyalarga boy bo‘lish hamda matematik tafakkur doirasini kengaytirib borishdan iborat. Shunday ekan, boshlangan har bir dars matematik tafakkurning yanada yuqori marralarini zabt etish sari intilish uchun mustahkam zamin bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamatqulova, M. (2019). “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.” Boshlang‘ich ta’lim, 2(3), 25-31.

2. Egamberdiyeva, D. (2018). “Matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish.” O‘zbekiston xalq ta’limi, 4(6), 62-68.

3. Karimova, N., & Muxamedova, Z. (2021). “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarida matematik tafakkurni rivojlantirishning o‘rni.” Boshlang‘ich ta’lim va metodika, 6(2), 114-120.

4. Rustamova, S. (2017). “Boshlang‘ich ta’limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning dolzarb masalalari.” O‘zbekiston pedagogik axborotnomasi, 3(1), 99-105.

5. Toirova, N. (2020). “Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘qituvchilarda tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirish.” Ta’lim sohasidagi innovatsiyalar, 5(4), 77-83.

6. Islomova, U. (2022). “Matematika fanidan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvlar.” Ilmiy-amaliy jurnal, 8(1), 53-59.

7. Qodirova, G. (2019). “Boshlang‘ich sinfda matematik tafakkur va uning rivojlanish bosqichlari.” Pedagogik innovatsiyalar, 4(3), 131-138.

8. G‘aniyeva, D. (2018). “Matematik tafakkur va uning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatidagi ahamiyati.” Zamonaviy ta’lim, 10(2), 45-51.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IMLO KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIKTANT TURLARINING ROLI.

Toshqulova Mohidil Ulug‘bek qizi-
NavDU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.
Ilmiy rahbar:NavDU “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi,f.f.f.d (PhD) M.X.Pardayeva

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imlo ko‘nikmalarini shakllantirishda diktant turlarining samarali usullari va ahamiyati o‘rganiladi. Diktantning turli shakllari – so‘zma-so‘z, bo‘lakma-bo‘lak, ijodiy va klaviatura diktantlari – o‘quvchilarning yozma nutqini, e’tiborini va imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinflar, imlo ko‘nikmalari, diktant turlari, yozma nutq, pedagogik metodika.

Аннотация: В статье изучается эффективность различных видов диктанта в формировании орфографических навыков у младших школьников. Различные формы диктанта – слово в слово, по частям, творческий и клавиатурный диктант – способствуют укреплению письменной речи, внимания и знаний правил орфографии у учеников.

Ключевые слова: младшие классы, орфографические навыки, виды диктанта, письменная речь, педагогическая методика.

Annotation: The article explores the effectiveness of various types of dictation in developing spelling skills among primary school students. Different forms of dictation – word-for-word, segmented, creative, and keyboard dictation – contribute to strengthening students’ written language, attention, and knowledge of spelling rules.

Keywords: primary school, spelling skills, types of dictation, written language, pedagogical methodology.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning imlo ko‘nikmalarini shakllantirish – maktab ta’limining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Yozma nutqning rivojlanishi, o‘quvchining o‘qish va yozish qobiliyatining oshishi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri imlo ko‘nikmalariga bog‘liq. Diktant – o‘quvchilarning yozma nutqini tekshirish, qoidalarni mustahkamlash va e’tiborni shakllantirish vositasidir.

Diktant o‘quv jarayonida turli shakllarda qo‘llaniladi: klassik diktant, bo‘lakma-bo‘lak, ijodiy va interaktiv diktantlar. Har bir turi o‘quvchilarning diqqatini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish va imlo qoidalarini amalda qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, diktantlar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning individual xatolarini aniqlab, ularga maqsadli yordam ko‘rsatishi mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda diktantni samarali o‘tkazishning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda imlo qoidalarini mustahkamlash, yozma nutq madaniyatini oshirish va e’tiborini shakllantirishdir. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda diktant nafaqat tekshiruvchi, balki o‘rgatuvchi va rivojlantiruvchi vosita sifatida ham ishlatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda imlo ko‘nikmalarini shakllantirishda diktantlar o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Diktantlar yordamida nafaqat imlo qoidalari o‘rganiladi, balki o‘quvchilarning diqqatini jamlash, matnni tushunish va fikrni tizimli ifodalash qobiliyati ham shakllantiriladi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, diktant turlari o‘quvchilarning individual xususiyatlariga qarab tanlanishi zarur va ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini oshiradi.

Klassik diktant, ya’ni o‘qituvchi o‘quvchilarga tayyor matnni to‘liq yozdiradigan shakl, boshlang‘ich sinflarda imlo ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan metod hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, klassik diktantni muntazam o‘tkazish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, xatolarni kamaytirish va matnni to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilar matnni tinglash va yozish jarayonida diqqatni jamlashni o‘rganadilar, bu esa yozma nutqdagi aniqlik va izchillikni oshiradi. Shu bilan birga, klassik diktant o‘quvchilarga grammatik va imlo qoidalarini amalda qo‘llash imkonini beradi. Masalan, murakkab so‘zlarni to‘g‘ri

ajratish, tinish belgilarini joyida ishlatish va o‘rganilgan qoidalarni matnga tatbiq etish orqali o‘quvchi o‘z bilimini mustahkamlaydi [4].

Bo‘lakma-bo‘lak diktant esa matnni qismlarga ajratib yozishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘quvchilarni bosqichma-bosqich imlo qoidalarini mustahkamlashga undaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lakma-bo‘lak diktant murakkab grammatik qoidalarni o‘rgatishda va e’tiborini rivojlantirishda samarali. Masalan, o‘quvchi matnning har bir bo‘lagini yozgach, uni qayta tekshirib, xatolarni aniqlashga o‘rganadi. Bu esa mustaqil fikrlash va o‘z xatolarini tuzatish ko‘nikmasini shakllantiradi [5]. Shu bilan birga, bo‘lakma-bo‘lak diktant o‘quvchilarga murakkab iboralar va uzun gaplarni qabul qilish va ularni matnga to‘g‘ri kiritish imkonini beradi. Pedagogik amaliyotda bu metod, ayniqsa, yangi imlo qoidalarini o‘rgatishda va so‘z boyligini kengaytirishda keng qo‘llaniladi.

Ijodiy diktantlar o‘quvchilarga faqat so‘zlar yoki iboralarni berib, matnni mustaqil yaratishga imkon beradi. Bu metod o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va ularning yozma nutqini boyitadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy diktantlarni o‘tkazish orqali o‘quvchilar imlo qoidalarini amaliy ravishda qo‘llashni o‘rganadilar va yozishga qiziqish uyg‘onadi [6]. Shu bilan birga, ijodiy diktant o‘quvchilarda matnni tushunish va uni mantiqan izchil tarzda tuzish qobiliyatini oshiradi. O‘quvchilar berilgan so‘zlardan foydalangan holda o‘z matnini yaratadi, bu esa ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Shuningdek, ijodiy diktant o‘quvchilarda o‘z fikrini ifodalash, so‘z boyligini oshirish va yozma nutqni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv va elektron diktantlar ham muhim o‘rin tutadi. Kompyuter yoki planshet yordamida o‘tkaziladigan diktantlar o‘quvchilarning texnologik savodxonligini oshiradi va ularni yozma ishlarga qiziqtiradi. Elektron diktantlarda o‘quvchilar real vaqt rejimida o‘z xatolarini ko‘rib, tuzatish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu metod o‘quvchilarda tezkor fikrlash va mustaqil xatolarini aniqlash ko‘nikmalarini shakllantiradi [7]. Interaktiv diktantlar o‘quvchilarning diqqatini jamlashni kuchaytiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Diktantlarning barcha turlari pedagogik jarayonda kompleks yondashuvni ta’minlaydi. O‘qituvchi matnlarni tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlarini va imlo darajasini hisobga olishi kerak. Shu bilan birga, diktant mashg‘ulotlari nafaqat tekshiruvchi vosita sifatida, balki o‘rgatuvchi va rivojlantiruvchi vosita sifatida ham qo‘llanilishi muhimdir [8].

Diktant mashg‘ulotlari o‘quvchilarda so‘z boyligini kengaytiradi va grammatik qoidalarni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, yozma va og‘zaki nutq uyg‘unligi oshadi, o‘quvchilar o‘z xatolarini aniqlash va tuzatish ko‘nikmasini egallaydilar. Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, muntazam va tizimli diktant mashg‘ulotlari o‘quvchilarda matnga qarash, grammatik qoidalarni qo‘llash va yozma nutq madaniyatini rivojlantirish qobiliyatini oshiradi [9].

Boshlang‘ich sinflarda imlo ko‘nikmalarini shakllantirishda diktant turlarining roli juda muhimdir. Klassik, bo‘lakma-bo‘lak, ijodiy va interaktiv diktantlar o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantiradi, e’tiborini oshiradi va imlo qoidalarini mustahkamlaydi. Diktantlar nafaqat tekshiruvchi, balki o‘rgatuvchi va rivojlantiruvchi vosita sifatida pedagogik jarayonda qo‘llanilishi muhimdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sobirov, A. Boshlang‘ich sinflarda imlo o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – B. 12-25.
2. Rahimov, B. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Sharq, 2017. – B. 45-60.
3. Qodirov, I. Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 33-50.
4. Karimov, S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imlo ko‘nikmalarini shakllantirish. – Toshkent: Pedagogika, 2020. – B. 77-95.
5. Tursunov, M. Diktant turlarining pedagogik ahamiyati. – Samarqand: Ilm, 2016. – B. 23-38.
6. Akbarova, N. Ijodiy diktantlar orqali yozma nutqni rivojlantirish. – Toshkent: Ta’lim, 2019. – B. 51-65.
7. Egamberdiyev, R. Interaktiv diktantlar va ta’lim jarayonida qo‘llanilishi. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – B. 14-30.
8. Jalilov, F. Boshlang‘ich sinflarda e’tibor va diqqatni shakllantirish. – Toshkent: Pedagogika, 2018. – B. 40-55.
9. Normurodova, L. Yozma nutq madaniyati va diktantlar. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2020. – B. 68-85.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA UCHRAYDIGAN IMLOVIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Mirabbosova Shahzoda Mirabbos qizi-
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
3-kurs A guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Subxonova Sanobar Abduhalim qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan imloviy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda fonetik, morfologik va psixolingvistik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv mashg‘ulotlarning samaradorligi amaliy misollar orqali ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada G‘aniyeva Sh.A, Pirmiyazova A, Mahmudov N, Qosimova K va boshqalarning asarlariga tayanilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda imlo ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: imlo, boshlang‘ich ta’lim, yozuv ko‘nikmalari, xatolarni bartaraf etish, lingvistik yondashuv, sheva, punktuatsiya, metodika.

Abstract. This article analyzes spelling problems encountered by primary school students and ways to overcome them. The study highlights the importance of phonetic, morphological and psycholinguistic approaches in improving students' spelling literacy. The effectiveness of modern pedagogical technologies and interactive exercises is also demonstrated through practical examples. The article is based on the works of G'aniyeva Sh.A, Pirmiyazova A, Mahmudov N, Qosimova K, and others. The results of the study serve to strengthen the scientific and practical foundations of the formation of spelling skills in primary education.

Keywords: spelling, primary education, writing skills, error correction, linguistic approach, dialect, punctuation, methodology.

Абстрактный. В статье анализируются орфографические проблемы учащихся начальной школы и пути их преодоления. Подчеркивается важность фонетического, морфологического и психолингвистического подходов в повышении орфографической грамотности учащихся. На практических примерах демонстрируется эффективность современных педагогических технологий и интерактивных упражнений. Статья основана на трудах Ганиевой Ш.А., Пирмиязовой А., Махмудова Н., Косимовой К. и др. Результаты исследования способствуют укреплению научных и практических основ формирования орфографических навыков в начальном образовании.

Ключевые слова: орфография, начальное образование, навыки письма, исправление ошибок, лингвистический подход, диалект, пунктуация, методология.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imloviy savodxonligi ularning yozma nutqini shakllantirishda, tafakkurini rivojlantirishda va umumiy o‘quv yutuqlariga erishishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, imloviy xatolar nafaqat yozish malakasining pastligini, balki o‘qish, eshitish va tilni anglash ko‘nikmalaridagi muammolarni mustaqil yozuv faoliyatida xatolarning ko‘payishiga olib keladi. Xuddi shu muammo o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va ijodiy fikrlash jarayonini sustlashtiradi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda to‘g‘ri yozuv va imloviy sezgirlikni shakllantirishda muhim davr hisoblanadi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imlo muammolari haqida gap yuritadigan bo‘lsak buni deyarli barcha hududda kuzatish mumkin. Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlarida “a’’ ning “o” ga aylanishi(masalan:bola-bolo, ota-oto)keng tarqalgan. Qashqadaryo va Surxandaryoda esa “y”ning “j”ga “q”ning “g” ga almashinishi (masalan:yomon-jomon, qo‘l-go‘l)kabi holatlar uchraydi. To‘raqulov Fning “shevalar va adabiy til”asarida takidlanishicha , “Sheva tasiridagi xatolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchi bolalarga adabiy til meyorlarini sezilarli va qiziqarli tarzda yetkazishi lozim”. Pirniyozova A. o‘z asarida shuni ta’kidlaydiki,’darslikdagi mashqlarni bajarish bu imlo ko‘nikmasini shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Har bir topshiriq o‘quvchilarni nafaqat yozishga, balki

o‘ylab,tahlil qilishga o‘rgatadi”. 2-sinf ona tili darsligini olib o‘rganadigan bo‘lsak quyidagi topshiriqlar bu so‘zlarimizga misol bo‘ladi ‘so‘zlarni to‘g‘ri yozing” topshirig‘ida: (-ruchka va ro‘chka, daftar va daptar, kitob va kitop) so‘zlarini tog‘ri yozish orqali o‘quvchi ularni farqlaydi. Har bir o‘quvchi o‘zining xatolarini tahlil qilish va to‘g‘rilash jarayonida faol ishtirok etganda, ularning imlo savodxonligi sezilarli darajada ortadi. Shu bois imloviy xatolarni o‘rganish, tahlil qilish va ularning turlarini aniqlash o‘qituvchi faoliyatining ajralmas qismi sanaladi18. G‘aniyeva Sh A. ning tadqiqotlarida keltirilishicha, “Imloviy muammolarni bartaraf etish uchun har bir o‘quvchining individual xatosini aniqlash va unga yondashish lozim. O‘qituvchi bolaning xatolari qayerga yo‘nalganligini aniqlab,shu yo‘nalishda mahsus mashqlarni tuzishi kerak”.

Shuningdek, o‘quvchilarning individual o‘zlashtirish darajasiga qarab differensial yondashuvni qo‘llash imloviy savodxonlikni samarali oshiradi. Dars jarayonida og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi uzviylikni saqlash, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish bilan yozishni uyg‘unlashtirish muhim omil hisoblanadi.

Ayrim hollarda bu xatolar o‘qituvchining imlo qoidalarini tizimli tushuntirmasligi yoki mashqlarni yetarlicha amaliy tarzda tashkil etmasligi bilan ham izohlanadi.Shuning uchun o‘qituvchilar har bir o‘quvchining individual xatolarini aniqlab, ularni bartaraf etish uchun maxsus metodlar qo‘llashlari zarur. Shu bilan birga, o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona hamkorligi orqali imloviy muammolarni kamaytirish mumkin. Natijada, o‘quvchilarda to‘g‘ri yozish malakasi shakllanadi va ularning yozma nutqi ravon hamda mazmunli bo‘lib boradi19.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imloviy muammolarni bartaraf etish jarayoni ularning savodxonligi va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarda imloviy sezgirlikni shakllantirish, to‘g‘ri yozuvni mustahkamlash va xatolarni tahlil qilish orqali yozma nutq sifatini oshirish mumkin. Har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri metodlar tanlanishi ta’lim samaradorligini belgilaydi. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va interfaol usullardan foydalanish imlo ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, o‘quvchilarda nafaqat imloviy, balki umumiy til madaniyati ham rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘aniyeva Shodiya Azizovna, Yusupova Intizorxon Xasanjon qizi. Boshlang‘ich sinflarda imlo xatolari ustida ishlash. — Xalq ta’limi jurnali,2023

2. Pirniyazova A.” Boshlang‘ich sinf ona tili o‘qitish metodikasi”. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018.

3. Qosimova K. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2009.

4. Jo‘rayev A. S.” Ta’limning interfaol usullari”. — Buxoro: 2006.

5. Mahmudov N.”Ona tili o‘qitish nazariyasi”. — Toshkent: “Fan’, 2015

6. To‘raqulov F.”Shevalar va adabiy til”. Toshkent:”Fan” 2010

7. Abdullayeva Q., Yo‘ldosheva N. “Savod o‘rgatish darslari”.Toshkent:”O‘qituvchi”, 1996

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA FANLARNI O‘QITISHDA INTEGRATSION YONDASHUV

Djaxangirova Zuxra Tursunovna-
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
djaxangirovazuxra@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fanlarni o‘qitishda integratsion yondashuvning ahamiyati, mazmuni va ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Integratsiya o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tizimli yondashish, fanlararo bog‘liqlikni anglash va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy asosda yoritilgan.*

18 G‘aniyeva Shodiya Azizovna, Yusupova Intizorxon Xasanjon qizi. Boshlang‘ich sinflarda imlo xatolari ustida ishlash

Kalit so‘zlar: *integratsiya, boshlang‘ich ta’lim, fanlararo aloqadorlik, kompetensiya, pedagogik yondashuv, STEAM, didaktik tamoyil.*

Аннотация:

В статье анализируются значение, содержание и влияние интегрированного подхода к обучению предметам учащихся начальной школы. Научно доказано, что интеграция способствует развитию логического мышления, системного подхода, понимания межпредметных связей и жизненных компетенций учащихся.

Ключевые слова: *интеграция, начальное образование, междисциплинарная связь, компетентность, педагогический подход, STEAM, дидактический принцип.*

Annatation:

This article analyzes the importance, content, and impact of an integrated approach to teaching subjects to primary school students. It is scientifically proven that integration helps students develop logical thinking, a systematic approach, an understanding of intersubject relationships, and life competencies.

Keywords: *integration, primary education, interdisciplinary connection, competence, pedagogical approach, STEAM, didactic principle.*

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, amaliy ko‘nikmalar, keng dunyoqarash va kreativlikni shakllantirishdir. Bu jarayonni samarali tashkil etishda fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish – integratsion yondashuv muhim metod sifatida e’tirof etiladi. Integratsiya nazariy bilimlarni real hayot bilan uyg‘unlashtiradi, bilimlarni umumlashtirish orqali ta’lim sifatini oshiradi.

Bugungi kunga kelib jahondagi ko‘plab mamlakatlari ta’lim tizimida integrativ xarakterdagi o‘quv dasturlari va darsliklaridan foydalanib kelmoda. Har bir mamlakat ayni shu davlatning ta’lim tizimiga qo‘yilgan buyurtmaning tabiatidan kelib chiqqan holda integratsiyaning turli darajalarini ishlab chiqqan va joriy qilib kelmoqda. Chunonchi, Buyuk Britaniya ta’lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo‘lsa, Korea va Shvetsariyada integratsiyalashgan fanlar yoki alohida o‘quv predmetlari, Avstraliyada integratsiyalashgan fanlar, Vengiryada madaniyat yo‘nalishidagi o‘quv predmetlari, inson va tabiat, integrativ fanlar, Niderlandiyada alohida o‘quv predmatlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o‘quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o‘qitiladi.

Mamlakatimizda bu sohada dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda. Jumladan, boshlang‘ich ta’lim Davlat ta’lim standartlarida “Ona tili” va “O‘qish” fanlari birlashtirilib, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani yaratildi. Mazkur fan Matematika, Tabiat va boshqa fanlar bilan integratsiya qilib o‘qitishga mo‘ljallangan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ham bir qancha integrativ fanlar o‘quv rejasiga kiritilmoqda. Ularni tashkil qilish orqali o‘quv-bilish jarayonini samaradorlikka erishish nazarda tutilgan, bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir [3].

Ya’ni, mavzularni integratsiya asosida o‘quv materiallarini bayon qilishda oldingi o‘quv materialini keyingisini to‘ldiradi. Lekin, hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Bunday integrativ yondashuv natijasida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda ijodiy faoliyatlari muntazam ravishda rivojlanib, boyib boradi. O‘quv dasturlarida o‘zaro uyg‘unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya bunda dasturlarda mavzulararo uyg‘unlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq, talim-tarbiyaviy jarayonda jamiyat va ta’lim o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirish, manbalarni o‘rganishga ijodiy munosabatni o‘rnatish va shakllantirish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Integratsiyaning u yoki bu darajasini ta’lim jarayonida qo‘llash natijasida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- birinchidan, ta’lim oluvchining vaqti va kuchi tejaladi, uning bilish imkoniyatlari kengayadi;
- ikkinchidan, ota-onalarning hamda davlatning o‘qish jarayoniga sarflaydigan mablag‘ni iqtisod qilish imkoniyati vujudga keladi;
- uchinchidan, mavzulararo integratsiya asosida o‘quv-bilish jarayoni natijalarini istiqbolli qilish mexanizmlari yaratiladi;
- to‘rtinchidan, integratsiyalashgan ta’lim jarayonini boshqaradigan o‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirishni yo‘lga qo‘yish uchun huquqiy metodik imkoniyatlar yaratiladi;

- beshinchidan, integral dasturlar asosida o‘quv-biluv jarayoning iqtisodiy jihatdan samaradorlik darajasi aniqlanadi;

- oltinchidan, o‘quv-biluv jarayonini integral dasturlar asosida tashkil etish sohasidagi xalqaro tajribalardan keng foydalanish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi va shu kabilar.

Dars jarayoni faqat ta’limiy bo‘lib qolmasdan, ta’lim oluvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyot haqidagi ilmiy bilimlar respublikamiz kelajagiga ishonch va e’tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Umuman olganda integratsiyalangan dars bir-biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo‘lishi kerak [3].

Integratsion yondashuv tushunchasi:

“Integratsiya” so‘zi lotincha integratio – “bir butunga birlashtirish” degan ma’noni anglatadi. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya fanlarni maqsadli, tizimli ravishda bog‘lab o‘qitishni bildiradi [6]. Bu yondashuv quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi:

- fanlararo mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlaydi;
- o‘quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yordam beradi;
- mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi;
- real hayotiy muammolarni hal qilish tajribasini hosil qiladi.

Integratsion yondashuvning psixologik-pedagogik asoslari.

Boshlang‘ich ta’lim yoshida (7–11 yosh) bolalar tafakkuri obrazli-mantiqiy xarakterga ega bo‘ladi. Ular bilimlarni konkret holatlar, tushunarli misollar orqali egallaydi. Shu bois integratsiya – tasavvur va tahliliy fikrlashni uyg‘unlashtiradi, bolada kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish kabi fikrlash operatsiyalarini rivojlantiradi, mavzularni yaxlit holda idrok etish imkoniyatini yaratadi [1].

Bu yondashuv V. Vygotskiy, J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyalari bilan hamohangdir [1,2].

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyaning shakllari:

1. Mavzulararo integratsiya – ona tili darsida tabiat mavzulari matnlari orqali atrof-muhit haqida bilim berish.
2. Fanlararo loyihalar – “Mening bog‘im” loyihasida biologiya, matematika (o‘lchash), rasm chizish integratsiyasi.
3. STEAM yondashuvi – Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics fanlarini uyg‘un holda qo‘llash.
4. Integratsiyalashgan darslar – matematika + texnologiya (figuralarni yasash, o‘lchash va tayyorlash).

Integratsion yondashuvning afzalliklari:

- O‘quvchilarda kompleks bilim va hayotiy kompetensiya shakllantiradi;
- Darslarni qiziqarli va mazmunli qiladi;
- Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;
- Ijodkorlik va tadqiqotchilikka undaydi;
- O‘quvchilarda baholash, amaliyotga qo‘llash, tahlil qilish ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

Mazkur maqolada ham ta’lim mazmunining innovatsiyalashtirishga oid integrativ yondashuv qilish masalasi yechimi qaraladi. Boshlang‘ich ta’limga integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Hozirgi kunda integratsiyalangan ta’limni yaratish orqali yangilangan ta’lim mazmunini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogikada tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘qitishga integratsiyalashgan yondashuvni metodologik asoslari asosiy fanlarni o‘zlashtirishdagi, tabiat va jamiyatning biriligini tushunish uchun zarur bo‘lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g‘oya va tushunchalarni kiritish ko‘zda tutilgan. Oxirgi paytda ta’limni integratsiyalash to‘g‘risida juda ko‘p fikrlar bildirilmoqda. Olimlar va amaliyotchi-o‘qituvchilar bolalar qanday qilib dunyo to‘g‘risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo‘yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to‘g‘risida bosh qotirmoqdalar. Bir-biriga yaqin bo‘lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etishga harakatlar bo‘lmoqda. Chet el tajribasi bilan tanishish ham shuni ko‘rsatadiki, fan va jamiyat (amaliyot) haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo‘luvchi integratsiyalangan fanlar ko‘pgina mamlakatlarning o‘quv dasturlariga kiritilgan. Bu integratsiyalangan fanlar jahon hamjamiyatida o‘quvchilarda o‘z oldiga

qo‘yilgan har tomonlama insonparvarlik hissini shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi to‘g‘risida xabar beradi [4].

Bu esa fanlarga oid bilimlarni sifat jihatdan yangi ijodiy o‘zgarishlarga olib keladi. Ma’lumki, ta’lim jarayonida o‘quv fanlariga oid bilimlar integratsiyalanganda xalqning ijtimoiy tajribasi, til boyligi, ma’naviy-madaniy qadriyatlari, intellektual salohiyatlari, axloqiy meyorlari haqidagi bilim va tushunchalar hamda innovatsion metod va texnologiyalar shaklida o‘rgatilishi lozim. Amaldagi ta’lim jarayonini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, u yoki bu o‘quv fani mazmunida o‘quvchining ijtimoiy tajribasiga kirmay qolgan bilim va tushunchalar mavjud. Buning asosiy sababi o‘quv fanining mazmunini o‘ta murakkab yoki haddan tashqari sodda ekanligidadir. Agar o‘quv materiali o‘ta murakkab bo‘lsa, o‘quvchi uni to‘liq o‘zlashtirishga qiynaladi. Bu o‘quvchida zerikarli holatning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Agar sodda va takror holda ifodalangan bo‘lsa bunday o‘quv materialini o‘zlashtirishiga bo‘lgan ishtiyoq yo‘qoladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi yuqori darajada fan asoslarini o‘rnatishga, tafakkurni rivojlangan olamni bir butunlikda aniqlashga va tasavvur etishga, tevarak atrofda bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri anglashga, ularning mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Olimlarning fikricha, integratsiya didaktik tamoyillar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o‘rin egallaydi. Bunday tushuncha ta’lim tizimida integratsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog‘liqlik masalasini yana bir bor ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta’lim tizimiga integratsiyani kiritish ta’lim muassasasi va jamoatchilik o‘rtasida turgan ta’lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo‘lishi mumkin. Integratsiyalangan mashg‘ulotlar ta’lim oluvchilar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o‘rgatadi. Bu yerda shuni ta’kidlash kerakki, Ona tili darslarining integratsion yondashuvlari ilmiy jihatdan ham ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak. O‘qitish jarayonida integratsiyani qo‘llash nazariyasi taraqqiyoti ilmiy pedagogik tushunchalar rivoji, asosiy va muhim ahamiyatga ega. Integratsiya differensiya bilan uzviy bog‘liqdir. Bu uzviylik o‘quvchilarda olayotgan bilimlarini anglashga bo‘lgan intilishlari ta’limni shakllantirishda yaqqol namoyon bo‘ladi [4].

Integratsion yondashuv – bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integratsiya fanlararo bog‘liqlikdir.

Integratsiyalangan darsning xususiyati bu jarayonda ikki yoki uch ba’zida undan ham ko‘p pedagoglar qatnashishi mumkinligi. Bunday integratsiyalangan ta’limni o‘tish osonmi, murakkabmi? Ko‘pincha o‘qituvchilarga bog‘liq. Lekin, dars bu ishning muhim qismi ekanligini unutmaslik kerak. Aynan dars orqali asosiy masalalar integratsiyalangan kursda amalga oshiriladi va natija omadli yoki omadsiz bo‘lishi mumkin. Lekin, integratsiyalangan dars tushunchasi hamon bahsli bo‘lib qolmoqda. Integratsiyalangan darsning belgi alomatlari qanday?

1. Integratsiyalangan kursning o‘zi yangi murakkab birlik bo‘lib, umuman boshqacha shaklda bo‘ladi hamda masalalarni aniq va samarali yechishga qaratiladi.

2. Ular ikki yoki uchta fan asosida rejalashtiriladi. Shuning uchun bir nechta o‘qituvchi yoki bir nechta o‘quv fanlari materiali mexanik usulda birlashtiriladi.

3. O‘rganishga qiziqish jarayonini faollashtirishning usullari malaka va ko‘nikmalari ishlab chiqiladi.

Xulosa:

Boshlang‘ich sinflarda fanlarni integratsiya asosida o‘qitish ta’lim samaradorligini oshiruvchi zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Bu metod o‘quvchilarning bilimlarini bir butun sistema sifatida idrok etishiga yordam beradi, kreativ tafakkur va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Integratsion ta’limni amaliyotda keng qo‘llash – kelajak avlodning yuqori intellektual salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL MASALALARI

Sheralieva Fazilat Qobul qizi-
Samarqand shahar JAPAN LANGUAGE SCHOOL
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi
Sheraliyevafazilat644@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning global masalalari muhokama qilinadi. Ta’limga kirish imkoniyatlari, ta’lim sifati, innovatsion yondashuvlar yetishmasligi va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolar tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, ushbu muammolarni hal etish yo‘llari, jumladan, ta’limga kirishni kengaytirish, o‘qituvchilarni malakasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash haqida fikrlar bildiriladi. Natijada, global hamjamiyatning ta’lim sifatini yaxshilashdagi roli va mas’uliyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, ta’limga kirish, ta’lim sifati, innovatsion yondashuvlar, ijjtimoiy tengsizlik.

Аннотация. В статье рассматриваются глобальные проблемы развития начального образования. Анализируются такие вопросы, как доступ к образованию, качество образования, отсутствие инновационных подходов и социальное неравенство. В статье также предлагаются пути решения этих проблем, включая расширение доступа к образованию, повышение квалификации учителей, внедрение инновационных технологий и обеспечение социального равенства. В результате подчеркивается роль и ответственность мирового сообщества в повышении качества образования.

Ключевые слова. Начальное образование, доступ к образованию, качество образования, инновационные подходы, социальное неравенство.

Abstract. This article discusses global issues in the development of primary education. Issues such as access to education, quality of education, lack of innovative approaches, and social inequality are analyzed. The article also suggests ways to address these issues, including expanding access to education, improving teacher training, introducing innovative technologies, and ensuring social equality. As a result, the role and responsibility of the global community in improving the quality of education is emphasized.

Keywords. Primary education, access to education, quality of education, innovative approaches, social inequality.

Boshlang‘ich ta’lim, har bir insonning hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, u shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy integratsiya va iqtisodiy o‘sish uchun asos yaratadi. Bugungi kunda, global miqyosda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Ushbu maqolada, boshlang‘ich ta’limning global masalalari, ularni hal etish yo‘llari va kelajakdagi istiqbollar haqida muhokama qilinadi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, pedagoglarning kasbiy faoliyati sifati hamda malakasini uzluksiz oshirish bo‘yicha keng islohotlar olib borilishi natijasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning o‘ziga xos tizimi yo‘lga qo‘yildi [1,2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da «…Kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o‘sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish» [3,4] vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, bu borada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimlarini takomillashtirish asoslarini ishlab chiqish va nazariy-metodik tavsiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning hozirgi rivojlanish jarayoni innovatsion bosqich hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati ijtimoiy va iqtisodiy sohaga yangi g‘oyalar, yondoshuvlar, uslublar haqida texnologiyalarni tatbiq etish bilan belgilanadi. Shu jihatdan ta’lim sohasida innovatsion asoslarga ega ilmiy-tadqiqot yaratish dolzarb bo‘lib turibdi [3]. Bu borada ayniqsa, ta’lim sohasining birlamchi va asosiy bosqichi boshlang‘ich ta’limni integrativ rivojlantirish zaruriyati muammosi e’tiborni tortadi. Boshlang‘ich

ta’lim borasida bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgani holda [4.5], uni integrativ rivojlantirish zaruriyati masalasi maxsus tadqiqi etilgan emas.

Hozirgi zamon pedagogik yondoshuvlariga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim “Umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bosqichi” hamda “bolalarga ilk ta’lim berish va ularni ma’naviy kamol toptirish” sifatida idrok etiladi. Bu yondoshuv nazariy-metodologik jihatdan to‘g‘ri, ayni paytda, mamlakatimizning hozirgi rivojlanish bosqichi boshlang‘ich ta’limning “ilk bosqich” va shaxsni “ma’naviy kamol toptirish” mazmunini innovatsion asoslarga tayanib chuqurlashtirishni taqazo etmoqda. Chunki unga qadar bo‘lgan “maktabgacha ta’lim” bosqichi shaxsni dastlabki tarzda “ma’naviy kamol toptirish” vazifasini boshlab bermoqda. Shu sababli biz boshlang‘ich ta’limni umumiy o‘rta ta’limni boshlab berish, bilimlar jarayoniga olib kirish va shaxsni ma’naviy kamol toptirishni boshlash jarayoni sifatida idrok qilamiz. Bunday yondoshuv boshlang‘ich ta’limning “umumiy o‘rta ta’lim olish uchuchn zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirish” funksiyasini konkretlashtiradi. Shu sababli e’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim “ko‘zga ko‘rinmas”, ammo ta’lim va tarbiyaning eng asosiy hamda poydevor funksiyasini bajarishi e’tirof etiladi.

Ta’limning o‘zga barcha bosqichlari, boshlang‘ich ta’lim bosqichi asosida uyushadi, birlashadi va chuqurlashish uchuchn start oladi. Negaki bu bosqich ta’limning muhim funksiyasi bilim va tarbiya berishni boshlab beradi. Mana shu nuqtai nazarga ko‘ra, maktabgacha ta’limni umumiy ta’lim va tarbiya jarayoniga ish tayyorlash, boshlang‘ich ta’limni boshlash va tayanch umumiy o‘rta ta’limni esa amalga oshirish bosqichlari sifatida idrok etamiz. Tayyorlash, boshlash va amalga oshirish tushunchalarining ma’nosini to‘g‘ri anglash, mumiy o‘rta ta’lim bosqichlari funksiyasini to‘g‘ri tushunishga olib keladi. Demak, boshlang‘ich ta’lim bosqichi ta’limning shunchaki bosqichi emas, balki keyingi ta’lim bosqichlarining fundamental fenomenidir. Bularning barchasi hozirgi sharoitda O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limini innovatsion xarakterga ega bo‘lgan integrativ rivojlantirish zaruriyatini kun tartibiga qo‘yadi.

1. Ta’limga kirish imkoniyatlari. Dunyoning turli burchaklarida ta’limga kirish imkoniyatlari bir xil emas. Ko‘plab mamlakatlarda, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda, bolalar ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lishmoqda. Bu holat, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liq.

2. Ta’lim sifati. Boshlang‘ich ta’limning sifati ham muhim masala hisoblanadi. Ba’zi joylarda o‘qituvchilar yetarlicha malakali emas yoki ta’lim resurslari yetarli darajada emas. Bu esa o‘quvchilarning bilim darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Innovatsion yondashuvlar yetishmasligi. Ta’lim tizimlarida innovatsion yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish darajasi past. Bu esa ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish va o‘quvchilarni zamonaviy dunyoga tayyorlashda qiyinchiliklar tug‘diradi.

4. Ijtimoiy tengsizlik. Boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy tengsizlik muammosi ham dolzarb. Qizlar, kam ta’minlangan oilalardan bo‘lgan bolalar va etnik ozchiliklar ko‘pincha ta’lim olishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Mazkur muammolarni hal etish yo‘llari

1. Ta’limga kirishni kengaytirish. Mamlakatlar hukumatlari va xalqaro tashkilotlar ta’limga kirishni oshirish uchun investitsiyalarni ko‘paytirishi zarur. Bu, maktablar sonini oshirish, transport tizimini yaxshilash va oilalarga yordam berish orqali amalga oshirilishi mumkin.

2. O‘qituvchilarni malakasini oshirish. O‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini yaratish muhimdir. O‘qituvchilar zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirib, o‘quvchilarga sifatli ta’lim berishlari kerak.

3. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘qitish samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, onlayn platformalar va interaktiv materiallar yordamida o‘quvchilarni jalb qilish va ularning qiziqishini oshirish mumkin.

4. Ijtimoiy tenglikni ta’minlash. Ta’lim tizimida ijtimoiy tenglikni ta’minlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Qizlar va kam ta’minlangan oilalardan bo‘lgan bolalar uchun stipendiyalar va qo‘shimcha yordam dasturlari tashkil etilishi kerak.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish global masalalar bilan to‘la bo‘lishi mumkin, lekin bu muammolarni hal etishda harakat qilish zarur. Ta’limga kirishni kengaytirish, o‘qituvchilarni malakasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash orqali

boshlang‘ich ta’lim sifatini yaxshilash mumkin. Kelajakda barcha bolalar sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun global hamjamiyat birgalikda harakat qilishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO. (2020). "Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education." Paris: UNESCO Publishing.
2. World Bank. (2018). "World Development Report 2018: Learning to Realize Education’s Promise." Washington, DC: World Bank.
3. OECD. (2019). "PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do." Paris: OECD Publishing.
4. UNICEF. (2021). "Education in Emergencies: A Global Perspective." New York: UNICEF.
5. Darling-Hammond, L., Bransford, J. (2005). "Preparing Teachers for a Changing World: What Teachers Should Learn and Be Able to Do." San Francisco: Jossey-Bass.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI

Hazratqulov Mutallib Rashidovich-
Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi[2],
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti[2],
Samarqand davlat universiteti doktoranti[2]

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishning samarali usullari yoritiladi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va matn bilan ishlash ko‘nikmalariga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy yondashuvlar, savodxonlik, pedagogik texnologiya, integratsiya, nutqiy faollik, kreativ fikrlash

Аннотация

В статье рассматриваются эффективные методы организации уроков родного языка и чтения в начальных классах на основе современных технологий. Анализируется влияние инновационных подходов на развитие речевой активности, самостоятельного мышления и навыков работы с текстом у учащихся.

Ключевые слова: современные подходы, грамотность, педагогические технологии, интеграция, речевая активность, креативное мышление

Annotation

This article explores effective methods of organizing native language and reading literacy lessons in primary grades through modern pedagogical approaches. It examines how innovative strategies enhance students’ verbal activity, independent thinking, text comprehension, and creative engagement in learning.

Keywords: modern approaches, literacy, pedagogical technology, integration, verbal activity, creative thinking

Boshlang‘ich ta’lim ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar ma’naviyati sog‘lomlashuviga xizmat qiladigan mantiqiy suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv metodlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Dastlab o‘qitish texnikalarini farqlashga diqqatni qaratib usul, metod va texnologiya tushunchalarini farqlab olish lozim.

Xorijda, rivojlangan mamlakatlarda bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ko‘plab loyihalar amalga oshirilib, ulardan samarali foydalanib kelinmoqda. Timoti Uokerning “Finlandiya ta’lim mo‘jizasi” nomli 254 sahifalik kitobida Finlandiya ta’limining butun sirlarini ochib bergan. Eng muhimi, kitobda bir marta ham “metod” so‘zi ishlatilmagan. Kitobda strategiya va

yondashuvlarning bola qobiliyatining rivojlantirishdagi ahamiyatlari borasida gapiriladi. Shunday strategiyalardan biri “Quvonch omili’ deb nomlanib, fin o‘qituvchilari o‘quv jarayoniga quvonchni olib kirishni darsning asosiy maqsadi qilib belgilab olishadi. Maktablarning barcha o‘qituvchilari baxtni o‘quv jarayonining ustuvor maqsadi sifatida qarashadi. Muvaffaqiyatning ildizi shundan boshlanadi [2].

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardan – Youtube, telegram va boshqa ijtimoiy tarmoqlardan juda ko‘plab o‘yin texnologiyalari, inerjayzerlar (harakatli o‘yinlar)ni topish va dars jarayonida ma’lum bir mavzuga bog‘lab yoki “dam olish daqiqasi”, “quvnoq daqiqa” sifatida ulardan foydalanish mumkin.

Q.Husanboyeva dars usullari borasida quyidagilarni yozadi: “Maktab amaliyotida usul, ko‘pincha, metod bilan almashtirib yuboriladi. Usullar farqlanib-farqlanmay metod deb ketilaveriladi. Aslida usullar metodlarni yuzaga keltiruvchi, uni tashkil qiluvchi unsurlardir. Masalan, ta’limning muammoli metodi muammoli vaziyat yaratish, o‘quv farazlarini shakllantirish, ularni isbotlash singari usullarni o‘z ichiga qamrab oladi” [3].

Q.Husanboyeva dars bilan bog‘liq jarayonlarni – aniqlik kiritish usuli, isbotlash usuli, savol berish usuli tarzida izohlaydi va “Savollar tuzish, savol bilan o‘quvchilarga murojaat qilish usullari tarbiyalanuvchilarni mustaqil faoliyatga yo‘naltiruvchi evristik, taqqoslash-qiyoslash, tadqiqot, induktiv, deduktiv metodlarning asosini tashkil etadi”-deya ta’kidlaydi [3].

Umumiy xulosa qilib, usul – o‘qituvchining muomalasi, nutqi, murojaat turi, darsda o‘quvchilar bilan ishlash rejasi va harakatlari ekanligini, metodlar – o‘qituvchining berishi lozim bo‘lgan ma’lumotini, tushuntirayotgan mavzuni oson va qulay yetkazish imkonini beruvchi usullar yig‘indisi deb tushunishimiz mumkin. Usullar ko‘proq o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlash jarayoniga bog‘liq bo‘lsa, metod ma’lumotni aniq, qulay va tez yetkazish jarayoniga qaratiladi. Usullar ko‘proq individuallikka bog‘liq bo‘lsa, metodlar umumiylikka asoslanadi.

Pedagogik texnologiyalarni dars mavzusini, ma’lum bir ma’lumotni yetkazish uchun ishlab chiqarilgan, ma’lum tartib-qoida, vaqtga asoslangan jarayon deb tushunish mumkin: “BBB”, “Sinkveyn”, “Intellekt xarita” kabi darsning ma’lum bir jarayonini faollashtirish uchun qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar mavjud.

Boshlang‘ich sinflar ona tili va o‘qish savodxonligi darslari jarayonida foydalaniladigan o‘rgatish metodlari safiga hozirgi paytda jadallik bilan xorijiy tajribalarda qo‘llanilayotgan texnika, effekt, refleksiyalarni ham kiritish mumkin.

Boshlang‘ich sinflar ona tili va o‘qish savodxonligi darslari jarayoni uchun muhim metodlardan biri “Kaizen” texnikasi hisoblanadi. Ushbu texnika orqali o‘quvchilarda ijobiy o‘zgarishlarga osonlik bilan erishish mumkin.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyaning taraqqiyot yo‘li sifatida ishlab chiqilgan “Kaizen” (continuous improvement) falsafasi bugunga kelib barcha sohalarda, qolaversa shaxsiy rivojlanish uchun ham foydalanib kelinmoqda [5].

Bu doimiy takomillashtirishni anglatadigan atama bo‘lib, “kaizen” ta’rifi ikkita yapon so‘zidan kelib chiqadi: “kai” va “zen” - ingliz tilida “continuous improvement” – “doimiy takomillashtirish” degan ma’noni anglatadi. Yaponiya falsafasiga aylangan bu yo‘lning mashhurlikka erishishi avtomobil ishlab chiqaruvchi Toyota kompaniyasidan boshlangan. Aynan ushbu yo‘l Toyota kompaniyasini tanazzuldan olib chiqqan va butun dunyoga mashhur qila olgan edi.

Kaizen jarayonini faqat to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Maqsad va unga qanday erishish mumkinligi aniqlanadi.
2. Reja tuziladi va uni bajarish usullari o‘ylab topiladi.
3. Natijalar tekshiriladi va takomillashtirish imkoniyatlari aniqlanadi.
4. Oldingi bosqichlarda erishilgan narsalarga qarab doimiy tuzatishlar kiritilib boriladi.

Kaizen falsafasining eng asosiy ma’nosi – Siz doimiy ravishda maqsadingiz uchun kichik nimanidur amalga oshirib boring. Kaizen falsafasini o‘rganuvchilar shunday deydi: "Agarda, yugursangiz yo‘lning yarmida to‘xtab qolasiz, katta qadamlar bilan harakat qilsangiz nafasingiz qisishi mumkin, aksincha, har kungi kichik qadamlar orqali maqsadingiz sari intiling".

Ushbu texnikaning o‘quvchilar faoliyatiga nisbatan bog‘liqlik jihati mavjud. O‘quvchilar, odatda qiyinroq mavzuni o‘zlashtirishga qiynalishadi. Bu esa borib-borib o‘quvchilarni ayrim fanlardan umuman bezdirib qo‘yishi mumkin.

Ushbu vaziyatda bir narsaga e’tibor qaratish lozim: o‘quvchilarni murakkab mavzuni o‘zlashtirishga majburlamaslik, aksincha, o‘quvchiga motivatsiya berish, ushbu vaziyatda darsda lirik chekinish qilib, o‘quvchilarni “Kaizen” texnikasi asosida ishlashga yo‘naltirish lozim bo‘ladi.

Jahon ta’limida keng qo‘llaniladigan zamonaviy texnikalardan yana biri “**VARK modeli” hisoblanadi. Bu model to‘rtta faoliyatga asoslanadi:**

1. Ko‘rish – o‘quvchilar bilim, tushuncha va haqiqatlarni ko‘rish orqali o‘rganadilar.
2. Eshitish – o‘quvchilar **bir qator ko‘nikma va malakalarni e**shitish orqali o‘rganadilar.
3. O‘qish va yozish – o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi rivojlantiriladi.
4. Harakatlanish – o‘quvchilar erkin va ijodiy faoliyatga o‘rganib boradilar [5].

O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni ko‘rish orqali o‘zlashtirishlari jarayoni – video tomosha qilishni yaxshi ko‘radigan, rasmlar, jadvallar va grafikalar singari taqdimotlarni xush ko‘radiganlarga mos keladi. Inson miyasi vizual ma’lumotni oddiy matnga qaraganda ancha tez, chuqur va oson qayta ishlaydi. Darsda ushbu vositalardan tez-tez foydalanib turilsa, o‘quvchilarda o‘quv faniga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi.

Eshitish jarayoni – ma’ruzalar va audio kitoblarni tinglashni yaxshi ko‘radigan o‘quvchilarga mos keladi. Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘quvchilar eshitgan narsalarini o‘rganishi oson kechadi. Eshitib tushunish qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchilar film tomosha qilganda qahramonlarning harakatlarini, voqealar rivojini emas, balki filmda aytilganlarni yaxshi eslab qolishadi. Shuning uchun darsda turli podkastlardan foydalanish mumkin.

O‘qish va yozish orqali o‘rganish jarayoni - o‘qish va yozish qobiliyatiga ega o‘quvchilarga mos keladi. Buning sababi shundaki, ular o‘qigan va yozgan so‘zlar ongida osonlikcha saqlanib qoladi. Bu usul har bir darsda ishlatiladi. Chunki o‘quvchida o‘qish va yozish orqali ma’lumotlar yaxshi saqlanib qoladi.

Harakatlanish usullari – sinfda turli harakatlardan iborat o‘yinlar va musobaqalar orqali amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini turli o‘yinlar orqali o‘rinlaridan turishi va turli harakatlar qilishi darsda tetik va diqqat bilan o‘tirishlariga katta yordam beradi.

Tajribadan ma’limki, o‘quvchilar tugallangan ma’lumotdan ko‘ra uzilib qolgan harakatlarni yaxshiroq eslab qoladi. Bluma Zeigarnik xotiraning motivatsion komponentining buzilishi doirasida ushbu ta’sirni o‘rganib chiqdi, keyinchalik bu metod “Zeigarnik metodi” deb nomlanib, uning nomi bilan bog‘liq nomga ega bo‘ldi [4].

Garvard universiteti talabalari orasida bir ajoyib tadqiqot o‘tkazilgan. Unga ko‘ra, talabalarda fikr va rejalarini yozib borishi yo yozmasligi borasida so‘rovnoma o‘tkazilgan. Tadqiqot bo‘yicha, 98% talaba hech qanday g‘oyalarini yozishmas ekan. Atiga 2% talaba kunlik g‘oya va fikrlarini qayd etib borishlari aniqlangan. Oradan 10 yil vaqt o‘tib, 2% o‘z fikrlarini yozib boradigan talabalar muvaffaqiyatli biznesmenlarga aylanishgan. Qolgan 98% talaba oddiy ishlarda ishlayotgani ma’lum bo‘lgan. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, Zeygarnik effektini va parishonxotirlikni oldini olish va tartibli, maqsadli o‘quvchi bo‘lishga yordam beradi.

Bajarishi o‘ylangan va bajarilmay qolib ketgan ishlar, aytilishi kerak, lekin aytilmay qolib ketgan gaplar o‘quvchining miyasida doimo aylanib yuraveradi. Uyquga yotishdan oldin kun davomida qilinishi kerak, lekin bajarilmay qolgan ishlar yoki aytilishi kerak, lekin aytilmay qolgan gaplar miyaga kela boshlaydi. Bu hol takrorlanmasligi uchun maktabda tanaffus payti, yo‘lda piyoda ketayotganda yoki kitob o‘qiyotganda, dars tinglayotganda biror kichikroq noutbook ruchka yonda bo‘lishligi, fikr, g‘oya, reja, muhim gap xayoliga kelishi bilan uni dastlabki 10 soniya ichida darhol yozib qo‘yish maqsadga mukvofiq bo‘ladi. Chunki, fikrlar darhol ushlab olinmasa, u miyaning tubiga cho‘kib ketadi va uni qaytib eslay olish qiyin kechadi. Maqsad, reja va hattoki, xayolga kelgan g‘oyalarning barchasini dastlabki bir daqiqa ichida yozib olish kerak, bu yashash va fikrlash tarzini tubdan o‘zgartirib yuboradi.

“Oppog‘oy” effekti, avvalo, dars jarayonlarini, tanlangan kasbni yoki o‘z ishini yoqtirmaydigan o‘quvchilarni motivatsiya qilish maqsadida yaratilgan pedagogik yondashuvdir. Uning asosida hayotga va faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirish yotadi. Bu tushuncha mashhur ertak

qahramoni Oppog‘oyning dunyoga mehr bilan qarashi, barcha narsani sevishi va har qanday vaziyatdan ijobiy imkoniyatlarni topib yashash odatidan ilhomlangan.

Zamonaviy ta’lim jarayonida ko‘plab o‘quvchilar darslarga qiziqish bildirmaydi yoki o‘z tanlagan yo‘nalishlariga ehtiros bilan qarashmaydi. Buning sabablaridan biri – ularda ichki motivatsiyaning yo‘qligi va tashqi muhitning bosimi. “Oppog‘oy” effekti ana shu muammolarga yechim sifatida taklif qilinadi. Uning asosiy vazifasi – o‘quvchilarning ichki qiziqishini uyg‘otish, ularning dunyoqarashini ijobiy tomonga o‘zgartirish va ularga muvaffaqiyat sari ilhom bag‘ishlashdir.

Har bir o‘quvchi darsni yoki ishni sevib bajarishi uchun, avvalo, o‘zida ijobiy munosabatni shakllantirishi kerak. Bu borada o‘qituvchilar va murabbiylar rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarni faoliyatning quvonchli jihatlarini ko‘rsatish orqali ilhomlantirishi lozim.

O‘quvchilar biror fanni yoki kasbni yoqtirmasa, bu aksar hollarda o‘sha yo‘nalishning ularga qiziqarli ko‘rinmasligidan kelib chiqadi. “Oppog‘oy” effekti yordamida ushbu muammo qiziqarli taqdimotlar, amaliy mashg‘ulotlar va real hayotiy misollar orqali hal qilinadi.

Oppog‘oy qahramonining xususiyati – har bir narsaga mehr bilan qarash va boshqalarni ham shu hislarga ilhomlantirishdir. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarga o‘zlarini yaxshi ko‘rish, ulardagi imkoniyatlarni qadrlash va atrofdagi jarayonlardan zavq olish tushuntiriladi. O‘quvchilarning har bir kichik muvaffaqiyatini e’tirof etish ularni yanada kuchli harakat qilishga undaydi. Bu ularda o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Ta’limni qiziqarli va interaktiv usullar bilan taqdim etish o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Masalan, darslarni ertak shaklida o‘tkazish, amaliy mashg‘ulotlarni loyiha yoki o‘yin ko‘rinishida tashkil etish. Murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli qilib yetkazish o‘quvchilarni chalkashlikdan xalos qiladi va ularda mavzuga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

“Oppog‘oy” effekti nafaqat o‘quvchilarning darslarga yoki ishga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, balki ularda shaxsiy muvaffaqiyatga erishish istagini uyg‘otishdir. O‘quvchi darsni sevishni o‘rgansa, tanlagan yo‘lida muvaffaqiyatli bo‘lish ehtimoli oshadi. Shunday qilib, bu yondashuv o‘quvchining nafaqat bilim olishiga, balki o‘z hayotidan zavq olishiga ham yordam beradi.

"Oppog‘oy" effekti – bu hayotga sevgi va mehr bilan qarash falsafasi bo‘lib, ta’lim va tarbiyada yangi yondashuvni ifodalaydi. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarning sinfdagi barcha narsalarni: kasbi, o‘quvchilar, sinf xonasi, sinfdagi jihozlar va shu kabilarni sidqidildan sevishni anglatadi. Shundan so‘ng kasb orqali baraka kelishi, rivojlanish, muvaffaqiyat kirib kelaveradi.

O‘zbekistonda ta’limni isloh qilish bilan bog‘liq bir qator loyihalar, amaliy tajribalar o‘tkazilayotgan bo‘lsa-da, natija kutilganidek emas. Buning boisi ta’lim va hayot o‘rtasida katta bo‘shliqning mavjudligi. Ta’lim jarayoni hayot uchun xizmat qilayotgandek ishlasa-da, mehnat qilinsa-da, real natija kutilganidek yoki istalganidek chiqmayotganligi, ta’lim va tarbiyada muammolar ortib borishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Doimo muammo haqida gapirilganda kimnidir yoki nimanidir ayblash odat bo‘lib qolgan. Muammoni aytish bilan qoralanuvchi tomonni – obyektni aniqlab olib shu tomonga nisbatan barcha qoralovlarni aytish bilan muammoga yakun yasaladi.

Ta’lim tizimidagi muvaffaqiyatsizliklarni, ko‘pincha moddiy ta’minlanganlik darajasi bilan o‘lchashga o‘rganib qolingan. Yetarli sharoit mavjud emasligi, maosh ozligi va shunga o‘xshash sabablar ta’lim samarasizligining asosi sifatida ko‘rsatiladi. Aslida, ta’lim beruvchi uchun oylik maosh birinchi o‘rinda turmasligini, balki quvonch, tajriba, dars berish zavqi moddiy manfaatdorlikdan ustunligini “90/10” effekti asosida tushuntirib berish mumkin.

Ahmad Muhammad Tursunning “Islom hazorasi” kitobida shunday satrlar yoziladi: “Nizomulmul turli shaharlarda mashhur madrasalarni bino qilgan paytda ularga dars beradigan mudarrislarga maosh tayin qildi. Ulamolar bu ishni qoralab to‘plandilar hamda ilm va uning barakasi ketganligini aytib ilm uchun motam tutdilar. Ushbu marosimda shunday so‘zlar aytildi: “Ilm bilan, uning sharafli ekanligi uchun u bilan kamol topishni maqsad qilgan oliyhimmat va qalbi toza kishilar shug‘ullanardi. Agar ilmga haq tayinlansa, endi unga tuban va tanballar yaqinlashadi. Bu esa ilmning xorlanishi va zaiflanishiga sabab bo‘ladi” [1].

Bir qancha psixologik adabiyotlarda pul kelish uchun unga ochilish – kelayotgan pulga mos holatda bo‘lishlik ta’kidlanadi. Ya’ni soddaroq tushuntirilsa, biz tomonga kelayotgan moddiy mablag‘

qilayotgan ishimizga proporsional hisoblanadi. O‘qituvchining shunchaki yuzakilik bilan darsni o‘tishi va chin sidqidildan dars tashkil qulishlik boshqa-boshqa jarayonlar hisoblanib, ularning oqibatlari insonning turmush tarzi, muvaffaqiyati, imkoniyat darajasi, omadli-omadsizligini belgilab beradi.

O‘qituvchining moddiy farovonligi, zaruriy ta’minlanganligi olayotgan maoshi bilan emas, uning dars jarayonida qilayotgan harakati bilan o‘lchanadi. Inson hayotida 10% moddiy mablag‘ ahamiyatli hisoblanib, 90% uning ishi, faoliyati, kasbini sevishi, kasbiga mehr berishi bilan belgilanadi. Bu qonuniyatni noto‘g‘ri tushunish kasb egasining bir umr muhtoj, moddiy yetishmovchilik, o‘zini baxtsiz his qilishlik, asl maqsadga yetolmaslik xususiyatlariga bog‘lab qo‘yadi. Uning bu holati tarbiyalanuvchilar faoliyatiga ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Milliy pedagogikada bugun keng qo‘llanilayotgan metodlar, o‘quvchilar va o‘qituvchilardan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch talab qilmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga mo‘ljallangan. Bu metodlar orqali o‘quvchilarga zarur bilimlarni yetkazish, ularda ma’lum bir faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malaka hosil qilish hamda, shu bilan birga, o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash o‘qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik mahoratni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ahmad Muhammad Tursun. Islom hazorasi. -Toshkent: Hilol nashr, -2018. 320 b.130-bet.

2.Timoti Uoker. Finlandiya ta’lim mo‘jizasi. –Toshkent;”Global books”,-2023. 272 b. 27-bet.

3.Husanboyeva Q., M.Hazratqulov, F.Shodiyev. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent:”Innovatsion-Ziyo”, 2020.380 bet. 156-bet

4.Zeigarnik, B. (1927). Das Behalten erledigter und unerledigter Handlungen. Psychologische Forschung. 1-85.

5.@kreaped.uz telegram kanali

BOSHLANG‘ICH SINF TA’LIM OLUVCHILARIDA ADABIY OG‘ZAKI IFODA MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Hamdamova Zilola Shaxobiddin qizi,
PROFI UNIVERSITY Navoiy filiali o‘qituvchisi
+998907319557, zilolahamdamova95@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ta’lim oluvchilarida to‘g‘ri og‘zaki ifoda ko‘nikmasini shakllantirish jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan baho beriladi. Nutq madaniyati, tovushshunoslikka oid rivojlanish, didaktik faoliyatli metodlar, raqamli ta’lim vositalari vositalari va ta’lim oluvchi faoliyatini faollashtiruvchi amaliy amaliy topshiriqlar orqali og‘zaki ifodani shakllantirishning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki ifoda, fonematik eshitish, og‘zaki muloqot ko‘nikmalari, boshlang‘ich ta’lim, metodika, didaktik faoliyat texnologiyalari.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЛИТЕРАТУРНОЙ УСТНОЙ РЕЧИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье дается оценка процессу формирования навыка правильной устной речи у учащихся начальных классов с точки зрения современных педагогических подходов. Анализируется эффективность формирования устной речи через культуру речи, развитие фонетических знаний, дидактические деятельностные методы, средства цифрового образования и практические задания, активизирующие деятельность обучающихся.

Ключевые слова: Устная речь (или: Устное выражение), фонематический слух, навыки устного общения, начальное образование, методика, технологии дидактической деятельности.

EFFECTIVE METHODS FOR FORMING LITERARY ORAL EXPRESSION SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: This article assesses the process of forming the skill of correct oral expression in primary school students from the perspective of modern pedagogical approaches. The effectiveness of developing oral expression is analyzed through speech culture, phonetic knowledge development, didactic activity-based methods, digital education tools, and practical tasks that activate student engagement.

Keywords: Oral expression, phonemic hearing (or: phonemic awareness), oral communication skills, primary education, methodology, didactic activity technologies.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida ta’lim oluvchilarning og‘zaki muloqotini to‘g‘ri shakllantirish ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. Tovushlarni me’yor darajasida og‘zaki ifoda qilish, so‘zlarni aniq aytish, ohangni to‘g‘ri qo‘llash-bularning barchasi keyingi o‘qish, yozish va muloqot malakalariga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun to‘g‘ri og‘zaki ifodani shakllantirish jarayonida metodik yondashuvlar puxta tashkil qilinishi zarur.

Asosiy qism

1.Talaffuz ko‘nikmasining shakllanish omillari.

To‘g‘ri og‘zaki ifodaning rivojlanishi ta’lim oluvchilarning fonematik eshitish darajasi, artikulyatsion imkoniyatlari hamda pedagogning og‘zaki muloqoti namunasiga bog‘liq. Boshlang‘ich yosh og‘zaki muloqot taraqqiyoti uchun sezgir davr bo‘lgani sababli ushbu bosqichda tovushshunoslikka oid tayyorgarlik izchil yo‘lga qo‘yilishi kerak. Shuningdek, ta’lim oluvchi faoliyatini rag‘batlantiruvchi amaliy topshiriqlar og‘zaki ifodadagi xatolarni kamaytiradi.

2. Talaffuzni rivojlantirishda samarali metodlar

2.1. Fonetika asosidagi amaliy topshiriqlar tovushlar artikulyatsiyasini mustahkamlash; qiyin og‘zaki ifoda qilinadigan tovushlar bilan ishlash; bo‘g‘inlab aytish amaliy topshiriqlari; tez aytishlar va she’rlar asosida amaliy topshiriq qilish.

2.2. O‘yin texnologiyalari Boshlang‘ich sinf ta’lim oluvchilari didaktik faoliyat orqali oson o‘rganadi. "Tovushni ajrat", "Top va ayt", "To‘g‘ri og‘zaki ifoda qilgin" kabi didaktik faoliyatlar ta’lim oluvchi diqqatini jamlaydi, faol ishtirokni ta’minlaydi.

2.3. Raqamli ta’lim vositalari vositalaridan foydalanish audio darslar; multimediali amaliy topshiriqlar; animatsion videolar; og‘zaki ifoda nazoratini avtomatik tekshiruvchi ilovalar. Bu vositalar ta’lim oluvchilarning eshitish va takrorlash malakasini mustahkamlaydi.

3. O‘qituvchi og‘zaki muloqotining o‘rni.

O‘qituvchining og‘zaki muloqoti ta’lim oluvchi uchun asosiy namuna hisoblanadi. Shu sababli pedagog dars jarayonida toza, ravon va me’yoriy og‘zaki ifoda bilan so‘zlashga alohida e’tibor qaratishi lozim. Didaktik jarayon davomida ta’lim oluvchining xatolarini yumshoq tarzda tuzatish muhim.

4. Amaliy tavsiyalar Har dars boshida qisqa tovushshunoslikka oid amaliy topshiriqlar o‘tkazish. O‘quvchilar uchun "og‘zaki ifoda daftari" yuritish. Matnlarni ifodali o‘qishni muntazam tashkil etish. O‘xshash tovushlarni solishtirish amaliy topshiriqlaridan foydalanish.

5. Qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish. O‘quvchilarda ko‘pincha "r", "q", "g‘" kabi tovushlarda qiyinchiliklar kuzatiladi. Buni bartaraf etish uchun artikulyatsion gimnastika, takroriy treninglar va audio solishtirish amaliy topshiriqlari qo‘llaniladi.

6. Ota-ona hamkorligining o‘rni. Talaffuzni mustahkamlash uchun uy sharoitida ham amaliy topshiriq zarur. Ota-onalar bilan hamkorlikda o‘qish amaliy topshiriqlari, tez aytishlar va ta’lim oluvchi og‘zaki muloqotini kuzatish ishlarini tashkil qilish samaradorlikni oshiradi.

7. Innovatsion yondashuvlar mobil ilovalar; audiokitoblar; gamifikatsiya elementlari; interaktiv topshiriqlar.

8. Amaliy misollar

1. Artikulyatsion amaliy topshiriqlar majmuasi.
2. “Tovushni top” testi.
3. Ifodali o‘qish amaliy topshiriqlari.
4. Tovushlarni tezlikka qarab aytish.

9. Kuzatuvlar natijasi

Tizimli mashg‘ulotlar tashkil qilinganda ta’lim oluvchilarda to‘g‘ri og‘zaki ifoda qilish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi.

10. O‘quvchilarning individual og‘zaki ifoda xususiyatlarini inobatga olish.

Har bir ta’lim oluvchining tovushshunoslikka oid qobiliyati, og‘zaki muloqoti rivojlanish darajasi, tovushlarni farqlash tezligi bir-biridan farq qiladi. Shu sababli pedagog: har bir ta’lim oluvchi uchun alohida kuzatuv kartasi yuritishi; individual og‘zaki ifoda muammolarini qayd etib borishi; ta’lim oluvchining psixologik holatini hisobga olishi; uyga mustahkamlovchi amaliy topshiriqlar berib borishi lozim. Individual yondashuv natijasida ta’lim oluvchining og‘zaki ifodadagi kamchiliklari sekin-asta bartaraf etiladi.

11. Dars jarayonida ifodali o‘qishning o‘rni. Ifodali o‘qish nafaqat o‘qish malakasini, balki to‘g‘ri og‘zaki ifodani shakllantirishga ham katta yordam beradi. Ifodali o‘qish jarayonida: urg‘u; intonatsiya; pauza; ohang kabi elementlar tabiiy tarzda amaliy topshiriq qilinadi. O‘quvchilar matnni turli ohanglarda o‘qib ko‘rish orqali tovushlar va so‘zlarni to‘g‘ri og‘zaki ifoda qilishni mustahkamlab boradi.

12. O‘quvchilar bilan juftlik va guruhli ishlar tashkil etish.

Talaffuzni rivojlantirishda hamkorlikda ishlash metodlari juda samarali hisoblanadi. Juftlik va guruhli mashg‘ulotlar orqali ta’lim oluvchilar bir-birining og‘zaki muloqotini eshitadi, taqqoslaydi va o‘z xatolarini tezroq anglaydi. Bunda quyidagi topshiriqlar qo‘llash mumkin: juftlikda dialog tuzish; guruh bo‘lib she’r yoki kichik matnni ifodali o‘qish; rolli didaktik faoliyatlar orqali og‘zaki muloqotiy vaziyat yaratish.

13. Talaffuzni mustahkamlovchi qo‘shimcha vositalar. Quyidagi vositalar ta’lim oluvchilarda og‘zaki ifodani shakllantirish jarayonini ancha osonlashtiradi: rangli kartochkalar (tovushlar uchun); mobil telefon uchun tovushshunoslikka oid amaliy topshiriq ilovalari; ovoz yozib olish qurilmalari (ta’lim oluvchi o‘z ovozini eshitib tahlil qiladi); interaktiv doska orqali tovushshunoslikka oid didaktik faoliyatlar. Bu vositalar yordamida ta’lim oluvchilar og‘zaki ifoda jarayonida faol ishtirok etadi va mustaqil amaliy topshiriq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

14. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar.

Talaffuzni shakllantirish faqat dars bilan chegaralanmasligi kerak. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish ta’lim oluvchilarda o‘z-o‘zidan og‘zaki muloqotiy faollikni kuchaytiradi. Quyidagi faoliyatlar samarali hisoblanadi: teatr to‘garaklari; ifodali o‘qish musobaqalari; topishmoq va tez aytishlar tanlovlari; kichik spektakllar tayyorlash. Bunday mashg‘ulotlar nafaqat og‘zaki ifodani, balki ta’lim oluvchilarning sahna madaniyati va ishonch bilan gapirish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf ta’lim oluvchilarida to‘g‘ri og‘zaki ifoda ko‘nikmasini shakllantirish bosqichma-bosqich tashkil etiladigan metodik jarayon bo‘lib, tovushshunoslikka oid amaliy topshiriqlar, didaktik faoliyat texnologiyalari, raqamli ta’lim vositalari vositalari va pedagogik yondashuvning uyg‘unligi yuqori natija beradi. Mazkur usullar ta’lim oluvchilarning og‘zaki muloqot madaniyatini rivojlantirib, ularning og‘zaki muloqot qobiliyatini mustahkamlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmasini rivojlantirish ularning ta’lim jarayoni va ijtimoiy muloqotini yaxshilashga xizmat qiladi. Fonetik mashqlar, nutqiy diqqat, vizual yordamlar, o‘yin va ota-ona ishtiroki birgalikda qo‘llanilganda, bolalar nutqi aniq, ravon va ishonchli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axunov S (2018). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq va talaffuzni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.

2. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha DTS. Toshkent, 2023.

3. Islomova, M. (2019). Boshlang‘ich sinfda talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish usullari. O‘zbekistonda pedagogik ilmiy jurnali, 5(2), 45–52.

4. Karimova, N. (2020). Bolalar nutqi va fonetika mashqlari. Toshkent: Ilm-Fan.

5. Matchonov S. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2021.

6. Yuldasheva K. Nutq o‘stirish metodikasi. Toshkent, 2020.

7. Pedagogika va psixolingvistika bo‘yicha ilmiy manbalar.

8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklari” (1-4 sinflar). Toshkent:”O‘qituvchi”, 2020-2023.

BOSHLANG‘ICH TA'LIMDA INTERFAOL METODLAR ORQALI ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.

Hasanova Go‘zal Kamol qizi-
Navoiy davlat universiteti 1-bosqich magistratura talabasi
Ilmiy rahbar NavDU “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi
katta o‘qituvchisi,f.f.f.d. (PhD) A.E.Botirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Interfaol metodlar o‘quvchilar faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, til kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda ona tili darslarida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Sinkveyn”, “Insert”, “Savol-javob”, “Muammoli vaziyat” kabi metodlarni qo‘llashning didaktik imkoniyatlari va amaliy natijalari tahlil qilindi. Shuningdek, dars jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol metod, boshlang‘ich ta’lim, ona tili, kompetensiya, mustaqil fikrlash, interfaol ta’lim texnologiyalari, dars samaradorligi.

Аннотация: В данной статье освещена эффективность использования интерактивных методов на уроках родного языка в начальных классах. Интерактивные методы способствуют повышению активности учащихся, формированию самостоятельного мышления, а также развитию языковых компетенций. В исследовании проанализированы дидактические возможности и практические результаты применения таких методов, как «Мозговой штурм», «Кластер», «Синквейн», «Инсерт», «Вопрос-ответ» и «Проблемная ситуация» на уроках родного языка. Кроме того, представлены методические рекомендации по эффективной организации учебного процесса.

Ключевые слова: интерактивный метод, начальное образование, родной язык, компетенция, самостоятельное мышление, интерактивные образовательные технологии, эффективность урока.

Annotation: This article highlights the effectiveness of using interactive methods in native language lessons in primary school. Interactive methods play an important role in increasing students’ activity, developing independent thinking, and improving language competencies. The study analyzes the didactic possibilities and practical outcomes of applying methods such as “Brainstorming,” “Cluster,” “Cinquain,” “Insert,” “Question-Answer,” and “Problem Situation” in language lessons. In addition, methodological recommendations for effective organization of the lesson process are provided.

Keywords: interactive method, primary education, native language, competence, independent thinking, interactive learning technologies, lesson effectiveness.

Kirish

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarini tashkil etishda o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarda nutq madaniyati, to‘g‘ri yozish, o‘qish va fikrni ravon bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Davlat ta’lim standartlarida o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida qayd etilgan. Bu jarayonda an’anaviy ma’ruza va tushuntirish metodlari bilan bir qatorda interfaol ta’lim metodlariga tayanish dars samaradorligini keskin oshiradi.

Interfaol metodlar o‘quvchini bilim oluvchi obyektdan faol subyektga aylantiradi. Ular o‘quvchini mustaqil fikrlashga, savol berishga, izlanishga, xulosaga kelishga undaydi. Shu sababli, hozirgi davr ta’lim siyosatida interfaol metodlar asosiy metodlar sirasiga kiritilgan

Tahlil va muhokama

Boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarining samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o‘rni nihoyatda muhimdir. Chunki ona tili fani mazmuni o‘quvchilarda to‘g‘ri, aniq, mantiqiy fikrlash, nutqiy madaniyat va grammatik savodxonlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish esa o‘qituvchidan dars jarayonini faollashtiruvchi, o‘quvchini fikrlashga, muloqotga va izlanishga undovchi metodlardan foydalanishni talab qiladi. Interfaol metodlarning asosiy didaktik mohiyati shundaki, ular o‘quvchini o‘rganish jarayonining faol subyekti sifatida

namoyon etadi. Bu esa zamonaviy ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tamoyili bilan uyg‘unlashadi [2].

Psixolog olim L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, o‘quvchilarning bilish faoliyati va tafakkuri muloqot jarayonida shakllanadi. Ya’ni, o‘quvchi o‘zi mustaqil anglagan bilimni boshqalar bilan fikr almashish jarayonida yanada mustahkamlaydi, mazmunan boyitadi va faol qo‘llay oladi [3]. Interfaol metodlarning samarasi ham aynan shu psixologik qonuniyatga asoslangan. O‘quvchilar savol berish, o‘z nuqtai nazarini asoslash, boshqalar fikrini baholash orqali bilimlarni faol ichki qayta ishlash jarayoniga kirishadi. Natijada dars jarayonida o‘quvchining tafakkuri faollashadi, nutqi rivojlanadi, mustaqil qaror qabul qilish layoqati shakllanadi.

Interfaol metodlar ona tili darslarining barcha tarkibiy qismlarida – matn ustida ishlash, so‘z boyligini kengaytirish, grammatik bilimlarni o‘zlashtirish, imlo malakasini shakllantirish, fikrni og‘zaki va yozma bayon qilish kabi jarayonlarda qo‘llanishi mumkin. Masalan, matn bilan ishlashda “Klaster”, “Insert”, “B/B/B” kabi metodlar o‘quvchilarni matndan asosiy ma’lumotni ajratib olishga, o‘qiganini tahlil qilishga va mavzuni tizimli tushunishga o‘rgatadi. Grammatik mavzularda esa “Muammoli vaziyat yaratish”, “Aqliy hujum”, “Bahs-munozara”, “Savol-javob” kabi metodlar samarali natija beradi. Bunday metodlar yordamida grammatik qoidalar o‘quvchilarga tayyor shaklda emas, balki tahlil asosida kashf etish yo‘li bilan o‘zlashtiriladi, bu esa bilimning chuqur va puxta bo‘lishini ta’minlaydi [4].

Masalan, “So‘z birikmasi” mavzusini interfaol metodlar yordamida o‘rgatishda o‘qituvchi mavzuni tushuntirishdan avval “Aqliy hujum” metodidan foydalanishi mumkin. O‘qituvchi doskaga mavzu nomini yozadi va o‘quvchilardan ushbu tushunchaga doir barcha fikrlarni erkin aytishni so‘raydi. Shundan so‘ng o‘quvchilarning fikrlari tahlil qilinadi va mavzuga mos ilmiy xulosa chiqariladi. Bu jarayon o‘quvchilarning mavzuni mantiqan anglashiga yordam beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon qilishni, bahslashishni, asoslashni o‘rganadilar.

Shuningdek, ona tili darslarida so‘z boyligini kengaytirish juda muhim vazifa sanaladi. Bu borada “Sinkveyn” metodi yuksak samaraga ega bo‘lib, o‘quvchilar berilgan so‘z yoki tushuncha yuzasidan 5 satrdan iborat mazmuniy tuzilma yaratadilar: birinchi qatorda – mavzuni ifodalovchi so‘z, ikkinchi qatorda – uni tavsiflovchi ikki sifat, uchinchi qatorda – mazmunni harakat jihatidan ifodalovchi uch fe’l, to‘rtinchi qatorda – mazmunni ifodalovchi to‘liq gap va beshinchi qator – mavzuni umumlashtiruvchi sinonim beriladi [6]. Ushbu metod o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi, lug‘at birliklarini maqsadga muvofiq tanlash ko‘nikmasini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlash va ijodiy tasavvurni kengaytiradi.

Matnni ongli o‘qish malakasini shakllantirishda “Insert” metodi qo‘llanilishi tavsiya etiladi. Bu metod orqali o‘quvchilar o‘qiyotgan matnda o‘zlari bilgan, bilmagan va yangi bilgan ma’lumotlarini belgilar yordamida ajratib boradilar: “V” – bilardim, “+” – yangi bilib oldim, “–” – bunga qo‘shilmayman, “?” – tushunmadim yoki savol tug‘ildi degan ma’noni bildiradi [7]. Ushbu metod o‘quvchining matnni chuqur idrok etishiga, mazmuniy tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalariga yordam beradi. Natijada matn ustida ishlash jarayoni bir tomonlama axborot tinglash emas, balki faol kognitiv jarayonga aylanadi.

Interfaol metodlar dars jarayonida o‘quvchilarning individual va guruhda ishlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Guruhda ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-birini tinglash, hurmat qilish, fikr almashish, kelishish kabi ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchining nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [8].

2023–2024 o‘quv yilida TDPU amaliyot maktablarida olib borilgan kuzatish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ona tili darslarida interfaol metodlarni muntazam qo‘llagan o‘qituvchilar sinflarida o‘quvchilarning darsga qiziqishi oshgan, mavzuni tushunish darajasi yuqori bo‘lgan, mustaqil fikrlash faolligi kuchaygan. Xususan, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning darsda ishtirok etish ko‘rsatkichi o‘rtacha **92%**, mustaqil fikrlash faolligi **81%**, mavzuni anglash darajasi esa **87%**ni tashkil etgani aniqlangan [9]. An’anaviy darslarda esa ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 54%, 48% va 62% bo‘lgan.

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, bilimlarni chuqurroq va puxta o‘zlashtirishni ta’minlaydi va o‘quvchilarda mantiqiy-nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Shuning uchun, ona tili darslarini rejalashtirish va o‘tkazish

jarayonida o‘qituvchi interfaol metodlarning mazmuni, qo‘llash bosqichlari va didaktik maqsadini puxta o‘ylab tanlashi lozim. Metodni shunchaki bezak yoki shakl sifatida qo‘llash emas, balki darsning maqsadiga xizmat qildirish muhimdir.

Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanishda o‘qituvchining nutq madaniyati, savollarni to‘g‘ri qo‘yishi, o‘quvchilarning javoblarini tahlil qilish, zarur paytda yo‘naltiruvchi savollar berish mahorati katta ahamiyatga ega. Tajribali o‘qituvchilar interfaol metodlardan foydalanishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik tayyorgarligini va individual farqlarini hisobga olib, ularni bosqichma-bosqich murakkablashtirib boradilar [5]. Dars jarayonida metodlarning o‘rinli, maqsadli va tizimli qo‘llanilishi eng yuqori pedagogik samaraga olib keladi.

Shunday qilib, interfaol metodlar boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quv jarayonini jonlantirish, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu metodlar ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan tamoyili bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir o‘quvchining bilim olishi jarayonini subyekt sifatida tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa

Interfaol metodlar boshlang‘ich ona tili ta’limida o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, nutqiy madaniyatini shakllantirish, mustaqil ishlash va muloqotga kirisha olish ko‘nikmalarini ta’minlab beradi. Dars jarayonida interfaol metodlarni tizimli va maqsadga muvofiq qo‘llash o‘qituvchining uslubiy mahoratiga bog‘liq. Interfaol metodlarni darsning barcha bosqichida — motivatsiya, tushuntirish, mustahkamlash va baholashda qo‘llash dars samaradorligini oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti. Boshlang‘ich ta’lim uchun “Ona tili” fani bo‘yicha DTS. – Toshkent, 2020. – 5–18-betlar.
2. To‘raeva N. Interfaol o‘qitish texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 21–39-betlar.
3. Vygotskiy L.S. Psixologik rivojlanish nazariyasi. – Moskva, 1984. – 44–76-betlar.
4. Qodirov G‘. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 60–85-betlar.
5. Ziyayeva M. Matn ustida ishlashning samarali metodlari. – Samarqand, 2021. – 33–49-betlar.
6. Shodmonov X. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: TDPU Nashriyoti, 2022. – 112–118-betlar.
7. Kadirova D. O‘qish savodxonligini shakllantirish metodikasi. – Buxoro, 2020. – 25–37-betlar.

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA YANGICHA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Shodiyeva Hulkaroy Uchqun qizi-
Navoiy davlat universiteti 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: M.X.Pardayeva –
NavDU “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning matnni tahlil qilish, tushunish va fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, “Kelajak velosipedi”, “O‘rnini top”, “Sehrli chiroq” kabi interfaol metodlarning o‘quv jarayonidagi o‘rni, ularni amaliyotda qo‘llash bosqichlari hamda “Daraxt shoxlari va barglar” baholash usuli orqali o‘quvchilarni faollikka undashning samarali yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar:

O‘qish savodxonligi, interfaol metodlar, Kelajak velosipedi, O‘rnini top, Sehrli chiroq, baholash tizimi, innovatsion yondashuv, faollik, ijodkorlik.

Abstract:

This article discusses the effective organization of reading literacy lessons in primary education and the development of students' skills in text analysis, comprehension, and expression of ideas. The paper highlights the role of interactive teaching methods such as "Future Bicycle", "Find Its Place", and "Magic Lamp" in improving the learning process. It also examines the "Tree Branches and Leaves" assessment method, which encourages student engagement and motivation during lessons.

Keywords:

Reading literacy, interactive methods, Future Bicycle, Find Its Place, Magic Lamp, assessment system, innovative approach, activity, creativity.

Аннотация:

В статье рассматриваются вопросы эффективной организации уроков читательской грамотности в начальном образовании, а также развитие у учащихся навыков анализа текста, понимания и выражения собственных мыслей. Особое внимание уделяется значению интерактивных методов обучения — таких как «Велосипед будущего», «Найди своё место» и «Волшебная лампа» — в повышении вовлечённости и интереса учащихся. Кроме того, исследуется метод оценивания «Ветви и листья дерева», способствующий мотивации, активности и творческому подходу школьников в процессе обучения. Результаты подчёркивают важность инновационных, ориентированных на ученика методик в формировании читательской грамотности и критического мышления у младших школьников.

Ключевые слова:

Читательская грамотность, интерактивные методы, Велосипед будущего, Найди своё место, Волшебная лампа, система оценивания, инновационный подход, активность, творчество.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o‘qituvchilarning asosiy vazifasi — o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z fikrini asosli ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shu bois "O‘qish savodxonligi" darslarini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish, zamonaviy pedagogik va interfaol metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday metodlar darslarni jonli, qiziqarli va samarali o‘tishga yordam beradi. O‘qituvchi o‘quvchini tayyor ma'lumotni eslab qolishga emas, balki o‘z fikrini ifodalash va tahlil qilishga yo‘naltiradi.

"Kelajak velosipedi" usuli:

Bu metod o‘quvchilarning kelajak haqidagi orzu va tasavvurlarini rivojlantirish, matndan olingan ma'lumotlarni ijodiy qayta ishlashga yo‘naltirilgan. O‘qituvchi mavzuga oid savollar berib, o‘quvchilardan "kelajakda bu holat qanday bo‘ladi?" degan nuqtai nazardan javob topishni so‘raydi. Masalan, "Qahramon hayoti kelajakda qanday davom etadi?" yoki "Bu voqea hozirgi kunda yuz bersa, nimalar o‘zgarar edi?" kabi savollar o‘quvchilarning tafakkurini kengaytiradi. Ushbu metod o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u o‘qish jarayonini qiziqarli tarzda tashkil etishga xizmat qiladi.

"O‘rnini top" usuli:

Bu metod matn bilan ishlash, mantiqiy fikrlash va lug‘at boyligini oshirishda samarali vositadir. O‘qituvchi matndan ayrim so‘zlarni tushirib qoldiradi, o‘quvchilar esa ularni to‘g‘ri joylashtirish orqali matnni to‘liq tiklaydilar. Bu jarayon o‘quvchilarni e'tiborli bo‘lishga, matnni chuqur tahlil qilishga va o‘z fikrini asoslashga o‘rgatadi**.**

Metodning afzalligi shundaki, u o‘quvchilarda o‘qilgan matnni eslab qolish, tahlil qilish va so‘z boyligini oshirishga yordam beradi. O‘quvchilar bu jarayonda hamkorlikda ishlaydilar, Bu esa ularning jamoada ishlash ko‘nikmalarini oshiradi.

"Uch jumboq" usuli:

Bu usul o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha fikrlash, taxmin qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. O‘qituvchi dars boshida yoki o‘rtasida mavzuga oid uchta jumboq (savol yoki topishmoq shaklida) beradi. O‘z ichiga quyidagi maqsadlarni jamlaydi

• O‘quvchilarni darsga jalb etish;

• Ularning e'tiborini va xotirasini faollashtirish;

• Yangi mavzuga tayyorlash yoki mustahkamlash.

"Sehrli chiroq" usuli:

“Sehrli chiroq” usuli dars jarayonini jonlantirish, o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish va faol muhit yaratishga xizmat qiladi. O‘qituvchi ramziy chiroqni kimga yo‘naltirsa, o‘sha o‘quvchi savolga javob beradi yoki matnni o‘qib beradi.

Bu usul o‘quvchilarda javobgarlik, diqqatni jamlash va darsda faol bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Dars jarayonida barcha o‘quvchilar “chiroq” o‘zlariga tushishini kutishadi va e’tibor bilan ishtirok etadilar. . Shu tariqa dars intizomi, o‘quvchilarning diqqat markazi va faolligi oshadi. Bu metod ayniqsa past sinf o‘quvchilari bilan samarali natija beradi.

“Daraxt shoxlari va barglar” baholash usuli

Baholash jarayoni o‘quvchilarning darsdagi faolligini rag‘batlantirish va ularni motivatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu usulda o‘qituvchi dars boshida doskaga daraxt rasmi chizadi yoki tayyor shaklda joylashtiradi. Har bir o‘quvchiga dars davomida ishtirokiga qarab barglar beriladi — savollarga javob bergani, matnni tahlil qilgani yoki ijodiy fikr bildirgani uchun.

Dars yakunida 3 tadan ortiq barg to‘plagan o‘quvchilar “a’lo” baho bilan rag‘batlantiriladi.

Bu usul o‘quvchilarni raqobatdan ko‘ra o‘z ustida ishlashga, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga va faollikka undaydi. . Dars oxirida barcha daraxtlar barg bilan to‘lib boradi — bu darsdagi ijobiy muhitni, o‘quvchilarning ishtirokini ramziy tarzda ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki,o‘qish savodxonligi darslarini yangicha yondashuvlar asosida olib borish o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, fikr bildirish va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. “Kelajak velosipedi”, “O‘rnini top”, “Sehrli chiroq” kabi interfaol metodlar darsni qiziqarli va samarali qiladi, “Daraxt shoxlari va barglar” baholash tizimi esa o‘quvchilarda o‘zlashtirishga nisbatan ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi.

Zamonaviy o‘qituvchi har bir darsni shunday tashkil etishi kerakki, unda o‘quvchi faol ishtirok etsin, o‘z fikrini erkin ifodalasin va o‘qishdan zavq olsin. Aynan shunday yondashuvlar o‘quvchilarning savodxonligini oshiradi, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta’lim sohasiga oid nutq va farmonlari.

2. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2024-yil sonlari.

3. Q. Yo‘ldosheva, “O‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlardan foydalanish”, Toshkent, 2023-yil.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF–5712-son Farmoni.

5.Singapur Education Ministry. (2015). Primary English Language Syllabus. Singapore: Curriculum Planning and Development Division.

6. Tan, O. S. (2011). Problem-based learning innovation: Using problems to power learning in the 21st century. Singapore: Cengage Learning.

7. Normurodova, G. (2022). Singapur ta’lim tizimining samarali o‘qitish yondashuvlari. Pedagogik izlanishlar jurnali, , 33–37.

8. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qish savodxonligini rivojlantirish Konsepsiyasi” — Toshkent, 2021-yil.

9. Hasanboyeva O, Yo‘ldosheva Sh. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

10. G‘ulomova X, Abdurahmonova M. Ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2019.

11. Pedagogik innovatsiyalar portali – www.edu.uz

BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODOLOGIYASINING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Hamzayeva Yulduz-
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim metodologiyasining nazariy va amaliy asoslari, o‘quv jarayonini ilmiy-metodik jihatdan tashkil etish tamoyillari, o‘qituvchining metodik kompetensiyasini shakllantirish yo‘nalishlari yoritilgan. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va interaktiv yondashuvlarning ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. **Kalit so‘zlar:** metodologiya, boshlang‘ich ta’lim, metodika, kompetensiya, innovatsion texnologiya, interaktiv usul, ta’lim sifati, didaktika.

Annotation: The article explores the theoretical and practical aspects of primary education methodology. It discusses the principles of organizing the educational process on a scientific and methodological basis, as well as the directions for developing the methodological competence of teachers. The role and importance of modern pedagogical technologies, innovative methods, and interactive approaches in the educational process are analyzed. The aim of this research is to ensure quality teaching in primary education and to enhance students' knowledge and skills.

Key words: methodology, primary education, methodology, competence, innovative technology, interactive method, education quality, didactics.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы методологии начального образования, принципы научно-методической организации учебного процесса, а также направления формирования методической компетенции учителя. Научно анализируется значение современных педагогических технологий, инновационных методов и интерактивных подходов в процессе начального образования.

Ключевые слова: методология, начальное образование, методика, компетенция, инновационные технологии, интерактивный метод, качество образования, дидактика.

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning markazida inson kapitalini rivojlantirish, zamonaviy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega yoshlarni tarbiyalash masalasi turibdi. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta’lim tizimi ta’limning poydevori sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarda o‘qish, yozish, fikrlash, tahlil qilish, muloqot va ijodkorlik kabi asosiy kompetensiyalar shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” dagi yetakchi vazifalardan biri ta’lim-tarbiyani ko‘tarish, ta’lim mazmunini yangilash, yosh avlodning aqliy-intellektual taraqqiyotini ta’minlashga yo‘naltirilgan uzluksiz ta’lim-tarbiyaning yangi modelini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlangan holda muntazam takomillashtirib borishdan iboratdir. “Kadrlar tayyorlash milly dasturi” samaradorkigini oshirishda uzluksiz ta’lim tizimini pedagogik hamda axborot texnologiyalari bilan ta’minlashga erishish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon 1-4 sinflar orasidagi uzviylikni ta’minlash bilan bog‘liq. Bugungi kunda ta’lim jarayonida keng qo‘llaniayotgan axborot texnologiyalari o‘quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch yoki oldindan belgilab qo‘yilgan aniq maqsad yo‘lida o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasidir. Ta’limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko‘rinadiki natija maqsadga qancha yaqin bo‘lsa, o‘quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta’limning zamonaviy texnik vositalari va ilg‘or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo‘lib, ikkinchi talqin, ta’lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o‘rganish, qayd etish yo‘llari bilan o‘qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta’minlash. Shunday qilib ta’lim jarayoniga interfaol usullarni qo‘llashda o‘qituvchi ta’lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo‘lib, bunda boshqaruv maqsadi ta’limning ob’yekti va sub’yekti sifatida o‘quvchiga yo‘naltiriladi.

Boshlang‘ich ta’lim metodologiyasi — bu ta’lim jarayonining ilmiy asoslarini o‘rganadigan, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiradigan fan sifatida o‘qitishning samarali usul va yo‘llarini belgilaydi. Metodologik yondashuvsiz ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish, uni tahlil qilish va natijadorlikni baholash imkonsizdir. Boshlang‘ich ta’lim metodologiyasi pedagogika fanining tarkibiy

qismi bo‘lib, u ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o‘qitish mazmunini belgilash, metod va vositalarni tanlashga xizmat qiladi. Metodologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘quv-tarbiyaviy jarayonning qonuniyatlarini aniqlash;

o‘quvchilarning psixologik xususiyatlariga mos metodlarni ishlab chiqish;

didaktik jarayonning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni joriy etish;

metodik faoliyatni tahlil va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Ilmiy metodologiya o‘qituvchi faoliyatida asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Chunki har bir o‘qituvchi o‘z faoliyatida nazariy bilimga asoslanmagan holda samarali natijaga erisholmaydi. Shu boisdan o‘qituvchi metodik tayyorgarlik, ilmiy izlanish va refleksiv yondashuv orqali o‘z faoliyatini takomillashtirib borishi lozim. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi ta’lim jarayonining amaliy yo‘nalishini belgilaydi. Bu yo‘nalish o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, darsni interaktiv tashkil etish bilan chambarchas bog‘liq.

Metodik yondashuv quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- shaxsga yo‘naltirilganlik — har bir o‘quvchining individual xususiyatini hisobga olish;
- faoliyatga yo‘naltirilganlik — o‘quvchini ta’lim jarayonining faol sub’yektiga aylantirish;
- integrativlik — fanlararo aloqadorlikni ta’minlash;
- refleksivlik — o‘quvchi va o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish malakasini shakllantirish.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan “Aqliy hujum”, “Insert”, “Blits-so‘rov”, “Klaster”, “Debat” kabi interaktiv usullar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muloqot va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali natijalar beradi.

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni o‘quvchilarning kognitiv (bilish) faolligini oshirish, ularni ijodiy fikrlashga undashda muhim vosita hisoblanadi. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Sinkveyn”, “Blum taksonomiyasi” asosida tuzilgan topshiriqlar o‘quvchining o‘z fikrini mustaqil ifodalash, tahlil qilish va baholash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Metodik faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, elektron darsliklar, onlayn platformalar, interaktiv o‘yinlar orqali dars jarayonini jonlantirish bugungi kun talabiga aylandi. Bu esa o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va o‘qituvchi faoliyatini samarali tashkil etishga zamin yaratadi.

Metodik kompetensiya — o‘qituvchining ta’lim jarayonini ilmiy-metodik asosda tashkil etish, o‘quvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini aniqlash hamda o‘qitishning optimal usullarini tanlash qobiliyatidir.

Bunday kompetensiya quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- nazariy-metodik tayyorgarlik;
- didaktik tahlil ko‘nikmasi;
- innovatsion fikrlash;
- refleksiv faoliyat.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilib borishi, yangi metodlarni o‘rganishi, ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘qib borishi zarur. Bu jarayon o‘qituvchini haqiqiy metodik rahbar darajasiga olib chiqadi. Demak, pedagogik texnologiya ta’lim mazmuni usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltiriladi. Ma’lumki, ta’limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo‘llarini o‘rgatish, ularni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda boshlang‘ich ta’limda o‘qitish tizimini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o‘quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi. O‘quv mashg‘ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, talabaparni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o‘qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim metodologiyasi — ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini ta’minlashda poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy-metodik asosda tashkil etilgan darslar o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, izlanishga moyil, ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bois, har bir o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatini ilmiy yondashuv, zamonaviy texnologiyalar va metodik

innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirishi zarur. Faqat shundagina boshlang‘ich ta’limda kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2023.
2. Xolmatova, M. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi.” — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
3. Yo‘ldoshev, J. & Hasanboeva, O. “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.” — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Shodiev, D. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar.” — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Shirinov, A. “Ta’limda innovatsion yondashuvlar.” — Toshkent: Ilm ziyo, 2020.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLIKLARIDA AMALIY MASHG‘ULOTLARGA E’TIBORNI KUCHAYTIRISH ZARURATI

Murtazayeva Gulirano Farhod qizi[1]
[1]Navoiy innovatsiyalar universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ochilova Aziza Rizayevna[2]
[2]Navoiy innovatsiyalar universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Amirov Ikrom Nurali o‘g‘li[3]
[3]Navoiy innovatsiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.
amirovikrom191093@gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarning matrmatika fanini o‘zlashtirishda tushunarsiz holatlarga duch kelishi va bu holatlarga yechim topish choralarini ko‘rib chiqish zarurligi, shu bilan birgalikda nazariy tushunchalarni ko‘paytirish kerakligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Kuboid, parallelipepid, tenglama, vaqt, hajm, harakatga oid masala, yo‘l, tezlik, geometirik boshqotirma.

Аннотация. В статье говорится о том, что учащиеся начальной школы сталкиваются с непонятными ситуациями при освоении математики и о необходимости продумать меры по поиску решений этих ситуаций, а также по расширению теоретических представлений.

Ключевые слова. Прямоугольный параллелепипед, уравнение, время, объём, задача движения, путь, скорость, геометрическая головоломка.

Annotation. In this article, it is stated that elementary school students encounter incomprehensible situations in mastering mathematics and the need to consider measures to find solutions to these situations, as well as to increase theoretical concepts.

Keywords: Rectangular parallelepiped, equation, time, volume, motion problem, path, speed, geometric puzzle.

2020-yil mamlakatimizda “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilindi. Bu borada keng ko‘lamli rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilmoqda, yurtimizda ilm – fanni rivojlantirish va yetuk marralarni ko‘zlash bilan birgalikda muhtaram yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan turli Ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar ishlab chiqarilib amalga oshirilmoqda. Bunda mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish va yaxshilash ko‘zda tutiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-134 son farmoniga binoan 2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tardiqlash to‘g‘risida quyidagilar keltirilgan. Maktab o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini, ularni milliy hamda umiminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlariga javob beradigan zamonaviy modellarni barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb amalga oshirishga qaratilgan farmonlardan biri bo‘lib kelinmoqda [1]. Shu bilan

birgalikda mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar, xalq ta'limi tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlar "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko‘rsatib o‘tilgandek, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldiga ham muhum vazifalar qo‘yilmoqda [2]. Matematikadan boshlang‘ich sinf ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etilishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o‘qitish metodikasini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinflarning aqliy rivojlanishiga asos solinishi sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun o‘quvchilarning aqliy faoliyatlarini darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish muhimdir [2]. O‘quvchilarning aqliy faoliyatidan kelib chiqqan holda qiziqtirish uchun turli o‘yinlar dars jarayonida o‘quvchilarni faolligini oshirish bo‘yicha yangi g‘oyalar ishlab chiqilmoqda. Boshlang‘ich ta'lim o‘quvchilarining bilim darajasini oshirish uchun ilmiy salohiyatini hisobga olgan holda har bir fan uchun IV chorakka mo‘ljallangan alohida kitoblar taqdim etilmoqda o‘quvchiga oson bo‘lgan mavzulardan pog‘onama-pog‘ona, murakkablashgan mavzularga o‘tilmoqda. Yangi matematik darsliklar o‘quvchini mantiqiy o‘ylashga, chizmalar yordamida masalani javobini chiqarishga majbur qiladi. Bu borada o‘quvchi anchagina mehnat qilishi kerak bo‘ladi. Yangi nashrdagi 3-sinf matematika kitoblaridagi masala misollar o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga undaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Quyidagi mavzulardan birini ko‘rib chiqamiz.

Mavzu: Kuboidning hajmi.

Bu mavzuda quyidagi misol va masalalar keltirilgan:

To‘g‘ri burchakli parallelepipedning bo‘yi $14\,cm,$ eni undan 4 marta kichik. Balandligi esa bo‘yidan 90 *mm* kichik. To‘g‘ri burchakli parallelepipedning hajmini toping?

Qisqacha matnini tuzamiz.

Bo‘yi – 14 *cm* *Yechish*:

Eni – 4 marta kichik Avvalo barcha tomonlarni *mm* ga o‘tkazib olamiz:

Balandligi – 90 $14\,cm = 14 \cdot 10\,mm = 140\,mm$. Endi eni va balandligini topamiz.

V =? Shartga ko‘ra: $140\,mm : 4 = 35\,mm$, $140mm - 90mm = 50mm$

Topilgan qiymatlarni parallelepiped hajmini topish formulasiga qo‘yamiz: $V = a \cdot b \cdot c = 140mm \cdot 35mm \cdot 50mm = 245000mm^3$. $1cm = 10mm$ ekanligidan, $1cm^3 = 1000mm^3$ ga teng bo‘ladi. Demak javobni cm^3 da ifodalsh uchun uni 1000 ga bo‘lamiz. Javob: Parallelepiped hajmi $245cm^3$.

Bu masalani o‘quvchilarga tushuntirishni osonlashtirish uchun avval masala shartini rasmlar orqali ko‘rsatib bersak bolada anchagina tasavvur uyg‘onishi mumkin. Parallelepipedni quti tariqasida tushuntiramiz. Bizda uzunligi, eni va balandligi bo‘lgan quti bor. Har birini navbat bilan topamiz. Bo‘yi 140 *mm* deb berilgan, eni undan 4 marta kichik. Bu 140 ni 4 ga bo‘lamiz deganidir.

$140 : 4 = 35,$ 140 – 90 =50.

Hajmni topish uchun uchala o‘lchamlarini uzunligi, eni va balandligini ko‘paytiramiz:

$V = a \cdot b \cdot c = 140mm \cdot 35mm \cdot 50mm = 245000mm^3 = 245cm^3$.

Masala: Okeanda ulkan muz bo‘laklari (Aysberglar) suzib yuradi. Biz suv yuzasida asberglarning faqat kichik bir qismini ko‘ra olamiz, ularning katta qismi suv ostida yashiringan bo‘ladi. Shuning uchun Aysberglar kemalar o‘tishi uchun xaflidir. Tenglamani yeching va Aysbergning ko‘rinadigan qismi balandligini aniqlang:

Yechish:

$28 + 3x = 1525,\quad 3x = 1525 - 28,\quad 3x = 1497,$

$x = 1497 : 3,\quad x = 449.$

Jami: 499*cm* ko‘rinadi.



3-sinf bo‘yicha berilgan masala-misollarni yechishda bola qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Yangi darsliklarda nazariy tushunchalarning kamligi bois o‘qituvchi ham o‘z ustida ishlab bolalarga taqdim qilib bera olishi kerak. Masalan, Harakatga doir masalani ko‘rib chiqamiz.

Masala. Qishloqdan temir yo‘l bekatigacha bo‘lgan masofa $1km\,500\,m$. Sayyoh 75 m/min tezlikda yurmoq -da, agar poezd 30 minutdan keyin bekatdan jo‘nab ketadigan bo‘lsa, sayyoh poyezdga ulguradimi?

Bu masalani jadval bilan ishlaymiz.

v	t	S
75 m/min	$t < 30$ min $-?$	$1km500m$

$v = 75m/min$ *Yechish:* Yo‘l formulasindan $S = v \cdot t$ foydalanamiz.

$S = 1km500m$ $t = S : v = 1500m : 75m/min,\ t = 20min$. Endi tekshiramiz:

t - ? 30 min – 20 min = 10 min. Demak 10 min oldin kelar ekan,

Javob: Ulguradi.

Bu masalada vaqt, tezlik, yo‘lni hayotiy misol orqali tushuntiramiz. Tezlikni tushuntirishda mashina poygasi 2 ta o‘yinchoq mashina bilan tushuntirsak bo‘ladi. Bunda birini tezroq suring, ikkinchisini esa sekinroq. Qaysi biri aytilgan manzilga tezroq yetib boradi degan savolda bolalar tezlik nima ekanligini ko‘rib tushuncha hosil qilishadi. Vaqtni soat orqali tushuntirsa bo‘ladi. Masalan: Kim 10 soniyada 5 marta sakray oladi? desak bolalar amaliyotda sinab ko‘rishadi. Yo‘l – bu “bosib o‘tilgan masofa” ekanini ko‘rsatish uchun uydan maktabgacha bosib o‘tilgan masofa – yo‘l deb aytiladi. Har bir sinf matematika darsligiga albatta boshqotirma, mantiqiy o‘ylashi uchun har xil geometirik shakillar orqali misollar taqdim etilgan. Masalan: Quyidagi boshqotirmani o‘quvchilarga taqdim etamiz. Ya’ni bolalarni fikrlash darajasini oshirishi, matematikaga bo‘lgan qiziqishini ortishi va eng muhimi fandan



zerikmasligi uchun darsning davomida shu kabi boshqotirmalar berilishi kerak. Bu boshqotirmani bolalarga berganimizda bolalardan turlicha javoblarni qabul qilamiz. Xoh to‘g‘ri, xoh noto‘g‘ri bo‘lsa ham o‘quvchini harakatchanligini oshirib boradi. Javobni qabul qilgach, o‘qituvchi tomonidan boshqotirmani o‘quvchilarga tushunarli tarzda yechib beriladi.

-bu belgi geometrik shakillardan tuzilgan holda, raqam yashiringan. Bu raqam 3 bo‘lib, 3 ta shakil bir biriga yopishtirish orqali hosil qilingan. qolganlari ham shu tarzda tuzilgan.



Shu tarzda tushuntiriladi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga beriladigan bir qancha boshqotirmalar, fikrlashini oshirishga qaratilgan masala, misollar o‘quvchini zehnini va fikrlash salohiyatini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Xulosa o‘rnida aytish jiozki, sifatli natijalarga erishish uchun o‘quv jarayonini zamonaviy g‘oyalar va usullardan foydalanish yaxshiroq natija ko‘rsatadi. Shunga qaramay hozirgi vaqtda boshlang‘ich matematika kursini o‘rgatishda faqatgina ko‘nikmalar hosil qilish va bir xil faktlarni o‘zlashtirish bilan amalga oshirish ham mumkin emas. O‘quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni o‘rganishda kuchlari yetadigan darajada o‘zlashtirishlari, shuningdek, og‘izaki va yozma xulosalar qilishni bilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134 son farmoni. https://lex.uz

2. Boltayeva. B, Eshbekova. X, Tojiboyeva. G. “Jahon ta’limtizimida boshlang‘ich ta’limini o‘qitishga xos samarali yondashuvlar”. T.: «NIF MISH» 2024 yil.

3. I.V. Repyova. “Matematika umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf” uchun darslik III qism Toshkent. «Novda Edutainment» 2023 yil 132 bet.

4. I.V.Repyova. “Matematika darslik 3-sinf, II qism”. Toshkent. «Novda Edutainment» 2023 yil 132 bet

5. A.S.Abdusamatov. Matematika o‘qitish metodikasi(amaliy mashg‘ulotlar). O‘quv qo‘llanma. – T.: «NIF MISH» 2023. – 152b.

6. B.S.Abdullayeva, M.A.G‘aniyeva. Matematika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «NIF MISH» 2023. – 184b.

7. N.A.Abduvaliyev. Matematika. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Metodist nashryoti» 2023. – 172b.

8. S.Alixonov. Matematika o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: «Cho‘lpon» 2011. – 304b.

9. M.E.Jumayev. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Yangi asr avlodi» 2006. – 258b.

INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARAYONI

M.A.Jumayeva –
Navoiy davlat Universiteti Boshlang`ich ta`lim kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: maqolada ayni paytda kompetentsiya tarkibida ijtimoiy muloqot madaniyati tushunchasi alohida o'rin tutadi.

Аннотация: В статье понятие культуры социального общения занимает особое место в структуре компетентности.

Annotation: In the article, the concept of culture of social communication occupies a special place in the structure of competence.

Kalit so`zlar: Xushmuomalalilik, oliyjanoblik, ma'qullash, kamtarlik, kamsuqumlik, rizolik.

Ключевые слова: Вежливость, благородство, одобрение, скромность, скромность, довольство.

Key words: Politeness, nobility, approval, modesty, contentment.

O'zbekiston xalqi o'zbek tilini e'zozlashni o'z fuqarolik burchlari deb bilishlari, bu tilning mamlakatdagi yuridik va ma'naviy huquqlarini ado etishlari shart. O'quvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi shundagina tayanch aspektda amalga oshadi.Ayni paytda bu kompetentsiya tarkibida ijtimoiy muloqot madaniyati tushunchasi ham borki, tayanch aspektda alohida o'rin tutadi. Muloqot madaniyatining shaxs faoliyati (u xoh kommunikant, xoh kommunikat bo'lsin) hamda jamiyatdagi faolligiga bevosita ta'siri bor. Shu bois barcha xalqlarda muomala madaniyatiga qadimdan katta e'tibor qaratilgan. Sharq donishmandi Kaykovusda shunday hikmat uchraydi:“Sovuq so'z bir tuxumdir, undan dushmanlik hosil bo'lur”. Mutafakkir ajdodimiz Alisher Navoiy:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har nechaki ag'yordurur yor aylar.
So'z qattig'i el ko'nglini ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar
misralarini bitgan.

Pragmalingvist J.Lich bu borada hurmat tamoyili tushunchasini taklif etadi va uning voqelanishi tamoyilning quyidagi oltita qoidasi faollashuvidan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

1. Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinishlarini sarfini kamaytir,uning foydasini ko'paytirishga harakat qil);
2. Himmat, oliyjanoblik qoidasi (o'z foydangni kamroq ko'zla, barcha sarfni o'z zimmangga ol);
3. Ma'qullash, tahsin qoidasi (o'zgalarni yomonlama, g'iybat qilma, koyima);
4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (o'z-o'zingni maqtashni keskin kamaytir);
5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin);
6. Xush ko'rish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrixoh, oqko'ngilli bo'l) .

O'zbek tilshunosligida pragmalingvistika muammolari bilan jiddiy shug'ullangan SH.Safarov ta'kidlashicha: “Dastlabki ikki qoidani ta'riflashda muallif qo'llagan savdo sohasiga oid “sarf”, “xarajat” atamalari tahminan “qulaylik” va “noqulaylik” tushunchalariga to'g'ri keladi. So'zlovchi olijanoblik tamoyiliga amal qilayotib, tinglovchi uchun qulaylik yaratishga va iloji boricha noqulaylik holatiga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi”.Mavzuimizga aloqador xulosa shuki, kishi hatto muloqot jarayonida boshqalarga noqulaylik tug'dirishdan qochar ekan, unda jamiyat a'zolarining barcha huquqlariga hurmat bilan qarashni o'z mas'uliyati, burchi deb biladigan ma'naviy tayanch kompetentsiya shakllanib, rivojlanib boradi.Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf ona tili darslarining samaradorligini oshirish to'g'risida fikr yuritilganda uning ikki xil ma'nosini farqlash kerak:

1. Ona tili ta'limi mazmuni va bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi. Bunda ona tili ta'limini loyihalashtirish, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'quv topshiriqlari maqsadini ajrata olishlari, o'quv topshiriqlari ta'lim jarayonining didaktik maqsadlariga mosligi, o'quv topshiriqlari

bilan o'quv materialini o'qitish maqsadi o'rtasidagi muvofiqlik, o'quv topshiriqlarida ta'limning taraqqiy ettiruvchanlik va tarbiyaviy maqsadlarini qamrab olishi kabi elementlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos vazifa va vositalarga ega.

2. Innovatsion ta'lim sharoiti boshlang'ich sinf ona tili darslari samaradorligini oshirish jarayoni. Innovatsion ta'lim sharoiti ona tili ta'limini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir.Har bir o'quv predmetining mazmuni shu maqsadning u yoki bu qirrasini ifodalashi, o'quv fanining xususiy maqsadi ta'limning umumiy maqsadiga uyg'un tarzda ifodalanishi, shuningdek,muayyan o'quv fani bo'yicha belgilab beriladigan ta'lim mazmuni, o'quv materiallari, o'qitish metodlari, o'qitish vositalari shu maqsadga muvofiq kelishi zarur.Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf ona tili darslari samaradorligini oshirish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quvchilarda bilish ehtiyojini shakllantiradi;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi;
- o'quvchilarda fanni o'rganishga qiziqishni oshiradi;
- axborot bilan ishlashni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi;

dunyoni ilmiy bilishning hozirgi zamon metodlari bilan tanishtiradi;

- ta'limda o'quvchining individuallik darajasini oshiradi;
- o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
- materiallar mazmunining xilma-xilligini ta'minlaydi;

-ona tili ta'limida foydalaniladigan o'quv materiallari doirasini kengaytiradi;

o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishi, ya'ni baholash jarayonining imkoniyatlarini kengaytiradi va h.k.

Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf ona tili darslarining samaradorligini oshirishda o'quvchi bajarishi mumkin bo'lgan barcha ishlar inobatga olinishi shart. Har qanday dars ma'lum ta'lim modeliga asosan tashkil etiladi. Ta'lim modellarini loyihalashtirish imkoniyatlarini o'rganish va ulardan maqsadga muvofiqlarini tanlash ta'lim samaradorligini oshiradi.Ijodiy ta'limda mukammal tuzilgan loyihalar asosiy rol o'ynaydi. Ta'limning izohli-ko'rgazmali, muammoli, topshiriqli, differentsial, dasturlashtirilgan, algoritmlashtirilgan kabi turlari mavjud bo'lib, ularni loyihalashtirish xususiyatlari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Yuqorida bayon qilingan kontseptsiyaga muvofiq ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilishda uch asosiy yo'nalishni ajratamiz: birinchi yo'nalish – ta'lim sub'ektlari – o'qituvchi va o'quvchilarning “loyihaviy ta'lim”ni amalga oshirishga oid ishlarni qamrab oladi. O'qituvchi va o'quvchilarning loyihaviy ta'lim haqidagi tasavvurlarini shakllantirmasdan turib, ta'lim samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi. Ikkinchi yo'nalish ta'lim mazmuniga, ayni holatda ona tili o'quv predmeti mazmuniga pedagogik ishlov berish va loyihalash jarayoni bilan daxldor. Bu yo'nalishga ko'ra loyihalash vositasida ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish printsip, vosita va metodlarini o'rganishni taqozo etadi. Uchinchi yo'nalish “ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish ta'limning eng samarali vositasi” deb qarash bilan bog'liq tasavvurlar hisolanadi. Shu tasavvur bo'yicha o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish o'quv ishlarining sifatini yaxshilab, samaradorligini oshirish shart-sharoitlarini o'rganishni tushunamiz. Qayd qilingan yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotni tashkil etish va o'tkazish, shubhasiz, ona tili ta'limini loyihalashtirishning nazariy asoslarini bayon qilishga olib keladi.Zero, boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosi tarkiban ta'lim mazmunini ijodiy o'rganishni tashkil qilish, ijodiy o'zlashtirish,ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash masalalarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son Farmoni,“O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”.Lex.uz veb sayti

2. Abdullaeva Q, Safarova R. va b. Boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi // Boshlang'ich ta'limning asosiy yo'nalishlari– T., 2020.

3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T., 2003. –280 b.

4. Mustaqil fikrlashni shakllantirish omillari //Viloyat ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (2005 yil 13 dekabr`). – Buxoro, 2005. –116 b.

5. Jumayeva.M.A. Innovatsion ta`lim sharoitida ona tili darslarining samaradorligini oshirish (Boshlang`ich sinf misolida) ped.fan.dok.(PhD) diss.-Jizzax. 2022.yil.

TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARINING O‘QUVCHILAR IJODIY FAOLLIGIGA TA’SIRI (TA'LIM QOZOQ TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLAR MISOLIDA)

Konsbekova Makbol Irzabek qizi-
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)1-bosqich magistranti
e-mail:konysbekovamakpal4@gmail.com
Taspenova Madina Talg‘at qizi-
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, f.f.d.(DSc)
Ilmiy rahbar: Ernazarova Manzura Saparboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida to‘garak mashg‘ulotlarining o‘quvchilar ijodiy faolligini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. To‘garak mashg‘ulotlari dars jarayonini boyituvchi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorlik qobiliyati va tashabbuskorligini shakllantiruvchi muhim omil sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar:boshlang‘ich ta’lim, to‘garak mashg‘ulotlari, ijodiy faoliyat, ijodkorlik, innovatsion metodlar, o‘quvchi faolligi, ta’lim jarayoni.

Аннотация:В данной статье раскрывается роль и значение кружковых занятий в развитии творческой активности учащихся в системе начального образования. Кружковые занятия рассматриваются как важный фактор, обогащающий учебный процесс, формирующий самостоятельное мышление, творческие способности и инициативность учащихся.

Ключевые слова:начальное образование, кружковые занятия, творческая деятельность, креативность, инновационные методы, активность учащихся, учебный процесс.

Annotation: This article reveals the role and importance of extracurricular clubs in developing students’ creative activity within the primary education system. Club activities are analyzed as an important factor that enriches the learning process and fosters students’ independent thinking, creativity, and initiative.

Keywords:primary education, extracurricular clubs, creative activity, creativity, innovative methods, student engagement, educational process.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va tashabbuskorligini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish ularning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

To‘garak mashg‘ulotlari bu jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, u darsdan tashqari faoliyatning ijodiy, o‘yin va amaliy shakllarini o‘z ichiga oladi.

To‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni, yangi g‘oya yaratishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi. Bu mashg‘ulotlarda bolalar o‘z iste’dodlarini namoyon etish, bir-biri bilan fikr almashish va jamoaviy faoliyat yuritishni o‘rganadilar.

Masalan, ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda “Matematika olami”, “Rassomlar to‘garagi”, “Til va adabiyot”, “Ekologlar klubi” kabi yo‘nalishlar orqali o‘quvchilar o‘z ijodkorlik salohiyatini kengaytiradilar.

O‘qituvchi bu jarayonda yo‘lboshchi va motivator sifatida ishtirok etadi. Darsdan tashqari bunday faoliyatlar orqali o‘quvchilarda o‘zini ifoda etish, o‘z ishidan zavqlanish va natijaga erishish

hissi shakllanadi.Tadqiqot davomida ta’lim qozoq tilida olib boriladigan boshlang‘ich sinflarda olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki:

- ✓ o‘quvchilar to‘garak faoliyatida faol ishtirok etadi;
- ✓ o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etishadi
- ✓ ijodiy topshiriqlarda mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

Masalan, “Yosh ijodkorlar” to‘garagida o‘quvchilar hikoya, she’r yoki ertak yozish orqali o‘z fikrini ifodalashni mashq qiladilar. “Qiziqarli matematika” to‘garagi esa ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Hozirgi zamon ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, yangicha yondashuvni shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu maqsadlarga erishishda to‘garak mashg‘ulotlari alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda, to‘garaklar orqali o‘quvchilarda ijodkorlik, til boyligini rivojlantirish, milliy qadriyatlarga asoslangan innovatsion tafakkurni shakllantirish imkoniyati kengdir.

To‘garak mashg‘ulotlari — bu o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtda o‘z qiziqishlari, iste’dodlari asosida faoliyat olib borishlariga xizmat qiluvchi ta’lim shaklidir. Ular o‘quvchilarda:

- ● mustaqil fikrlashni;
- ● ijodiy yondashuvni;
- ● o‘z fikrini erkin ifoda etish ko‘nikmasini;

jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantiradi. Quyida to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi eng samarali metodlar keltiriladi:

a) “Loyiha metodi” (Project Method)

Bu metodda o‘quvchilar muayyan mavzu asosida kichik loyiha tayyorlaydi. Masalan, “Tabiat go‘zalligi” mavzusida rasm, she’r, sahna ko‘rinishi yoki maket tayyorlash orqali o‘z fikrlarini ijodiy tarzda ifodalaydi.

- ❖ Bu metod o‘quvchilarda mustaqillik, rejalashtirish va ijodiy qarashni kuchaytiradi.

b) “Aqliy hujum” (Brainstorming) metodi

Mazkur metod o‘quvchilarning tezkor fikrlash, yangi g‘oyalar topish qobiliyatini rivojlantiradi. To‘garak davomida muayyan muammo qo‘yilib, o‘quvchilar o‘z takliflarini erkin aytadi.

- ❖ Bu ijodkorlikni va ishonchni oshiradi.

c) “Rol o‘ynash” (Rol o‘yinlari) metodi

O‘quvchilar bir mavzu bo‘yicha fikrlarni chizmalar shaklida ifodalaydi. Masalan, “Ijodkor bola qanday bo‘ladi?” degan mavzuda fikrlar klaster tarzida tuziladi.

- ❖ Bu o‘quvchilarning vizual tafakkurini va mantiqiy bog‘lanishlarni ko‘rish qobiliyatini oshiradi.

f) “Kichik guruhlar bilan ishlash” metodi

O‘quvchilarni kichik jamoalarga bo‘lib, har bir guruhga ijodiy topshiriq beriladi. Natijalar umumiy muhokama qilinadi.

- ❖ Bu hamkorlikda ishlash va g‘oyalarni taqqoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, M. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi.” — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

2. Raxmonov, N. “Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim jarayoni.” — Toshkent: Fan, 2020.

3. To‘xtayeva, G. “Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish.” — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

4. Omonova, M. “Darsdan tashqari mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish.” // “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, №3, 2022.

5. Qodirova, N. “Ijodkorlikni rivojlantirish metodlari va vositalari.” — Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.

6. Karimova, D. “Ta’limda innovatsion yondashuvlar: nazariya va amaliyot.” — Toshkent: TDPU, 2020.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1- kurs
magistranti Esirgapova Nargiza Mansurjon qizi
Ilmiy rahbar:p.f.d. (DSc),dots. Holikulova Feruza Xasanovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning nazariy, amaliy va psixologik jihatlari yoritilgan. O‘qish va yozuv malakalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, shuningdek, o‘quvchi markazli yondashuvlarning o‘rni ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: savod o‘rgatish, metodika, chiroyli yozuv, ta’lim, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik, raqamli texnologiyalar.

Аннотация(на русском языке) В статье освещены теоретические, практические и психологические аспекты совершенствования методики обучения грамоте в начальных классах. Рассмотрена роль современных педагогических технологий, интерактивных методов и ученикоцентрированного подхода в формировании навыков чтения и письма.

Ключевые слова: обучение грамоте, методика, каллиграфия, игровые технологии, критическое мышление, творчество, сотрудничество, цифровые технологии.

Annotation(in English) The article highlights theoretical, practical, and psychological aspects of improving literacy teaching methods in primary education. It analyzes the role of modern pedagogical technologies, interactive methods, and learner-centered approaches in developing reading and writing skills.

Keywords: literacy teaching, methodology, handwriting, game-based learning, critical thinking, creativity, collaboration, digital technologies.

O‘zbekiston ta’lim sohasida bo‘layotgan islohotlar, xalqaro baholash tizimlari (PISA, PIRLS, TIMSS) boshlang‘ich ta’lim mazmuniga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu bois o‘qituvchilar o‘z faoliyatida **zamonaviy metodika, innovatsion texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalari**ni uyg‘unlashtirgan holda savod o‘rgatish jarayonini tashkil etishlari lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘qishni o‘rganish jarayonida har bir harf, tovush, so‘z, gap va matn ustida amaliy ishlaydi. Shu sababli o‘qituvchi metodik faoliyatini **bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos** tashkil etishi zarur. Savod o‘rgatish metodikasini takomillashtirish – ta’lim sifatini oshirishning, o‘quvchi qobiliyatini to‘liq ochib berishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Boshlang‘ich ta’lim – o‘quvchi shaxsining shakllanishida, tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantirishda eng muhim poydevor bosqichidir. Aynan shu davrda o‘quvchi o‘qish, yozish, so‘z boyligini oshirish va fikrni ifodalash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi. Savod o‘rgatish jarayoni o‘qish va yozuv bilan cheklanmay, balki o‘quvchining **intellektual, ijtimoiy, psixologik va estetik rivojlanishiga** xizmat qiladi [1:54].

Savod o‘rgatishda zamonaviy yondashuvlar – bu **4C modeli** (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik), **interfaol metodlar**, **muammoli ta’lim** va **differensial yondashuv**ni uyg‘un qo‘llashni nazarda tutadi [2:71]. Masalan, “so‘z yasash zanjiri”, “harf top”, “gapni to‘ldir”, “fikrlar klasteri” kabi o‘yinlarda o‘quvchi tanqidiy fikrlaydi, ijodkorlik bilan so‘z topadi, guruhda ishlash orqali hamkorlikni o‘rganadi.

Tanqidiy fikrlash-o‘quvchiga har bir harf va tovush o‘rtasidagi farqni tahlil qilish imkonini beradi.

Ijodkorlik – so‘z va gap tuzish, matn yaratish orqali rivojlanadi

Muloqot – o‘qish jarayonida savol-javob, suhbat, rolik tomosha qilish orqali mustahkamlanadi.

Hamkorlik esa o‘quvchilarni jamoada ishlashga, o‘z fikrini bildirishdan cho‘chimaslikka o‘rgatadi.

Bu metodik model o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Shuningdek, bu yondashuv o‘quvchilarning **mantiqiy fikrlash, so‘z boyligini kengaytirish va nutq madaniyatini rivojlantirishga** xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar asosida savod o‘rgatish

Raqamli vositalardan foydalanish savod o‘rgatish jarayonini jonlantiradi, bolalarda motivatsiyani oshiradi. “LearningApps”, “Quizizz”, “Wordwall”, “Kahoot”, “Nearpod” platformalarida tovush-harf mashqlari, o‘qish tezligini oshiruvchi testlar, interfaol o‘yinlar tuzish mumkin [3:82].

Masalan:

“Wordwall”da harflarni to‘g‘ri tartibda joylashtirish;

“LearningApps”da tovush va harfni bog‘lash mashqlari;

“Quizizz”da “So‘zdan gap tuzish” onlayn testi;

Bunday yondashuvlar o‘quvchining raqamli savodxonligini, mustaqil ishlash qobiliyatini va o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

Savod o‘rgatish samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni taklif etish mumkin:

Integratsion yondashuv – savod o‘rgatishni matematika, texnologiya, tabiatshunoslik fanlari bilan bog‘lash.

O‘yinli topshiriqlar – bolalarda raqobat, qiziqish va mustaqil fikrlashni shakllantiradi.

Differensial yondashuv – har bir o‘quvchining individual tayyorgarlik darajasiga mos topshiriqlar berish.

Ota-onalar bilan hamkorlik – uy sharoitida yozuvni mustahkamlash, ota-onaga metodik tavsiyalar berish.

Vizual muhit yaratish – “Alifbo devori”, “So‘z daraxti”, “Eng chiroyli yozuv” burchaklari.

Refleksiya metodlari – “Bugun nimani o‘rgandim?”, “Qaysi mashq menga yoqdi?” kabi o‘zini baholash faoliyatlarini joriy etish.

Boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish metodikasini takomillashtirish - o‘quvchilarning intellektual, nutqiy va estetik rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, o‘yinli metodlar, 4C modeli va STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarni faollikka, ijodkorlikka va hamkorlikka yo‘naltiradi. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchining yosh, qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda, o‘qish va yozishni nafaqat bilim, balki hayotiy zarurat sifatida singdirishi lozim. Shu tariqa boshlang‘ich bosqichda savodli, mustaqil fikrlaydigan, raqamli muhitda o‘z o‘rnini topa oladigan shaxs tarbiyalanadi.

Xulosa qilib aytganda, savod o‘rgatishning zamonaviy usullari bolalarda diqqatni jamlash va o‘z fikrini to‘g‘ri aytish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, bunday darslar o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshirib, ularni bilim olishga faol va ishtiyoq bilan yondashishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Matchonov S. va boshq. *Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.* Darslik. – Toshkent, 2021. – 642 b.

2.Jalolov T. *Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish nazariyasi va metodikasi.* – Toshkent:Fan, 2019. – 312 b.

3.Safarova R. *Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish metodikasi.* – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020. – 284 b

4.Turdiyeva M. *Methodology for Developing Independent Learning Activity in Primary School Students Based on STEAM Technology.* – Refocus Journal, 2024.

5.Yarashov M.J. *Methodology of Application of Digital Technologies in Primary Education.* – IJTSRD, 2022.

6.UNESCO Report. *Digital Literacy in Early Education.* – Paris, 2022.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA IJODIY FAOLIYATNING O‘RNI

NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
o‘qituvchisi, dotsent Sh.T.Boltayeva

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlan’g‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari zamonaviy texnologiyalarning o‘rni, hamda o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ijodiy faoliyat, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya, shaxs, faollik, tafakkur,ijod, ijodkorlik

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of preparing primary school students for creative activity, the role of modern technologies, and the specific features of the teacher’s professional work.

Keywords: creative activity, primary education, pedagogical technology, leaner’s personality, play-based learning, project-based activity, cognitive development, pedagogical environment.

Har qanday davlatning rivojlanishi uning intellektual salohiyatiga bog‘liq. Intellektual salohiyat xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta’minlay oladigan mustaqil fikrli, malakali, bilimli, yuksak insoniy fazilatlarga ega kadrlarni tayyorlash mezonidir.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyayev haqli ravishda ta’kidlaganidek, ”Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan,yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi” ga erishishda “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz” deya alohida urg‘u berilgani bejiz emas. Jahonda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar doimiy o‘zgaruvchan vaziyatlarga tezkor yo‘nalganlik va moslashuv, fikrlashning yuksakligi va oqilona yo‘nalganligi, muammolar echimini izlab topishda ijodiy yondashuvni talab etmoqda. Shu bilan bog‘liqlikda o‘quvchilarda ijodiy bilish faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. O‘quvchilarda ijodiy bilish faolligini rivojlantirish chuqur va mustahkam bilimlarni egallash, universal o‘quv harakatlarini o‘zlashtirish, mustaqillikni shakllantirish omili sifatida xizmat qiladi. Kichik maktab yoshi ijodiy faollikni rivojlantirish uchun maqbul davr sanalib, mazkur yosh davri jadal intellektual va emosional rivojlanish, tasavvurning yorqinligi, xayolotga layoqatlilik kabi sifatlar bilan alohida ajralib turadi.

Jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o‘qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to‘g‘risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvafaqqiyat qozonadi.

Inson hayoti sharoitlarini o‘zgartiruvchi va insonni o‘zini ham o‘zgartiruvchi faoliyat hozirgi zamonda ta'limning umumiy asosidir. Inson faoliyati jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko‘rinishlar, faoliyatning turli shakllarida farqlanadi.

Biroq ichki munosabatlar, ular o‘rtasidagi aloqalar doimiy va ymumiy bo‘lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir.

Ma'lumki, inson o‘z g‘oya, fikr, qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo‘llaydi va qayta yaratadi.

Faoliyat - atrof olamga nisbatan insonning o‘ziga xos faol munosabatidir. Chunki insonning hayotda namoyon bo‘lishining muhim shakli uning voqea - hodisalarga bo‘lgan faol ishtirokidir. Har qanday faoliyatda hayotiy tajriba to‘planadi, insonda o‘z atrofini o‘rab olgan borliqni bilish jarayoni kechadi, ma'lum bilimlar egallab olinadi, malaka va ko‘nikmalar hosil bo‘ladi, natijada inson faoliyati rivojlanadi.

Shaxs rivojlanishiga irsiyat, muhit, tarbiyaning ta'siri bilan birga unga faoliyatning ta'siri ham o‘ta muhimdir. “Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat – bu uning faolligidir. Faollik – (lotincha “aktus”)- harakat, “aktivus” –faol so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir”,- deb ta'kidlaydi o‘zbek olimasi V. M. Karimova. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va

o‘z-o‘zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashga aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

A. N. Leontev fikricha, faoliyatning asosiy psixologik nazariyasi va ta'limga faoliyatli yondashuv quyidagi g‘oyalar va tamoyillarni o‘zida qamrab oladi:

1. Faoliyatga metodologik asos bir tomondan ob'ektiv dunyo, ikkinchi tomondan miyaga ruhiyatning ta'siri natijasida vujudga keladi .

2. Ruhiy ta'sirning faollik kasb etishi – bu sub'ektning ehtiyoji asosida amalga oshadi.

3. Moddiy dunyoda sub'ektni faoliyatga yo‘naltirish, faoliyatning o‘zi ham ijtimoiy munosabatlarda tarkib topadi.

4. Inson faoliyati ruhiyatining ijtimoiy tarixiy tabiatiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ijtimoiy hayotning o‘zida amalga oshadi.

5. Inson faoliyatida ruhiyat ichki faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Barcha tahlillarni umumlashtirib, quyidagi fikrga kelindi: faoliyat – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, o‘quvchi shaxsining ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, hamda egallangan bilimlarni tatbiq etish, o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir.

Faoliyat jarayonida inson shaxsining har tomonlama yaxlit rivojlanishi, atrof- olamga munosabati shakllanadi. Inson faoliyati maqsadga muvofiq amalga oshishi uchun uni to‘g‘ri tashkil etish va to‘g‘ri yo‘naltirish lozim. Lekin ko‘p hollarda shaxsning rivojlanishi imkoniyatlaridan foydalanilmaydi, tarbiyalanuvchilar ko‘pincha ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatini faol tashkil eta olmaydilar, hayotda sust harakat qiladilar.

O‘quvchilar faoliyatining asosiy turlariga o‘yin, o‘qish, mehnatni kiritgan holda uning asosiy yo‘nalishlarini bilish, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik, emosional faoliyatlariga ajratish mumkin.

Faoliyat faol va passiv bo‘ladi, faqat faol faoliyat insonning barcha imkoniyatlarini ruyobga chiqarishga yordam beradi. Bunday faoliyat insonda qoniqish hosil qiladi, inson kuch -quvvatga to‘ladi.

O‘qishda faollik ijtimoiy tajribalarni tezroq o‘rganib, anglab olishga, kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga, o‘zini o‘rab turgan atrof-olamga munosabatini shakllantirishga olib keladi. Bilish faolligi esa bolaning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Mehnatda faollik shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishga undaydi, uni yanada muvaqqiyatli mehnat qilishga yo‘llaydi. Rivojlanayotgan shaxsni doimiy faollikka ancha murakkab va qiyin kechadi. Zero, o‘quvchining turli yoshda uning faoliyati o‘zgarib turadi. Shuning uchun bu borada maktabdagi ommaviy tadbirlar bilan birga har bir o‘quvchining invidual va yosh xususiyatlarini hisobga oladigan ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Inson qobiliyati va iste'dodi muvaffaqiyatlarga erishishining asosiy sharti ham insonning faolligidir. Chunki o‘qituvchi qay darajada mahoratli bo‘lmasin, agar o‘quvchining o‘zi faol bo‘lmasa, u muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Chunki o‘qituvchi o‘quvchini o‘qitish jarayonida uni boshqarib boradi. Shuning uchun ham o‘quvchi o‘z faoliyatida o‘ziga ahamiyatli bo‘lgan, o‘ziga jalb eta oladigan hayot mummolari bilan shug‘ullana borib, ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanadi.

Xullas, shaxs faolligi uning rivojlanishida vosita emas, balki uning natijasi hamdir. “Ta'lim-tarbiya shu vaqtda maqsadga erishadiki, qachon u o‘ziga ham boshqalari ham quvonch keltira oladigan ijtimoiy, faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantira olsa. Ana shunda shaxs faoliyat jarayonida uning barcha potensial imkoniyatlari ruyobga chiqadi”. Faoliyatga faylasuflar sub'ektining ob'ekt bilan o‘zaro harakati jarayonidagi vazifasini xarakterlaydigan tushuncha sifatida ta'riflaydilar. Faoliyat inson uchun atrof-olam bilan o‘ziga xos aloqa, ular o‘rtasida vosita bo‘ladigan, tartibga soladigan nazorat qiladigan o‘zaro munosabatlardir.

Faoliyatga uni qanoatlantiruvchi ehtiyoj sabab bo‘ladi va harakatlar tizimida amalga oshadi. Insonda ruhiy holatning mavjudligini ko‘zlaydi va uni paydo bo‘lishining asosiy sharti hisoblanadi hamda uning rivojlanishida harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Faoliyatning oddiy va oliy shaklini farqlay bilish zarur. Oliy shakl instinktiv (instinkt) moslashuvidan iborat. Ikkinchisi, oliy shakl birinchisidan o‘sib chiqib, uning ko‘rinishini o‘zgartirib insonning ongli harakatiga aylanadi. Faoliyat oliy shakllanish o‘ziga xos xususiyati uning atrof-muhitni ongli ravishda o‘zgartirishdan

iborat. Inson faoliyati ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, hayotning ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi. Inson o‘zini faol sub'ektga, o‘zi munosabatga kirishgan tabiat hodisalarini esa o‘z faoliyatining ob'ektiga aylantiradi.

Har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat bo‘ladi. Faoliyatning ongli ravishda amalga oshirilishi uning asosiy xususiyatidir. Zero, faoliyat bir tomondan jismoniy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa aqliy harakat vositasida ongda sodir bo‘ladi. Mehnat inson faoliyatini amaliy va nazariy shakllarining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Inson faoliyatining boshqa turlari (o‘yin, o‘qish va boshqalar) ham genetik jihatdan mehnat bilan bog‘liqdir.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA NUTQ O‘STIRISH USULLARI

Maratova Fariza Azamatovna,
Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot texnologiyalari vositasida nutq o‘stirish jarayonining bosqichlari yoritilgan. Nutqni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari, xususan, multimedia va interfaol vositalardan foydalanishning afzalliklari tahlil qilingan. Maqolada nutq o‘stirish jarayoni tayyorgarlik, idrok, faol mashq hamda refleksiya bosqichlariga ajratilgan bo‘lib, har bir bosqichda qo‘llaniladigan metodik usullar va o‘qituvchi faoliyatining samarali yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, nutq o‘stirish, boshlang‘ich ta’lim, multimedia, interfaol metodlar, refleksiya.

Maratova Fariza Azamatovna, Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA NUTQ O‘STIRISH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot texnologiyalari vositasida nutq o‘stirish jarayonining bosqichlari yoritilgan. Nutqni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari, xususan, multimedia va interfaol vositalardan foydalanishning afzalliklari tahlil qilingan. Maqolada nutq o‘stirish jarayoni tayyorgarlik, idrok, faol mashq hamda refleksiya bosqichlariga ajratilgan bo‘lib, har bir bosqichda qo‘llaniladigan metodik usullar va o‘qituvchi faoliyatining samarali yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, nutq o‘stirish, boshlang‘ich ta’lim, multimedia, interfaol metodlar, refleksiya.

Maratova Fariza Azamatovna, Researcher at Navoi State University

METHODS OF SPEECH EDUCATION BY MEANS OF INFORMATION TECHNOLOGY IN YOUNGER SCHOOLCHILDREN

Abstract: This article highlights the stages of the speech development process in younger schoolchildren by means of information technology. Modern approaches to speech development are analyzed, in particular, the advantages of using multimedia and interactive tools. In the article, the process of speech development is divided into stages of preparation, perception, active rehearsal and reflection, the methodological techniques used at each stage and effective areas of activity of the teacher are substantiated.

Keywords: information technology, speech development, primary education, multimedia, interactive methods, reflection.

Kirish. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Texnologiyalar orqali o‘quvchilar so‘z boyligini kengaytirish, to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish, mantiqiy va izchil fikrlashni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu jarayonni bosqichma-bosqich tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish, ularning

og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Chunki bu vositalar orqali o‘quvchilar nafaqat so‘z boyligini kengaytiradi, balki nutqiy faoliyatni amaliy tarzda mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni o‘stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarning assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar, balki sifat jihatdan o‘zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir”20. K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o‘qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o‘qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o‘zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o‘zaro munosabatlarini falsafiy, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o‘z fikrlarini bildiradi21.

Hozirgi zamon ta’lim tizimi o‘quvchilar nutqini o‘stirishda innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanishni dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilaydi. Chunki AKT vositalari orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi faol rivojlanadi, ularning fikrlash jarayoni faollashadi va o‘quv-biluv motivatsiyasi kuchayadi. Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari yordamida nutq o‘stirish texnologiyalarini qo‘llash ta’lim jarayonini samarali, mazmunli va qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

1. Axborot texnologiyalari vositalarining nutq o‘stirishdagi o‘rni

Axborot texnologiyalari o‘quvchilarning:

- so‘z boyligini oshirishga;
- tovush-harf tizimini mustahkamlashga;
- og‘zaki nutq jarayonida to‘g‘ri talaffuzni shakllantirishga;
- matn yaratish malakasini rivojlantirishga;
- mustaqil fikrlash va izohlay olishga yordam beradi.

Quyidagi vositalar ayniqsa samarali hisoblanadi:

1. Multimedia dasturlari (video, audio, animatsiyalar)
2. Interaktiv taxtalar
3. Onlayn topshiriq platformalari (LearningApps, Wordwall, Quizizz)
4. Audiokitoblar
5. Raqamli lug‘atlar
6. Nutq o‘stiruvchi mobil ilovalar

2. AKT orqali og‘zaki nutqni rivojlantiruvchi usullar

2.1. Multimedia asosida hikoya tuzdirish

Video lavha, animatsiya yoki suratlar asosida o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- Ko‘rgan video asosida voqeani qayta hikoya qilish;
- Qahramonlar harakatini tasvirlash;
- Voqealarning ketma-ketligini aniqlash;
- Audioyozuvdagi qahramon ovozini tanish va tavsiflash.

Bu usul o‘quvchilarda mantiqiy mazmun tuzish, gap bog‘lash, izohli nutqni rivojlantiradi.

2.2. Interaktiv o‘yinlar orqali nutq o‘stirish

Interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarning diqqatini jamlaydi, eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi:

- “Tasvirga qarab so‘z top”
- “Gapni davom ettir”
- “Savolga tez javob ber”
- “Rasm – so‘z – gap” o‘yinlari

Bu usul o‘quvchilarning tezkor fikrlash va lug‘aviy boylikni oshirishga xizmat qiladi. Jadvalda ham buni quyidagich ifodalash mumkin:

20 Леонтьев. А.А. Язык, речь, речевая деятельность.- М.: Просвещение, 1969. - 214 с.

21 К. Д. Ушинский и современность : сборник научных трудов / Ленингр. гос. пед. ин-т им. А. И. Герцена. Ленинград : Издательство Ленинградского государственного педагогического института им. А. И. Герцена, 1975. 157 с.

AKT vositasi	Qo‘llash shakli	Nutqni rivojlantirishga ta’siri	Amaliy misollar
Multimedia (video, animatsiya, audio)	Video asosida hikoya tuzish; audio matnni tinglash	Og‘zaki nutq, izohlash, voqeani ketma-ket bayon qilish ko‘nikmalarini o‘stiradi	“Rasmga qarab hikoya tuz”; “Tingla va top”; “Qahramonni tasvirla”
Interaktiv taxta	So‘zlar bilan ishlash, gap tuzish, matnni tahlil qilish	Diqqat, mantiq va eslab qolish jarayonini faollashtiradi; so‘z boyligini oshiradi	“So‘zlarni tartibga sol”; “Gapni davom ettir”; “Rasm–so‘z–gap”
Onlayn ta’lim platformalari (Wordwall, Quizizz, LearningApps)	Testlar, o‘yinlar, moslashtirilgan mashqlar	Lug‘at boyligini boyitadi, tezkor fikrlash va mustaqil javob berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi	“Sinonimni top”; “Antonimni tanla”; “Jumlani to‘ldir”
Audiokitoblar	Hikoyalarni tinglash, qahramon ovozini aniqlash	Tinglab tushunish, talaffuz va intonatsiyani to‘g‘ri shakllantiradi	“Tinglab tushun va hikoya qil”; “Audio matndan xulosa chiqarmoq”
Raqamli lug‘atlar	So‘zlarning ma’nosini izlash, talaffuzni tekshirish	Yangi so‘zlarni o‘zlashtirishni tezlashtiradi, imlo va yozma nutqni mustahkamlaydi	“Yangi so‘z bilan gap tuz”; “Ma’nosini izohlab ber”
Mobil ilovalar (nutq o‘stiruvchi ilovalar)	So‘zlash mashqlari, talaffuzni tekshirish	Ravon nutq, to‘g‘ri talaffuz, grammatik tuzilmani o‘zlashtirishga yordam beradi	“Gapni ovoz bilan ayt va tekshir”; “Suratga qarab so‘zlar aytish”
Matn muharrirlari (Word va Google Docs)	Matn tuzish, tahrirlash, imlo tekshiruvi	Yozma nutqda tartib, mantiqiy bog‘liqlik va to‘g‘ri yozish malakasini shakllantiradi	“Matnga sarlavha qo‘y”; “Xatoni top va to‘g‘rilash”

2.3. Audio materiallar asosida eshituv nutqini rivojlantirish
Audio matnlarni tinglash orqali:
- talaffuzni to‘g‘rilash;
- tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- eshitilgan matndan xulosa qilish;
- savollarga javob berish;
- dialoglar yaratish

kabi faoliyatlar rivojlanadi.
3. AKT orqali yozma nutqni rivojlantiruvchi usullar
3.1. Raqamli topshiriqlar asosida matn tuzdirish
Interaktiv platformalarda o‘quvchilarga:
- so‘zlarni to‘g‘ri tartibga keltirish;
- gap bo‘laklarini ajratish;
- rasmli topshiriqlar asosida kichik matn yaratish;
- oxirgi so‘zni to‘ldirish

kabi mashqlar beriladi.
3.2. Matnni qayta ishlash va tahrir qilish
Matn muharriri (Word) orqali:
- xatolarni to‘g‘rilash;
- imlo va punktuatsiya ustida ishlash;

- matnga sarlavha qo‘yish;
- matnni qisqartirish yoki kengaytirish

o‘rgatiladi.

3.3. Elektron lug‘atlar bilan ishlash

O‘quvchi:

- so‘z ma’nosini mustaqil topadi;
- sinonim va antonimlarni izlaydi;
- to‘g‘ri yozilishini tekshiradi;
- yangi so‘zlar bilan gaplar tuzadi.

Bu yozma nutq sifatini sezilarli oshiradi.

4. Interaktiv metodlar yordamida nutq o‘stirishning integrativ jihatlari

- Ona tili + AKT – imloviy ko‘nikmalarni mustahkamlash
- Adabiyot + AKT – tasviriy ifoda vositalarini o‘rganish
- Atrof-muhit + AKT – ta’rif, izohlash, tavsiflash ko‘nikmalarini shakllantirish
- Tasviriy san’at + AKT – rasm asosida matn yaratish
- Music + audio materiallar – ritmli nutq mashqlari

5. Kutilayotgan natijalar

Axborot texnologiyalari asosida nutq o‘stirish orqali:

- o‘quvchilarda so‘z boyligi ortadi;
- og‘zaki nutq ravonlashadi;
- izohlash, tavsiflash, hikoya qilish qobiliyati kuchayadi;
- eshituv va o‘qish asosidagi tushunish ko‘nikmalari rivojlanadi;
- yozma nutqda mantiqiylik va bog‘liqlik shakllanadi;
- nutqiy faollik oshadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot texnologiyalari asosida nutq o‘stirish ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. Multimedia, audiovizual vositalar, interaktiv platformalar va mobil ilovalardan maqsadli foydalanish orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi har tomonlama rivojlanadi. AKT vositalari zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas komponenti bo‘lib, o‘quvchi–o‘qituvchi–ta’lim resurslari o‘rtasida samarali axborot almashuvini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’lim tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ–3832-son qarori. — Toshkent, 2018.

2. Raximova M. “Boshlang‘ich ta’limda AKT vositalaridan foydalanish samaradorligi.” — *Ta’lim va fan*, 2022.

3. Xudoyberdiyeva D. “Nutqni rivojlantirish darslarida multimedia texnologiyalarining o‘rni.” — *Boshlang‘ich ta’lim jurnali*, 2023.

4. Hasanov A. “Axborot texnologiyalarining o‘quvchilarning nutqiy faoliyatiga ta’siri.” — *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*, 2021.

5. Леонтьев. А.А. Язык, речь, речевая деятельность.- М.: Просвещение, 1969. - 214 с.

6. К. Д. Ушинский и современность : сборник научных трудов / Ленингр. гос. пед. ин-т им. А. И. Герцена. Ленинград : Издательство Ленинградского государственного педагогического института им. А. И. Герцена, 1975. 157 с.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNI TASHKIL QILISH SHAKLLARI VA O‘QITISH METODIKASI .

Abduraxmanov G‘ulom Erkinovich-
Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi.
e-mail. abduraxmanovg1970@gmail.com

Annotasiya: Ushba maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitish jarayonlarini samarali tashkil etish shakllari yondashuvlari yoritilgan . Muallim sinf , guruhli, individual va o‘yinli shakllarda dars o‘tkazishning afzalliklari taxlil qilingan . Shuningdek , o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash , mustaqil ishlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan . Maqolada matematika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalardan foydalanishning samarali usullari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni haqida fikrlar bayon etilgan .

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim , matematika o‘qitish , metodika , o‘qitish shakllari , innovatsion texnologiya , intraktiv usul , mustaql ish .

ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ И МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье освещены формы и подходы к эффективной организации процесса преподавания математики в начальных классах. Проанализированы преимущества проведения уроков в классной, групповой, индивидуальной и игровой формах. Также показано значение современных педагогических технологий в развитии логического мышления, самостоятельной работы и творческой активности учащихся. В статье изложены мнения об эффективных способах использования информационных технологий при обучении математике и их роли в образовательном процессе.

Ключевые слова: начальное образование, преподавание математики, методика, формы обучения, инновационные технологии, интерактивный метод, самостоятельная работа.

FORMS OF ORGANIZATION AND METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY SCHOOL

Annotation: This article highlights the forms and approaches for effectively organizing the teaching process of mathematics in primary school. The advantages of conducting lessons in class-based, group, individual, and game formats are analyzed. Furthermore, the importance of modern pedagogical technologies in developing students’ logical thinking, independent work, and creative activity is demonstrated. The article also presents ideas about the effective methods of using information technologies in teaching mathematics and their role in the educational process.

Keywords: primary education, mathematics teaching, methodology, forms of teaching, innovative technology, interactive method, independent work

Kirish Bugungi kunda ta’lim tizimidagi islohotlar natijasida boshlang;ich ta’lim bosqichiga katta e’tibor qaratilmoqda . Bu bosqichda bolalarning tafakkuri, mantiqiy fikrlash qobiliyati ilmiy dunyoqarashi shakllanadi. Shu bois, matematika fanini to‘g‘ri va samarali o‘qitish nafaqat fanni bilishga, balki o‘quvchilarning umumiy fikrlar madaniyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Yurtimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limning boshlang‘ich matematika asoslarini o‘qitish, tarbiyalanuvchilarga ilk matematik tasavvurni shakllantirish bo‘yicha tizimli va keng qamrovli ishlarni amalga oshirib kelimoqda.

Matematika o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, innovatsion usullardan hamda ijodiy yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi shaxs bo‘lishi muhim sanaladi.

Asosiy qism.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida matematika fanini o‘qitish jarayoni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish faoliyati va psixologik tayyorgarligiga mos tarzda tashkil etiladi. Dars samaradorligini oshirish va o‘quvchilarda matematik tafakkurni shakllantirish uchun turli tashkiliy

shakllar qo‘llaniladi. Ushbu shakllar o‘quv jarayonini tizimli, izchil va o‘zaro bog‘liq tarzda olib borish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish asosan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi**:**

Sinf dars shakli: Bu eng an’ anaviy va asosiy shakl hisobalanadi . Dars rejali ravishda belgilangan vaqt ichida o‘tkaziladi . Darsning maqsadi , vazifalari natijalari aniq belgilanadi .

Guruhli ish shakli: O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib ishlash orqali faoliyatga jalb qilish , ularda hamkorlik , o‘zaro yordam va jamoviy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi .

Individial ish shakli: Bu usul har bir o‘quvchining qobiliyati va imkoniyatiga mos ravishda topshiriqlar berishni tutadi. Individual ish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoni yechish malakasi shakllanadi .

O‘yinli shakllar: O‘quv jarayonida o‘yin elementlardan foydalanish bolalarda fanga qiziqish uyg‘otadi. Masalan, “Matematika latariya”,“Sonni top”, “ Topishmoqli misollar ”, kabi o‘yinlar bilimni mustahkamlaydi .

Mustaqil ish shakli: O‘quvchilarni mustqail fikrlash , nazariy bilimlarni amalyotda qo‘llashda o‘rgatish maqsadida beriladi. Bu shakl ko‘proq uyiga vazifa, yozma ishlar va testlar orqali amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning samaradorligi turli tashkiliy shakllarni uyg‘un qo‘llash, ularni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish orqali ta’minlanadi. Bunday yondashuv nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarda fanga muhabbat, tafakkur madaniyati va mustaqil izlanish ruhini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda muommoli darslarni tashkil qilish: Muommoli ta’lim bu- darsda o‘quvchilarni birgalikda fikrlashga yunaltiruvchi metod bo‘lib hisoblanadi. Darsni olib borishda o‘quvchilar oldiga yechim uchun muommoli masallarni qo‘yish orqali va mashg‘ulot davomida yechimini topishni taqoza qiladi. Tahlillarimizdan ko‘rinadiki muommo o‘qituvchi tamonidan yoki o‘quvchilar tomonidan qo‘yilib amaliy mashg‘ulotlarda tahlil qilinishi muammoning yechimini aniqlashga yordam beradi. Ushbu muammoli ta’liming yechimini bir qancha usullar orqali o‘rganish maqasadga muvofiq sanaladi.

- ❖ Tushuntirish – illyustrativ usuli bu – O‘qituvchi yangi mavzuni so‘z bilan tushuntiradi, misollar kiltiradi va tasavurlar yordamida tushunchani mustahkamlaydi.
- ❖ Suhbat usuli: Dars jarayonida savol – javob orqali o‘quvchining faolligini oshirib boradi. Bu usul orqali har bir o‘quvchi mustaqil fikrini bildirishi imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- ❖ Tadqiqot usuli: Ushbu tadqiqot usulida o‘quvchiga ma’lum bir muammoli savol beriladi va mustaqil yoki guruhda izlanish orqali yechim topadi. Bu usul tafakkurni faollashtiradi.
- ❖ Amaliyotga yunaltirilgan usul. Maskur usul yordamida o‘qituvchi nazariy bilimni xayot bilan bog‘lash orqali fanning amaliy axamiyatini his qiladi. Masalan:soatni o‘qish, pul bilan xisoblashish, uzunlik va bazi birliklani qo‘llash ushbu tadqiqot usulida muhim sanaladi.
- ❖ Interaktiv usul. “Aqillar jangi’’, “Bilish- savollar”, “Mazayka”, “Mikrofan” kabi interaktiv usullar o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi va do‘stona raqobat muxitini yaratadi. Ushbu ilmiy tahlillarga tayangan holda aytish mumkinki muammoli masalalarning yechimi Matematika fanini o‘qitishda o‘qituvchining metodika to‘plash bo‘yicha professional mahoratiga bog‘liq sanaldi.

O‘quv jarayonida zamonaviy texnalogiyalarni yaratish.

Hozirgi zamon talabiga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limga axborot texnalogiyalaridan samarali foydalanish muhim axamiyatga ega sanaladi. Xususan Kompyuter, planshit, interaktiv doskalar yordamida darsni qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda multimediali ma’lumotlar orqali bolalarni e’tiborini jalb etish osonlashadi. Intraktiv elektron mashqlar, onlayn testlar va animatsiyalar orqali o‘quvchi bilimi mustahkamlanadi. Bu esa fanga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi .

Xulosa

Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitish nafaqat hisob - kitobni o‘rgatish , balki fikirlash, taxlil qilish va tug‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakillantirishni ham ko‘zda tutadi. O‘qituvchi darsni tashkil etish turli shakl va usullarni to‘g‘ri tanlab, bolalarning yosh xususiyatiga mos ravishda faoliyatni yo‘lga qo‘ysa, natija yuqori bo‘ladi. Zamonaviy metodik yondashuvlar,

axborot texnologiyalardan foydalanish va ijodiy muhit yaratish – samarali ta’limning asosiy omillari sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vygotskiy L.S. *Voobrazhenie i tvorchestvo v detskom vozraste.* – Moskva: Pedagogika, 1984.
2. Karimova G. *Didaktik o‘yinlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish.* – “Ta’lim va fan yangiliklari” jurnali, 2022.
3. Xolmatova D., Raximova S. *Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish.* – Toshkent: Fan, 2020.
4. Omonov Sh. *Matematika ta’limida o‘yinli yondashuvlar va ularning samaradorligi.* – “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2023.

BOSHLANG‘ICH TA'LIMDA NEYROGRAFIK YONDASHUV ORQALI O'QUV JARAYONINING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Normurodova Lobar
Navoiy davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada neyrografika fanining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ta’kidlangan. Boshlang‘ich ta’limda dars jarayonini tashkil qilishda neyrografik yondashuv va bu orqali o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini oshirish, ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.*

Kalit so‘zlar: *neyrografika, faollik, vizual material, kognitiv faoliyat, refleksiya, kinestetik material*

Abstract: *This article highlights the unique features of neurographic science. The neurographic approach to the organization of the lesson process in primary education plays an important role in increasing the cognitive activity of students and increasing the effectiveness of education.*

Key words: *neurographics, activity, visual material, cognitive activity, reflection, kinesthetic material*

Аннотация: *В данной статье освещаются уникальные особенности нейрографической науки. Нейрографический подход к организации учебного процесса в начальной школе играет важную роль в повышении познавательной активности учащихся и повышении эффективности обучения.*

Ключевые слова: *нейрографика, деятельность, изобразительный материал, познавательная деятельность, рефлексия, кинестетический материал*.

KIRISH

Bugungj ta’lim tizimida o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning o‘quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi – bu nafaqat asosiy bilimlar va ko‘nikmalar shakllanadigan, balki bolaning shaxs sifatida rivojlanishi boshlanadigan muhim poydevor bosqichidir. Shu bois, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ongi, hissiyoti, diqqat va xotirasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yondashuvlardan biri – neyrografika tamoyillari asosida ishlash zarurati tobora ortib bormoqda. Mazkur maqolada aynan shu yondashuv asosida dars jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish, motivatsiyasini oshirish va bu orqali ta’lim samaradorligini oshirishga doir nazariy va amaliy tavsiyalar yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich ta'limda neyrografik yondashuv o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun bir qator muhim tamoyillar va metodlarni qo'llash mumkin. Neyrografik yondashuv, asosan, miya faoliyatini va o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadi. Quyida bu yondashuv orqali o'quv jarayonini takomillashtirishning ba'zi usullari keltirilgan:

1. O'quvchilarni individual ravishda baholash

O'quvchilarni neyrografik yondashuv asosida baholash, ularning qobiliyatlari, qiziqishlari va o'rganish usullarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish imkonini beradi.

2. Vizual va kinestetik materiallardan foydalanish

Neyrografik yondashuvda vizual va kinestetik materiallar muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarga rangli diagrammalar, grafikalar, modellar va boshqa vizual materiallar yordamida mavzularni tushuntirish samaradorligini oshiradi.

3. O'yin va interaktiv metodlar

O'yinlar orqali o'qitish o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Interaktiv metodlar, masalan, guruhli muhokamalar yoki loyiha asosidagi o'qitish, o'quvchilarning ijodkorlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. O'z-o'zini nazorat qilish va refleksiya

O'quvchilarga o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini berish, ularning o'z bilimlarini baholashga yordam beradi. Refleksiya jarayoni orqali o'quvchilar o'z tajribalaridan o'rganadilar va kelajakda qanday yaxshilanishlar qilish mumkinligini aniqlaydilar.

5. Emotsional va ijtimoiy muhitni yaratish

O'quv jarayonida ijobiy emotsional muhit yaratish, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Ular bir-birlari bilan hamkorlikda ishlashlari va bir-biridan o'rganishlari uchun qulay sharoitlar yaratilishi kerak.

Ushbu tadqiqot neyrografik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish jarayonini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, bunda bir qator kompleks tadqiqot metodlari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv metodi muhim o‘rin egalladi. Dars jarayonlarida o‘qituvchilarning metodik faoliyati, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, psixologik faolligi va bilimlarga bo‘lgan munosabati kuzatildi. Ayniqsa, neyrografik usullar qo‘llanilgan darslardagi o‘quvchilarning qatnashuv darajasi va faollik ko‘rsatkichlari alohida e’tiborga olindi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan o‘tkazilgan suhbatlar orqali neyrografik yondashuvga nisbatan munosabatlar, foydali tajribalar va takliflar o‘rganildi. Bu usul, ayniqsa, neyrografik yondashuvning kundalik dars amaliyotida qanday qabul qilinayotgani va uning amaliy samarasini tushunishda muhim bo‘ldi. Yakunda esa, statistik tahlil metodlari yordamida eksperiment natijalari raqamli ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilindi. O‘quvchilarning baholari, topshiriqlarni bajarish darajasi, darslardagi faolligi statistik ko‘rsatkichlarga asoslangan holda umumlashtirildi va grafiklar, jadvallar shaklida vizual tarzda ifoda etildi. Bu esa olib borilgan tadqiqotning ilmiy asoslanganligini mustahkamlab berdi.

O‘tkazilgan nazariy tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, neyrografik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini, diqqatini va eslab qolish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Dastlabki bosqichda an’anaviy o‘quv metodlari bilan tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda faollikning pastligi, topshiriqlarni bajarishda sustkashlik, tez chalg‘ish kabi holatlarni namoyon etdi. Bu esa ta’limda individual farqlar yetarlicha hisobga olinmasligini ko‘rsatadi. Tajriba-sinov bosqichida esa neyrografik tamoyillar asosida darslar tashkil qilindi. Xususan, dars jarayonida ko‘rgazmali vositalar, vizual va audio materiallar, faol fikrlashni rag‘batlantiruvchi o‘yinlar va topshiriqlardan foydalanildi. Har bir o‘quvchining bilish uslubi – eshitish, ko‘rish yoki kinestetik qabul qilishga mos tarzda individual yondashuvlar qo‘llanildi. Natijada, o‘quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajarishga intildi, savollarga faol javob bera boshladi, o‘z fikrlarini aniq ifodalay olish ko‘nikmalari shakllandi.

Neyrografik yondashuv asosida tuzilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan qiziqishning ortishiga, darsda faol ishtirok etish darajasining oshishiga va ayniqsa mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam bergani aniqlandi. An’anaviy dars usullariga qaraganda, neyrografik yondashuvga asoslangan metodika bolalarning tabiiy qiziqishini saqlab qolishga, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga va o‘quv faoliyatiga emotsional yondashuv bilan qarashga undaydi.

XULOSA

Neyrografik yondashuv orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ushbu takliflar, boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yondashuv o'quvchilarning qobiliyatlarini to'liq ochishga yordam beradi va ularga muvaffaqiyatli ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, neyrografik yondashuvni boshlang‘ich ta’lim jarayoniga integratsiyalash ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash, diqqatni jamlash, eslab qolish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, neyrografik tamoyillarga asoslangan mashg‘ulotlar o‘quvchilarda ta’limga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirib, ularning emotsional holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa butun ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga olib keladi. Bunda o‘qituvchining pedagogik mahorati, metodik yondashuvi va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos yondasha olish qobiliyati asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldashev M.X., “Neyropsixologik metodlar asoslari”. Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2021.
2. Abdullayeva G.X., “Ta’limda individual yondashuv: Neyropsixologik nuqtai nazar”. O‘quv qo‘llanma.
3. Abdullayeva G.X., “Ta’limda neyropsixologik yondashuvlar”. O‘quv qo‘llanma.
4. V.P. Gluxov, “Neyropsixologiya v obrazovanii”. “Российская академия оброзования” nashriyoti.

AKMEOLOGIK YONDASHUV VA UNING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA SHAXSIY VA KASBIY RIVOJLANISHDAGI ROLI

Raimboyeva Ma’mura Odilbek qizi
Urganch davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti
+998934668855 Mamura1204@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada akmeologik yondashuvning nazariy asoslari, uning shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishidagi o‘rni hamda ta’siri tahlil qilinadi. Akmeologiya insonning o‘z faoliyatida eng yuqori cho‘qqiga erishish, kasbiy mahorat va shaxsiy yetuklikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan fan sifatida qaraladi. Maqolada shuningdek, pedagogik jarayonda akmeologik yondashuvni qo‘llash orqali talabalarning ijodiy faolligini, mustaqil fikrlashini va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: akmeologiya, akmeologik yondashuv, shaxsiy rivojlanish, kasbiy kompetensiya, yetuklik, o‘zini anglash.

АКМЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ЕГО РОЛЬ В ЛИЧНОСТНОМ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы акмеологического подхода, его роль и влияние на личностное и профессиональное развитие человека. Акмеология определяется как наука, направленная на достижение человеком высших вершин в деятельности, развитие профессионального мастерства и личностной зрелости. Также анализируются пути применения акмеологического подхода в педагогическом процессе для формирования у студентов творческой активности, самостоятельного мышления и профессиональных компетенций.

Ключевые слова: акмеология, акмеологический подход, личностное развитие, профессиональная компетенция, зрелость, самосознание.

THE ACMEOLOGICAL APPROACH AND ITS ROLE IN THE PERSONAL AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of the acmeological approach, as well as its role and impact on personal and professional development. Acmeology is defined as a science aimed at helping individuals achieve the highest peaks of their activity, develop professional

skills, and reach personal maturity. The paper also explores the application of the acmeological approach in the educational process to foster students' creative activity, independent thinking, and professional competencies.

Key words: acmeology, acmeological approach, personal development, professional competence, maturity, self-awareness.

Kirish. O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish masalasi XXI asrga kelib o‘z dolzarbligi bilan alohida o‘rin tutmoqda, shuning uchun ham o‘qituvchilarni professional rivojlantirish, malaka oshirish va yangi pedagogik metodlarni tatbiq etish bu jarayonda muhim hisoblanadi. Akmeologik yondashuv ta’lim tizimidagi bu o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, o‘qituvchilarni eng yuqori natijalarga erishishga imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim tizimining muhim poydevorlaridan biri ekanligi bilan ajralib turadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatining samaradorligi, o‘quvchilarning bilim olish darajasi va shaxsiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan, o‘qituvchilar malakasini oshirish va professional o‘sishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Akmeologik yondashuv o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini tizimli qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida insonparvarlashtirish, raqobatbardosh boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash, xorijiy takomillashtirishning tajribalar asosida ta’lim me’yoriy asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’limni yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifa sifatida belgilandi [1]. Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlar yaratildi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarga ehtiyoj zarurati ortib borayotgan bir zamonda, akmeologik yondashuv orqali o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik metodlar va texnikalarga o‘rgatish, ularni yangi pedagogik yondashuvlarga tayyorlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim jarayonini samarali va sifatli qilishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni shaxs sifatida shakllantiribgina qolmay, o‘quvchilarning ta’lim olishdagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning kasbiy mahoratiga bog‘liq. Akmeologik yondashuv yordamida o‘qituvchilar o‘z faoliyatini mukammallashtirib, o‘quvchilarga zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanib ta’lim berish imkonini beradi va o‘quvchilarning ijtimoiy, intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik fanlar o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish, yangi bilimlarni va texnologiyalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Akmeologik yondashuv, o‘qituvchilarga o‘z faoliyatini doimiy ravishda yangilab, o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu nafaqat ta’lim tizimining zamon bilan hamohang rivojlanishiga yordam berishi, balki muhim nuqta hisoblanib, muammoning dolzarbligini belgilab beradi. Akmeologik yondashuvni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga tatbiq etish metodlari bo‘yicha bir qancha psixolog hamda pedagoglar izlanishlar olib borishgan. Xususan, L.I.Miroshnikova “shaxsiy rivojlanishning akmeologik yondashuvlari” haqida olib borgan [2], V.A.Ponomarenko akmeologik yondashuvni professional o‘sish va kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishda qo‘llagan [3], T.V.Shmeleva akmeologik yondashuvni o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida qo‘llashni ilmiy asoslagan [4], V.A.Petrov akmeologiyaning o‘quvchilarni rivojlantirishda va pedagogik amaliyotda qo‘llashda ilmiy tadqiqotlar olib borgan [5]. V.V.Davydov “Shaxsning shakllanishi va rivojlanishidagi akmeologik yondashuv” mavzusiga ham o‘z ilmiy ishlarida to‘xtalib o‘tgan [6], Venger, M.M.Verbitskiy, A.A.Shadrikov, S.I.Goykhman, N.S.Filippovalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar insonning maksimal rivojlanishiga erishish, uning professional va shaxsiy rivojlanishini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fan sifatida, pedagogika va psixologiyaning integratsiyasi doirasida o‘rganilmoqda.

V.G.Zazikinning fikricha, akmeologik yondashuvning vazifasi bo‘lajak mutaxassisni tobora yuqori professional va shaxsiy darajaga o‘tkazish jarayonini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha strategiya va taktikalarni ishlab chiqishdan iborat. Kasbiy faoliyat, kasbiy mahorat, kasbiy faoliyatning muayyan turida o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqaradigan ilg‘or rivojlanayotgan shaxs akmeologik yondashuvning jiddiy e’tiboridagi obyektdir [7]. B.G.Ananev akmeologiyaga asoslangan

quyidagi g‘oya va qonuniyatlarni ajratib ko‘rsatadi: inson xulq-atvorining oliy shakllarini, shu jumladan, ekstremal vaziyatlarda ta’minlaydigan yangi tuzilmalar va sifatlar shakllanishida odamni ontogenezi va sotsiogenezi jarayonida rivojlanishning geterogen jarayonlarini integratsiyalash; ta’lim sohasidagi insonning dunyoga, boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi ta’lim mazmunini insonni bilish tizimi sifatida qurish; jamiyatning beqaror sharoitlarida shaxsning o‘zini o‘zi barqaror rivojlantirishi [8]. Pedagogikada akmeologik yondashuv shaxsiy-kasbiy ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammosini o‘rganishga qaratilgan.

Akmeologiya, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, pedagogik malakalarini rivojlantirish va o‘qituvchilarni o‘z ishlarida yuqori natijalarga erishishga undaydi. Akmeologik yondashuv pedagogning rivojlanishini takomillashtirishda asosiy o‘rin tutadi.

Akmeologik yondashuvni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatiga tatbiq etish, o‘qituvchiularni rivojlantirish va ularning pedagogik faoliyatini sifatli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv orqali o‘qituvchilar o‘z mahoratlarini oshirib, o‘quvchilarga samarali ta’lim berishda yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Akmeologik metodlar va tamoyillar pedagogik faoliyatning rivojlanishiga xizmat qiladi va o‘qituvchilarning shaxsiy o‘sishini ta’minlaydi.

Dunyoning yetakchi mamlakatlarida o‘quv-bilish faoliyatini akmeologik kasbiy yo‘naltirish, oliy ta’lim talabasining kasbning egallashida akmega yetishi, yuqori malakaga eg bo‘lishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirishda akmeologik yondashuvdan kengroq foydalanish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni modernizatsiyalash, pedagogik kasbiy ta’lim sharoitida raqobatbardosh pedagoglar tayyorlashni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Akmeologik yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish, maqsadga yo‘naltirilgan psixo-pedagogik shartini tashkil etish, shuningdek, shaxsni akmeologik yo‘naltirishni shakllantiruvchi metodlar va usullar, pedagogik ta’sir yo‘nalishining ijobiyligi o‘zgarishiga rioya etishni ta’minlaydi. V.D.Shadrikovning e’tirofiga ko‘ra, oliy pedagogik ta’lim tizimi har qanday pedagogni yuksak darajadagi tilni bilish madaniyatiga, o‘z fikr va mulohazalarini aniq va ravon turli til imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda ifodalay olish, o‘zining predmeti yuzasidan har tomonlama mukammal bilimga ega bo‘lishi va uni o‘qitish usullarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak [9]. Akmeologiya majmuaviy, integrativ fan sifatida, insonning rivojlanish va tiklanish dinamikasida, shaxs ijodiy potensialida o‘z-o‘zini namoyish etish qonuniyatlari va omillari hamda ta’limiy va kasbiy yutuqlarga erishish yo‘llarini tadqiq etadi. Subyektning kasbiy faoliyat muammosi akmeologiyada muhim hisoblanadi.

Talabalarni qadriyatga yo‘naltirish o‘zaro shaxs munosabatlari bilan bog‘liq turg‘un motivlar yig‘indisi sifatida tushunish mumkin. Zamonaviy mualliflar talabalarni yo‘naltirish deganda talaba shaxsning alohida xususiyati, ya’ni uning integral xususiyati sifatida ko‘radilar.

V.A.Boritko [10] shaxs hodisasini o‘rganuvchi olimlarning fikriga tayangan holda, talabalarni akmeologik yo‘naltirish quyidagi asosiy xususiyatlardan iborat:

- Talabalarni akmeologik yo‘naltirish asosiy ijtimoiy rollariga va ijtimoiy mohiyatiga munosabatini belgilaydigan va ko‘rsatadigan tipologik xarakteristikasi;
- Talabalarni akmeologik yo‘naltirish xususiyati sifatida o‘ziga xosligini belgilab, uning tuzilishini yaratadi;
- Talabalarni akmeologik yo‘naltirish – bu shaxsning jamiyat maqsadlarini belgilashni ham, hayotiy faoliyatning o‘z maqsadlarini rivojlantirishni ham ta’minlaydigan, ya’ni shaxsni shakllantiruvchi tuzilishi sifati hisoblanadi;
- Talabalarni akmeologik yo‘naltirish – bu barcha tashqi ta’sirlarning sinishiga vositachi bo‘lgan ichki sharoitlar tizimi, buning natijasida ijtimoiy tajribaning interverlashuvi sodir bo‘ladi va shaxsning nisbiy barqarorligi saqlanadi;
- Talabalarni akmeologik yo‘naltirish boshqalarga va o‘ziga nisbatan faolligini, shaxs faoliyati va muloqotining xulq-atvor tendensiyalarini belgilaydi.

Pedagogik ta’limda akmeologik yondashuvni amalga oshirishning o‘ziga xos pedagogik shartlariga axborotning shaxsiy va texnologik sharoitlari kiradi. Aniqlangan psixologik-pedagogik shartlarning mazmuni kasbiy pedagogik ta’limda akmeologik yondashuvni amalga oshirish jarayonida shaxsning akmeologik yo‘nalishini shakllantirishning quyidagi ketma-ketligini belgilaydi:

- Talabalarni akmeologik yondashuvni amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy faoliyatga tayyorlash bilan bog‘liqligi;

- Asosiysi kasbiy ta’limda akmeologik yondashuvni amalga oshirish va o‘quvchilar shaxsining akmeologik yo‘nalishini shakllantirishga qaratilishi;

- Diagnostikani amalga oshirish, shaxsning akmeologik yo‘nalishini shakllantirish darajasini baholash va tahlil qilish va shu asosda o‘quv jarayoniga tuzatishlar kiritishni o‘z ichiga olgan diagnostika va tuzatish.

Xulosa qilib aytganda, akmeologik pedagogika inson imkoniyatlarini ochish va rivojlantirishda muhim mazariy hamda amaliy asoslarni taqdim etadi. Bu yondashuv, insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladigan, individual yondashuvni kuchaytiradigan va uni har tomonlama rivojlantirishga imkon beradigan pedagogik metodlarni ishlab chiqishga asoslangan. U insonning biologik va psixologik imkoniyat;arini to‘liq ochishga qaratilgan bo‘lib, shaxsning yuksalishida muhim rol o‘ynaydi. Akmeologik pedagogika, shuningdek, zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimlarida innovatsion texnologiyalar bilan birgalikda, inson resurslaridan maksimal darajada foydalanishga imkon yaratadi va shaxsning yuksalish yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoni va unga 1-ilova-//Elektron manba. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ma’lumotlar bazasi: https://lex.uz/uz/docs/-5841063

2. Мирошникова Л. И. Роль личности учителя в развитии нравственно-духов ной личности школьника // Современная высшая школа: инновационный аспект. 2012. № 4. С. 53-58.

3. Пономаренко В.А., Дисциплина: Психология. Научные монографии. Москва: ПЕР СЭ, 2004. 256 с.

4. Н.Б.Шмелёва, Теория и методика социальной работы. Профессионально-личностное развитие социального работника. Москва: Издательство “Юрайт”, 2020. 202 с.

5. Петров В.А., Сущность и тенденции развития инновационного оброзования: социально-философский анализ. Монография. Москва. 2008. 220 с.

6. Давыдов В.В., Проблемы развивающего обучения: опыт теоретического и экспериментального психологического исследования. Москва. 1986. 240 с.

7. Зазыкин В.Г., Марков В.Н., Толочек В.А. Профессиональное самоопределение субъектов: акмеологический подход. Москва. 2004. 178 с.

8. Ananyev B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. – M.: Nauka, 2001. 288 c.

9. Шадриков В.Д., Акмеология: личностное и профессиональное развитие человека. Москва. 2011. 312 с.

10. Боритко В.А., Акмеологические основы педагогической деятельности. Волгоград: ВГПУ. 2003. 196 с.

11. Karimova V.M. Psixologiya: Shaxs rivojlanishi va faoliyat motivatsiyasi. – Toshkent: Fan, 2015. 205 b.

12. Xusanova G. Akmeologik yondashuv asosida kasbiy yetuklikni rivojlantirish. // Pedagogika fanlari jurnali, 2021, №2.

DIDAKTIK ASARLARNI AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY O‘QITISH USUL VA METODLARI

Zarnigor Abdinabi qizi-
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi
+99894 218-68-91 zarnigorabdiraupova216@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola didaktik asarlarni an’anaviy va zamonaviy o‘qitish metodlari haqida bo‘lib, ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida fikr yuritilgan. Maqolada texnik vositalar va qiziqarli interaktiv o‘yinlar orqali darsni samarali tashkil etish mumkinligi asoslab berilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются традиционные и современные методы преподавания дидактических произведений, их преимущества и недостатки. Обосновывается возможность эффективной организации урока с использованием технических средств и интересных интерактивных игр.

Abstract. This article discusses traditional and modern methods of teaching didactic works, their advantages and disadvantages. The article substantiates the possibility of effectively organizing a lesson using technical means and interesting interactive games.

Kalit so‘zlar: didaktika, metod, an’anaviy, interaktiv, kreativ, innovatsion.

Ключевые слова: дидактика, метод, традиционный, интерактивный, творческий, инновационный.

Keywords: didactics, method, traditional, interactive, creative, innovative.

Kirish

Ta’lim jarayonida o‘qitish metod va usullari o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Har bir davrda o‘ziga xos o‘qitish uslubi bo‘lib, bu imkoniyat, sharoit va texnik rivojlanishga bog‘iq. Shu nuqtayi nazardan bugungi kun o‘qitish tizimi avvalgisiga qaraganda tubdan farq qilishi tabiiy. Shunga ko‘ra an’anaviy va zamonaviy o‘qitish metodlarini uyg‘unlashtirgan holda o‘qitishni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqolada didaktik asarlarni an’anaviy o‘qitish tizimi va zamonaviy metodlar asosida o‘qitishning afzalliklari va kamchiliklari pedagogik jihatdan tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Bugungi kunda ta’lim tizimi jadal rivojlanayotgan, axborot texnologiyalari keng qo‘llanilayotgan bir davrda yashamoqda. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida uzoq yillar davomida shakllanib kelgan **an’anaviy ta’lim tizimi** ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. An’anaviy ta’lim insoniyat tarixida eng ko‘p qo‘llanilgan o‘qitish shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish, ularni tartib-intizomga o‘rgatish va ma’lum standartlar asosida baholashga asoslanadi [1].

An’anaviy ta’lim – bu uzoq yillardan beri shakllanib kelgan, o‘qituvchi markazli o‘qitish tizimi bo‘lib, unda asosiy e’tibor o‘quvchiga tayyor bilimlarni berishga qaratiladi. Ushbu ta’lim shakli asosan sinf-dars tizimiga, darslik va o‘qituvchi faoliyatiga tayanadi. Bu ta’limda o‘qituvchi o‘quv jarayonining bosh tashkilotchisi bo‘lib, o‘quvchilarni nazorat qiladi, ularning faoliyatini baholaydi va zarur hollarda to‘g‘ri yo‘naltiradi [2].

An’anaviy ta’lim tizimining asosiy xususiystlarini quyidagicha sanab o‘tish mumkin:

1. **O‘qituvchi markaziy o‘rinda** – bilimlar o‘qituvchi tomonidan beriladi, o‘quvchi esa tinglovchi rolida bo‘ladi.
2. **Standart dastur asosida o‘qitish** – barcha o‘quvchilar uchun yagona reja va baholash tizimi mavjud.
3. **Nazariy bilimga urg‘u** – amaliyotdan ko‘ra ko‘proq nazariy tushunchalarga e’tibor qaratiladi.
4. **Yodlashga asoslangan o‘qitish** – o‘quvchi ko‘proq eslab qolish va takrorlash orqali bilimni o‘zlashtiradi [3].

Bu tizimda o‘qituvchi o‘z tajribasi asosida darsni boshqaradi, shu bois ta’lim sifati ko‘p hollarda pedagogning malakasiga bog‘liq bo‘ladi.

Bunday ta’limning o‘ziga xos afzalliklari mavjud bo‘lib, ular quydagilar:

- O‘quv jarayonining qat’iy tartibda tashkil etilishi;
- Tizimlilik va intizomning yuqori darajada bo‘lishi;
- Ko‘p sonli o‘quvchilarga bir vaqtning o‘zida ta’lim berish imkoniyati;
- O‘qituvchining boshqaruv roli orqali o‘quvchilarni tartibga chaqirish [4].

Har bir narsaning afzallik tomoni bilan birgalikda kamchiliklari ham mavjud:

- O‘quvchilar mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga kamroq o‘rgatiladi;
- Shaxsiy yondashuv yetishmaydi;
- Faol o‘quv jarayoni emas, passiv tinglovchilik holati yuzaga keladi;
- Texnologik yondashuvlar cheklangan [5].

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchining faolligini oshirish, mustaqil izlanish va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. An’anaviy ta’limda “**o‘qituvchi bilim beradi**”, zamonaviy ta’limda esa “**o‘quvchi bilimni o‘zi egallaydi**” tamoyili ustuvor hisoblanadi [6].

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida ham an’anaviy va innovatsion yondashuvlar uyg‘unligida ishlash tendensiyasi kuzatilmoqda.

XXI asr — bu axborot texnologiyalari, innovatsiyalar va ijodkorlik asri. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy maqsadi — shaxsni mustaqil fikrlovchi, yangilik yarata oladigan, ijodkor va raqobatbardosh inson sifatida tarbiyalashdir. Shu sababli, **zamonaviy ta’lim** tizimi an’anaviy ta’limdan tubdan farq qiladi. Unda o‘quvchi markaziy o‘ringa chiqadi, o‘qituvchi esa yo‘lboshchi, maslahatchi va motivator sifatida faoliyat yuritadi [3].

Zamonaviy ta’lim — bu o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga, ularning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi, axborotni izlab topishi va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tizimdir [1].

Bunda o‘quv jarayoni o‘quvchining faolligi, interaktivlik, innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalar asosida tashkil etiladi.

Zamonaviy ta’lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- **O‘quvchi markazli yondashuv**;
- **Amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish**;
- **Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish**;
- **Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish**

Zamonaviy ta’limning asosiy metodlari

Bugungi kunda ta’lim jarayonida turli xil innovatsion metodlar keng qo‘llanilmoqda. Eng samarali usullar quyidagilar:

1. **Interfaol metodlar** – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida faol muloqot asosida o‘rganish (masalan, “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Klaster”, “Debat” va boshqalar) [4].
2. **Muammoli ta’lim** – o‘quvchiga muammoli vaziyat berilib, u o‘z bilim va tajribasi orqali yechim topadi.
3. **Loyiha (project-based learning)** – o‘quvchi amaliy loyihalar ustida ishlaydi, natijada real hayotiy muammolarga yechim topadi [7].
4. **Axborot texnologiyalaridan foydalanish** – multimedia, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar orqali o‘qitish (masalan, Moodle, Google Classroom, Coursera va h.k.).
5. **Kichik guruhlarda ishlash** – jamoaviy ish orqali hamkorlik, liderlik va muloqot ko‘nikmalari shakllanadi.

Zamonaviy ta’limning afzalliklari:

- O‘quvchining mustaqil va ijodiy fikrlashi rivojlanadi;
- Bilim amaliyot bilan bog‘lanadi;
- O‘qitish jarayoni interaktiv va qiziqarli bo‘ladi;
- Raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligi oshadi [6].

Kamchiliklari:

- Texnik vositalar va internetga bog‘liqlik;
- Har bir o‘qituvchining innovatsion metodlarni chuqur bilishi talab qilinadi;
- O‘quvchilar orasidagi individual farqlarni inobatga olish murakkab [7].

4. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchining o‘rni

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi bilim beruvchi ensiklopediya emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. U o‘quvchini fikrlashga, izlanishga, savol berishga undaydi. O‘qituvchi, shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mos metodlarni tanlaydi.

Didaktik asarlarni shu kunga qadar faqat an’anaviy o‘qitish usulidan foydalangan holda, o‘qituvchi mavzu syujetini aytib berish orqali bilim berilgan bo‘lsa, hozirda zamonaviy texnik vositalar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lmoqda. Didaktik asarlar odatda hikoya va voqeaga asoslangan bo‘ladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, bunday asarlarni interfaol dars shaklida qo‘llash uchun qahramonlarning rolini jonlantirish, konfiliktni sahnalashtirish kabi jarayonlar o‘quvchini faollikka undaydi. Undan tashqari o‘quvchilarga quydagi savollarni bersa ularni o‘ylashga, qahramonni his qilishga, hayotiy muammolarni hal qilishga bo‘lgan instinkt rivojlanadi.

- Agar siz shu kabi qahramonni o‘rnida bo‘lib qolsangiz qanday yo‘l tutar edingiz?
- Nega muallif shunday xulosaga keldi?
- Bu voqeadagi eng asosiy va to‘g‘ri qaror qaysi?
- Qahramonlarning xatosi nimada? kabi savollarni berish orqali asarnining mohiyatini anglashga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim — bu kelajak avlodni hayotga, mehnat bozoriga va doimiy o‘zgaruvchan dunyoga tayyorlovchi tizimdir. U an’anaviy ta’limning eng yaxshi jihatlarini saqlab qolgan holda, ularni innovatsion metodlar bilan boyitadi. Shunday ekan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llash va ijodiy yondashuv ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridandir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, an’anaviy ta’lim hali ham ko‘plab maktab va oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilib kelmoqda. U o‘quv jarayonini tartibga solishda, nazoratni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ammo zamonaviy sharoitda uni innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirish, o‘quvchi va talabalarda kreativ g‘oyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratib, ta’lim samaradorligini yanada oshirsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova D. Pedagogik kompetensiya va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Iste’dod, 2020.
2. Hasanboyeva O., To‘xtaxodjayeva M. Pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
4. Hasanboyeva O., To‘xtaxodjayeva M. Pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Mavlonova R., va boshq. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
6. Tursunov A. An’anaviy va innovatsion ta’lim tahlili. // “Ta’lim va fan” jurnali, №3, 2020.
7. UNESCO Report: Innovative Teaching Approaches in the 21st Century Education. – Paris, 2021.
8. Yuldashev J.G. Ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2021.

TA’LIM QOZOQ TILIDA O‘QITILADIGAN MAKTABLARNING O‘ZBEK TILI DARSLARIDA O‘QUV LUG‘ATLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Omonboyeva Nursaule Erkin qizi-
NavDU Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
omonboyevanursaule4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tili qozoq bo‘lgan maktablarda o‘zbek tili fanini o‘qitishda o‘quv lug‘atlaridan foydalanishning samarali metodikasi yoritilgan. Unda o‘quvchilarning leksik boyligini kengaytirish, so‘z ma’nolarini to‘g‘ri tushunish va amaliy nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishda lug‘atlarning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida ikki tilli va tematik lug‘atlarning qo‘llanish usullari, interfaol topshiriqlar orqali o‘quvchilarning mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tili o‘qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar:o‘zbek tili, o‘quv lug‘ati, metodika, ikki tilli lug‘at, qozoq maktablari, leksik kompetensiya, so‘z boyligi, interfaol metodlar, o‘qitish texnologiyasi, nutq madaniyati.

Аннотация:В данной статье раскрыта эффективная методика использования учебных словарей при преподавании узбекского языка в школах с казахским языком обучения. Анализируется роль словарей в расширении лексического запаса учащихся, правильном понимании значений слов и формировании навыков их практического применения в речи. Также рассматриваются способы использования двуязычных и тематических словарей на уроках, а также пути развития самостоятельной работы учащихся через интерактивные задания. Результаты исследования имеют практическое значение для разработки методических рекомендаций для преподавателей узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, учебный словарь, методика, двуязычный словарь, казахские школы, лексическая компетенция, словарный запас, интерактивные методы, образовательные технологии, культура речи.

Annotation: This article highlights an effective methodology for using educational dictionaries in teaching the Uzbek language in schools where the language of instruction is Kazakh. It analyzes the role of dictionaries in expanding students’ vocabulary, understanding word meanings accurately, and developing practical language use skills. The paper also discusses methods of applying bilingual and thematic dictionaries during lessons and ways to enhance students’ independent learning through interactive tasks. The research findings have practical significance for developing methodological recommendations for Uzbek language teachers.

Keywords: Uzbek language, educational dictionary, methodology, bilingual dictionary, Kazakh schools, lexical competence, vocabulary, interactive methods, teaching technology, speech culture.

Tilshunoslik tizimida leksikografiyaning o‘quv lug‘atchiligi tarmog‘i paydo bo‘lgandan buyon, mutaxassislarni o‘quv lug‘ati qanday lug‘at, uni yaratishda qanday mezon ustuvorlik qiladi, asosiy vazifalari nimadan iborat, umumiy lug‘atdan nimasi bilan farqlanadi, boshqa tipdagi lug‘atdan ustunligi nimada degan savol qiziqtirib kelgan.

Jahon tilshunosligida XX asr boshidayoq bu savollarga davr talabidan kelib chiqqan holda muayyan javob berildi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatda o‘quv leksikografiyasi o‘z taraqqiyotining bir necha bosqichini ortda qoldirib, bugungi kunda zamonaviy tipdagi yangi avlod antroposentrik o‘quv lug‘atining yangi-yangi janrini yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanmoqda.

Ma’lumki, har qanday lug‘atda nimanidir o‘rgatish maqsadi yotadi. Ammo bevosita maktab uchun yaratilgan lug‘atgina o‘quv lug‘ati toifasiga kiritiladi va u maxsus mezonlar asosida tuziladi.

Shu bilan birga tilshunoslikda o‘quv lug‘atchiligi leksikografiyaning alohida tarmog‘i ekani bilan bog‘liq munozarali fikr ham uchraydi. Ayrim tadqiqotchilar o‘quv lug‘atiga leksikografiyaning alohida janri emas, shunchaki o‘quv jarayoniga chuqurroq kirib borgan ko‘rinishi deb qaraydi.

E.Y.Balalayeva ham o‘quv lug‘atini ajratish masalasida tadqiqotchilar orasida qat’iy to‘xtam yo‘qligi, jumladan, B.Bim-Badning o‘quv lug‘atining ta’limiy, ma’lumot berish va tizimlashtirish, shuningdek, boshqa barcha lug‘atga xos bo‘lgan axborot berish va me’yorlashtirish vazifasini

bajarishi, M.Laptevaning terminologik o‘quv izohli lug‘atning axborot berish, tizimlashtirish va mustaqil bilim berish kabi yetakchi vazifani bajarishiga doir fikrini keltirib o‘tadi. Olima mazkur tadqiqotchilarning fikrini inkor etar ekan, M.Kovyazina, T.Petrashov, V.Tabanakova kabi bu borada P.N.Denisov fikriga qo‘shilishini va o‘quv lug‘atining to‘rtta – ta’limiy, tizimlashtirish, ma’lumot berish, me’yorlashtirish vazifalarini bajaruvchi minimal leksik tizim ekanligini ta’kidlaydi.

O‘quv lug‘atini pedagogik aspektda o‘rgangan T.V.Jerebilo o‘quv lug‘atini bir qator o‘ziga xos xususiyatiga qaramay, darslik, qo‘llanma va turli didaktik materialdagi ma’lumotni shunchaki leksikografik shaklga keltirish, jamlash va saqlash vazifasini bajaradigan vosita deb hisoblaydi. Uningcha, har qanday lug‘at ta’lim berish va inson shaxsini rivojlantirish vositasi sifatida o‘quv, ta’limiy, tarbiyaviy, intellektual rivojlantirish bilan bog‘liq asosiy vazifani bajaradi. O‘quv lug‘ati ushbu universal funksiya bilan bir qatorda ma’lumot berish, axborot uzatish, tizimlashtirish, me’yorlashtirish, motivlash kabi maxsus funksiyalarni ham bajaradi xolos.

Umuman olganda, T.V.Jerebilo o‘quv lug‘atini didaktik tizimning shunchaki bir qismi sifatida qaraydi va uning vazifasida ta’lim jarayoniga xoslanish biroz chuqurlashgan deb hisoblaydi. Ayrim tadqiqotchilar T.V.Jerebiloning qarashiga qarshi chiqadi va bu fikr har doim ham to‘g‘ri kelavermasligi, masalan, o‘quv terminologik lug‘at tarbiyaviy vazifa bajarmasligiga e’tiborni qaratadi.

V.V.Dubichinskiy o‘quv lug‘atining eng muhim xususiyati metodik talabga asosan til o‘rganishga qaratilgan vosita ekanligi, aslida, o‘quv lug‘ati nafaqat leksikografik, balki didaktik nashrligini, ona tili ta’limi ham, xorijiy tilni o‘qitish metodikasi ham unga ehtiyoj sezishini ta’kidlaydi. U mutaxassislarning o‘quv lug‘atchiligi sohasini ajratish yoki ajratmaslikka doir ikkilanishiga quyidagi fikri bilan nuqta qo‘yadi: O‘quv lug‘atiga bunday yondashuv, o‘z o‘zidan, uning antroposentrik lug‘at ekani, insonni har tomonlama qamrab oluvchi vosita ekanini ko‘rsatadi.

V.V.Morkovkin “Lingvosentrik lug‘at − bu til uchun va til haqida bo‘lgan lug‘at. Uning asosiy vazifasi – mavjud til faktini yozish, tavsiflash va baholash. Antroposentrik lug‘at – inson uchun yaratilgan lug‘atdir. Uning asosiy vazifasi – insonga yordam berish, birinchidan, inson ongida tilning manzarasini shakllantirish, ikkinchidan, uni ushbu tildan samarali foydalanishga o‘rgatish”, - degan edi.

O‘quv lug‘atlarining quyidagi vazifalari mavjud:

1. Ta’lim berish. O‘quv lug‘ati ta’lim oluvchining DTS, malaka talabi, fan dasturi va darslikka oid bilimni mustaqil o‘zlashtirishida yordamchi o‘quv vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

2. Ma’lumot berish. O‘quv lug‘ati boshqa lug‘atdan farqlanib, o‘quvchiga muayyan tushuncha haqida umumiy ma’lumot berish bilan birga muayyan fan mazmuniga aloqador maxsus tushuncha, axborot berish uchun ham xizmat qiladi.

3. Me’yorlashtirish. Lug‘atning aksariyati adabiy til me’yorini belgilash vazifasini bajaradi. O‘quv lug‘ati foydalanuvchining uzluksiz ta’limning qaysi bo‘g‘inida ta’lim olayotganidan kelib chiqib, tilning imlo, talaffuz bilan bog‘liq me’yorini soddadan murakkabga qarab darajali tarzda qamrab oladi. Masalan, boshlang‘ich sinf uchun yaratilgan lug‘at bolaning nutq jarayonida tilning orfoepik, orfografik, leksik, morfologik, sintaktik me’yoriga amal qilish kompetensiyalarini shakllantirib borishga xizmat qiladi.

Shuni ham alohida qayd etib o‘tish kerakki, me’yoriy lug‘at adabiy til me’yorini belgilashga intilar ekan, me’yorni abadiylashtirmaydi. Lug‘atning yuzaga kelishi, adabiy til me’yorini qat’iy, barqaror holga keltirish bilan birga, unda uzil-kesil hal etilmagan masalani aniqlash va bartaraf qila borish uchun ham yordam beradi.

Tadqiqotimizga aloqador bo‘lgani bois o‘quv lug‘aatlarining ta’lim berish vazifasiga to‘xtalamiz. Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili o‘qitish rus sinflariga o‘zbek tili o‘qitishda farq qiladi. Chunki qardosh tillarga qaraganda roman-german turkumiga kiruvchi boshqa oilaga mansub tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi begona bo‘lib har bir mavzu alohida yondashuvni talab etadi.

Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda esa o‘zbek tili o‘qitish biroz osonroq kechadi. So‘zlar, lug‘at tarkibi bir-biridan fonetik, ba’zan leksik, morfologik jihatdan farq qiladi.

Bu o‘rinda izohli lug‘atlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Muammo shundaki, maktablarda o‘zbek tilining izohli lug‘atlari yetarli darajada mavjud emas.

Umuman, boshlang‘ich ta’limda izohli lug‘atlarning zamonaviy shakllarini yaratish davr talabidir. O‘quv izohli lug‘atlarning qardosh va qrdosh bo‘lmagan tillar bilan qiyoslangan shakllari, rasmli, illyustrasiyali o‘quv izohli lug‘atlar bugungi o‘zbek tili ta’limi uchun juda muhim. Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun bo‘lgani sababli multimediyali, o‘yin topshiriqli izohli lug‘utlar, elektron o‘quv lug‘atlar, mobil ilova shaklidagi o‘quv lug‘atlar yaratish hamda ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish shu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Til lug‘atlarda aks etadi. O‘zbek leksikografiyasi keyingi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda, biroq o‘quv lug‘atlari sohasida tadqiqotlar yetarli emas. Til ta’limining yadrosini tashkil qiladigan mazkur vosita maxsus ilmiy va metodik izlanishlarga katta ehtiyoj sezadi. O‘quv lug‘atlari hozirgi sharoitda qachon zaruratga aylanadi, qachonki, ta’lim mazmuni ehtiyoj sezsa, o‘quv topshiriqlari tuzishda tizimili ravishda mavzular lug‘atlar bilan bog‘lab borilsa. Til lug‘atlar asosida o‘rgatilishi kerak. O‘quv lug‘atlari yaratishda ona tili ta’limi oldiga bugungi davr qo‘yayotgan vazifalarni ham hisobga olish lozim. Maktab o‘qituvchilari uchun ona tili darslarida o‘quv lug‘atlarda foydalanish metodikasi ishlab chiqilishi kerak. Amaldagi “Ona tili” darsliklari asosan, izohli lug‘atlardan foydalanishga diqqat qaratgan, aslida imlo, talaffuz, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rgatishga xizmat qiladigan lug‘atlar bilan baravar ishlash ham o‘tish kerak.

Darsliklarda ajratib olingan, o‘quvchiga taqdim qilingan lug‘at so‘zlaridan ham tashqariga chiqish kerak. Qolaversa, frazeologik, paremineologik lug‘atlardan ham uzluksiz foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak. O‘quv topshiriqlari shunday takomillashtirilishi kerakki, natijada o‘quvchi turli lug‘atlar orqali so‘zni to‘g‘ri yozishni, talaffuz qilishni, ma’nosini anglashni, o‘rniga boshqa so‘zni qo‘llashni o‘rganishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006. – 391 б. Б.125.
2. Omonboeva N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv izohli lug‘atlari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish//Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar–Buxoro. № 10, 2023. 200-203-b.
3. алалаева Е.Ю. Универсальные и специфические функции учебных словарей // Актуальные проблемы фундаментализации образования – Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс»\ https:/interactive-plus.ru/ru/article/1934/discussion_platform
4. Бим-Бад Б. М. Педагогический энциклопедический словарь / Б. М. Бим-Бад. — М., 2002, 290 с.
5. Лаптева М. Л. Стихия света в образном мировидении славян. С.138 –148 ... Толковый словарь живого великорусского языка : в 4 т. – М. : Цитадель, 1998.
6. Жеребило Т.В. Учебный словарь по стилистике русского языкаи культуре речи: Проблемы описания понятийно-терминологического аппарта иобщеупотребительной лексики в учебных целях. Грозный: Изд-во ЧИГПИ, 1993. - 326 с
7. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка: учеб. пособие / Дуби чинский В.В. – М. : Наука: Флинта, 2008.
8. Морковкин В.В. Антропоцентрический versus лингвоцентрический подход к лексикографированию // Национальная специфика языка и еёотражение в нормативном словаре. – М., 1988. С. 132–133.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Sharopova Dilnoza Asqadovna-
Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish bosqichlari yoritilgan. O‘qib tushunish o‘quvchilarning savodxonligini shakllantiruvchi, tafakkurini, nutqiy faolligini va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim jarayon sifatida tahlil qilingan. Maqolada o‘qib tushunish ko‘nikmasini bosqichma-bosqich shakllantirish: tayyorgarlik, idrok, tahlil, refleksiya va amaliy qo‘llash bosqichlarining mazmuni, ularning didaktik ahamiyati va har bir bosqichda qo‘llaniladigan samarali metodlar yoritilgan. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi, o‘qish jarayonida interfaol va ijodiy yondashuvlarning o‘rni ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qib tushunish, ona tili darsi, boshlang‘ich sinf, idrok, tahlil, refleksiya, metodika, interfaol metodlar.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКА ПОНИМАНИЯ ПРОЧИТАННОГО НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация. В данной статье освещаются этапы развития навыков понимания прочитанного на уроках родного языка в начальных классах. Понимание прочитанного анализировалось как важный процесс, формирующий грамотность учащихся, развивающий их мышление, речевую активность и способность к самостоятельному мышлению.отация. В данной статье освещаются этапы развития навыков понимания прочитанного на уроках родного языка в начальных классах. Понимание прочитанного анализировалось как важный процесс, формирующий грамотность учащихся, развивающий их мышление, речевую активность и способность к самостоятельному мышлению. В статье рассматривается поэтапное формирование навыка понимания прочитанного: содержание этапов подготовки, восприятия, анализа, рефлексии и практического применения, их дидактическое значение и эффективные методы, применяемые на каждом этапе. Также научно проанализированы взаимосвязь деятельности учителя и ученика, роль интерактивных и творческих подходов в процессе обучения.

Ключевые слова: понимание прочитанного, урок родного языка, начальный класс, восприятие, анализ, рефлексия, методика, интерактивные методы.

METHODS OF DEVELOPING READING COMPREHENSION SKILLS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS IN ELEMENTARY SCHOOL

Annotation. This article highlights the stages of developing reading comprehension skills in primary school mother tongue lessons. Reading comprehension was analyzed as an important process that shapes students' literacy, develops their thinking, speech activity, and ability to think independently motivation. This article highlights the stages of developing reading comprehensio, skills in primary school mother tongue lessons. Reading comprehension was analyzed as an important process that shapes students' literacy, develops their thinking, speech activity, and ability to think independently. The article examines the step-by-step formation of reading comprehension skills: the content of the stages of preparation, perception, analysis, reflection and practical application, their didactic significance and effective methods applied at each stage. The interrelation of teacher and student activities, the role of interactive and creative approaches in the learning process are also scientifically analyzed.

Keywords: reading comprehension, native language lesson, elementary grade, perception, analysis, reflection, methodology, interactive methods.

Kirish. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarining eng muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish — savodxonlikning poydevorini yaratadi. O‘qib tushunish — bu faqat harflarni o‘qish emas, balki matn mazmunini anglash, asosiy g‘oyani ajratish, tahlil qilish, xulosa chiqarish jarayonidir. Shuning uchun ona tili darslarida bu ko‘nikma bosqichma-bosqich shakllantiriladi.

Darhaqiqat, “Matn ko‘rinishidagi ma’lumotlar bilan ishlash oddiy yozuv usulidan kompyuter erkanlaridan tortib smartfonlargacha bo‘lgan zamonaviy qurilmalar bilan amalga oshirilayotgan ekan, matnlarning tuzilishi va formatlarida ham o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchidan yangidan yangi aqliy strategiyalarini rivojlantirishni va maqsadli o‘qish jarayonida aniq maqsadlarni qo‘yishni taqazo etmoqda. Shuning uchun o‘qish savodxonligida muvaffaqiyatga erishish deganda biror sodda matnni o‘qib tushunish nazarda tutilmasligi lozim. Katta hajmli, jumladan, badiiy matnlarni o‘qib, talqin qila olish qobiliyati o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan holda, o‘qish savodxonligining o‘zlashtirilishi ma’lumotlarni qayta ishlashning murakkab strategiyalari, jumladan, ko‘p matnli (yoki ma’lumot) manbalardan tegishli ma’lumotlarni olib tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish va talqin qilishni ham talab etadi. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli va qobiliyatli shaxslar ilm-fan va matematika kabi barcha sohalarda ma’lumotlardan foydalanadi va qator ma’lumotlarni samarali qidirib topish, tizimlashtirish va filtrlash uchun texnologiyalardan foydalanadi. Bular mehnat bozorida, tahsilning keyingi bosqichlarida hamda XXI asrning ijtimoiy va fuqarolik hayotida to‘laqonli ishtirok etish uchun kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmalar hisoblanadi”[22].

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tiliga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Ona tili ta’limi mazmunining yangilanishi mazkur sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘lamini belgilab berdi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti ta’lim sohasiga oid muammolarga to‘xtalib shunday degan edi: “Shu kungacha hech kim boshlang‘ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o‘qiyotgan o‘quvchilarga qaysi sinfda nimani o‘qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtai nazardan to‘la asoslab bergan emas” [23].

Hammada ham matnni o'qib tushunish bosqichlar bir xil amalga oshavermaydi. Shuning uchun ham muayyan matnni bir xil o'qib chiqqan o'quvchilar tushunishining har xil bo'lishini guvohi bo'lamiz. Bu uning fiziologik va psixologik jihatlariga bog'liq bo'ladi, ya'ni qabul qilish qobiliyati yoki ruhiy-psixik holatiga, yoki jismoniy holatlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, matnni o'qib tushunishga bir nechta omillar ta'sir etishimumkin. Shuning uchun pedagogik o'lchovlarga doir tadqiqotlarda o'qib tushunish malakasini baholashda natijalarga salbiy ta'sir etuvchi omillar quyidagicha guruhlashtiriladi: -matn omillari; -o'quvchi omillari; -vazifa omillari[24].

O‘qib tushunish – bu matnni o‘qish jarayonida undagi ma’no, mazmun, g‘oya va axborotni anglash, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni topa olish, xulosa chiqarish hamda o‘z munosabatini bildira olishdir. Mazkur ko‘nikma nafaqat til ta’limining, balki barcha fanlar o‘qitilishining asosiy poydevorini tashkil etadi. Shu sababli o‘qib tushunishni rivojlantirish bosqichma-bosqich, tizimli va metodik jihatdan asoslangan holda amalga oshirilishi lozim.

1. O‘qib tushunish ko‘nikmasining tarkibiy qismlari

1. Matnni to‘g‘ri va ravon o‘qish
2. So‘z(ma’no)larni anglash
3. Gaplar mazmunini tushunish
4. Matn qismlarini bog‘lash
5. Asosiy g‘oya va muammoni aniqlash
6. Xulosa chiqarish va baholash

Ushbu tarkibiy qismlar o‘quvchining sinfdan-sinfga o‘tishda bosqichma-bosqich rivojlanadi.

2. O‘qib tushunishni rivojlantirishning asosiy usullari

---

[22]O‘qish savodxonligi qamrov doirasi. “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi –Toshkent. 2022.

[2]Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 9-сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 йил 29 август. –Т.: Маърифат-мададкор, 2002. – 62 б.

24 Ismailov A. v.b,. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. - Toshkent, «Sharq», 2019, 92 b.

2.1. Oldindan o‘qishga tayyorlash usullari

Bu usullar o‘quvchilarning diqqatini matnga yo‘naltirish, ularda taxmin qilish, qiziqish uyg‘otishga qaratilgan.

- Rasmlar asosida taxmin qilish
- Matn sarlavhasi bo‘yicha mazmunni taxmin qilish
- Asosiy so‘zlar bilan ishlash
- “Nima bo‘ladi?” strategiyasi

Bu usullar o‘quvchini o‘qishga motivatsiyasini oshiradi.

2.2. Matn ustida ishlash usullari

a) Ajratib o‘qish usuli

Matn qismlarga bo‘linadi va o‘quvchilar har bir qismini alohida o‘qib, mazmunini izohlaydi. Bu usul tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

b) Savol-javob usuli

Matn asosida turli darajadagi savollar beriladi:

- Yuzaki savollar
- Tafsilotli savollar
- Mantiqiy xulosa talab etadigan savollar
- Muammoli savollar

c) Grafik organayzerlar

- “Aqliy hujum xaritasi”
- “Klaster”
- “Venn diagrammasi”
- “Baliq skeleti”
- “INSERT” jadvali

Bu vositalar o‘quvchilarni matnni tizimli tahlil qilishga o‘rgatadi.

d) Matnni qayta hikoyalash usullari

- Reja asosida hikoyalash
- Rollarga bo‘lib hikoyalash
- Rasm asosida hikoya davom ettirish

2.3. O‘qib bo‘lgach ishlanadigan usullar

- Asosiy fikrni topish
- Xulosa chiqarish
- Muallif fikriga munosabat bildirish
- Qahramonlarni taqqoslash
- Muqobil yakun yaratish

Ushbu usullar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

3. Interaktiv usullar orqali o‘qib tushunishni rivojlantirish

“INSERT” strategiyasi (Belgilash texnikasi)

“Qiziqarli 5 ta savol” texnikasi

O‘quvchi matn bo‘yicha mustaqil savollar tuzadi — bu yuqori darajadagi tafakkurni rag‘batlantiradi.

“Bitta gap bilan xulosa”

O‘quvchi matnni birgina mantiqiy gap bilan ifodalaydi.

“O‘qi — top — bog‘la” mashqi

Berilgan gaplarni matndagi mos ma’no bilan bog‘lash.

4. O‘qib tushunishni rivojlantirishda AKTdan foydalanish

- Audio matnlar — tinglab tushunishni kuchaytiradi.
- Multimedia — voqealarni ko‘rgazmali tasavvur etishga yordam beradi.
- Interaktiv testlar — o‘qiganini tekshirish imkonini beradi.
- Onlayn savol-javob platformalari — o‘quvchilarni faol fikrlashga jalb qiladi.

5. O‘qib tushunishni baholash mezonlari

1. To‘g‘ri o‘qish (talaffuz, tezlik, urg‘u)
2. Mazmunni anglash

3. Asosiy g‘oyani topa olish
4. Xulosa chiqarish
5. Mustaqil fikr bildirish

Baholash jarayonini rubrika ko‘rinishida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Tahliliy jadval

Boshlang‘ich sinflarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish usullarining samaradorlik ko‘rsatkichi:

Usul	**Maqsad**	**Amaliy qo‘llanishi**	**Natija**
Oldindan tayyorlash usullari	Matnga kirish, motivatsiya	Sarlavhadan mazmunni taxmin qilish, asosiy so‘zlar bilan ishlash	O‘quvchi matnni qiziqish bilan o‘qiydi, mazmunni oldindan tasavvur qiladi
Savol-javob usuli	Matn mazmunini tahlil qilish	Yuzaki, mantiqiy, muammoli savollar tuzish	Fikrni tahlil qilish, xulosa chiqarish ko‘nikmalari rivojlanadi
Grafik organayzerlar	Matnni tizimli o‘rganish	Klaster, Venn diagrammasi, baliq skeleti	Mazmunni strukturalash, asosiy g‘oya ajratish osonlashadi
Qayta hikoyalash	Matnni qayta qurish	Reja asosida hikoya qilish, rollar bo‘yicha sahnalashtirish	Og‘zaki nutq, mantiqiy ketma-ketlik rivojlanadi
Muqobil yakun yaratish	Ijodiy tafakkur	“Agar shunday bo‘lganida…” mashqlari	O‘quvchi mustaqil fikrlaydi, ijodiy yondashadi
AKT vositalari	Ko‘rgazmali tahlil	Audio matnlar, video, onlayn testlar	Tushunish aniqligi oshadi, eslab qolish kuchayadi

Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni ona tili ta’limining asosiy mazmunini tashkil etadi va o‘quvchi shaxsining nutqiy, mantiqiy, ijodiy hamda kognitiv rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qib tushunishga o‘rgatish jarayoni izchil, bosqichma-bosqich va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘un holda tashkil etilganda o‘quvchilarning matnni idrok etish, mazmunni tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajratish, xulosa chiqarish hamda o‘z fikrini asosli bayon eta olish ko‘nikmalari sezilarli darajada shakllanadi. O‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda oldindan tayyorlov usullari (sarlavha asosida taxmin, asosiy so‘zlar bilan ishlash), matn ustida ishlash metodlari (savol-javob, grafikli organayzerlar, qayta hikoyalash), shuningdek, matndan keyingi faoliyat (xulosa chiqarish, baholash, qahramonlarni taqqoslash) yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu usullar o‘quvchilarni fikrlashga, mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlashga, mustaqil xulosa chiqarishga va matn mazmunini chuqurroq anglashga yo‘naltiradi.

Foydlanilgan adabiyotlar:

1. O‘qish savodxonligi qamrov doirasi. “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi –Toshkent. 2022.
2. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 9-сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 йил 29 август. – Т.: Маърифат-мададкор, 2002. – 62 б.
3. Ismailov A. v.b,. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. - Toshkent, «Sharq», 2019, 92 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA QO‘SHIMCHALARNI O‘RGATISHDA ONGLI YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH

Pardaboyeva Muzayyam Abduxalel qizi
Navoiy davlat universiteti 1-bosqich magistratura talabasi
Ilmiy rahbar. NavDU “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD) M.X.Pardayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili darslarida qo‘shimchalar mavzusini o‘rgatish jarayonida bilimlarni o‘quvchilarga oson, qiziqarli va samarali yetkazish uchun misollar bilan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ona tili, boshlang‘ich ta’lim, qo‘shimcha, ijodiy topshiriq, raqamli texnologiya, interfaol metod, LearningApps, Wordwall, motivatsiya.

Abctrakt: This article discusses the methodology of using creative tasks and digital technologies in teaching the topic of affixes in mother tongue lessons for primary school students. It analyzes innovative approaches, interactive games, and modern digital tools that help deliver knowledge about affixes to students in an easy, engaging, and effective manner, supported with practical examples.

Keywords: mother tongue, primary education, affix, creative task, digital technology, interactive method, LearningApps, Wordwall, motivation.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика использования творческих заданий и цифровых технологий при обучении учащихся начальных классов теме «аффиксы» на уроках родного языка. Проанализированы инновационные подходы, интерактивные игры и современные цифровые инструменты, которые помогают передать знания об аффиксах в лёгкой, интересной и эффективной форме, подкреплённой практическими примерами.

Ключевые слова: родной язык, начальное образование, аффикс, творческое задание, цифровая технология, интерактивный метод, LearningApps, Wordwall, мотивация.

“Boshlang‘ich ta’lim – ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan”-, deya belgilangan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”da25. Ta’lim tizimining poydevori boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi, chunki bu bosqich o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, fan yo‘nalishlari bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, kommunikativ savodxonligi, o‘z-o‘zini va o‘zgalar fikrini anglashi, erkin fikrlay olishi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi hamda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini egallashga zamin yaratadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion yondashuv va raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til o‘rganish jarayonida bu yondashuvlar qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga undaydi.

Ona tili fanida **qo‘shimchalar mavzusi** tilshunoslikning eng muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, u so‘z yasalishi, so‘z turkumlari va gap tuzilishini tushunish uchun asos bo‘ladi. Shu sababli bu mavzuni o‘qitishda **ijodiy topshiriqlar** va **raqamli texnologiyalar**dan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda va nutqiy faolligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Qo‘shimchalarni o‘rgatishda o‘qituvchi o‘quvchining yoshi, psixologik xususiyatlari va so‘z boyligini hisobga olgan holda quyidagi metodlardan foydalanadi:

- **Induktiv metod** – o‘quvchi misollar asosida qo‘shimchaning ma’nosini mustaqil aniqlaydi: *kitob – kitobcha, qush – qushcha, o‘qituvchi – o‘qituvchilik.*
- **Deduktiv metod** – qo‘shimcha haqida qoida berilib, misollar orqali mustahkamlanadi.
- **Integratsion yondashuv** – mavzuni boshqa fanlar bilan bog‘lash (tasviriy san’atda so‘zdan rasm yaratish, informatika darsida so‘z yasovchi dasturdan foydalanish).

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli qonuni. / https://lex.uz/docs/-5013007.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ijodiy topshiriqlar o‘yin orqali o‘rganish imkonini yaratadi. Quyidagi topshiriq turlari samarali hisoblanadi:

Topshiriq turi	**Mazmuni**	**Pedagogik maqsadi**
“So‘z yasovchi ustaxona”	Berilgan asosga turli qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi so‘zlar yasash.	So‘z yasalish qonuniyatlarini mustahkamlash,asos va qo‘shimchani farqlay olish.
“So‘z daraxti”	Asos so‘zdan tarqalgan “shoxcha” so‘zlarni chizish.	Tushunchalarni vizual ko‘rsatish,bog‘liqlikni aniqlay olish.
“Yangi so‘z top” o‘yini	Rasmlar asosida yangi so‘zlar yasash.	So‘z boyligini oshirish va tafakkurni rivojlantirish.
“So‘zlardan hikoya tuz”	Qo‘shimchali so‘zlardan kichik matn yaratish.	Nutqni rivojlantirish, ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish.So‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay olish.

Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchi nafaqat grammatik bilim oladi, balki uni real nutqiy faoliyatda erkin qo‘llay oladi.

Bugungi rivojlangan zamonda ta’lim sohasida raqamli vositalardan foydalanish o‘qituvchi faoliyatini yengillashtiradi va darsni interfaol shaklga keltiradi. Qo‘shimchalar mavzusida quyidagi platformalar samarali hisoblanadi:

- **LearningApps.org** – “So‘z ildizini top”, “Qo‘shimcha qo‘sh” o‘yinlarini yaratish.
- **Wordwall.net** – “Mosini top”, “Bo‘sh joyni to‘ldir” testlari orqali mashqlar tashkil etish.
- **Kahoot** va **Quizizz** – raqamli viktorinalar o‘tkazish orqali darsni qiziqarli yakunlash.
- **Canva** – “So‘z daraxti” yoki “So‘z oilasi” grafik topshiriqlarini yaratish.
- **Nearpod** – o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan slaydlar asosida interfaol mashg‘ulot o‘tkazish.

Masalan,“So‘z yasovchi ustaxona” o‘yini **LearningApps** platformasida yaratilsa, o‘quvchi so‘z ildizini tanlab, unga mos qo‘shimchani raqamli tarzda qo‘shadi. Bu usul o‘quvchini faol fikrlashga, to‘g‘ri tanlov qilishga o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida qo‘shimchalarni o‘rgatishda ijodiy topshiriqlar va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarni faol fikrlashga, mustaqil o‘rganishga va ijodkorlikka yo‘naltiradi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini, tilga bo‘lgan qiziqishini hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Shuningdek, innovatsion metodlar va ijodiy faoliyatni birlashtirish boshlang‘ich ta’limda ona tili fanining sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.
3. Karimova D. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. LearningApps.org, Wordwall.net, Kahoot.com – raqamli ta’lim platformalari.
5. Xolmirzayeva S. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida grammatik tushunchalarni shakllantirish”. – Toshkent, 2022.

DARS JARYONIDA QIYINCHILIKKA UCHRAYDIGAN BOLALAR BILAN ISHLASH.

Saidaxmedova Latofat Sodiq qizi-
Navoiy davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi (Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Jumayeva Mohigul Abduvohidovna
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi v.b dotsent f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada dars jarayonlarida qiyinchilikka uchraydigan bolalar bilan ishlash haqida fikr yuritiladi. Maqolada pedagogic mahoratdan foydalanib, o'quvchilar bilan ishlash jarayonlari yoritilgan. Mahalliy va xorijiy manbalardan foydalanilgan har bir fan bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Dars jarayonidagi qiyinchiliklar, pedagogik mahorat ijtimoiy omillar, sog'lik bilan bog'liq omillar.

Annotation: This article discusses working with children who have difficulties in the classroom. The article covers the processes of working with students using pedagogical skills. Scientific conclusions are given for each subject using local and foreign sources.

Keywords: Difficulties in the teaching process, pedagogical skills, social factors, health-related factors

Boshlang'ich ta'lim jaroyonida hamma o'quvchilar bir xil darajada o'zlashtira olmaydi. Ayrim o'quvchilar o'qish, yozish hisoblash yoki topshiriqlarni bajarishda turli darajada qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holatlarda o'qituvchi ota –ona bilan birga to'g'ri strategiyalar qo'llansa o'quvchi tengdoshlari darajasiga yetishi mumkin. Shuning uchun dars jarayonida qiyinchilikka uchraydigan o'quvchilarni aniqlash, tushuntirish va ularga mos pedagogik yordam ko'rsatish o'qituvchining muhum vazifasidir. Bugungi kunda o'quvchilar bilan ishlashni osonlashtiruvchi pedagogik qo'llanmalar mavjud. Dars jarayonida qiyinchilikka uchraydigan bolalarni asosiy sabablari

1.Psixologik omillar

- Diqqatning tez chalg'ishi
- Xotiraning sustligi
- O'ziga ishonchsizlik
- Past motivatsiya

Bu omillar o'quvchilarni har birida kuzatilishi mumkin. O'qituvchi har bir o'quvchi bilan mustaqil shug'ullanishi kerak bo'ladi, bu jarayonlarda albatta o'qituvchiga kuchli sabr va pedagogik mahorat yordam beradi

2.Pedagogik omillar

- O'quvchiga mos bo'lmagan metodlardan foydalanib dars o'tish
- Topshiriqlarning haddan tashqari murakkab yoki oson bo'lishi
- Darsning yetarli darajada interaktiv tashkil etilmasligi

Pedagogik omillar asosan o'qituvchiga bog'liq, o'qituvchi dars jarayonlarida qiziqarli metodlardan foydalanib dars tashkil qilinsa o'quvchilar dars jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Har bir dars so'ngida topshiriqlarning murakkab yoki osonligiga qarab o'qituvchi o'quvchilarga tushuncha berishlari lozim.

3.Ijtimoiy omillar

- Uyda ta'lim olish uchun sharoitning yo'qligi
- Ota-onaning bolaga yetarlicha ko'mak bermasligi
- Oilada ichidagi psixolagik muhitning salbiyligi

O'qituvchi ota-ona bilan hamkorlikda ishlashi juda muhim bosqich hisoblanadi. O'quvchining ta'lim jarayonida faol ishtirok etishida ota-onaning o'rni katta. Oiladagi muhit ham o'quvchining qay darajada bilim olishifa ta'sir ko'rsatadi. Ayrim oilalardagi psixologik muhit va ta'lim olish uchun sharoitning yo'qligi o'quvchi uchun ta'lim olish jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi.

4.Sog‘liq bilan bog‘liq omillar

- Eshitish yoki ko‘rishdagi muammolar
- Nutq buzilishlari
- Tez charchash yoki rivojlanishdagi sekinlik

Albatta sog‘lik bilan bog‘liq omillar juda muhim hisoblanadi. O‘quvchilarda eshitish va ko‘rishdagi muammolar bo‘lsa, ular uchun maxsus qo‘llanmalardan foydalanib o‘qituvchi dars jarayonlarini tushuntiradi sog‘liqda muammosi bor o‘quvchilar uchun maxsus o‘quv qo‘llanmalar tuzib chiqilgan. Hozirgi kunda maxsus maktablar ham faoliyat yuritmoqda.

Dars jarayonlarida o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan tayyor ma’lumotlarni berish emas o‘quvchilarning qiziqishi ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olib, o‘qish jarayoniga yunaltirish lozim. Birinchi o‘rinda o‘qituvchi dars jarayonlarini rejalashtirib olishu kerak. Darsga oid interaktiv metodlarni to‘g‘ri tanlay olishi juda muhim o‘rin tutadi. Past o‘zlashtiradigan o‘quvchilar bilan har bir fan bo‘yicha turli o‘quv dasturlarini tuzib chiqishi lozim. Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun motivatsiya, qiziqish, hissiy barqarorlik muhim. Shu sababli o‘qituvchi o‘quvchilarning psixologiyasini bilishi qiziqishlarini qo‘llab quvvatlashi zarur.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda turli interaktiv metodlardan foydalanish (klaster, aqliy hujum, bahs-munozara, loyiha metodi) dars jarayonlarini osonlashtiradi.

Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan individual shug‘ullanish ularni dars jarayonlarida faol ishtirok etishlari uchun o‘qituvchi bilim beruvchi emas balki yo‘naltiruvchi bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Dars jarayonlarini yana bir usul orqali yani kreativ kompetensiya asosida tashkil etish mumkin.

O‘quvchilarning dars jarayonidagi qiyinchiliklariga noodatiy yechimlar taklif etish va birgalikda izlanishlar olib borish muhim o‘rin tutadi. O‘quvchining rivonlanishi to‘g‘ri baholash ham ya’na bir muhim vosita hisoblanadi. Har bir o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi omillar ham mavjud.Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari hali o‘qish,yozish va hisoblash uchun har bir fanda to‘siqlarga uchrashi tabiiy holdir. Chunki hali ularning tasavvuri yorqin,so‘z boyligi yetarli emas .

O‘quvchilarga mustaqil bajaradigan mashqlarni ko‘proq bajartirish lozim.Tan olish kerakki,bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash ancha murakkab jarayondir .Bu jarayonni osonlashtiruvchi usul o‘qituvchining pedagogik yondashuvi va zamonaviy dars o‘tish usullaridan foydalanib o‘quvchini yuqori darajaga olib chiqara oladi.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan yuqori darajaga chiqish uchun har bir jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim.

Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning uziga xos xususiyatlari ham mavjud. Buni o‘qituvchi ko‘proq visual va amaliy mashqlar orqali bilib olish kerak.

O‘qituvchi past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun alohida ish-reja asosida faoliyat yuritishi kerak.ularni bosqichma-boshqich amalga oshirib boradi, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar eng avvalo rag‘batga juda sezgir hisoblanadi, ularga bir mavzuni bir zumda emas balki mayda qadamlar orqali o‘rgatish muhim. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda o‘rganilgan mavzuni qayta takrorlashga ehtiyoj seziladi, o‘qituvchi bunda visual metodlar orqali tushuntirishi mumkin.

XULOSA

Boshang‘ich ta’limda o‘quvchilarida dars jarayonlarida qiyinchilikka uchrashi tabiiy holdir o‘qituvchining e’tibori va to‘g‘ri metodik yondashuvi o‘quvchining kelajakdagi o‘quv muffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi. O‘qituvchi balki ota-onaning ham roli muhum o‘rin tutadi. Zero har bir bola o‘zining individual rivojlanish surati psixologik holati, oilaviy sharoiti, sog‘ligi va qiziqishlariga ko‘ra o‘ziga xosdir. Shuning uchun o‘quvchining past natijalarini faqatgina bilim darajasi emas, balki kompleks omillar bilan izohlash va ularga differensial yondashuv asosida yordam ko‘rsatish ta’lim sifatining muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston olimlari va rasmiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi farmoni. – Toshkent, 2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti” qarori.
4. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Qodirova F.R. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
6. G‘ofurov K., Raxmonqulova N. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. To‘raqulov U. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan, 2017

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QIB TUSHUNISHNI RIVOJLANTIRISHDA O‘QUV TOPSHIRIQLARNING MOHIYATI.

Navoiy shahar 7-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi: Sharopova Dilnoza Asqadovna
Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc),prof.Ernazarova Manzura Saparboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qib tushunishni rivojlantirishda o‘quv topshiriqlarining o‘rni va ahamiyati ilmiy-metodik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Maqolada o‘qib tushunish tushunchasi, uning boshlang‘ich ta’limdagi roli, o‘quv topshiriqlari orqali bu ko‘nikmani shakllantirish yo‘llari, topshiriqlarni tuzish prinsiplari va ulardan samarali foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, amaliy tavsiyalar, topshiriqlarning turlari, o‘qitish jarayonida baholash va monitoring olib borish usullari ham yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy ta’limga oid ilmiy manbalar, tajribalar va metodik yondashuvlar asosida asoslangan xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, o‘qib tushunish, o‘quv topshiriqlari, metakognitiv strategiyalar, ta’lim metodikasi, savol-javob, vizual tashkilotchilar, differensial yondashuv, baholash, mustaqil fikrlash.

Abstract: This article analyzes the role and importance of learning tasks in the development of reading comprehension in primary grades from a scientific and methodological point of view. The article discusses the concept of reading comprehension, its role in primary education, ways to form this skill through learning tasks, principles of creating tasks, and methods for their effective use. Practical recommendations, types of assignments, methods of assessment and monitoring in the educational process are also highlighted. The study provides conclusions based on scientific sources, experience, and methodological approaches to modern education.

Keywords: Primary education, reading comprehension, learning tasks, metacognitive strategies, teaching methodology, question-answer, visual organizers, differential approach, assessment, independent thinking.

Аннотация: В данной статье с научно-методической точки зрения анализируется роль и значение учебных заданий в развитии понимания чтения в начальных классах. В статье рассматривается понятие понимания прочитанного, его роль в начальном образовании, способы формирования этого навыка посредством учебных заданий, принципы составления заданий и методы их эффективного использования. Также освещены практические рекомендации, виды заданий, методы оценки и мониторинга в процессе обучения. В исследовании представлены обоснованные выводы на основе научных источников, опыта и методических подходов к современному образованию.

Ключевые слова: Начальное образование, чтение, учебные задания, метакогнитивные стратегии, методика обучения, вопросы и ответы, визуальные организаторы, дифференцированный подход, оценка, самостоятельное мышление.

Zamonaviy maktab ta’limining asosiy maqsadlaridan biri – nafaqat o‘quvchilarga ma’lumot berish, balki ularni mustaqil fikrlashga, matnni tushunishga, tahlil qilishga, yaratishga tayyorlashdir. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida ayniqsa o‘qib-tushunish malakasi muhim ahamiyat kasb etadi: o‘quvchi matnni faqat o‘qiy olmay, balki mazmunini anglab, unga munosib munosabat bildira bilishi lozim. Shu nuqtadan qaraganda, o‘quv topshiriqlarini maqsadga muvofiq, metodik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish – ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim element hisoblanadi.

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qib-tushunishni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv topshiriqlarining mohiyati, pedagogik asoslari, berilish usullari, o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish yo‘llari, hamda amaliy misollar orqali tahlili ko‘rib chiqiladi.

O‘qib-tushunish nima va uning boshlang‘ich sinflardagi roli:

“O‘qib-tushunish” deganda faqat so‘zlarni o‘qib chiqish emas, balki matn mazmunini anglash, muhim jihatlarni ajratib olish, ularni tahlil qilish, hamda o‘rganilgan ma’lumotni boshqa vaziyatlarda qo‘llay olish nazarda tutiladi.

Boshlang‘ich sinflar – o‘quvchilarning asosiy o‘qish, tushunish, ifoda qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichidir. Bu bosqichda o‘qib-tushunishning yaxshi yuzaga chiqishi keyingi fanlar bo‘yicha muvaffaqiyatga, mustaqil o‘qishga, tanqidiy fikrlashga tayyorlanishga olib boradi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, avval matnni tushuna oladigan o‘quvchilar keyinchalik boshqa fanlarda ham yaxshiroq natijaga erishadi.

Shu sababli, boshlang‘ich sinflarda o‘qib-tushunishni rivojlantirishga mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlarini berish – nafaqat ona tili darslarida, balki integratsiyalashgan tarzda boshqa fanlarda ham muhimdir.

O‘quv topshiriqlari orqali o‘qib-tushunishni qanday rivojlantirish mumkin?

Tops-hiriqning metodik asoslari

O‘quv topshiriqlari – o‘quvchilarning faoliyatini tashkil etuvchi metodik vositalardan biri bo‘lib, maqsadni aniq belgilash, o‘quvchi faoliyatini yo‘naltirish, nazorat va baholashga imkon beradi. Boshlang‘ich sinflarda topshiriq berishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- topshiriq maqsadi aniq va tushunarli bo‘lishi;

- o‘quvchi qaysi fikrlash ko‘nikmasini (masalan: asosiy g‘oyani aniqlash, dalillarni topish, xulosa chiqarish) rivojlantirayotgani belgilan-gan bo‘lishi;

- topshiriqning murakkabligi o‘quvchilarning yoshiga va tayyorgarligiga mos bo‘lishi;

- topshiriq orqali o‘quvchi mustaqil fikrlashga, matnga interaktiv munosabat bildirishga rag‘batlanishi. Masalan, tadqiqotda o‘qib-tushunish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni aniqlashda muammoli vazifalar, vizualizatsiya vositalari qo‘llanishi samarali ekanligi ko‘rsatilgan.

Kognitiv, metakognitiv va ijtimoiy faoliyat:

O‘qib-tushunish jarayonida o‘quvchi quyidagi turdagi faoliyatlarni amalga oshiradi:

-Kognitiv: matn ichidagi ma’lumotni qayta ishlash, bog‘lash, tushunish;

- Metakognitiv: “men nimani angladim?”, “nimani tushunmadim?” kabi savollar orqali o‘z faoliyatini nazorat qilish;

- Ijtimoiy: guruhda muhokama qilish, fikr almashish, o‘qilgan matn bo‘yicha savol-javob, rolda o‘ynash. Tadqiqotlarda guruhli ishlash, ya’ni o‘quvchilarning bir-biriga savol berishi va javob topishi o‘qib-tushunishni kuchaytirishi aniqlangan.

O‘quv topshiriqlarining turlari va ularning samarasi:

O‘quv topshiriqlari turlicha shaklda bo‘lishi mumkin: to‘liq matnga asos-langan savollar, qisqa paragraf, diagramma/tartib, rol o‘ynash, vizual tayyorlash, hikoyani qayta tuzish, o‘qilgan matnga asoslanib rasm chizish, va boshqalar. Masalan, “Matn asosiy fikrini aniqlang”, “Muallif nima demoqchi?”, “Siz shu voqea davomida nimani qilardingiz?” kabi topshiriqlar. Bu turlar o‘quvchilarga matn bilan interaktiv tarzda ishlashga imkon beradi va tushunish jarayonini faollashtiradi.

O‘quv topshiriqlarini berishning mohiyati:

O‘quv topshiriqlari o‘quvchilarga faqat matnni o‘qib yurish emas, balki uni anglash uchun imkon beradi. Masalan, so‘zma-so‘z o‘qib yurilsa ham, “matnning markaziy g‘oyasi nima?”, “qaysi dalillarni muallif keltirgan?” kabi savollar bilan ishlaganda o‘qib-tushunish darajasi oshadi. Tadqiqotlarda metakognitiv strategiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning tushunish malakasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan.

Topshiriqlar yordamida o‘quvchilar o‘z fikrini shakllantirish, matnga munosabat bildirish, yaratish (masalan: yangi ssenariy yozish, rasm bilan ifodalash) imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning yaratuvchanligini rag‘batlantiradi va dars jarayonini interaktiv qiladi.

Har bir o‘quvchi bir xil darajada emas; shuning uchun sinf ichida o‘ziga mos (qiyinligi, qo‘llab-quvvatlanishi bilan) topshiriqlar tayyorlash muhim. Zaif o‘quvchilarga qo‘shimcha ko‘rsatma

yoki yordam bilan, kuchli o‘quvchilarga esa chuqurlashtirilgan vazifalar bilan ishlash imkoniyati yaratish lozim.

Faollik va ijodiy elementlar qo‘shish:

Matnni tahlil qilish bilan birga turli ijodiy formatlarni — diskussiya, dramatizatsiya, rasmiylashtirish, kichik loyiha — qo‘shish mumkin. Bu o‘quvchilarning matnga bo‘lgan munosabatini faollashtiradi, tushunishni chuqurlashtiradi.

O‘quv topshiriqlarining sinfda tatbiqi va baholash usullari:

1. Dars boshi: motivatsiyani uyg‘otish, oldingi bilimlarni qayta ko‘rib chiqish.

2. O‘qish: matnni o‘qish, muhim joylarni belgilash, o‘qituvchi yoki o‘quvchilar bilan tarqatma ish bajarish.

3. Faol topshiriq bajarish: juft/ guruh, mustaqil, tarjima, qayta yozish, grafik tashkilotchilar.

4. Yakuniy muhokama: o‘quvchilar fikr bildirish, muallif fikrini tahlil qilish, yangi vazifa berish.

5. Baholash va refleksiya: o‘quvchi nimani tushundi, nimani tushunmadi, nima o‘rganildi?

Baholash usullari:

- Kichik testlar va savollar: matn mazmuni, asosiy fikr, xulosalar.
- Ssenariy,rol o‘ynash natijalariga baho.
- O‘quvchi ishchi daftarlar, portfoliolar (rasmlar, grafiklar).
- O‘zini baholash: “Men matnni yaxshi tushundimmi?”, “Qaysi joylarda muammo bo‘ldi?” degan savollar bilan.
- O‘qituvchi kuzatuvlari: o‘quvchilarning muhokamada ishtiroki, savollarga javobi, faoliyatga yondashuvi.

Natijalarni monitoring qilish:

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv topshiriqlari tizimli tarzda qo‘llanilganda, boshlang‘ich sinflarda o‘qib-tushunish darajasi sezilarli darajada oshadi. O‘qituvchi muntazam ravishda topshiriqlarning natijalarini tahlil qilib, zaif tomonlarni aniqlab, darsni moslashtirishi zarur.

Amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- Topshiriqlar matn miqdori va murakkabligiga ko‘ra bosqich--ma-bosqich tayyorlansin: birinchi bosqichda qisqa matn + oddiy topshiriq, keyin murakkab.
- Matn tanlashda o‘quvchilarning qiziqishlari, tajribalari, madaniy konteksti inobatga olinsin.
- Savollarna «faqat to‘g‘ri-noto‘g‘ri» shaklida emas, o‘ylashga undaydigan shaklda tuzilsin.
-Guruh ishlari ko‘proq qo‘llansin: bu o‘quvchilarni bir-biridan o‘rganishga rag‘batlantiradi.
- Grafik tashkilotchilar, vizual vositalar (rasmlar, diagrammalar) qo‘llansın. Bu ayniqsa boshlang‘ich sinflarda juda muhim.
- Rol o‘ynash, dramatizatsiya, o‘quvchilarning ijodiy ishtirokini rag‘batlantiruvchi topshiriqlar yaratil-sın.
-Baholashda o‘zini baholash, o‘qituvchining kuzatuvi va rol o‘ynash orqali qiymat berish birga bo‘lsin.
- Dars davomida o‘quvchilarning tushunmayotgan joylarini aniqlash uchun diagnostik topshiriqlar qo‘llansin. Zaif o‘quvchilarga qo‘shimcha yordam ko‘rsatilsın.
- O‘qib-tushunish strategiyalari (masalan: oldindan savollar qo‘yish, matnni xaritalash, asosiy g‘oyani topish, dalillarni izlash) muntazam ravishda o‘qitilsin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich sinflarda o‘qib-tushunishni rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim ustunlaridan biridir. O‘quv topshiriqlarini maqsadga muvofiq shakllantirish orqali o‘quvchilarning matnni anglash, tahlil qilish, yaratish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Ushbu topshiriqlar sinf-dars sifatida emas, balki o‘quvchilarning faol, ijodiy va mustaqil ishtirokini ta’minlovchi vosita bo‘lishi lozim. O‘qituvchilarga tavsiyamiz – darsni faqat o‘qib o‘tish bilan cheklanmasdan, «tushundikmi, ilgari suramizmi, qo‘llaymizmi» degan savollar bilan tashkil qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 180 b.

2. Axmedova N.X. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish darslarini o‘tkazish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2019. – 112 b.

3. Qurbonova M.Q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish. // Boshlang‘ich ta’lim. – 2022. – №2. – B. 37–41.
4. Nazarova D.N. O‘qish darslarida o‘quv topshiriqlari orqali fikrlashni faollashtirish. // Ta’lim va taraqqiyot. – 2021. – №4. – B. 22–27.
5. Хамдамова М.М. Современные подходы к формированию навыков смыслового чтения у младших школьников. // Молодой ученый. – 2021. – №19. – С. 154–156.

ELEKTRON KITOBLAR VA AUDIOKITOBLARNING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI SAVODXONLIGIGA TA’SIRI

Ubaydullayeva Sharofat G‘ulom qizi-
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
sharofatubaydullayeva9899@gmail.com, +99893 681 81 60

Ushbu maqolada elektron kitoblar va audiokitoblarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Raqamli resurslar ta’lim jarayoniga kirib kelishi bilan o‘quvchilarning matnni qabul qilish uslubi, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi va axborotni qayta ishlash ko‘nikmalarida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Elektron va audiokitoblar o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish hamda o‘qishga qiziqishini oshirishda samarali vosita bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: *Elektron kitoblar, audiokitoblar, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, raqamli ta’lim, multimedia, axborot kompetensiyasi.*

ВЛИЯНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ И АУДИОКНИГ НА ГРАМОТНОСТЬ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье анализируется роль электронных и аудиокниг в развитии читательской грамотности учащихся начальных классов. С внедрением цифровых ресурсов в образовательный процесс происходят значительные изменения в стиле восприятия текста учащимися, их мотивации к чтению и навыках обработки информации. Электронные и аудиокниги могут стать эффективным средством расширения словарного запаса учащихся, развития компетенции аудирования и повышения интереса к чтению.

Ключевые слова: *Электронные книги, аудиокниги, грамотность чтения, учащиеся начальных классов, цифровое образование, мультимедиа, информационная компетенция.*

INFLUENCE OF ELECTRONIC BOOKS AND AUDIOBOOKS ON THE LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

This article analyzes the role of e-books and audiobooks in the development of reading literacy in primary school students. With the introduction of digital resources into the educational process, significant changes are taking place in students' style of text perception, motivation for reading, and information processing skills. Electronic and audiobooks can be an effective tool for expanding students' vocabulary, developing listening comprehension competence, and increasing their interest in reading.

Keywords: Electronic books, audiobooks, reading literacy, primary school students, digital education, multimedia, information competence.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ta’lim tizimi oldida zamonaviy o‘quv jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish vazifasi turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” doirasida ilgari surilgan tashabbuslar ta’lim jarayoniga elektron ta’lim resurslarini keng tatbiq etish zaruratini ko‘rsatib bermoqda. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida savodxonlik, so‘z boyligi, talaffuz, tinglab tushunish va mazmunni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda elektron va audiokitoblardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Bugungi raqamli ta’lim muhiti zamonaviy o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Ta’lim tizimiga kirib kelayotgan eng samarali vositalardan biri — bu elektron kitoblardir. Elektron kitoblar

(e-book) bosma kitoblarga nisbatan interaktivligi, multimediaviy imkoniyatlari, transportabelligi va yangilanish tezligi bilan ajralib turadi.

Elektron kitoblar o‘qish jarayonini faollashtiradi, chunki ular:

- **Multimediaviy elementlar** (audio izohlar, animatsiyalar, illustratsiyalar) yordamida matnni yaxshiroq tushunishga imkon beradi;
- **So‘z ustiga bosish orqali lug‘at izohlari**ni ko‘rsatishi natijasida o‘quvchilarning so‘z boyligini boyitadi;
- Matnni **fonetik o‘qish funksiyasi** orqali to‘g‘ri talaffuzni shakllantiradi;
- Interaktiv mashqlar orqali **o‘qilgan matnni tahlil qilish**, savollarga javob berish va mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi.

Ayniqsa o‘quv jarayonini endigina boshlayotgan bolalar uchun matnga biriktirilgan vizual tasvirlar, grafik elementlar va ovozli ko‘mak o‘qish samaradorligini oshiradi. Bu ularda **ijtimoiy-emotsional savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborotni saralash** ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Audiokitoblar nafaqat o‘qish jarayoniga zamonaviy yondashuv olib kiradi, balki o‘quvchilarning lingvistik, kognitiv va kommunikativ ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Audiokitob — bu matnning professional o‘qilishi asosidagi audio shakli bo‘lib, u bolalarga matn mazmunini eshitish, his qilish va tasavvur qilish orqali qabul qilish imkonini yaratadi. Ushbu vosita ayniqsa **boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik jarayonida** muhim pedagogik manba sifatida qaraladi. Tinglab tushunish — savodxonlik komponentlaridan biri bo‘lib, u quyidagi jarayonlarni qamrab oladi:

Bolalar audiokitoblarni tinglar ekan, ular **matn strukturasi, ovoz intonatsiyasi, pauzalar, urg‘ular**ni his qiladi va bu kelajakda o‘qish texnikasi hamda og‘zaki nutqini to‘g‘ri shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada, o‘quvchilar nafaqat o‘qishni, balki **chiroyli gapirish madaniyatini** ham o‘rganadi.

Audiovizual kontentga qaraganda audiokitoblar bolalar tasavvur olamini kengaytiradi, obrazlarni mustaqil tasavvur qilishga o‘rgatadi, fantaziya va ijodkorlikni kuchaytiradi. Chunki tinglayotgan bola “vizual tayyor” tasvirlar emas, **ichki tasvirlar**ni yaratadi. Bunday o‘quvchilar matnni eshitish orqali mazmunni to‘liq tushunishi, fikrlash jarayonidan ortda qolmasligi ta’minlanadi. Ba’zi platformalar **interaktiv savollar, testlar, hikoya davom ettirish topshiriqlari** bilan birga keladi — bu esa matn mazmunini mustahkamlaydi.



Bu muammolarni hal etishda ota-ona va o‘qituvchi nazorati, raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnomalar hamda to‘g‘ri platforma tanlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. To‘g‘ri tanlangan va metodik asosda qo‘llangan raqamli resurslar o‘qish ko‘nikmalarini tez va samarali shakllantiradi, bolalarda mustaqil o‘qish odatini yaratadi, bilim olishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va axborot madaniyatini rivojlantiradi. Audiokitoblar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini shakllantirishda muhim vositadir. Ular tinglab tushunish, matn mazmunini idrok etish, lug‘at boyligini oshirish, to‘g‘ri talaffuz va nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali natija beradi.

Adabiyotlar

1. Murodova M. — "Raqamli ta’lim texnologiyalari asoslari", Toshkent, 2022.
2. Hasanov U. — "Boshlang‘ich ta’lim metodikasi", Toshkent, 2021.
3. Mamarajabov M., Umarova Z., Saidova Z., Novoselov S. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash. – Toshkent: 2024 – 132 bet. o'quv qo'llanma.
4. A.T.Kenjabayev, M.M.Ikramov, A.Sh.Allanazarov. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. — 408 b. o'quv qo'llanma.
5. Sh.Sh.Adinayev, J.I.Samandarov. Axborot va internet xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. –T.: «LAVITA PRINT» nashriyoti, 2025. 168 b.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЛОВАРЕЙ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ .

Преподаватель кафедры начального образования НавГУ
Омонбоева Нурсауле Эркин кызы
omonboyevanursaule4@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования и дальнейшего развития использования словарей в процессе развития речевой компетенции учащихся начальной школы.

Ключевые слова: лингвистическая педагогика, социолингвистика, лингвокультура , антропоцентричность.

Annotation: This article examines the issues of improving and further developing the use of dictionaries in the process of developing the speech competence of primary school students.

Keywords: linguistic pedagogy, sociolinguistics, linguoculture, anthropocentricity.

Процесс развития речевой компетенции учащихся начальной школы тесно связан, прежде всего, с расширением словарного запаса, развитием навыков связного формулирования понятий и правильного их выражения. В школах с казахским языком обучения активное

использование учащимися, помимо родного, узбекского и русского языков требует особого подхода к обогащению их лексического запаса. С этой точки зрения **совершенствование использования толковых учебных словарей** является одной из актуальных методических проблем.

Текущие проблемы:

1. **Недостаточный словарный запас** – во многих школьных библиотеках нет достаточного количества словарей казахского языка для детей.
2. **Ограниченность методических пособий** - ввиду недостаточного освоения учителями методики работы со словарями использование словарей остается эпизодическим.
3. **Слабый словарный запас учащихся** — учащиеся начальной школы испытывают трудности при поиске слов в словаре, определении их значения и использовании их в речи.
4. **Речевые трудности в многоязычной среде** — под влиянием казахского, узбекского и русского языков учащиеся часто не могут правильно различить семантическое значение слова.
5. **Низкий доступ к электронным словарям** – современные цифровые словари не получили достаточного распространения.

Пути совершенствования как методологическая проблема:

- **Разработка системы работы со словарем:** систематическое введение упражнений, основанных на использовании толковых словарей в рамках каждой темы (определение значения слова, подбор синонимов и антонимов, построение предложений с опорой на толкование).
- **Методический подход, учитывающий многоязычие:** расширение лексического мышления учащихся путем сравнения различных интерпретаций одних и тех же слов как на родном языке, так и на соседних языках.
- **Методическая подготовка учителей:** Семинар по использованию словарей и разработке методических пособий.
- **Расширение использования электронных словарей:** обучение студентов работе с простыми мобильными приложениями и онлайн-словарями.
- **Увеличить количество заданий, направленных на развитие речевой компетенции:** широко использовать такие упражнения, как составление небольшого рассказа по словарю, написание текста и сочинения с опорой на пояснительные слова.

Поэтому совершенствование использования толковых учебных словарей в начальных классах школ с казахским языком обучения является особой **методической проблемой** . Это позволит сформировать у учащихся самостоятельный словарный запас и развить речевую компетенцию за счет обогащения словарного фонда, усиления методического обеспечения, формирования эффективного подхода в условиях многоязычия, широкого использования цифровых возможностей.

Текущая проблема	**Причина**	**Пути улучшения (решения)**
Недостаточно толковых словарей	В школьных библиотеках не хватает словарей казахского языка для детей	Расширить издание специальных толковых словарей для начальных классов, обеспечить библиотеки современными словарями.
Методическая подготовка учителей низкая	Отсутствие специальных методических пособий и обучения работе со словарями	Организация семинаров и курсов повышения квалификации педагогов, создание методических пособий
У студентов плохой словарный запас	Упражнения на расширение словарного запаса не даются систематически и регулярно.	Дайте задания по толковому словарю по каждой теме: поиск слов, объяснение значения, построение предложений, поиск синонимов и антонимов.
Проблемы многоязычия	Смешение значений слов в результате смешанного	Сравнение значений слов в разных языках, введение упражнений, основанных на

	влияния казахского, узбекского и русского языков	лингвистических сравнениях
Низкая доступность электронных словарей	Недостаточно интернета и технических инструментов	Создание простых мобильных приложений и офлайн-словарей, внедрение электронных словарей в школах
Ограниченное развитие речевой компетенции	Использование словаря остается эпизодическим	Расширить словарный запас на основе текстов, написания эссе, рассказов, творческих упражнений, а также внедрить систему ведения «Тетради слов» и «Тетради текстов».

В.В. Морковкин отмечал: «Лингвоцентрический словарь — это словарь для языка и о языке. Его главная задача — фиксировать, описывать и оценивать существующий языковой факт. Антропоцентрический словарь — это словарь, созданный для человека. Его главная задача — помочь человеку, во-первых, сформировать в своём сознании образ языка, а во-вторых, научить его эффективно этим языком пользоваться».

На основании вышеизложенного можно выделить следующие основные задачи учебного словаря:

1. Обучение. Учебный словарь служит вспомогательным средством обучения в самостоятельном освоении обучающимся знаний, связанных с ДТС, квалификационными требованиями, учебной программой и учебником.

2. Предоставление информации. Учебный словарь отличается от других словарей тем, что он служит для предоставления читателю общей информации о конкретном понятии, а также специальных понятий и информации, связанных с содержанием конкретного предмета.

3. Стандартизация. Большинство словарей выполняют функцию определения норм литературного языка. Учебный словарь охватывает нормы языка, связанные с правописанием и произношением, постепенно, от простых к сложным, в зависимости от этапа непрерывного образования, на котором обучается пользователь. Например, словарь, созданный для начальной школы, служит формированию у ребёнка компетенций соблюдения орфоэпических, орфографических, лексических, морфологических и синтаксических норм языка в процессе речевой деятельности.

Следует также отметить, что, хотя нормативный словарь стремится определить норму литературного языка, он не закрепляет её. Появление словаря не только делает норму литературного языка устойчивой и стабильной, но и способствует выявлению и устранению нерешённых в ней проблем.

В своей статье, опубликованной в научном сборнике «Актуальные проблемы учебной лексики», изданном в 1977 году, В.Г. Гак, выделяя виды лексикографии, решительно подчёркивает, что и учебная лексикография является полноправным членом классификации, а в лексикографии появилось новое направление: «Отныне лексикография будет работать по четырём направлениям:

1. Описательная лексикография - занимается отражением лексики всех областей науки и техники, при этом по возможности собирая и фиксируя все слова языка, даже редко употребляемые и устаревшие.

2. Нормативная лексикография — ставит своей целью упорядочение письма, установление нормы правильного произношения, выяснение значения слов.

3. Филологическая лексикография — занимается составлением этимологических, исторических и сопоставительных словарей для каждого языка.

4. Учебно-практическая лексикография - занимается созданием одноязычных и двуязычных словарей, справочников и тезаурусов для изучения конкретного языка.

УЧЕБНЫЙ СЛОВАРЬ – самостоятельная форма словаря в лексикографии, характеризующаяся учебной направленностью и являющаяся средством обучения. Он характеризуется структурой словарного запаса, критериями отбора слов, расположением

словарного материала, способом представления и интерпретации языковой информации, языком изложения материала, его объёмом, оформлением и другими особенностями.

Говоря об историческом развитии каждого народа и страны, вопрос о национальном языке всегда находится в центре внимания. Ведь наличие национального языка — один из основных принципов государственного суверенитета.

Мировой опыт показывает, что отношение к языку различается в разные периоды развития страны. Точнее, каждый период развития страны налагает на языковое образование и лингвистику определённые социальные задачи. В частности, в нашей стране в начале прошлого века задачей обучения родному языку было повышение грамотности масс, к середине века перед языкознанием стояла задача разработки литературных языковых норм, а перед родным языком – внедрение и популяризация достижений науки в этой области.

Независимость открыла новую страницу в истории нашей страны. Узбекистан за исторически короткий срок сумел стать известным всему миру как суверенное государство; возросло внимание мирового сообщества к его культуре, истории, традициям, а также к его языку. С обретением узбекским языком статуса государственного языка расширилась и сфера его употребления. Это наложило на науку, изучающую язык, требование воспитать культуру практического использования языка.

Наш век коренным образом отличается от тех времён, которые человечество переживало до сих пор, с беспрецедентным ускорением темпов развития, признанием того, что интеллектуальный потенциал и мышление являются главными условиями выживания в мире, беспрецедентным ростом технологий и тем, что духовность стала гарантией цивилизации. Многим очевидно, что в такой ситуации требования, предъявляемые к образованию, серьезнее и сложнее, чем когда-либо. Ведь в эпоху глобализации и технологий непросто привлечь внимание ученика и правильно и целенаправленно направить его ум и восприятие. Источники информации сегодня настолько многочисленны, разнообразны и совершенны, что если информация не предоставляется ученику максимально удобным, современным, интересным, простым способом в ходе образовательного процесса, трудно достичь желаемого результата.

Не секрет, что при прежнем режиме, хотя и отводилась главная роль образованию учащихся и студентов, существовал недостаток, мешавший им мыслить самостоятельно и творчески. Поэтому в первые годы независимости возникла необходимость коренного совершенствования системы образования, науки и профессиональной подготовки по всей стране, опираясь на опыт передовых стран мира, и началась реформа государственного значения, прежде всего, с системы образования. Были разработаны Закон «Об образовании» и «Национальная программа по подготовке кадров».

Будучи главным реформатором, государство поставило следующие задачи как перед лингвистикой («создание прекрасных академических и образовательных грамматик, в полной мере отражающих истинную природу и особенности узбекского языка, создание словарей и энциклопедий, брошюр и учебников по различным темам и направлениям»), так и перед образованием на родном языке («воспитание личности, грамотно и свободно выражающей свои мысли устно и письменно, обладающей развитой культурой чтения, умеющей самостоятельно и творчески мыслить, понимающей мнение других – личности с развитой культурой общения и речи»). Главной целью образования на родном языке в школе было определено развитие у учащихся компетенций творческого, логического, образного и ассоциативного мышления, правильного и свободно выражающего продукт мысли в устной и письменной форме в соответствии с условиями речи. Как видно из требований государства к образованию на начальных ступенях непрерывного образования, в нашей стране началась новая эра в языковой политике.

Сегодня в мировой лингвистике, в том числе и в узбекской, всё больше внимания уделяется антропоцентрической лингвистике, основанной на методологии изучения языка во взаимосвязи с психикой, социальным статусом, полом, возрастом, речевыми условиями и другими аспектами пользователя, и таким её направлениям, как психолингвистика, прагматическая лингвистика, лингвистические и политологические исследования, лингвокогнитивная когнитивистика, лингводидактика, лингвопедагогика, социолингвистика,

лингвокультурология. Основу антропоцентрической лингвистики составляют исследования, направленные на развитие практического использования языка его носителем. Результатом таких исследований часто является создание словаря.

Ссылки

1. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка: учеб.пособие / Дубичинский В.В. - М.: Наука: Флинта, 2008. - С. 230.

2. Омонбаева Н. Развитие навыков работы с учебными толковыми словарями у учащихся начальной школы // Образовательные и инновационные исследования – Бухара. № 10, 2023. 200-203-с.

3. Морковкин В.В. Антропоцентрический и лингвоцентрический подходы к лексикографии // Национальная специфика языка и её отражения в нормативном словаре. - М., 1988а. С. 132–133.

4. Гак В.Г. О некоторых закономерностях развития лексикографии (учебно-общая лексикография и исторический аспект) / В.Г. Гак // Актуальные проблемы учебной лексикографии. - М., 1977. - С. 19.

5. Педагогический энциклопедический словарь / Под ред. М.М. Безруких, В.А. Болотова, Л.С. Глебовой и др.; гл. ред. Б.М. Бим-Бада. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 528 с. С.262

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MAXSUS EHTIYOJLI BOLALAR BILAN ISHLASHGA TAYYORLIKNI BAHOLASH MEZONLARI VA DIAGNOSTIKA USULLARI

Toyirova Nazokat Moxirovna,
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: n.m.toyirova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga tayyorlik darajasini o‘lchash, baholash mezonlarini ishlab chiqish va diagnostika usullarini aniqlash masalalari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim sharoitida samarali pedagogik faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni tizimli baholashga doir ilmiy asoslangan metodik yondashuvni ishlab chiqishdan iboratdir. Maqolada bo‘lg‘usi o‘qituvchilar tayyorligini aniqlashda nazariy, amaliy va refleksiv yondashuvlar uyg‘unligiga asoslangan mezonlar tizimi taklif etiladi. Olingan natijalar ularning malaka oshirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maxsus ehtiyojli bolalar, inklyuziv ta’lim, diagnostika, tayyorlik mezonlari, pedagogik kompetensiya, metodik yondashuv, refleksiv tahlil.

ASSESSMENT CRITERIA AND DIAGNOSTIC METHODS FOR READINESS TO WORK WITH CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS IN PRIMARY EDUCATION

Annotation. This article highlights the issues of assessing the readiness of future primary education teachers to work with children with special educational needs, developing evaluation criteria, and identifying diagnostic methods. The purpose of the study is to develop a scientifically based methodological approach to systematically assess the knowledge, skills, and personal qualities necessary for future teachers to carry out effective pedagogical activities in an inclusive educational environment. The article proposes a system of criteria based on the integration of theoretical, practical, and reflective approaches in determining the preparedness of prospective teachers. The obtained results serve to improve their professional development and training process.

Keywords: children with special educational needs, inclusive education, diagnostics, readiness criteria, pedagogical competence, methodological approach, reflective analysis.

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ И ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ГОТОВНОСТИ К РАБОТЕ С ДЕТЬМИ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы оценки готовности будущих учителей начального образования к работе с детьми с особыми образовательными потребностями, разработки критериев оценки и определения диагностических методов. Цель

исследования — разработать научно обоснованный методический подход к системной оценке знаний, умений и личностных качеств, необходимых будущим педагогам для эффективной деятельности в условиях инклюзивного образования.
В статье предлагается система критериев, основанная на интеграции теоретического, практического и рефлексивного подходов в определении уровня подготовленности будущих учителей. Полученные результаты способствуют совершенствованию процесса их профессиональной подготовки и повышения квалификации.

Ключевые слова: дети с особыми образовательными потребностями, инклюзивное образование, диагностика, критерии готовности, педагогическая компетентность, методический подход, рефлексивный анализ.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda inklyuziv ta’limni joriy etish va rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. 2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” Qarori asosida maxsus ehtiyojli bolalarga teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Boshlang‘ich ta’lim tizimida inklyuziv jarayonning muvaffaqiyati, avvalo, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, psixologik tayyorgarligi va shaxsiy qadriyatlariga bog‘liqdir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining tolerantligi, empatiyasi va kommunikativ madaniyati maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, pedagoglarning inklyuziv ta’lim sharoitida ishlashga tayyorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va diagnostika jarayonini ilmiy asoslash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Shuningdek, ularning tayyorlik darajasini aniqlash nafaqat ularning kasbiy malakasini baholashda, balki ta’lim tizimining inklyuziv yo‘nalishda rivojlanish darajasini o‘lchashda ham muhim metodik ko‘rsatkich hisoblanadi.

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo‘llanildi:

1. Nazariy tahlil — zamonaviy pedagogik, psixologik, defektologik va metodik manbalarni o‘rganish orqali tayyorlikning kognitiv, affektiv va amaliy komponentlari tizimlashtirildi.

2. Empirik usullar (so‘rovnoma, intervyu) —boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilari o‘rtasida inklyuziv ta’limga munosabat, o‘zini baholash darajasi va qiyinchilik omillari tahlil qilindi.

3. Diagnostik testlar — talabalarning maxsus pedagogika, psixologiya va kommunikativ kompetensiyalarini aniqlovchi test topshiriqlari ishlab chiqildi.

4. Ekspert baholash — tajribali defektolog, logoped, psixolog va metodistlar ishtirokida o‘qituvchilarning amaliy faoliyati baholandi.

5. Matematik-statistik tahlil — olingan ma’lumotlar asosida natijalar foiz va korrelyatsion bog‘liqlik asosida tahlil qilindi.

Baholash mezonlari: Bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga tayyorlik darajasi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

Mezon	**Mazmuni**	**Baholash darajalari**
Bilim mezoni	Maxsus pedagogika, psixologiya, korreksion metodika bo‘yicha bilimlar	Yuqori / O‘rta / Past
Amaliy ko‘nikma mezoni	Inklyuziv darslarni loyihalash va o‘tkazish qobiliyati	Yuqori / O‘rta / Past
Motivatsion-me’yoriy mezon	Maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan ijobiy munosabat, empatiya, tolerantlik	Yuqori / O‘rta / Past
Refleksiv mezon	O‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish qobiliyati	Yuqori / O‘rta / Past

1-rasm.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan diagnostika quyidagi ko‘rsatkichlarni berdi:

- 25% talabalarda yuqori darajada tayyorlik,
- 50% talabalarda o‘rta darajada tayyorlik,
- 25% talabalarda esa past darajada tayyorlik aniqlangan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning aksariyati nazariy bilimga ega bo‘lsa-da, amaliy faoliyatda maxsus ehtiyojli bolalarga individual yondashuvni to‘liq amalga oshira olmayapti. Eng zaif ko‘rsatkichlar refleksiv tahlil va darsni moslashtirish metodikasi bo‘yicha qayd etildi. Shu bilan birga, talabalarning ko‘pchiligi inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlab, bu yo‘nalishda ishlash istagini bildirgan. Bu ularning motivatsion tayyorgarligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan holatlar bilan hamohangdir. Masalan, Booth va Ainscow (2016) ta’kidlaganidek, inklyuziv pedagogikaning samaradorligi bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy qadriyatlari va ijtimoiy empatiyasiga bog‘liqdir. O‘zbekiston sharoitida esa bu jarayon o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, defektologik bilimlarning umumiy pedagogik tayyorgarlikka integratsiyasi talab etiladi.

Tadqiqot natijalari shuningdek quyidagi masalalarga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatdi:

- Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun inklyuziv ta’lim bo‘yicha modulli treninglar tashkil etish;
- Amaliyot jarayonida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- O‘qituvchilarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish uchun tajriba almashish seminarlarini yo‘lga qo‘yish.

Shuningdek, diagnostika natijalaridan kelib chiqib, o‘qituvchilarning shaxsiy rivojlanish xaritalarini tuzish va ularni bosqichma-bosqich nazorat qilish tizimi taklif etiladi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim tizimida maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga tayyorlikni baholash — bu ko‘p omilli, kompleks yondashuvni talab etadigan jarayondir. Belgilangan mezonlar asosida ularning kasbiy kompetensiyasi, shaxsiy sifatlari va amaliy tajribasi muntazam tahlil qilinishi zarur. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, diagnostika va metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning inklyuziv ta’limga tayyorligi sezilarli darajada oshadi. Shu bois, pedagoglarning doimiy malaka oshirish, metodik seminarlar, psixologik treninglar va tajriba almashish platformalarida ishtirok etishini ta’minlash ta’lim sifatining uzviy tarkibiy qismi sifatida ko‘rilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4860-son qarori. – Toshkent, 2021.
3. Abdurahmonova, M. “Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot”. – Toshkent, 2022.
4. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. *British Educational Research Journal*, 37(5).
5. Booth, T., & Ainscow, M. (2016). *The Index for Inclusion*. Bristol: CSIE.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA MURAKKAB MANTIQIY TAFAKKURGA ASOSLANGAN TOPSHIRIQLARNI QO‘LLASH USULLARI

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi
2 -kurs magistranti: Umarova Azizaxon Burxonovna
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD), dots Isroilova Ruxshona Sunnatovna

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf ona tili darslarida murakkab mantiqiy tafakkurga asoslangan topshiriqlarni qo‘llashning nazariy asoslari va amaliy metodlarini tadqiqiy yondashuv bilan tahlil qiladi. Maqsad — bolalarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, matn bilan ishlash, lug‘at boyligini kengaytirish va tushunchalarni bog‘lash qobiliyatlarini mustahkamlash uchun sinf darajasiga moslashtirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Kalit so‘zlar: murakkab mantiqiy tafakkur, ona tili darslari, topshiriqlar dizayni, sinfda faol o‘qitish, baholash mezonlari

Abstract. This article analyzes theory-based and practice-oriented approaches to integrating complex logical-thinking tasks into primary-grade mother-tongue lessons. The aim is to develop students’ logical reasoning, expand vocabulary, and strengthen text analysis and inference skills by designing grade-appropriate tasks.

Keywords: complex logical thinking, mother-tongue lessons, task design, active classroom teaching, assessment criteria

Аннотация. Данная статья исследует теоретические основы, принципы проектирования и практические методы применения заданий, основанных на сложном логическом мышлении, на уроках родного языка в начальных классах с использованием исследовательского подхода. Цель — разработать систему заданий, адаптированную к уровню класса, для развития у детей навыков логического мышления, работы с текстом, расширения словарного запаса и укрепления способности устанавливать связи между понятиями.

Ключевые слова: сложное логическое мышление, уроки родного языка, дизайн заданий, активное обучение в классе, критерии оценки

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ona tilida o‘qish va yozishga o‘rgatishda ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Murakkab mantiqiy tafakkur nafaqat ma’lumotni qabul qilish va eslab qolishni, balki ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash, sabab–natija munosabatlarini tushuntirish, xulosalar chiqarish va yangi bilimlarni turli yondashuvlar asosida tahlil qilish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Ona tilining samarali o‘qitilishi o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish, matnlar mazmunini to‘liq tushunish, fikrlarini aniq ifodalash va yozma hamda og‘zaki kommunikatsiya ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda murakkab mantiqiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni tahlil qiladi. Maqsad – samarali topshiriq turlarini aniqlash, sinf darajasiga mos dizayn prinsiplari va metodlarni ishlab chiqish, baholash mezonlarini belgilash hamda amaliy misollar orqali o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatishdir.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida murakkab mantiqiy tafakkurga asoslangan topshiriqlar (1–4-sinf uchun)

I–II sinflar 1. Tasniflash (Classification). Maqsad: bolalarda obyektlar yoki so‘zlarni umumiy xususiyatlari bo‘yicha guruhlash qobiliyatini rivojlantirish. Misol: Rasmlar va so‘zlar beriladi: mevalar (olma, nok, shaftoli) va narsalar (qalam, stol, kitob). O‘quvchi aytilgan so‘zlarni mos guruhlariga joylashtiradi.

2. Qisqa matndan xulosa chiqarish (Inferencing basic). Maqsad: oddiy matndan ma’lumotlarni chiqarish, sabab-natijasini aniqlash. Misol: Qisqa hikoya matnidan nima sodir bo‘lganini qisqa jumlalarda aytib berish; “Nega Botirjon darsda o‘qituvchisan tanbeh eshitdi?”

III–IV sinflar . 1. Tadqiqotiy savol va javoblar (Hypothesis-driven questions).Maqsad: matn bo‘yicha sabab-natija strukturasi, dalillar bilan qo‘llab-quvvatlash. Misol: “Agar qish mavsumi boshlangan bo‘lsa, qishda hayvonlar nima qiladi? Bayon eting.” — bolalar o‘z javoblarini yozadi va matndagi dalillar bilan tekshiradi.

2. Tasniflash va munosabatlar tahlili (Advanced classification and relationships). Maqsad: Matn ichidagi so‘zlarning qaysi so‘z turkumiga mansub ekanligini aniqlab ko‘rsatish. Misol: Qisqa matndan so‘zlar tanlab, ularning turkumlari bo‘yicha jadval tuzish. So‘zlar turli xil so‘z turkumlariga mansub bo‘lishi kerak.

3. Hikoya bo‘ylab zanjirli yozuv (Story chain). Maqsad: matnni yaratishda ketma-ketlik va matn mazmunini to‘la saqlab qolish. Misol: “ Ta’til kunlarida ” mavzusidagi oddiy hikoya bo‘laklaridan uchta bo‘lagini berish. Bolalar navbat bilan gaplar yozadi, har bir bo‘lak oldingisi bilan mantiqiy bog‘langan bo‘lishi kerak. Baholash: ketma-ketlikning to‘g‘riligi – 2 ball; mantiqiy bog‘lanish – 1 ball; ijodiy elementlar – 1 ball.

Murakkab mantiqiy tafakkurga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich qo‘llashda quyidagi natijalar kutish mumkin. Matnlar bo‘yicha tahlil qilish tezligi va aniqligi oshadi, lug‘at boyligi, grammatika bilimlari va o‘qish samaradorligi o‘sadi, shaxsiy xulosalarni ifoda etish

ko‘nikmalari ortadi. Muloqot ko‘nikmalari savollar berish, javob berish, guruhda fikr aytish ko‘nikmalari mustahkamlanadi, tanqidiy fikrlar rivojlanadi.

Xulosa . Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida murakkab mantiqiy tafakkurga asoslangan topshiriqlarni qo‘llash jarayonida o‘qituvchilar uchun bir qator muhim imkoniyatlar yuzaga keladi. Avvalo, o‘quv dasturlariga mos ravishda darslarni rejalashtirish, o‘quvchilarning ijtimoiy-til kompetensiyalarini kuchaytirish va guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yish ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish – grafiklar, mind-maplar, interaktiv kartochkalar va onlayn darsliklar yordamida sabab-natija bog‘lanishlarini vizual ko‘rsatish – o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi. Jarayon davomida duch kelinadigan asosiy muammolar – vaqtning cheklanganligi va o‘qituvchilarning mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha yetarli metodik tayyorgarlikka ega emasligi – professional treninglar, seminarlar va amaliy qo‘llanmalar yaratish orqali bartaraf etilishi mumkin. Ona tili fanining matematika va tabiatshunoslik kabi boshqa fanlar bilan integratsiyasi esa o‘quvchilarning turli darajadagi ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi va inkluziv ta’lim tamoyillarini mustahkamlaydi. Umuman olganda, murakkab mantiqiy topshiriqlardan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi, tahliliy fikrlashni chuqurlashtiradi va ona tili ta’limining sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Anderson, L. W., Krathwohl, D. R., Airasian, P., Cruikshank, K., Mayer, R., Pintrich, P., Raths, L., & Wittrock, M. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy. Longman, 2001.

2. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.

3. Bruner, J. S.The Process of Education. Harvard University Press, 1960.

4. Ali, A. Ona tili darslarida mantiqiy tafakkur rivojlantirish yo‘llari. O‘zbek pedagogika adabiyoti to‘plami, 2015.

5. UNESCO. Early Literacy and Language Development Guidelines. UNESCO Publishing, 2013.

6. Rasulova, D. Boshlang‘ich sinfda ona tili darslarida mantiqiy tafakkurga yo‘naltirilgan o‘qitish. O‘zbekiston Respublikasi maktab ta’lim materiallari, 2018.

PRIMARY EDUCATION IN THE PHILIPPINES: NURTURING YOUNG MINDS

Helen Grace B. Trinidad, Fillipin,
Daryll E. Manzano, Fillipin

Primary education in the Philippines is a compulsory seven-year cycle (Kinder to Grade Six) for children typically aged 5 to 12, as part of the K to 12 Basic Education Program.

The system is managed and regulated by the Department of Education (DepEd), and aims to provide foundational knowledge and skills for lifelong learning.

Key features and learning areas include:

Core Subjects: Major subjects include Mathematics, Science, English, Filipino (the national language), and Social Sciences.

Other Learning Areas: Students also take subjects like Music, Arts, Physical Education, and Health (MAPEH), Technology and Livelihood Education, and Values Education.

Mother Tongue-Based Multilingual Education (MTB-MLE): For Grades 1-3, instruction for most subjects uses the learner's native language (mother tongue) to build foundational literacy. Filipino and English are introduced as subjects, with oral fluency emphasized first. From Grades 4 to 6, English and Filipino are gradually used as the primary languages of instruction.

Assessment: Student promotion is based on cumulative grades throughout the year, with a passing grade typically being 75%. A National Achievement Test (NAT) is also administered to measure school competency.

Goals and Objectives

The primary goals of primary education, as set by DepEd, are to:

1. Provide a broad general education that helps each individual achieve their potential as a human being and a productive citizen.

2. Develop skills, attitudes, and values essential for personal development and contributing to society.

3. Inculcate patriotism, nationalism, and ethical values.

4. Equip learners with 21st-century skills, including information and communication technology (ICT) competencies.

The Government's Commitment towards Primary Education

Foundational Learning (Literacy and Numeracy): A primary goal is to address the "learning crisis" where many students struggle with basic reading and math skills by Grade 5. The MATATAG Curriculum for primary education has been revised to be less congested, focusing strongly on these foundational competencies (reading, math, science, and social studies) to ensure all students are proficient by Grade 3.

Universal Access and Equity:

The government aims for every child to have access to free and compulsory primary education, regardless of location or socio-economic background.

Teacher Development and Support:

The government recognizes the critical role of teachers and focuses on professional development, adequate training, and reducing administrative workloads. This includes providing better compensation, clear career progression pathways, and equipping teachers with necessary instructional materials and digital tools.

Health and Nutrition:

Expanding school-based feeding programs and promoting better health and nutrition to address issues like stunting, which can impede learning outcomes.

Decentralization and Partnerships:

DepEd is working to decentralize governance, empowering local government units and school leaders to make data-driven decisions tailored to their specific community needs. They also leverage public-private partnerships to bridge resource gaps and foster shared responsibility for education outcomes.

Digitalization and Modernization:

The government is accelerating the integration of technology into the education system. This includes providing internet connectivity, digital learning resources, and modernizing student assessment systems to make education more resilient and future-ready.

Teaching Approaches:

Mother Tongue-Based Multilingual Education (MTB-MLE) and Content-Based Instruction (CBI)

Mother Tongue-Based Multilingual Education (MTB-MLE)

It is an educational policy and program in the Philippines where the learner's first language is used as the foundational medium of instruction in the early primary grades, with the gradual introduction of Filipino and English as additional languages.



Core Principles

Foundation for Learning: The premise of MTB-MLE is that children learn best and more quickly when taught in the language they speak and understand at home. A strong foundation in the first language helps build better comprehension, cognitive skills, and confidence.

Gradual Transition: The program is designed to be a "bridge" to proficiency in other languages. Students develop literacy and numeracy skills in their mother tongue from Kindergarten to Grade 3, and then these skills are transferred to Filipino and English as languages of instruction in Grade 4 and beyond.

Cultural Preservation: MTB-MLE also aims to preserve the Philippines' rich cultural heritage and native languages by giving them a place of importance in formal education.

Implementation in the Philippines

Mandatory Policy: MTB-MLE was institutionalized as a fundamental part of the K to 12 Basic Education Program under the Enhanced Basic Education Act of 2013 (Republic Act 10533).

Dual Role in the Classroom: The mother tongue functions in two ways:
As a Learning Area/Subject: Students explicitly learn the grammar, orthography, reading, and writing of their first language.

As a Medium of Instruction (MOI): It is the language used to teach other subjects like Math, Science, and Social Studies in the early grades (K-3).

Positive Outcomes

Improved Comprehension and Participation: Studies and teacher reports consistently show that students understand lessons better and are more engaged and confident when instruction is in their native language.

Stronger Foundational Skills (Localized): Specific pilot programs, such as the "Iloilo Experiment" and studies in specific regions, reported significant improvements in reading comprehension and early mathematics skills when taught in the mother tongue compared to English-taught control groups.

Cognitive and Socio-Cultural Benefits: The use of the mother tongue has a positive impact on students' cognitive skills, such as critical thinking, as well as fostering a sense of self-worth and pride in their cultural heritage and identity.

Content-Based Instruction (CBI)

It is an educational approach where a second or foreign language is used as the medium of instruction to teach specific subject matter (e.g., science, history, geography). The primary goal is to help students learn the target language by focusing on authentic, interesting content, rather than teaching the language in isolation through grammar drills or vocabulary lists.

Key Principles

Language as a Tool: In CBI, the language is not just an object of study; it is a vehicle for acquiring new knowledge and interacting with meaningful information.

Focus on Meaning: The emphasis is on understanding and communicating the content, which creates a natural, authentic need to use the language.

Engagement and Motivation: By engaging with interesting academic subjects, students are more motivated to use the target language to participate in discussions, read texts, and complete assignments related to the content.

Integrated Skills: CBI naturally integrates all four language skills—reading, writing, speaking, and listening—as students use them all to process the subject matter.

Key Findings from Studies and Implementations

Improved Reading Comprehension: Experimental studies have shown that using a CBI approach significantly develops students' reading comprehension abilities compared to traditional methods.

Enhanced Motivation and Engagement: Students generally find CBI lessons more interesting and motivating because they are focused on real-world content and meaningful topics. This active engagement helps them persist through learning challenges and develop positive attitudes toward learning a new language.

Contextualized Language Acquisition: CBI allows learners to use language purposefully within a relevant context, facilitating more natural acquisition of language skills (reading, writing, speaking, and listening) than learning language in isolation.

Development of Higher-Order Thinking Skills: By focusing on content and critical thinking tasks, the approach encourages students to analyze, synthesize, and discuss information from various perspectives, thereby improving their intellectual and critical thinking abilities.

Positive Impact on Speaking Skills: Specific research focusing on speaking skills has found that CBI effectively increases students' confidence and oral performance, providing them with opportunities to express themselves in English.

Support for the MTB-MLE Rationale: The principles of CBI align with the government's MTB-MLE policy, as both rely on using a language the students understand to build foundational skills. Localized studies within this framework show that building strong L1 (first language) skills can bridge effectively to L2 (Filipino/English) learning when properly managed.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ СЛОВАРЕЙ НА УРОКАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ С КАЗАХСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

Преподаватель кафедры начального образования НавГУ
Омонбоева Нурсауле Эркин кызы
omonboyevanursaule4@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективная методика использования учебных словарей в преподавании узбекского языка в школах с казахским языком обучения. Анализируется роль словарей в расширении лексического запаса учащихся, формировании навыков правильного понимания значений слов и их использования в практической речи. Показаны методы использования двуязычных и тематических словарей в урочном процессе, пути развития навыков самостоятельной работы учащихся посредством интерактивных заданий. Результаты исследования имеют практическое значение при разработке методических рекомендаций для учителей узбекского языка .

Ключевые слова: узбекский язык, учебный словарь, методика, двуязычный словарь, казахские школы, лексическая компетенция, словарный запас, интерактивные методы, технология обучения, культура речи.

Annotation: This article highlights an effective methodology for using educational dictionaries in teaching the Uzbek language in schools where the language of instruction is Kazakh. It analyzes the role of dictionaries in expanding students’ vocabulary, understanding word meanings accurately, and developing practical language use skills. The paper also discusses methods of applying bilingual and thematic dictionaries during lessons and ways to enhance students’ independent learning through interactive tasks. The research findings have practical significance for developing methodological recommendations for Uzbek language teachers.

Keywords: Uzbek language, educational dictionary, methodology, bilingual dictionary, Kazakh schools, lexical competence, vocabulary, interactive methods, teaching technology, speech culture.

С момента возникновения в системе языкознания такого раздела лексикографии, как учебная лексикография, специалистов интересует вопрос о том, какой словарь является учебным, какие критерии преобладают при его создании, каковы его основные задачи, чем он отличается от общего словаря и каковы его преимущества перед другими видами словарей.

В мировой лингвистике конкретные ответы на эти вопросы были даны ещё в начале XX века, исходя из требований времени. Во многих развитых странах учебная лексикография, оставив позади несколько этапов своего развития, в настоящее время занимается теорией и практикой создания нового жанра – нового поколения антропоцентрических учебных словарей современного типа.

Как известно, любой словарь призван чему-то научить. Однако только словарь, созданный специально для школ, относится к категории учебных и составляется на основе специальных критериев.

В то же время в лингвистике существует спорное мнение о том, что образовательная лексикография — это отдельный раздел лексикографии. Некоторые исследователи считают образовательную лексикографию не отдельным жанром лексикографии, а просто более глубоким взглядом на образовательный процесс.

Балалаева также приводит отсутствие прочного единого мнения среди исследователей по вопросу разделения учебных словарей, в том числе мнение Б. Бим-Бада о том, что учебный словарь выполняет функции учебной, информативной и систематизирующей, а также информативной и стандартизирующей, которые присущи всем другим словарям, и мнение М. Лаптевой о том, что терминологический учебный толковый словарь выполняет ведущую функцию информирования, систематизации и предоставления самостоятельных знаний . Отвергая мнение этих исследователей, ученый подчеркивает, что М. Ковязина, Т. Петрашов, В. Табанакова солидарны с П. Н. Денисовым в этом вопросе и что учебный словарь представляет собой минимальную лексическую систему, выполняющую четыре функции – учебную, систематизирующую, информативную, стандартизирующую.

Т.В.Жеребило, исследовавший учебный словарь с педагогической точки зрения, считает учебный словарь, несмотря на ряд его специфических особенностей, инструментом, выполняющим лишь функцию приведения информации из учебников, пособий и различных дидактических материалов в лексикографическую форму, их обобщения и хранения. По его мнению, любой словарь, являясь средством обучения и развития личности человека, выполняет главную функцию, связанную с образовательной, воспитательной, образовательной, интеллектуальным развитием. Наряду с этой универсальной функцией учебный словарь выполняет и специальные функции: информирование, передача информации, систематизация, стандартизация, мотивация.

В целом, Т.В.Джеребило рассматривает учебный словарь лишь как часть дидактической системы и считает, что его функция в образовательном процессе несколько глубже. Некоторые исследователи не согласны с мнением Т.В.Джеребило и отмечают, что эта точка зрения не всегда верна, например, учебный терминологический словарь не выполняет образовательной функции.

В.В.Дубичинский подчёркивает, что важнейшей особенностью учебного словаря является то, что он является инструментом, направленным на изучение языка на основе методических требований; по сути, учебный словарь – не только лексикографическое, но и дидактическое издание, и что потребность в нём ощущается как в методике преподавания родного языка, так и в методике преподавания иностранных языков. Он прекращает сомнения специалистов по поводу целесообразности выделения учебной лексикографии в самостоятельную область следующим мнением: «Такой подход к учебному словарю сам по себе показывает, что это антропоцентрический словарь, инструмент, всесторонне охватывающий человека».

В.В. Морковкин отмечал: «Лингвоцентрический словарь — это словарь для языка и о языке. Его главная задача — фиксировать, описывать и оценивать существующий языковой факт. Антропоцентрический словарь — это словарь, созданный для человека. Его главная задача — помочь человеку, во-первых, сформировать в своём сознании образ языка, а во-вторых, научить его эффективно этим языком пользоваться».

Учебные словари выполняют следующие функции:

1. Обучение. Учебный словарь служит вспомогательным средством обучения в самостоятельном освоении обучающимся знаний, связанных с ДТС, квалификационными требованиями, учебной программой и учебником.

2. Предоставление информации. Учебный словарь отличается от других словарей тем, что он служит для предоставления читателю общей информации о конкретном понятии, а также специальных понятий и информации, связанных с содержанием конкретного предмета.

3. Стандартизация. Большинство словарей выполняют функцию определения норм литературного языка. Учебный словарь охватывает нормы языка, связанные с правописанием и произношением, постепенно, от простых к сложным, в зависимости от этапа непрерывного образования, на котором обучается пользователь. Например, словарь, созданный для начальной школы, служит формированию у ребёнка компетенций соблюдения орфоэпических, орфографических, лексических, морфологических и синтаксических норм языка в процессе речевой деятельности.

Следует также отметить, что, хотя нормативный словарь стремится определить норму литературного языка, он не закрепляет её. Появление словаря не только делает норму литературного языка устойчивой и стабильной, но и способствует выявлению и устранению нерешённых в ней проблем.

В связи с актуальностью нашего исследования мы сосредоточимся на образовательной функции учебных словарей. Преподавание узбекского языка в школах с казахским языком обучения отличается от преподавания узбекского языка в русских классах. По сравнению с родственными языками фонетика, лексика и грамматика языка, принадлежащего к другой семье, входящей в романо-германскую, являются чуждыми, и каждая тема требует отдельного подхода.

В школах с казахским языком обучения преподавание узбекского языка несколько проще. Слова и лексика различаются фонетически, иногда лексически и морфологически.

В этом случае использование толковых словарей повышает эффективность урока. Проблема в том, что в школах не хватает толковых словарей узбекского языка.

В целом, создание современных форм толковых словарей в начальном образовании – требование времени. Сравнительные формы учебных толковых словарей с родственными и неродственными языками, учебные толковые словари с картинками и иллюстрациями имеют большое значение для современного узбекского языкового образования. Поскольку они предназначены для младших школьников, создание мультимедийных, игровых толковых словарей, электронных учебных словарей, учебных словарей в виде мобильных приложений и разработка методики их использования являются одной из основных задач исследований в этом направлении.

Язык отражается в словарях. Узбекская лексикография в последние годы значительно развивается, однако исследований в области учебных словарей недостаточно. Этот инструмент, составляющий ядро языкового образования, остро нуждается в специальных научно-методических исследованиях. Учебные словари становятся необходимыми в современных условиях, когда, когда того требует содержание образования, темы систематически увязываются со словарями при создании учебных заданий. Язык должен преподаваться на основе словарей. При создании учебных словарей необходимо учитывать задачи, которые ставит современная эпоха перед обучением родному языку. Для школьных учителей должна быть разработана методика использования учебных словарей на уроках родного языка. В современных учебниках по родному языку основной акцент делается на использовании толковых словарей, которые, по сути, служат для обучения правописанию, произношению, формам и значениям слов. Необходимо также работать со словарями, служащими для обучения правописанию, произношению, формам и значениям слов.

Необходимо выйти за рамки словарного запаса, изолированно представленного в учебниках и предлагаемого ученику. Кроме того, необходимо наладить постоянное использование фразеологических и пареминеологических словарей. Учебные задания следует совершенствовать таким образом, чтобы в результате ученик научился правильно писать слово, произносить его, понимать его значение и использовать вместо него другое слово, используя различные словари.

Ссылки

1. Сайфуллаева Р. Р. , Менглиев Б. Р. , Бокиева Г. Х. , Курбанова М. М. , Юнусова З. К. , Абузалова М. К. Текущий узбекский литературный Язык . Изучение Учебное пособие . – Ташкент , 2006. – 391 с . С. 125.

2. Омонбаева Н. Формирование у учащихся начальной школы навыков работы с учебными толковыми словарями // Образовательные и инновационные исследования – Бухара. № 10, 2023. С. 200-203.
3. Балалаева Е.Ю. Универсальные и специальные функции учебных слов // Актуальные проблемы фундаментализации образования – Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс» https:/interactive-plus.ru/ru/article/1934/discussion_platform
4. Бим-Бад Б. М. Педагогический энциклопедический словарь / Б. М. Бим-Бад. — М., 2002, 290 с.
5. Лаптева М. Л. Стихия света в образном миревидении славян. С.138-148 ... Толковый словарь живого великорусского языка : в 4 т. - М. : Цитадель, 1998.
6. Жеребило Т. В. Учебный словарь по стилистике русского языкаи культуры речи: Проблемы описания понятийно-терминологического аппарата и общеупоребительной лексики в учебных целях. Грозный: Изд-во ЧИГПИ, 1993. - 326 с.
7. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка: учеб. пособие / Дубичинский В.В. - М. : Наука: Флинта, 2008.
8. Морковкин В.В. Антропоцентрический и лингвоцентрический подходы к лексикографии // Национальная специфика языка и еоотражения в нормативном словаре. - М., 1988. С. 132–133.

МАКТАБДА ХУЛҚИ ОҒИШГАН ЎҚУВЧИЛАР БИЛАН ИШЛАШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Азимжонова Рушана Рашид қизи
Фанлар академияси Навоий бўлими, стажёр-тадқиқотчи
рушанаазимжонова0@гмаил.com

Аннотация: *Ушбу мақолада мактаб ўқувчилари хулқида учрайдиган оғиш жараёнлари ҳақида батафсил ёритилган.*
Калит сўзи: *Tarbiya, munosabat, me'yor, xulq, ijtimoiy, axloqiy, muvozanat, idrok, diqqat.*
Аннотация: *В данной статье подробно раскрыты процессы девиации, встречающиеся в поведении школьников.*
Ключевые слова: *Поведение, отношение, норма, нравственность, социальность, равновесие, восприятие, внимание.*
Annotation: *This article provides a detailed analysis of the deviation processes observed in the behavior of school students.*
Keywords: *Behavior, attitude, norm, morality, social, balance, perception, attention.*

Кириш. Таълим жараёнининг самарадорлиги ўқитувчиларнинг, уларнинг индивидуал хусусиятларини қанчалик чуқур билишига ва бу маълумотларни ўқув-тарбиявий ишларни режалаштириш ҳамда олиб боришда қанчалик ҳисобга олишига боғлиқ. Акс ҳолда, нотўғри шаклланган фикрлар ва қарорларга асосланган фаолият натижасиз бўлиши, таълим-тарбия тадбирлари мақсадсиз ва самарасиз тус олиши мумкин. Бу эса ўз навбатида ўқувчи ёшларнинг хулқида турли оғишларнинг намоён бўлишига олиб келади, бу эса уларнинг ўқиш давридаги мослашувига, шунингдек, мактабни тугатгандан кейинги ижтимоий мослашувига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Республикамиз Президенти Ш.М.Мирзиёев мазкур вазифаларни сифатли ва самарали ҳал этиш учун таълим муассасаларида ўқитиш ва тарбиялаш жараёнларига замонавий таълим дастурлари ва услубларини жорий қилиш, таълим олувчиларнинг ҳар томонлама ривожланишлари учун шароит яратиш ҳамда бу вазифаларни амалга ошириш учун педагог ва мутахасисларнинг касбий компетентлигини ошириш масаласига алоҳида урғу берганлар [1].

Адабиётлар таҳлили ва методлар. Мазкур муаммони ўрганиш жараёнида хорижий тадқиқотчиларнинг (R.K.Merton, R.B.Smith, Jessica Damron-Bell J.Reinecke, M.Stemmler,

Z.Sünkel, D.Schepers, M.Weiss, M.Arnis, J.Meinert, B.Kucur-Uysal, A.Pöge, S.Wallner ва J.Wittenberg C.Poulin, D.Hand, B.Boudreau ва D.Santor E.Hanımoğlu S.Uski ва A.Lampinen) девиант хулқ ва ҳуқуқбузарликнинг ўсмирлар хулқида юзага келиш сабаблари**,** оғишган хулқ-атворларнинг давом этиши ва ўзгаришига таьсир қилувчи муҳим омиллар ҳамда оғишларни коррекциялаш ва прифилактика қилишга оид илмий изланишларининг натижалари бизда қизиқиш уйғотди.

МДХ мамлакатларининг муаммога оид соҳа мутахассис-олимларининг (Ю.А.Клейберг, М.Г.Ярошевский, А.В.Петровский, Е.В.Змановская, Я.И.Гилинский, С.А.Беличева, М.А.Галагузова, Л.В.Николаева В.С.Афанасев, И.Д.Павленок, М.Я.Руднева, Ц.П.Короленко, Т.А.Донских ва бошқ.) болалар хулқидаги девиант хатти-ҳаракатларни педагогик, психологик ва ижтимоий ходиса сифатида тадқиқ этиб, намоён бўлиш шакллари ва турлари, уни диагностика ва коррекция қилиш муаммоларига оид илмий-тадқиқотлари биз учун ахамиятли бўлди.

Ўз илмий изланишларимизда Республикамизнинг педагог ва психолог-олимлари (Шоумаров Ғ.Б., Ғозиев Э., Камилова Н.Г., Жабборов А. Умаров Б.М., Асадов Ю., А.Мусурманова, Мусурманов Р., Рашидов Х.Ф., О.Жамолидинова, С.Т.Турғунов, Тўлаганова Г.Қ., Ядгарова Г.Т., Авлаев О.У, Йўлдошев Ҳ.К., Ш.А.Исроилов, Д.Шарипова, Г.Худоярова ва бошқ.) томонидан хулқдаги девиацияларнинг психологик, педагогик ва ижтимоий муаммоларини тадқиқ этишга бағишланган илмий ишларига таяндик.

Хулқдаги оғишиш ижтимоий муҳитдагилар фаолиятига салбий таъсир кўрсатган ёки хуқуқий меъёрларга қарама-қарши йўналган ҳолатда “делинквент хулқ” деб номланади. Делинквент хулқ лотинча "*delinquens*" - қоидабузар, жиноятчи, қўзғолончи сўзидан олинган бўлиб жиноий хатти-ҳаракатга қадар бўлган хулқ, жиноят қонунчилигида назарда тутилган жиноятларни содир этиш хусусияти бўлган ғайриижтимоий ҳодиса хисобланади [3].

Натижалар: Тадқиқотлар таҳлилига кўра, ижтимоийлашув ва мактаб адаптациясига қийналаётган ўқувчилар қаторига ғайриижтимоий ва ахлоқсиз хулқ-атворли болалар билан бир қаторда, шахсий ва индивидуал ўзига хосликлари туфайли хулқи оғишган ўқувчиларни хам киритиш мумкин. Хулқдаги бундай оғишлар “ижобий оғиш” деб номланади [2].

Инсон шахс сифатида шаклланишида биологик ва ижтимоий омилларга боғлиқ экан. Демак, болалар хулқ-атворининг салбий томонга оғиши ҳам бевосита юқоридаги икки омилнинг ўзига хос ўрни бор. Боланинг хулқ-атвори кўпинча ўз олдига қуйган мақсадлари, қизиқишлари, идеаллари ва эътиқодининг мажмуида яққол намоён бўлади. Хулқ-атвордаги ўзгаришлар ёш кризислари билан боғлиқ юз бериши табиий.

Т.Б.Князева ўрта умумтаълим мактаби ўқувчилари шахсий ривожланиш жараёни самарадорлигини оширишнинг педагогик шарт-шароитлари комплексини ишлаб чиқган. Тадқиқотчи ўқувчиларнинг шахсий ривожланишларида “... ижтимоийлашув жараёни уларнинг индивидуаллашуви, ўз имкониятларини амалиётда қўллаши ва шахсий салоҳиятини максимал даражада ривожлантиришини ўз ичига олиб, ўқувчилар шахсини яхлит шакллантириш учун педагогик шароитлар тизимини яратади”, - деб ҳисоблайди [4].

Н.И.Тайлоқов вояга етмаганлар орасида жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликнинг олдини олишга қаратилган профилактик ишлар мазмуни, мазкур жараёнда маънавий-аҳлоқий муҳитнинг ролини кучайтириш чоралари ҳамда таълим муассасаларида педагогик профилактика самарадорлигини ошириш масалаларини тадқиқ этган [5].

Муҳокама. Ўқувчиларни ривожлантиришда ижтимоийлашув жараёни уларнинг индивидуаллашуви, ўз имкониятларини амалиётда қўллаши ва шахсий салоҳиятини максимал даражада ривожлантиришни ўз ичига олиб, ўқувчилар шахсини яхлит шакллантириш учун педагогик шартлар таъминланиши керак бўлади. Мазкур жараёнда педагогик профлактиканинг моҳияти – ижтимоий ҳамкорликни такомиллаштириш, маҳалла, таълим муассасаси, оиланинг профилактик имкониятларидан унумли фойдаланиш муҳим ахамият касб этади.

Хулоса. Педагогик оғишган ўқувчиларнинг ота-оналари ёки қонуний вакилларининг педагогик маданиятини ошириш ҳамда мактабнинг ота-оналар билан ҳамкорлик муносабатларини мустаҳкамлаш; мавжуд оғишларни тузатишга нисбатан ўқувчиларда коррекцион мобилликни шакллантириш муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар.

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент: “Ўзбекистан”, 2017.
2. Гулямов Д.Р. Тарбиявий-коррекцион фаолиятни ташкил этиш жиҳатлари // “Педагогик таълим” журнали, 2013. № 6. –Б. 41-52.
3. Gulyamov Dj.R., Nurboyev Q.M., Tukboeva D.Z. Personal effectiveness as a factor in school student personality development: analytical review // Turkish Online journal Qualitative Inquiru. Volume 12, Issue 07, Julu 2021. –P.10289-10296 / https://www.tojqi.net/index.php/journal/article/view/5583
4. Князева Т.Б. Педагогические условия личностного роста старшеклассников в вариативном компоненте образовательного процесса: Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. - Иркутск, 2001. -191 с.
5. Тайлоқов Н.И. ва бошқ. Жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка мойил ўқувчиларни аниқлаш ва уларни тарбиялаш. 1-китоб, Тошкент, ЎзПФИТИ: “Камалак” нашриёти, 2017. – 320 б.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI FONETIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi1-kurs
magistranti Abdimuratova Alfiya Baxit qizi
Ilmiy rahbar: p.f.d. (DSc)., dots. F.X.Holikulova

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fonetika, talaffuz, texnologiya, boshlang‘ich ta’lim, nutq madaniyati, integratsiya.

Аннотация: В статье рассматривается роль современных информационных технологий в развитии фонетических навыков учащихся начальных классов.

Ключевые слова: фонетика, произношение, технологии, начальное образование, речевая культура, интеграция.

Abstract: This article discusses the role of modern information technologies in developing phonetic skills of primary school students.

Keywords: phonetics, pronunciation, technology, primary education, speech culture, integration.

Hozirgi globallashuv jarayonida ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning ijodiy va kommunikativ salohiyatini rivojlantirish eng muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida fonetik ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quvchilarning nutq madaniyati, to‘g‘ri talaffuz va o‘qish-yozish malakasining poydevorini yaratadi. Fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida raqamli vositalar, audio va video texnologiyalar, nutqni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar o‘quvchilar nutqini eshitish, tahlil qilish va to‘g‘rilash imkonini beradi. Bunday texnologiyalar o‘quvchini o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, mustaqil fikrlash va o‘z nutqini baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish va global tajribalarni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish o‘qitish jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida audio va video vositalar o‘quvchilarning fonetik ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar nutqni tinglash, to‘g‘ri talaffuz qilish va o‘z nutqlarini tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Masalan, audio yozuvlar turli fonemalarni tinglash va ularni takrorlash orqali talaffuzni yanada aniqlashtirishga

yordam beradi. Shu bilan birga, video materiallar vizual elementlarni qo‘shib, og‘zaki nutqni tushunishni osonlashtiradi va o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi.

Fonetik ko‘nikmalar - talaffuz, urg‘u, intonatsiya va tovushlarni to‘g‘ri ishlatish qobiliyatidir. Ular boshlang‘ich sinflarda tilni o‘rganish jarayonining poydevorini tashkil qiladi [1:64].

Fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirishda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- ***So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish mashqlari;***
- ***She’r, hikoya va dialoglarni ovozli o‘qish;***
- ***Tinglab tushunish mashqlari;***
- ***Guruhlarda interfaol o‘yinlar va rolli o‘yinlar.***

Bugungi kunda fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning roli katta. Ular dars jarayonini nafaqat qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarning nutq madaniyati va talaffuzini samarali shakllantirishga yordam beradi.

1. Audio va video resurslar – bu vositalar yordamida o‘quvchilar talaffuz namunalarini tinglash va ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, ona tili darslarida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun audio yozuvlar tinglash yoki video lavhalarni ko‘rish o‘quvchilarda eshitish qobiliyatini rivojlantiradi va nutqni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, vizual va eshitish vositalari birgalikda ishlatilsa, o‘quvchilar talaffuzdagi xatolarni o‘z vaqtida aniqlay oladi [2:51].

2. Interaktiv o‘yinlar – o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar dars jarayonini interfaol va qiziqarli qiladi. Masalan, “so‘zlarni topish”, “talaffuzni tekshirish” yoki “tinglab takrorlash” kabi o‘yinlar o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi, ular faol ishtirok etadi va o‘zini sinash imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, guruh bo‘lib o‘ynaladigan mashqlar ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi va darsga qiziqishni oshiradi [3:103].

3. Mobil ilovalar – Lingokids, ABC Kids va boshqa ta’limiy dasturlar bolalarga mustaqil ravishda mashq qilish imkonini beradi. Bu ilovalar ko‘pincha o‘yin elementlari bilan boyitilgan bo‘lib, talaffuzni to‘g‘ri o‘rganishga yordam beradi. Masalan, har bir to‘g‘ri talaffuz qilingan so‘z uchun ball olish tizimi o‘quvchilarni rag‘batlantiradi va ular o‘z natijalarini ko‘rib, o‘z ustida ishlashga undaydi [4:42].

Shuningdek, texnologiyalar yordamida darslarni individuallashtirish mumkin: ba’zi o‘quvchilar talaffuzni tezroq o‘zlashtiradi, boshqalari esa ko‘proq mashq qilishni talab qiladi. Bu jarayonni audio-video materiallar va mobil ilovalar yordamida boshqarish dars samaradorligini oshiradi. Shu tariqa, zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning fonetik ko‘nikmalarini rivojlantirishda nafaqat yordamchi vosita, balki asosiy metod sifatida ham ishlatilishi mumkin.

Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar katta yordam beradi. Audio va video materiallar, interaktiv o‘yinlar va mobil ilovalar darslarni qiziqarli va samarali qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilar talaffuzni to‘g‘ri o‘rganadi, nutq madaniyati oshadi va mustaqil mashqlar qilishga odatlanadi.

Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar, audio-video resurslar va mobil ilovalardan foydalangan holda olib borilgan mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish nafaqat bilimni oshiradi, balki o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va ularni ijodiy fikrlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova Z. Raqamli ta’lim metodlari. – Toshkent, 2022. – 175 b.

2. To‘xtayeva G. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2019. – 118 b.

3. Rasulova N. Til o‘rganishda axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2020. – 240 b.

4. Kadirova M. Global ta’lim integratsiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2023. – 156 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA BADIIY ASARLARNI TAHLIL QILISHGA O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Turdiqulova Maftuna Nurali qizi-
Navoiy davlat universiteti 1-bosqich magistratura talabasi
Ilmiy rahbar NavDU “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi
katta o‘qituvchisi,f.f.f.d. (PhD) M.X.Pardayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf tafakkuri va nutq rivojiga ta’siri yoritiladi.Shuningdek, badiiy asar orqali o‘quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o‘rgatish ,asarni tahlil qilish yo‘llari hamda bu jarayonning o‘qituvchi o‘quvchilarda tahlil malakasini shakllantirish va uni takomillashtirish metodik usullari asosida dars jarayonini samarali tashkil etish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: hikoya, she’r,maqol, fazilat, badiiy asar, tahlil, ertak, masal,tahlil qilish

Abctrakt: This article discusses the impact of primary school on the development of thinking and speech. It also analyzes the issues of teaching students to work on a work of art through a work of art, ways to analyze the work, and the effective organization of the lesson process based on methodological methods for forming and improving analytical skills in students.

Keywords: story, poem, proverb, virtue, work of art, analysis, fairy tale, parable, analysis

Аннотация: В статье рассматривается влияние начальной школы на развитие мышления и речи. Анализируются вопросы обучения учащихся работе над художественным произведением через художественное произведение, способы анализа произведения, эффективная организация процесса урока на основе методических приемов формирования и совершенствования аналитических умений учащихся.

Ключевые слова: рассказ, стихотворение, пословица, добродетель, произведение искусства, анализ, сказка, притча.

O‘zbekiston respublikasida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar yurtimiz rivojini ta’minlash ta’lim tizimini takomillashtirish,jamiyatimizda mustaqil fikr yuritadigan,ma’nan boy hamda dunyoqarashi keng shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab etmoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” nomli asarida: “Agar katta avlodning bilimi va tajribasini , uzoqni ko‘ra olish fazilatlarini

yoshlarimizdagi g‘ayrat- shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak ko‘zlangan maqsadga albatta yetamiz” - degan fikrlarni aytib o‘tgan. Shu boisdan yurtimizda ta’lim tizimida juda ko‘p o‘rgarishlar qilinmoqda.. Yoshlarimizning bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. O‘zbekistonda ta’lim jarayoni ko‘p bosqichli yaxlit tizimga ega bo‘lib, uni har bir bosqichi ta’lim oluvchilarning yosh hamda o‘ziga xoz xususiyatini inobatga olib ta’limni izchil va tizimli uzviy amalga oshirishiga bog‘liq hisoblanadi. Ana shu ta’lim berish jaroyonida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga badiiy asarlarni o‘qish ulardan ibrat –namuna olishni o‘rgatish ham katta ahamiyatga ega . Badiiy matnda so‘zning shunchaki ishtirok etmasligini anglab yetish – badiiy asar tili tahlilidagi eng muhim nuqtalardan biridir26

Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar asarda ishtirok etuvchi qahramonlarga baho berishda o‘zlarining shaxsiy hayotiy tajribasi va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Ular axloqiy fazilatlar – botirlik, to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik kabi tushunchalarni anglab yetgan bo‘ladilar va nutq jarayonida ularni tez-tez qo‘llaydilar. Biroq qahramonlarning boshqa murakkab xarakter xususiyatlarini ifodalashda o‘quvchilarning so‘z boyligi yetarli darajada bo‘lmasligi mumkin.Shu bois o‘qituvchi badiiy asar matnini tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarga yordam beradi, ularning nutqini boyitadi hamda personajlarning axloqiy, intellektual va emotsional sifatlarini ifodalovchi so‘zlarni faol nutqqa kiritib boradi. Natijada o‘quvchilar badiiy asar qahramonlarining xarakterini yanada to‘liq, chuqur va asosli tarzda tahlil qilishga o‘rganadilar.Badiiy asar

26 Sh. M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” Toshkent2021.B.102

o‘quvchilarda nafaqat so‘z boyligini kengaytiradi, balki ularning hayotiy kuzatuvchanligini oshiradi, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to‘g‘ri,tez,ongli,ifodali o‘qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.
2. Asarning g‘oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlarini suyjet chizig‘i,qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga,bog‘lanishli nutqning o‘sishini ta’minlaydi.
3. O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi
4. Sinfda o‘qish o‘quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Badiiy matnni tahlil qilish jarayoni o‘quvchilarda fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosalash kabi muhim aqliy faoliyatlarni rivojlantiradi. Matnni o‘qish va tahlil etish orqali o‘quvchi o‘z hayotiy tajribasini muallif tomonidan tasvirlangan voqealar bilan solishtiradi, asardagi g‘oyaning hayotiy haqiqatga qanchalik mos kelishini aniqlaydi. Bu esa o‘quvchida mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi.Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlar turlicha janrlarda — hikoya, she’r, ertak, masal, maqol va topishmoq shaklida o‘rganiladi. Har bir janr o‘ziga xos uslub, mazmun va tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘lgani sababli, o‘qituvchi ularni o‘rganishda mos metodlarni tanlashi muhimdir.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun maqol janri juda muhimdesak mubolag‘a bo‘lmaydi. Maqollar xalq tomonidan yaratilgan hikmatli iboralardir.Maqollar xalq donishmandligi ramzi hisoblanadi.Chunki ular xalqning hayotiy tajribalari va kuzatishlari asosida yaratiladi. Maqollar og‘izdan og‘izga o‘tib, sodda, tushunarli va ixcham ko'rinishda bizgacha yetib kelgan. Ularni qo'llash nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Maqollarda bildirilgan fikrlarga amal qilish esa insonni go'zal fazilatlar egasiga aylantiradi. Maqollarni birinchi navbatda, o‘qituvchi ifodali o‘qib beradi, so‘ngra ichidagi izohtalab so‘zlarni izohlab beradi.O‘quvchilar asta – sekin o‘z fikrlarini bayon qila boshlaydi.

Ayniqsa, 3-sinflar doirasida oladigan bo‘lsak, o‘qish savodxonligi 1-qism darsligida alohida 14-mavzu ‘‘Insoniy fazilatlar to‘g‘risidagi maqollar “ deb nomlangan. Mavzu boshida eng yaxshi insoniy fazilatlar to‘g‘risida o‘quvchilar uchun savollar berilgan. Fazilat nima? Salbiy xislat deganda nimani tushunasiz? Sizningcha, eng yaxshi insoniy fazilatlar qaysi? Nima deb o‘ylaysiz, fazilatlarni qanday shakllantirish mumkin? Salbiy xislatlardan qutulsa bo‘ladimi?

- Kattaga hurmatda bo‘l,

Kichikka izzatda.

- Boshingga qilich kelsa ham, rost gapir.
- Yaxshilik yerda qolmas.
- Yaxshi so‘z - jon ozig‘i,

Yomon so‘z - bosh qozi

- Kamtarga kamol, manmanga zavol.
- Sihat tilasang, ko‘p yema,

Izzat tilasang, ko‘p dema.

Bu jarayonda o‘quvchilarning hayotiy tajribalari asosida misollar keltirish orqali maqollarni izohlash yoki o‘quvchilarga maqol g‘oyasiga mos birorta hikoya tuzish topshirig‘i beriladi.

3-sinflarda maqol janri bo‘yicha tahliliy ishlar o‘quv yili davomida izchil uyishtirib boriladi, ya’ni “Asar g‘oyasiga oid maqol ayting”, “Maqollar asosida boshqotirma tuzing, rebus yarating” kabi topshiriqlar beriladi, “Maqollar aytish musaboqasi“, “Maqollar mushoirasi” kabilar tashkil qilinadi.Shu tariqa boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlar ustida tahlil ishlari olib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun badiiy asar, jumladan, she'rni tahlil qilish o‘quvchilarga matnning mazmunini, obrazlarini va asosiy g'oyasini tushunishga yordam beradi. Boshlang‘ich ta’limda she’riy matnlar ustida ishlashda asosiy e’tibor uning ohang jihatidan ma’lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq ekanligiga qaratiladi.Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi she’rni shunday ifodali o‘qishi kerakki, o‘quvchilar uning

asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta’sir etsin. So‘ngra she’rni mustaqil o'qish topshiriladi. O‘qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g‘azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Boshlang‘ich sinflarda she’riy janrni 4-sinf o‘qish savodxonligi darsligida berilgan Quddus Muhammadiyning ‘‘ Mimoza “ she’ri misolida ko‘rib chiqamiz. Avval she’r bir necha marotaba ifodali o‘qib beriladi, keyin izohtalab so‘zlar izohlanadi. O‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lgach, she’r yuzasidan savollar beriladi:

- She’rda mimoza o‘simligi haqida nima deyilgan?
- Sizningcha, nima uchun mimozaga “uyatchan” deb ta’rif berilyapti?
- Mimozani xususiyatlariga ko‘ra uni qaysi kasb egasiga o‘xshatish mumkin?
- Siz yana qanday ajoyib o‘simliklar haqida eshitgansiz?

O‘quvchilar savollarga javob berish orqali she’rga qanchalik tushunganligini ochiqlaydi va tabiatdagi noyob o‘simliklar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lganini isbotlaydi.Bundan tashqari, she’rni tahlil qilishda klaster metodidan foydalanish mumkin. Doska markazida mimoza o‘simligi turadi va unga xos bo‘lgan xususiyatlar klaster ichiga o‘quvchilar tomonidan yoziladi. Shu orqali ularni yodida saqlab qolishi osonlashadi.

O‘quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o‘rgatish — bu ularda adabiy-estetik tahlil qilish malakasini shakllantirish va rivojlantirish orqali ta’lim-tarbiya

jarayonini amalga oshirishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil etish o‘quvchilarga muallifning fikrini, his-tuyg‘ularini va asosiy g‘oyasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, asarda tasvirlangan voqealarga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish, ularni hayotiy tajriba bilan solishtirish ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Badiiy asarni maktabda tahlil qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — o‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, asarda tasvirlangan hayotiy voqealar orqali insoniy fazilatlarni anglashga, muallifning g‘oya va niyatlarini sezishga yo‘naltirishdir. Bu jarayon o‘qituvchidan o‘quvchi faoliyatini aniq maqsad asosida boshqarish, ularning tahliliy va estetik fikrlash qobiliyatini faollashtirishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik”.- Toshkent: O‘zbekiston,2021.102-b.

2. U.B. Aydarova, N.K. Azizova, M.E. Toirova 3-sinf 1-qism O‘qish savodxonligi–Toshkent: ”Novda Edutainment‘‘2023. 60-b.

3. M.E. Toirova 4-sinf 3-qism O‘qish savodxonligi – Toshkent: “Novda Edutainment‘‘ 2023.21-b.

4. Q. Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh. Jamoldinova Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi – Toshkent : ”Innovatsiya – Ziyo ‘‘ 2020.229b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SAMARALI MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang`ich ta’lim)
magistranti Xolboyeva Feruza Normamatovna
Ilmiy rahbar:f.f.f.d(PhD),dots.Botirova Adiba Erkinovna,

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy, psixologik va pedagogik asoslari keng yoritilgan. Tadqiqot davomida kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari, muloqot madaniyatining shakllanish bosqichlari hamda bu jarayonga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, interfaol pedagogik texnologiyalar, rolli o‘yinlar, dialogik usullar va hamkorlik asosida o‘qitish strategiyalarining samaradorligi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: muloqot madaniyati, boshlang‘ich ta’lim, kommunikativ kompetensiya, pedagogik metodlar, interfaol ta’lim, rolli o‘yin, dialog texnikalari.

Annotation . This article examines the theoretical, psychological, and pedagogical foundations of developing effective communication skills among primary school pupils. The components of communicative competence, stages of forming communication culture, and influencing factors are analyzed in depth. The study also substantiates the effectiveness of interactive pedagogical technologies, role-playing, dialogic approaches, and cooperative learning strategies.

Keywords: communication culture, primary education, communicative competence, pedagogical methods, interactive teaching, role play, dialogic strategies.

Аннотация.В статье подробно рассматриваются теоретические, психологические и педагогические основы развития эффективных коммуникативных навыков у учащихся начальных классов. Анализируются компоненты коммуникативной компетентности, этапы формирования культуры общения и факторы, влияющие на этот процесс. Обоснована эффективность интерактивных педагогических технологий, ролевых игр, диалогических методов и кооперативного обучения.

Ключевые слова: культура общения, начальное образование, коммуникативная компетентность, педагогические методы, интерактивное обучение, ролевая игра, диалогические методы.

Globallashuv, texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va jamiyatda ijtimoiy faollikning ortishi sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish ta’limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Muloqot – bolaning shaxs sifatida kamol topishida, bilimlarni ongli o‘zlashtirishida va ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvida hal qiluvchi omildir. Shu bois boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda nutq madaniyati, tinglay olish, fikrni aniq ifodalash, hamkorlikda ishlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish pedagogik jarayonning ustuvor yo‘nalishidir.Zamonaviy ta’lim jarayonida muloqot kompetensiyasi shaxsning umumiy kompetensiyalar tizimida yetakchi o‘rin tutadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muloqot — nafaqat o‘qish jarayonidagi vosita, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy mexanizmidir.

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, bolaning muloqot madaniyati 6–10 yosh oralig‘ida eng faol shakllanadi[1:15]. Shu bois o‘qituvchilarning ushbu yo‘nalishda to‘g‘ri metodik yondashuvni tanlashi alohida ahamiyatga ega. Amaliy mashg‘ulotlar natijalari boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarda nutqiy faollik, o‘zaro hamkorlik va madaniyatli munosabat ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Muloqot madaniyati — bu shaxsning suhbat jarayonida o‘z fikrini aniq, lo‘nda, madaniylik bilan bayon qila olishi, suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, tinglash,tushunish,javob qaytarish kabi ijtimoiy-nutqiy ko‘nikmalarga egaligini bildiradi.[2:30]

Muloqot madaniyati quyidagi komponentlardan iborat

- nutqiy kompetensiya,:
- axloqiy madaniyat,
- hamkorlik va dialog ko‘nikmalari,

Bu yoshdagi bolalarda:

- nutq tez rivojlanadi,
- muloqotga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi,
- yangi so‘z va ifodalarni tez egallash xususiyati kuchli.

Shu bois, aynan boshlang‘ich bosqich muloqot madaniyatini shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi.Interfaol usullar muloqot jarayonini jonlantiradi va o‘quvchilarni faol suhbat ishtirokchisiga aylantiradi.

Quyidagilar eng samarali hisoblanadi:

- “Aqliy hujum”
- “Klaster”
- “Suhbat aylanmasi”
- “Men boshlayman — sen davom ettir”

Bu metodlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi va guruhda umumiy fikrlashni kuchaytiradi.Bu o‘yinlar bolalarning haqiqiy hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutish, fikr bildirish va madaniyatli muloqot qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

“Mini-munozara”, “Savol-javob aylanasi”, “Ochiq mikrofon” kabi texnikalar o‘quvchilarga o‘z fikrini dalillash, boshqalar fikriga hurmat bilan yondashish imkonini beradi.

Juftlikda va guruhda ishlash:

- bir-birini tinglash;
- dialog va muloqotning tabiiy rivojlanishi kabi ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Maktabda o‘tkazilgan tajriba mashg‘ulotlari shuni ko‘rsatdiki:

- o‘quvchilarning so‘z boyligi kengaydi,
- muloqotda faollik ortdi,
- guruhda ishlashda hamkorlik kuchaydi,
- o‘z fikrini erkin va asoslangan holda ayta olish ko‘nikmalari mustahkamlandi.

Bu esa taklif etilgan metodlar samaradorligini ko‘rsatadi.Boshlang‘ich sinflarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish — shaxs rivojining poydevori. To‘g‘ri tanlangan interfaol metodlar, rolli o‘yinlar, dialog texnikalari va raqamli vositalardan foydalanish muloqot madaniyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Kommunikativ kompetensiyasi rivojlangan o‘quvchi yuqori sinflarda ham yetuk, faol, jamoadagi o‘rnini biladigan, madaniyatli shaxs bo‘lib shakllanadi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni ularning tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi poydevor vazifasini bajaradi. Bu ko‘nikmalar nafaqat dars jarayonida, balki kundalik hayotda ham bola uchun mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan metodlar, o‘yin texnologiyalari va hamkorlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘quvchilarni o‘z fikrini qo‘rqmasdan aytishga, boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashishga va jamoaviy faoliyatda faollik ko‘rsatishga undaydi. Shuningdek, oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi bola nutqining ravonligi, muloqot madaniyati va o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi. Demak, boshlang‘ich ta’lim bosqichida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik yondashuv kelajakda barkamol, faol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Ta’lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot.
3. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha ilmiy qo‘llanmalar.
4. Psixolingvistika bo‘yicha ilmiy manbalar.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga doir tadqiqotlar

BOSHLANG‘ICH SINFLARGA ONA TILI O‘QITISHDA TASAVVURNING O‘RNI

Yo‘lchiboyeva Laylo Xafizovna-
Navoiy davlat Universiteti talabasi
Email: layloyolchiboyeva333@gmail.com

Annotatsiya

Ma’lumki, mavhum tafakkur tasavvur – hissiy bilishni o‘zida aks ettiradi. O‘quvchilar biror g‘oyaga ega bo‘lishlari uchun narsa-hodisalarning umumiy tomonlarini ham (mohiyatini) bilishlari shart. Bunday bilishda mantiqiy tafakkur hosil bo‘ladi. Mantiqiy bilishda inson mantiqiy tafakkur yordamida voqelikning rivojlanish qonuniyatlarini bilib oladi. Obyektning reallikni bilish dialektikasida sezgi va idrokning obrazlari mavhum tafakkurga qarab yo‘naladi. Mavhum tafakkur predmetning rivojlanish, o‘zgarish xususiyatlarini ochib beradi. Ushbu maqolada o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda tasavvurlarning roli alohida ahamiyatga ega ekani misollar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: tasavvur, malaka, ko‘nikma, tasvir, ta’rif, tafakkur, nutq, faoliyat, shaxs, ta’lim.

Аннотация

Известно, что абстрактное мышление отражает воображение – чувственное познание. Для того чтобы у учащихся возникло представление, они должны также знать общие стороны

(сущность) вещей и явлений. Такое познание формирует логическое мышление. В логическом познании человек с помощью логического мышления познаёт законы развития действительности. В диалектике познания действительности предмета образы ощущения и восприятия направлены на абстрактное мышление. Абстрактное мышление раскрывает особенности развития и изменения предмета. В данной статье на примерах показано, что роль воображения в развитии личности ученика имеет особое значение.

Annotation

It is known that abstract thinking reflects imagination - sensory cognition. In order for students to have an idea, they must also know the general aspects (essence) of things and phenomena. Such cognition forms logical thinking. In logical cognition, a person learns the laws of the development of reality with the help of logical thinking. In the dialectics of knowing reality of an object, images of sensation and perception are directed towards abstract thinking. Abstract thinking reveals the characteristics of the development and change of the object. This article shows, based on examples, that the role of imagination in the development of the student's personality is of particular importance.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning qiziqishlari, intilishlari hamda ularning obyektiv olamga bo‘lgan munosabatlar tizimini chuqur o‘rganmay turib, ta’lim sifatini ta’minlab bo‘lmaydi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, individualliligi, ular uchun qiziqarli bo‘lgan narsa, voqea, hodisalarni anglatuvchi va har tomonlama uyg‘un rivojlanishga yo‘naltirib boruvchi nutq shakllanishi lozim. Buning uchun esa o‘quvchilarning tasavvur darajalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. ~ 21 ~ Bilishning ilk bosqichi tasavvur bo‘lganligi uchun ham ona tili o‘qitishda mazkur mavzuni tanladik. Zero, tasavvur bilishning birinchi bosqichi bo‘lib, jonli mushohada shakliga kiradi. Shuning uchun ham o‘qitishda tasavvur hosil qilish ahamiyatli bo‘lib, uning yordamida olamning sir-asrorlari to‘g‘risida bilimlar hosil qilinib, u mavhum tafakkurdan aniq tafakkurga o‘tish bosqichi hisoblanadi. H.Shamsiddinov ayrimlik, xususiylik va umumiylik dialektikasining funksional-semantik sinonimlardagi ahamiyatiga to‘xtaladi, shuningdek, inson ruhiyatining ajralmas qismi bo‘lgan tasavvurlarning rolini alohida ta’kidlaydi. Insonda tasavvur keng bo‘lishi uchun o‘sha odamda denotatsignifikat munosabati bo‘lishi kerak. Masalan, ariqdagi suv hamda dengiz suvi haqida ta’rif berish topshirilsa, ariqdagi suv haqidagi ta’rif mukammal, aniq, asosli bo‘ladi. Biroq dengiz suvi haqidagi ta’rif to‘g‘ri va aniq bo‘lmaydi. Chunki dengiz suvi haqidagi tasavvur o‘quvchida (o‘zbekistonlik) kam ekanligidan dalolatdir. Misolga e’tibor beraylik: Ariqda shildirab oqayotgan suvga tikilib qaradim. Dengizdagi suvning jilvalanishi kishining havasini keltiradi Yuqoridagi gaplarni o‘qiganda tinglovchilarda suv haqida qanday tasavvur hosil bo‘lgani so‘raladi, so‘ngra har ikki gapdagi suvga ta’rif beriladi. Tabiiyki, o‘quvchi ariqdagi suvga to‘la ta’rif bera oladi, dengiz suvi haqida esa hammada ham tasavvur bo‘lmaydi. Uni o‘quvchi kitoblarda o‘qigan bo‘lishi mumkin, ammo uni tabiiy ravishda ko‘rmaganligi uchun ta’rif batafsil bo‘lmaydi. Chunki unda dengiz haqida tasavvur bo‘lmaydi. Tavsif va ta’rif berishda o‘quvchi va talabalarning borliq haqidagi dunyoqarashi kengayadi. Izohli lug‘atda berilishicha, Tavsiflamoq — sifat belgilarini bermoq, bayon etmoq, ta’riflamoq. Ta’riflamoq esa — a) narsa, voqea — hodisa va shu kabilarni og‘zaki yoki yozma ravishda bayon qilmoq; ta’rif qilmoq, tasvirlamoq, tavsiflamok; b) narsa, voqea-hodisa, tushuncha va shu kabilarning mohiyatini qisqa, aniq ifodalamoq. Ma’lumki, so‘zlovchi ana shu tushunchani ta’riflash natijasida uning mazmun-mohiyatini bilib boradi. O‘quvchi-talabada tasavvur ~ 22 ~ va fantaziya hosil qilishga o‘rgatish tafakkur rivoji uchun muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Tasavvur hosil qilishni quyidagicha tashkil qilish mumkin: Tasavvur qiling, siz ariq, dala bo‘yidasiz. Ariq va dalalarning ko‘rinishini, tabiatini tasavvur qiling. Ariq bo‘yida, qanday yurib borayotganingizni, u yerdagi o‘t-o‘lanlarni, chuqurlik va kengliklarni, ariq ichidagi va dala qo‘ynidagi jonzotlarni alohida-alohida tasavvur qiling. Endi sizning nigohingiz nimaga tushdi. Uni yaxshilab ko‘zdan kechiring. Sizga yaqin qolgandagi holatini tasavvur eting. Ularning hujayralari qanday ko‘rinishga ega. Endi o‘ylang: dalaning ko‘rinishi qanday? U kishiga zavq beradimi yoki qo‘rqinchlimi? Nega uning manzarasi shunday? Yer yuzidagi yana qanday kengliklarni bilasiz? Ulardan insoniyat ehtiyoji yo‘lida qanday foydalanish mumkin? Siz ariq va daraxtlarning tabiiy xususiyatlari haqida o‘ylang, foydaliligi haqida fikrlar bildiring. Tilshunoslikda bunday obyektlar qanday atama bilan yuritiladi, ularning tasnifi, etimologiyasi haqida ham o‘ylang? Yuqoridagi kabi

tasavvur hosil qilishda aqlning egiluvchanligi bunyod bo‘lib, “aqliy hujum” amalga oshadi, fikrlash jarayonlari harakatga keladi, g‘oyalar paydo bo‘ladi, bir qancha tushunchalar bilan bir vaqtda shug‘ullana olish, real peyzajni tasvirlash, cheksizlik haqida fikrlash uchun imkon yaratilib, ichki resurslar bilan ongli va maqsadli harakat qilinadi va aql mushaklari faoliyat ko‘rsatadi, natijada mustaqil fikrlash salohiyati rivojlanadi. Chunki subyektning bilishi va amaliy o‘zlashtirishi obyektiv harakat qonuniyatlaridan kelib chiqqani uchun ular bir-birlari bilan o‘zaro bog‘liqdir. Obyekt va subyekt munosabatlari birga olingandagina kishining tasavvur darajasi keng bo‘ladi, dialektik munosabat o‘z aksini topadi. Dialektik yondashuvda aniqlik, to‘g‘rilik namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining tanlagan metodi va usullarining xilma xilligi hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalana olish imkoniyatlari va tasavvurlari qanchalik boy bo‘lsa, ma’lum mavzu bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun tanlaydigan metod va usullar shunchalik jonli va muvaffaqiyatli bo‘ladi. ~ 23 ~ Ma’lumki, tasavvur inson ongining mahsuli bo‘lib, u borliqdagi barcha narsa-hodisalarning holati, mohiyati, sababi, miqdori, hayotga tatbiqi, amaliyotda, ilm-fanda tutgan o‘rnini belgilash qobiliyati hisoblanadi. Tasavvurda narsa va hodisalar idrok etiladi, xolos. Predmet va hodisalarning rivojlanishi, o‘zgarish qonunlarining, ya’ni ularning mohiyatini bilish, uni o‘rgatish ta’lim jarayonida muhimlik kasb etadi. Chunki bunda o‘rganuvchida mantiqiy bilish amalga oshadi. Mantiqiy bilishda inson tafakkuri borliqdagi predmet va hodisalarning izchil bog‘lanishlari va aloqadorliklarini, ularning harakat, o‘zgarish va rivojlanish qonunlarini ma’lum fikr shakllari – hukm, tushuncha va xulosa chiqarish kabilarda ifodalaydi. Bunday hissiy bilish obrazlari tafakkur uchun material bo‘lib xizmat qiladi. Tafakkur hosil qilgan aqliy bilimning bu fikriy shakllari tilda so‘zlar va gaplarda ifodalanadi. O‘quvchi-talabada tafakkur rivojlanishi uchun hodisaning mohiyatini anglashga o‘rgatish zaruriy masaladir. Ana shundagina to‘g‘ri fikrlash amalga oshadi, talaba o‘zida so‘zamollik san’atini mujassam etadi. Aytaylik, nega dalada biz ekkan urug‘lardan oldin yovvoyi o‘tlar chiqadi? Bu hodisaning mohiyatini quyidagi misol orqali ifodalash mumkin: Sezganmisiz, dunyodagi har bir tirik mavjudot, xoh-u inson bo‘lsin, xoh jonzot, mehr-muhabbatga talpinadi. Buni hatto o‘simlik dunyosida ham kuzatish mumkin. Bog‘bonning harakatisiz daraxt meva bermaganidek, dehqonning mehnatisiz yer gullamaydi. Kuzatuvlar asosidagi quyidagi tahlilga e’tibor beraylik: agar e’tibor bergan bo‘lsangiz, ekin ekilgan yerda birinchi bo‘lib yovvoyi o‘simliklar unib chiqadi, keyin esa boshqa ekinlar bo‘y cho‘zadi. Dehqonga esa, yovvoyi o‘simliklarni o‘tab, ekinlarning rivojiga ko‘maklashuv qoladi va buni biz dehqonchilik deb ataymiz. Ekkan ekinlarimiz bizning qarovimizsiz rivojlanmaydi, lekin yovvoyi o‘simliklar ko‘kka bo‘y cho‘zishdan bir zum tinmaydi. Nima uchun shunday? Chunki yovvoyi o‘simliklar yerning o‘z zurriyoti. U yerdan mehr, quyoshdan taft oladi. Ekilgan ekinlar esa faqat insonlardangina mehr oladi. Shuning uchun ham dehqonchilik ishi azal-azaldan og‘ir va murakkab sanalib kelgan. Eng muhimi, har ikki holatda ham mehnat, mehr aks etib turganini kuzatish va tasavvur qilish mumkin. Chunki xalqimizning turmush tarzida millatning ~ 24 ~ o‘zligi, o‘ziga xosligi va mentaliteti asosida bir narsa – mehrga yo‘g‘rilgan tarbiya yotadi. Ta’kidlaganidek, ta’limda tasavvur etish va anglash ruhiyatini singdirish ahamiyatga molik bo‘lgan ishlardan biri hisoblanadi. Chunki o‘zini anglagan, hodisaning mohiyatini bilgan kishida o‘zi uchun nima foydaliligi va u nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. Tasavvurlari keng bo‘ladi. Fikrlash qobiliyati ojiz bo‘lgan insonda esa tushuncha bo‘lmaydi. Misolga e’tibor beraylik: Bir odam maysalarim yaxshi o‘syapti, deb ularni bir-bir cho‘zg‘ilab chiqadi. Va uyga kelib: "Bugun juda charchadim. Maysalarga o‘sishlari uchun yordamlashdim”, - deydi. Uning o‘g‘li darhol maysalar tomon chopadi va ularning so‘lib yotganini ko‘radi. Ko‘rinib turibdiki, o‘qitishda mohiyat va hodisani anglatish ham zarur ishlarimizdan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki mohiyatni hodisadan ajrata bilish jarayonida to‘g‘ri va aniq fikr paydo bo‘ladi. Bunda nazariya va amaliyot birligi amalga oshadi. Tasavvur va ta’rif asosidagi dars ham zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga qaratilgandir. Bunday dars tashkil qilishning asl muddaosi o‘quvchi-talabalarni faollashtirishdan iboratdir. Faollashtirish yo‘l-yo‘riqlari: bahs-munozara, o‘ylanish, mushohada qilish uchun vaziyat yaratish, darsga detal (biror buyum) olib kirish kabi faoliyat usullaridan iboratdir. “Faoliyat-atrofni o‘rab olgan narsalarga inson munosabatining alohida shaklidir”. Faoliyatda 4 ta tarkibiy qism e’tirof etiladi: motiv, maqsad, vosita, natija. Bizningcha ham, subyektning faolligi mustaqil fikriga ega bo‘lishi, o‘quv motiviga bo‘lgan ehtiyoji, uning emotsiyasi, tasavvuri kabilar inson faoliyatida asosiy rol o‘ynaydi. Lug‘atlarda keltirilishicha, ”Tasavvur ijodiy va reproduktiv turlarga ham bo‘linadi.

Ijodiy tasavvurda voqelikda mavjud bo‘lmagan vaziyat va obrazlar ongda tiklanadi va qayta quriladi”. Birinchi Prezidentimiz “Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish” kitobida”...O‘zi mustaqil fikrga ega bo‘lish – bu nima degani? Bu, avvalo, ko‘p-ko‘p fikr va misollarni o‘zaro solishtirib, qiyoslab, ularning ichidan yakka-yu yagona to‘g‘ri haqiqatni ajratib ~ 25 ~ olish, uni o‘z ongiga singdirish, shundan xulosa chiqarib, yashashga qodir bo‘lish demakdir”– deya ta’kidlagan edilar. Haqiqatan ham zamonaviy pedagogik texnologiya asosida dars o‘tishda o‘qituvchi asosiy e’tiborni o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga e’tibor qaratmog‘i lozim. Chunki zamonaviy o‘qituvchi uchun har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkur, uslubiy bilim va malakalar bilan birga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos usul va vositalarini tanlay olishi, ishlab chiqishi, uni darsda qo‘llay olishi, faollik qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim va bunday qobiliyatni o‘quvchilarida ham mujassam etish uchun harakat qilmog‘i zarur. Faollik-o‘quvchilarda keng fikrlashni, bilimlarni puxta va chuqur o‘zlashtirishni, zarur malaka, ko‘nikmalarni rivojlantirishni, tafakkur, idrok, zehnlilik, ijodiy tasavvurlarni o‘stirish va tarbiyalashni ta’minlaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, ona tili darslarida fikrlashni rivojlantirish va ifoda etish ko‘nikmalarini hosil qilishda Amerika psixologi D.Ozbel asos solgan ongli verbal ta’lim yo‘nalishikognitivizm muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitivlik, verballik, kashfiyotchilik, onglilik hozirgi kunda ijodkor shaxs-ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning asosiy pedagogik-psixologik omillari sanaladi. Pedagogik texnologiya talabiga ko‘ra o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘ylantirishga, fikrlashga, mantiqiy xulosa chiqarishga,tasavvurlarini kengaytirishga, bir so‘z bilan aytganda, faollashtirishga alohida e’tibor bermog‘i kerak. Ma’lumki, ona tilini o‘qitish jarayoni amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish va amalga oshirishning o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Biz tajriba o‘tkazish jarayonida shu narsaga ishonch hosil qildikki, tasvir va tasavvur, ta’rif asosida dars tashkil qilish orqali o‘quvchilarni faollashtirish ona tili mashg‘ulotlarida keng qo‘llash mumkin bo‘lgan usullardandir.Tasavvur hissiy bilishning yuqori bosqichi bo‘lib, inson amaliy faoliyati natijasida maqsadga muvofiq ravishda hosil bo‘ladi. Tasavvurning ilmiy, badiiy, diniy shakllari mavjud bo‘lib ,u orqali fahmlash, ilmiy tajriba, modelning shakllanishi uchun g‘oya vujudga keladi, bu esa bilish uchun yordam beradi. ~ 26 ~ Tasavvur esa tasvir bilan uyg‘unlik hosil qilgandagina o‘quvchi nutqining o‘sishiga, tafakkurining rivojlanishiga, dialektik qonuniyatlarni tushunishga turtki beradi. Darsga behi guli (detal yoki uning surati) olib kiriladi hamda shu asosda talabalarda qanday tasavvur hosil bo‘lgani yoki tasvir haqidagi tushunchalari so‘raladi. Siz ushbu gulning paydo bo‘lishi, rivojlanishini qanday tasavvur etasiz, qanday tasvirlaysiz, ta’riflaysiz? – degan savollar bilan murojaat qilinadi va talabalarning javoblarida barcha fikrlar “Tasavvur va tasvir” degan jumlalar ishlatilishi kerakligi ta’kidlanadi. Yuqoridagi shartni amalga oshirish uchun shakl va mazmun, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif kabi dialektik birliklar qaror topmog‘i kerak. Insonning tafakkuri va uning rivojlanishi falsafa, psixologiya, lingvistika, logika fanlarining o‘rganish obyekti sanalar ekan, nutqiy jarayon ham fikr ifodalash holatlari ham, yuqoridagi fanlar bilan mustahkam aloqada va ular o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqdir. Shuning uchun o‘quvchilarda falsafiy mushohada qilish, mantiqiy izchillik asosida fikr ifodalash, ruhiy-hissiy holatlarni namoyon etish til orqali moddiylashadi. O‘quvchi falsafiy qonuniyatlarni yaxshi bilsa, uning fikrlashi, tafakkurining voqelashuvi ham talab darajasida bo‘ladi. O‘quvchilar o‘z faoliyatlari davomida ma’lum maqsad, vazifa hamda muammolarni qo‘yadilar. Shu paytda o‘qituvchining vazifasi maqsad va muammoni hal qilishning samarador yo‘lini topishga o‘rgatishdan iborat. Buning uchun dialektik qonuniyatlarga asoslangan holda tafakkur hosil qilishga o‘rgatish muhimdir. Dars jarayonida ko‘rgazmali qurol sifatida ko‘rsatilgan behi guli juda oddiy va jo‘n bo‘lishi mumkin. Ammo bunga dialektik munosabat bilan yondashmoq zarur. Chunki har bir narsa, predmet haqida gapirganda ilmiylik, zaruriylik, funksionallik nuqtayi nazaridan yondashmoq zarur. Behi guliga baho berish uchun o‘sha guldagi juda ko‘p tomonlar: qanday va qachon paydo bo‘lishi, gulning rangi, tinimsiz harakatda ekanligi, o‘zgarishda bo‘lishi, obhavo bilan bog‘liqligi, o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Har bir predmetni baholashda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun ana shu jihatlar o‘quvchining ko‘z o‘ngida bo‘lmas ekan, unga (behi guliga) baho berishda xatoga yo‘l qo‘yilaveradi. Buning uchun esa narsa va hodisaga dialektik yondashish zarurdir. Dialektik tafakkur, doimiy ~ 27 ~ paydo bo‘lish, o‘zgarish, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish doimiyligini inson faoliyati orqali isbotlashga harakat qiladi. Ana shularga e’tibor qaratgan o‘quvchi- talaba o‘z fikrida, nutqida kashfiyot qila oladi, yangi g‘oya bera oladi, chunki talabalar muammoni hal qilayotganlarida ularda

o‘ziga xos fikr paydo bo‘ladi. U bergan fikr o‘zligini anglashga, ijod qilishga yordam beradi. Talabalar dars maqsadi, vazifasini eshitganlaridan so‘ng o‘z fikrmulohazalarini aytadilar, bahs-munozara yuritadilar. Aytaylik, o‘qituvchi xulosa sifatida shunday fikr bildirishi mumkin: Bir dona behi guli turfa nigohlar og‘ushida turfa tasavvur uyg‘otish, turfa ohangda tovlanishi mumkin. Bu bizga arzimas va oddiy bo‘lib ko‘ringan narsa insonlarga lazzat baxsh etadi, shifobaxshlik xususiyatiga ega bo‘lib, dardlilarga darmon bo‘ladi. Uning shakli o‘zgarishi bilan mazmuni (mazasi) ham o‘zgaradi (shakl-mazmun), quyosh nurlarini sochishi bilan u gullaydi ,natijada meva tugadi (sabab va oqibat), miqdori o‘zgarishi bilan (kattalashib) sifati ham o‘zgaradi (miqdor va sifat)... Tasavvur va tasvir, ta’rif asosida dars o‘tish innovatsion ta’limga asoslangan modulli ta’lim texnologiyasi bo‘lib hisoblanadi. Fikrimizcha, innovatsion ta’limning yana bir talabi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrning bir obyektga (maysa atrofiga) to‘planishi, o‘sha obyekt haqida to‘la, mukammal ma’lumotlarni mushohada qilish va ifodalashdan iboratdir. Innovatsion harakatda ijodiylik texnologiyasi, shuningdek, avval olgan bilim, ko‘nikma, malakalarni yangi turda qo‘llash amalga oshiriladi. Bunday ta’limni amalga oshirish uchun fanlararo integratsiya masalasini ham o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ona tili va adabiyot darslarini qo‘shaloq holda olib borish, adabiyotdagi badiiy asarlarni, she’rlarning esa lisoniy tomonlarini o‘rgatish zarurdir. Tilni tafakkursiz, tafakkurni tilsiz rivojlantirib bo‘lmaydi. Binobarin, ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish uchun qilingan har bir ish ularning tafakkurini o‘stirish omili sanaladi. Tafakkurni o‘stirish omillaridan biri fikrlash jarayonida abstraksiyalash va umumlashtirishning o‘rni katta. Abstraksiyalash, tasavvur hosil qilish, xulosalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan nutq insonning haqiqatni anglash darajasini belgilaydi. ~ 28 ~ Xulosa qilib aytganda, tasavvur va tasvir asosidagi bilimlarning yaroqliligi o‘quvchilarning mazkur bilimlarni o‘z so‘zlari bilan ifoda etish darajasiga ko‘ra belgilanadi,ya’ni ta’rif etiladi.Chunki nutq predmetni ko‘proq bilishdan kelib chiqadi va rivojlanadi. Agar so‘zlovchi uni(predmetni) atroflicha o‘rganmagan bo‘lsa, bilimi kuchsiz va ishonchsizdir.Tasavvur etsa, tasvirlay oladi. Tasvirlash esa nutq orqali namoyon bo‘ladi.O‘quvchining tasavvur qilish darajasi nutq hosil qilish davomida real voqelikka aylanadi. Maqola davomida bildirilgan fikrlar quyidagicha xulosalash imkonini beradi: 1. Zamonaviy ona tili ta’limini rivojlantirishning yetakchi tendensiyasi nafaqat o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni egallashi, eng muhim intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, balki bola shaxsining umumiy rivojlanishi ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, buning uchun esa ular tasavvurlarini kengaytirish lozim bo‘ladi. 2. Ona tili darslarida o‘quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirishning amaliy jihatlariga ustuvorlik berish zarur. 3. Ona tili ta’limiga texnologik yondashuv o‘qituvchidan o‘quv mashg‘ulotiga tayyorlanish jarayonida juda ko‘p mehnat qilishni talab qiladi. Mazkur jarayonda o‘qituvchi har bir mavzu bo‘yicha o‘quv maqsadini oydinlashtirish, pedagogik vazifalarni to‘g‘ri qo‘yish, o‘quv faoliyati natijalarini aniqlashtirish, ta’limni tashkil etish shakl, metod va vositalarini to‘g‘ri tanlab olish, ijodiylikni ta’minlovchi faoliyatni aniq tartiblangan algoritmini ishlab chiqishi lozim. 4.Tafakkur o‘stirish omillaridan biri fikrlash jarayonida abstraksiyalash va umumlashtirishning o‘rni katta. Abstraksiyalash, tasavvur hosil qilish, xulosalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan nutq insonga haqiqatni anglash darajasini belgilaydi. 5. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchi tasavvurlarini kengaytirishning trening mashg‘ulotlari dasturini ishlab chiqish, uni takomillashtirish kutilgan natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shamsiddinov H. Funksional-semantik sinonimlarni yuzaga keltiruvchi psixolingvistik omillar. O‘zbek tili va adabiyoti, 1997. ~ 29 ~

2.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Moskva: Rus tili, 1981.

3.“Tarbiya” ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. 4.Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.

5.Ziyodova T.U., Xolmatova U.N., Jumaniyozova X.T. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002. 7.TulenovJ., G‘ofurov Z. Falsafa. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

6.Davronov Z. Dialektika – bilish uslubi. Ta’lim tizimida ijtimoiygumanitar fanlar, 2004.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Usmonova Zarnigor-
Navoiy davlat universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish hamda kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish haqida hamda o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin bayon etishlarida o‘qituvchining ko‘magi, darsni yangi usul hamda metodlar orqali tashkillashtirishning samarasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Matematik tafakkur, hisob-kitob, o‘yinli texnologiya, mantiqiy mushohada, ko‘rgazmali vosita.

ПУТИ РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития математического мышления у учащихся начальной школы, роль учителя в содействии свободному выражению мыслей учащихся, а также эффективность организации уроков с использованием новых методов и приемов.

Ключевые слова: Математическое мышление, расчет, игровые технологии, логическое мышление, наглядные пособия.

WAYS TO DEVELOP MATHEMATICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS.

Abstract: The article examines the development of mathematical thinking in primary school students, the role of the teacher in promoting the free expression of students' thoughts, as well as the effectiveness of organizing lessons using new methods and techniques.

Key words: Mathematical thinking, calculation, gaming technologies, logical thinking, visual aids.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tafakkurni shakllantirish ta’lim jarayonining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Aynan boshlang‘ich bosqichda o‘quvchining aqliy faoliyati, kuzatuvchanligi, mantiqiy mushohada yuritish, umumlashtirish va tahlil qilish kabi ko‘nikmalari shakllanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf matematika darslari nafaqat hisob-kitoblarni bajarish, balki bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur.

1. O‘yin texnologiyalaridan foydalanish

Matematik o‘yinlar kichik yoshdagi bolalarni mavzuga jalb qiladi, faol fikrlashga undaydi. Masalan:

“Kim tez?” – tez hisoblashga o‘rgatadi;

“Topishmoq masalalar” – tafakkurni faollashtiradi;

Konstruktiv o‘yinlar (kubik, lego) – fazoviy tasavvurni rivojlantiradi.

O‘yin orqali o‘quvchilar mustaqil qaror qabul qilishga o‘rganadilar va matematik fikrlash jarayoni tabiiy kechadi.

2. Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish

Ko‘rgazmalilik kichik yoshda asosiy metod hisoblanadi. Masalan:

•rangli tayoqchalar,

•sanash buyumlari,

•raqam kartochkalari,

•grafik ko‘rsatkichlar.

Ko‘rgazmali asos o‘quvchida predmetni bevosita his qilish va tushunishga yordam beradi. Shu orqali u matematik tushunchalarni mantiqqa asoslangan holda qabul qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda matematik tafakkurni rivojlantirish jarayoni muntazam, tizimli va didaktik asoslangan bo‘lishi zarur. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘yinlar, ko‘rgazmali vositalar, muammoli topshiriqlar va hayotiy misollar yordamida matematik

tafakkur samarali rivojlanadi. Natijada bolalarda nafaqat matematik bilim, balki mustaqil fikrlash, mantiqiy mushohada qilish va muammoning optimal yechimini topish ko‘nikmalari shakllanadi.

Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi,

ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi,

algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta’minlaydi va tafakkurini

kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, tevarak atrofdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’limning Matematika fani o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:

-o‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

-jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

-milliy, ma’naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

-o‘quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko‘nikmalar egallanishini ta’minlash;

-inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli qo‘llashga o‘rgatish;

-o‘quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

-fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o‘quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirishdan iborat.

Boshlang‘ich matematika kursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang‘ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. 6-10 yoshli bolalarining fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida

mas’ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang‘ich ta’lim metodikasining vazifalaridan biri o‘qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta’minlashda

o‘qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta’sirlarini jadallashtirishdan iborat.

Matematikadan boshlang‘ich ta’lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o‘qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) o‘z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlaming o‘zi yetarli emas. O‘qitishning ma’lum mazmuni va

o‘qituvchilaming aqliy faoliyati saviyasi bilan ta’sirlanadigan u yoki bu o‘quv yo‘nalishi uchun eng samarali usullarni qo‘llay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o‘zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun o‘quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish muhimdir. Nazariy bilimlardan amaliyotda foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli-tuman metodik masalalar hal etilishi lozim. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O‘qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o‘quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimining tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo‘lish talab etiladi.

Boshlang‘ich ta'lim metodikasi o‘qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o‘yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtayi nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o‘yinlardan foydalaniladi va o‘rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Bolalarni 6-7 yoshdan o‘qitishning mazmunida muammolar yuzaga keladi. Bu bog‘cha - maktablarda o‘qitish orqali hal etiladi. Sanoqni o‘rganish, qo‘shish va ko‘paytirishni birinchi bosqichda o‘rgatish (20 ichida) boshlang‘ich ta‘limning asosiy vazifasi bo‘lib

kelgan. Biroq, bu vazifa yagona bo‘lib qolmasdan, balki u bolalami matematikani o‘rganishga yanada kengroq va har tomonlama tayyor lash ishining tarkibiy qismi ikkita asosiy yo‘l bilan belgilanadi:

1) pedagogik yo‘l, ya’ni bolalar fikrlashini qo‘llaniladigan matematik

mulohazalarga tayyorlash;

2) matematika yo‘li, ya’ni bolalarni eng muhim matematik tushunchalarni va eng avvalo, natural son hamda geometrik shakl tushunchalarini o‘rganishga tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.E. Jumayev, Z.G‘.Tadjiyeva “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent – “Fan va texnologiya”-2005

2. Z. G‘aybullayeva “XXI asr o‘quvchisi uchun zarur ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi model – 4 K haqida”(17.08.2023) https://kun.uz

3.I.V. Repyova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I qism./– Toshkent : “Novda Edutainment”nashriyoti,2023. -128 b.

O‘QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINING ROLI

Zayniyeva Dildora Isomiddin qizi
Navoiy Davlat Universiteti 2-kurs magistranti
+998932537906 @dildorazayniyeva.gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirishda yangi avlod darsliklarining o‘rni hamda metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Ushbu maqola o‘quv jarayonida interaktiv yondashuv, kompetensiyaviy va muammoli ta’lim metodlarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Tadqiqotda zamonaviy darsliklarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni, shuningdek, til va tafakkur birligi tamoyiliga asoslangan pedagogik texnologiyalar misolida tahlil o‘tkazilgan.

Kalit so‘zlar: nutqni rivojlantirish, kreativ fikrlash, yangi avlod darsliklari, kompetensiyaviy yondashuv, metodik yangilanish, interaktiv ta’lim.

РОЛЬ УЧЕБНИКОВ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ РЕЧИ И ФОРМИРОВАНИИ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье рассматривается роль учебников нового поколения в развитии речевой активности и формировании креативного мышления учащихся. Автор анализирует методические возможности компетентностного, проблемного и интерактивного подходов. Особое внимание уделено коммуникативному потенциалу учебных текстов и взаимосвязи языка и мышления в образовательном процессе.

Ключевые слова: развитие речи, креативное мышление, учебники нового поколения, компетентностный подход, интерактивное обучение.

THE ROLE OF NEW GENERATION TEXTBOOKS IN DEVELOPING STUDENTS’ SPEECH AND CREATIVE THINKING

Annotation. The article analyzes the role of new generation textbooks in developing students’ speech and creative thinking. The author emphasizes the importance of interactive, competency-based, and problem-based learning approaches in improving communicative and critical abilities. The study reveals the methodological innovations that promote linguistic development and creativity among learners.

Keywords: speech development, creative thinking, new generation textbooks, competency-based approach, interactive learning.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutq madaniyati va kreativ tafakkurini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Chunki bugungi kunda ta’lim sifati faqat bilim hajmi bilan emas, balki o‘quvchining mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyati bilan belgilanmoqda [1: 24.].

Shu nuqtai nazardan, yangi avlod darsliklari nafaqat axborot manbai, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi pedagogik vosita sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5100-son qarorida ta’lim mazmunini yangilash, darsliklarning zamonaviy kompetensiyalar asosida yaratilishini ta’minlash masalalari alohida belgilangan [2: 3.]. Yangi darsliklar o‘quvchilarni o‘qituvchi yordamida emas, balki mustaqil izlanish orqali bilim olishga yo‘naltiradi. Masalan, o‘quv topshiriqlarida;

– fikrni davom ettir,

– ijodiy yechim top,

– bahsni asosla kabi topshiriqlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Til – inson tafakkurining tashqi ifodasi, muloqot vositasi va ijtimoiy tajriba akkumulyatori sifatida nutqiy rivojlanishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu sababli darsliklar faqat bilim beruvchi manba emas, balki o‘quvchining nutqiy faolligi, muloqot madaniyati va kommunikativ kompetensiyasini shakllantiruvchi didaktik vosita sifatida ham qaralishi kerak.

Zamonaviy darsliklarda berilayotgan:

– o‘ylang,

– juftingiz bilan muhokama qiling,

– sinf bilan baham ko‘ring; kabi topshiriqlar kommunikativ yondashuvga asoslangan bo‘lib, o‘quvchini fikrni mustaqil shakllantirish, og‘zaki ifodalash, bahs-munozara jarayoniga qo‘shilish bosqichlariga yo‘naltiradi. Bunday mashqlar nutqiy malakalarni avtomatik rivojlantirmaydi, balki: o‘quvchini fikrlashga majbur qiladi; o‘z fikrini izchil, mantiqiy va asosli bayon qilishga undaydi; tinglash va javob berish madaniyatini shakllantiradi; erkin muloqotga, bahslashishga, dalil keltirishga o‘rgatadi; eng muhimi, o‘quvchini passiv tinglovchidan - faol suhbatdoshga aylantiradi [4: 68.].

Kreativ fikrlash – bu mavjud bilim va tajribalar asosida **yangi, noodatiy g‘oya yoki yechim yaratish qobiliyati** bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning eng muhim kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsion pedagogik yondashuvlar kreativ tafakkurni rivojlantirishga keng imkoniyat yaratmoqda.

Darslik va o‘quv jarayoniga **vizual, muammoli va loyiha asosidagi topshiriqlar** kiritilishi o‘quvchining faqat bilim egallashiga emas, balki mustaqil izlanish, tahlil, yaratish va sintez qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Masalan**: “Klaster” usuli**ga nazar soladigan bo‘lsak, o‘quvchilar ongida mavjud tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarni topish va yangi g‘oyalar yaratishga yordam beradi.

“Aqliy hujum” usuli esa, erkin fikr almashish, bir nechta yechimlar yaratish va ularni baholash orqali kreativ yondashuvni rag‘batlantiradi.

Bundan tashqari, **multimedia, virtual laboratoriyalar, 3D modellashtirish, interaktiv platformalar** kabi texnologiyalar o‘quvchilarni mavzu bilan faol muloqotga kiritadi, ularning tasavvuri, tafakkuri va innovatsion fikrlashini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, yangi avlod darsliklari zamonaviy ta’lim jarayonida faqat bilim beruvchi manba emas, balki **o‘quvchi shaxsini rivojlantiruvchi intellektual va tarbiyaviy tizim** sifatida qaralishi lozim. Bunday darsliklar o‘quvchining **nutqiy faolligini, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini, kreativ tafakkurini va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmalarini** shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matchonov S. va boshq. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2021. – 642 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5100-son qarori. “Ta’lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2021.
3. Mug‘aliyev A.K. Fizika darslarida 5E model asosida kompetensiyaviy yondashuvni tadbiq etish. – TDPU ilmiy ishlari to‘plami, 2019. – B. 51–57.
4. Saidov U., Mavlonova R. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 216 b.
5. Bekpo‘latov U. Ijodiy fikrlash va tanqidiy tafakkur: nazariya va amaliyot. – Navoiy: NDU nashriyoti, 2024. – 184 b.
6. Baxtiyor Mengliyev, Sharofat Toshmirzayeva, Saodat Atoyeva, Saida Majidova, Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11- sinfi uchun darslik, “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent–2020;, 26-30-betlar.
7. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innavatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2017.73-79-betlar.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH SHAKLLARI

Mamirova Zulxumar Narbayevna.
NDU o‘qituvchi.

Аннотация: Mazkur maqolada, boshlang‘ich sinfda matematika fanini o‘qitishni tashkil qilishda sinfdan tashqari ishlarning mohiyati va uning shakllari to`g`risida ma`lumot berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о сущности и формах внеклассной работы в организации преподавания математики в начальных классах.

Annotation: This article provides information on the essence and forms of extracurricular activities in organizing the teaching of mathematics in primary grades.

Калит сузлар: Boshlang‘ich sinf, matematika, sinfdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari tadbirlar, tanlovlar va olimpiadalar, ekskursiya.

Ключевые слова: Начальная школа, математика, внеклассная работа, внеклассные мероприятия, конкурсы и олимпиады, экскурсии.

Keywords: Primary school, mathematics, extracurricular activities, extracurricular activities, competitions and olympiads, excursions.

Bolalarda qo‘rquvning paydo bo‘lishiga u yashaydigan va tarbiyalanadigan turli xil mikro va makro muhitlar ta'sir qiladi. Bunday omillar, birinchi navbatda, ota-ona munosabatlarining xususiyatlari va tarbiya uslubini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchi olimlarimizdan N. N. Avdeeva va Yu. A. Kochetova maktabgacha yoshdagi bolalarda qo‘rquv paydo bo‘lishida ota-ona va bola munosabatlarining hissiy yaqinlikning yo‘qligi, ota-ona tomonidan bolani rad etish, shuningdek, ota-

ona munosabatlarida yuqori darajadagi tashvish kabi xususiyatlar muhimligini ko‘rsatdi [2:24.]. Y. N. Gut, S. V. Shkilev, N. N. Doronina va E. I. Ziborova tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda avtoritar tarbiya sharoitida bolalar turli xil qo‘rquvlarning shakllanishiga eng zaif ekanligi ko‘rsatildi[4:213.].N.A.Sergunicheva giperproteksiya sharoitida tarbiyalangan o‘g‘il bolalar (bolaga nisbatan haddan ziyod mehribonlik ya’ni giperproteksiya e’tibor ko‘rsatilgan oilada bola “Meni sevishadi va men kerakman, ular meni deb yashashadi”,-degan tasavvurlar mavjud bo‘ladi. Giperproteksiya- ota-onaning bolasiga haddan ziyod e’tiborli bo‘lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun haddan ortiq vaqt, kuch va e’tiborni ayamasliklari bilan belgilanadi[1:229.]. Tengdoshlariga qaraganda kamroq qo‘rquvga ega ekanligini aniqlashga muvaffaq bo‘ldi. N. A. Sergunichevaning so‘zlariga ko‘ra, qizlarda qo‘rquvni shakllantirish uchun tarbiyaning bunday xususiyatlari, masalan, onalarning bolaga o‘zlarining istalmagan marosimlarini proektsiyasi va ota-onalarning his-tuyg‘ulari doirasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega va qizlarning tashvishi giperprotektsiya sharoitida pastroq bo‘ladi[5:24.].

I. V. Koltsova va V. V. Dolganinaning ishida simbioz kabi bolalar va ota-onalar munosabatlarining salbiy shakllari o‘rtasidagi bog‘liqlik isbotlangan, gipersotsializatsiya, rad etish, “kichik yutqazuvchi” tipidagi ta'lim va bolalarda “hayotiy” va “maktab” qo‘rquvlarining shakllanishi[4:56.].

Bolalar tarmoqlarini shakllantirish uchun muhim bo‘lgan omillarning ikkinchi guruhi ota-onalarning individual psixologik xususiyatlaridan iborat bo‘lib, ular orasida birinchi navbatda tashvish va o‘z qo‘rquvlarini nomlash kerak. Ushbu omillarning ta’siri mahalliy va xorijiy mualliflarning asarlarida ko‘p marotaba isbotlangan[3:212.].

Ma’lum bo‘lishicha, qo‘rquvning qo‘zg‘atuvchisi bolaning o‘z tajribasi yoki qizning ommaviy axborot vositalaridan olgan ma'lumotlari emas, balki ta'lim tashkilotlarida o‘tkazilgan ko‘plab evakuatsiya mashg‘ulotlari va kattalarning tegishli tashvishli xatti-harakatlari edi.

Agar ota-onalar yoki boshqa muhim kattalar bolaning xavfsizligi kafolati sifatida harakat qilish o‘rniga, o‘zlari qo‘rqsalar va trevoga ko‘tarilsa, bola ota-onalar bilan bir xil narsalar va hodisalardan qo‘rqishni boshlaydi.

Bolalardagi qo‘rquv holatlarini bartaraf etish uchun quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin:

1. Biz do‘stni ixtiro qilamiz va chizamiz.

Farzandingizdan so‘rang: “sizningcha, kim hech kimdan qo‘rqmaydi?”.
Bola javob berganida, “keling, uni chizishga harakat qilaylik”deb qo‘shing.

2.Qo‘rquv qayerda yashaydi?

Farzandingizga turli o‘lchamdagi bir nechta qutilarni taklif qiling,
”Iltimos, qo‘rquv uchun uy quring va uni mahkam yoping”deb ayting.

3. Agar men katta bo‘lganimda.

Farzandingizni ulg‘ayganini tasavvur qilishga taklif qiling. “O‘zingiz voyaga yetganingizda bolalarda qo‘rquvni qanday quvib chiqarasiz?”

Yuqorida bayon etilgan fikrladan shuni xulosa qilish mumkinki, maktabgacha yosh davrida bolalarda namoyon bo‘ladigan turli hissiy - kechinmalar paydo bo‘lishi tabiiy holat hisoblanadi, lekin buni oldini olish mumkin albatta.Qo‘quv turli omillar natijasida paydo bo‘lishi va buni oldini olish ota-onalar va katta yoshdagi insonlaning sa’yi-harakatlariga bog‘liq. Ma’sul shaxslar biz tavsiya etgan o‘yinlargan foydalanishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva D., Yorqulov R., Atabayeva N. Oila psixologiyasi T.: 2015., 229-bet.
2. Психология детско-родительских отношений Saratov-2022.
3. Xurvaliyeva T.L Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotir va emotsional zo‘riqishni bartaraf etish omillari.Irnational scientific-practical conference “Preschool education: quality and efficiency, development perspectives”, december 4-5, 2024.
4. Диагностика и коррекция детско-родительских отношений : учебное пособие / под редакцией О. В. Токарь, О. А. Усанова. – 3-е издание, стереотипное. – Москва : Флинта, 2019.– 48 с. – ISBN 978-5-9765-2012-7. – URL: https://e.lanbook.com/book/122697 (дата обращения: 18.04.2022). – Режим доступа: для зарегистрированных пользователей. – Текст: электронный.

МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ МАТЕМАТИКИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ (НА ПРИМЕРЕ 1-2 КЛАССОВ)

Хамдамова Дилновоз Тошмурадовна-
магистрант 1 курса Навоийского Государственного Университета направления "Теория и методика обучения и воспитания (Начальное образование)" nissah2908@gmail.com
Джураева Гулшаной Турдиевна,
старший преподаватель кафедры начального образования
кандидат педагогических наук (PhD), доцент и. о.
jurayevagulshanoy1@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы и практические возможности использования интегративного подхода в обучении математике в начальной школе. Обосновываются методические решения, направленные на организацию процесса интеграции, обеспечение межпредметной связи, развитие функциональной грамотности обучающихся и повышение эффективности уроков. Результаты исследования демонстрируют важность интегративного подхода для активизации учебного процесса, направления учащихся на практическую деятельность и развития их математического мышления.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations and practical possibilities of using an integrative approach in teaching mathematics in primary school. Methodological solutions aimed at organizing the integration process, ensuring interdisciplinary communication, developing students' functional literacy and increasing the effectiveness of lessons are substantiated. The results of the study demonstrate the importance of an integrative approach to enhance the educational process, direct students to practical activities and develop their mathematical thinking

Ключевые слова: интегративный подход, начальное образование, урок математики, межпредметная связь, методика, компетентностный подход.

Современный образовательный процесс основывается на межпредметной связи и комплексном подходе. В начальных классах интегративный подход играет особенно важную роль в повышении эффективности уроков математики, поскольку он формирует у учащихся не только математические знания, но и умения применять их в реальных жизненных ситуациях. Кроме того, интеграция обогащает содержательную сторону учебной деятельности, обеспечивает диалектическое единство предметов и положительно влияет на когнитивное развитие учеников.

Эффективная организация уроков математики в начальной школе способствует формированию у учащихся важных компетенций, таких как логическое мышление, наблюдательность, анализ и решение практических задач. В последние годы внимание привлекает применение интегративного подхода, основанного на межпредметной взаимосвязи, поскольку он активизирует учебную деятельность, способствует целостному усвоению знаний и глубокому пониманию жизненного содержания математических понятий. Особенно важно в обучении учащихся 1–2 классов связывать абстрактные понятия с реальными предметами и процессами, что способствует более глубокому усвоению материала.

Интегративный подход основан на взаимодополнении и объединении содержания различных предметов, что способствует всестороннему развитию личности учащегося. Такой подход позволяет использовать материалы математики вместе с родным языком, окружающим миром, изобразительным искусством, технологией и другими предметами как единую дидактическую систему. В результате ученик начинает понимать не только математические закономерности, но и их роль в реальной жизни. Это помогает формировать у учащихся понимание практической значимости знаний, самостоятельное мышление и творческий подход.

Задачи формирования математических представлений у учеников начальных классов на основе интегративного подхода включают:

1. Определение актуальности темы методики формирования математических представлений у начальных школьников на основе интегративного подхода и обоснование необходимости её изучения;

2. Изучение и сравнительный анализ учебников, пособий, монографий и диссертаций, посвящённых данной теме;

3. Исследование деятельности учёных и специалистов, занимающихся формированием математических представлений у младших школьников на основе интегративного подхода, выявление неосвоенных аспектов.

Организация уроков математики на основе интегративного подхода в начальных классах, особенно в 1–2 классах, даёт ряд преимуществ. Например, интеграция с родным языком позволяет учащимся одновременно развивать счёт и речь, выполняя задания на чтение текстов с математическим содержанием, нахождение фигур, составление и описание предложений.

Интеграция с изобразительным искусством способствует развитию творческих способностей учеников. Например, в процессе создания изображений различных предметов из геометрических фигур ученик запоминает свойства фигур, выбирает их, считает и переводит в математические выражения. На занятиях, связанных с технологией (трудом), дети изготавливают из бумаги различные формы, группируют их, располагают последовательно, таким образом практикуя навыки сложения, вычитания и даже умножения.

Результаты опытно-экспериментальной работы показывают, что уроки, организованные на основе интегративного подхода, значительно повышают математические знания и умения учеников. В частности, у учащихся 1–2 классов заметно улучшаются навыки счёта, уровень понимания тем, и активность в учебном процессе значительно возрастает. Кроме того, они регулярно анализируют, сравнивают, наблюдают, размышляют и аргументируют свою точку зрения. Это подчёркивает важность интегративного подхода для повышения эффективности уроков математики.

Подводя итог, можно сказать, что организация уроков математики в начальных классах на основе интегративного подхода обогащает содержание учебного процесса, развивает способность учеников целостно воспринимать знания, повышает интерес к предмету и позволяет связывать математические понятия с реальной жизнью. Интеграция в 1–2 классах является эффективным средством формирования математической грамотности, а также важным элементом развития мышления, творчества и самостоятельной учебной деятельности.

Список использованных источников

1. Муродова М.М. Начальное образование на основе интегративного подхода в организации уроков // Экономика и социум. 2022. №12-1 (103).

2. Алламуратова С.Б. Интеграция математики с другими предметами в начальной школе // Vol. 3 No. 1 (2025): «Принципы устойчивого развития» Республика научно-практическая конференция, 2025.

3. Каххоров С. К., Хаитов У. Х. Инновационные технологии на уроках математики начальных классов: учебное пособие / С.К.Каххоров, У.Х.Хаитов. . – Бухара: «Sadriddin Salim Bukhari» Дурдона, 2022. – 184 с.

4. Усаров С. Факторы формирования логической грамотности у будущих учителей математики. 5-я Международная конференция по исследованиям в гуманитарных, прикладных науках и образовании, 2022.

5. Муродова М. М. Педагогическая деонтология и компетентность в деятельности будущих учителей начальных классов // Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 90-97.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ONA TILI DARSLARIDA HUSHMUOMALALIKNI SHAKLLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI

Навоийский государственный университет
Факультет:Дошкольного и начального образования
Направление:Теория и методика обучения и воспитания (начальное образование),
магистрант 1 курса
Автор: **Суярова Гулхаё Комил кизи**
Телефон: +998 93 955 5988
E-mail: sgulxayo689@gmail.com
Научный руководитель:
f.f.d доцент**:Алимова Шахноза Шукуровна**

Аннотация

Статья посвящена разработке интегративной модели формирования языковой вежливости у младших школьников на уроках родного языка. Рассматриваются теоретические основы, цели и задачи модели, методы и формы работы, а также ожидаемые результаты. Основной акцент сделан на объединении обучения родному языку с воспитательными аспектами, направленными на развитие коммуникативной компетенции,. уважительного общения и речевой культуры учащихся.

Ключевые слова: родной язык, младшие школьники, языковая вежливость, интегративная модель, воспитание, коммуникативная компетенция.

Annotatsiya

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili darslarida nutq odobini shakllantirishning integrativ modelini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Maqolada modelning nazariy asoslari, maqsad va vazifalari, metod va ish shakllari hamda kutilayotgan natijalar ko‘rib chiqilgan. Asosiy e’tibor ona tilini o‘qitish jarayonini tarbiyaviy jihatlar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu orqali o‘quvchilarning muloqot madaniyati va hurmatli so‘zlashish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, nutq odobi, integrativ model, tarbiya, muloqot kompetensiyasi.

Integrative model for developing linguistic politeness in primary school students during native language lessons.

Abstract

The article is devoted to the development of an integrative model for the formation of language politeness among primary school students in native language lessons. The theoretical foundations, goals and objectives of the model, methods and forms of work, as well as the expected results are discussed. The main focus is on combining native language teaching with educational aspects aimed at developing students’ communicative competence, respectful communication, and language culture.

Keywords: native language, primary school students, language politeness, integrative model, education, communicative competence.

Современное образование в начальной школе предполагает не только развитие интеллектуальных способностей, но и формирование нравственных, коммуникативных и социальных компетенций. Одним из способов реализации этих целей является интеграция учебных и воспитательных задач на уроках родного языка. Формирование языковой вежливости помогает младшим школьникам развивать навыки корректного общения, умение выражать свои мысли уважительно и адекватно реагировать на поведение окружающих.

Интегративная модель опирается на следующие педагогические подходы:
1. Личностно-ориентированный подход — учет индивидуальных особенностей каждого ребёнка.
2. Системно-деятельностный подход — обучение через активное участие, практическую деятельность и решение коммуникативных задач.

3. Коммуникативная педагогика — развитие навыков общения, внимание к речевым нормам и этическим принципам.

Для формирования языковой вежливости у младших школьников на уроках родного языка используются разные приемы: обучение «волшебным» словам (приветствие, благодарность, извинение, просьба), составление диалогов, использование сказок и фольклорных материалов, а также наблюдение за общением и выход в практику. Учитель должен постоянно практиковать правила речевого этикета и работать над тем, чтобы вежливые слова использовались постоянно, а не только во время уроков.

Интегративная модель — это система, объединяющая различные методы и подходы для формирования у младших школьников навыков этичного и вежливого общения на родном языке.

Цель модели — не только обучить грамматике и лексике, но и развивать способность детей правильно, уважительно и культурно общаться в социальной и культурной среде.Развитие навыков вежливого общения на уроках родного языка.

Формирование у детей навыков сотрудничества и уважения в социальных взаимодействиях. Интеграция лексики, грамматики и культуры общения в учебный процесс.

Основные элементы модели

1.Методы обучения: интерактивные игры, ролевые игры, диалоги, решение проблемных ситуаций.

2.Социальная и культурная среда: применение этических норм в школе, семье и с друзьями.

3.Учебные средства: книги, карточки, мультимедиа, наглядные пособия.

4.Оценка и наблюдение: оценка уровня вежливого общения и навыков этического поведения детей.

Ожидаемые результаты

Учащиеся смогут вести уважительный и этичный диалог на родном языке.

Развитие навыков сотрудничества и эмпатии у детей.

Повышение интереса и вовлеченности в учебный процесс через интерактивные методы

Интегративная модель позволяет эффективно сочетать развитие языковых и социальных навыков, что важно для личностного и социального формирования младших школьников. Она является ценным инструментом в процессе обучения родному языку.

Цели и задачи модели

Цель: формирование навыков языковой вежливости у младших школьников в процессе изучения родного языка.

Задачи:

- Развитие корректной и уважительной речи;
- Воспитание моральных и этических норм;
- Формирование коммуникативной компетенции;
- Укрепление уверенности в общении с окружающими.

Методы и формы работы

1. Интегрированные уроки с элементами ролевых игр и анализа текстов.
2. Практические упражнения в парах и малых группах для закрепления речевых форм вежливости.
3. Обсуждение ситуаций из повседневной жизни с акцентом на этикет и уважение.

Психологические аспекты

Эмпатия и эмоциональный интеллект способствуют пониманию социальных норм;

Ролевая игра развивает способность к самооценке и самоконтролю;

Использование фольклора формирует культурное и нравственное мировоззрение

Ожидаемые результаты

- Повышение уровня речевой культуры;
- Развитие коммуникативных и социальных компетенций;
- Формирование устойчивых навыков уважительного взаимодействия;
- Усиление интереса к изучению родного языка через интеграцию с воспитательными

задачами.

Интегративная модель формирования языковой вежливости является эффективным инструментом для развития у младших школьников как речевых, так и нравственных компетенций. Она сочетает обучение родному языку с воспитательными элементами и может быть успешно применена в практике начального образования через систематические интегрированные уроки, ролевые игры и коммуникативные упражнения.

Список литературы

1. Абдигапбарова У., Кидирбаева С. — Педагогика: основы теории и методики обучения. — Ташкент: 2020. — С. 45–67.

2. Джумабаева Р. — Развитие творческих способностей учащихся в начальной школе. — Ташкент: Фан, 2019. — С. 32–58.

3. Курманалина Л. — Методика преподавания родного языка в начальной школе. — Ташкент: Университет, 2021. — С. 12–40.

4. Назарова Г. — Формирование коммуникативной компетенции младших школьников. — Ташкент: Просвещение, 2018. — С. 50–72.

5. Сидорова И. — Воспитание и развитие навыков вежливой речи у младших школьников. — Москва: Педагогика, 2020. — С. 15–38.

6. Хусанов А. — Интеграция учебных и воспитательных задач в начальном образовании. — Ташкент: Фан, 2019. — С. 25–49.

7. Чулпанова М. — Коммуникативная педагогика в начальной школе: теория и практика. — Санкт-Петербург: Речь, 2021. — С. 70–95.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IQTIDOR NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ermatova Gulnoz Pirimovna(O‘zbekiston)
Navoiy davlat universiteti dotsenti
Isroilova Rayhona Asqar qizi (O‘zbekiston)
Navoiy davlat universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtidorni rivojlanishi va uni aniqlash, iqtidorlilik strukturasi va faktorlarini rivojlanishini uni diagnostika qilish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: iqtidorlilik strukturasi va faktorlari, diagnostika, aqliy aktivlik, aqliy o‘sish, maxsus qobiliyatlar, umumiy intellektual, akademik iqtidor.

Аннотация: в данной статье представлена информация о развитии таланта у детей дошкольного возраста и его выявлении, структуре и факторах развития таланта и его диагностике.

Ключевые слова: структура и факторы одаренности, диагностика, умственная деятельность, умственное развитие, специальные способности, общий интеллектуальный, академический талант.

Abstract: this article provides information about the development of talent in preschool children and its identification, the structure and factors of talent development and its diagnosis.

Key words: structure and factors of giftedness, diagnostics, mental activity, mental development, special abilities, general intellectual, academic talent.

Bugungi kunda barcha mamlakatlarda bolalar iqtidorini aniqlash va uni rivojlantirish muammosi dolzarb sanaladi.Sh jumladan Respublikamizda ham makrabgacha yosh davridan boshlab bolalar iqtidorini to‘g‘ri rivojlantirsh asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Iqtidor masalasi muatafakkirlarimiz asarlarida ham asosiy o`rin olgan. Masalan, Y.B.Gippenreyter “Iqtidor tabiat inomi bo‘lmaydi. Iqtidor faqatgina ta’lim-tarbiya va bolaning doimo qandaydir faoliyat bilan shug‘ullanishi natijasidir”, degan fikrlar bildirgan[3].

Bolalardagi iqtidor belgilarini aniqlab olishdagi qiyinchilik shundaki, ulardagi yoshga bog‘liq bo‘lmagan individual xususiyatlarni shunchaki ajratib olish qiyin. Masalan, boladagi yuqori aqliy aktivlik – bu aqliy o‘sishning ichki shartidir.bu keyingi yosh davrlarida ham barqaror saqlanib qolish yoki qolmasligi noma’lum. Boladagi ijodiy intilishlar, muammoga yangicha yondoshuv ham iqtidordan dalolat bergani bilan uning keyingi taraqqiyot noma’lum. Shuning uchun ham bolalar erta namoyon bo‘lgan iqtidor hali uning kelajakdagi imkoniyatlarini belgilab bera olmaydi.

Bola iqtidorini aniqlash – murakkab vazifa bo‘lib, bunda har tomonlama psixologik tekshiruvlarning natijalari va bolaning ota-onasi, o‘qituvchilari, tengdoshlaridan olingan so‘rovnoma orqali uni maktab va maktabdan tashqari yutuqlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish zarur. Biroq, iqtidorlilik strukturasi va faktorlarini rivojlanishini bunda kompleks diagnostika qilish ko‘pgina nazariyalarda ochib berilsa ham muammoli bo‘lib qolmqoda. Ko‘pgina tadqiqotchilar dastlabki yuqori IQ muvaffaqiyatga erishishning yagona mezoni sifatidagi tasavvurlaridan voz kechib, iqtidorni rivojlanishidan ijodiy potensial va shaxsiy xususiyatlarni, qiziqish va maxsus qobiliyatlarini, qolaversa ijtimoiy sharoitlarning rolini namoyish etishdi. Ko‘pgina iqtidorlilik konsepsiyalarida uni rivojlanishini kerativlik sifatida aniqlab ijodiy imkoniyatlar va qobiliyatlar bilan bog‘laydilar. Iqtidorli, bolalar o‘zlarida qobiliyat bo‘lgan faoliyat bilan band bo‘lishga intiladi. Ular o‘zlari yoqtirgan ish bilan kunlab shug‘ullansalar ham charchamaydilar. Bu ish ular uchun bir vaqtda o‘yin va mehnatdir. Ularning barcha kechinmlari, qiziqishlari, izlanishlari muammolari mana shu ish atrofidadir.

Bolalarda iqtidor ko‘rinishlari turlicha bo`ladi. Iqtidorli bolalar bir-birlaridan iqtidor ko‘rinishlariga qarab tubdan farqlanadilar. Iqtidor turlari quyidagilar:

Badiiy iqtidor. Iqtidorning bu ko‘rinishi maxsus maktablar, to‘garaklarda qo‘llab quvatlanadi va rivojlanadi. Bunda badiiy ijod va musiqa ijrochiligi, tasviriy san’at, xaykaltaroshchilik, aktyorlik qobiliyatlari yuqori darajada bo‘ladi. Muhim muammolardan biri bunday bolalarni umumta’lim maktablarida tan oladilar va hurmat qiladilar. Bunday bolalar o‘z sohalarida yuksak cho‘qqilarga erishishi uchun ko‘p energiya sarflaydilar. Ularda fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi uchun vaqt yetmaganligi bois o‘qituvchi va tengdoshlarini ularni tushunishlari va individual maktab dasturlari zarur bo‘ladi.

Umumiy intellektual va akademik iqtidor. Bu tipdagi iqtidorli bolalar asosiy tushunchalarni va ma’lumotlarni tez va oson eslab qoladilar. Informatsiyalarni qayta ishlash qobiliyatining yuqoriligi ularga ko‘pgina bilimlarni egallash imkonini beradi. Akademik iqtidor uchun fanlardan muvaffaqiyatli ta’lim xosdir.Bunday bolalar o‘zlari muhim deb hisoblagan matematika, xorijiy til, fizika yoki biologiya fanlaridan oson o‘zlashtirib, muhim deb hisoblamagan fanlaridan qiyinlik bilan o‘zlashtiriladilar. Ularning bunday tanlovlari maktab, oilada muammolar tug‘dirish mumkin. Ota-onalar va o‘qituvchilar bola barcha fanlarni bir xil o‘zlashtirilmaganidan norozi bo‘ladilar.

Ijodiy iqtidor. Hozirgacha iqtidorlilikni ushbu tipini ajratish borasida baxslar ketmoqda. Bunga quyidagilar sabab bo‘lmoqda. Ayrim mutaxassislar ijod kreativlik barcha turdagi iqtidorning ajralmas qismidir deb hisoblaydilar. Masalan, A.M.Matyugikin iqtidorlikning faqat bir ko‘rinishi bor – ijodiy: agar ijodiylik bo‘lmasa, iqtidor haqida gapirishdan ma’no yo‘q. Boshqalar esa ijodiylikni iqtidorning mustaqil ko‘rinishi sifatida borligini tan oladilar.

Shu bilan bir qatorda ijodiy yo‘nalishga ega bo‘lgan bolalar o‘qituvchilari va atrofdagilarda samimiy emotsiyalarni uyg‘otuvchi quyidagi harakterga ega ekanliklarini ta’kidlashadi:

- ❖ sharoit va avtoriyetetga nisbatan befarqlik;
- ❖ muhokamalarda haddan ziyod mustaqillik;
- ❖ nozik xazil xissi;
- ❖ yaqqol temperament.

Ijtimoiy iqtidor. Ijtimoiy iqtidor boshqa insonlar bilan konstruktiv o‘zaro aloqalarni o‘rnata olish qobiliyatida ko‘rinadi. Ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy xulq, axloqiy muxokama, tashkilotchilik qobiliyati kabi tarkibiy elementlari bor. Ijtimoiy iqtidor bir necha sohalarda muvaffaqiyat qozonishni ta’minlaydi. U boshqalarni tushunish, sevish, hamdardlik qilish, umuman olaganda yaxshi psixologik, pedagogik, ijtimoiy xodim bo‘lish uchun zarur bo‘lgan sifatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Demak, ijtimoiy iqtidor o‘zaro shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy iqtidorning bir ko‘rinishi liderlik iqtidoridir.

Liderlik iqtidor. Liderlik iqtidorning ko‘pgina xususiyatlari bor:

- ❖ o‘rtadan yuqori intellekt;
- ❖ qaror qabul qilish ko‘nikmasi;
- ❖ mavhum tushunchalar bilan ishlash, kelajakni ko‘ra bilish, vaqtni taqsimlay olish malakasi;
- ❖ maqsadni aniqlash;
- ❖ egiluvchanlik, moslashuvchanlik;
- ❖ ma’suliyat xissi;
- ❖ o‘ziga va bilimiga ishonch;
- ❖ qat’iyatlilik;
- ❖ tashkilotchilik;
- ❖ fikrni aniq bayon eta olish.

Ushbu iqtidor turli har kimning individual xususiyatlardan kelib chiqib turlicha namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqtidor yoshga bog‘liq holda turli sohalarda namoyon bo‘ladi. Eng avvalo musiqaga keyin rasm chizishga bo‘lgan iqtidor namoyon bo‘ladi: umuman olganda avval san’atga bo‘lgan keyin ilmga bo‘lgan iqtidor namoyon bo‘ladi. Umumiy intellektual iqtidor yuqori aqliy taraqqiyot va aqliy faoliyat sifatida namoyon bo‘lishi bolaning kelajakda iste’dodlini amoyon qilishi omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Локк Д. Мысли о воспитании. Т.3. – М.: Мысль, 1985.
2. Штерн В. Умственная одаренность. – СПб.: Союз, 1997.
3. Малева Н.И. Школьники рассказывали сказки на английском // Марийская правда. 2012. – № 73. 6.
4. Андреев В.И. Конкурентология. – Казань: Центр инновационных технологий, 2004.

4-5 YOSH BOLALARDA MANTIQIY FIKRLASH KO`NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Rasulov Jasurbek Saparovich-
Navoiy davlat universiteti Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)
Abduahatova Sojida Nurali qizi-
Navoiy davlat universiteti
70110201-ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxasisligi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola 4-5 yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining nazariy asoslarini ochib, Mantiqiy tafakkurni shakllantirishda o‘yin, suhbat, kuzatish, mashg‘ulot va oilaviy tarbiyaning ahamiyati atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mantiqiy fikrlash, 4-5yosh, tafakkur, suhbat, kuzatish, metod, oilaviy tarbiya.

Аннотация. В данной статье подробно проанализировано значение игры, беседы, наблюдения, обучения и семейного воспитания в формировании логического мышления, раскрыты теоретические основы умений логического мышления у детей 4-5 лет.

Клюевые слова: логическое мышление, 4-5 лет, мышление, разговор, наблюдение, метод, семейное образование.

Annotation: This article analyzes in detail the importance of play, conversation, observation, learning and family education in the formation of logical thinking, reveals the theoretical foundations of logical thinking skills in children aged 4-5 years.

Keywords: logical thinking, 4-5years old, thinking, conversation, observation, method, family education.

Inson tafakkurining ilk shakllanishi aynan maktabgacha yosh davriga to‘g‘ri keladi. Shu davrda bola atrofdagi narsalar, voqea-hodisalar orasidagi bog‘liqlikni anglay boshlaydi. Atrof-muhit bilan tanishishni boshlaydi, savollar beradi, kuzatadi va umumlashtiradi. Maktabgacha yosh davri bolaning xotirasi, qobilyati, tafakkuri va bilish jarayonlari rivojlanadigan muhim bosqich hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga ularni intelektual ma‘naviy-axloqiy, etik-estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishga, shuningdek bolalarni umumiy o ‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezdenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Farzandlarimizning qobilyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e‘tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn-Sinolar Ulug‘beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman’’[2]. Ayniqsa 4-5 yosh oralig‘i bolaning rivojlanishda muhim o‘rin tutadi. Chunki bu paytda bolaning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanishni boshlaydi va asosan shu yoshda ular “nega?’’, “nima uchun?’’, “qanday qilib?’’ kabi savollar berish orqali mustaqil fikrlash jarayoniga kirishadilar. Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi nafaqat intellektual, balki nutqiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa bolani maktabga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu davrda bola hali obstrakt tafakkur darajasiga yetmagan bo‘ladi, ammo u sezgi va tajriba orqali voqealikni tushunishga harakat qiladi. Bu yoshda bolalar asosan obrazli fikrlashganligi sababli, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish uchun amaliy mashg‘ulotlar, o‘yinlar, va ota-ona bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, shakllar, miqdorlar bilan ishlash orqali bola “teng‘’, “katta’’, “kichik’’, “uzun’’, “kalta’’, “ko`p’’, “kam’’ kabi tushunchalarni farqlaydi. Bu esa tahliliy tafakkurning boshlang‘ich ko`rinishidir.

D.N.Sharipovaning tadqiqotlariga ko‘ra 4-5yosh bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun turli metodlardan foydalanish samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin jarayoni bolaning eng tabiiy o‘quv jarayonidir. Maktabgacha yoshda fikrlash faoliyatini o‘yin jarayonlari orqali shakllantirish eng samarali metodlardan biridir[2]. Didaktik o‘yinlar mantiqiy fikrlashni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Quyidagi o‘yinlar bunga misol bo‘la oladi:

-“Tartib bilan joylashtir’’- predmetlarni shakli, rangi, kattaligiga ko‘ra joylashtirish;

- “Farqini top’’- ikki predmet orasidagi farqlarni aniqlash;

-“Nima o‘zgardi’’- kuzatish orqali nima o‘zgarganligini aniqlash;

-“Rasm asosida hikoya tuz?’’- nutq orqali mantiqiy izchillikni shakllantirish;

Sh.O.Madaminovaning fikricha o‘yin asosidagi ta’lim metodlari bolalarning mantiqiy fikrlash qobilyatlarini rivojlantirishda qiziqish va motivatsiyasini oshiradi[3].

Suhbat metodi. Muloqot jarayonida beriladigan ochiq savollar bolaning fikrini faollashtiradi. Tarbiyachi “Nega?’’, “Qanday qilib bajarasan?’’, “Boshqacha bo‘lishi mumkinmi?’’, kabi savollar yordamida bolaning mantiqiiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu usul nafaqat mantiqiy fikrlashni, balki nutq madaniyatini ham rivojlantiradi. Shuningdek, bolalar bir-birining fikrini tinglash va baholashni o‘rganadilar. Bu esa ijtimoiy-emotsional rivojlanish uchun ham foydalidir.

Kuzatish metodi. Kuzatish – mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali shakllaridan biri. Masalan, “suvda nima suzadi, nima cho‘kadi?’’, “issiqda muzga nima solsa bo‘ladi?’’ kabi tajribalar orqali bolalar sabab-natijani o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar. 4-5yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

1. Ko‘rgazmali- harakatli tafakkur -predmetlar bilan amaliy harakat orqali bog‘liqlikni anglash;
2. Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur- tasavvur va rasm orqali sabab-oqibat aloqalarini tushunish;
3. Soddalashtirilgan umumlashtirish va taqqoslash -o‘xshashlik va farqni aniqlash, qisqa xulosalar chiqarish;

G.Qurbonovaning ta’kidlashicha maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishidagi asosiy o‘ziga xoslik -obrazli bilish shakllarini (idrok etish, obrazli fikrlash, tasavvur) egallashda yorqin namoyon bo‘ladi[4].

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish faqat maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi mashg‘ulotlar bilan cheklanmagan holda ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilishi kerak. Ota-onalarni ham mashg‘ulotlarga jalb qilish: uyda oddiy savol-javoblar, pazllar, konstruktorlar bilan o‘ynash kundalik vaziyatlarda “Agar havo sovuq bo‘lsa ko‘chaga qanday kiyinib chiqish kerak?’’ kabi hayotiy savollar bolada hisoblash, tahlil qilish va umumlashtirishni o‘rgatadi. Pedagoglar ota-onalar uchun qisqa amaliy ko‘rsatmalar tayyorlab berishi lozim. O‘z navbatida ota-onalar ham bolaning savollariga e‘tiborli bo‘lishlari, uni mustaqil fikrlashga undashlari kerak. Shunday hamkorlik tarbiyachining ishini yanada samarali qiladi.

Tarbiyachilarga metodik tavsiyalar:

-O‘yin mashg‘ulotlari orqali topshiriqlar berish;

-Rasm va predmetlar orqali sabab-oqibatni ko‘rsatish;

-Hikoya tuzish orqali mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish;

Xulosa qilib aytganda 4-5 yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish-bu nafaqat ularning fikrlash ko‘nikmasini oshirish balki keyinchalik maktab ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun ham muhim poydevordir. Har bir pedagog va ota-ona bolaning tabiiy qiziqishdan foydalangan holda, uni sabab-natija aloqalarini aniqlashga, tahlil qilishga va mantiqan xulosa chiqarishga o‘rgatsa – bola mustaqil, tafakkuri chuqur shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim To‘g‘risidagi Qonuni 2020-yil.

2.Parpiyev Odil Olimovich, Madaminova Shohsanam Odiljon qizi “Maktabga tayyorlashning ilmiy pedegogik asoslari” darslik 2024-yil.

3.Sharipova D.N. “Maktabgacha ta’limda bolalarda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish”, TMI ilmiy jurnali,2022-yil.

4.G.Qurbonova “Maktabgacha ta’limda bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish usullari”. Modern Science and Research. 2025

5.Qilichova Marhabo Xudoyquovna. To‘lanova Feruzaxon Turgunboy qizi “Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda aqliy tarbiyaning o‘rni”. maqola

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O‘YIN TEXNOLOGIYALARI ORQALI KASB HUNARGA QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISH

Azimova Musharraf Utkirovna-
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
Ochilova E’zoza Baxtiyorovna-
Navoiy davlat universiteti 70110201-ta’lim
va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxasisligi 1-bosqich talabasi

Аннотация. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yin texnologiyalari orqali kasb hunarga qiziqishlarini shakllantirish, rolli va didaktik o‘yinlar yordamida bolalarni kasblar bilan tanishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tizim, o‘yin, texnologiya, kasb-hunar, qiziqish, didaktika, kognitiv, rivojlanish, fikrlash, moslashuv, ko‘nikma, pedagogika, metod, psixologiya, faoliyat.

Аннотация. В данной статье представлена информация о формировании интереса дошкольников к профессии через игровые технологии, приобщение детей к профессиям с помощью сюжетно-ролевых и дидактических игр.

Ключевые слова: образование, система, игра, технология, профессия, интерес, дидактика, познание, развитие, мышление, адаптация, умение, педагогика, метод, психология, деятельность.

Abstract. This article provides information about the formation of preschoolers' interest in the profession through game technology, the introduction of children to professions through story-role-playing and didactic games.

Keywords: education, system, game, technology, profession, interest, didactics, cognitive, development, thinking, adaptation, skills, pedagogy, method, psychology, activity.

Mamlakatimizda ta’lim tizimi, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimini tubdan yangilash va takomillashtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu yillar mobaynida yurtimizda mazkur sohani rivojlantirishning mustahkam huquqiy-institutsional asoslari yaratildi.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta’minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta’lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti tasdiqlandi. Davlat standartida har bir bolaning ta’lim olishga bo‘lgan

qiziqishlarini va ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash, har bir bolaning, shu jumladan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish imkoniyatining tengligi, xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish, ularga ta’lim berishda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish zarurligi keltirib o‘tilgan.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar–mamlakatning intellektual va iqtisodiy salohiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladigan avloddir. Shu sababli, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga bo‘lgan e’tibor bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Inson faoliyati va qobiliyatlarini shakllantirish aynan maktabgacha ta’lim davridan boshlanadi. Bu jarayonda kasb-hunarga qiziqish uyg‘otish bolalar ongida mehnatga hurmat, ijodiy yondashuv va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishning dastlabki qadami bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muassasadir. O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligimi belgilab beradi. O‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy,axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning ma’naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o‘zgarib turadi. O‘yin doimo o‘zgarib turganligi tufayli bola o‘ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga, kishilarga, narsalarga va o‘ziga bo‘lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o‘zgarib turadigan o‘yin jarayonida namoyon bo‘ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o‘yin jarayonida bevosita rivojlanadi. O‘yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o‘yin jarayonida faqat namoyon bo‘libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o‘zlashtiriladi. Shuning uchun psixologik nuqtai nazardan oqilona, ya’ni, to‘g‘ri tashkil qilingan o‘yin bola shaxsini har tomonlama o‘stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida – sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, hayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi. O‘yin o‘z mohiyati jihatidan kata kishilarning xatti-harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo‘lishi tufayli bolalarda ma’naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob-axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich ta’lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keladi. Haqiqatdan ham o‘yin, har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va O‘yin texnologiyalari maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar rivojlanishining eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Psixolog L.S. Vygotskiy fikriga ko‘ra, o‘yin –bu bolalarning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi uchun tabiiy muhit bo‘lib, ular o‘z qiziqishlarini ifoda etish, atrof-muhitni o‘rganish va o‘z tajribalarini boyitishda muhim vositadir. Vygotskiy ta’kidlaganidek, o‘yin jarayonida bolaning ijtimoiy me’yorlarni o‘rganishi va ular asosida muloqotga kirishishi shakllanadi.[3] Montessori uslubiga ko‘ra, o‘yin orqali bolalar real hayotga tayyorgarlik ko‘radi. Montessori o‘zining “Bola o‘yin orqali o‘rganadi” asarida bolalarning mustaqil faoliyatiga e’tibor qaratib, ularning atrofdagi hayotdan ilhomlanishini rag‘batlantirishni tavsiya etadi. Ushbu usulda bolalarni kasblar bilan tanishtirish uchun ular o‘zlari uchun muhim bo‘lgan faoliyat turlarini o‘yin shaklida bajarishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb-hunarga qiziqish shakllantirish uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi [4]:

1. Tanishuv bosqichi: Bolalar kasblar haqida boshlang‘ich bilimga ega bo‘ladi. Masalan, rolli o‘yinlar orqali ular shifokor, o‘qituvchi, quruvchi kabi kasblarni tushunib olishadi.

2. Qiziqishni rivojlantirish bosqichi: Bolalar o‘yinlar orqali o‘zlari yoqtirgan kasbni tanlab, ushbu kasb bo‘yicha o‘z qiziqishlarini mustahkamlaydi. Misol uchun, “Kasblar festivali” tashkil qilish orqali bolalar turli sohalar bilan tanishtiriladi.

3. Ijodiy faoliyat bosqichi: Bolalar o‘z qiziqishlari doirasida ijodiy ishlarda ishtirok etadi, masalan, kichik loyiha va maketlar yaratadi.

Bugungi kunda zamonaviy kasblar nafaqat texnologik sohalarda, balki maktabgacha ta’limda ham o‘z aksini topmoqda. Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va bolalarni kelajakdagi kasblarga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy kasblarni maktabgacha ta’limga bog‘lash orqali bolalarda texnologiyaga, ijodkorlikka va mas’uliyatga qiziqish uyg‘otish mumkin.

Raqamli ta’limni kuchaytiradi: Innovatsion texnologiyalar bolalarning bilim olish jarayonini osonlashtiradi va qiziqarli qiladi. Zamonaviy kasblarni maktabgacha ta’limga integratsiya qilish bolalarning 21-asr ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga yordam beradi va ularni kelajakdagi muvaffaqiyatli hayotga tayyorlaydi [5].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb-hunarga qiziqishni shakllantirish jamiyatda kelajak avlodning muvaffaqiyatli kasbiy yo‘nalish topishi uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘yin texnologiyalari bu jarayonda bolalar psixologik va kognitiv xususiyatlariga mos keladigan samarali vosita sifatida xizmat qiladi. O‘yin texnologiyalari bolalarning ijodkorlik, mustaqil fikrlash va guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda turli rolli o‘yinlar va modellashtirish usullari orqali bolalar turli kasb turlari bilan tanishadi, ularning mohiyatini tushunadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qiziqish va kuzatuvchanlik kuchli bo‘lganligi sababli, ularga kasblarni o‘yin orqali o‘rgatish mazmunli va qiziqarli bo‘lishi kerak. Masalan, shifokor, muhandis yoki o‘qituvchi kabi kasblarni o‘yin orqali namoyish etish, bu kasblarning asosiy vazifalarini bajarish orqali bolalarda faol ishtirokni ta’minlaydi.

O‘yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o‘yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O‘yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg‘ulotlardan so‘ng, sayrlardan so‘ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o‘ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o‘yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko‘proq didaktik o‘yinchoqlar, stol ustida o‘ynaladigan stol-bosma o‘yinlari, syujetli-rolli o‘yinlarni o‘ynagan ma`qul.

Sayr davomida harakatli o‘yinlarni, qurish-yasash o‘yinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o‘yin uchun maxsus vaqt belgilash o‘yinning mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo‘lishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida q’llanilishining eng muhim pedagogik shartidir. Bolalar o‘yinining o‘ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'yin texnologiyalari orqali kasb-hunarga qiziqishni shakllantirish nafaqat bolalarning rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularning ijtimoiy hayotga moslashuvchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish maktabgacha ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin faoliyati bilan birga ta’limiy mashg‘ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta’limiy mashg‘ulotning asosiy mazmuni bolani atrof muhitdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og‘zaki nutqni lug‘at boyligi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to‘g‘ri so‘zlashlikka o‘rgatish, bog‘lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo‘lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san’at, qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilish materiallar bilan ishlash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg‘ulotlarga qaratilgan bo‘ladi, bu esa bolani aqliy jihatdan maktab ta’limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishning tubdan takomillashtirilishi to‘g‘risida” farmon. PF-5198-son. 2017-yil 30-sentabr.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. ‘O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’ qaror. PQ-4312-son. 2019-yil 8-may.

3. Vygotskiy L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes, 1978

4. Montessori M. ‘Bola o‘yin orqali o‘rganadi’. Rim: Montessori nashriyoti, 1936.

5. UNESCO. “Innovative Pedagogies for Early Childhood Education”. Parij: UNESCO Publishing, 2019.

6. Nargiza N. Djamilova, Nilufar Z. Imamova, Irina N. Kim, Dono N. Marasulova. The Technology of Using Electronic Software in Developing the Interest of School Children in Choosing a Profession Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 44 No. 6 (2023)

7. Jamilova N.N., Khasanova Sh.T., Imamova N.Z. Creation of an Innovative Model “Smart Kindergarten”, Focused on The Free Choice of Profession by Children in Preschool Educational Organizations. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES. Volume: 04 Issue: 12 | Dec 2023 ISSN: 2660-5317 https://cajotas.centralasianstudies.org

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA „4K’’ MODELIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-SHART SHAROITLARI.

Sheralieva Fazilat Qobul qizi-
Samarqand shahar
JAPAN LANGUAGE SCHOOL
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi
+99894181-20-92.Sheraliyevafazilat644@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 4K modeli va uning tarkibiy qismlari, boshlang‘ich ta’lim tizimida 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari hamda shart-sharoitlari va pedagogik jarayonlarda uning amaliy ahamiyati, shuningdek, boshlang‘ich sinf matematika darslari samaradorligini oshirishda 4K modelidan foydalanishning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim tizimi, boshlang‘ich ta’lim, XXI asr ko‘nikmalari, 4K modeli, kommunikativlik, kollaborativlik, kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativlik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan „Najot ta’limda, najot tarbiyada, najot bilimda“ g‘oyasining ko‘tarilishi bejiz emas. Chunki Yangi O‘zbekistonni ilmli, bilimli, yaxshi ta’lim va tarbiya olgan shaxslar barpo eta oladi. Mamlakatimizda ta’lim va tarbiya sohasini amalga oshirayotgan islohatlarning tub mohiyati asl maqsadi ushbu Davlatimiz Rahbarining qaror va farmonlarida aks etadi. Umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bosqichi bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga alohida e’tibor qaratilgan. Prezidentimiz „2022-2026“ yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasidagi 60-sonli Farmonida „Qoraqalpog‘iston Respublikasida va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqatlanish bilan ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratish“ belgilangan [1].

Shuningdek, „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonunda boshlang‘ich ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirishi uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan deb ko‘rsatilgan [2].

Chunki bu davrda bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lganligi uchun alohida e’tibor talab etadi. Maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, bola o‘zining o‘quvchi ekanligini his qila boshlaydi, ta’lim olishga va birinchi ustoziga nisbatan mehrni tuya boshlaydi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun harakat qilishni boshlaydi. „4K“ modeli ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuv bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimida 4K modelidan foydalanishda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashga, o‘z fikrini erkin bayon etishga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi.

Kollaboratsiya – hamkorlik, bu jamoada ishlash ko‘nikmasi. Topshiriqni bajarayotganda o‘quvchilarning hamkorlikdagi ishlashlari, birovning g‘oya va fikrlarini qabul qilish, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilishga asoslangan, o‘zaro hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Kommunikativlik – muloqot qilish qobiliyati. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganishdir.

Kreativ fikrlash – ijodiy fikrlash, insonni mashina va sun’iy intellektdan ajratib turadigan yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi va muammolarni ijodiy hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash – mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida boshqalarning fikrlarini o‘zlashtirmaslik, har doim o‘z fikriga ega bo‘lish va ularni dalillar bilan isbotlash, axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [3].

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, o‘quv jarayonini bolalar uchun

qiziqarli va foydali tarzda tashkil etishga imkon yaratadi. Maktabdagi har bir darsni o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan jarayonga aylantirish zarur. Kollaborativlik, ya’ni hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi turli mamlakat olimlari, jumladan J. Hopkins universiteti professori R. Slavin, Minnesota universiteti professorlari R. Jonson, D. Jonson, Kaliforniya universiteti professori Sh. Sharon tomonidan tadqiq etilgan. O‘tmish asrning 70-yillarida J. Dyui hamkorlikda o‘qitish natijalarni oldindan aniqlash va amaliy faoliyatni tashkil etish g‘oyasini ilgari surgan. Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya mamlakatlari ta’lim muassasalarida bu g‘oyalar keng qo‘llanila boshlagan [4].

Hamkorlik pedagogikasi novator-pedagoglar (Sh. A. Amonashvili, S. N. Lisenko, V. F. Shatalov, E. N. Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o‘qituvchi va o‘quvchilar) o‘rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o‘zaro munosabatlarni tashkil etishini ta’kidlaydi. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega zarur qoidalar buyuk pedagoglar A. Avloni, K. D. Ushinskiy, A. S. Makarenko, V. A. Suxomlinskiy, J. J. Russo, K. Rodjers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Pedagogik hamkorlik g‘oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va „XXI asr ta’limi konsepsiyasi“ asosini tashkil etadi.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – o‘quv topshiriqlarini nafaqat birga bajarish, balki hamkorlikda o‘qish, o‘rganishdir. Hamkorlikda o‘qitish har bir o‘quvchini kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida onglilik va mustaqillikni tarbiyalash, har bir o‘quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishontni mustahkamlash, ta’lim olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Hamkorlik muhiti ishtirokchisi muloqot davomida shaxsiy fikrini bayon etish bilan birga, boshqalar fikri bilan ham hisoblashadi, o‘zini boshqaradi, u yoki bu ma’lumotlarni bilishi guruhga muvaffaqiyat olib kelishi mumkinligini amaliyotda ko‘radi.

Takrorlash va mustahkamlash darslarida kichik guruhlarda ishlash jarayonida ta’lim oluvchilar bir-biriga o‘rtog‘lik yordamini ko‘rsatadi, o‘zlashtirishi pastroq o‘quvchilar do‘stona yordamni his qiladi, guruhlar o‘rtasida sog‘lom raqobat ruhi tug‘iladi, bu ularni muvaffaqiyatli faoliyatni shakllantirish uchun qulay psixologik muhit yaratadi. Bunday hollarda o‘qituvchining roli faqat muvofiqlashtirish, yo‘l-yo‘riq, maslahat va rag‘batlantirishdan iborat. Hamkorlik muhiti ishtirokchisi muloqot davomida shaxsiy fikrini bayon etish bilan birga, boshqalar fikri bilan ham hisoblashadi, o‘zini boshqaradi.

Takrorlash va mustahkamlash darslarida 4K modelining hamkorlikda ishlash, ya’ni kollaborativ bo‘limi yuqori samaradorlikka ega. O‘quvchilarni hamkorlikda o‘qitishni tashkil etishning bir nechta metodlari mavjud: guruhlarda o‘qitish (R. Slavin)da o‘quvchilar teng sonli ikki guruhga ajratiladi. Har ikkala guruhda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajrib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga e’tibor beradi. R. Slavinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi yetarli emas. O‘quvchilarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi.

Baxsli, muammoli vaziyat – insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog‘liq bo‘lib, qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning aqliy kuchini zo‘riqtiradi, u vaziyatni oydinlashtirish uchun yo‘llar qidiradi, qiyinchiliklar bilan to‘qnashadi. Inson muammo bilan yuzma-yuz kelganda fikrlay boshlaydi. O‘zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajaradi va saviyaga mos darajadagi xulosalarga keladi. O‘quvchilar o‘zlari bajargan topshiriqlarni qanday qilib bajarganliklarini aytib, tushuntirib bera olishlari lozim. Muammoni hal qilish jarayonidagi tushunmay qolgan o‘rinlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalab bera olish o‘qituvchi uchun muhimdir. Nemis pedagogu Disterveg bexosdan „Noqobil o‘qituvchi haqiqatni aytadi, yaxshi o‘qituvchi esa uni topishini o‘rgatadi“ deb aytmagan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf darslarida 4K modelidan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- O‘quvchining o‘rganish jarayonini boyitadi; o‘quvchilarga kognitiv axborot beradi.

- O‘quvchilarda materialni o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otadi; o‘quvchilarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

- Axborotni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi.

- O‘quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlar beradi.

- Turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy darajadagi guruhlar o‘rtasida ijobiy o‘zaro munosabatlarni ilgari suradi; hamkorlik shunday holatki, ta’lim jarayoni subyektlari birgalashib faoliyat qiladi, o‘rtog‘lik, o‘zaro yordam va jamotchilik yuzaga keladi.

4K modelidan unumli foydalanish kelajagimiz egasi bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Framework for 21st Century Learning. The Partnership for 21st Century Learning, 2015.

2. O‘zbekiston Respublikasining „Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonuni hujjatlari, ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1212-son.

3. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: learning objectives, 2017.

4. UNESCO. School and teaching practices for twenty-first century challenge: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report, 2016.

5. „2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida“gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASHDA 4K TA‘LIM TEXNOLOGIYASINING IMKONIYATLARI

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi
kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
kabrorxonovna@mail.ru **Tel:+998974451446**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga samarali tayyorlashda 4K ta’lim texnologiyasining — kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya va kritik fikrlash ko‘nikmalarining roli va imkoniyatlari yoritiladi. 4K yondashuvning didaktik afzalliklari, dars jarayonida qo‘llash mexanizmlari, boshlang‘ich ta’lim fanlari bo‘yicha amaliy mashqlar misolida samaradorlik tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: 4K ta’lim texnologiyasi; kreativlik; kommunikativlik; kollaboratsiya; kritik fikrlash; xalqaro baholash dasturlari; PIRLS; TIMSS; PISA; boshlang‘ich ta’lim; kompetensiya; raqamli pedagogika.

Abstract: This article discusses the role and potential of 4K educational technology - creativity, communication, collaboration and critical thinking skills - in effectively preparing primary school students for international assessment programs. The didactic advantages of the 4K approach, the mechanisms of its application in the classroom, and the effectiveness of practical exercises in primary education subjects are analyzed.

Keywords: 4K educational technology; creativity; communication; collaboration; critical thinking; international assessment programs; PIRLS; TIMSS; PISA; primary education; competence; digital pedagogy.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и потенциал образовательных технологий 4K, включая развитие навыков креативности, коммуникации, сотрудничества и критического мышления, в эффективной подготовке учащихся начальной школы к международным программам оценки. Анализируются дидактические преимущества подхода 4K, механизмы его применения в классе и эффективность практических занятий по предметам начального образования.

Ключевые слова: образовательные технологии 4K; креативность; коммуникация; сотрудничество; критическое мышление; международные программы оценки; PIRLS; TIMSS; PISA; начальное образование; компетентность; цифровая педагогика.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xalqaro baholash dasturlaridagi natijalarini oshirishni strategik maqsad sifatida belgilab bermoqda[1]. PIRLS, TIMSS va PISA kabi nufuzli baholash tizimlari o‘quvchining nafaqat bilim darajasini, balki fikrlash jarayoni, muammoni yecha olish qobiliyati, tahliliy yondashuvi va muloqot madaniyatini ham chuqur o‘lchaydi. Bu esa boshlang‘ich ta’limda ilg‘or yondashuvlarni, interfaol metodlarni va raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etadi. Zamonaviy ta’limning asosiy tamoyillaridan biri sifatida 4K ta’lim texnologiyasi – **kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya va kritik fikrlash** – o‘quv jarayonini faol va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. 4K kompetensiyalari global miqyosda XXI asr ko‘nikmalari sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, ularni boshlang‘ich bosqichdanoq shakllantirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli natijalarni ta’minlashning muhim omilidir.

1-4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari “4K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi:

Tanqidiy (*Kritik) fikrlash:* ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi va ular muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradilar.

Kreativ fikrlash: o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi va o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar, innovatsion yyechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Kommunikatsiya: o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish, o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishiga yordam beradi.

Kollaboratsiya: o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi[3:185].

Boshlang‘ich sinflar uchun ishlab chiqilgan yangi darsliklar o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, nafaqat bilim, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga shuningdek, 21-asr kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Boshlang‘ich ta’limda 4K kompetensiyalarini shakllantirish o‘quvchilarning ijodiy izlanish, mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash, mantiqiy savollar qo‘yish, matndan ma’lumot ajratib olish, muammoni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu kompetensiyalar bugungi globallashuv davrida nafaqat ta’lim jarayonida, balki xalqaro baholash dasturlarida ham asosiy o‘rin tutadi. PIRLS, TIMSS va PISA kabi nufuzli xalqaro baholash tizimlari o‘quvchining bilim saviyasidan ko‘ra ko‘proq, uning fikrlash darajasi, matn bilan ishlash madaniyati, muammoni hal qila olishi, mantiqiy mushohada yuritishi va o‘z fikrini asoslab bera olishini baholaydi. Shu bois 4K texnologiyasining o‘quv jarayoniga integratsiya qilinishi xalqaro baholashga tayyorlashda aynan zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi[4].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish bo‘yicha xorijda qator modellar va ta’limiy dasturlar ishlab chiqilgan. Masalan, Amerika ta’lim muassasalari bitiruvchisi modelida quyidagi jihatlar aks etgan: o‘z xalqi madaniyati haqida yuqori darajadagi bilimlarga egalik; madaniy o‘ziga xosligini tushunish; tanqidiy fikrlar qobiliyati; kommunikatsiyada tolerant mikromuhitni kompetent tashkil etish ko‘nikmasiga egalik va boshqalar.

AQShning iqtidorli bolalar Milliy assotsiatsiyasining tadqiqotlar va baholash bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan aspirantlarning eng yaxshi tadqiqotlari sovrini laureati Deniz de Suza Fleych o‘zining “Kreativlik bo‘yicha o‘quv dasturlarining ta’siri. Bir va ikki tilli o‘quvchilarda Men-konsepsiyasi” deb nomlangan ishida kreativ salohiyatni shakllantirishga doir quyidagi dasturlarni taklif qilgan:

1. Kreativ muammolarni yechish dasturi (The Creative Problem-Solving - CPS). Dastur qarorni keyinga qoldirish, ko‘plab noodatiy g‘oyalarga intilish va ular orasidagi bog‘liqliklarni hosil qilish kabi aqliy hujum qoidalariga asoslangan fikrlash bosqichlarining o‘ziga xosliklarini hisobga olgan.

2. Purdye kreativ fikrlash dasturi (The Purdue Creative Thinking Program) fikrlashning qulay, muqobil usullari sifatida o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni idrok etish va ularga yechim topish qobiliyatini rivojlantirish, Men-konsepsiyasi, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali faollikni rag‘batlashga yo‘naltirilgan.

Shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlarida iqtidorli bolalarni aniqlash va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Indiana, Konnektikut, Kaliforniya shtatlaridagi universitetlar huzurida tadqiqot markazlari tashkil etilgan va “Gifted Child Today”, “Gifted Education International” ilmiy-metodik jurnallari chop etib boriladi. XX asr so‘nggida AQShda “Amerika – 2000. Ta’lim strategiyasi (Goals 2000: Educate America Act)” dasturi yaratilgan va sinovdan o‘tkazilgan. Mazkur dasturning ikkinchi bo‘limida yangi avlod maktablarida bo‘lajak Amerika fuqarosining kreativ imkoniyatlarini rivojlantirish yo‘llari ishlab chiqilgan.

4K texnologiyasining asosini tashkil etgan kritik fikrlash kompetensiyasi o‘quvchilarda matnni tahlil qilish, asosiy mazmunni ajratish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu kabi ko‘nikmalar aynan PIRLS dasturida o‘ta muhim bo‘lib, o‘quvchilar matn ustida mustaqil ishlash, mazmunni anglash hamda daliliy fikr bildirish jarayonlariga tayyor bo‘ladi. TIMSS dasturi uchun zarur bo‘lgan mantiqiy tahlil qilish, muammoli vaziyatdan yechim topish, tajriba natijalarini solishtirish va umumlashtirish kabi ko‘nikmalar esa kreativ fikrlash va kollaborativ faoliyat orqali shakllanadi. O‘quvchilar guruhlarda ishlash jarayonida o‘zaro fikr almashadi, masalalarni birgalikda hal qiladi, ilmiy izlanish kabi jarayonlarda faol ishtirok etadi.

Misol uchun (PIRLS uslubidagi topshiriq):

Matn bo‘lagi:

“Qishloqdagi eski maktab binosi ta’mirlanayotganda, bolalar vaqtincha kutubxonada dars qilishardi. Bu holat ularga bir qator qulayliklarni ham yaratdi: ular darsdan keyin darhol kitoblarga murojaat qilib, mustaqil o‘qish bilan shug‘ullanishardi.”

Savol:

1. Ushbu matndan kelib chiqib, bolalar uchun yangi sharoitning **ikki xil ijobiy tomoni**ni ayting.

2. Matnda maktabning ta’mirlanayotgani nima uchun muhim hodisa sifatida berilgan deb o‘ylaysiz? **Dalil bilan asoslang.**

3. Matn asosida “kutubxonada dars o‘tkazish”ning **sabab-oqibat bog‘liqligini** izohlang.

Bu kabi topshiriqlarga yechim topish vaqtida o‘quvchilardagi kritik va kreativ fikrlash qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

PISA dasturi o‘quvchilardan hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, fikrni asoslash, qaror qabul qilish va axborotni qayta ishlash ko‘nikmalarini talab qiladi. Bunday kompetensiyalar ham 4K texnologiyasining mazmuni bilan uzviy bog‘langan. Kritik fikrlash orqali o‘quvchi murakkab vaziyatlarni tahlil qiladi, kreativlik orqali noodatiy yechimlar ishlab chiqadi, kommunikativlik orqali o‘z fikrini asosli tarzda bayon qiladi, kollaboratsiya esa jamoada fikrlash, birgalikda xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu jarayonlarning barchasi xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijaga erishish uchun zarur bo‘lgan universal ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Raqamli texnologiyalar 4K kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Diagrammalar, jadvallar, grafiklar, infografikalar, onlayn topshiriqlar va vizual materiallar asosida ishlash o‘quvchilarda media savodxonlik, tahlil qilish, axborotni qayta ishlash va xulosalash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa PIRLS, TIMSS va PISA kabi dasturlarda keng uchraydigan vizual ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonini yengillashtiradi. Shuningdek, raqamli muhit o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga, taqdimotlar tayyorlashiga, jamoaviy ishlarda faol bo‘lishiga imkon yaratadi.

4K texnologiyasi o‘quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisi sifatida shakllantiradi. U o‘quvchining mustaqil fikrlashi, savol berishi, o‘z fikrini himoya qila olishi, mantiqiy mushohada yuritishi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. O‘quvchi o‘z fikrini aniq va mantiqli ifoda qilishni,

boshqalar fikrini tinglashni, muhokama jarayonlarida faol qatnashishni ham o‘rganadi. Shu orqali xalqaro baholash dasturlari uchun zarur bo‘lgan nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya va tahliliy fikrlash darajasi shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, 4K ta’lim texnologiyasi xalqaro baholash dasturlarida talab etiladigan ko‘nikmalarni boshlang‘ich sinf bosqichidanoq shakllantirishga keng imkoniyat yaratadi. U o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy, ijodiy, mantiqiy va hamkorlikda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, PIRLS, TIMSS va PISA kabi dasturlarda muvaffaqiyatli natija ko‘rsatish uchun puxta zamin yaratadi. Maktabda 4K kompetensiyalarini tizimli ravishda tatbiq etish zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022-y.

3. Asqarova M.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish: falsafa doktori (PhD). ...diss. – Namangan, 2020. – 185 b.

4. Kompetensii «4K»: formirovaniye i osenka na uroke: Prakticheskiye rekomendasii / avt.-sost. M.A. Pinskaya, A.M. Mixaylova. – M.: Korporasiya «Rossiyskiy uchebnik», 2019. [Elektronniy resurs]: URL: https://vbudushee.ru/library/

5. Nuraliyeva K.I. Boshlang‘ish sinf o‘quvshilarida kreativ salohiyatni takomillashtirish texnologiyasi: uslubiy qo‘llanma. – Namangan: Yashin sanoat, 2022. – 120 b.

6. Mavlonov Q., Qodirov R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

7. PIRLS 2021 Assessment Framework. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). – Amsterdam, 2020.

8. TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. IEA. – Amsterdam, 2020.

PSIXOMETRIK TESTLAR VA MATEMATIK MODELLASHTIRISH: SHAXSIY XUSUSIYATLARNI ANIQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR

Saidova Nilufar Ro‘zimurotovna-
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti
Ruziyeva Maxliyo Xamrayevna, Navoiy innovatsiyalar universiteti
psixologiya yo`nalishi, 1- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixometrik testlar va matematik modellashtirishning shaxsiy xususiyatlarni aniqlashdagi zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar, empirik tadqiqotlar va tajriba-sinov metodlari asosida individual xususiyatlarni o‘lchashda matematik modellar va testlar samaradorligi baholangan. Shuningdek, olingan natijalar asosida psixodiagnostika va individual rivojlanish jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: psixometrik test, matematik modellashtirish, shaxsiy xususiyatlar, individual farqlilik, diagnostika, psixodiagnostika.

KIRISH

Shaxsiy xususiyatlarni aniqlash va baholash zamonaviy psixologiya va pedagogikada dolzarb masalalardan biridir. Psixometrik testlar an’anaviy ravishda individual farqliliklarni o‘lchash vositasi sifatida ishlatilsa, matematik modellashtirish esa ushbu test natijalarini tizimli, kvantitativ va prognozli tahlil qilish imkonini beradi. Bugungi kunda psixometrik testlar va matematik modellar birgalikda qo‘llanilganda, insonning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari va ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalari haqida aniq va ishonchli ma’lumot olish mumkin. Shu sababdan, yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish psixodiagnostika sifatini sezilarli darajada oshiradi. Psixometrik testlar shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘lchashda keng qo‘llaniladigan asosiy vositalardan biridir. Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot va globallashuv psixometrik testlash

amaliyotiga yangi imkoniyatlar va sinovlarni olib keldi. Raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari testlarni «qog‘oz-qalam» shaklidan chiqarib, kompyuter va mobil qurilmalarda o‘tkazishga, katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilishga zamin yaratmoqda an’anaviy usullardan interaktiv onlayn platformalarga o‘tish kuzatilmoqda. Bundan tashqari, xilma-xil madaniyat va tillarga ega auditoriyalarda testlardan foydalanish zarurati testlarni mos tarjima qilish va moslashtirish (adaptasiya) muammosini dolzarblashtirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1980-yillardan boshlab xalqaro miqyosda Psixologik va pedagogik testlash standartlari hamda Xalqaro Test Komissiyasi (ITC) tomonidan testlarni tarjima va adaptatsiya qilish bo‘yicha qo‘llanmalar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda ta’lim sohasida testlashning roli oshib, mamlakatlararo baholash tizimlari (masalan, PISA, TIMSS kabi) paydo bo‘ldi. Bugungi kunda psixometrik testlashtirishning rivojlanish bosqichlari va ayni paytdagi tendensiyalarini o‘rganish, xususan: raqamli texnologiyalar ta’sirini, madaniyatlararo test adaptatsiyasi muammolarini va baholashdagi yangiliklarni tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Psixometrik baholash sohasida raqamli transformatsiya va globallashuv jarayonlari jadallashib, testlarning ishonchliligi va yaroqliligini ta’minlash hamda ularni adolatli qo‘llash masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi o‘n yilliklarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi psixologik va pedagogik testlash amaliyotini sezilarli darajada o‘zgartirdi. An’anaviy qog‘oz-qalam testlar o‘rniga kompyuterlashtirilgan testlar joriy etilib, natijalarni avtomatik qayta ishlash, tezkor hisoblash imkoniyati paydo bo‘ldi. Tadqiqotchi R. Bennett ta’kidlashicha, raqamli texnologiyalar ta’sirida baholash jarayonining evolyutsiyasi uch bosqichda kechdi: (1) texnologiyadan faqat odatiy test jarayonini amalga oshirish uchun foydalanish (ya’ni, test materialini kompyuter ekraniga ko‘chirish); (2) texnologiya yordamida test tuzilmalarini yaxshilash (masalan, savollar bankini tuzish, javoblarni avtomatik tekshirish); va (3) texnologiyani baholash jarayonining ajralmas qismi sifatida integratsiya qilish Bugungi kunda testlashning aynan shu uchinchi bosqichi kuzatilmoqda – ya’ni, kompyuter yoki smartfon vositasida test olish nafaqat qulaylik, balki yangi psixometrik yondashuvlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Raqamli muhit test tuzuvchilarga innovatsion modellarni qo‘llashga imkon berdi. Masalan, kompyuterlashtirilgan adaptiv testlashda (CAT) test savollari respondentning oldingi javoblariga qarab tanlanadi, bu esa testni har bir shaxs qobiliyat darajasiga moslashtiradi va baholash samaradorligini oshiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, adaptiv testlash an’anaviy testlarga nisbatan qisqaroq savollar orqali yuqori ishonchlilikka erishish imkonini beradi. Testlarni tuzish va natijalarni hisoblash borasida ham zamonaviy ilmiy ishlanmalar joriy etilmoqda. Masalan, an’anaviy Likert shkalasi shaklidagi o‘lchovlarning muammosi bo‘lmish ijtimoiy ma’qullanish (social desirability) xatosini kamaytirish maqsadida majburiy tanlov (forced-choice) formatidagi testlar ishlab chiqilmoqda. Majburiy tanlov testida respondentga bir nechta ijobiy yoki salbiy sifatlar bir paytning o‘zida taqdim etiladi va u ularning orasidan o‘ziga eng mos va eng nomosini tanlashi kerak. Bunda baholanuvchi har bir savolni (itemni) alohida baholamagani uchun o‘zini yaxshiroq ko‘rsatishga urinishi qiyinlashadi, natijada rostgo‘yroq javoblar olish mumkinligi aytiladi. Bu usul kadrlar tanlovida, shaxsiy sifatlarni o‘lchashda qiziqish uyg‘otmoqda. Lekin majburiy tanlov testlarining natijalarini tahlil qilish uchun an’anaviy usullar to‘g‘ri kelmaydi – shu sababli maxsus psixometrik modellar (masalan, Many-Facet IRT, Multi-Unidimensional Pairwise Preference modeli va boshqalar) taklif qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJA

So‘nggi yillarda kompyuter quvvatining oshishi natijasida bunday murakkab modellarni qo‘llash amaliy jihatdan ham mumkin bo‘lib qoldi. Ba’zi tadqiqotlar ko‘rsatadiki, majburiy tanlov formatidagi testlar an’anaviy Likert so‘rovnomalariga nisbatan prognoz qilish kuchi jihatidan kuchliroq bo‘lishi mumkin. Biroq, ularning kamchiligi – natijani hisoblash va talqin qilish murakkabligi tufayli amaliyotda keng qabul qilish biroz sustroq kechmoqdamatematik modellashtirishda materiallar va metodlarning maqsadi quyidagilarni ta’minlashdir: Matematik g'oyalar va tushunchalarining tushunilishi: O'quvchilarga matematik g'oyalar va tushunchalarining qanday amaliyotda qo'llanishini o'rganish. Matematik modellar yaratishning asosiy tamoyillarini

tushunish: O'quvchilarni matematik modellar tuzilishi va ularni amaliyotda qo'llashning asosiy tamoyillarini tushunish.O'quvchilarni ma'lumotlarni tahlil qilish va matematik modellar tuzilishida tajriba olishga intilish. Kompyuter dasturlarini va texnologiyalarini o'rganish: O'quvchilarni matematik modellashtirish uchun ko'p qo'llaniladigan kompyuter dasturlarini va texnologiyalarini o'rganish. Amaliyotda qo'llanish va natijalarni tahlil qilish: O'quvchilarni matematik modellar orqali muammolarni yechishda va natijalarni tahlil qilishda qo'llanishga tayyorlash matematik modellashtirishda muhim materiallar va metodlar quyidagilardir: Matematik model tuzish uchun axborotlar va ma'lumotlar: Matematik modellar yaratishda va ularni sinovlashda foydalanish uchun kerakli ma'lumotlar va axborotlar. Bu ma'lumotlar, ma'lumotlar tahlili, statistika, hisob-kitob va boshqa sohalardan olinadi. Matematik modellashtirish dasturlari va texnologiyalari: Matematik modellashtirish dasturlari, katta miqdorda ma'lumotlarni olish, modellar yaratish va ularni sinovlashda qo'llaniladi. Matlab, Python, Mathematica, R va boshqa dasturlar bu jarayonni osonlashtirishda juda samarali bo'lib xizmat qiladi. Analitik va kichiklar qo‘llanishlar: Matematik modellashtirishda analitik va kichiklar qo‘llanishlar, matematik modellar yaratish uchun muhimdir. Bu qo‘llanishlar algebraik topish, differensial tenglamalar, integral hisoblash va matematik modellar tuzilishida yordam beradi. Bu materiallar va metodlar matematik modellashtirishni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash uchun kerakli asosiy vositalardir. Ular modellar yaratish, sinovlash va natijalarni tahlil qilishda o‘quvchilarga yordam beradi.

Psixometrik testlar insonning individual xususiyatlarini – kognitiv, emotsional va ijtimoiy ko‘rsatkichlarini – o‘lchashga qaratilgan ilmiy metod hisoblanadi. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Ob’yektivlik – test natijalari shaxsiy baholovchining sub’yektiv qarorlaridan mustaqil.
2. Standartlashtirilganlik – barcha test ishtirokchilari bir xil sharoitda sinovdan o‘tadi.
3. Statistik ishlov berish imkoniyati – test natijalari matematik tahlil va modellashtirishga mos keladi.

Masalan, shaxsiy xususiyatlarni o‘lchashda Big Five modeli (Ekstraversiya, Neurotizm, Ochilish, Hamkorlik, Vijdonlilik) asosidagi psixometrik testlar keng qo‘llanadi. Har bir indikator kvantitativ ko‘rsatkich sifatida olinadi, bu esa keyinchalik matematik modellashtirishga imkon beradi.

Yangi yondashuv shaxsiy xususiyatlarni aniqlash jarayonida quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Testlarni tanlash va standartlashtirish – o‘rganilayotgan xususiyatga mos testlar;
2. Ma’lumotlarni yig‘ish – respondentlarning javoblarini raqamli formatda yig‘ish;
3. Matematik modellashtirish – regression, faktorial tahlil yoki klasterlash orqali natijalarni tahlil qilish;
4. Natijalarni vizualizatsiya qilish – diagramma, grafik va indikatorlar orqali oson talqin qilish;
5. Individual tavsiyalar ishlab chiqish – olingan natijalar asosida rivojlanish strategiyasi va psixodiagnostik tavsiyalar berish.

Masalan, maktab yoshidagi o‘quvchilarni diagnostika qilishda psixometrik test natijalari matematik modellashtirish yordamida ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlar, diqqat va e’tibor darajasi bo‘yicha aniq prognozlar berishi mumkin.

Empirik tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Psixometrik testlar individual xususiyatlarni aniqlashda yuqori ob’yektivlik va standartlashganlikni ta’minlaydi.
2. Matematik modellashtirish test natijalarini prognoz qilish va latent strukturalarni aniqlash imkonini beradi.
3. Test va modellashtirishning kombinatsiyasi shaxsiy xususiyatlarni aniqlashda aniqlik darajasini sezilarli oshiradi (20–30% ga).
4. Yangi yondashuvlar psixodiagnostik tavsiyalarni individuallashtirish va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda samarali. Misol: 100 nafar respondentda o‘tkazilgan tadqiqotda regression va faktorial tahlil yordamida shaxsiy xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi aniqlanib, individual rivojlanish yo‘nalishlari belgilandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, psixometrik testlar va matematik modellashtirishning integratsiyasi shaxsiy xususiyatlarni aniqlash va baholashda yangi yondashuvlarni yaratadi. Bu yondashuv individual farqliliklarni aniq belgilash, rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va psixodiagnostika sifatini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, olingan natijalar maktab, kasbiy tayyorgarlik va psixologik maslahat jarayonlarida amaliy qo‘llanilishi mumkin. Kelajakda, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) tahlilidan foydalangan holda psixometrik testlar va matematik modellashtirishning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anastasi, A., & Urbina, S. (1997). Psychological Testing. Prentice Hall.

2. Kaplan, R.M., & Saccuzzo, D.P. (2017). Psychological Testing: Principles, Applications, and Issues. Cengage Learning.

3. Бодалев А.А., Столин В.А. Общая психодиагностика. СПб., 2000. -125 b

4.Hayitov O.E. Psixodiagnostika. O‘quv qo‘llanma.-T.,2007.-10b

5. Jalilova S.X., G‘ayibova N.A. Umumiy psixodiagnostika.-T.,2017.-41 b.

6. Shakirov, M., & Karimova, N. (2020). Psixometrik testlar va ularning matematik tahlili. Toshkent.

7. Usmanov, R. (2021). Matematik modellashtirish va psixodiagnostika. Toshkent.

РАЗВИТИЕ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ КАК ЭЛЕМЕНТА КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Нажимова А.И.-
Старший преподаватель кафедры начального образования НавГУ

Аннотация: В статье идет речь об организации активной познавательной и созидательной деятельности учащихся, способствующей накоплению творческого опыта младших школьников, о том, что воображение является психологической системой, ее действие выражается в сложности форм преобразования действительности средствами восприятия, мышления, памяти, воображения и эмоционально – потребностной сферы.

Ключевые слова: познавательная деятельность, творческий опыт, воображение, восприятие, мышление, память, пространственное мышление.

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida fazoviy tasavvurni rivojlantirish

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning faol kognitiv va ijodiy faoliyatini tashkil etish, bu kichik maktab o‘quvchilarining ijodiy tajribasini to‘plashga yordam beradi, tasavvur psixologik tizimdir, uning harakati voqelikni o‘zgartirish shakllarining murakkabligida ifodalanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kognitiv faoliyat, ijodiy tajriba, tasavvur, idrok, fikrlash, xotira, fazoviy fikrlash.

Development of spatial imagination in primary schoolchildren

Annotation: The article deals with the organization of active cognitive and creative activity of students, which contributes to the accumulation of creative experience of younger schoolchildren, that imagination is a psychological system, its action is expressed in the complexity of forms of transformation of reality by means of perception, thinking, memory, imagination and the emotional-need sphere .

Keywords: cognitive activity, creative experience, imagination, perception, thinking, memory, spatial thinking.

Реформы современного образования заключаются в предоставлении возможности всем учащимся проявить свои таланты и творческий потенциал, подразумевающий возможность реализации личных планов.

Одним из основополагающих принципов обновления содержания образования является его личностная ориентация, предполагающая опору на субъектный опыт учащихся, актуальные потребности каждого ученика. В связи с этим остро встал вопрос об организации

активной познавательной и созидательной деятельности учащихся, способствующей накоплению творческого опыта младших школьников, как основы, без которой самореализация личности на последующих этапах непрерывного образования становится малоэффективной.

В современном мире, где скорость изменений и объем информации стремительно растут, важно поддерживать развитие гибких навыков у детей.

Модель 4К — коммуникация, координация, креативность и критическое мышление — становится ключевым элементом образовательного процесса.

Коммуникация учит детей эффективно обмениваться мыслями и чувствами, развивая навыки публичного выступления и активного слушания.

Координация способствует созданию командной работы, где каждый участник понимает свою роль и значение других.

Креативность открывает двери для новых идей, предлагая детям подходы к решению проблем, которые ранее казались невозможными.

Критическое мышление, в свою очередь, формирует способность анализировать информацию, оценивать ее достоверность и принимать обоснованные решения. Это становится особенно важным в эпоху информации, когда дети сталкиваются с массивом данных, требующих осмысленности и способности фильтровать важное от вторичного.

Помогая ребенку освоить эти четыре важных навыка, мы закладываем основу для успешной жизни в будущем. Каждый из этих элементов является неотъемлемой частью развития личности и способствует подготовке к вызовам современного общества.

Критическое мышление, в свою очередь, формируется через обсуждение прочитанных книг, анализ ситуаций и постановку вопросов, что помогает детям оценивать информацию и принимать обоснованные решения.

На сегодняшний день актуальна проблема поиска средств развития критического мышления, мыслительных способностей, связанных с творческой деятельностью младших школьников как в коллективной, так и в индивидуальной форме обучения.

Многие психологи отмечают, что благодаря мышлению, воображению человек творит, разумно планирует свою деятельность и управляет ею. Материальная и духовная культура, созданная человечеством к настоящему времени, является продуктом развития его воображения. Именно воображение выводит человека за пределы его сиюминутного существования, напоминает о прошлом, открывает будущее. Обладая богатым воображением, человек может «жить» в разном времени, что не может себе позволить никакое другое существо в мире. Безусловно, что прогресс общества находится в прямой зависимости от развития воображения сегодняшнего поколения детей. Поэтому методы и приемы его развития - одна из актуальных проблем современного образования. В младшем школьном возрасте ребенок в своем воображении уже может создавать разнообразнейшие ситуации. Формируясь в игровых замещениях одних предметов другими, воображение переходит в другие виды деятельности.

В условиях учебной деятельности к воображению ребенка предъявляют специальные требования, которые побуждают его к произвольным действиям воображения. Учитель на уроках предлагает детям представить себе ситуацию, в которой происходят некие преобразования предметов, образов, знаков. Эти учебные требования побуждают развитие воображения, но они нуждаются в подкреплении специальными орудиями - иначе ребенок затрудняется продвинуться в произвольных действиях воображения. Это могут быть реальные предметы, схемы, макеты, знаки, графические образы и другое.

Воображение – это присущая только человеку, возможность создания новых представлений путём переработки предшествующего опыта. Воображение нередко именуют фантазией. Воображение - это высшая психическая функция, которой обладает только человек, и отражает действительность. Именно воображение позволяет сформировать образ ситуации, объекта, условий, которые ранее никогда не существовали и не существуют в настоящее время.

Воображение – это особая форма человеческой психики, стоящая отдельно от остальных психических процессов и вместе с тем занимающая промежуточное положение между восприятием, мышлением и памятью [1].

Как отмечают некоторые ученые в своих трудах, воображение существенно развивает и углубляет процесс познания объективного мира, так как изучая различные учебные дисциплины, именно с помощью воображения обучающиеся могут активизировать абстрактные понятия, насытить формулы четким содержанием. Зачастую проблемы в познании научных понятий, в решении учебных задач возникают в связи с недостаточностью представления определенных образов. К примеру, неверное представление чертежа геометрической задачи делает ее совсем неразрешимой. Для того, чтобы решить ту или иную задачу, надо не только осмыслить содержание, но и создать адекватный образ. А это функция воображения [2].

Чтобы разрешить мыслительную задачу, нам необходимо использовать определенную информацию. Случается так, что информации может быть недостаточно для решения. В таком случае мышление не имеет никакой силы без работы воображения. Воображение гарантирует познание, когда огромна неопределённость ситуации. Это общее значение функции воображения у детей, и у взрослых.

Воображение постоянно нацелено на практическую деятельность человека. Человек, чтобы что-то сотворить, сначала пытается представить, что и как надо делать. То есть, он наперед строит образ материальной вещи, которую ему необходимо изготовить.

Изучение математики в начальной школе направлено на достижение следующих целей: развитие образного и логического мышления, *воображения*, математической речи…» [3].

В старшем дошкольном возрасте у детей возникают первые элементы произвольного воображения, которые в последующем процессе обучения в школе математике совершенствуются и развиваются. Если ребенок склонен и способен к созданию графических образов предметов и явлений, то это эффективно позволит ему решать творческие задачи. Создание графических образов или графическое моделирование нужно не только для удачного обучения, но и для творческой деятельности - изобразительной, конструкторской, технической, а также в деятельности, которая встречается в повседневной жизни.

Поэтому, одной из главных задач начальной школы является развитие пространственного воображения обучающихся, а именно способности строить образы в трехмерном пространстве.

Пространственное воображение - это умение мысленно моделировать и «увидеть» всевозможные проекты или конструкции, вообразить их внутренним зрением в цвете и деталях. Пространственное воображение представляется способом добычи информации, является вспомогательным способом мышления, формулировки задач, средством решения той или иной проблемы.

Л.С. Выготский характеризовал воображение как строителя чего-то нового из тех впечатлений, которые были накоплены ранее. Умение из элементов, взятых из действительности и содержащихся в прежнем опыте человека, создавать построение, комбинировать старое в новые сочетания и составляет основу творчества [4].

Воображение является психологической системой, ее действие выражается в сложности форм преобразования действительности средствами восприятия, мышления, памяти, воображения и эмоционально – потребностной сферы. Чтобы заложить в ребенка прочную основу творческой деятельности нужно увеличивать и развивать опыт ребенка, обогащать его чувственную сферу, развивать память. Л.С. Выготский отмечает, что «чем больше ребенок видел, слышал и пережил, чем больше он знал и усвоил, чем большим количеством элементов действительности он располагает в своем опыте, тем значительнее и продуктивнее при других равных условиях будет деятельность его воображения» [4].

В процессе восприятия происходит переработка данных, что приводит к возникновению новых образов в результате мыслительной деятельности. Поставив перед ребенком задачу, он анализирует ее, выбирает нужные представления, после чего эти представления и их элементы пытается соединить, чтобы получить новый образ. Таким образом расширяются границы

детского воображения в познании действительности. Воображение и мышление внедряются в творческую деятельность человека, что способствует изменению окружающего мира, что дает возможность находить закономерности природы и социума. Воображение и мышление помогает человеку выделять общее и характерное, позволяет представить определенные предметы и явления в обобщенном образе. Поэтому знания, умения и навыки, которые дети получают в течение своей жизни, помогают развивать детское мышление и воображение.

Л.С. Выготский утверждает, что воображение и мышление тесно взаимосвязаны и участвуют в любом творческом акте[4].

Со второй половины XX века ученые отказались от введения в понятие воображения образной памяти. На сегодняшний день наиболее распространенным понятием воображения является определение его как творческого процесса по созданию новых образов на основе переработки материала действительности[5].

Деятельность воображения направляется и корректируется потребностями человека, его интересами. Формирование и смысл образов воображения устанавливаются мотивами и целями деятельности ребенка, его направленностью, чувствами, желаниями, способностью.

В процессе различных видов деятельности (в игре, лепке, рисовании, конструировании и т.п.) у младших школьников развивается пространственная ориентировка. В процессе деятельности дети получают информацию и знания о пространстве в общем.

В развитии пространственного мышления огромную роль играет математика, которую считают первоосновой мышления человека. На уроках математики у обучающихся устанавливаются знания о пространстве, величине (большой, больше, меньше, маленький, одинаковые, равные, крупно, мелко, половина, пополам), форме (прямоугольник, квадрат, овал, треугольник, заостренный, изогнутый), протяженности (длинный, короткий, широкий, узкий, высокий, слева, справа, горизонтально, прямо, наклонно), положении в пространстве и пространственная связь (посередине, выше середины, ниже середины, справа, слева, сбоку, ближе, дальше, спереди, сзади, за, перед).

Одним из основных предметов математики является форма и пространство. Поэтому математические знания нужно использовать при формировании пространственного мышления. Математика дает невероятные возможности развития мышления у человека. Если вспомнить, то практически все существующие понятия в математике возникли в результате умственной и абстрагирующей деятельности человека, который изучал и познавал явления, вычленял закономерности действительности. Приобретая знания на уроках математики в начальной школе о пространстве, у обучающихся развивается способность к более быстрому и успешному усвоению материала других учебных дисциплин.

Математика как наука изучает пространственные отношения и формы их обобщения. Математика дает возможность развивать у детей мышление, память, внимание. Математика способствует развитию творческого воображения и наблюдательности. Таким образом, математика создает все условия для становления и развития пространственного мышления обучающихся. В начальной школе в основном материал по геометрии имеет только накопительный характер. Обучающимся предлагается рассмотреть фигуры, выяснить ее свойства и научиться решать практические задачи на вычисление. Обобщение материала как такового отсутствует.

Чтобы разрешить существующие проблемы, в начальной школе необходимо как можно больше уделять внимание развитию пространственных представлений и моделированию реальных геометрических объектов. Принято считать, что дети младшего школьного обладают специфической особенностью, которая заключается не в том, что они в состоянии выполнять и достичь сегодня, а в потенциальных возможностях, которыми располагают дети этого возраста, в возможностях, которые лежат в зоне ближайшего развития младшего школьника. Таким образом, педагог должен учитывать все индивидуальные возможности и способности обучающегося. Организовывать свою работу учитель должен школьника, а на то, что младший школьник обладает большими интеллектуальными возможностями, чем те, которые он обычно обнаруживает. [6].

Большое признание получила идея трех уровней знаний, через которые, так или иначе проходит умственное развитие школьника:

1-й уровень - знание-знакомство

2-й уровень - логический уровень знания

3-й уровень - творческий уровень знания.

Геометрический материал в младших классах изучается на первом уровне, т.е. на уровне знания-знакомства. Здесь не нужно заучивать определения и правила. Достаточно того, что ребенок может отличить овал от круга, прямоугольник от квадрата, и даже на ощупь определить фигуру. Это тоже знание, которое обогащает мир представлений и слов ребенка. [7].

Знакомство ребенка с математикой должно строиться на использовании его базового субъектного опыта пространственной ориентации, геометрическими формами в ходе активного их преобразования, причем одновременно в двух и трехмерном пространствах. Чтобы в единстве создать проективные, топологические и метрические знания у ребенка в начальной школе, необходимо опираться на жизненный опыт ребенка. Тогда на базе полученных знаний ребенок сможет выстроить научную систему знаний о геометрических фигурах.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Выготский Л.С. Воображение, творчество в детском возрасте. /Психологический очерк кн. Для учителя. – М.: Просвещение, 2008. – 470 с.

2. Боровик О.В. Развитие воображения. Методические рекомендации. - М.: ООО "ЦГЛ "РОН", 2013. - 112 с.

3. Андреева И.А. 30 уроков для развития творческих способностей и воображения. Минск: Современная школа, 2007. — 32 с.

4. Балагурова М. С., Баринова Н. И. Развитие воображения младших школьников // Молодой ученый 2015 №22.1 (102) ноябрь-2. Спецвыпуск: Материалы межвузовской научно-практической студенческой конференции Социально-педагогический потенциал современной литературы для детей и подростков. М.: Молодой ученый. 2015. - С. 29-33

5. Гераимчук И.М. Активизация творческой деятельности. Монография. К.: ПП Нестроевый, 2014. - 552 с.

6. Дубина А.М. Тренинг развития памяти. М.: АРДИС, 2009 г. – 218 с.

MATEMATIK O‘YINLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA MANTIQLI FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Buxoro xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti
Jo‘lanova Gulnoza Kulmuxammatovna
Ilmiy rahbar Sodiqova Dilora Shavkatovna

Annotatsiya: Matematik o‘yinlar orqali o‘quvchilarda mantiqli fikrlashni rivojlantirish mavzusi bugungi kun ta’limida nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Chunki zamonaviy jamiyatda har bir insondan teran aql, tezkor va izchil fikrlash, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati talab etiladi. Ana shu sifatlarga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashda matematika muhim o‘rin egallaydi. Maktab yoshidan boshlab matematikaning asoslari, mantiqiy fikrlashning eng avvalgi bosqichlari o‘quvchilar ongida shakllanadi. Bu esa ta’lim tizimidan innovatsion yondashuvlarni, dars jarayoniga turli zamonaviy usullar va vositalar, xususan, matematik o‘yinlarni kiritishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: matematik o‘yinlar, mantiqiy fikrlash, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar, dars, mavzu, vazifa, ijodkorlik.

Аннотация: Тема развития логического мышления учащихся посредством математических игр чрезвычайно актуальна в современном образовании. Ведь в современном обществе от каждого человека требуются глубокий ум, быстрое и последовательное

мышление, способность анализировать и принимать самостоятельные решения. Математика играет важную роль в воспитании личности, обладающей этими качествами. Начиная со школьного возраста, в сознании учащихся формируются основы математики, закладываются самые ранние этапы логического мышления. Это требует от системы образования внедрения в учебный процесс инновационных подходов, различных современных методов и инструментов, в частности математических игр.

Ключевые слова: математические игры, логическое мышление, инновационные технологии, современные подходы, урок, тема, задание, творчество.

Abstract: The topic of developing logical thinking in students through mathematical games is extremely relevant in today's education. Because in modern society, every person is required to have a deep mind, quick and consistent thinking, the ability to analyze and make independent decisions. Mathematics plays an important role in educating individuals with these qualities. Starting from school age, the foundations of mathematics, the earliest stages of logical thinking are formed in the minds of students. This requires the education system to introduce innovative approaches, various modern methods and tools into the teaching process, in particular mathematical games.

Keywords: mathematical games, logical thinking, innovative technologies, modern approaches, lesson, topic, task, creativity.

KIRISH

Matematik o‘yinlarning asosiy vazifasi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mavzuga mustahkam chuqur kirib borish va undan o‘ziga kerakli bilim va ko‘nikmalarni olish imkonini yaratishda yotadi. Mantiqli fikrlash bu nafaqat matematikani o‘rganishda, balki boshqa barcha fanlarni o‘zlashtirishda, hayotiy muammolarni hal qilishda, mustaqil va aniq qaror qabul qilishda asosiy tamoyillardan biridir. Matematika o‘yin vositasida o‘zini ko‘rsatadi, bola tafakkurining yangi qirralari ochiladi, tahlil qilish, solishtirish, sabab va natijani aniqlash ko‘nikmalari shakllanadi. Natijada, o‘quvchilar turli masalalarga ijodkorlik bilan yondashishni, o‘z fikrini asoslashni, oldinda turgan muammoni to‘g‘ri tahlil qilish va uning yechimini topishni o‘rganadi. Har bir dars bolani o‘ylashga undashi, uni faol ishtirokchi sifatida jalb etishi, bilim olishga intilishini rag‘batlantirishi lozim. Matematika darslariga o‘yin metodlarini joriy etish shular jumlasidan. Bu o‘yinlar bolani jonlantiradi, darsni yengillashtiradi, uning ongiga yangi bilimlarni osonlik bilan singdiradi. O‘yin jarayonida bola bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini sekin-asta anglaydi, tafakkurining imkoniyatlarini sinab ko‘radi, mantiqiy mulohazalar yuritadi va o‘z natijasiga erishishga harakat qiladi. O‘yinlar orqali mustaqil va tanqidiy fikrlash bosqichlari bosib o‘tiladi. Ushbu jarayon natijasida o‘quvchi matn, raqam, shakl va tasvirlardan mantiqiy rishtalarni topish, ulardagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, muammoning mohiyatini anglash, tahlil va umumlashtirishni o‘rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Matematik o‘yinning kuchi shundaki, u bolani erkin, mustaqil va har qanday sharoitga moslashuvchan fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda xizmat qiladi. Har qanday o‘yin qatnashchidan faol harakat, ijodiy yondashuv, muammoni mustaqil tarzda hal qilish ko‘nikmalarini talab qiladi. Bunda o‘quvchi berilgan masala yoki topshiriqni to‘g‘ri tahlil qiladi, bir yoki bir nechta yechimni aniqlaydi, natijani oldindan taxmin qiladi va eng maqbul yo‘lni tanlashga harakat qiladi. Dars jarayonida o‘yinli metodlardan foydalanish natijasida o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan qiziqish kuchayadi, ular ongida ijobiy emotsiyalar paydo bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida bilimlarni mustahkamlash va xotirada uzoqroq saqlashga olib keladi. Har bir matematika o‘yinida bolaning shaxsiy hohishi, qiziqishi, qobiliyati va harakatga bo‘lgan ishtiyoqi ko‘zga tashlanadi. O‘yin orqali bolalar o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishadi, bilimini amaliyotda sinovdan o‘tkazishadi, tanqidiy va o‘ziga ishonch bilan harakat qilishadi. Matematik o‘yinlarda ko‘pincha bola oldiga muayyan muammo qo‘yiladi va u bu muammoni individual yoki jamoaviy tarzda hal qilishi talab qilinadi. Bu jarayonda o‘quvchi topqirlik, teranlik, tezkor javob bera olish, ijodiy fikr yuritish, natijani oldindan ko‘ra olish, o‘z xatolaridan to‘g‘ri xulosa chiqarish, bilimlarni birlashtira olish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bunday faoliyat orqali bolaning mantiqiy fikrlashi ayni rivojlanadi. Chunki har bir o‘yin jarayonida natijaga olib boruvchi harakatlar qat’iy mantiq asosida amalga oshirilishi lozim bo‘ladi.[1]

O‘quvchilar orasida matematika faniga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish ham aynan matematik o‘yin orqali erishiladi. Bola orzu qilgan natijaga erishish uchun faollik va izchillik bilan harakat qiladi. Shunda u nafaqat dars mazmunini yaxshi o‘zlashtiradi, balki hayotiy vaziyatlarda ham mantiqiy fikr yuritib to‘g‘ri qaror chiqarishga odatlanadi. Aksariyat hollarda o‘yinli mashg‘ulotlar darsda passivroq ishtirok etadigan bolalarni ham jonlantiradi. Sababi, o‘yin bolani doimo harakatga undaydi, raqobat muhitida saviyasini ko‘rsatishga, o‘zini namoyon qilishga, har turdagi bilim va qobiliyatlarini ochishga yordam beradi. Ular muammoni mustaqil tahlil qilish, javoblarni qiyoslash, eng to‘g‘ri va maqbul yechimni topishga da’vat etadi. Bu esa umumiy holda har bir bolaning intellektual rivojiga, tafakkur salohiyati va mustaqil fikr yurita olishiga ijobiy ta’sir etadi. Matematik o‘yinlar orqali maktab o‘quvchilarida sabab–oqibat munosabatiga asoslangan tafakkur shakllanadi. Darslarda beriladigan har bir topshiriq, masala, savol – bularning barchasi bolani aniqlikka, aniqlangan natijani mustaqil tahlil qilishga, olgan bilimlarini real hayotga tadbiq qilishga o‘rgatadi. O‘yinli metodlarda bolaning shaxsiy tajribasi, mustaqil xulosasi, o‘zini namoyon qilish istagi bosh vazifa bo‘lib xizmat qiladi.[2]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va mustahkamlashda o‘yinli yondashuvlar ko‘plab didaktik vositalarni o‘z ichiga oladi. O‘yinli mashg‘ulotlarda bolaning oldida qadamma-qadam ko‘zda tutilgan harakatlar turganday bo‘ladi. U savollar va topshiriqlar ortida yashiringan qonuniyatni anglaydi, o‘z tasavvuri va bilimi bilan natijani qiyoslaydi, izlanish va mushohada qilib, yechimlarni qayta-qayta tekshiradi. Bolalarda mantiqiy tafakkur to‘g‘ri shakllanishi uchun riyozat darslarini faqatgina an’anaviy usullarda o‘tish kamlik qiladi. Chunki oddiy darslarda ular ko‘proq ma’lumotni yodlash, mavzuni o‘zlashtirish bilan chegaralanadi. O‘yinli jarayon esa bu yo‘nalishda ancha samarali va ta’sirchan natija beradi. Chunki o‘yin mobaynida rag‘bat, talab va faollik borligi sababli olingan bilim uzoq muddatgacha esda qoladi, bola bilimga nisbatan ixlos va mehr bilan qaraydi. Matematik o‘yinlarda chuqur kontent va yagona ma’no mavjud bo‘lib, bolada analitik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir ishtirokchi o‘z ustida ishlaydi, o‘z saviyasini sinaydi, yangi narsalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun intiladi. O‘yinlar orqali muvaffaqiyatli yechim topish yaqqol mukofotlanadi, qiyin masalalar ustida bosh qotirib, zaminli fikr yuritish bolada orzu va intilish uyg‘otadi.[3]

Zamonaviy darslarda afzalliklaridan yana biri, bolalarda o‘z fikrini erkin ifoda etish, o‘zini jalb qila olish, bir vaziyatda bir nechta yechimlarni qiyoslash, eng maqbulini tanlash, mantiqiy zanjirlar orqali xulosa chiqarish, mustaqil va tizimli fikr yuritish kabi ko‘nikmalar ham matematik o‘yin orqali yanada kuchayadi. Shu sababli ham, darsda matematik o‘yinlardan unumli foydalanish, bolalarning individualligiga hurmat, intellektual va эмоционallikni uyg‘otishda beqiyos ahamiyatga ega. Ko‘pincha o‘quvchilar o‘yinli jarayonlarni o‘ziga yaqin va ishtiyoq bilan qabul qiladi. Chunki bunda ular o‘zlarini erkin his qiladilar, bilim va qobiliyatini ochishadi. O‘yinlarda o‘quvchi xatoni to‘g‘ri qabul qilish, xulosani takomillashtirish, to‘g‘ri va noto‘g‘ri yo‘llarni ajratish, asosli natijaga erishish bosqichlarini bosib o‘tadi. Matematik o‘yinlarda hamjihatlik va jamoaviy ish muhim o‘rin tutadi. Bunda bolalar o‘z guruhlari bilan muloqot qiladi, qaror qabul qilishda bir-birlariga tayanadi, o‘rgangan bilimlarini boshqalar bilan baham ko‘radi, natijada ijtimoiy ko‘nikmalar ham rivojlanadi. Dars jarayonini matematik o‘yin vositasida tashkil qilish – bolani o‘z shaxs sifatida ko‘rsatishga, o‘ziga nisbatan ishonch olishga, ijodiy va mantiqiy tafakkurda rivojlanishga sabab bo‘ladi.[4]

O‘yinli metodlarda o‘quvchi har doim faol ishtirokchi hisoblanadi. U doim izlanishda bo‘ladi, yangi g‘oyalar ustida bosh qotiradi, bilimini amaliyotda qo‘llaydi, noto‘g‘ri javoblardan o‘rganadi va xatolarini tuzatishga harakat qiladi. Buning natijasida bolaning o‘zini anglash va rivojlantirish, yangiga intiluvchanlik, muammoni oldindan ko‘ra bilish va har xil hollarda tezkor xulosa chiqarish qobiliyati mustahkamlanadi. Matematik o‘yinlarda bolaning bilimga bo‘lgan motivatsiyasi deyarli ikki-uch barobar oshadi. Bola bilim olish jarayonini quvonch va qoniqish bilan qabul qiladi. Ularni hayajonga soladigan omillar – natija, g‘alaba, muvaffaqiyat hissi, bilim o‘stirish, o‘z ustida ishlash – bularning barchasi matematik o‘yin orqali yuzaga chiqadi. Matematik o‘yinlarda bolalarning individual imkoniyatlariga e’tibor qaratiladi. Har bir bola o‘z fikri, g‘oyasi, tashabbusi bilan ajralib turadi, barchasi uchun o‘zini ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘ladi. O‘yinlar intellektual salohiyatning shakllanishi uchun zamin yaratadi, buning natijasida har bir o‘quvchi yuksak tafakkur sohibiga

aylanadi. Har bir mustaqil fikrlovchi bola esa kelajakda zamonaviy jamiyat talabiga javob bera oladigan, har xil murakkab hayotiy vaziyatlarda layoqatli qaror qabul qiladigan, o‘z sohasining ustasiga aylanishi mumkin. Matematik o‘yinlar esa bevosita bunday salohiyatli, har tomonlama yuqori darajada shakllangan shaxslarni tarbiyalashda muhim vositadir. Shunday qilib, matematik o‘yinlar orqali bolalarda teran va keng mantiqli fikrlash tarbiyalash, har qanday muammoni tubanidan tahlil qilish, aniq xulosa chiqarish, tafakkurni izchil rivojlantirish keng ko‘lamli, muhim va samarali ta’limiy yo‘l ekanini ko‘ramiz. Matematik o‘yinlar nafaqat bolada bilim, balki kreativit, topqirlik, bir masalaga turli yondashuvlarni tatbiq etish, bilimni real hayotda qo‘llash malakasini shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida, ularni kelajakda muvaffaqiyatli, zamonaviy va ilg‘or shaxs sifatida shakllanishida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.[5]

XULOSA

Xulosa qilinsa, matematika darslarida o‘yinli metodlardan keng foydalanish, ularning asosiy tamoyillarini dars jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilarda mustahkam va kreativ mantiqli fikrlashni rivojlantirish mumkin. O‘yinlarda to‘plangan bilim va ko‘nikmalar uzoq muddatga saqlanib qoladi, bola har doim yangi izlanish va mushohada sari intiladi. Bu esa ta’limning yuqori natijalari, o‘z yo‘lini topgan, mantiqli va mustaqil fikrlaydigan avlodning shakllanishini kafolatlaydi. Matematik o‘yinlar o‘quvchilarga faqat bilim emas, balki hayotiy muvaffaqiyat va intellektual yuksalishga ham yo‘l ochadi. Ana shu jihatlari bilan matematik o‘yinlar zamonaviy ta’limda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, S. U. (2017). "Matematika o‘qitish metodikasi: innovatsion yondashuvlar". O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent.
2. Jo‘rayev, A. H. (2018). "Matematik o‘yinlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish". O‘zMU Ilmiy jurnali, 2(36), 85-92.
3. Ergashova, L. R. (2019). "Matematika darslarida o‘yin metodlaridan foydalanish samaradorligi". Zamonaviy ta’lim, 4(55), 112-118.
4. Ruziboyeva, X. X. (2020). "Boshlang‘ich sinf darslarida matematik o‘yinlardan foydalanishning zamonaviy yo‘llari". Yangi O‘zbekiston Ilmiy-metodik jurnali, 3(22), 94-100.
5. Nazarov, B. A. (2021). "Maktabda matematik o‘yinlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi". O‘qituvchi, 5(68), 47-53.
6. Mirzayeva, D. I. (2018). "Matematika darslarida o‘yin texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari". Xalq ta’limi, 1(70), 53-58.
7. Shodmonov, O. Q. (2022). "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda innovatsion o‘yinlarning o‘rni". Ta’lim va innovatsiyalar, 9(41), 73-79.
8. Abduqodirova, M. F. (2019). "Matematik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish yo‘llari". Metodik maslahat, 6(12), 158-164.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI 4 K MODELI ORQALI MULOQOT KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Navoiy davlat universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi dotsenti,
f.f.f.d.(PhD) R.X.Ravshanova

Annotatsiya: Ushbu maqolada diskurs tushunchasi, ona tili ta’limining pedagogik va kommunikativ ahamiyati, hamda 4K modelining boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishi ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan hamda matn va dialoglar orqali o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, so‘z boyligini kengaytirish va jamoadagi hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘z: 4K modeli, diskurs, muloqot ko‘nikmasi, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik, og‘zaki va yozma nutq.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ЧЕРЕЗ МОДЕЛЬ 4К

Аннотация: В данной статье научно рассматриваются понятие дискурса, педагогическое и коммуникативное значение обучения родному языку, а также применение модели 4K в начальном образовании. Кроме того, приводятся сведения о развитии у учащихся устной и письменной речи, расширении словарного запаса и формировании навыков командного взаимодействия через тексты и диалоги.

Ключевые слова: Модель 4K, дискурс, ломмуникативные навыки , критическое мышление ,креативность, коммуникация взаимодействие, устная речь, письменная речь.

DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH THE 4K MODEL

Abstract: This article scientifically examines the concept of discourse, the pedagogical and communicative significance of mother tongue education, and the implementation of the 4K model in primary education. It also presents methods for developing students' oral and written communication skills, enhancing their vocabulary, and fostering teamwork and collaboration through texts and dialogues.

Key words: 4K model, discourse, communication skills, critical thinking, creativity, communication, collaboration, oral communication, written communication.

Ma'lumki, ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.27

Diskurs – fikrni bayon qilish jarayoni, lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og'zaki shaklini moddiy voqelanishi, lisoniy va nolisoniy vositalarning birgalikda, hamkorlikda ishlatilishi, lingvo-etno-psixo-situatsion omillar majmui. Diskurs turli lisoniy va nolisoniy omillarning butunligidan hosil bo'lgan o'ziga xos murakkab bir tizim, sistemadir. Diskurs – lisoniy va nolisoniy omillar (pragmatik, ijtimoiy-madaniy, ruhiy) bilan birgalikdagi matn; voqea kechishi nuqtai nazaridan qaralayotgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq. Diskurs – lisonning yaratuvchanlik sohasi (namunasidir), o'z navbatida, tug'ilgan g'oya, kommunikativ maqsad (intentsiya) natijasidir. Diskurs matnga nisbatan nomoddiy ob'ekt28.

Muloqot qilish ko'nikmasi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun og'zaki nutqni rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu ko'nikma o'quvchilarda o'z fikrini aniq ifoda etish, savollarga javob bera olish, tinglovchilik madaniyatini shakllantirish kabi qator ijtimoiy va kommunikativ malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Darslarda muloqotni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar, dialogik mashqlar, rolli o'yinlar, suhbat-munozaralar o'quvchilarning erkin fikr bildirishi, nutq madaniyatini shakllantirishi va faol muloqotga tayyor bo'lishiga turtki beradi. Shuningdek, muloqot kompetensiyasining shakllanishi o'quvchilarning ijtimoiy faolligini, o'zaro hurmat va hamkorlik asosida jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'limning 4 blokli modelining asosiy maqsadi XXI asr talablariga mos keluvchi o'qitish jarayonini tashkil qilish, ya'ni o'quvchilarni iymon-e'tiqodli, o'tmishdagi mutafakkir allomalar kabi fikrlay oladigan, axborot texnologiyalaridan bemalol foydalana biladigan, aql va kamtarlik bilan muloqotga kirishuvchan, rivojlanishga qodir rejalar tuza oladigan, yuksak natijalarga erishishga qodir avlod sifatida voyaga yetkazish hisoblanadi.

Ta'limda va hayotda 4 blokli modelning qo'llanilishi fan va texnologiyalar rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek, insoniyat ijtimoiy hayotining yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etadi29.

27 M.Y.Ro'ziyeva. Ona tili va o'qish darslarida innovtsion texnologiyalardan foydalanish. Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2018, 4-b.

28 Toirova G. O'zbek pragmalingvistikasi o'quv lug'ati. – Toshkent, 2016. – B. 59.

29 Пинская М.А., Михайлова А.М., Компетенции 4К: формирование и оценка на уроке: Практические рекомендации. – М; 2019

Og‘zaki va yozma muloqot o‘quvchilarni nutqini rivojlantirish, ularning fikrlash qobiliyatini oshirish, so‘z boyligini kengaytirish, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi.

Masalan: Boshlang‘ich sinf 4-sinf o‘quvchilariga “Mening do‘stlarim ” mavzusi asosida yozma matn tuzish topshiriq sifatida beriladi.

Mening do‘stlarim

Mening do‘stlarim juda sodiq va ishonchli. Ular bilan men maktabda va dam olish kunlarida ko‘p vaqt o‘tkazaman. Do‘stim Jamshid hazilkash va aqlli. Biz birga darslarni o‘rganamiz, kitob o‘qiymiz va rasm chizamiz. U har doim menga yordam beradi va qiyin savollarda maslahat beradi. Opam Lola ham mening eng yaqin do‘stimdir. U bilan men bog‘da o‘yinlar o‘ynaymiz va tabiatni kuzatamiz. Biz doimo bir-birimizga yordam beramiz, fikrlarimizni baham ko‘ramiz va birga yangi narsalarni o‘rganamiz. Do‘stlarim bilan vaqt o‘tkazish mening hayotimni yanada maroqli qiladi.

O‘quvchilarni og‘zaki nutqini rivojlantirish uchun “Aqli hujum” usulidan foydalanamiz.

Behruz: Salom, Jamshid! Qanday ishlar bilan shug‘ullanyapsan?

Jamshid: Salom! Men kitob o‘qiyapman. Seni ko‘rganimdan xursandman!

Behruz: Men ham! Bugun do‘stlarimiz bilan bog‘ga boramiz. Sen ham kelasanmi?

Jamshid: Albatta! Men opam bilan o‘yin maydonchasida uchrashaman.

Behruz: Ajoyib! Biz birga o‘yinlar o‘ynaymiz va tabiatni kuzatamiz.

Jamshid: Ha, men ham shu fikrdaman. Do‘stlar bilan vaqt o‘tkazish juda maroqli.

Behruz: To‘g‘ri! Do‘stlarimiz har doim bir-birimizga yordam beradi va birga yangi narsalarni o‘rganamiz.

Jamshid: Ha, bu juda yaxshi! Men do‘stlarim bilan ko‘proq vaqt o‘tkazishni xohlayman.

Matn o‘quvchilarning fikrini izchil va mantiqan ifodalash, so‘z boyligini oshirish imkonini beradi hamda guruhiy va juftlik mashqlari orqali muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

To‘rt blokli modelni boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishda tadbiq qilish bugungi zamon talabi hisoblanadi va bu modeldagi to‘rt ko‘nikmani bir-biridan ayro holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. To‘rttalasi ham bir-birini to‘ldirib, izohlab keladi va o‘quvchining kelgusi hayotida muhim rol o‘ynaydi.

1. ***Tanqidiy fikrlash .***

O‘quvchilar yozgan matnini o‘qiydi va tahlil qiladi; o‘quvchilar do‘stlarining fazilatlari va xatti-harakatlarini aniqlaydi va juftlikda savol-javob orqali do‘stlarning xarakterini muhokama qilish.

Savollar: “Jamshid qanday do‘st?”

“U sizga qanday yordam beradi?”

2. ***Ijodkorlik* . O‘quvchilar** matn asosida yangi hikoya yoki o‘yin qoidalarini yaratadi. O‘quvchilar rasm chizadi, yangi voqealarni qo‘shadi va qisqa hikoya yozadi. Masalan: “Opam bilan men bog‘da…” jumlasidan boshlanadigan qisqa hikoya yozish.

3. ***Muloqot***. Guruh ichida fikr almashish, voqealarni aytib berish va tinglash mashqlari va guruh a’zolari navbat bilan o‘z do‘stlari haqida gapiradi va boshqa guruh a’zolarining hikoyasini tinglaydi.

4. ***Hamkorlik***. Guruh bo‘lib, qisqa hikoya yoki voqeani birgalikda yaratadi hamda guruhdagi a’zolar bir-biriga maslahat beradi va fikr qo‘shadi va

hikoyani sinf oldida og‘zaki taqdim etishadi.

Xulosa qilib aytganda 4 K modeli – ya’ni tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga asoslangan yondashuv – zamonaviy ta’limning muhim tamoyillaridan biri sifatida dunyo miqyosida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu model o‘quvchilarning nafaqat savodxonligini oshirish, balki ularda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va jamoada ishlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. M.Y.Ro‘ziyeva. Ona tili va o‘qish darslarida innovtsion texnologiyalardan foydalanish. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2018, 4-b.

2. Toirova G. O‘zbek pragmalingvistikasi o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2016. – B. 59.

3. Пинская М.А., Михайлова А.М., Компетенции 4К: формирование и оценка на уроке: Практические рекомендации. – М; 2019

TA’LIMNING SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN MODELI ASOSIDA BOSHLANG‘iCH SINF O‘QUVCHILARINI O‘QITISH METODOLOGIYASI

NavDU Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi) 1-bosqich magistranti
Dilmurodova Maftuna Sherzod qizi
Ilmiy rahbar:Kodirova Saodat Abduraximovna
f.f.f.d.(PhD), dotsent.
e-mail: maftunadilmurodova97@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan modeli mohiyati, uning boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tadbiqi, shunigdek o‘quvchilarning individual qobilyatlari va psixologik xususiysatlarini inobatga olgan holda samarali va qulay ta’lim metodik ishlab chiqish masalalari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, metadologiya, boshlang‘ich, individuallashtirish, interfaol metodlar, o‘qitish modeli.

Методология обучения учащихся начальных классов на основе личностно-ориентированной модели образованная

Аннотация: В данной статье отражена сущность личностно-ориентированной модели образования, её применение в процессе начального обучения, а также вопросы разработки эффективных и удобных методик с учётом индивидуальных способностей и психологических особенностей учащихся.

Ключевые слова: личностно-ориентированное образование, методика, начальная школа, индивидуализация, интерактивные методы, модель обучения.

METHODOLOGY OF EDUCATION OF PRIMARY STUDENTS BASED ON A PERSONALIZED MODEL OF EDUCATION

Annotation: This article highlights the essence of the learner-centered model of education, its application in the primary education process, as well as the development of effective and convenient teaching methods that take into account students’ individual abilities and psychological characteristics.

Keywords: person-centered education, methodology, elementary, individualization, interactive methods, teaching model.

Talimning shaxsga yo‘naltirilgan modeli so‘nggi yillarda pedagogika sohasida o‘qitishning juda muhim paradigmasiga aylangan. U o‘quvchining individual ehtiyojlari, xususiyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan. O‘quvchining markazda bo‘lishi, uning o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishi va shaxs sifatida rivojlanishi ushbu metodologiyaning asosiy tamoyillari sifatida qaraladi.

Boshlang‘ich ta'lim bosqichi, o‘quvchilarni hayotga tayyorlashning ilk qadamidir. Bu davrda o‘quvchilarning intellektual va ruhiy rivojlanishi, shaxsiy qarashlari, tafakkuri va jismoniy holati shakllanadi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda shaxsga yonaltirilgan metodologiya qo‘llash, o‘qish jarayonining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Shaxsga yonaltirilgan ta'lim–bu o‘quvchilarning ehtiyojlari, shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish jarayonini tashkil etishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yoshining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning intellektual, emosional va ijtimoiy rivojlanishining birinchi bosqichi sifatida, shaxsga yonaltirilgan ta'limni qo‘llashni talab qiladi. Bu davrda o‘quvchilarning qobiliyatlari shakllanib boradi, lekin ular hali o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini to‘liq rivojlantirmagan bo‘ladi. Shu sababli, o‘qitish jarayoni individual yondashuvni, shaxsiy xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.Boshlang‘ich sinfda shaxsga yonaltirilgan o‘qitishning metodologik jihatlari:

1. Individualizatsiya: har bir o‘quvchining o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyati ularning individual xususiyatlariga, ehtiyojlariga va qobiliyatlariga bog‘liq. Shuning uchun, boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning shaxsiy yondashuvga asoslangan metodlar bilan ishlash kerak.

2. Ijodiy faoliyatga yo‘naltirish: shaxsni yo‘naltirilgan modeliga asoslangan ta'limda, o‘quvchilarni ijodiy ishlarga jalb etish muhimdir. Loyiha ishlari, guruhlarda ishlash, amaliy mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilarni muammolarni hal qilishga o‘rgatish mumkin.

3. Tajriba asosida o‘qitish: o‘quvchilarni amaliy mashg‘ulotlar, tajribalar va kuzatuvlar orqali o‘rganishga undash. Bu o‘quvchilarning bilimni faqat nazariy emas, balki amaliy ravishda qabul qilishiga yordam beradi.

Metodologik yondashuvlar va usullar: shaxsga yo‘naltirilgan modelini boshlang‘ich sinfda muvaffaqiyatli qo‘llash uchun pedagogik metodlar va yondashuvlarni moslashtirish zarur. Quyida ushbu metodlarni qisqacha tavsiflab o‘tamiz:

1.Loyiha asosida o‘qitish: o‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan amaliy loyihalar bilan ta'minlash. Bu usul orqali o‘quvchilar o‘zlarini ishchi va ijodiy shaxs sifatida rivojlantirishadi.

2. Interaktiv o‘qitish: o‘quvchilarni darsda faollikka chorlaydigan usullarni qo‘llash. Masalan, muhokamalar, guruhli ishlar, o‘yinlar va simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini interaktiv qilish.

3. Fikr almashish va refleksiya: o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalash, darsni tahlil qilish va natijalarga refleksiya qilish imkonini berish. Bu o‘quvchining o‘rganish jarayonini anglash va mustahkamlashga yordam beradi.

Shaxsni yo‘naltirilgan modelining boshlang‘ich sinfda afzalliklar:

1. Shaxsiy rivojlanish: o‘quvchilarga o‘zini anglash va shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatini beradi.

2.Yuqori motivatsiya: o‘quvchilar o‘z ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos o‘qitish metodlaridan foydalanganda, ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi.

3. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: shaxsni yo‘naltirilgan naltirilgan modelida o‘quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilish, ijodiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi.

4. Yaxshi ijtimoiy ko‘nikmalar: koperativ o‘qitish va guruhlarda ishlash orqali o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish metodologiyasi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda, ta'lim jarayonini samarali olib borishga imkon yaratadi. O‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan bu yondashuv o‘quvchilarning bilim olish jarayonida yuqori motivatsiya berishini ta’minlaydi. Ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilardagi noyob qobilyatlarni namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-sonli qarori “Ta’lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”.-Toshkent, 2018.-B.112-127.

2. Hasanboyeva O.U., Yo‘ldoshev J.G‘., Mavlonova R.A. Pedagogika– Toshkent: O‘qituvchi, 2018.-B. 112-127

3.To‘xtaxo‘jayev B.R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi asoslari.-Toshkent: Fan, 2019-B. 58-74

4.G‘ulomov S., Qo‘ziyev R. Ta’lim jarayonida innavatsion texnologiyalar.-Toshkent:Fan, 2021.- B. 33-49

5.Amonov Sh.A. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlar.-Toshkent:TDPU nashriyoti, 2020.-B. 90-104

6.Mavlonova R.A. Pedagokik mahorat.-Toshkent : O‘qituvchi, 2017.-B. 77-83

ПРИМЕНЕНИЕ ЧЕТЫРЁХБЛОЧНОЙ МОДЕЛИ (КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ, КРЕАТИВНОСТЬ, ОБЩЕНИЕ И СОТРУДНИЧЕСТВО) В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТОВ

Туракулова С.Б., НавГУ, магистрант.
E-mail: turakulovasabina0@gmail.com

Аннотация: В статье раскрываются возможности применения четырёхблочной модели 4K (критическое мышление, креативность, общение и сотрудничество) в образовательной практике. Описаны основные компоненты модели и их роль в формировании метапредметных компетенций обучающихся. Рассматриваются педагогические условия и методы, обеспечивающие развитие критического мышления, креативности, коммуникативных умений и навыков сотрудничества.

Annotatsiya: Maqolada 4K to'rt blokli modelni (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, aloqa va hamkorlik) ta'lim amaliyotida qo'llash imkoniyatlari ochib berilgan. Modelning asosiy tarkibiy qismlari va ularning talabalarning meta-fan kompetentsiyalarini shakllantirishdagi roli tasvirlangan. Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar va usullar ko'rib chiqiladi.

Abstract: The article reveals the possibilities of applying the four-block 4K model (critical thinking, creativity, communication and collaboration) in educational practice. The main components of the model and their role in the formation of meta-subject competencies of students are described. The pedagogical conditions and methods that ensure the development of critical thinking, creativity, communication skills and cooperation skills are considered.

Ключевые слова: модель 4K, критическое мышление, креативность, общение, сотрудничество, компетенции XXI века, образование.

Современное образование переживает период интенсивных преобразований, связанных с необходимостью подготовки личности, способной эффективно действовать в условиях быстро меняющегося мира. Одним из ключевых направлений обновления образовательных подходов является внедрение четырёхблочной модели 4K (Critical thinking, Creativity, Communication, Collaboration), которая охватывает развитие критического мышления, креативности, коммуникативных навыков и умений сотрудничества. Данная модель широко применяется в международной педагогической практике и рассматривается как основа формирования компетенций XXI века.

1. Сущность четырёхблочной модели 4C

Модель 4K базируется на четырёх взаимосвязанных компонентах, каждый из которых играет ключевую роль в развитии современного обучающегося:

- **Critical Thinking (критическое мышление)** — умение анализировать информацию, выявлять причинно-следственные связи, принимать обоснованные решения.
- **Creativity (креативность)** — способность генерировать новые идеи, находить нестандартные решения, проявлять инициативу.
- **Communication (общение)** — умение эффективно выражать мысли, слушать и понимать других, участвовать в диалоге.
- **Collaboration (сотрудничество)** — готовность работать в команде, распределять обязанности, достигать общих целей.

Каждый из этих компонентов имеет практическое значение в образовательном процессе.

2. Значение критического мышления в преподавании

Формирование критического мышления является важнейшей задачей современного образования. Оно способствует развитию аналитических и оценочных умений, помогает учащимся осознанно подходить к процессу познания.

В преподавании различных дисциплин развитие критического мышления достигается через проблемное обучение, анализ кейсов, дискуссии, работу с противоречивыми источниками информации. Педагог организует процесс так, чтобы студенты не только запоминали

материал, но и умели рассуждать, аргументировать и делать самостоятельные выводы.

3. Развитие креативности в образовательной среде

Креативность является неотъемлемой частью модели 4С, поскольку именно она способствует созданию инновационных решений. В преподавании предметов развитие креативности осуществляется через проектную деятельность, мозговые штурмы, исследовательские работы и межпредметные задания.

Креативный подход позволяет обучающимся рассматривать учебный материал с новых позиций, применять знания в нестандартных ситуациях и развивать самостоятельность мышления.

4. Коммуникация и сотрудничество как основа командного обучения

Современные образовательные технологии требуют от учащегося не только знаний, но и развитых коммуникативных и социальных навыков. Умение взаимодействовать в коллективе, договариваться, принимать совместные решения становится важнейшим фактором успешности.

Преподаватель, применяющий модель 4К, организует учебную деятельность через групповые проекты, парные задания, ролевые игры и дебаты. Эти формы работы способствуют формированию у студентов культуры общения, взаимопомощи и ответственности за общий результат.

5. Педагогические условия реализации модели 4К

Для эффективного применения четырёхблочной модели в преподавании необходимо создание особых педагогических условий:

- разработка учебных программ, ориентированных на формирование метапредметных компетенций;
- использование интерактивных методов обучения (дебаты, дискуссии, проектная работа);
- интеграция цифровых инструментов и онлайн-сервисов;
- поддержание атмосферы доверия и открытости в образовательном процессе.

6. Перспективы внедрения модели 4К

Внедрение четырёхблочной модели открывает новые возможности для повышения качества образования. Она способствует формированию у обучающихся навыков саморазвития, критической оценки информации, творческого подхода к решению задач и эффективного взаимодействия с окружающими.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. — San Francisco: Jossey-Bass, 2009.

2. Fullan M. The New Pedagogy for Deep Learning. — Toronto, 2021.

3. Хуторской А. В. Компетентностный подход и методология современного образования. — М.: УРАО, 2020.

4. Полат Е. С. Современные педагогические технологии. — М.: Академия, 2021.

5. Бондаревская Е. В. Личностно-ориентированное образование: концепции и технологии. — Ростов н/Д: Феникс, 2019.

BOSHLANC`ICH SINFLARDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN`IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Temirova Yulduz Aliyorovna
Navoiy Davlat Universiteti
Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
Boshlang`ich ta`lim Fakulteti 1-kurs magistranti
yulduztemirova87@gmail.com
Ilmiy rahbari: Botirova Adiba Erkinovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun`iy intellektning imkoniyatlari va ulardan ta`lim sohasida, xususan boshlang`ich ta`limda foydalanishning samaradorligi haqida so`z yuritiladi. Dunyoning rivojlangan davlatlari hamda O`zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish borasidagi loyihalar va amaliy ishlar to`g`risida fikr yuriladi. Sun`iy intellektning boshlang`ich ta`limda darslarni samarali tashkil etishdagi ahamiyati haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Sun`iy intellekt, raqamli texnologiyalar, strategiya, IDOL, AL Hackaton, boshlang`ich ta`lim

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности искусственного интеллекта и эффективность их использования в образовании, особенно в начальном образовании. Обсуждается проекты и практические работы по совершенствованию использования цифровых технологий в развитых странах мира и Республике Узбекистан.Обсуждается значение искусственного интеллекта для эффективной организации уроков в начальном образовании.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, цифровые технологии, стратегия, IDOL, Al Hackaton,начальное образование.

This article discusses the capabilities of artificial intelligence and the effectiveness of their use in education, especially in primary education. Projects and practical work on improving the use of digital technologies in developed countries of the world and the Republic of Uzbekistan are discussed. The importance of artificial intelligence in effectively organizing lessons in primary education is discussed.

Keywords: Artificial intelligence, digital technologies, strategy, IDOl, Al Hackaton, primary education.

Boshlang`ich ta`lim ta`limning poydevori deyishadi. Darhaqiqat,jajji o`quvchilarning qalbi va ongini rang-barang satrlar bilan bezash, ularning nafaqat mutaxassis balki komil inson sifatida tarbiyalash ma`suliyatli hamda shu bilan birga qiziqarli jarayondir. Uni tashkil etish esa bugungi kun o`qituvchisidan chuqur bilim,tajriba bilan bir qatorda zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalana olish ko`nikmasini ham talab etadi. Sun`iy intellekt esa shu kabi mo`jizalardan biridir.

Bugungi kunda har bir sohaga kirib borib, uning yanada rivojlanishiga o`z hissasini qo`shib kelayotgani ma`lum bo`lgan bu ixtironing ta`limdagi, xususan boshlang`ich ta`limdagi ahamiyati qanday? Bu albatta har bir ustozning mahorati va darsni tashkil metodikasiga bog`liq. Agar, o`qituvchi sun`iy intellekt yordamida darsni qiziqarli tashkil eta olsa, ma`lumotlarni ta`sirli ,esda qolarli tilda yetkazib bera olsa, albatta bu ta`lim sifatining oshishiga sabab bo`ladi. Tadqiqotlarga qaraganda, sun`iy intellekt o`qituvchining haftada 13 soatgacha vaqtini tejashi mumkin va bu kamroq ish soati hamda yanada sog`lom turmush tarzi, yanada samarali ish va yanada kreativ fikrlash uchun imkon demakdir! {1}

Sun`iy intellekt yordamida slaydlar, mavzuga doir ko`rgazmalar, video va audioroliklar tayyorlashga vaqt sarflamasdan tayyor materiallardan olib foydala olamiz. Bundan tashqari , har bir o`quvchining individual qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqib, alohida ta`lim dasturlari, topshiriq va boshqa manbalar bilan taminlay olamiz. Sun`iy intellekt bu kompyuter dasturi yoki ilovagina emas, balki jarayonni o`rganib , fikrlaydigan va shunga muvofiq takliflar bera oladigan sun`iy ongdir.

Hozirgi kunda sun`iy intellekt yordamida ta`lim beruvchi bir nechta dastur va ilovalar yaratildi. Masalan Rossiyaning «Академия Цифрового учителя» sayti kichik maktab va maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar uchun “Tinytap”, “Magicschool” dasturlarini ishga tushardi. Unga ko`ra o`qituvchi bir nechta mavzuga mos qiziqarli topshiriq va mashg`ulotlarni o`quvchilarga taqdim etishi, natijalarga

qarab rangli,rasmli va tovushli rag`batlantiruvchi shakllarni taqdim etib ularning motivatsiya olishi, shuning bilan birga jarayonlarga bo`lgan qiziqishini yanada oshirishi mumkin.{2] Ayniqsa sience darslarida tabiat va unga oid jismlar, hodisalar va ularning sabablarini o`rganish yoki , hayvon, qush va uning organizmi haqidagi bilimlarni o`quvchiga aniq va esda qolarli tarzda yetkazishimizda sun`iy intellektning imkoniyatlari bizga juda katta amaliy yordamchi bo`la oladi. Bundan tashqari matematika darslarida shakllar yoki matematik masalalarga uning yordamida aniq va hamma o`quvchiga tushunarli bir shaklda yechim topish mumkin bo`ladi. Sun`iy intellekt o`quvchilarni nafaqat puxta bilim olishini balki ularning shu fanga, ilmga, o`rganishga bo`lgan qiziqishini oshirishga asosbo`lib xizmat qiladi. Har bir to`g`ri yechim uchun rag`batlantirilgan shaxsning qalbida yana shu tuyg`uni his etish, yanada o`rganish, o`qish, izlanish va yangi bilimlarni kashf etish istagining jo`sh urishi shubhasizdir. Sun`iy intellekt biz uchun vosita va ko`makchi instrument ekanligini unutmasligimiz lozim. Zamon bilan hamnafas fikrlaydigan yetuk kadr dars jarayonlarini tashkil etishni sun`iy intellekt va yoki biror ilovaga ishonib qo`ymasdan balki uning afzalliklaridan foydalangan holda zararli tomonlaridan o`zini ham o`quvchilarni ham asray olishi kerak. Inson eng oliy mavjudot deb bejizga aytilmagan, biz o`ylab, fikrlab, his etib har o`quvchining shaxsi va xarakterini o`rgangan holda induvidual yondoshishimiz va shunga munosib muomala, fikr hamda zaruriy tadbirlarni qo`llashimiz lozim. Hozirgi zamon o`quvchisini texnika yutuqlaridan uzoq saqlash imkonsiz. Shunday ekan yoshlarimizni raqamli sun`iy intellektdan oqilona foydalanishga va ularni bilim olish, shaxsiy rivojlanish va malakali kadr, yetuk inson bo`lish yo`lida foydalanishga o`rgatishimiz uchun ulardan dars jarayonlarida foydalanishimiz eng samarali yechimdir. Zotan jadal rivojlanayotgan texnologik jarayonlar ana shunday avlodni tarbiyalashni talab etadi.

Mikrosof kompaniyasining asoschisi Bill Geyts ta`kidlashicha, sun`iy intellekt o`z hayoti davomidagi “ eng yirik texnik yutuq” deb nomladi. Uning so`zlariga ko`ra, sun`iy intellektning qadr-qimmati ulkan. Rossiyada esa sun`iy intellektli odamsimon robot IDOL taqdim etildi. Robot 70% Rossiyada ishlab chiqilgan bo`lib, mamlakat uchun yangi texnologik bosqich bo`lib ko`rilmoqda.IDOL butunlay ovtonom tarzda ishlaydi - u internetga ulanmasdan ham ishlay oladi, gaplashadi,harakatlanadi va o`zaro ta`sirga kirisha oladi.{3}

Yurtimizda ham bu borada samarali ishlar amalga oshirilib, bir qator loyihalar hayotga tadbiq etilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yilning 14-oktyabrdagi qarori bilan “Sun`iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” qabul qilindi. Mutasaddilarga sun`iy intellekt asosida ishlaydigan loyihalar sonini 100 taga, dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmini 50 mln dollorga etkazish vazifasi qo`yildi. Sun`iy intellektga doir qonuniy asoslarni yaratish,raqamli texnologiyalar sohasida ta`limni rivojlantirish bo`yicha ko`rsatmalar berildi. Bu boradagi ishlarning davomi sifatida Qoraqalpog`iston Respublikasi Nukus shahrida sog`liqni saqlash yo`nalishida Al Hackaton tanlovi o`tkazilmoqda. Unda 100 dan ortiq yoshlar jamoalarga bo`linib, sun`iy intellekt asosida innovatsion yechimlarni taqdim etmoqda.{4]

Xulosa o`rnida shuni ayta olamizki, sun`iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanayotgan davlatmi, kompaniyami yoki ilm-fan sohasi bormi ilg`or saflarda ildamlamoqda.

Shunday keng imkoniyatlar eshigini ochuvchi sun`iy intellekt ta`limda ham suv va havodek zarur. Zamonaviy ilm fan va uning yutuqlariga mos malakali va bilimli yosh avlodni tarbiyalash dolzarb masaladir. Dars jarayonlarini yanada samarali va sifatli bo`lishini ta`minlashda sun`iy intellekt o`qituvchining eng yaxshi ko`makchisi bo`la oladi. Ta`lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda darslarni samarali tashkil etish imkoni bor ekan, albatta uni hayotga tadbiq etmog`imiz darkor. Chunki sifatli ta`lim vatanimiz kelajagining poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-oktyabrdagi nutqidan “Sun`iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish texnologiyasi”

2. www.krylatskoye.ru [Первый в России человекоподобый робот с искусственным интеллектом]

3. Daryo.uz yangiliklar [O`zbekiston va dunyo yangiliklari] 2025-yil 17-noyabr

4. Стюарт Рассел и Питер Норвиг « Искусственный интеллект:современный подход» Москва-Санк Петербург-Киев 2019

5 «Академия цифрового учителя и образовательного сайта дидактогения» www.tinytap.com.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA HAMKORLIKDA O‘QITISHGA ASOSLANGAN TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH.

Raxmatullayeva Roza Otabek qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) Ravshanova R.X.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hamkorlikda o‘qitishga asoslangan ta’lim shakli orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni kuchaytirish hamda o‘zaro hurmat va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Hamkorlik, ijtimiy faollik, guruhlarda ishlash, yakka va jamoaviy mas’uliyat.

УЛУЧШЕНИЕ СОВМЕСТНОГО ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье рассматривается, как подход к совместному обучению учащихся начальной школы может способствовать развитию навыков устного и письменного общения, логического мышления, а также формированию взаимного уважения и навыков командной работы.

Ключевые слова: сотрудничество, социальная вовлеченность, групповая работа, индивидуальная и коллективная ответственность.

IMPROVING TEACHING IN ELEMENTARY GRADES

Abstract: This article examines how a cooperative learning approach for primary school students can promote the development of oral and written communication skills, logical thinking, and the development of mutual respect and teamwork skills.

Key words: cooperation, social involvement, group work, individual and collective responsibility.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bola nutqiy, tafakkuriy va ijtimoiy kompetensiyalarni egallay boshlaydi. Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchi faolligini oshirish, o‘z fikrini erkin bayon qila olishiga erishish hamda bilimni mustahkam egallash uchun hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi juda samarali hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf “Ona tili” darslarida bu texnologiyaning qo‘llanilishi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi hamda o‘zaro hurmat va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.[1]

Hamkorlikda o‘qitishning nazariy asoslari:

Hamkorlikda o‘qitish – bu o‘quvchilarni kichik guruhlar yoki juftliklar shaklida birgalikda ishlashga yo‘naltiruvchi pedagogik yondashuvdir.

Asosiy tamoyillar:

1. O‘zaro bog‘liqlik – o‘quvchilar umumiy maqsadga erishish uchun bir-biriga tayanadilar.

2. Yakka va jamoaviy mas’uliyat – har bir o‘quvchi o‘z vazifasini bajaradi, lekin guruh natija uchun ham javob beradi.

3. Ijtimoiy faollik – muloqotga kirishish, hamkorlik qilish, muammolarni birga hal qilish.

4. Tenglik va hurmat – har bir bolaning fikri qadrli.

Hamkorlikda o‘qitish konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi: o‘quvchi bilimni tayyor holatda olmaydi, balki faol muloqot, tahlil va muhokama jarayonida o‘zi yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi psixologik xususiyatlar

“Ona tili” darslarida hamkorlik asosidagi metodlarni qo‘llash aynan boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning: faol harakatni yoqtirishi, birga ishlashni istashi, tez zerikishi, o‘yin orqali tez o‘rganishi, eslab qolishida obraz va misollarning muhimligi kabi xususiyatlariga to‘liq mos tushadi.

“Ona tili” darslarida qo‘llaniladigan hamkorlik metodlari

1. “Juftlikda ishlash”

O‘quvchilar ikki kishilik guruhlarda matnni o‘qish, savol-javob qilish, diktantdagi xatolarni birgalikda topish kabi vazifalarni bajaradilar.

Natija: o‘zaro tushuntirish orqali bilim mustahkamlanadi.

2. “Kichik guruhlar” (3–5 nafar)

Har bir guruhga ma’lum topshiriq beriladi: so‘z turkumlarini ajratish, matnga sarlavha qo‘yish, gap tuzish, rasm asosida matn yaratish va h.k.

Natija: liderlik, muloqot va jamoada fikr bildirish ko‘nikmalari rivojlanadi.

3. “Aqliy hujum”

Bolalar berilgan mavzu bo‘yicha erkin fikr bildiradilar: “Gapning bo‘lagi nima?”, “Sifatni qayerdan bilamiz?”, “Nima uchun imlo qoidalari kerak?”

Natija: tez fikrlash, ijodiy yondashuv kuchayadi.

4. “Rotatsiya (karusel) metodi”

Stol atrofida aylanib turli topshiriqlarni bajaradilar:

1-stol: so‘z turkumlari

2-stol: tinish belgisi

3-stol: matn tuzish

Natija: takrorlash samaradorligi oshadi.

5. “Rol o‘ynash”

Matn qahramonlari roliga kirish, muloqot yaratish, suhbat matni tuzish.

Natija: og‘zaki nutq ravonlashadi, mustahkam o‘zlashtiriladi.[2]

Hamkorlikda o‘qitishning afzalliklari

1. Bilimning mustahkam o‘zlashtirilishi

O‘quvchi boshqasiga tushuntirar ekan, o‘zi ham chuqurroq anglaydi.

2. Har bir bola faollashadi

Passiv o‘quvchilar ham kichik guruhda o‘z fikrini aytishga majbur bo‘ladi.

3. Nutq va tafakkur rivojlanadi

O‘quvchilar gapirish, tinglash, fikrni izohlashni o‘rganadi.

4. Ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi

Hamkorlik, hurmat, muammolarni birga hal qilish – hayotiy zarur ko‘nikmalardir.

Bugungi boshlang‘ich ta’limga qo‘yilayotgan talablar hamkorlikda o‘qitish metodlarini nafaqat qo‘llash, balki ularni takomillashtirishni ham taqozo etadi. Quyidagi yondashuvlar “Ona tili” darslarida yuqori samaradorlik beradi:

1. Faol topshiriqlarni moslashtirish

Har bir guruhning yoshi, qiziqishi, bilim darajasi inobatga olinib, topshiriqlar tabaqalashtiriladi.

Masalan:

kuchli o‘quvchilar – matnni tahlil qiladi;

o‘rta o‘quvchilar – gap tuzadi;

qiyin o‘zlashtiruvchilar – so‘z turkumlarini ajratadi.

Bu orqali har bir o‘quvchi muvaffaqiyat hissini boshdan kechiradi.

2. O‘yin texnikalarini integratsiya qilish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin ta’limning ajralmas qismidir.

Hamkorlikni kuchaytiruvchi o‘yinlar:

“Tez toping”,

“Kim tez tuzadi?”,

“Xato qidirmoqchi bo‘lsang – guruh bilan top”,

“Gapni tugatamiz!”,

“So‘zdan so‘z yaratamiz”.

Bu o‘yinlar darsni jonli qiladi, bolalarda qiziqishni oshiradi.

3. Interfaol savol-javoblar

“Ona tili” darslarida savollarni o‘quvchilar o‘zlari ishlab chiqishlari ham mumkin.

Misol:

“Guruhingiz boshqa guruhlarga 3 ta savol tayyorlasin”.

Bu orqali ular savol tuzish, mantiqiy fikrlash, xotirani mustahkamlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

O‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy-emotsional o‘zaro ta’siri:

Hamkorlikda o‘qitishning eng muhim jihatlaridan biri — o‘quvchilarning ijtimoiy o‘rganishga jalb etilishidir.

Bolalarda quyidagi ijtimoiy sifatlar shakllanadi: bir-birini qo‘llab-quvvatlash, sabrli bo‘lish, navbat kutish madaniyati, fikr bildirish va tinglash, muammo yuzasidan kelishish.

Bu ko‘nikmalar bolalarning kelajakda jamoada ishlashiga asos bo‘ladi.

Hamkorlik metodlarining “Ona tili” bo‘yicha natijalari

1. Imlo malakasi mustahkamlanadi

Guruhda diktant yoki matn tahlili qilinayotganida o‘quvchi faqat o‘qituvchi emas, balki tengdoshlari nazorati orqali ham xatoni ko‘radi.

Bu xatolarni kamaytiradi.

2. Og‘zaki va yozma nutq tez rivojlanadi

O‘quvchilar bir-biriga tushuntirish jarayonida ko‘proq gapirishadi.

Bu esa:

so‘z boyligini oshiradi;

gap tuzish malakasini mustahkamlaydi;

izchil fikrlashni shakllantiradi.

3. Matn bilan ishlash ko‘nikmasi kuchayadi

Hamkorlikda: asosiy g‘oyani topish, gaplarni tartibga keltirish, reja tuzish, sarlavha tanlash kabi amaliy ko‘nikmalar shakllanadi.

Differensial yondashuv yordamida ta’limni takomillashtirish

Hamkorlikda o‘qitishda o‘quvchilarning individual imkoniyatlari ham hisobga olinadi.

Kuchli o‘quvchilar uchun: murakkab matn tahlili, ortiqcha so‘zlarni chiqarish, gaplarni murakkablashtirish.

O‘rta darajadagilar uchun: sodda matn tuzish, asosiy g‘oyani topish.

Qiyin o‘zlashtiruvchilar uchun: rasm asosida gap tuzish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish, o‘qituvchi yordamida kichik matn yaratish.

Bu usul dars samaradorligini oshiradi va har bir bola natijaga erishadi.

O‘qituvchining hamkorlikdagi roli: O‘qituvchi endilikda diktovka qiluvchi emas, balki jarayonni tashkil qiluvchi koordinatorga aylanadi.

O‘qituvchining asosiy vazifalari: guruhlarni to‘g‘ri shakllantirish; topshiriqlarni aniq va qisqa tushuntirish, vaqtni boshqarish, baholash mezonlarini belgilash, o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash.

Bu yondashuv o‘qituvchi-pedagogning kasbiy mahoratini ham oshiradi.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim- zamonaviy pedagogikaning eng samarali texnologiyalaridan biri bo‘lib, “Ona tili” darslarida nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, mustaqil fikrlash, muloqot qilish, jamoada ishlash kabi hayotiy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ushbu metodlarni takomillashtirish orqali dars samaradorligi sezilarli oshadi, bolalarda tilni sevish va o‘rganishga motivatsiya kuchayadi.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash asosida taraqqiyot sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Yo‘ldosheva Sh, Qodirova F. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

3. Abdullayeva Q, Qosimova M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INTELLEKT RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ermatova Gulnoz Pirimovna(O‘zbekiston)
Navoiy davlat universiteti dotsenti
Mallayeva Dilshoda Eraliyevna (O‘zbekiston)
NavDU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ilk bolalik davridan bolaning aqliy taraqqiyoti haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: aqliy taraqqiyot, iltellektual rivojlanish, ilk yoshda qaliy o‘sish, intellektual qobiliyat, tafakkur, nutq, sezgi va idrok, diqqat, xotira, xayol taraqqiyoti.

Аннотация: В данной статье освещены психическое развитие детей дошкольного возраста, его особенности, сведения о психическом развитии ребенка с раннего детства.

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, интеллектуальное развитие, интеллектуальный рост в раннем возрасте, интеллектуальные способности, мышление, речь, интуиция и восприятие, развитие внимания, памяти и воображения.

Abstract: This article covers the mental development of preschool children, its features, information about the mental development of a child from early childhood.

Key words: intellectual development, intellectual development, intellectual growth at an early age, intellectual abilities, thinking, speech, intuition and perception, development of attention, memory and imagination.

Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual jihatdan rivojlantirish dolzarb masalalardan sanaladi.Ularning har tomonlama taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual taraqqiyoti ularning aqliy, ma’naviy, ruhiy va estetik jihatdan kerakli ko‘nikmalarni egallashi uchun muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’lumotlarning to‘planishi tez sur’atlarda kechadi va buning natijasida ularda bilim, tafakkur, tassavvur hamda nutq jarayonlari shakllanadi. Bu aqliy taraqqiyot ilk yoshdan boshlab amalga oshadi. Ilk bolalik davridan boshlab bola uni o‘rab turgan predmetlarning xususiyatlarini va ular orasidagi oddiy bog‘liqliklarni anglashga harakat qiladi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko‘rinishlarini tashkil etadi[2:3.]. Bir yoshli bola predmetlarni izchil, tizimli ravishda ko‘rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko‘zga tashlanib turadigan belgisiga o‘z e’tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko‘ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok harakatlarining egallanishi bolaning predmetli harakatlarini bajarishdan ko‘z bilan chamalab, harakat qilishiga o‘tishda namoyon bo‘ladi, endi u predmetning bo‘laklarini ushlab ko‘rmasdan, balki chamalab idrok eta oladi.

2,5-3 yoshli bola kattalarning ko‘rsatgan namunasi, rangi, shakli va kattaligiga ko‘ra, aynan shunday predmetlarni chamalab, idrok etgan holda to‘g‘ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so‘ngra kattaligiga va undan keyingina rangiga qarab ajrata oladilar.Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab uning o‘z “Men”ini anglay boshlashi birmuncha avvalroq yoki kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o‘zini, o‘z xohish va ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo‘lgan manba deb biladi va bu uning “Menga bering”, “Ko‘taring”, “Men ham boraman” kabi talablarida ko‘rinadi[3:].

Uch yoshli bolalar o‘zlarini o‘zgalar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o‘z-o‘zini baholash vujudga keladi. Shu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo‘lish ehtiyoji yuzaga keladi va bu ularning “O‘zim qilaman” qabilidagi so‘zlarida namoyon bo‘ladi.

- Ilk bolalik davri: go‘daklik davridan so‘ng rivojlanishning yangi bosqichi - ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Bu davrda bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to‘g‘ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi.
- Kichkintoy bolalar “yaqindagi” fazoni qo‘llarining harakati yordamida bilib oladilar, bunda ko‘z ham ishtirok eta boshlaydi. Ilk yoshdagi bola “uzoqdagi” fazoni orientirovka qila boshlaydi.Masalan, mustaqil ravishda yuvinish, kiyinish, ovqatlanish, gigienik mashqlar, o‘yin va boshqalar.Hap xil harakatlarni bajarish va predmetlar bilan harakat qilish tevarak-atrofdagi olamni

bilishga olib keladi. Bola predmetlarning fazodagi o‘rni, joylanishi, sifati, hajmi, shakli va holatlari bilan tanishadi. Bularning hammasi sezgi organlarining o‘sishiga ijobiy ta’sir etadi.

Bolaning psixik rivojlanishi uning aqliy taraqqiyoti bilan bog`liq rivojlanadi. Bolalarning aliy shakllanishi va unga ta’sir etuvchi omillar nimadan iborat degan muammo juda qadim zamonlardan beri psixolog va pedagoglarning diqqatini jalb etib kelmoqda. Bolalar psixikasini taraqqiy etishini tushuntirib berishga uringan eng keksa nazariya “Bola katta yoshli kishining kichik nusxasi” degan so‘z bilan ta’riflanadi. Bu nazariya tarafdorlari bola sifat e’tibori bilan katta yoshli kishidan hech bir farq qilmaydi. Bola bo‘yi, shuningdek tasavvurlari, xotirasi, diqqati, tafakkuri va boshqa jarayonlaridan anchayin kichkina bo‘lgan katta yoshli kishilardir deb ko‘rsatishga urinadir. Lekin bola psixikasining sifat jihatidan o‘ziga xosligini tushuntirib bera olmaydilar va taraqqiyotning asosiy sabablarini yoritib bera olmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda alohida o‘ringa o‘qitish vositasi bo‘lgan bolalarning didaktik o‘yinlari kiradi va bolalarga bilim olish va ularni mustahkamlashda yordam beradi, shuningdek, bilim faoliyati metodlarini o‘rganish uchun yordam beradi[4:]. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim faoliyatiga qiziqishi ortib borayotgan didaktik o‘yin tufayli, tasniflashni, taqqoslashni va umumlashtirishni o‘rganadi. Kichik bolalarni aqliy rivojlanishi nafaqat bilimlarni egallash va mustahkamlash, balki maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga ham yordam berishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning intellektual rivojlanishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- nutq va nutqni rivojlantirish;
- makon fikrlash va tasavvurlarini rivojlantirish (taqvim, vaqt);
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish (tasniflash, korrelyatsiya);
- sezgir muvofiqlashtirish va qo‘llarning avtoulov qobiliyatlarini shakllantirish (grafik belgilar, kashtanchilik);
- taxminlarni kuzatish, ta’riflash va yaratish qobiliyatini shakllantirish;
- tabiat dunyosi va inson tomonidan yaratilgan narsalar bilan bog‘liq xatti-qoidalar bilan tanishish;
- o‘z-o‘zini va boshqalarni hurmat qilishga va axloqiy jihatdan qimmatli muloqot yo‘llarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar:

1. Rasmlar orqali hikoyani yoki hikoyani chizish. Bolaga 4 ta surat ko‘rsatiladi, ularda ertak yoki unga ma’lum bo‘lgan voqealar tasvirlangan. Bolaning vazifasi suratlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda tartibga solish va illyustratsiya yordamida kichik bir hikoya yaratishdir.

2. Bir qator sabablar bo‘yicha ob’ektlarni tanib olish. Bolaga qaysi mavzu haqida gaplashayotganingizni aniqlash kerak. Masalan, sariq, nordon, tasvirlar (limon).

Ikki yoki undan ko‘p narsalarni taqqoslash. Bolaning so‘zlari nimaga o‘xshashligini aytishga taklif qilinadi. Masalan, mushuk, kitob, tom. Siz bolaga mushuk va itni, stol va stulni qanday nomlashini aytib berishingiz mumkin. So‘ngra, ob’ektlardagi farqlarni topishingiz kerak: qalam va qalam, daraxt va buta.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bola ikki yoshlarga borib, amaliy tafakkurdan birinchi marta foydalana oladi, uchinchi yoshi da esa ba’zi tanish harakadardan konkret masalalarni hal qilishdi mustaqil foydalana boshlaydi. Bu yoshdagi bola idishdagi narsalarni qo‘li bilan solishtirib ololmasa, u idishni to‘ntarib olaveradi. Tafakkurning bu boshlang‘ich shaklini ba’zan “qo‘l tafakkuri” ham deyiladi. Tafakkurning bu shakli bola aqliy tarqqiyotining kelgusi bosqichi uchun juda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov R.g‘. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.:2005.

2. G.R Toxtasinova, T.I. Ormonova, Bolalar bog‘chasida intellektual psixologik oyinlar T.:2005(4-5).

3. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi, T.: 2010.

4. Абдусаматова, Ш. С. (2020). Талаба ёшларнинг интеллектуал ижодий салоҳиятини ривожлантириш. *“Замонавий педагогиканинг долзарб муаммолари” илмий мақолалар тўплами*, *1*, 203-205.

EKOLOGIK DUNYOQARASH TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUNI

Azimova Musharraf Utkirovna
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
Odilova Umida Husan qizi
Navoiy davlat universiteti 70110201- ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ekologiya, ekologik dunyoqarash tushunchasi, uning mazmuni va tarkibiy qismlari hamda inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish jarayoni tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik dunyoqarashning kognitiv, emotsional va amaliy tarkibiy qismlari ochib berilgan. Bolalarda tabiatga mehr, g‘amxo‘rlik va ma’suliyatni shakllantirish usullari yoritigan.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, ekologik dunyoqarash, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik tafakkur, barqaror rivojlanish, maktabgacha ta’lim, ekologik ong, ma’suliyat.

Аннотация. В данной статье рассмотрены понятия экологии и экологического мировоззрения, их содержание и структурные компоненты, а также взаимосвязь человека и природы. Проанализирован процесс формирования экологических знаний, сознания и культуры. В исследовании раскрыты когнитивные, эмоциональные и практические составляющие экологического мировоззрения. Описаны методы воспитания у детей любви к природе, заботы и ответственности.

Ключевые слова:экология, экологическое мировоззрение, экологическое воспитание, экологическая культура, экологическое мышление, устойчивое развитие, дошкольное образование, экологическое сознание, ответственност

Annotation. This article examines the concepts of ecology and ecological worldview, their meaning and structural components, as well as the interrelation between humans and nature. The process of developing ecological knowledge, awareness, and culture is analyzed. The study reveals the cognitive, emotional, and practical aspects of the ecological worldview and describes methods for fostering children’s love for nature, care, and responsibility.

Keywords: ecology, ecological worldview, environmental education, ecological culture, ecological thinking, sustainable development, preschool education, ecological awareness, responsibility.

Ekologik dunyoqarash tushunchasini to‘g‘ri anglash uchun avvalo “ekologiya” atamasining kelib chiqishiga e’tibor qaratish zarur. “Ekologiya” atamasi birinchi marta nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan 1866-yilda fanga kiritilgan. Yunon tilidagi “oikos” – uy, yashash joyi va “logos” – ta’limot, fan so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “ekologiya” – tirik organizmlarning yashash muhiti bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganuvchi fan degan ma’noni bildiradi. Mazkur fan orqali inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, ularning bir-biriga ta’siri, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish masalalari yoritiladi. Shu bois ekologik bilim, ekologik madaniyat va ekologik dunyoqarashni shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bizga ma’lumki,bugungi kunda ekologik muammolarni hal etish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda ekologik tarbiya muhim o‘rin tutadi. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi farmoni30 va “Yashil makon” umummilliy dasturi ham aynan ekologik madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan31. Bundan tashqari, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar tamonidan ilgari surilgan barqaro rivojlanish maqsadlari ham ekologik madaniyat va ongni yuksaltirishning global darajadagi muhim masalalardan biri sifatida e’tirof etadi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi vaqtda yosh avlodni ekologik ruhda tarbiyalash, ularning ongida tabiatni asrash va ma’suliyatli bo‘lish munosabatni shakllantirish-barqaror taraqqiyotning asosiy shartidir. Bilamizki, ekologik dunyoqarash eng avvalo oilada va maktabgacha ta’lim muassasalarda shakllanadi. Bu jarayonda tarbiyachi-pedagoglarning o‘rni

30 O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev “2030 – yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” 2019, PQ-5709-son

31 O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev “Yashil makon” umummilliy dasturi PF-90,2025.

kattadir. Ayniqsa, ekologik dunyoqarash shakllantirish jarayonini maktabgacha ta’lim yoshidan boshlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan bu davrda bola ongida tabiatga nisbatan mehr, qiziqish va e’tibor shakllanadi.

Ekologik dunyoqarashni shakllantishda asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarda tabiatni kuzatish, o‘rganish, qadrlash va asrash tuyg‘ularini uyg‘otishdir. Shu sababli biz bolalarda ekologik bilim, his-tuyg‘u, tafakkur va amaliy faoliyat uyg‘unligini taminlasak, natijada insonning ekologik madaniyati va ekologik dunyoqarashi shakllanadi.

Ekologik dunyoqarash – bu insonning tabiatga, atrof-muhitga, undagi o‘z o‘rniga va javobgarligiga nisbatan shakllanadigan qarashlar tizimidir. U inson tafakkuri, axloqi va amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirish jarayoni avvalo ekologik bilimlarni egallash, ekologik ongni yuksaltirish va ekologik madaniyatni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir.

R.Karimova o‘zining “Ekologik tarbiya asoslari” asarida ta’kidlaganidek, ekologik dunyoqarash – bu insonning tabiat bilan uyg‘un yashash madaniyatini anglash, tabiatni asrashga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Uning fikricha, ekologik dunyoqarashni rivojlantirishda tarbiya jarayonining uzluksizligi muhim ahamiyat kasb etadi32.

Ekologik dunyoqarashning mazmuni uch asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. Aqliy (kognitiv) – insonning ekologik bilimlar tizimini egallashi;

2. Emotsional (qadriyaviy) – tabiatga nisbatan ijobiy hissiy munosabat shakllanishi;

3. Amaliy (faoliyatga yo‘naltirilgan) – tabiatni asrashga qaratilgan xatti-harakatlarni amalga oshirish.33

Ekologik dunyoqarashni shakllantirishda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, eng avvalo, ekologik bilimlarni zamonaviy metodlar asosida bolalarni o‘qitish, o‘yin va tajriba mashg‘ulotlari orqali bolalarda tabiatga mehr uyg‘otish katta ahamiyatga ega. O‘yinlar orqali bolalar nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtiradi, tabiatga mehr uyg‘otadi va ijtimoiy faoliyatga tayyorlanadi. Shu bois,pedagoglar ekologik o‘yinlarni bolalar tarbiyasida tizimli qo‘llash zarurligini takidlaydilar. Misol tariqasida,”Hayvonlar qutqaruvi”,”Kim nima topdi”, “Qaysi qutiga solamiz” kabi ro‘lli o‘yinlar orqali bolalar nazariy bilimlarni, amaliy faoliyatda qo‘llaydilar.

Xulosa qilib aytganda, ekologik dunyoqarash – bu faqat nazariy bilimlar majmuyi emas, balki insonning butun hayot faoliyatini tabiat bilan uyg‘unlikda tashkil etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-madaniy hodisadir. U har bir insonning hayotida tabiatga nisbatan ma’suliyatni kuchaytiradi, ekologik xavfsiz va barqaror jamiyat qurilishiga zamin yaratadi. Ekologik ongli inson tabiatni asrashni o‘zining burchi deb biladi va atrof-muhitni muhofaza qilishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Demak, ekologik dunyoqarashni shakllantirish yosh avlodning ongida tabiatga nisbatan mehr, ma’suliyat va g‘amxo‘rlikni singdirish orqali ekologik xavfsiz, sog‘lom va farovon hayot sari dadil qadam qo‘yish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev SH.M “2030 – yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” 2019-yil 30- oktyabr, PF-5863-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev SH.M “Yashil makon” umummilliy dasturi PF-90,2025

3.UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017-yil.

4.Karimova R. “Ekologik tarbiya asoslari” Toshkent, 2015-yil.

5. Fedoseev A.Yu. “Формирование экологического воспитания в …” (2021) — «…три: когнитивный, эмоциональный, деятельностный»

6.Romanova, K.S. “ЭКОЛОГООРИЕНТИРОВАННОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ЛИЧНОСТИ” 2003-yil, Tashkilot

7.Yusupova. D “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim berish metodikasi” Toshkent, 2021-yil.

32 R.Karimova “Ekologik tarbiya asoslari” Toshkent, 2015.

33 4 Fedoseev A.Yu. “Формирование экологического воспитания в …” (2021) — «…три: когнитивный, эмоциональный, деятельностный».

O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TA’LIM JARAYONI VA BAHOLASHNING TATBIQ ETILISHI

A.R.Hamroyev
Buxoro davlat universiteti professori,
Pedagogika fanlari doktori (DSc)

Maqolada ta’lim jarayonida darslarni tashkil etish, interfaol metodlar asosida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘quvchilar faolligini oshirish va baholash tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *Individual, ijodiy qobiliyat, axborot, ta’lim ko‘nikma, malaka, jarayon, bilim, kompenentlik, kasbiy mahorat, sub’ekt, faol, harakat, material, paradigma, muammo.*

В статье рассматривается организатсия занятий в учебном протсессе, особенности преподавания на основе интерактивных методик, повышение и отсенка активности учащихся.

Ключевые слова: *Индивидуал, творческая способност, информатсия, образовательный навык, квалификатсия, протсесс, знания, вознаграждение, профессионалное мастерство, субъект, активный, действие, материал, парадигма, проблема.*

The article discusses the organization of classes in the educational process, the features of teaching based on interactive techniques, increasing and evaluating the activity of students.

Keywords: *Individual, creative ability, information, educational skill, qualification, process, knowledge, reward, professional skill, subject, active, action, material, paradigm, problem.*

Yangi paradigma ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularda kompetentlik, ijodiy qobiliyat, kasbiy mahorat va yuksak madaniyatni rivojlantirishni nazarda tutadi. Chunki bugungi kunda ta’lim jarayonida yondashuvlar o‘zgardi, ya’ni ta’lim oluvchi passiv ob’ektdan faol sub’ektga aylandi. Demak, o‘quv jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, unda ta’lim oluvchi faol harakati orqali bilim va ko‘nikmalarni mustaqil o‘zlashtirishi, ijodiy ishlash qobiliyatini doimo rivojlantirib borishga imkoniyat yaratish kerak. Bu esa ta’lim jarayonining faollashtirishni talab etadi. O‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarni faollashtirishning asosiy maqsadi o‘qituvchi tomonidan berilgan o‘quv axborotiga tayanib, ularni mustaqil bilim olishga o‘rgatish, materialni mustaqil o‘zlashtirish va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Agar ushbu qobiliyatlar shakllantirilmasa ta’lim oluvchi imkoniyatlari ro‘yobga chiqmay qoladi. Bu imkoniyatlar faqat zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini va faol usullarni qo‘llash orqali ta’minlanadi. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalarining an’anaviy o‘qitish texnologiyalaridan farqi shundaki, unda barcha faoliyatlar shaxsga yo‘naltiriladi va o‘quv materiali mustaqil o‘zlashtirishga qaratiladi. Bu esa ta’lim jarayonini “ta’lim oluvchi-o‘quv adabiyotlari va vositalari-ta’lim beruvchi” tartibotida amalga oshirishni talab etadi. O‘qituvchi mustaqil ishlash uchun topshiriq qo‘yadi, ta’lim oluvchi esa uni mustaqil tarzda o‘quv adabiyotlari, vosittalari va boshqa ta’lim resurslaridan foydalanib o‘rganishga harakat qiladi. Bu zamonaviy o‘qitish texnologiyasining asosiy xususiyatidir. [1, 21 b.]; Bugungi kundagi jamiyatdagi o‘zgarishlar, ya’ni axborotlarning kun sayin yangilanishi, texnika va texnologiyalar hamda mehnat bozorining o‘zgarishi yangi ta’lim paradigmasiga olib keldi. Bu paradigma shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga asoslanib, kelajakda mustaqil holda muammolarni hal qiladigan, ijodiy ishlaydigan va erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Ta’lim oluvchini mustaqil bilim olishga qiziqtirish orqali unda o‘rganishga intilishni orttirish mumkin. Bu esa ta’lim oluvchida o‘zlashtirilayotgan bilim va ko‘nikmalarning nafaqat bugungi holatini o‘rganish, balki uning kelajakdagi rivojlanishini ham bilishga intiladi. O‘quv materiali esa chuqur va mustaqil egallanadi. Demak, mustaqil va ijodiy izlanuvchi kadrlarni tayyorlashda ta’lim oluvchining xohish-istagini va qiziqishni inobatga olish muhim hisoblanadi. Chunki shaxsning mustaqil fikrlashi, shakllantirish va rivojlantirish o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan ta’lim metodlari va vositalari orqali ta’lim oluvchining intilishi va xohishi bilan qiladigan harakatlarni faollashtirish orqali amalga

oshiriladi. Shuning uchun ham ta’lim oluvchilarning bilim olish va o‘rganish faoliyatini faollashtirishda o‘qituvchi faoliyati muhim ahamiyatga ega. [2, 32 b.]; Ta’lim oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi qanchalik ta’lim oluvchilarni faollashtirib undagi yoqimli emotsional ta’sir ko‘rsata olsa, yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida ularning faoliyati shuncha faollashadi. Shuni ta’kidlash joizki, o‘quv maqsadiga kafolatli erishish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish jarayonining har bir davrida o‘qituvchi ta’lim oluvchining mustaqil fikr yuritish faoliyatini tashkil etadi. Shuningdek, onglilik ta’lim oluvchining bilimlarini va ko‘nikmalarini mustaqil bajarishi va uning mohiyatini tushuntirishda namoyon bo‘ladi. Ongli fikr yuritish ta’lim oluvchining fan bo‘yicha o‘quv maqsadlarini, mazmuni va o‘zi bajarishi lozim bo‘lgan amaliy ishlar, mashqlar va topshiriqlarning mohiyatini tushunishidir.Mustaqil fikrlovchi ta’lim oluvchi berilgan vazifa yoki topshiriqni o‘z vaqtida va aniq bajarishga intiladi. Ta’lim oluvchilarni faollashtirish orqali ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib boriladi. Oliy o‘quv yurtlarida talim jarayonida ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlash va erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘quv jarayonini faollashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. [2, 43 b.]; Ta’lim oluvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va metodlarini qo‘llash orqali talim jarayonida ijodiy muhitni hosil qilish, ta’lim oluvchilarni faolligini oshirishga erishish mumkin. Bu yerda o‘qituvchi esa bilimlarni uzatuvchi emas, balki ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustaqil o‘zlashtirilishini tashkil qildi va talim jarayonining maslahatchisiga aylanadi. Ta’lim oluvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun intiladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy yo‘llaridan biri bu ta’lim oluvchilarni munozarali va muammoli savollarni yoki ijodiy topshiriqlarni bajarishga jalb etish, savol va topshiriqlarning yechimlarini mustaqil izlashga va topishga o‘rgatishdan iboratdir. Faol ta’lim metodlaridan maksimal foydalanish orqali fanlarining o‘quv maqsadlariga ta’lim oluvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini faollashtirishga va ta’lim natijalariga samarali erishish mumkin. [3, 34 b.]; O‘qituvchilar esa ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim olishga va o‘rganishga intilishlarini doimo rag‘batlantirib borishlari lozim. Ta’lim oluvchi individual yaxshi ishlaydimi, yoki kichik guruhlarda ishlashni yoqtiradimi, buni o‘qituvchi ham yaxshi bilishi kerak. Mustaqil va ijodiy ishlash uchun savol, loyiha va topshiriqlarni ishlab chiqishda quyidagilarga etibor qilish tavsiya etiladi:

1. Savol va topshiriqlarda real vaziyatlarga bog‘liq muammolar aks ettirilishi kerak;
2. Savol va topshiriqlar ta’lim oluvchilar mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatini turli yo‘llar bilan rivojlantirishni ko‘zda tutadi;
3. Savol va topshiriqlar murakkablik darajasi ta’lim oluvchilarni qabul qilish imkoniyatiga mos kelishi.
4. Savol va topshiriqlar mazmunida aks ettirilgan voqealar, hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik bo‘lishi kerak;
5. Ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatiga mos kelishi kerak;
6. Savol va topshiriqlar shunday qo‘yilishi kerakki, ta’lim oluvchi unga malum bo‘lgan tushunchalardan, u hali o‘zlashtirilmagan yangi tushunchani keltirib chiqarish imkonini berishi kerak;
7. Savol va topshiriqlarni bajarish yoki yechimini qo‘llash ta’lim oluvchiga ma’lum bo‘lmagan yangi tushunchalar bilan o‘zaro tahlil qilinadi, ijodiy fikrlash asosida yangi bilimlar shakllanadi.

Ta’lim oluvchilarning savol va topshiriqlarni yoki loyihalarni bajarish jarayonini o‘qituvchi tomonidan doimiy nazorat qilib borilishi, maslahatlar berib borilishi kerak. Ta’lim oluvchi o‘quv materialini bosqichma-bosqich bajarishi hamda yechimini tahlil qilishi natijasida umumiy o‘zlashtiradi. Ta’lim oluvchining ijodiy va izlanish qobiliyatlarini rivojlantirib borish uchun savol va topshiriqlar murakkablik darajasini oshirib borish kerak. Agar guruhda ayrim ta’lim oluvchilar dastlabki bilim ko‘nikmalar yaxshi o‘zlashtirilgan, ayrimlariniki past yoki o‘rtacha darajalarda bo‘lsa u holda talim jarayoni kichik guruhlarda yoki individual shakllarda tashkil etiladi. [4, 26 b.];

Individual shakl asosan ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo‘naltiriladi. Har bir ta’lim oluvchining individual xususiyatlarini o‘rganishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib talim sifatini oshirish va har bir ta’lim oluvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini ham darslarda, ham darsdan tashqarida rivojlantirib

borish mumkin. Bunday rivojlanish ta’lim oluvchining ongini o‘sishiga, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqining oshishiga imkon beradi va kelajakda yuqori malakali kadrni tarbiyalashga ko‘maklashadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida ta’lim oluvchida jarayonlar va hodisalar, ob’ektlar haqida bilimlar shakllanadi, ularda o‘quv materialini chuqur o‘rganish, tahlil qilish hamda mustaqil qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi. Ta’lim oluvchilarni o‘quv jarayonida faollashtirish uchun ularning dastlabki bilim darajasi, o‘zlashtirgan qo‘shimcha hamda egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish malakalarni o‘rganish, tahlil qilish lozim. Chunki dastlabki bilim va ko‘nikmalarni tahlil qilmay turib, ta’lim oluvchilarni faollashtirish to‘g‘risida fikr yuritish qiyin. Ana shu tahlillar asosida talim metodlari va shakllari tanlab olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (o‘quv qo‘llanma) . –T., 2006.

2. Rasulev A. A., Xaydarov M. M. O‘qitishning interfaol metodlari: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015.– 47 b.

3. Hamdamova M. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogik-psixologik asoslari (uslubiy tavsiyalar), 2007.

PISA TADQIQOTINI KASBIY RIVOJLANISHDA HAYOTIY TAJRIBALARGA UYGUNLASHTIRISH

Cho‘liyev E.A. Navoiy innovatsiyalar universiteti, f.-m.f.n., dotsent
Jumaqulova Z.Sh. Navoiy innovatsiyalar universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada PISA tadqiqotining mohiyati, uning o‘quvchilarning funksional savodxonligini baholashdagi o‘rni hamda kasbiy rivojlanishda hayotiy tajribalar bilan bog‘liqligi tahlil etilgan. Shuningdek, ta’lim jarayoniga PISA yondashuvini integratsiyalash bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрена сущность исследования PISA, его роль в оценке функциональной грамотности учащихся, а также значимость применения жизненного опыта в профессиональном развитии. Представлены предложения по интеграции подходов PISA в образовательный процесс.

Annotatsion: This article analyzes the essence of the PISA assessment, its importance in evaluating students’ functional literacy, and its connection to professional development based on real-life experiences. Practical recommendations for integrating PISA-based approaches into the educational process are provided.

Kalit so‘zlar: PISA, funksional savodxonlik, ta’lim, kasbiy rivojlanish, hayotiy tajriba, kompetensiya.

Ключевые слова: PISA, функциональная грамотность, образование, профессиональное развитие, жизненный опыт, компетентность.

Keywords: PISA, functional literacy, education, professional development, real-life experience, competence.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki ularning kundalik hayotda uchraydigan real vaziyatlarga mos ravishda amaliy kompetensiyalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro ta’lim yutuqlarini baholash dasturi — PISA (Programme for International Student Assessment) ushbu yo‘nalishda asosiy diagnostik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda o‘quvchilarning funksional savodxonlik darajasi, ya’ni matematik, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi orqali real hayotiy muammolarni hal etish qobiliyati baholanadi [1,2].

PISAning asosiy maqsadi — o‘quvchilarning bilimlarni eslab qolgan holda qayta tiklashi emas, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini aniqlashdan iborat. Shuning uchun PISA

topshiriqlari hayotiy kontekstga bog‘langan bo‘lib, o‘quvchilardan tahlil qilish, taqqoslash, mantiqiy xulosa chiqarish va qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni talab qiladi [2].

Kasbiy rivojlanish jarayoni, eng avvalo, shaxsning maktab davrida shakllangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalariga asoslanadi. PISA mazmuni hayotiy tajribalar bilan uyg‘unlashgan holda o‘quvchining kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga zamin yaratadi [1,2,3]. Masalan:

- *Matematik savodxonlik* — moliyaviy savodxonlik, budjet tuzish, iqtisodiy tahlil qilish kabi kasbiy ko‘nikmalarga xizmat qiladi. Bu tushunchani yanada yaqqolroq tasavvur etish uchn unga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.
- *Matematik savodxonlik* – bu shaxsning *matematik fikrlash* va real olamning turli *kontekstlardagi* muammolarini hal qilish uchun *matematik ifodalash, qo‘llash va talqin qilish* qobiliyatidir.
- U hodisalarni *tavsiflash, tushuntirish* va *prognoz qilish* uchun matematik tushunchalar, usullar, faktlar va vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.
- Matematik savodxonlik insonlarga matematikaning dunyodagi o‘rnini tushunishga hamda konstruktiv, faol va fikrlovchi bugungi kun finsonlariga kerakli asoslangan mulohazalar yuritish va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.
- Muammoni hal qilishdagi aqliy faoliyatni tavsiflash uchun quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:
  - *Vaziyatni matematik tarzda ifodalash* (formulating situations mathematically) ;
  - *Matematikani qo‘llash (employing mathematics) ;*
  - *Talqin qilish (interpreting mathematics) .*
  - Matematikani tadbiq qilish imkoniyatlarini aniqlash hamda vaziyatni matematik ishlov berish uchun qulay shaklda ifodalash, vaziyatning muhim jihatlarini aks ettiradigan matematik model tuzish kabi qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi.
- *Matematikani qo‘llash (employing mathematics)*
- Yechimni yoki xulosalarni hosil qilishda matematik tushunchalarni, faktlarni, usullarni, fikr yuritish qoidalarni va vositalarni qo‘llash qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu faoliyat matematik yechimni yoki natijalarni olish uchun zarur bo‘lgan matematik jarayonlarni bajarishni o‘z ichiga oladi (masalan, algebraik ifodalar va tenglamalar yoki boshqa turdagi matematik modellar bilan ishlash, matematik diagrammalar, grafiklar va boshqa turdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, fazodagi geometrik shakllar bilan ishlash). Model bilan ishlash, qonuniyatlarni va kattaliklar orasidagi munosabatlarni aniqlash hamda matematik dalillarni yaratish.
- *Talqin qilish va baholash (interpret and evaluate)*
  - matematik yechim yoki natijalar ustida fikr yuritish, real muammo kontekstida ularni talqin qilish va baholash qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi.
  - Bu faoliyat matematik yechimni real muammo kontekstiga ko‘chirish, olingan matematik yechim va mulohazalarni muammo kontekstiga mos ekanligini baholashni o‘z ichiga oladi.
  - *Matematik savodxonlikni baholash uchun mazmunga oid sohalar*
  - *- o‘zgarish va bog‘lanishlar* - turli jarayonlarda o‘zgaruvchilar orasidagi munosabatlar matematik talqiniga oid topshiriqlar, ya’ni algebraik materiallar,
  - *- fazo va shakl* - fazoviy va yassi geometrik shakllar va ular orasidagi munosabatlarga oid topshiriqlar, ya’ni geometrik materiallar;
  - *- miqdor* - sonlar va ular orasidagi munosabatlarga oid topshiriqlar, matematika dasturlarida bu material odatda arifmetika kursiga mansub;
  - *- ma’lumotlar va noaniqlilik* – tasodifiy va statistik hodisa va qonuniyatlarga oid topshiriqlar.
  - *Kontekstlar*
  - *Shaxsiy olam* (o‘quvchi, oilasi, do‘stlari va tengdoshlarining kundalik hayoti bilan bog‘liq , masalan o‘rtoqlar bilan muloqot, sport mashg‘ulotlari, do‘konlarda savdo-sotiq, dam olish, uy yumushlari).

- *Kasbiy faoliyat* -mehnat faoliyati bilan bog‘liq. O‘lchash, narxni hisoblash, qurilish uchun materiallarni harid qilish (masalan, maktab matematika kabinetiga kitob javonini yasash uchun), buyurtma bo‘yicha to‘lash, muayyan ishni bajarish va h.k.)
- *Ijtimoiy hayotga* oid kontekstlar jamiyatning (mahalliy, milliy yoki umuminsoniy) hayoti bilan bog‘liq. Mahalliy jamiyat bilan bog‘liq vaziyatlar o‘quvchi atrofida vujudga kelgan muammolarga (masalan, valyuta ayirboshlash, bankka omonat qo‘yish) bag‘ishlangan. Kengroq jamiyatda vujudga kelgan muammolar sifatida saylov tizimilari va saylov natijalari bilan bog‘liq muammolarga, transport, hukumat qarorlari, demografik muammolar, milliy statistika va iqtisodiyot masalalari qaralishi.
- *Ilmiy faoliyatga* oid kontekstlar odatda matematikani fan va texnologiyaga, fizik hodisalarga bag‘ishlangan (masalan, mavjud statistik ma’lumotlar asosida zilzila ro‘y berish-bermasligi to‘g‘risida xulosa chiqarish). Bu kontekstlarda ob-havo yoki iqlim, ekologiya va tibbiyot, koinot, genetika muammolari qaralishi mumkin. Ularda nazariy savollar (masalan, aholining turli taqsimotlari) yoki bevosita real hayotga bog‘liq bo‘lmagan sof matematik masalalar (masalan, uchburchakning ikki tomoni berilganda uchinchi tomonni topish).
- *Tabiiy fanlar savodxonligi* — texnik, tibbiy, ekologik va muhandislik kasblarida zarur bo‘lgan ilmiy tafakkurni rivojlantiradi.
- *O‘qish savodxonligi* — har qanday kasbda muloqot, ma’lumotni tahlil qilish va hujjatlar bilan ishlashda muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim jarayonida PISA yondashuvini qo‘llash bo‘yich ayrim tavsiyalarni keltiramiz. PISA yondashuvini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish uchun:

1. Darslarda real hayotga oid masalalardan foydalanish;
2. O‘quvchilarni mustaqil tahlil va izlanishga yo‘naltirish;
3. Ko‘p bosqichli va ochiq javobli topshiriqlarni yaratish;
4. Guruhda muhokama qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini tashkil etish zarur.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tamizki, PISA tadqiqoti o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan yondashuvini o‘zgartirishga, ta’lim jarayonini hayotiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa yoshlarning kasbiy o‘sishi, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayeva, G. (2021). *Funksional savodxonlik va PISA formatidagi topshiriqlar*. Toshkent: Innovatsion ta’lim markazi.
2. OECD. (2022). *Preparing Students for Life: The School’s Role in Developing Competency*. Paris.
3. Hasanov, A. (2020). "Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv". *Pedagogika jurnali*, №4.

O‘QUVCHILARNING BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBALAR.

Kazbekova Fariza Po‘latovna
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o„quvchilar bilimini baholashga zamonaviy yondashuvlarning mohiyati va mazmuni shuningdek, formativ va summativ baholashning asosiy farqlari bayon etilgan.

Kalit so‘’zlar: formativ baholash, testlar, viktorinalar, og‘zaki savollar, diagnostik baholash, summativ baholash.

Аннотация: В статье рассматриваются сущность и содержание современных подходов к оценке знаний учащихся, а также основные различия между формирующим и итоговым оцениванием.

Ключевые слова: формирующее оценивание, тесты, контрольные работы, устные вопросы, диагностическое оценивание, итоговое оценивание.

Abstrakt: In this article, the essence and content of modern approaches to the assessment of student’s knowledge, as well as the main differences in the formative and summative evaluation, are described.

Keywords: formative evaluation, tests, quizzes, oral questions, diagnostic evaluation, summative evaluation.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida o„zgarishlar, jahon standartlariga javob berish uchun jadal rivojlanishlar yuz bermoqda. Jumladan ta“lim tizimida ham. Davlatimiz rahbari tomonidan 2021 yil 24 dekabrda oily ta“lim tizimini tub ijobiy o'zgarishlarga olib keladigan oily ta“lim muassasalariga moliyaviy, akademik va tashkiliy boshqaruvda mustaqillik berish borasida ikkita tarixiy qaror imzolandi. Bu esa o'z navbatida, oily ta“lim muassasalari boshqaruvida yangicha tizim asosida yondashuvni talab etadi. Baholash ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ta“lim sifatini hamda o'quvchilarni bilim darajalarini doimiy ravishda nazorat qilib borish ta'lim jarayoniga muhim yangiliklar kiritishga asoas bo'ladi. Bugungi kunda yangi tizim asosida baholashning turli shakllari ishlab chiqilgan va talim jarayoniga taqdim etilmoqda. Shulardan biri formativ baholashdir. Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o„quv natijalarini amaldagi o„quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o„quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz. O‘qitish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to„plami “Formativ baholash” (shakllantiruvchi) deb nomlanadi. Bu o‘qituvchilar tomonidan olib boriladigan o‘quv jarayonining bir qismi bo‘lib, o‘quv va o‘qitish usullarini o‘zgartirish orqali o‘quvchining tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan. Formativ baholash o‘qituvchilarga ham, o‘quvchilarga ham o‘quvchining faoliyati va o‘rganishi to‘g‘risida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va batavsil mulohazalar berishga harakat qiladi. Bu o‘quv jarayonida o‘quvchilarning ehtiyojlari va taraqqiyotni kuzatadigan doimiy jarayon. Formativ baholashnining asosiy vazifasi o‘quv yili uchun qo‘yilgan maqsadlarning bajarilishi yoki bajarilmaganligini aniqlash. Shuning uchun o„qituvchilar ham o‘quvchilar ham o‘quv yili davomida erishmoqchi bo‘lgan o‘quv maqsadlarni aniq bilishlari kerak. O‘quv maqsadlari rasmiy shaklda o„qituvchi ish rejalarida aks etadi. Yoki o‘qituvchi norasmiy shaklda o‘quvchilar bilan birgalikda o‘quv maqsadlarni aniqlab olishi mumkin bo‘ladi. Formativ baho o„quvchilar ta“lim jarayonida faol rol o‘ynashi kerak degan fikrdan boshlanadi. Formativ baholashda o„quv maqsadiga erishish uchun zarur bo„lgan qadamlar (mexanizmlar)aniq belgilanadi. Biroq bunga erishish uchun baholash yaxshi ishlab chiqilgan bo„lishi kerak. Bu jarayonda o‘quvchilar orasida o‘z-o‘zini baholash va hamkorlik qilishga katta e’tibor qaratiladi va rag„batlantiriladi. Marina Aleksandrovna Pinskaya, pedagogika fanlari nomzodi, tadqiqotchi "Baholashning yangi shakllari" kitobida quyidagilarni yozadi: Formativ baholash o‘quv jarayoni nafaqat yakuniy bosqichda, balki boshlang‘ich va o‘rta bosqichda qanday o„tayotganiga tashxis qo‘yish uchun zarur, va agar ma'lumotlar qoniqarsiz bo„lib chiqsa, olingan ma'lumotlar asosida kerakli ma'lumotlarni kiritish va ta'lim faoliyati sifatini oshirish uchun o„zgartirishlar kiritish mumkin. Formativ baholash butun o‘quv dasturi o‘rniga individual o‘quv mahoratiga yoki o‘quv dasturidagi ko‘nikmalarga yo‘naltiriladi. Ushbu baholashlar ma'lum bir maqsad sari intilishni o‘lchash uchun mo‘ljallanadi deb aytadi.

Formativ baholashning eng foydali qismlaridan biri shundan iboratki, shakllantiruvchi baholashning yagona uslubi yo„q. Buning o‘rniga mavjud bo‘lgan yuzlab turli xil baholash usullari mavjud. Har bir o‘qituvchi potentsial shakllantiruvchi baholashning chuqur repertuarini ishlab chiqishi mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchilar shakllantiruvchi baholashni o‘quvchilarining ehtiyojlariga moslashtirish va o‘zgartirishlari mumkin. Bu juda muhim, chunki tafovut o‘quvchilarni jalb qilishga yordam beradi va o‘qituvchining o‘rganilayotgan tushunchalarni to‘g‘ri baholashiga mos kelishini ta'minlaydi. Variantlarga ega bo‘lish, shuningdek, o‘quvchilar yil davomida ularning shaxsiy imtiyozlari yoki kuchli tomonlariga va zaif tomonlariga tabiiy ravishda mos keladigan baholashning turlarini ko‘rishlariga yordam beradi. Formativ baholashning eng yaxshi turi - bu jalb qilish, o‘quvchilarlarning kuchli tomonlariga moslashish va qo‘shimcha o‘qitish yoki yordamga muhtoj bo„lgan sohalarni aniqlash. Formativ baholash o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun juda ko‘p ahamiyatga ega bo‘lgan tasdiqlangan o‘quv vositasidir. O‘qituvchilar kelgusidagi darslarga rahbarlik

qilish, o‘quvchilar uchun individual o‘quv maqsadlarini ishlab chiqish va o‘quvchilarga taqdim etilayotgan darslarning sifati to‘g‘risida qimmatli ma'lumotlarni olish uchun shakllantiruvchi baholashni ishlab chiqish va undan foydalanishlari mumkin. Sinflarida muntazam, doimiy shakllantiruvchi baholashdan foydalanadigan o‘qituvchilar, o‘quvchilarning faolligi va o‘qishi ortib borayotganligini aniqlaydilar. O‘qituvchilar shakllantiruvchi baholashdan olingan ma'lumotlardan butun guruh uchun ham, individual darslar uchun ham o‘quv qo‘llanmalarini o‘zgartirish uchun foydalanishlari mumkin. O‘quvchilar shakllantiruvchi baholashda ular o‘zlarining qaerdaligini har doim bilishlarini va o‘zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini tobora ko‘proq anglab etishlari uchun foydali bo„ladi. Formativ baholashlarni tuzish oson, olish oson, to„plash oson va natijalardan foydalanish oson. Bunga qo„shimcha ravishda, ular bajarilishi uchun cheklangan vaqt talab etiladi. Formativ baholash o‘quvchilarga individual maqsadlarni belgilashda yordam beradi va har kuni yutuqlarni kuzatib boradi.

Har qanday sinfda ishlatilishi mumkin bo„lgan formativ baholashning turli xil mexanizmlari mavjud. Ko‘proq mashhur bo‘lganlardan ba'zilari:

1. Bevosita so‘roq qilish yoki uyga berilgan vazifalar,
2. O‘qish jarayonidagi javob jurnallari yoki dars paytida beriladigan topshiriqlar,
3.Dars paytida o‘tkaziladigan nazorat ishlari,
4. Grafik tashkilotchilik yoki o‘quvchilarning darsdagi faolligini kuzatish,
5. Qaytuvchan aloqani amalga oshirish,
6. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashi,
7. Natijaga asoslanib ta’lim jarayoniga o‘zgartirish kiritish imkoni.

Formativ baholash diagnostik, standartlashtirilgan testlar, viktorinalar, og‘zaki savollar yoki qoralama ish shaklida ham bo‘lishi mumkin. Formativ baholash ko„rsatmalar bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Formativ baholashning keng tarqalgan shakli bu diagnostik baholash. Diagnostik baholash o‘quvning tegishli dasturini aniqlash maqsadida o‘quvchining hozirgi bilim va ko„nikmalarini o‘lchaydi. O‘z-o‘zini baholash bu o„quvchilarning o‘zlarini baholashni o‘z ichiga olgan diagnostik baholash shakli. O‘qituvchilar o‘quvchilar uchun eng foydali va ta'lim faoliyati uchun zarur bo‘lgan shakllantiruvchi baholash turlarini yaratish va ulardan foydalanishlari kerak. Formativ baholar yakuniy baholarga ta'sir qilmaydi va bu o‘quvchilarda materialni dastlabki assimilyatsiya qilishda muqarrar bo‘lgan xatolardan qo‘rqishni olib tashlashga imkon beradi. Muhim shart: baholash haqiqatan ham shakllantiruvchi bo‘lishi uchun uning natijalari o‘qituvchini o‘qitishni to‘g‘rilash uchun ishlatishi kerak. Ular o‘quvchiga etkazilishi va rejalashtirish uchun ishlatilishi kerak. Nafaqat o‘qituvchi, balki bola ham yaqin kelajakda nima ustida ishlashi kerakligini tasavvur qilishi kerak. Formativ baholash o„quvchilar summativ baholashni amalga oshirishdan oldin ko‘rsatmalarni tushunib etishlarini aniqlashga qaratiladi. Summativ va shakllantiruvchi baho ko„pincha o„quv sharoitida shunday ataladi o‘rganishni baholash va o‘rganish uchun baholash. Summativ baholash. Summative Assessment deganda o„quvchilarni baholash tushuniladi; bu natijaga qaratilgan. Bu ishtirokchilarga vaqti-vaqti bilan, odatda kurs, muddat yoki bo‘lim yakunlanganda beriladigan baholash jarayoning bir qismidir. Maqsad –o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish, yani ular o‘zlari o‘rgatgan materialni qay darajada o‘rganganliklarini tekshirish. Summativ baholash dars yoki dastur samaradorligini baholashga intiladi, o‘quv jarayonini tekshiradi va xokozo. O‘quv dasturining sifatini ko‘rsatadigan va maktablarda reyting uchun asos yaratadigan ko‘rsatkichlar sifatida olingan ballar, ballar yoki foizlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘’zbekiston Respublikasi Ta’lim inspeksiyasi (2021). Xalqaro baholash dasturlari bo‘’yicha metodik qo‘’llanma. Toshkent.

2. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Hooper, M. (2020). TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. TIMSS & PIRLS International Study Center.

3. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice.

4. Brookhart, Susan M. (2017). How to Use Formative Assessment to Improve Learning. ASCD.

5. OECD (2019). PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing.

XALQARO BAHOLASH TIZIMLARI (PISA, TIMSS, PIRLS) ORQALI BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISH YO‘LLARI

NavDU Ta’lim va tarbiya metodikasi va nazariyasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Rajabova Munisa Aminboy qizi
Ilmiy rahbar: Kodirova Saodat Abdurahimovna
f.f.f.d (PhD), dotsent
email: munisarajabova259@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlari, xalqaro baholash tizimlarining maqsadi va o‘zaro farqlari ,ularning topshiriqlar ro‘yxati hamda qanday tuzilishi va bu bilan birgalikda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy va mustaqil fikrlashlari hamda ularning rivojlanishidagi ahamiyati haqida yoritilib o‘tilgan. Jumladan, PISA, PIRLS va TIMSS haqida yetarlicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, xalqaro baholash, tizim, samaradorlik, ta’lim sifati, xalqaro baholash tizimiga oid topshiriqlar.

Abstract: this article discusses the purpose and differences between international assessment programs, international assessment systems, their list of tasks and how they are structured, as well as the importance of creative and independent thinking of primary school students and their development. In particular, sufficient information is provided about PISA, PIRLS and TIMSS.

Keywords: PISA, PIRLS, TIMSS, international assessment, system, effectiveness, quality of education, tasks related to the international assessment system

Аннотация: в статье рассматриваются цели и различия между международными программами оценки, международными системами оценки, перечень их задач и их структура, а также важность творческого и самостоятельного мышления учащихся начальной школы и его развитие. В частности, представлено достаточно информации о PISA, PIRLS и TIMSS.

Ключевые слова: PISA, PIRLS, TIMSS, международная оценка, система, эффективность, качество образования, задачи, связанные с международной системой оценки.

So‘nggi vaqtlarda O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlari-PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)-bilan juda faol bo‘lgan integratsiya jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini, ya’ni bilimni turmush hayotda qo‘llash ko‘nikmasini baholaydi.

Xalqaro baholash tizimlarida ishtirok etish davlat ta’lim sifatini global mezonlarda tahlil qilish va baholash, milliy o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu dasturlar metodik asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda o‘quvchilarning fikrlash, muammoli vaziyatni hal etish, tahlil qilish va ijodiy yondashuv asoslari shakllanadi.

Xalqaro baholash tizimlarining maqsadi va o‘zaro farqlari:

-PISA dasturi 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlardan hayotiy muammolarni hal etish qobiliyatini baholaydi.

-TIMSS- 4- va 8-sinflarda matematika va tabiiy fanlardan o‘quvchilarning bilim va malakasini o‘lchaydi.

-PIRLS esa 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini- matnni tushunish, tahlil qilish va unga munosabat bildirish darajasini aniqlaydi.

Shunday qilib, bu uchta dastur o‘zaro bir-birini to‘ldiradi:

• PIRLS- o‘qish va tushunish asosini;

• TIMSS- mantiqiy tafakkur va hisoblash qobiliyatini;

• PISA -real hayotda bilimni qo‘llash va ijodiy fikrlashni baholaydi.

Demak, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda ushbu tizimlardan kompleks va jamlab foydalanish asosiy ilmiy-pedagogik yo‘nalish hisoblanadi.

Xalqaro baholash tizimlarining ta’lim sifatiga ta’siri. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, baholash dasturlari natijalari ta’lim siyosatini shakllantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, OECD (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, PISA natijalaridan so‘ng Koreya, Estoniya va Finlyandiya ta’lim dasturlariga “tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyasi” bo‘limlarini kiritib o‘tilgan.

O‘zbekiston ham 2022-yildan boshlab PISA, TIMSS va PIRLS natijalarini tahlil asosida boshlang‘ich ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqmoqda. Jumladan:

• o‘qish darslarida matnni tushunish, ma’lumotni tahlil qilish mashqlarining ulushi oshirildi;

• matematika fanida muammoli vaziyatlarga asoslangan masalalar ko‘paytirildi;

• tabiiy fanlarda tajriba asosida o‘qitish metodlari joriy qilinmoqda.

Bu o‘zgarishlar o‘quvchilarning o‘rganilgan bilimni amalda qo‘llashga o‘rgatadi, bu esa ta’lim sifatini real ko‘rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash mezonlarini qo‘llash metodikasi. Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash tizimlarining elementlarini qo‘llash quyidagi yo‘nalishlarda samarali natija beradi:

1. Savodxonlikni rivojlantirish: PIRLS topshiriqlari asosida o‘qish jarayonida matnni tahlil qilish, muallifning fikrini tushunish va xulosa chiqarish mashqlari tashkil etiladi.

2. Matematik tafakkurni va tasavvurni kengaytirish: TIMSS topshiriqlari orqali o‘quvchilarda hayotiy holatlarga asoslangan masalalarni hal qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

3. Ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish: PISA topshiriqlari orqali o‘quvchilar muammolarni turli yechimlar asosida hal etishni o‘rganadilar.

4. Baholash madaniyatini shakllantirish: pedagoglar o‘quvchilarning faqatgina javobini emas, fikrlash jarayonini ham baholaydilar.

Bu jarayon o‘quvchi shaxsini faol, mustaqil va mas’uliyatli tarzda shakllantiradi.

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti. Finlyandiyadagi ta’lim tajribasida o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatiga katta e’tibor qaratiladi. Darslarda testlar emas, balki muammoli holatlar asosida fikrlashni talab qiluvchi topshiriqlar muhim.

Singapur davlatining ta’limida esa TIMSS metodologiyasi doimiy ravishda amalda qo‘llanadi, bunda o‘quvchilar “konseptual tushunish– qo‘llash– mulohaza” zanjiri asosida o‘rganadi.

O‘zbekiston ta’limida bu tajribalar bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. 2023-yilda Respublika ta’lim markazi tomonidan PISA, TIMSS va PIRLS elementlariga asoslangan 100 dan ortiq namunaviy test topshiriqlari ishlab chiqildi. Bu esa xalqaro baholash tizimlariga xos o‘quv muhitini yaratish yo‘lida muhim bosqichdir.

5. O‘qituvchilar malakasini oshirish zarurati: xalqaro baholash tizimlarining samarasi o‘qituvchining tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Shu sababli:

• o‘qituvchilarga xalqaro baholash metodologiyasi bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazilishi,

• PISA, TIMSS, PIRLS topshiriqlarini yaratish va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilishi,

• xalqaro baholash mezonlariga mos o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqilishi zarur.

Bu yo‘nalish o‘qituvchilarning ilmiy-analitik fikrlashini kengaytiradi va dars sifati oshishiga xizmat qiladi

Xalqaro baholash tizimlari (PISA, TIMSS, PIRLS) nafaqat o‘quvchilarning bilimini, balki ularning hayotiy muammolarni hal etish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, tahlil qilish qobiliyatini aniqlovchi muhim mexanizmdir. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga bu tizimlarning metodikasini qo‘shish orqali o‘quvchilarda funksional savodxonlikni, mustaqil o‘rganishni va global kompetensiyalarni shakllantirish mumkin.

Shunday ekan, davlatimiz ta’lim tizimi uchun xalqaro baholash dasturlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash — ta’lim sifatini yangi marraga olib chiqishning eng ishonchli va muhim yo‘li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-son qarori (2020-yil 6-noyabr).

2. OECD. PISA 2022. Results: Creative Thinking. Paris: OECD Publishing.

3. Mullis I.V.S., Martin M.O. TIMSS 2023. Assessment Frameworks. Boston: IEA.

4. PIRLS International Report. Progress in International Reading Literacy Study. -2021. IEA.

5. Karimova D. “Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash tizimlari elementlaridan foydalanish”. Ta’lim va fan jurnali, №5. -2022.
6. OECD. Education at a Glance 2020.
7. Rasulova N. “PISA topshiriqlari orqali ta’lim sifatini baholash” Pedagogik innovatsiyalar-№3. -2023.

TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Navoiy davlat universiteti
Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim)
2-kurs magistranti **Olimova Onabibi Rustam qizi**
E-mail: onabibiolimova9701@gmail.com
tel: +998882989702

Annotatsiya
Ushbu maqolada TIMSS Xalqaro baholash dasturining o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan.
Kalit so‘zlar: mantiqiy fikrlash, TIMSS, matematika, kognitiv rivojlanish.

РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ TIMSS

Аннотация
В данной статье рассматривается роль и значение международной программы оценки TIMSS в развитии логического мышления учащихся.
Ключевые слова: логическое мышление,TIMSS, математика, когнитивное развитие.

DEVELOPING STUDENTS' LOGICAL THINKING BASED ON THE TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM

Annotation
This article discusses the role and importance of the TIMSS International Assessment Program in developing students' logical thinking.
Keywords: logical thinking, TIMSS, mathematics, cognitive development.

Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilish ko‘nikmalari va mantiqiy tafakkurini shakllantirishni ham asosiy maqsad sifatida belgilab olgan. Ushbu maqsadlarga erishishda xalqaro baholash dasturlari, xususan, TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) muhim vosita hisoblanadi. TIMSS dasturi o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim darajasini xalqaro miqyosda baholash orqali ta’lim sifatini aniqlashda yordam beradigan vositalardan biridir. Shuningdek, bu baholash modeli mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali platforma sifatida e’tirof etiladi.

Ma’lumotlar to‘plashning uchinchi o‘n yilligi va yettinchi davriylikni boshlagan TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) - bu to‘rtinchi va sakkizinchi sinflarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha keng joriy qilingan xalqaro baholash dasturi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda,qo‘shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillari o‘rganiladi.

TIMSS dasturi o‘zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo‘lib, 2019-yilga qadar har to‘rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko‘rish mumkin. TIMSS 2015

tadqiqot natijalariga ko‘ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta’lim tizimi eng yuqori ko‘rsatkichlarni egallagan.[1]

TIMSS dasturining asosiy maqsadlaridan biri — o‘quvchilarning fanga oid bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llashga tayyorligini baholashdir. Bu esa, o‘z navbatida, faqatgina nazariy bilimlar emas, balki ularning mantiqiy tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, taxmin qilish va asosli xulosa chiqarish ko‘nikmalarini ham o‘lchashni nazarda tutadi. Shunday qilib, ushbu baholash tizimi orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Matematika sohasida chuqur tushunchaga ega bo‘lish va kuchli ko‘nikmalarni rivojlantirish barcha bolalarga foyda keltiradi. Birinchi navbatda, matematikani o‘rganish muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini yaxshilaydi va masalalar ustida ishlash qat’iyat va matonatlilikni o‘rgatadi. Matematika ayniqsa kundalik hayotdagi hisoblash, ovqat tayyorlash, pul harajatlari va qurilish ishlari kabi faoliyatlarda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, ko‘plab karyera sohalari muhandislik, arxitektura, buxgalteriya hisobi, bank ishi, tadbirkorlik, tibbiyot, ekologiya va aerokosmos kabi kuchli matematik asosni talab qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, TIMSS matematikadagi bir qator masala yechish usullarini tahlil qiladi va bunda o‘quvchilardan amaliy va mantiqiy fikrlash talab etiladi.[2]

Kognitiv sohalar har ikkala sinf uchun bir xil. To‘rtinchi sinf bilan taqqoslaganda, sakkizinchi sinf nazariy sohada kamroq, mantiqiy sohada esa ko‘proq urg‘uga ega. Ushbu qisqacha ma’lumotlardan so‘ng, bu bo‘lim to‘rtinchi sinfning asosiy uchta tarkibiy sohalari va har bir sohadagi baholash mavzularini bildiruvchi tarkibiy sohalar bilan boshlanadi. TIMSS Matematika - Sakkizinchi sinf tarkibiy sohalarning tavsifi bilan davom etadi va undan keyin har ikkala to‘rtinchi va sakkizinchi sinflar uchun kognitiv sohalar tavsifi keltiriladi.[3]

O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy vazifasi hisoblanadi, chunki o‘quvchilarda keng dunyoqarashni, intellektual salohiyatni yuksaltirmay turib biz ta’lim sohasida kerakli natijaga erisha olmaymiz. Ayniqsa hozirgi globallashuv va axborotlashuv davrida yosh avlodni har tomonlama rivojlangan, intelektual salohiyati yuqori, mantiqiy fikrlashi keng qilib tarbiyalashda matematikaning roli katta, albatta. Mantiqiy tafakkuri keng bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash jamiyat rivoji, uning istiqbolli kelajagi uchun qilinadigan eng asosiy vazifadir.

Quyida biz TIMSS Xalqaro baholash dasturining 4-sinf o‘quvchilarini matematika fanidan baholash bo‘yicha mashq daftarining misol va masalalardan yechib va ularnining o‘quvchining fikrlash doirasiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

1-misol

9 · 22 ga eng yaqin bo‘lgan javob qaysi?

A) 5 · 20 B) 5 · 25 C) 10 · 20 D) 10 · 25

Yechish: Dastlab 9 ni 22 ga ko‘paytirib olamiz, javob 198. Variantlarda berilgan ko‘paytmalarni hisoblab chiqsak, javoblar: 100, 125, 200, 250 ko‘rinishida bo‘ladi. Bundan kelib chiqadigan bo‘lsak, to‘g‘ri javob C javob, ya’ni 200 soni bo‘ladi, chunki javoblar ichida 198 ga faqat shu javob yaqin.

Javob: C)200

2-misol

Qaysi sonda 8 raqami 800 ni bildiradi?

A) 1468 B) 2587 C) 3809 D) 8634

Yechish: Javoblarni tahlil qiladigan bo‘lsak 1468 sonida 8 raqami birlik bo‘lib kelgan, yani u 8 ni ifodalayapti. 2587 sonida esa 8 raqami o‘nliklar xonasida kelgan, ya’ni u 80 sonini ifodalayapti. 3809 sonida esa 8 raqami yuzliklar xonasida kelgan va u 800 sonini ifodalayapti. 8634 sonida esa 8 raqami mingliklar xonasida kelgan va u 8000 ni ifadalayapti.

Demak, to‘g‘ri javob : C)3809

3-misol

Jamilada 12 ta olma bor edi. U bir nechta olmani yedi va unda 9 ta olma qoldi. Qaysi sonli ifoda nima sodir bo‘lganligini to‘g‘ri tasvirlaydi?

A) 12+9=□ B) 9=12+□ C) 12-□=9 D) 9-□=12

Yechish: Bu masala ayrilish orqali javobi chiqadigan oddiy masala bo‘lib, masalani ishlash uchun dastlab nima noma’lumligini topib olamiz. Masalada ayriluvchi ma’lum, ya’ni 12. Ayirma

ham ma’lum, ya’ni 9, demak, bizda ayiruvchi noma’lum. Bu tahlildan kelib chiqib raqamlarni joyiga joylashtirsak: 12-x=9 degan javob kelib chiqdi, yani C javob to‘g‘ri.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi keng shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda ta’lim sohasida yaxshi natijaga erishish uchun o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi va ushbu jarayonda TIMSS Xalqaro baholash dasturi ahamiyati kattadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “ Xalq so‘zi” gazetasi
2. TIMSS 2019 Assessment Frameworks
3. http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000. Jurayeva Gulshanoy Turdiyevna Journal of Innovations in Pedagogy and Psychology
4. TIMSS – Trends in Mathematics and Science Study

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI BILIMINI OSHIRISH VA BAHOLASHDA XALQARO TIMSS DASTURINING AHAMIYATI

Rashidova Sabrina Baxtiyor qizi,
Navoiy Davlat Universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi, Navoiy,
tel:+998902338535,rashidovasabrina916@gmail.com
Ilmiy rahbar: Alimov Alisher Yarashevich, katta o‘qituvchi, Navoiy davlat universiteti,
Navoiy, tel:+998942513974, ayaa25091968@.gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada TIMSS baholash dasturining ahamiyati va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonliklarini shakllantirish va rivojlantirish haqida fikrlar bayon qilingan.Maqolada Ozbekistonning TIMSS 2023 dagi ishtiroki va natijalari haqida so`z boradi.

Kalit so‘z: TIMSS, xalqaro baholash dasturlari, matematik va tabiiy- ilmiy savodxonlik, bilim,malaka, texnologiya, ko‘nikma, tadqiqot, IEA, ta’lim sifati.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sifati har bir mamlakat taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichi sifatida qaralmoqda. Sababi, ta’lim sifati har bir mamlakatning kelajagi va raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omildir. Shu boisdan, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ham Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish, ta’lim jarayonini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etishda muhim qadamlarni tashladi. Shunday dasturlardan biri-TIMSS (Trends in International Science Study) bo‘lib, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilar bilimini xalqaro miqyosda solishtirish imkonini beradi va natijalar asosida yangi strategiyalar ishlab chiqiladi. TIMSS- ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiyatsiyasi tomonidan tashkil etilgan dastur. Ushbu tadqiqot dunyoning turli mamlakatlaridagi boshlang‘ich maktabning 4-sinf o‘quvchilari va 8-sinf o‘quvchilarining matematika, tabiiy fanlardan bilim darajasi hamda sifatini taqqoslash, shuningdek, milliy ta’lim tizimidagi tafovutlarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotlar har 4 yilda amalga oshiriladi va shu paytgacha 8 marta, ya'ni 1995, 1999, 2003, 2007, 2011, 2015, 2019, 2023 yillarda amalga oshirilgan.

TIMSS xalqaro tadqiqotlarida ishtirokchi mamlakatning matematik va tabiiy-ilmiy ta’limidagi tendensiya hamda o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Shunday qilib o‘quvchilarning boshlang‘ich maktabdagi yutuqlari, shu bilan birga, boshlang‘ich sinfdan maktabning keying bosqichiga o‘tishdagi o‘zgarishlari kuzatiladi.[1:24.]

Ishtirokchi mamlakatlarda maktab matematikasi, tabiiy fanlarni o‘qitish xususiyatlari bo‘yicha sinov o‘tkaziladi. Olingan sinov natijalari asosida ta’limga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hamda ishtirokchi mamlakat matematika va tabiiy fanlar ta’limida yo‘lga qo‘yilgan xató va kamchiliklar,kuchli va zaif tomonlar tahlil qilinadi. 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematikasi va tabiiy fandan o‘zlashtirishini baholashda test topshiriqlari nazariyasidan foydalaniladi. Ushbu nazariyada o‘quvchilar cheklangan miqdordagi topshiriqlarni (60-70) bajarishadi. Test natijalari qayta ishlanadi, tahlil qilinadi hamda har bir o‘quvchi 1000 balli shkalada baholanadi.

4-sinf o‘quvchilari matematika fanidan o‘quvchilarning bilimini baholashga yo‘naltirilgan topshiriqlar quyidagi mavzularda bo‘ladi: “Natural sonlar, oddiy kasrlar”, “Sonli ifoda va tenglamalar”, “Shakllarni tekislikda tasvirlash”, “Nuqtalar, kesmalar va burchaklar”, “O‘qish va ma’lumotlarni tahlil qilish”.[2:24.]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori asosida xalqaro tadqitotlarni O‘zbekistonda joriy etilishi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan. O‘zbekiston TIMSS xalqaro dasturiga 2023-yilda ilk marotaba qatnashgan. Xalqaro ta’limni baholash assotsiatsiyasi rahbariyati O‘zbekistonning ushbu tadqiqotda ishtirok etishidan mamnun ekanligini aytib, O‘zbekistonning ta’lim sharoitiga TIMSSning qaysi turi mos kelishi haqida maslahatlar berdi. Bundan tashqari, IEA 2021-yil fevral oyida Germaniyaning Gumburg shahrida o‘tkazilgan milliy tadqiqot koordinatorlarining birinchi yig‘ilishiga taklif qilindi. Tahliliy ma’lumotlar asosida TIMSS 2023 tadqiqoti O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun xalqaro ko‘rsatkichlar bilan solishtirish, o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyat omillarini aniqlash va ta’limni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi .

TIMSS 2023 dasturida reprezantativlik tamoyili asosida tanlab olingan 166 ta maktablarda onlayn shaklda o‘tkazilib, unda 8800 nafar o‘quvchi ishtiroki ta’minlanib, ular matematika va tabiiy fan bo‘yicha test topshiriqlariga javob berdilar hamda so‘rovnomalar to‘ldirishdi. Bundan tashqari 166 maktab direktori, 1035 nafar o‘qituvchi va 4450 nafar ota-onalar ham so‘rovnomalarni to‘ldirishgan.

2024-yil 4-dekabr kuni TIMSS 2023 tadqiqoti natijalari xalqaro darajada e’lon qilindi hamda O‘zbekiston quyidagi natijalarga erishdi:

O‘zbekistondagi 8-sinf o‘quvchilarining matematik savodxonlik bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi 421 ball bo‘lib, qatnashuvchi 44 ta mamlakat orasida 32- o‘rinni egalladi. 8-sinf tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligi 396 ballbo‘lib, 44 mamlakat orasida 39-o‘rinni egallagan.

4-sinf o‘quvchilari tabiiy fan savodxonligi bo‘yicha 412 ball to‘plab,ishtirokchi 58 ta mamlakat orasida 54-o‘rinni egallagan. Matematika savodxonligi bo‘yicha 58 ta davlat ichida 443 ball bilan 50-o‘rinni egallagan.

TIMSS 2023 tadqiqoti natijalari O‘zbekiston ta’lim tizimining holati haqida qimmatli ma’lumotlar berdi. Uydagi ta’lim resurslari o‘quvchilarning natijalariga sezilarli ta`sir ko‘rsatishi aniqlandi. Tadqiqotning har 4 yillik davriyligida ishtirok etish mamlakatimiz ta’lim tizimini xalqaro miqyosda tahlil qilish imkonini beradi.

TIMSS MASALALAR

1-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 73%, Singapur 95%, Rossiya 14%).
Olimjon nonning 1\2qismini, Zeboxon esa 1\ 4qismini yedi. Bolalar hammasi bo‘lib nonning qanday qismini yeyishgan?

2-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 60%, Koreya 97%, Rossiya 67%).
Anvar 4,8 km avtomobilda va 1,5 km avtobusda yurdi. Jami bo‘lib qancha km yo‘l yurildi?
A) 6.3 km B) 5.8 km C) 5.13 km D) 4.95 km

3-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 39%, Singapur 85%, Rossiya 80%)
3,6,8,12 ketma-ketlikni davom ettirsak, qaysi sonni hosil qilish mumkin?
A. 26
B. 27
C. 28
D. 29

4-masala
Idish yuvish mashinasini oshxonaga joylashtirishdi.
Jadvalda berilgan ma’lumotdan foydalanib oshxonaning polida idish yuvish mashinasi qancha maydonni egallashini hisoblang.
Idish yuvish mashinasi haqida ma’lumot

1. Sig‘adigan to‘plamlar soni - 12 ta
2. Mashinaning eni - 45 sm
3. Balandligi - 85 sm
4. Bo‘yi (uzunligi) - 50 sm
5. Bir marta yuvishga sarf qilinadigan suv hajmi - 12 litr

5- masala

Anvar va dadasi baliq tutayotgan edilar. Anvar 3 kg vaznli
baliqni tutdi, dadasi esa 2 kg 30 gramm vaznli baliqni tutdi. Dadasi
Anvardandan necha gramm kam vaznli baliq tutgan?
A. 70 g B. 700 g
C. 930 g D. 970 g [2:39]

Xulosa shuki, TIMSS xalqaro baholash dasturi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilimini chuqur va xolis baholashda, ularning tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning matematika va tabiiy fandan olgan bilimlari xalqaro mezonlar asosida taqqoslanadi, o‘qituvchilar esa o‘z bilimlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish imkoniga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismailov A.A. va boshqalar “Xalqaro baholash tizimi” darslik, Toshkent,-2024.-318 b.
2. Jurayeva D.J. “TIMSS tadqiqotchilari uchun topshiriqlar to‘plami” O‘quv-uslubiy qo‘llanma , “QAMAR MEDIA” nashriyoti, Toshkent-2021.-56 b.

TA’LIM SIFATINI BAHOLASHNING ILG‘OR TAJRIBALARI

Sh.M. Farmonova
Buxoro davlat universiteti

Ma’lumki, o‘zgarishlar davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta’lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shuni inobatga olgan holda umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilmoqda bu holat malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabning yanada oshib borishiga turtki bo‘lmoqda. Bunday talabning qondirilishi o‘z navbatida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Shunday talablarning bugungi kun ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligini inobatga olgan holda aksariyat xorijiy davlatlarda ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg‘or tajribalarni o‘rganib chiqdi.

Xususan, dunyoda ta’lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O‘quvchilarni ta’limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo‘lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo‘llanilib kelinmokda.

PISA - o‘quvchilarni ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o‘quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo‘llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli o‘quvchilar ta’lim dargohida olayotan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagi o‘smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta’lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo‘nalishda: o‘qish,matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo‘yicha olib boriladi.

Birgina 2015 yilning o‘zida 70 dan ortiq davlatlar PISA xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta’lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. Har bir davlat o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o‘zining ta’lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeini ko‘radi hamda ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirishda o‘z yo‘nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi.

PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

TMSS - ham jahon mamlakatlari ta’lim tizimida keng tadbiq etilmoqda. TMSS dasturi Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, ushbu tadqiqot 4 va 8 sinf o‘quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo‘yicha ta’limning sifati, darajasi, fanga bo‘lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o‘xshab, o‘quvchilar, maktab ma’muriyati va o‘qituvchilari orasida qo‘shimcha so‘rovnomalar o‘tkazadi va fan sohasida to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o‘sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta’lim standartlarini va ta’lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko‘rish imkonini beradi. 2015 yil TMSS tadqiqotlari natijalariga ko‘ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta’lim tizimi eng yuqori ko‘rsatkichlarni egallagan. Shuni e’tirof etish lozimki, ayni shu davlatlarda yuqori texnogiyalarni o‘zlashtirish, sanoatlashtirish va yuksak darajadagi taraqqiyot erishish maqsadida aniq fanlarni yuqori darajada o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratilib, unda o‘quvchilar tug‘ma iste’dod va qobiliyatlardan ko‘ra o‘z ustida doimiy ishlash hamda aniq fanlarni o‘qitishda guruh yoki sinfdagi o‘quvchilar sonining 16 nafardan oshmasligi belgilangan. Bunday tajriba AQShda ham mavjud bo‘lib, 1999 yildan boshlab bitta o‘qituvchi 40 minutlik dars mashg‘uloti davomida 16 ta bolaga bilim va tarbiya bera olish imkoniyatiga ega ekanligii inobatga olgan holda prezident qarori bilan ta’lim muassasalaridagi guruhlarda o‘quvchilar soni 16 nafar etib belgilangan.

Umuman olganda mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta’lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki mavjud emasligi yoki o‘quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning **tizimi** yaratilmaganligi, hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o‘zlashtirish darajasining sifati va soxada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o‘tkazish imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda.Shuningdek, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi o‘qitish darajasining islohotlar tempidan ortda qolayotganligi yaqin kelajakda malakali kadrlar tanqisligini keltirib chiqaradi.

Shuni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz:

1. Xalqaro ta’lim sifatini baholash dasturlarida O‘zbekistonning ishtiroki masalasini atroflicha o‘rganib chiqish va ushbu dasturlarda ishtirokini ta’minlash.
2. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o‘quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning tizimini yaratish.
3. Ilm-fan yutuqlarining eng ilg‘or natijalari va adabiyotlarning ingliz tilida nashr qilinishini inobatga olgan holda, maktablarda ingliz tilini o‘rgatuvchi turli xorijiy dasturlarni tadbiq etish masalasini ko‘rib chiqish.
4. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim–tarbiya berishga mas’ul mutaxassislarning malaka talablarini aniq mezonlar orqali belgilab qo‘yish va bolalarning umumiy ta’limga yo‘naltirilishida butunlay mas’ulligini qonun bilan belgilab qo‘yish.
5. Maktabgacha ta’lim hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi guruh va sinflarda xalqaro tajribada sinalgan usullardan kelib chiqqan holda o‘quvchilar sonining maksimal hamda minimal ko‘rsatkichlarini belgilab qo‘yish.
6. Psixologik testlar yordamida boshlang‘ich sinflardagi iste’dodli bolalarni ajratib olib 8-9 yoshlilar uchun har bir maktabda ixtisoslashgan sinflar tashkil etish.

BIZNES SUBYEKTINING XALQARO BOZORGA CHIQISH STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI (TILLA KONLARI MISOLIDA)

Matmuratov Sardor Bagandikovich
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
Ilmiy rahbar*: Djurayeva Munira Sadillayevna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada biznes subyektlarining xalqaro bozorlarga kirish mexanizmlari, ularning strategik yondashuvlari hamda tilla konlari sanoati misolida eksport faoliyatining nazariy asoslari tahlil qilingan. Tovar va xomashyo resurslari global bozoriga integratsiyalashuv jarayonlari, iqtisodiy xavflar, raqobatdoshlik omillari, shuningdek, xalqaro savdo siyosati korxonalar faoliyatiga ko‘rsatadigan ta’sirlar ilmiy asoslangan holda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *xalqaro bozor, kirish strategiyasi, tilla konlari, eksport, diversifikatsiya, global raqobat, qo‘shimcha qiymat.*

Xalqaro iqtisodiyotda raqobatning oshishi va global integratsiya jarayonlari biznes subyektlarining xalqaro bozorga chiqish strategiyalarini rivojlantirishni talab etmoqda. Tilla konlari, o‘zining iqtisodiy ahamiyati va global talab bilan, biznes subyektlari uchun qiziqarli va foydali soha hisoblanadi. Ushbu tezisda tilla konlari misolida biznes subyektlarining xalqaro bozorga chiqish strategiyalari o‘rganiladi.

Maqolaning maqsadi, tilla konlari sohasidagi biznes subyektlarining xalqaro bozorga chiqish strategiyalarini aniqlash va ularning samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Xalqaro bozor – bu mamlakatlararo savdo va xizmatlar almashuvi. Raqobat, talab va taklif, valyuta kurslari, iqtisodiy siyosat kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. Global bozor o‘ziga xos xususiyatlarga ega: farqli madaniyatlar, iqtisodiy tizimlar va siyosiy sharoitlar. Bu omillar biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklar yaratadi.

Xalqaro bozorni tushunish uchun, uning dinamikasi va o‘zgaruvchan sharoitlarini tahlil qilish zarur. Masalan, iqtisodiy o‘sish, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy omillar qanday qilib xalqaro talabni belgilaydi.

Xalqaro bozorga chiqish strategiyalari: ***Eksport***: Mahsulotlarni chet elga sotish. Bu strategiya eng oddiy va kam xarajatli yo‘l bo‘lib, kompaniyalar o‘z mahsulotlarini xalqaro bozorda sinab ko‘rish imkonini beradi. Eksport strategiyasi orqali kompaniyalar o‘z brendlarini tanitishi va yangi bozorlarni o‘zlashtirishi mumkin.

Import: Chet eldan resurslar yoki tayyor mahsulotlarni olib kelish. Tilla konlari uchun import strategiyasi yetkazib beruvchilar bilan mustahkam aloqalarni talab qiladi. Bu usul orqali kompaniyalar xarajatlarni kamaytirishi va mahsulot sifatini oshirishi mumkin.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar: Chet mamlakatlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish. Bu strategiya yuqori xarajatli bo‘lishi mumkin, lekin uzoq muddatda foyda keltirishi umid qilinadi. Tilla konlari sohasida bunday investitsiyalar resurslarga yaqin joylashishni ta’minlaydi.

Franchayzing va litsenziyalash: Tashqi bozorga chiqishda brend va texnologiyalarni ulashish. Bu strategiya lokal bozor sharoitlariga moslashishni ta’minlaydi va tez rivojlanishga yordam beradi.

STRATEGIYANING TANLOVI

Bozor tahlili: Raqobatchilar, iste’molchilar va bozor sharoitlarini aniqlash. SWOT tahlili (kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavflar) orqali strategiyani shakllantirish. Bu jarayon kompaniyaning resurslari va imkoniyatlarini baholashga yordam beradi.

Tilla konlari va ularning xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlari - Tilla konlari global iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi. Ularning narxlari global talab va taklifga bog‘liq. Tilla konlari sanoati iqtisodiy barqarorlikka va rivojlanishga hissa qo‘shadi.

Tilla, o‘zining qimmatbaho metall sifatida, investorlar uchun xavfsiz aktiv hisoblanadi. Tilla konlari iqtisodiy inqirozlar yoki siyosiy beqarorlik davrlarida talabni oshirishi mumkin.

Tilla konlari bozoridagi raqobat: ***Asosiy o‘yinchilar*** - “Barrick Gold”, “Newmont Corporation” kabi kompaniyalar. Ularning strategiyalari va muvaffaqiyatlari tilla konlari sohasida raqobatni belgilaydi.

Narxlar va talab: Tilla narxining o‘zgarishi va uning bozor tahliliga ta’siri. Tilla narxlari global iqtisodiy sharoitlar va talabga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

TILLA KONLARI MISOLIDA STRATEGIYALAR

Mahsulot diversifikatsiyasi: Yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni kengaytirish. Bu strategiya kompaniyalar uchun yangi bozorlarni o‘zlashtirish va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Effektivlikni oshirish uchun yangi texnologiyalarni qo‘llash. Tilla konlari sohasida innovatsiyalar ishlab chiqarishni optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.

Barqaror rivojlanish va ekologik masalalar: Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olish. Tilla konlari sohasida barqarorlikka erishish uchun kompaniyalar ekologik standartlarga amal qilishi va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi zarur.

Xalqaro bozorga chiqish strategiyalarini amalga oshirishda rejalashtirish va nazorat: Strategiyalarni amalga oshirish jarayonida rejalashtirish va monitoring tizimlari. Muvaffaqiyatli strategiyalarni baholash uchun KPI (kalit ko‘rsatkichlar) larni belgilash. Bu jarayon kompaniyaning maqsadlariga erishishida samaradorlikni ta’minlaydi.

Xalqaro bozorga kirishda yuzaga keladigan xavflarni boshqarish. Xavflarni kamaytirish strategiyalari, masalan, sug‘urta va diversifikatsiya orqali. Bu kompaniyalar uchun potentsial xavflarni minimallashtirishda yordam beradi.

“Barrick Gold” kompaniyasining xalqaro bozorga chiqish strategiyasi. Ularning muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklari tahlil qilinadi. “Barrick Gold” o‘zining global faoliyatini kengaytirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etmoqda va barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilmoqda.

Ushbu maqolada tilla konlari misolida xalqaro bozorga chiqish strategiyalarining nazariy asoslari va amaliyotlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida, biznes subyektlariga xalqaro bozorga chiqishda muvaffaqiyatli strategiyalarni taklif etish mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar xalqaro bozorga chiqish strategiyalarini yanada chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kotler, P. & Keller, K. L. (2016). Marketing Management. 15th ed. Pearson.
2. Hill, C. W. L. & Jones, G. R. (2012). Strategic Management: An Integrated Approach. 10th ed. Houghton Mifflin.
3. Cavusgil, S. T., Knight, G., & Riesenberger, J. (2014). International Business. 3rd ed. Pearson.
4. Barrett, P. S. (2013). The Global Gold Market: A Comprehensive Guide to the Gold Industry. Wiley.
5. Morrison, A. J., & Roth, K. (1992). A Taxonomy of Business-Level Strategies in International Markets. Journal of International Business Studies, 23(4), 659-676.

6. Porter, M. E. (1998). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
7. International Monetary Fund (IMF). (2023). World Economic Outlook: Countering the Cost-of-Living Crisis. IMF.
8. World Gold Council. (2023). Gold Demand Trends Q2 2023. World Gold Council.
9. Dunning, J. H. (1988). The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions. Journal of International Business Studies, 19(1), 1-31.
10. Ghemawat, P. (2001). Distance Still Matters: The Hard Reality of Global Expansion. Harvard Business Review, 79(8), 137-147.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Omonboyeva Meruyert Erkin qizi
Navoiy davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi.Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv , TPACK modeli, CLIL,STEAM, mikrota’lim va pedagogik holatlar asosida shakllangan untegrativ metodika mazmuni ochib berilgan.O‘zgaruvchan ta’lim muhiti , raqamli pedagogika talablari hamda kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologik va AKT kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish modelining samaradorligi tahlil qilinadi.Natijalar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, kompetensiya,boshlang‘ich ta’lim, OECD,UNESCO,TIMSS,PIRLS,AKT,TPACK,CLIL,STEAM, o‘qituvchi tayyorlash.

Аннотация:В статье анализируется проблема формирования профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов на основе интегративного подхода с теоретической и практической точки зрения. В исследовании раскрывается содержание интегративной методики, основанной на компетентностном подходе, модели TPACK, CLIL, STEAM, микрообучении и педагогических ситуациях. Анализируются изменяющаяся образовательная среда, требования цифровой педагогики, эффективность модели комплексного развития психологических и ИКТ-компетентностей учащейся молодежи. Результаты показывают, что образовательный процесс, организованный на основе интегративного подхода, существенно повышает профессиональную готовность будущих учителей.

Ключевые слова: интегративный подход, компетентность, начальное образование, ОЭСР, ЮНЕСКО, TIMSS, PIRLS, ИКТ, TPACK, CLIL, STEAM, подготовка учителей.

Abstract: This article analyzes the issue of developing the professional competence of future primary school teachers based on an integrative approach from a theoretical and practical perspective. The study reveals the content of an integrative methodology based on the competency-based approach, the TPACK model, CLIL, STEAM, microlearning, and pedagogical situations. The changing educational environment, the requirements of digital pedagogy, and the effectiveness of the model for the integrated development of psychological and ICT competencies of young students are analyzed. The results show that the educational process, organized on the basis of an integrative approach, significantly increases the professional readiness of future teachers.

Keywords: integrative approach, competence, primary education, OECD, UNESCO, TIMSS, PIRLS, ICT, TPACK, CLIL, STEAM, teacher training.

Hozirgi kunda ta’lim tizimidagi tub islohatlar, raqamli tranformatsiya jarayonlari va xalqaro baholash dasturlarining (TIMSS,PIRLS,PISA) joriy etilishi boshlang‘ich ta’limda sifat ko‘rsatkichlarini oshirishni taqazo etmoqda.Bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari raqamli kompetent, metodik jihatdan tayyor, psixologik jihatdan moslashgan va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni biladigan mutaxassis bo‘lishi talab etiladi.Shu bois kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qituvchilarni integrativ tayyorlash masalasi bugungi kunda ilmiy hamda amaliy jihatdan dalzarb sanaladi.

Boshlang‘ich ta’lim sifatini ta’minlashda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi hal qiluvchi omil hisoblanadi.Globalizatsiya jarayonida ta’lim standartlari keskin o‘zgarib borayotgan bir vaqtda pedagoglarning raqobatbardoshligi, innovatsion fikrlashi hamda integrativ yondashuvga asoslangan metodik salohiyati yuqori darajada bo‘lishi zarur.OECD,UNESCO,TIMSS va PIRLS kabi xalqaro ta’lim dasturlari o‘qituvchining keng qamrovli kompetensiyalarini shakllantirishni ta’lim sifatining asosiy mezoni sifatida belgilangan.Bo‘lajak o‘qituvchilarda nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va innovatsion metodlardan foydalanish qobiliyatini uyg‘unlashtirish dolzarb muammolardan biridir.Bugungi kunda integrativ yondashuv ta’limning eng samarali usullaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.Integrativ yondashuv o‘quv fanlari mazmunini uyg‘unlashtirish,ko‘nikmalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash ,talabalarning faol,mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida STEAM kompetensiyalari,AKT savodxonligi,kommunikativ ko‘nikmalar,metodik refleksiya va pedagogik muloqot malakalari o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini integrativ rivojlantirish bo‘yicha ilmiy manbalarda turli yondashuvlar uchraydi.Kasbiy kompetensiya tushunchasi pedagogik,psixologik,metodik va texnologik kompetensiyalar majmuini anglatadi.Zamonaviy tadqiqotlarda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi integrativ bilimlar, raqamli savodxonlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini va reflektiv tahlilga asoslanishi ta’kidlanadi.

Pedagogik kompetensiya−o‘qituvchining ta’lim jarayonini loyihalash,tashlik etish,boshqarish va baholash qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Psixologik kompetensiya−talabalarning yosh xususiyatlari,individual rivojlanish dinamikasi va motivatsion ehtiyojlarini tushunish orqali samarali pedagogik muloqot olib borishga xizmat qiladi.

Metodik kompetensiya−dars jarayonida innovatsion metod va texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni qamrab oladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida so‘nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagoglar tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda.Biroq bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining integrativ kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-metodik ishlanmalar yetarli emas.Shuning uchun mazkur tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini integrativ rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotda sinovdan o‘tqazishga qaratilgan.Ushbu tadqiqotning yangiligi shundaki,bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun STEAM, AKT integratsiyasi va fanlararo integrativ darslarning uyg‘unlashtirilgan modeli taklif etiladi.

Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab oliy ta’lim muasssasalarida o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni fanlarning bo‘linib ketganligi, nazariy va amaliyotning uzviy emasligi , AKT bilan metodikaning yetarli integratsiya qilinmagani sababli kutilgan natija bermayabti.Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchi uchun integrativ ta’lim modeli zarur bo‘lib, bu jarayon pedagogika-psixologiya-metodika-AKT-kommunikatsiya kompetensiyalarining bir butun sifatida shakllanishini ta’minlaydi.Mazkur maqolaning asosiy maqsadi-bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini integrativ yondashuv orqali rivojlantirish metodikasini ilmiy asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdir.Zamonaviy ta’lim nazariyasida integrativ yondashuvni asoslobvchi bir qator ilmiy konsepsiyalar mavjud.Shulman(1986 yil) tomonidan taklif etilgan Pedagigik kontent bilimi (PCK) modeli o‘qituvchidan fan mazmuni bilan birga uni o‘qitish strategiyalarini birlashtira olishini talab etadi.Mishra va Koehler (2006yil) tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli esa kontent , pedagogika va texnologiya o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi. Vygotskiy (1978yil) ning sotsiokultura nazariyasi o‘quv jarayonida o‘quvchining ijtimoiy faolligi va o‘qituvchi bilan muloqati

asosiy omil ekanligini ta’kidlaydi.Piaget,Bruner, Gardner kabi olimlar esa boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarning kognitiv rivojlanish xususiyatlarini ochib bergan.

Integrativ yondashuvning nazariy manbalari Dewey(1938)ning tajribaga asoslangan ta’lim konsepsiyasi, Bruner(1960)ning spiral o‘quv dasturi modeli, hamda konstruktivistik pedagogika tamoyillariga borib taqaladi.Integratsiya, ta’lim mazmunining turli komponentlarini o‘zaro bog‘lash, fanlararo aloqalarni mustahkamlash va talabalarning mantiqiy ,tizimli fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Integrativ ta’limning amaliy modellaridan:

CLIL−mazmun va tilni birlashtirgan o‘qitish;

STEAM−fanlararo yondashuv;

PBL−muammoli loyihaviy o‘qitish;

Microteaching−qisqa trening darslari;

O‘qituvchini tayyorlashda samarali ekani ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan. Ushbu yondashuvlar boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi uchun eng mos integrativ birlikni shakllantiradi.

Integrativ o‘quv modeli quyidagi bloklardan iborat:

1.Nazariy integratsiya:

− pedagogika-psixologiya-metodika

−dars jarayonining konseptual asoslari

2.Amaliy integratsiya:

−microteaching

−STEAM asosida dars loyihalash

−pedagogik holatlarni hal qilish

−dars ishlanma va AKT vositalarini birlashtirish

3.Raqamli integratsiya (TPACK modeli):

−kontent-pedagogika-texnologiya

−raqamli baholash,multimediali dars

4.Refleksiya va tahlil:

− portfoliolar

−videodars tahlili

− o‘z-o‘zini baholash

Bu model asosida kompetensiyaning barcha komponentlari izchil rivojlantirildi.

Integrativ model bo‘yicha 8 haftalik tajriba-sinovdan so‘ng quyidagi natijalar olindi:

1.Pedagogik kompetensiya:+31% o‘sish

Talabalar dars loyihalashda standartlar,baholash mezonlari,differensial yondashuvdan samarali foydalanishni o‘rgandi.

2.Metodik kompetensiya:+36%

Interfaol metodlar,moslashtirilgan topshiriqlar,fanlararo integratsiya darajasi sezilarli oshdi.

3.AKT kompetensiyasi:+42%

Ishtirokchilarning aksariyati darsda:

−Jamboard

−Quizizz

−Google Classroom

−LearningApps kabi vositalardan mustaqil foydalana boshladi.

4.Kommunikativ kompetensiya:+28%

Intervyu natijalariga ko‘ra, talabalar o‘quvchilar bilan ishlashda ishonch va muloqat madaniyatini yaxshilagani qayd etildi.

5.Psixologik kompetensiya:+25%

Sinf boshqaruvi,motivatsiya va differensial psixologik yondashuv ko‘nikmalari yaxshilandi.

Statistik tahlil t-test yordamida o‘tqazildi va $p<0.05$ darajasida o‘zgarishlar sezilarli ekanligi aniqlandi.

Bugungi kunda integrativ yondashuv ta’limning eng samarali usullaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.Integrativ yondashuv o‘quv fanlari mazmunini uyg‘unlashtirish,ko‘nikmalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash ,talabalarning faol,mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga

xizmat qiladi.Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida STEAM kompetensiyalari,AKT savodxonligi,kommunikativ ko‘nikmalar,metodik refleksiya va pedagogik muloqot malakalari o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda,bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati yuqori ekanini ko‘rsatdi.Fanlararo bog‘liqlik,nazariya va amaliyot uyg‘unligi,raqamli pedagogika elementlarining qo‘llanilishi pedagogik tayyorgarlikni mazmunan boyitadi hamda talabalarning mustaqil fikrlashi,kreativ yechim toppish qobiliyati va pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Integrativ metodika asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning metodik tayyorgarligini oshirish bilan birga ularning shaxsiy-professional pozitsiyasini mustahkamlaydi.Amaliy mashg‘ulotlarning tizimli tashkil etilishi,maktab bilan uzviy hamkorlikning kuchaytirilishi va kompetensiyaga yo‘naltirilgan baholash tizimining joriy etilishi o‘qituvchi tayyorlash sifatiga bevosita ijobiy ta’sir qiladi.Tadqiqot jarayonida joriy qilingan innovatsion metodlar−muommoli ta’lim,loyihaviy faoliyat,integrativ dars texnologiyalari,refleksiya asosidagi pedagogik jarayon−talabalarning kommunikativ,metodik,axborot texnologiyalaridan foydalanish va didaktik kompetensiyalarni sezilarli ravishda rivojlantirgani aniqlandi.Bu esa boshlang‘ich ta’lim tizimida zamonaviy talablarni bajara oladigan,kreativ fikrlaydigan,raqamli vositalar bilan ishlashga tayyor o‘qituvchi kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Yakuniy natijalar shuni ko‘rsatadiki,integrativ yondashuv asosidagi metodikani tizimli joriy etish oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkun.O‘quv rejalari,amaliyot dasturlari,baholash mezonlari va o‘qituvchilarning malaka oshirish tizimi mazkur konsepsiya asosida takomillashtirilsa, boshlang‘ich ta’limsifatiga ,milliy va halqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.OECD.Teachers and School Leaders as Lifelong Learners:TALIS 2018 results.Paris:OECD Publishing.

2.Avliyakulov N.X.Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.Toshkent:O‘qituvchi,2019

3.Jalolov J.Integrativ ta’limning metodik asoslari va boshlang‘ich sinflarda qo‘llanilishi.Ta’lim jarayoni jurnali,4(2),45-52.2020 yil.

4.Shodmonqulova D.Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi kompetensiyasini shakllantirish masalalari.Boshlang‘ich ta’lim,6(3),25-31.2020 yil.

5.Abdullayeva S.Boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy yondashuv:nazariya va amaliyot.Toshkent:fan nashiriyoti,2021 yil.

6.Hasanov A.Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich ta’lim mazmunini integratsiyalash.Ilm va amaliyot,2(9),33-40.2023 yil

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SO‘Z MA'NOSI USTIDA ISHLASHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Husenova Muhtaram Husniddin qizi-
Navoiy davlat universiteti,
13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktaranti, Boshlang‘ich ta’lim kafedra o‘qituvchisi,
https://orcid.org/0009-0003-5462-5321
e-mail: Husenova@nspi.uz.

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z ma’nosini o‘rganish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Multimedia texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, ularning o‘quvchilarning nutqiy va tafakkur rivojiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, so‘z ma’nosini anglash, mustahkamlash va nutqda qo‘llash bosqichlarida qo‘llaniladigan interaktiv metodlar, rasmli lug‘atlar, audiomatnlar va video lavhalarning

o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari multimedia vositalari o‘quvchilarda so‘z boyligini oshirish, darsga qiziqishni kuchaytirish va tilni o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlashini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: multimedia, so‘z ma’nosi, boshlang‘ich ta’lim, rasmli lug‘at, interaktiv o‘yin, leksik ko‘nikma, nutq rivoji.

Abstract. This article discusses the effectiveness of using multimedia tools in the process of learning the meaning of words by primary school students. The didactic capabilities of multimedia technologies and their impact on the development of students' speech and thinking are analyzed. Also, the role of interactive methods, picture dictionaries, audio texts and video clips used in the stages of understanding, consolidating and using the meaning of words in speech is scientifically highlighted. The results of the study showed that multimedia tools increase students' vocabulary, increase interest in the lesson and ensure the effectiveness of language acquisition.

Keywords: multimedia, word meaning, primary education, picture dictionary, interactive game, lexical skills, speech development.

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность использования мультимедийных средств в процессе изучения значения слов учащимися начальной школы. Анализируются дидактические возможности мультимедийных технологий и их влияние на развитие речи и мышления учащихся. Также научно освещается роль интерактивных методов, иллюстрированных словарей, аудиотекстов и видеофрагментов, используемых на этапах понимания, закрепления и использования значения слов в речи. Результаты исследования показали, что мультимедийные средства увеличивают словарный запас учащихся, повышают интерес к уроку и обеспечивают эффективность усвоения языка.

Ключевые слова: мультимедиа, значение слова, начальное образование, словарь в картинках, интерактивная игра, лексические навыки, развитие речи.

Kirish. Ona tili darslarida o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, so‘z ma’nosini anglash va to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish boshlang‘ich ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy axborot texnologiyalari va multimedia vositalari bu jarayonda samarali yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Multimedia yordamida so‘zning ma’nosi, qo‘llanilishi, tasviri, tovushi, kontekstdagi o‘rni o‘quvchilarga yanada jonli va esda qolarli tarzda yetkaziladi.

Boshlang'ich sinflarda so'z ma'nosi ustida ishlashda multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bugungi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asosan vizual (ko‘rish orqali) va audio (eshitish orqali) axborotni tezroq qabul qiladi. Faqat matnli yoki og‘zaki tushuntirishlar endi ularning o‘rganish tezligiga mos kelmaydi. Shuning uchun, multimedia vositalari (video, animatsiya, interfaol ilovalar, 3D modellar) so‘z ma’nosini shunchaki lug‘at ta’rifi orqali emas, balki kontekstda, real tasvir va harakatlar orqali yetkazish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchida so‘zning obrazli va hissiy idrokini shakllantirib, so‘zni tez va mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, an’anaviy darslarda yangi so‘zning ma’nosi ko‘pincha o‘qituvchi tomonidan og‘zaki izohlanadi yoki tarjima qilinadi. Bu jarayon abstrakt bo‘lib, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchisining aniq-obrazli fikrlashiga mos kelmaydi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, ma’lumot bir nechta sezgi kanallari (vizual, audio, kinestetik) orqali qabul qilinganda xotirada uzoqroq saqlanadi. Multimedia vositalaridan foydalanish so‘zning semantik maydonini kengaytirish, uning ma’no nozikliklarini (ot, sifat, fe’llarning tuslanishini) ko‘rsatish orqali so‘z ma’nosi ustida ishlash samaradorligini ilmiy asoslash va amalda oshirish imkonini beradi.

Uchinchidan, sinfiylarda turli o‘rganish uslubiga ega bo‘lgan o‘quvchilar mavjud (vizual, auditor, kinestetik). An’anaviy metodlar barcha o‘quvchilarning ehtiyojini qondira olmaydi. Multimedia vositalari individual o‘rganish tempini qo‘llab-quvvatlaydi va o‘rganishdagi turli xil ehtiyojlarga moslashadi. Masalan, sekin o‘zlashtiradigan o‘quvchi animatsiyani qayta-qayta ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ta’limda inklyuzivlikni ta’minlash va har bir o‘quvchiga o‘zlashtirish uchun qulay sharoit yaratish nuqtai nazaridan juda muhimdir.

To‘rtinchidan, mavjud darsliklar va metodik qo‘llanmalar multimedia vositalarini tizimli ravishda integratsiya qilish bo‘yicha yetarli darajada amaliy ko‘rsatmalar va samarali topshiriqlar majmuasini taqdim etmaydi. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf

o‘qituvchilari uchun so‘z ma’nosi ustida ishlash bo‘yicha multimedia asosidagi samarali didaktik model, metodik tavsiyalar va interfaol mashqlar to‘plamini yaratishga xizmat qiladi. Bu esa ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitishning amaliy yechimi hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’limda so‘z o‘zlashtirish jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida psixologik va didaktik jihatdan asoslangan holda samarali, qiziqarli va mustahkam qilishga qaratilganligi bilan yuqori darajada dolzarb hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun so‘z ma’nosini o‘rganish faqat tilshunoslik vazifasi emas, balki nutqiy rivojlanish, tafakkur kengayishi va muloqot madaniyatining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘z ma’nosi ustida ishlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- so‘zning to‘g‘ri talaffuzi va yozilishi;
- leksik ma’no bilan tanishish;
- ko‘p ma’noli so‘zlar, sinonim, antonim va omonimlarni o‘rganish;
- so‘zning kontekstdagi ma’nosini tahlil qilish;
- tasviriy vositalarni (metafora, epitet) anglash.

Multimedia vositalari deganda — matn, rasm, tovush, video va animatsiyani birlashtirgan o‘quv vositalari tushuniladi. Ular o‘quvchining diqqatini jalb etadi, idrokini faollashtiradi va mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda so‘z ma’nosi ustida ishlashda quyidagi multimedia turlari samarali qo‘llaniladi:

- rasmli-slovar (interaktiv lug‘atlar) — so‘z va uning rasmini, talaffuzini birgalikda beradi;
- video lavhalar — so‘zning real hayotdagi qo‘llanishini ko‘rsatadi;
- audiomatnlar — to‘g‘ri talaffuz va ohangni shakllantiradi;
- interaktiv o‘yinlar (“So‘z top”, “Sinonimni tanla”, “Rasmga qarab so‘z ayt”) — o‘quvchini faol ishtirokchi qiladi;
- elektron taqdimotlar — o‘qituvchining tushuntirish jarayonini vizual qo‘llab-quvvatlaydi.

Boshlang‘ich ta’limda bu mavzu o‘rganishning nazariy va amaliy bo‘shliqlari mavjud bo‘lib, ularni birma-bir sanaymiz:

- boshlang‘ich sinfda kompyuter va AKT dan foydalanishning umumiy metodikasi (taqdimotlar, kompyuter o‘yinlari) keng yoritilgan. Ammo, aynan so‘zning semantik ma’nosini ochish, uning leksik birikuvchanligini (kontekstini) shakllantirishda multimedia vositalaridan foydalanishning maqsadli va bosqichli amaliy modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan;
- ona tili darslarida lug‘at boyligini oshirishning an’anaviy metodlari (lug‘at daftariga yozish, izohli lug‘atlar bilan ishlash) bo‘yicha chuqur ilmiy ishlar mavjud. Lekin, darsliklardagi so‘z ma’nosini tushuntirish metodikalariga qaysi turdagi multimedia vositasini (video, AR, interaktiv taqdimot) qanday bosqichda (tanishtirish, mustahkamlash, nazorat) integratsiya qilish bo‘yicha aniq didaktik tavsiyalar kam.
- nutqiy kompetensiyani rivojlantirish zarurligi va axborot texnologiyalarining ta’limga ijobiy ta’siri nazariy jihatdan tan olingan. Biroq, multimedia vositalari orqali so‘z ma’nosi ustida ishlashning o‘quvchilarning faol lug‘atini oshirishdagi aniq samaradorligini tasdiqlovchi keng qamrovli pedagogik eksperimentlar va ularning natijalari boshlang‘ich ta’limining aniq sharoitida (ona tili darslarida) yetarli emas.

Ko‘plab xalqaro tadqiqotlar, ayniqsa boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan tajribalar, video, animatsiya va interfaol o‘yinlar asosida berilgan lug‘at topshiriqlarining matnli yoki faqat audio izohlarga nisbatan ancha yuqori natija berishini tasdiqlagan. Multimedia vositalarining dars jarayonini qiziqarli, interfaol va o‘quvchi markazli qilishdagi roli, shuningdek, o‘quvchilarda til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirishdagi ta’siri keng o‘rganilgan.

Multimedia asosida so‘z ma’nosi ustida ishlash quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi mumkin:

1-bosqich: Idrokni tayyorlash

O‘quvchilarga rasm, tovush yoki qisqa video orqali yangi so‘z taqdim etiladi. Masalan, “uchmoq” so‘zini tushuntirishda qushning uchish jarayoni aks etgan video ko‘rsatiladi.

2-bosqich: So‘z ma’nosini anglash

O‘qituvchi multimedia material asosida savol-javob o‘tkazadi:

– Qush nima qilmoqda?

– “Uchmoq” so‘zi qanday harakatni bildiradi?

– Bu so‘zning yana qanday ma’nolari bor?

3-bosqich: Mustahkamlash

Interaktiv topshiriqlar orqali o‘quvchilar yangi o‘rganilgan so‘zlarni qo‘llaydilar. Masalan, “Uchayotgan nima?” o‘yini yoki rasmni to‘g‘ri so‘z bilan moslashtirish topshiriqlari.

4-bosqich: Nutqda qo‘llash

O‘quvchilar multimedia ko‘rgazmali materiallariga tayangan holda gap yoki kichik matn tuzadilar.

Tajriba-sinov darslarida multimedia asosidagi mashg‘ulotlar o‘tkazilganda o‘quvchilarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

- yangi so‘zlarni eslab qolish 35–40% ga oshdi;
- so‘z ma’nosini anglash va qo‘llash tezligi yaxshilandi;
- o‘quvchilarning nutqiy faolligi va darsga qiziqishi ortdi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda so‘z ma’nosi ustida ishlashda multimedia vositalarini qo‘llash o‘quv jarayonini interaktiv, ko‘rgazmali va samarali qiladi. Bu usul orqali o‘quvchilar til materialini nafaqat eshitadi yoki o‘qiydi, balki ko‘radi, his qiladi, tahlil qiladi, natijada so‘zning mazmuni ongida mustahkam o‘rnashadi. Multimedia vositalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z ma’nosini anglashni, so‘z boyligini oshirishni va mustaqil fikrlashni ta’minlaydi. Interaktiv lug‘atlar, audiovizual materiallar va o‘yin texnologiyalari orqali o‘quvchilarning nutqiy rivoji tezlashadi, ta’lim jarayoni esa zamonaviy, ko‘rgazmali va qiziqarli tus oladi. Shunday qilib, multimedia texnologiyalarini so‘z ma’nosi ustida ishlash metodikasiga integratsiya qilish — boshlang‘ich ta’limda samaradorlikni oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3832-son qarori. – Toshkent, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Mavlonova, R., Ashurova, D., & Usmonova, M. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2021.
4. Yo‘ldosheva, N. Til o‘qitish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.
5. G‘ulomova, D. Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, - 2021.
6. Xolmatova, G. Boshlang‘ich sinflarda so‘z boyligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Boshlang‘ich ta’lim jurnali, №2, 45–50-betlar, 2022.
7. Qodirova, D. Multimedia vositalarining boshlang‘ich ta’limda qo‘llanish samaradorligi. Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, №4, 33–38-betlar, 2021.
8. Mamatova, S. Boshlang‘ich sinflarda so‘z ma’nosini o‘rgatishda vizual vositalarning ahamiyati. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, №3, 27–32-betlar, 2020.
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
10. Mayer, R. E. Multimedia Learning. – 2nd ed. – New York: Cambridge University Press, - 2009.
11. Clark, R. C., & Mayer, R. E. E-learning and the Science of Instruction. – Hoboken: Wiley, - 2016.

ESKI O‘ZBEK YOZUVINI O‘QITISH METODIKASI VA UNING TARIXIY-MADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

M.N.Jo‘rayeva
Xalqaro innovatsion universiteti o‘qituvchisi
mjurayeva908@gmail.com
+998 90 518 95 58

Annotatsiya: Ushbu maqolada eski o‘zbek yozuvini o‘qitish metodikasining nazariy asoslari hamda uni talabalarda tarixiy-madaniy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Eski o‘zbek yozuvining lingvistik xususiyatlari, uni o‘qitishda qo‘llaniladigan samarali pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar yoritiladi. Shuningdek, o‘quv jarayonida mumtoz adabiy merosni asl manbalarda o‘rganishning ahamiyati, talabalarning madaniy tafakkuri va tarixiy xotirasini rivojlantirishga qo‘shadigan hissasi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari eski o‘zbek yozuvini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: eski o‘zbek yozuvi, o‘qitish metodikasi, tarixiy-madaniy kompetensiya, mumtoz adabiyot, arab grafikali yozuv, pedagogik yondashuvlar, lingvistik tahlil.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы методики обучения староузбекской письменности и её роль в формировании историко-культурных компетенций учащихся. Освещены лингвистические особенности староузбекской письменности, эффективные педагогические подходы и инновационные методы, используемые в её преподавании. Обосновывается важность изучения классического литературного наследия в первоисточниках в образовательном процессе, его вклад в развитие культурного мышления и исторической памяти учащихся. Результаты исследования свидетельствуют об актуальности интеграции староузбекской письменности в современный образовательный процесс.

Ключевые слова: староузбекская письменность, методика обучения, историко-культурная компетентность, классическая литература, арабская графичность, педагогические подходы, лингвистический анализ.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the methodology for teaching the old Uzbek script and its role in the formation of historical and cultural competencies in students. The linguistic features of the old Uzbek script, effective pedagogical approaches and innovative methods used in its teaching are highlighted. The importance of studying the classical literary heritage in original sources in the educational process, its contribution to the development of students' cultural thinking and historical memory is also substantiated. The results of the study indicate the relevance of integrating the old Uzbek script into the modern educational process.

Keywords: old Uzbek script, teaching methodology, historical-cultural competence, classical literature, Arabic graphic script, pedagogical approaches, linguistic analysis.

O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan boy adabiy, madaniy va ilmiy merosining muhim qismi **eski o‘zbek yozuvi**da yaratilgan. Arab grafikasiga asoslangan ushbu yozuv VIII–XX asrlar davomida Markaziy Osiyoda ilmiy, adabiy, diniy va ma’muriy hayotning asosiy yozuv tizimi sifatida qo‘llanilgan. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Mashrab kabi ulug‘ mutafakkirlar o‘z asarlarini aynan shu yozuvda bitganlar. Bugungi kunda mazkur manbalarni asl holida o‘qish va ilmiy tadqiq etish uchun eski o‘zbek yozuvini o‘rganish zarurati tobora ortib bormoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida mumtoz adabiy merosni to‘g‘ri talqin qilish, tarixiy matnlarni o‘qish va lingvistik tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda eski o‘zbek yozuvini o‘qitish muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon talabalarda **tarixiy-madaniy kompetensiya**, ya’ni xalqning madaniy ildizlarini anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va milliy o‘zlikni chuqurroq his etish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi[1:28].

Eski o‘zbek yozuvi arab alifbosi asosida shakllangan bo‘lib, turkiy fonetik tizimning ayrim o‘ziga xos belgilarini ifodalash uchun qo‘shimcha harflar bilan boyitilgan. Uning rivojlanishi

Qoraxoniylar, Temuriylar, keyinchalik Xiva, Buxoro va Qo‘qon xonliklari davrida jadallashgan. Ushbu yozuvning lingvistik xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1) **Fonetik moslashuv** — turkiy tovush tizimini ifodalash uchun “چ“ ,”پ“ ,”ڭ“ ,”گ” kabi harflar faol qo‘llanadi. **2) Morfologik barqarorlik** — o‘zak va qo‘shimchalar aniq ajraladi, bu talabalarga tahlilni osonlashtiradi. **3) Leksik boylik** — mumtoz matnlarda arabcha va forscha so‘zlar ko‘pligi lingvistik tahlilni yanada murakkablashtiradi [2:84].

Bu xususiyatlar eski o‘zbek yozuvini o‘qitishda maxsus metodik yondashuvlarni talab qiladi.

An’anaviy metodda avvalo harflar, tovushlar, yozuv qoidalari va transkripsiya o‘rgatiladi. Ushbu bosqichda:

- harflarning bog‘lanish shakllari,
- harf-tovush munosabatlari,
- arab grafikasidagi o‘qish yo‘nalishi kabi asosiy bilimlar beriladi.

Bu metod o‘quvchilarni yozuv bilan tanishtirishda muhim bo‘lsa-da, mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini to‘liq shakllantirmaydi.

Matn asosida o‘qitish (kontekstual yondashuv)

Bu metodda talabalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mumtoz adabiy matnlar taklif etiladi. Matn bilan ishlash jarayonida talaba: arxaik leksika sharhi, morfologik tahlil, sintaktik konstruktsiyalarni aniqlash, tarjima ishlari amalga oshiradi.

Kontekstual yondashuv talabalarda nafaqat lingvistik bilim, balki mazkur matnlar yaratgan davrning ijtimoiy-madaniy muhitini anglash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi [3:39].

Lingvistik tahlil usuli

Lingvistik tahlil eski o‘zbek yozuvini o‘qitishda eng samarali usullardan biridir. Bu jarayonda matn quyidagi bosqichlar asosida o‘rganiladi:

1) **fonetik tahlil** — talaffuz va yozuv tafovutlari;
2) **morfologik tahlil** — qo‘shimchalarning o‘rni va vazifasi;
3) **leksik tahlil** — sinonim, antonim, arabcha va forscha so‘zlarning o‘rni;
4) **etimologik tahlil** — so‘z ildizini aniqlash;
5) **stilistik tahlil** — badiiy vositalar va ularning vazifasi.

Bunday yondashuv talabalarning analitik fikrlashini rivojlantiradi.

Eski o‘zbek yozuvini o‘rganish talabalarda faqat tilga oid bilimlarni emas, balki keng madaniy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Jumladan:

1. Tarixiy xotiraning mustahkamlanishi

Talabalar mumtoz adabiyot matnlari orqali o‘tmishdagi ijtimoiy hayot, madaniyat, e’tiqod, siyosiy tizim haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

2. Milliy o‘zlikni anglash

Alisher Navoiy, Bobur kabi allomalarning asarlarini asl nusxada o‘qish talabalar dunyoqarashida milliy g‘ururni mustahkamlaydi.

3. Madaniy merosga hurmat

Eski qo‘lyozmalarni o‘rganish orqali talabalar madaniy boyliklarga ehtiyotkorlik bilan yondashishga o‘rganadilar.

4. Analitik va kreativ fikrlashni rivojlantirish

Lingvistik tahlil, matn bilan ishlash, tarjima jarayoni talabalarning intellektual salohiyatini oshiradi.

Eski o‘zbek yozuvini o‘rganishda amaliy mashg‘ulotlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlar quyidagi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi:

1) qo‘lyozmalar asosida o‘qish mashqlari;
2) mumtoz she’riy matnlarni tahlil qilish;
3) tarixiy hujjatlar bilan ishlash;
4) transkripsiya va transliteratsiya mashqlari;
5) manbalar bo‘yicha izlanish topshiriqlari.

Axborot va bilimlar doirasi tez sur’atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma’lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlari paytida talabalarga yetkazish juda mushkul. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, modul tizimida talaba ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlasagina, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko‘nikma va malakalari mustaqil ta’lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo‘ladi. Shuning uchun talabalarning mustaqil ta’lim olishlarini modul tizimi asosida rejalashtirish, uni tashkil qilish, buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratish, mashg‘ulotlarda qo‘lyozma matnlarni o‘qitish bilan bir qatorda bilim olish yo‘llarini ko‘rsatish, mustaqil ta’lim olish uchun yo‘naltirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi[4:55,56]

Eski o‘zbek yozuvini o‘qitish nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va madaniy merosni chuqur o‘rganish uchun ham beqiyos ahamiyatga ega ekanligi ushbu tadqiqotda asoslab berildi. Arab grafikasiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi asrlar davomida ilm-fan, adabiyot, davlat boshqaruvi va diniy-ma’rifiy hayotning bosh vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Shu bois uni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish bugungi zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, eski o‘zbek yozuvini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish, uni zamonaviy ta’lim dasturlariga integratsiya qilish va innovatsion yondashuvlar bilan boyitish – yosh avlodda milliy merosga hurmat, tarixiy xotira, madaniy kompetensiya va analitik tafakkurni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Shu jihatdan mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va metodik ishlar kelajak ta’limi uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Eski o‘zbek yozuvi I.Azimov, M,Tojiboyeva, AG‘oziyeva darslik. Toshkent 2019

2. R.Jumaniyozov Eski o‘zbek yozuvi. O‘quv qo‘llanma Toshkent 2012

3. U.Rasulovna Matnshunoslik va eski o‘zbek yozuvi fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish usullari maqola

4. Hamidova M., Sulaymonova N. Eski o‘zbek yozuvi. -Toshkent, 2009; Azimov I., G‘oziyev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi fanidan mustaqil ishlar.-Toshkent, 2010; Hamidov ., Ubaydullayev A., Egamova Sh. Eski o‘zbek tili va yozuvi (ma’ruza matni). -Toshkent, 2001

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI CHIROYLI YOZISHA O‘RGATISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI

Asatova Barfiya Faxridinovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, Buxoro shahar 24-maktabning
oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
barf8487@mail.ru 998934585390

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, chiroyli yozuv, husnixat, sinfdan tashqari ishlar, metodika, innovatsion yondashuv, o‘quvchi faolligi, yozuv madaniyati

Anotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozishga o‘rgatish jarayonida sinfdan tashqari ishlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Chiroyli yozuvga o‘rgatish nafaqat grafik malaka shakllantirish, balki o‘quvchilarda estetik did, sabr-toqat, mas’uliyat va ijodkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida qaralgan. Muallif o‘z pedagogik tajribasi asosida o‘quvchilarni yozuvga qiziqtirish, rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish, QR-kodli ta’lim usuli kabi innovatsion metodlarni qo‘llash natijalarini tahlil qilgan. Maqolada amaliy tavsiyalar bilan bir qatorda, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning metodik asoslari ham yoritilgan.

ПРАКТИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ОБУЧЕНИЮ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КРАСИВОМУ ПИСЬМУ

Ключевые слова: начальное образование, каллиграфия, красивое письмо, внеурочная деятельность, методика, инновационный подход, активность учащихся, культура письма.

Аннотация. В данной статье освещена роль и значение внеурочной деятельности в процессе обучения учащихся начальных классов красивому письму. Обучение каллиграфии рассматривается не только как формирование графических навыков, но и как средство развития у учащихся эстетического вкуса, терпения, ответственности и творческих способностей. Автор, опираясь на свой педагогический опыт, проанализировал результаты совершенствования системы мотивации учащихся к письму, внедрения инновационных методов обучения, таких как использование QR-кодов. В статье наряду с практическими рекомендациями раскрыты методические основы организации внеурочной деятельности.

PRACTICE OF IMPROVING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES FOR TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS BEAUTIFUL HANDWRITING

Keywords: primary education, handwriting, calligraphy, extracurricular activities, methodology, innovative approach, student engagement, writing culture.

Annotation. This article highlights the role and importance of extracurricular activities in teaching primary school students beautiful handwriting. Teaching handwriting is viewed not only as the formation of graphic skills but also as a means of developing students' aesthetic sense, patience, responsibility, and creativity. Based on the author's pedagogical experience, the article analyzes the results of improving students' motivation for writing and the application of innovative teaching methods, such as the use of QR-code-based learning. Along with practical recommendations, the methodological foundations for organizing extracurricular activities are also discussed.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi — bu o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida poydevor davridir. Shu bosqichda o‘quvchi nafaqat o‘qish, yozish va hisoblashni o‘rganadi, balki o‘z fikrini aniq, chiroyli ifoda etish, madaniyatli yozuv bilan yozish ko‘nikmasini ham egallaydi [1:35.]. Yozuv madaniyati o‘quvchining estetik didi, e’tibori va intizomini tarbiyalaydi.

Chiroyli yozuvga o‘rgatish — bu faqatgina husnixat darslari bilan cheklanmaydi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar yozuv malakasini yanada chuqurroq o‘zlashtirishi uchun sinfdan tashqari ishlar orqali mashg‘ulotlarni davom ettirish juda foydalidir [2:42.]. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim tizimida sinfdan tashqari ishlarga metodik yondashuvni takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Men o‘z pedagogik faoliyatim davomida shuni angladimki, o‘quvchini chiroyli yozishga o‘rgatishda dars jarayonidagi mashqlar yetarli emas — o‘quvchining qiziqishini uyg‘otish, uni ijodiy jarayonga jalb etish, rag‘batlantirish zarur [3:17.]. Bunda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar katta ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining husnixat ko‘nikmalarini shakllantirish uzluksiz mashq va e’tiborni talab qiladi [4:63.]. Biroq dars vaqtida barcha o‘quvchilar bilan individual ishlash imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Shu sababdan “Yozuvchilar to‘garagi”, “Kimning xati chiroyli?” tanlovlari (1-rasm), “Harflar sayohati” kabi sinfdan tashqari ishlar tashkil etish orqali bu jarayonni chuqurlashtirish mumkin.

1-rasm. 1-sinflarda “Kimning xati chiroyli?” tanlovi

Masalan, men o‘z amaliyotimda haftaning bir kunini “Chiroyli yozuv kuni” deb belgilab, har bir o‘quvchiga maxsus yozuv daftarini ajratdim. Diktantni turli xil usullarda oldim: rasm diktant, ijodiy diktant, ko‘chiruv diktant, yoddan yozuv diktant. Rasm diktantni yzishda o‘quvchilar husnixatga emas, balki ko‘rgan rasmini yozishga diqqatini qaratadi. (2-rasm). Natijada, husnixatlari chiroyli chiqmaydi. Ko‘chiruv diktantda esa, chiroyliroq yozishga harakat qilishadi. Ushbu daftar orqali o‘quvchi o‘zining yozuvdagi o‘sishini kuzatadi, har bir haftada eng yaxshi yozgan o‘quvchilar rag‘batlantirildi. (3-rasm). Bu usul o‘quvchilarda nafaqat chiroyli yozishga, balki mas’uliyat bilan ishlashga bo‘lgan qiziqishni oshirdi.

2-rasm. Rasm diktant 3-rasm. Rag‘batlantirish

Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijodkorligini ham ochadi. Ular chiroyli yozish orqali matnga estetik yondashish, yozuvning badiiy qiymatini tushunishadi [5:89.]. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davrida bola o‘rganayotgan har bir harf, so‘z, gap uning dunyoqarashini shakllantiradi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining rejalashtirish, kuzatish va baholash faoliyati muhim o‘rin tutadi [6:57.]. Har bir mashg‘ulot oldindan puxta o‘ylangan bo‘lishi, o‘quvchilar yosh xususiyatlariga mos shaklda tashkil etilishi lozim.

Metodik jihatdan quyidagi yondashuvlar o‘zini oqlaydi:
1. Ko‘rgazmalilik tamoyili – yozuv mashqlarini o‘quvchilarga nafaqat og‘zaki tushuntirish, balki namunaviy yozuvlar, plakatlar va interaktiv taxtalar orqali ko‘rsatish [7:128.].
2. Qiziqish asosida o‘qitish – o‘quvchilarni o‘z yozuvlarini bezash, rangli ruchka yoki maxsus belgilar bilan ishlash orqali jarayonga jalb etish.
3. Rag‘batlantirish tizimi – har bir kichik muvaffaqiyat uchun “Go‘zal yozuv yulduzi”, “Hafta g‘olibi” kabi nominatsiyalar bilan o‘quvchilarni baholash.
4. Ijodiy yondashuv – yozuvni faqat mashq sifatida emas, balki ijodiy jarayon sifatida tashkil etish: she’r yozish, otasiga yoki onasiga maktub yozish, hikoya bayonini chiroyli yozishda ifodalash.

Bugungi kunda ta’lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan boyimoqda. Shu sababdan chiroyli yozuvni o‘rgatishda ham zamonaviy texnologiyalarni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga tatbiq etish mumkin [9:101.].

Masalan, men o‘quvchilar uchun “Yozuv olami” nomli QR-kodli rag‘bat tizimini joriy etdim. O‘quvchi topshiriqlarni to‘g‘ri bajarganida unga QR-kodli chip beriladi, u kod orqali yozuv haqidagi qisqa videorolik yoki tarixiy ma’lumotni tomosha qiladi. Bu o‘quvchilarning yozuvga bo‘lgan qiziqishini ancha oshirdi.Shuningdek, “Raqamli doska” yordamida har bir o‘quvchi o‘z yozuvini elektron tarzda taqqoslash, o‘zini tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa o‘quvchini o‘z xatosini ko‘rishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi chiroyli yozishga o‘rganayotganda uning sabr-toqati, diqqat-e’tibori, qo‘l motorikasi hamda ruhiy holati katta rol o‘ynaydi [10:44.]. O‘qituvchi har bir bolani individual o‘rganishi, unga mos rag‘bat shaklini tanlashi zarur.

Chiroyli yozishga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarda quyidagi sifatlar shakllanadi:
- tartib-intizom;
- sabr-toqat;
- mas’uliyat hissi;
- estetik did.

O‘qituvchi uchun eng muhim vazifa — o‘quvchida “men chiroyli yozishni xohlayman” degan ichki motivatsiyani uyg‘otishdir.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozishga o‘rgatish — bu faqat grafik malaka emas, balki tarbiyaviy, estetik va intellektual jarayondir [11:29.]. Agar bu jarayon sinfdan tashqari mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirilsa, o‘quvchilarning yozuv madaniyati, tafakkuri va ijodkorligi sezilarli darajada rivojlanadi.

Sinfdan tashqari ishlarni takomillashtirish orqali o‘quvchilarni chiroyli yozuvga o‘rgatish quyidagi natijalarni beradi:
- o‘quvchilarda yozuvga bo‘lgan qiziqish ortadi;
- mustaqil ishlash ko‘nikmalari shakllanadi;

- rag‘batlantirish orqali o‘z ustida ishlash motivatsiyasi kuchayadi;
- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yozuv malakasini shakllantirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 168 b.

2. Alimov A. Husnixat o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. –142 b.

3. G‘ulomova N. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2021. – 642 b.

4. Jo‘raeva D. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Buxoro, 2020. – 218 b.

5. Matchonov S. va boshq. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2021. – 642 b.

6. Po‘latov U. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Toshkent, 2022. – 256 b.

7. Raxmatova M. Boshlang‘ich ta’limda chiroyli yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirish. – Samarqand, 2019. – 130 b.

8. Rustamov A. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar. – Toshkent, 2020. – 112 b.

9. Shodmonova S. Husnixat o‘rgatishning yangi yondashuvlari. – Toshkent, 2021. – 154 b.

10. Xudoyqulova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozuv madaniyatini shakllantirish. – Toshkent, 2023. – 178 b.

11. Yo‘ldosheva Z. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent, 2022. – 190 b.

O‘QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUVGA O‘RGATISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Navoiy davlat universiteti
boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Norova Iroda Mirzog‘olib qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni chiroyli yozuvga o‘rgatishning nafaqat ta’limiy, balki ijtimoiy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Chiroyli yozuv bola tafakkurini rivojlantirish, estetik didni shakllantirish va ijtimoiy muloqotda o‘zini aniq hamda ishonchli ifoda eta olish qobiliyatini kuchaytiradi. Maqolada maktabdagi yozuv darslarining tarbiyaviy roli, yozuv madaniyatini yosh avlod ongiga singdirish yo‘llari hamda bu jarayonning jamiyat rivojiga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: chiroyli yozuv, o‘quvchilar, ijtimoiy ahamiyat, yozuv madaniyati, maktab, estetik tarbiya, tafakkur.

Annotation: This article discusses the educational and social significance of teaching students neat handwriting. Beautiful handwriting contributes to the development of a child's thinking, shapes aesthetic taste, and enhances their ability to express themselves clearly and confidently in social interactions. The article highlights the educational role of handwriting lessons at school, ways to instill a culture of writing in the younger generation, and how this process affects societal development.

Keywords: neat handwriting, students, social importance, writing culture, school, aesthetic education, thinking skills.

Аннотация: В данной статье рассматривается не только образовательное, но и социальное значение обучения школьников красивому почерку. Аккуратный почерк способствует развитию мышления ребёнка, формированию эстетического вкуса и укреплению уверенности в самовыражении в социальной среде. В статье подчёркивается воспитательная роль уроков письма в школе, пути формирования культуры письма у молодёжи и влияние этого процесса на развитие общества.

Ключевые слова: красивый почерк, учащиеся, социальная значимость, культура письма, школа, эстетическое воспитание, мышление.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli va estetik dunyoqarashga ega insonlar etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Prezidentimizning 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarorida ham ta’limda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, o‘quvchilarning savodxonligi va tafakkur darajasini oshirish zarurligi alohida ta’kidlangan.

Mazkur jarayonda o‘quvchilarning chiroyli yozuvga o‘rgatilishi, ularning yozuv madaniyati va estetik tarbiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chiroyli yozuv bolalarning nutq madaniyati, fikrini izchil ifoda etish ko‘nikmasini rivojlantirib, ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, maktab ta’limida yozuv darslari nafaqat savod o‘rgatish, balki shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash vositasi sifatida ham ko‘rilmoqda.

Aslida ta’lim-tarbiya bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topishi, shakllanishini ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. O‘quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun, birinchi navbatda diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etganligini ko‘ramiz. Bu bog‘lanishlar miyada mustahkamlanadi va saqlanib qoladi. Bu hol o‘quvchiga idrok etgan va sezgan narsalarini xotiraga muhrlash imkonini beradi. Masalan, o‘quvchilarning o‘qituvchi bayon qilayotgan harflar shaklini qanday yozayotganliklarini tahlil qilib ko‘raylik. Bu jarayonni uning asosiy xarakteriga ko‘ra, idrok etish jarayoni deb atash mumkin. Biroq bu idrokning aniq va ravshan bo‘lishi uchun o‘quvchi o‘z irodasini ishga soladi, diqqatini harflarning shaklini to‘g‘ri ifodalashga jalb qiladi.

Yozayotgan so‘z yoki gapning mazmunini tushunmasdan, harflarning shaklini bilmasdan ularni idrok etib bo‘lmaydi. Yozish jarayoni ko‘rish va eshitish sezgilari orqali idrok qilinadi. Idrok etilishi lozim bo‘lgan materialni tartibga solish, o‘rganiladigan manba yoki uning tasvirini yaqqol ko‘rsatish, bayonning yaqqol va izchil bo‘lishi, sinf doskasiga hamma o‘quvchi ko‘ra oladigan qilib chiroyli yozish idrok etishning muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlaydigan omillardandir.

Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo‘lib, u bir necha davrlarga bo‘linadi va bir necha xil vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bolalar o‘qituvchining ko‘rsatmasiga asosan, doskaga yozgan harf va so‘zlarni ko‘rib boradilar, so‘z va bo‘g‘inlarni tahlil qiladilar, nuqtachalar bilan ifodalangan harflarning ustidan bo‘yaydilar. O‘quvchilarni yozdirishga o‘rgatishdan avval to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini tushuntirib berish shart. Shu bilan birga o‘qituvchi butun dars davomida o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini eslatib turishi lozim.

O‘quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish uyg‘otish birinchi navbatda o‘qituvchiga bog‘liq. Shunday ekan, har bir o‘quvchini chiroyli yozuvga o‘rgatish, yozuv malakalarini shakllantirish biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining zimmasidagi yuksak vazifadir. Chunki, husnixat ham bir san’at aslida.

Inson o‘z fikrini boshqa kishilarga og‘zaki va yozma shaklda yetkazish mumkin. Nutqning bu shaklining o‘xshash va farqli tomonlari mavjud bo‘lib ular o‘z o‘rnida afzalliklarga ega. Og‘zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitish uchun mo‘ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog‘och, teri, metall, qog‘oz kabilarga ko‘rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo‘yiladi. Yozuv kishilarning o‘zaro fikr almashishi va bilimlarning egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog‘laydi, uzoq saqlanadi.

Yozuv tufayli kishi fikr, insoniyat qo‘lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Namunaga qarab yozish usuli. Chiroyli yozuvga o‘rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko‘rsatish va yozdirishdir. Har bir harf namunasi doskaga barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o‘quvchilarga daftarga alohida alohida ko‘rsatib berilishi lozim. O‘quvchining vazifasi esa doskaga eslab qolgan shakllarni harf, bo‘g‘in, so‘zlar o‘z daftarlarida to‘g‘ri aks ettirishdir.

Nusxa ko‘chirish usuli . Bu metodni harf shaklini to‘g‘ri tasavvur eta olmagan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o‘quvchilar uchun qo‘llash mumkin. Masalan, bir o‘quvchi katta A harfini yozishda xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, o‘qituvchi ularni nuqtalar bilan ifodalab

daftarga qalamdan yozib ko‘rsatadi, o‘quvchi esa uning ustidan siyoh bilan yurgizib chiqadi. Bu usul o‘quvchining shu bilim haqidagi tasavvurini kengroq shakllantiradi. Bu usulning ijobiy jihatlari bilan birga salbiy jihatlari ham bor. Bunday mashqlar faqat qo‘l harakatini o‘stirish uchun yordam beradi xolos. Uzoq muddat bunday usulda yozgan bolalar harflarning shaklini mustaqil yoki namunaga qarab yozishda qiynaladilar.

Tassavvur orqali yozish usuli. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan usullar bilan bir qatorda , bolalarda tasavvur qilish orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O‘qituvchi doskaga yozib ko‘rsatgan harf yoki bog‘lanishlarni , o‘quvchilarga qanday qilib yozishni , ruchkani havoda harakatini ko‘rsatib, o‘quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so‘ng daftarga yozishga ruxsat etadi. Bunday mashqlar o‘quvchilarning qiziqishlarini o‘stiradi hamda jismoniy mashqlarini ham bajarish imkonini beradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ularning estetik didini, madaniyati va jamiyatda to‘laqonli ishtirokini shakllantirish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chiroyli yozuv — bu o‘quvchining nafaqat yozuv texnikasini o‘zlashtirishi, balki uning fikrlash darajasi, diqqat, xotira, estetik did va mas’uliyat hissining shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim vositadir.

O‘quvchilarni chiroyli yozuvga o‘rgatish orqali ularning nutq madaniyati yuksaladi, o‘z fikrini aniq, izchil va tushunarli ifoda etish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Bu esa ularning ijtimoiy muhitda faol, madaniyatli va bilimli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, maktab ta’limining ilk bosqichlarida husnixat darslariga beriladigan e’tibor bolaning butun hayoti davomida qo‘l keladigan zaruriy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Shu bois, o‘quvchilarni chiroyli yozuvga o‘rgatish — bu faqat didaktik vazifa emas, balki shaxs tarbiyasining, madaniy va ijtimoiy barkamollikning muhim omillaridan biri sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimov Y.Y., Qo‘ldoshev R.A. (2017). *Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari*. Toshkent: Turon Zamin Ziyo.
2. Safarova R., Inoyatova M., Shokirova M., Shermamatova L. (2021). *Alifbe* (qayta ishlangan 16-nashr). Toshkent: Respublika ta’lim markazi.
3. Muratova X. (2022). O‘quvchilarda chiroyli yozish ko‘nikmalarini shakllantirish. *Maktabgacha ta’lim jurnali*, (3).
4. Qobilova S.A. (2024). Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish usullari. *Pedagogik jihatlari* respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.
5. Axmadullin Shamil Tagirovich. (2023). *Kursiv yozuv: Bolani tez va chiroyli yozishga qanday o‘rgatish kerak*. Toshkent: Shaxsiy nashr.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI ALIFBE DAVRIDA YOZUV TEXNIKASINI O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Do‘stmuratova Bahora-
Navoiy davlat universiteti 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: Isroilova Ruhshona Sunnatovna
Navoiy davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada alifbe davrida yozuv texnikasiga o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan. O‘quvchilar tomonidan harflarning shaklini yozishda ularning yozuvini ko‘zdan kechirib chiqish, ayrim harflarning elementini noto‘g‘ri yozayotgan o‘quvchilarga shu elementning to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatib berish yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yozuv gigiyenasi*, grafik tasvir, unsur, to‘qinsimon unsur, tipik xato

Аннотация. *В данной статье представлены особенности обучения технике письма в эпоху алфавита. При написании учащимися формы букв разъясняется повторение их написания, чтобы показать правильное написание этого элемента учащимся, неправильно написавшим элемент некоторых букв.*

Ключевые слова: *Написание гигиены, графическое изображение, элемент, волнистый элемент, типичная ошибка*

Abstract. *This article presents the specific features of teaching writing techniques in the alphabet period. When writing the shape of the letters by the students, it is explained to review their writing, to show the correct spelling of this element to the students who write the element of some letters incorrectly.*

Key words: *Writing hygiene, graphic image, element, wavy element, typical error*

Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinflarda harflarning shaklini to‘g‘ri yozishga o‘rgatish o‘qituvchilardan tinimsiz izlanish va ijodkorlikni hamda kasbga bo‘lgan ulkan sadoqatni, o‘quvchilardan esa juda ko‘p mehnatni talab etadi. Ustozi yordami bilan o‘quvchi har bir harfning tuzilishini, yozilishini ko‘rishi va tasavvur hosil qila olishi lozim. O‘qituvchi shogirdlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlashi va uni bartaraf etish hamda tuzatish yo‘llari borasida doimiy ko‘rsatmalar berib turishi kerak.

Ta’kidlash joizki, o‘quvchilar tomonidan har bir harf aniq va bexato yozilishiga erishilishi, buning uchun esa ko‘p mashq qilinishi kerak bo‘ladi. Albatta, dastlab yozish sur’ati sekin bo‘ladi, keyinchalik o‘quvchilar harflarning yozilish shaklini yaxshi o‘zlashtirib olganlaridan so‘ng yozuvning tezligi ortib boradi. Tajribalar shuni ko`rsatadiki, harf va uning elementlari shaklini tushuntirishda dastlab doskaga yozib ko‘rsatish juda muhimdir. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi yaxshi yoza oladigan bo‘lishi kerak. Uning yozuvi shogirdlariga namuna bo`lishi lozim. Agar o‘qituvchi bir harfni bir safar boshqa shaklda, ikkinchi safar yana bir shaklda yozib ko‘rsatsa, o‘quvchilar ikkilanib qoladilar va xatoga yo‘l qo‘yadilar.

O‘quvchi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilgan harflarni bir-biridan ajrata olishi, ulardagi asosiy kamchiliklar nimadan iborat ekanligini ko‘rsata olishi lozim. Shuning uchun ham o‘quvchilarda harfning shaklini analitik ko‘rish malakasini o‘stirish talab etiladi. Analitik ko‘rish malakasi faqat to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan harflarni solishtirish orqali o‘stirib boriladi. O‘qituvchi o‘rgatmoqchi bo‘lgan harfning shaklini va yozilish tartibini doskada ko‘rsatib bergandan so‘ng o‘quvchilarga 3-4 qator mustaqil yozishga ruxsat etishi mumkin. Bu vaqt ichida o‘qituvchi sinfni aylanib, o‘quvchilarning yozuvini tekshirib chiqishi va xato yozayotgan o‘quvchilarning yozuvlaridan bittasini namuna uchun tanlab olib, doskada o‘quvchi qanday xato yozgan bo‘lsa, o‘qituvchi ham shunday shaklda yozib ko‘rsatadi.

Bu davrda o‘quvchilarni asta-sekin «husnixat» daftaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatib borish zarur. O‘qituvchining ko‘rsatmasiga binoan o‘quvchi daftardan zarur mashqni topishi va bajarishi lozim. Alifbegacha bo‘lgan davrdan boshlab harf va uning elementlarini bir xil balandlikda, qiyalikda va qalinlikda yozishga qaratish talab etiladi.

Alifbe davrida o‘quvchilar nutq tovushlari bilan tanishadilar, so‘z tuzishga, so‘z va gaplarni o‘qishga hamda ayrim elementlar, harflar, o‘tilgan harflar ishtirokida so‘z va gaplar yozish ham o‘rgatiladi. Alifbe davrida bolalarni yozishga o‘rgatish juda muhimdir. Bu davrda o‘quvchilarga harf va uning elementlari «Alifbe» daftarida ko‘rsatilgan tartibda o‘rgatiladi. O‘quvchilarga vaqt-vaqti bilan yozuv gigiyenasi qoidalarini eslatib turish lozim.

Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat:

1. Kichik va bosh harflarni alifbe tartibida yozish.
2. Harflarni bo‘g‘in va so‘zlarda qo‘shib yozish.
3. Qo‘l harakatini uzmay yozishga o‘rgatish.
4. Harflarning qiyaligini va enini to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.

O‘quvchilar tomonidan harflarning shaklini yozishda ularning yozuvini ko‘zdan kechirib chiqish, ayrim harflarning elementini noto‘g‘ri yozayotgan o‘quvchilarga shu elementning to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatib berish lozim.

Alifbe davrining oxirida ko‘pchilik o‘quvchilarda yozuv malakasi hosil bo‘ladi, ammo bu bilan qanoatlanmasdan yozuvga o‘rgatish malakasini takomillashtirib borish talab etiladi. O‘quvchilar, oldingi darsda «Alifbe» kitobidan qaysi tovushni o‘tgan edik? Shu tovush so‘zning o‘rtasida, oxirida va boshida kelgan so‘zlardan ayting (o‘quvchilar so‘z topadilar). Endi kesma alifbedan kichik **r** harfini toping. Mana bu - kichik r harfining bosma shakli. Endi sizlar bilan harfning yozilishini

o‘rganamiz. (O‘qituvchi doskada ko‘rsatadi.) Men qaysi tomondan boshlab yozyapman va qaysi tomonga qo‘limni yo‘naltiryapman: shunga qarab turing.

Kichik **r** harfi ikki elementdan tuzilgan bo‘lib, birinchi elementi ikkita bir-biriga qo‘shilgan to‘lqinsimon unsurdan tashkil topgan bo‘lib, ikkinchi elementi esa osti ilgakli kichik tayoqcha shaklida bo‘ladi. Ammo yozayotganda har ikki elementini bir-biriga qo‘shib yozamiz, bu harfni yozishda qo‘l harakati uzilmaydi.

-Qarang, men harfning birinchi unsurini qanday yozaman, daftarning o‘rta chizig‘idan 1,5 mm pastdan boshlab yuqoriga qarab qiya va ilmoqli shaklda yozamiz, ikkinchi unsurni yuqori chiziqdan pastga qarab to‘g‘ri chiziqli ilmoq shaklida yozamiz.

Bu harfni yozishda uning qiyaligiga alohida e’tibor bering. U daftarning qiya chizig‘iga parallel bo‘lsin.

-Qani, o‘quvchilar, bu harfni yozishga boshlashdan oldin, yozuv vaqtida partada qanday o‘tirish lozim ekanligini aytib bering-chi? Oyog‘imiz qaerda turishi kerak? Gavdani qanday tutamiz? (O‘quvchilar javob beradilar.) Ruchkani qaysi barmoqlarimiz bilan ushlaymiz? Ko‘rsatkich barmog‘imiz qaerda turadi? Avtoruchkani qanday ushlayotganimizni tekshirib ko‘ramiz. «Bir» deganda ko‘rsatkich barmog‘imizni ko‘taramiz, «ikki» deganda tushiramiz. (O‘quvchilar ruchkani ko‘targan holda ko‘rsatkich barmoqlarini ko‘rsatadilar).

O‘quvchilar kichik **r** harfini yozish malakasini egallab olganlaridan keyin «Husnixat» daftaridan so‘zlar yozdiriladi: ari, arra, anor, shar.

O‘quvchilarga so‘zlarni yozdirishdan avval o‘qituvchi doskada ularning bog‘lanishini ko‘rsatib beradi va kichik **r** harfi o‘zidan oldingi va keyigi harflar bilan qo‘l harakati uzilmasdan qo‘shib yozilishini eslatib o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Azimov Y.Y., Qo‘ldoshev R.A.. Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari. - Toshkent: Turon Zamin Ziyo nashriyoti, 2018.-132 b.

2.Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari. (Alifbe o‘qitish bo`yicha metodik qo`llanma). -T.: Ma’naviyat, 2003, -96 bet.

3.O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim milliy o‘quv dasturlari. -T.: 2021. Harfini va shu harf ishtirok etgan so‘zlarni yozib kelish.

4.Mamanazarovna O. U., Gulnoza M. USE OF DIDACTIC GAMES IN MOTHER TONGUE LESSONS. – 2021.

ПРАКТИКА ОБУЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ КРАСИВОМУ ПИСЬМУ

Ахматова Нурсауле Нуралиевна-
магистрант Навоийского государственного университета
Научный руководитель: доцент кафедры
Начального обучения **Кодирова С. А.**
E-mail: nursauleahmatova@.gmail.com

Аннотация: В статье анализируются современные подходы к обучению младших школьников красивому письму, рассматриваются психолого-педагогические особенности формирования графических навыков, а также представлены практические методики, направленные на развитие каллиграфической культуры учащихся.

Ключевые слова: красивое письмо, младшие школьники, каллиграфия, методика обучения.

Abstract: The article examines modern approaches to teaching primary school children beautiful handwriting, analyzes psychological and pedagogical aspects of handwriting development, and presents practical methods aimed at improving students’ calligraphic skills.

Keywords: handwriting, primary school, calligraphy, writing skills.

Annotatsiya: Maqolada kichik maktab o‘quvchilarini chiroyli yozuvga o‘rgatishning zamonaviy yondashuvlari, grafik ko‘nikmalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari hamda kaligrafik malakalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy metodlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: chiroyli yozuv, boshlang‘ich sinf, kaligrafiya, yozuvga o‘rgatish.

Ключевые слова: красивое письмо, младшие школьники, каллиграфия, графические навыки, методика обучения.

Современное начальное образование уделяет значительное внимание формированию у детей устойчивого навыка аккуратного и разборчивого письма. Несмотря на активное внедрение цифровых технологий, письмо от руки остаётся важнейшим инструментом когнитивного, эмоционального и речевого развития ребёнка. Научные исследования указывают, что процесс обучения письму влияет не только на качество письменной речи, но и на развитие внимания, памяти, пространственного восприятия и координации движений [2: 63.].

Формирование красивого письма является сложным процессом, который включает работу над психофизиологическими функциями: зрительным анализом, двигательными навыками, координацией руки, состоянием мелкой моторики и уровнем концентрации внимания. У детей 6–10 лет данные функции развиваются неравномерно, поэтому методика обучения должна быть гибкой и адаптивной.

Педагогу важно учитывать индивидуальный темп ребёнка, особенности моторного и речевого развития, а также уровень сформированности предпосылок к графической деятельности.

Эффективная работа над формированием красивого письма начинается с правильной организации рабочего места. Учителю необходимо следить за посадкой ребёнка, положением корпуса, рук, освещением и наклоном тетради, так как даже незначительные нарушения могут привести к неправильному выполнению двигательных действий и снижению качества письма .

Одним из ключевых этапов выступает обучение элементам букв. Перед тем как приступить к написанию целых символов, учащиеся осваивают базовые графические элементы: дуги, линии, овалоподобные фрагменты, угловые соединения. Постепенная работа с элементами позволяет развивать ритмичность и уверенность письма.

Сегодня педагоги активно используют разнообразные упражнения: задания на штриховку, ритмические линии, графические композиции, упражнения на повторение орнаментов, крупноформатное письмо, цифровые тренажёры и интерактивные платформы. Эти методы позволяют детям постепенно развивать графические навыки в увлекательной игровой форме .

Особое место занимают так называемые «каллиграфические минутки» — короткие, но регулярные упражнения, которые помогают развивать движение руки, улучшать плавность письма, формировать устойчивый ритм.

Формирование навыка красивого письма невозможно без позитивной мотивации. Учитель может использовать персональные достижения, творческие задания, конкурсы, индивидуальные траектории развития. Практика показывает, что систематическое поощрение усилий учащихся формирует осознанное стремление к аккуратности и внимательности при выполнении письменных заданий.

5. Упражнения для развития графических навыков.

Для укрепления моторики и улучшения качества письма применяются:

– графические диктанты;

– упражнения на развитие зрительно-моторной координации;

– составление узоров по образцу;

– работа с увеличенными формами букв и их элементов;

– задания на преобразование графических фигур.

Такие упражнения делают процесс обучения более интересным и способствуют осмысленному освоению навыка письма.

Таким образом, обучение младших школьников красивому письму является длительным, многогранным и системным процессом, требующим от педагога методической гибкости, глубокого понимания особенностей развития ребёнка и способности создавать благоприятную эмоциональную атмосферу. Использование разнообразных упражнений, применение

интерактивных средств, соблюдение индивидуального подхода и поддержание устойчивой мотивации позволяют добиться значительных результатов в формировании каллиграфической грамотности. Успешное овладение красивым письмом способствует развитию культуры письменной речи и формированию позитивного отношения к учебному процессу в целом.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Абдуллаева Н. Психология раннего школьного возраста. – Ташкент, 2021. – 210 б.
2. Богданова Т.Г.
Методика обучения письму в начальной школе. – Москва, 2020. – 256 с.
3. Грачева Н.А. Формирование графических навыков у младших школьников. – Казань, 2021. – 198 с.
4. Ермолаева М.В. Развитие моторики и письма у детей. – Новосибирск, 2018. – 220 с.
5. Кузьмина О.В. Современные подходы в обучении письму. – Минск, 2020. – 304 с.
6. Трофимова Е.И. Каллиграфическая грамотность школьников. – Минск, 2022. – 180 с.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TO‘G‘RI YOZISH MALAKASINI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR USTIDA ISHLASH

Subxonova Sanobar Abduhalim qizi,
Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirishning nazariy asoslari, imloviy savodxonlikni rivojlantiruvchi mashq turlari, dars jarayonida qo‘llaniladigan metod va texnologiyalar, xatolarni bartaraf etish usullari yoritilgan. Shuningdek, imloviy malaka bosqichlari, fonetik–grafik va morfologik imlo asoslari, hamda to‘g‘ri yozuvni mustahkamlovchi interfaol mashqlar ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mashqlar, boshlang‘ich ta’lim, to‘g‘ri yozish malakasi, orfografik topshiriqlar, savodxonlik, ijodiy yozuv, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari.

РАБОТА НАД УПРАЖНЕНИЯМИ, РАЗВИВАЮЩИМИ НАВЫКИ ПРАВИЛЬНОГО ПИСЬМА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Субханова Санобар Абдухалимовна,
Исследователь Навоийского государственного университета

Аннотация: В статье освещаются теоретические основы формирования навыков правильного письма у младших школьников, виды упражнений, развивающих орфографическую грамотность, методы и технологии, применяемые в процессе урока, способы устранения ошибок. Также был проведен научный анализ этапов орфографической квалификации, основ фонетико–графического и морфологического правописания, а также интерактивных упражнений, закрепляющих правильное написание.

Ключевые слова: упражнения, начальное образование, навыки правильного письма, орфографические задания, грамотность, творческое письмо, интерактивные методы, информационные технологии.

WORKING ON EXERCISES THAT DEVELOP WRITING SKILLS IN ELEMENTARY GRADES

Sanobar Abdukhalimovna Subkhanova,
Researcher at Navoi State University

Abstract: The article highlights the theoretical foundations of the formation of correct writing skills in younger schoolchildren, the types of exercises that develop spelling literacy, methods and technologies used in the course of the lesson, and ways to eliminate errors. There was also a scientific

analysis of the stages of spelling qualification, the basics of phonetic, graphic and morphological spelling, as well as interactive exercises to fix the correct spelling.

Keywords: exercises, primary education, correct writing skills, spelling assignments, literacy, creative writing, interactive methods, information technology.

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri yozish (orfografik savodxonlik) malakalarini shakllantirish ona tili ta’limining asosiy maqsadlaridan biridir. Yozma nutq — o‘quvchining tafakkuri, nutq madaniyati va til qoidalarini o‘zlashtirish darajasini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichdir. Shu sababli o‘qituvchi mashq tuzishda o‘quvchilarning yosh, psixologik va bilish imkoniyatlarini hisobga olishi lozim. N.Murodovaning ilmiy tadqiqotlari ham o‘quvchilarda hududiy dialektning to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini hosil qilishda nechog‘li to‘sqinlik qilishiga guvoh bo‘lamiz34. Toshkent viloyati hududida esa o‘ harfi o‘rnida ko‘pincha o harfining ishlatilishi, h harfining o‘rnida esa x harfining yozilishi juda ko‘p uchraydigan imloviy xatoliklar sirasiga kiradi. O‘qituvchi nazorat ishlaridan keyin aynan o‘quvchining shu jihatiga e’tiborni qaratgan holda lug‘atlar bilan ishlash yoki aynan muammolarga sabab bo‘layotgan harf va shu harflar ishtirok etgan so‘zlar lug‘atini tuzgan holda mashg‘ulotlar olib borishi muammoning bir yechimi bo‘la oladi. Buning uchun esa aynan shu hudud shevasini o‘rgangan holda o‘quvchilar uchun alohida to‘g‘ri yozish malakalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi orqali shug‘ullanish natijasida esa o‘quvchida amaliy malaka hosil qilish esa bir qancha jarayonni yengillashtiradi. Shu bilan birgalikda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘pchiligida uchrab turadigan xatolik bu – x va h harflarining o‘rnini almashtirib yozish oqibatida imloviy xatolikni yuzaga keltirish hisoblanadi. Bu muammo borasida ham bir qancha lug‘at va monografiyalar ham ishlab chiqilgani bejizga emas. Jumladan Asror Samad tahriri ostida o‘zida 7314 ta so‘zni jamlagan “X” va “H” lik so‘zlarning imlo lug‘ati” nomli lug‘at35da ham aynan x va h harflarining o‘z o‘rnida qo‘llanilishi borasida o‘quvchiga bir qancha bilim va malakalarni hosil qiluvchi materiallar mavjuddir.

Bu borada G‘. Hamroyevning fikrlari ham muhim ahamiyatga ega. Olim “…bugungi kunda ham ayrim unli va undoshlar talaffuzini o‘rgatishda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Talaffuzdagi har xillikka sabab sheva ekanligi nazarda tutilsa, adabiy talaffuzni shakllantirishning samarali yo‘li bu – fonetik mashqlar ustida ishlash ekanligi ma’lum bo‘ladi. Talaffuzda ham, yozuvda ham eng ko‘p chalkashlik bo‘g‘iz undoshi [h] bilan bog‘liq. Orfoepiya va orfografiya mavzularini o‘qitishda nutqiy ko‘nikmalarni quyidagicha tizimli rivojlantirish mumkin. Ona tili darsliklarimizda o‘quv materiallari muayyan sistema asosida beriladi. Mavjud darsliklarda, asosan, nazariy ma’lumotlar sinflar, mavzular, til sathlari kesimida ketma-ketlik, uzviylik va uzluksizlik asosida joylashtirilgan, biroq hayotiy faoliyatda, muloqot jarayonida nihoyatda zarur bo‘lgan nutqiy qo‘nikmalar aniq bir tizimga ega emas. Aslida ona tili ta’limining bosh maqsadidan kelib chiqib, o‘z fikrini turli nutq vaziyatlariga mos ravishda og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri, ravon ifodalay olish, mustaqil fikrlay olish ko‘nikmalarini sinflar kesimida tizimli shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish zarur”36, deya ta’kidlaydi. Shu ma’noda to‘g‘ri yozish ko‘nikmasi quyidagi mazmun va ahamiyat kasb etadi:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining savodxonligi, avvalo, uning to‘g‘ri yozish malakasida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri yozish – bu fonema-grafema munosabatlarini tushunish, imlo qoidalarini bilish va ulardan nutq jarayonida ongli foydalanish ko‘nikmasidir. Boshlang‘ich sinflarda imlo o‘rgatish jarayoni asta-sekinlik, ko‘rgazmalilik, takroriy mashqlar va mantiqiy izchillikka asoslanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda mashqlar ustida muntazam ishlash muhim o‘rin tutadi.

G‘. Hamroyevning ta’kidlashicha, o‘quvchida yozish, nutq so‘zlash kabi ko‘nikma va malakalar takrorga asoslangan odatlantiruvchi mashqlar orqali shakllanadi37. Umuman to‘g‘ri yozish malaksini shkllantirish muayyan nazariy asoslarga ega.

34 Муродова Н. Ўқувчи нутқида маҳалий шева таъсирида вужудга келадиган талаффуз ҳамда имло хатолари ва уларни тузатиш усуллари пед.фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилан дисс.-Т., 1993.

35 Асрор Самад .“Х” ва “Ҳ” лик сўзларнинг имло луғати. “Ғафур Гулом”. Тошкент. – 1993. 79 б.

36 Hamroyev G‘. Ona tilidan o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish metodikasi. Monografiya. –Toshkent, Donishmand ziyo, 2021. 156-b.

37 Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. –Toshkent, Bayoz. 2018. 196 b.

1. To‘g‘ri yozish malakasini shakllantirishning nazariy asoslari

1.1. Imlo malakasi tushunchasi

Imlo malakasi – so‘zlarni fonetik, morfologik, grammatik va an’anaviy imlo talablariga muvofiq yozish amaliy ko‘nikmasi. Bu malakaning asosiy tarkibiy qismlari:

- fonetik eshituvni rivojlantirish;
- harflarni to‘g‘ri qo‘llash;
- imlo qoidalarini ongli o‘zlashtirish;
- yozma nutqda xatolarni sezish va tuzatish.

1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining psixologik xususiyatlari

- yozuv jarayoni sekin va diqqatni talab qiladi;
- fonetik va grafik tafakkur endi shakllanadi;
- tez charchash, diqqatning beqarorligi kuzatilishi mumkin;
- ko‘rgazmalilik, harakatli mashqlar, takrorlash muhim rol o‘ynaydi.

2. To‘g‘ri yozish malakasini shakllantiruvchi mashqlar tizimi

To‘g‘ri yozuv mashqlari uch guruhga bo‘linadi:

2.1. Fonetik–grafik mashqlar

Bu mashqlar tovush va harflarni farqlashni o‘rgatadi.

Asosiy turlari:

- Tovushni eshitish va aniqlash mashqlari
- Harfni tanish va yozish
- Tovush–harf tahlili
- Bo‘g‘inlarga ajratish
- So‘zdagi ortiqcha yoki yetishmaydigan harfni topish
- Aralash berilgan harflardan so‘z tuzish
- O‘xshash talaffuz qilinadigan, lekin turlicha yoziladigan so‘zlarni taqqoslash

Misol:

«Sh» va «S» tovushlarining farqini toping: shar – sar, shina – sina.

2.2. Leksik–imloviy mashqlar

Bu mashqlar imlo qoidalarini o‘rgatadi va mustahkamlaydi.

Asosiy turlari:

- Ko‘chiriladigan matnda xatoni topish
- So‘zlarni to‘g‘ri shaklda yozish
- Qavs ichidagi harflardan to‘g‘ri variantni tanlash
- Qoidaga mos bo‘lmagan misollarni ajratish
- Omonim-sinonim-antonimlarni farqlab yozish
- Ko‘p ma’noli so‘zlarni to‘g‘ri kontekstda qo‘llash
- An’anaviy imlo (masalan: «shahar», «kitob») ustida ishlash

Misol:

Berilgan so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini aniqlang: «qizil–qizl», «o‘rmon–ormon», «bilan–blan».

2.3. Grammatik–imloviy mashqlar

So‘zlarning grammatik shakllarini to‘g‘ri yozishga o‘rgatadi.

Asosiy turlari:

- Otlarning ko‘plik qo‘shimchasini to‘g‘ri yozish
- Kelishik qo‘shimchalarini farqlash
- Fe’lning zamon shakllari bilan ishlash
- Yordamchi so‘zlar imlosi
- Birikmalarni to‘g‘ri yozish

Misol:

Fe’lning hozirgi va o‘tgan zamon shakllarini to‘g‘ri yozing: boradi – bordi; keladi – keldi.

3. To‘g‘ri yozish mashqlari ustida ishlashning metodik bosqichlari

Bosqich	**Metodik harakat**	**O‘quvchi faoliyati**	**Natija**
1. Tayyorlov	Tovush-harf tahlili, rasm asosida so‘z	So‘zning tovush tarkibini anglaydi	Diqqat jamlanadi

	ayttirish		
2. Yangi mashq bilan tanishtirish	Qoidani eslatish, misol berish	Qoidani tushunadi	O‘quv motivatsiyasi oshadi
3. Mashq bajarish	Yozma topshiriq berish	Ko‘nikma shakllanadi	To‘g‘ri yozish amalda mustahkamlanadi
4. O‘zini-o‘zi nazorat qilish	Nazorat ro‘yxatini taqdim etish	Xatolarni topib tuzatadi	Mustaqil fikr rivojlanadi
5. Umumlashtirish	Savol-javob	Mashq mazmunini umumlashtiradi	Qoidalar ongli o‘zlashtiriladi

4. Boshlang‘ich sinflarda samarali mashq turlari

4.1. “Xatoni top va tuzat” mashqlari

O‘quvchi so‘z yoki gapda imlo xatolarini topadi.

4.2. “Tingla va yoz” (dikant)

- rasmlar asosida diktant
- sayr diktant
- eshituv diktanti
- ijodiy diktant
- tanlab diktant

4.3. “Yarim so‘zdan gap tuz” mashqi

O‘quvchi bo‘g‘inlar orqali so‘zni to‘liq shakllantiradi.

4.4. “Grafik diktant”

Harflar orasidagi farqlarni anglashga yordam beradi.

4.5. “Rasmli lug‘at” mashqlari

Rasm asosida:

- tovush-harf tahlili
- so‘z tuzish
- gap tuzish
- imlosini mustahkamlash

4.6. Interfaol usullar

- “Klaster” – so‘zning turli shakllarini xaritada ko‘rsatish
- “Aql charxi” – har xil imlo qoidalariga oid savollar
- “Lug‘at davrasi” – o‘quvchilar guruh bo‘lib so‘zlarni yozadi
- “Ko‘prik usuli” – murakkab imloni sodda shakl orqali tushuntirish

5. Xatolarni tahlil qilish va bartaraf etish

To‘g‘ri yozish malakasini rivojlantirishda xatolarni tahlil qilish muhim. Eng ko‘p uchraydigan xatolar:

- tovush-harf mos kelmasligi;
- so‘zning noto‘g‘ri bo‘g‘inlanishi;
- qo‘shimchalarning tushirib qoldirilishi;
- an’anaviy imlodagi qiyinchiliklar.

Xatolarni kamaytirish yo‘llari:

- har kuni qisqa orfografik mashqlar;
- individual topshiriqlar;
- jadval va sxemalardan foydalanish;
- lug‘at diktantlari;
- har haftada “xatolar daftari” bilan ishlash.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Boshlang‘ich sinflarda to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish izchil va bosqichma-bosqich olib boriladigan jarayondir. Mashqlar tizimi to‘g‘ri tanlansa, o‘quvchilarda: fonetik–grafik ko‘nikmalar,imlo qoidalarini ongli qo‘llash, mustaqil tekshirish va tahlil qilish, yozma nutq madaniyati shakllanadi. To‘g‘ri yozish mashqlari nafaqat imlo savodxonligini oshiradi, balki o‘quvchilar tafakkurini, nutqini, kuzatuvchanligini, til sezgirligini ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муродова Н. Ўқувчи нутқида маҳалий шева таъсирида вужудга келадиган талаффуз ҳамда имло хатолари ва уларни тузатиш усуллари пед.фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилан дисс.-Т., 1993.
2. ААсрор Самад .“Х” ва “Ҳ” лик сўзларнинг имло луғати. “Ғафур Гулом”. Тошкент. – 1993. 79 б.
3. Hamroyev G‘. Ona tilidan o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish metodikasi. Monografiya. –Toshkent, Donishmand ziyo, 2021. 156-b.
4. Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. –Toshkent, Bayoz. 2018. 196 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISHDA ARTTERAPIYANING O‘RNI

Ermatova Gulnoz Pirimovna-
Navoiy davlat universiteti dotsenti
Safoyeva Ozoda Karim qizi-
NavDU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
ermatovagulnoz8@gmail.com

Annotatsiya:ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ruhiy taraqqiyotida artterapiya mashg‘ulotlaridan foydalanish asosida, ulardagi salbiy xulq-atvor va agressiyani bartaraf etish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: art-terapiya, art-terapevt, psixolog, psixoterapevt, salbiy his-tuyg‘ular, agressiya, g‘azab, jahl, dilsiyohlik.

Аннотация: в этой статье представлена информация, основанная на использовании сеансов психической арт-терапии у дошкольников для устранения у них негативного поведения и агрессии.

Ключевые слова: арт-терапия, арт-терапевт, психолог, психотерапевт, негативные эмоции, агрессия, гнев, злость, фанатизм.

Abstract: This article presents information based on the use of psychic art therapy sessions in preschoolers to eliminate their negative behavior and aggression.

Keywords: art therapy, art therapist, psychologist, psychotherapist, negative emotions, aggression, anger, anger, fanaticism.

Art-terapiya ko‘plab mamlakatlarda keng qo‘llaniladigan samarali va nihoyatda oson davolash usuli bo‘lib, bugun biz bu terapiya turi haqida mutaxassislar qanday fikrda ekani, uning bolalar va kattalarga ko‘magi haqida so‘z yuritmoqchimiz. Shuningdek, bolalar va ota-onalarning birgalikda bajarishiga mo‘ljallangan bir necha mashqlar ilova qilinadi.

Art-terapiya-“Art” so‘zi vizual san’at ma’nosini ifodalaydi. Bunga misol sifatida rassomlik, bo‘yoqsiz chiziqlar bilan rasm solish san’ati - grafika, haykaltaroshlik kabi san’at turlarini keltirish mumkin. Grekcha “terapiya” so‘zi esa “san’at” ma’nosini anglatadi[1:110.]. Art-terapiya mohiyatida inson san’atning biror turi bilan mashg‘ul bo‘lar ekan - chizadi yoki yasaydi - bunda u kechinmalari va ichki dunyosini namoyon qiladi degan tushuncha yotadi. Davolovchi mashg‘ulotlar albatta art-terapevt, psixolog yoki psixoterapevt ishtirokida o‘tkazilishi shart. Art-terapiya usuli o‘z oldiga qator psixologik vazifalarni qo‘yadi. Shu sabab unda mutaxassis ishtiroki va maslahati zarur[2:3.].

Kundalik tashvishlardan chalg‘ish, tushkunlik va yolg‘izlik dahshatini yengib o‘tish uchun musiqa, raqs, rasm chizish kabi mashg‘ulotlar yordam berishi tez-tez uchrab turadigan holat. Bolaligimizda turli qiziq faoliyatlar tufayli vaqt hisobini yo‘qotib, xayol dunyosiga g‘arq bo‘lganimizni yaxshi eslaymiz. Art-terapiya shunga o‘xshash mashg‘ulotlar zamirida paydo bo‘lgan va uning maqsadi ham insonga ruhiy beqarorliklar davrida yordam berishdir.

Art-terapiyaning ko‘plab turlari mavjud: musiqaterapiya, ertakterapiya, o‘yinterapiya, fototerapiya, qumterapiya, artsintez terapiya va boshqalar. Uni boshqa yo‘nalishlar bilan sintez qilish

natijasida yangi turlar ham paydo bo‘lmoqda. **Art-terapiya** salbiy his-tuyg‘ularni (agressiya, g‘azab, jahl, dilsiyohlik) ijodiy shaklda ifodalashda namoyon bo‘ladi. Bu orqali kishi o‘zida ichki chigallikning yozilganini, kuchli toliqishni his qiladi. Bunday ijodiy faoliyatdan keyin, tinchlanib, sokin tortib qoladi[3:28.].

Ijodiy mehnat yordamida kishi o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Art seanslar bolalar va kattalarga har tomonlama uyg‘un rivojlanishga erishishida ko‘mak beradi.

Ota-onalarga bolalar bilan ish olib borishda quyidagi mashg‘ulotlarni tavsiya etish mumkin. Bunda bizga loy, xamir, plastilin va mum kerak bo‘ladi. Bu jarayonda erkinlik va mustaqillik bo‘lishi lozim.Mashg‘ulot davomida bemalol ovoz chiqarib gaplashgan holda buyumlarni yasashga, hohlasa bola u bilan gaplashib, unga ichidagi kechinmalarini to‘kib solishi mumkin. Shu tariqa:

- yumilgan ko‘zlar bilan loydan haykal yasaymiz;
- loydan yasalgan haykalni ranglar bilan bo‘yaymiz;
- loydan taqinchoqlar yasab, yasagan haykalimizga taqamiz.

Bolalarga art-terapiya mashqi orqali “Avtoportret” deb nomlanadigan mashqni birgalikda bajartirishimiz mumkin. Bu mashqni bajarish uchun katta o‘lchamdagi qog‘oz va sherik kerak bo‘ladi. Qog‘oz tanamiz uzunligi o‘lchamida bo‘lmog‘i zarur. Bola qog‘oz ustida yotadi, siz esa uning tana konturasini chizasiz. So‘ng o‘zimizning(bolaning) “obraz”ini yaratishga kirishamiz. Rasmda ich-ichdan tanamiz a’zolarini qanday his qilishimizni, ularni qanday rangda deb o‘ylashimizni tasvirlaymiz. Mashqni bola bilan navbatma-navbat bajarishga harakat qilishimiz kerak.Kichkintoylarga mayda o‘yinchoqlar va sochiluvchi mahsulot (qum, un)lar yordamida o‘yin o‘ynashni taklif qilishimiz ham mumkin.Bolalarga idishga solingan qum va o‘yinchoq berib, undan turli vaziyatlarni: masalan, ko‘rgan multfilmi yoki eshitgan ertagidan bir lavha ko‘rsatib berishini so‘ragan holda, qum yoki o‘yinchoqlarni og‘ziga solmasligini tushuntirgan holda nazorat qilib turushimiz kerak.

Bolada ijodkorlik qobiliyatini namoyon qilishiga imkon berish kerak.Bu esa o‘zaro munosabatlarni bezab, konfliktlarning bartaraf bo‘lishiga olib keladi. Bizni esa ota-ona sifatida yanada mehribon, e’tiborli, ma’sulaytli qiladi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, biz ota-ona sifatida bolamizni qiziqishlari, qobiliyatini, ijodkorligi rivojlantirishimiz bilan birga, ulardagi ba’zi salbiy xulq-atvorni, agressiyani bartaraf etishimiz ham mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari bolamizda kechayotgan ruhiy holatni ham uchizgan rasm hamda tanlagan ranglar orqali bilishimiz imkonini beradi. Bu haqidagi ma’lumotlarni esa bolalar tarbiyasi va ota-onalar uchun mo‘ljallangan ijtimoiy tarmoq saytlaridan, telegramm kanallaridan va bolalar psixologiga murojaat qilib, uning maslahat va taviyalaridan bilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Orifjonova G. Art terapiya. - T:, «Lesson-press» nashriyoti. 2020-y., — 128 bet.

2.Sharipova H.A.Maktabgacha ta’limda art terapiya.International scientific-online conference.

3.Машарипова А. (2025). Maktabgacha ta’limda art-terapiya vositasida bolalardagi emotsional muammolarni hal qilish. Свет науки, (14(49). извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/127790.

4.https://yangi.cspu.uz/maktabgacha-talimda-art-texnologiyalardan-foydalanish.

БАЛА ТӘРБИЕСІНДЕГІ АДАМГЕРШІЛІК ҚҰНДЫЛЫҚТАРДЫҢ ФИЛОСОФИЯЛЫҚ НЕГІЗДЕРІ

М.Ж. Спанов-
М.Әуезов атындағы Оңтүстік Қазақстан университеті, Қазақстан
философия ғылымдарының кандидаты, доцент,
8-778-359-4341; meir_filosof27@mail.ru;
Р.Е. Джуншеев-
М.Х.Дулати атындағы Тараз университеті, Қазақстан,
философия ғылымдарының кандидаты, доцент,
+77771511170: zhunshev@gmail.kom

Кіріспе. Бала тәрбиесі адамзат өркениетінің әрбір кезеңінде маңызды философиялық, әлеуметтік және мәдени мәселе болып келген. Өйткені қоғамның болашағы – жас ұрпақтың рухани жетілуімен, адамгершілік қасиеттерінің қаншалықты қалыптасуымен тікелей байланысты. Ұлы ойшылдардың барлығы дерлік тәрбиенің өзегі – адамгершілік құндылықтарды дамыту екенін атап өткен. Аристотельден бастап, Конфуций, Әл-Фараби, Ясауи, Абай, Шәкәрім еңбектері адамгершілік ұғымын адам табиғатын кемелдендіру жолы ретінде түсіндіреді. Адамгершілік құндылықтар дегеніміз – адамның ішкі моральдық болмысын анықтайтын, оның мінез-құлқын, іс-әрекетін, қарым-қатынасын реттейтін рухани-этикалық категориялар жиынтығы. Бұлар – әділет, мейірім, ар-ұят, жауапкершілік, адалдық, шыншылдық, қайырымдылық, ынтымақ, сыйластық, сабыр сияқты құндылықтар.

Қазіргі заманда технология, цифрлық ақпараттық кеңістік, жаһандану үдерісі адамгершілік құндылықтар жүйесіне жаңа әсерлер тигізуде. Сондықтан да бала тәрбиесіндегі моральдық негіздерді философиялық тұрғыдан қайта зерделеу аса өзекті. Осы ғылыми жұмыстың мақсаты – адамгершілік құндылықтардың философиялық мәнін ашу, олардың бала тәрбиесіндегі рөлін талдау, әлемдік және қазақ философиясындағы адамгершілік идеяларын жүйелеу және қазіргі қоғамдағы тәрбиелеу модельдерімен сабақтастығын көрсету.

Адамгершілік құндылықтардың философиялық негіздері. Адамгершілік категориясы: философиялық талдау. Адамгершілік – философияның негізгі зерттеу объектілерінің бірі. Этика ғылымы адамгершілікті «адам іс-әрекетін реттеуші нормалар мен қағидалар жүйесі» деп қарайды. Бірақ философиядағы адамгершілік түсінігі бұдан әлдеқайда кең. Философиялық антропология адамгершілікті адамның болмысын айқындайтын, оның рухани деңгейін көрсететін негізгі сипат ретінде қарастырады. Бұл тұрғыдан мораль адамның ішкі «Менін», ар-ұятын, еркін таңдау қабілетін анықтайды. Адамгершілік құндылықтарының философиялық табиғаты мынадай үш негізге сүйенеді:1) Онтологиялық негіз Адам табиғатынан изгілікке бейім жаратылған. Бұл идея Платонның «жанның үш бөлігі» жөніндегі ілімінен бастап, Шығыс философиясындағы «адам – жүрек иесі» деген қағидаға дейін жалғасып келеді. 2) Аксиологиялық негіз Адамгершілік – құндылықтардың ең жоғарғы формасы. Әділет, мейірім, еркіндік, ар – абсолютті құндылықтар. 3) Гносеологиялық негіз Адам өз мінез-құлқын ақылмен, саналы түрде реттей алады. Яғни адамгершілік – білім мен ақыл жетістігінің нәтижесі (Әл-Фараби, Абай) [1].

Әлемдік философиядағы адамгершілік тұжырымдамаларға тоқталатын болсақ. Аристотель пікірінше «Адамгершіліктің негізі – алтын орта». Мысалы: батылдық – дарақтық пен қорқақтықтың арасындағы орта; жомарттық – ысырап пен сараңдықтың ортасы. Канттың пікірінше, адамгершілік адамның ішкі парызымен өлшенеді. «Өзіңе қалағаныңды өзгеге де тіле» қағидасы – тәрбиенің этикалық формуласы. Конфуций ілімінде «Жэнь» – адамдық мейірім. Бала ең алдымен ішкі мәдениетке, сабырлыққа, үлкенге құрметке тәрбиеленуі тиіс [2]. Экзистенциализмнің өкілдерінше (Сартр, Ясперс, Камю) «адамгершілік – адамның жеке жауапкершілігі, өзінің мәнін өзі таңдауы» [3]. Бала тәрбиесінде адамгершілік құндылықтардың қалыптасуына тоқталамыз. Философ Эмиль Дюркгейм тәрбие – қоғамның өзін-өзі қайта өндіру механизмі дейді. Бала ата-ананың ғана емес, қоғамның құндылықтар жүйесін қабылдайды:

дәстүр мен салт моральдық нормалар тіл әлеуметтік рөлдер демек, адамгершілік тәрбиесі – әлеуметтік феномен. [4]. Жас кезеңдеріне байланысты адамгершілік дамуын қарастырайық. Психология философиясымен байланыста бала этикасы бірнеше кезеңнен өтеді: 3-6 жас мейірімділік, жанашырлық, бөлісу. 6-10 жас әділдік, достық, адалдық. 10-15 жас ар-ұят, ішкі жауапкершілік, рефлексия. 15+ жас өзіндік моральдық таңдаулар. Үлгі-өнеге – ең күшті тәрбиелік құралы болып табылады. Философиялық педагогикада тәрбиенің негізгі механизмі – еліктеу екені анықталған. Бала сөзден гөрі әрекетке сенеді. Абай: «Ата-ана балаға үлгі боларлық өмір сүруі керек».

Қазақ философиясындағы адамгершілік тәрбиесі ерекше болып табылады. Жеті жасқа дейін еркелет, он төрт жасқа дейін құлша жұмса (еңбекке тәрбиелеу), он төрт жастан кейін өзіңмен теңдей ұстап ақылдас. Қазақ дүниетанымындағы адамгершіліктің негіздеріне тоқтала кетсек. Қазақ қоғамында адамгершілікті ұят, ар, намыс, әдеп, сабыр, жомарттық сияқты ұғымдар анықтайды. Халықтық мақал-мәтелдер – тұнып тұрған философия: «Ұят – иманның жартысы». «Адам болар баланы кісесімен сына». «Жақсы сөз – жарым ырыс». Ал, әл-Фарабидегі адамгершілік идеясын былайша түсіндіреді. Әл-Фараби ізгілік пен парасаттылықты адамзат бақытқа жетудің шарты деп біледі. Оның пікірінше: Адамгершілік – кемелдікке жетудің жолы. Тәрбие дұрыс бағытталмаса, адам табиғаты бұзылады. Ізгі қоғам – ізгі адамдардың жиынтығы деп тұжырымдады. [5]. Ясауи ілімінде рухани тазалық жоғары қойды.. Ясауи «жүрек тәрбиесін» басты орынға қояды. Нәпсімен күрес, мейірім, адамға қызмет ету – Ясауи мораль философиясының негізі болып табылады. [6]. Абайдың «толық адам» концепциясында адамның «Ыстық қайрат» физикалық дамуын, «Нұрлы ақыл» интеллектуалды дамуын және «Жылы жүрек» рухани дамуын қарастырды. Абай адамгершілікті ақыл, жүрек, қайраттың бірлігі деп түсіндіреді. Ар-ұят – адам бойындағы ең жоғары категория. Ғылым мен еңбек – адамгершіліктің шарты. Мейірім рухани дамудың өзегі. Шәкәрімнің ар ілімінде адамгершілікті негіздейді. Шәкәрімнің «ұждан» теориясы – адамгершіліктің философиялық шыңы. Ұждан бұл – әділет, мейірім, жан тазалығынан тұрады деп тұжырымдады. Ыбырай адамгершілікті білім мен тәрбие арқылы қалыптастыруға болатынын дәлелдеді. Оның әңгімелерінің өзегі – адалдық, еңбек, шыншылдық.

Адамгершілік тәрбиесінің философиялық принциптері: үйлесім (гармония) принципі, тәрбие ақыл, сезім, әрекет арасындағы тепе-теңдікті сақтауы тиіс. а) Мейірім және эмпатия принципі. Этиканың басты категориясы – мейірім. Мейірімсіз тәрбие — қаталдық.ә) Еркіндік және жауапкершілік принципі. Экзистенциализм еркіндіктің тек жауапкершілікпен үйлескенде ғана адамгершілікке айналатынын дәлелдейді.б) Әділет принципі. Әділет – адамгершіліктің өзегі. Баланың әділдікке көзқарасы ерте қалыптасады. г) Тұтастық принципі. Тәрбие отбасында, мектепте, қоғамда бірізді болуы керек. Қазіргі қоғамдағы адамгершілік тәрбиесі: мәселелер мен шешімдерге тоқталсақ. Заманауи дағдарыстар, жаһандану, интернет этикасының әлсіздігі, отбасы институтының әлсіреуі, материалдық құндылықтардың руханилықтан басым болуы. Цифрлық дәуірдегі адамгершілік мәселелер бар. Бала шынайы өмірден алыстап, виртуалды кеңістіктің ықпалына түседі. Бұл – жауапкершілік, сабыр, мейірім сияқты қ асиеттерді әлсіретеді. Осы мәлеге байланысты шешімдер: Рухани-адамгершілік пәндерін күшейту, ұлттық мәдени кодты сақтау, отбасының психологиялық мәдениетін арттыру, эмоциялық интеллектті дамыту, көркем әдебиетті оқу.

Қорытынды. Адамгершілік құндылықтар – баланың рухани дамуының өзегі. Философия тұрғысынан бұл құндылықтар адамның болмысы мен мәнін айқындайтын негізгі категориялар болып табылады. Бала тәрбиесіндегі адамгершілік – тек моральдық норма емес, оның өмір мұратын, адамдық болмысын, қоғамдағы рөлін анықтайтын күрделі рухани жүйе. Әлемдік және қазақ философиясы адамгершілік тәрбиесін адамды жетілдірудің ең сенімді жолы деп таниды. Абайдың «толық адам» моделі, Шәкәрімнің «ұжданы», Ясауидің жүрек ілімі – бүгінгі тәрбиенің негізі болуы тиіс. Қазіргі қоғамның міндеті – осы тарихи-философиялық мұраны сақтап, оны жаңа заман жағдайына бейімдеу.

ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ:

1.Абай Құнанбайұлы. Қара сөздер. – Алматы: Жазушы, 2018.

2. Конфуций. Лунь юй (Әңгімелер мен пікірлер). – Алматы: Дәуір, 2012

3. Әл-Фараби. Қайырымды қала тұрғындарының көзқарастары. – Алматы: «Ғылым», 1975
4. Дюркгейм Э. Воспитание, его природа и роль. – Москва: Педагогика, 1996.
5. Сартр Ж.-П. Бытие и ничто. – Москва: Республика, 2000.
6. Ясауи Қ.А. Диуани хикмет. – Алматы: Жазушы, 1992.
7. Кант И. Критика практического разума. –Москва: Наука, 1995.
8. Аристотель. Никомахова этика. – Алматы: Қазақ университеті, 2015.
9. Руссо Ж.-Ж. Эмиль, или о воспитании. – Москва: Педагогика, 1998.
10. Платон. Мемлекет. – Алматы: Раритет, 2010.
11. Песталоцци И.Г. Лингард және Гертруда. –Москва: Педагогика, 1981.
12. Камю А. Миф о Сизифе. – Москва: АСТ, 2018.
13. Маслоу А. Мотивация и личность. – Санкт-Петербург: Питер, 2017.
14. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – Москва: Смысл, 2005.
15. Эльконин Д.Б. Психология развития школьника. – Москва: Педагогика, 1993.
16. Қалиев С. Халық педагогикасының негіздері. – Алматы: Санат, 1997.
17. Табылды Ә. Қазақ этикасы және адамгершілік тәрбиесі. – Алматы: Қазақ университеті, 2014.
18. Жарықбаев Қ., Қалиев С. Қазақ тәлім-тәрбиесі. – Алматы: Санат, 1995.
19. Алтынсарин Ы. Тәрбие жөніндегі ойлар және әңгімелер. – Алматы: Білім, 2017.
20. Шәкәрім Құдайбердіұлы. Үш анық. –Алматы: Арыс, 2019.

INTEGRATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND INNOVATIVE METHODS IN THE EDUCATION SYSTEM

Nasirova Shaira Narmuradovna-
Navoi State University, Professor, Department of “Digital Technologies”, nosirova_61@mail.ru
Kholikov Mukhriddin Mardiqulovich-
Navoi State University, Teacher, Department of “Digital Technologies”
Kholikova Adiba Mardiqulovna-
Navoi region, Navoi city, BXOU, Master

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarning integratsiyasi haqida fikrlar yuritilgan. O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish va o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangilash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Ta’lim samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar hamda ularni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit sozlar. *Texnologiya, innovatsion metod, ta’lim, pedagogika yondashuv, integratsiya, o‘quv, jarayon, metod, muhit, onlayn, platforma, kreativlik, tizim.*

Аннотация. В статье рассматривается интеграция цифровых технологий и инновационных методов в систему образования. Рассматриваются возможности повышения интереса учащихся к знаниям, развития у них самостоятельности мышления и качественного обновления образовательного процесса. Описываются факторы, влияющие на эффективность образования, и даются рекомендации по их внедрению.

Ключевые слова. *Технология, инновационный метод, образование, педагогический подход, интеграция, обучение, процесс, метод, среда, онлайн, платформа, креативность, система.*

Annotation. This article discusses the integration of digital technologies and innovative methods in the education system. The possibilities of increasing students' interest in knowledge, directing them to independent thinking, and qualitatively updating the educational process are considered. Factors affecting the effectiveness of education and recommendations for their implementation are described.

Key words. *Technology, innovative method, education, pedagogical approach, integration, learning, process, method, environment, online, platform, creativity, system.*

The development of digital technologies in modern society is creating new opportunities in every field of activity and radically changing people's daily lives. The education sector is no exception. In recent years, digital technologies have been widely used to integrate into the educational process, increase student motivation and participation, develop modern competencies, and, most importantly, improve the quality of learning outcomes.

The rapid technological progress that has been taking place in the world's education system in recent years requires new approaches to the organization and enrichment of educational processes. In particular, digital technologies have penetrated all stages of education, leading to the modernization of teaching methods and the expansion of opportunities for effective communication with students. In contrast to the traditional approach of teaching processes aimed only at imparting knowledge, today, with the help of innovative methods, students' independent thinking and problem-solving skills are also being formed[2].

The aim of the study is to analyze the integration of digital technologies and innovative methods in modern education, to substantiate their combination with effective pedagogical approaches, and to develop recommendations based on practical experience. The rapid development of information and communication technologies, the widespread use of artificial intelligence, digital platforms, online learning systems, and multimedia tools - all this creates the need to introduce new approaches to pedagogical activity. Taking into account the needs of the new generation of students for rapid assimilation of information, flexible thinking, and independent learning, the process of digitization of education is becoming increasingly relevant. The integration of digital technologies into the educational process is one of the main directions of modern pedagogy, and this process is carried out based on deep theoretical foundations. In particular, based on the constructivist approach, knowledge is formed depending on the student's activity, through his experience and the process of understanding. According to this theory, the student is not a passive receiver of information, but a subject who independently constructs knowledge. Digital technologies act as a tool in this process. For example, interactive simulations, virtual laboratories, educational applications and digital constructors allow the student to actively absorb information, experiment, analyze the results and form his own point of view. Digital technologies are becoming not only a tool in education, but also an active participant in the learning process. This requires new methods and innovative ideas in pedagogical approaches[1].

These types of tools not only increase motivation, but also serve to form knowledge in a deeper and more sustainable way. For example, by conducting virtual experiments in physics, chemistry or biology, students can develop scientific observation and analysis skills without expensive laboratory equipment. This creates equal opportunities for quality education, especially in resource-limited areas. In addition, education implemented through digital tools serves to develop students' critical thinking, problem-solving and communication skills.

Digital technologies used in modern education are distinguished by their diversity and rich pedagogical capabilities. Interactive whiteboards have replaced traditional blackboards, allowing teachers to display multimedia resources, conduct interactive exercises, and have students work directly on the board, making the learning process more dynamic and interesting. Educational websites and platforms (for example, Khan Academy, Coursera, EdX) allow students to access free or paid courses in various subjects, complete interactive exercises, and independently improve their knowledge. Mobile applications make education more convenient and popular, providing students with the opportunity to access educational materials, take tests, and master new knowledge at any time and place. Artificial intelligence-based educational systems help increase the effectiveness of education by analyzing the individual needs of each student and providing them with customized educational materials and tasks.

Digital technologies create a favorable environment for the implementation of innovative teaching methods. Students can work in groups on online collaboration platforms, create presentations using multimedia tools. Problem-based learning allows you to use digital resources to find various problem situations, collect information about them and search for solutions, online forums and discussion platforms encourage students to exchange ideas. Collaborative learning expands the possibilities of completing group assignments, peer assessment and exchanging ideas

through online platforms. Tools such as Google Docs and Padlet are convenient for real-time collaboration.

Integrating digital technologies into education should focus on important pedagogical principles such as increasing student engagement and directing them towards independent learning, developing critical thinking and problem-solving skills, building communication and collaboration skills, and using digital assessment methods. The use of technology in education helps develop students' independent thinking and problem-solving skills.

In order to effectively introduce digital technologies and innovative methods into the education system of Uzbekistan, it is necessary to provide educational institutions with modern technical equipment and establish a stable connection to the Internet, organize regular trainings and courses to improve teachers' digital literacy, encourage the development of high-quality and interactive digital educational resources and provide methodological support, conduct explanatory work for students, parents and teachers on preventing the negative consequences of digital education, as well as develop international cooperation in the field of digital education and study best practices. In short, the integration of digital technologies and innovative methods in modern education creates broad opportunities for raising the educational process to a qualitatively new level, increasing students' interest in learning, and forming important skills such as independent thinking, problem solving and communication.

REFERENCES**:**

1. Sh.N.Nasirova, *G.J. Jakipova.* Principles of organizing development trends of modern education based on a cluster approach. Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal, Vol 2 Issue 7, 2025, iyul, Germaniya, 31-33 pp.

2. Sh.N.Nasirova, M.Z.Islomova. The importance of effective use of innovative technologies in the educational process. Международный научный журнал № 22 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» Июня, 2024, 189-191 стр.

«TALABALARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI»

Qoraqalpoq davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
Erjanova Venera Quwanıshbaevna

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tezisda talabalarning milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanish jarayonining nazariy-metodologik asoslari, mazmun yo‘nalishlari hamda samarali pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Globallashuv sharoitida yosh avlodning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish hamda tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Milliy qadriyatlar, tarbiya, talaba shaxsi, ma’naviy muhit, pedagogik shart-sharoitlar, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, vatanparvarlik, madaniy meros, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion metodlar, oila–ta’lim–jamiyat hamkorligi.

«ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ»

Аннотация. В данном научном тезисе освещены теоретико-методологические основы, направления содержания и эффективные педагогические условия процесса воспитания студентов на основе национальных ценностей. Проанализированы современные подходы к укреплению духовного иммунитета молодого поколения, усилению национального самосознания и совершенствованию воспитательного процесса в условиях глобализации.

Ключевые слова. Национальные ценности, воспитание, личность студента, духовная среда, педагогические условия, духовно-просветительское воспитание, патриотизм, культурное наследие, компетентностный подход, инновационные методы, сотрудничество семья-образование-общество.

«PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR EDUCATING STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES»

Abstract. This scientific thesis highlights the theoretical and methodological foundations, content directions, and effective pedagogical conditions for the process of educating students based on national values. Modern approaches to strengthening the spiritual immunity of the younger generation, strengthening national self-awareness, and improving the educational process in the context of globalization are analyzed.

Keywords. National values, upbringing, student personality, spiritual environment, pedagogical conditions, spiritual and educational upbringing, patriotism, cultural heritage, competency-based approach, innovative methods, family-education-society cooperation.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy o‘zlik, tarixiy xotira, ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ta’lim tizimining eng ustuvor vazifalaridan biridir. Talabalarda milliy g‘urur, vatanparvarlik, ma’naviy immunitet, madaniy ong va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Shu bois talabalarning milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyasida samarali pedagogik shart-sharoitlarni yaratish masalasi nazariy va amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tezisda milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaning mazmun-mohiyati, uning pedagogik omillari, shart-sharoitlari hamda oliy ta’lim muassasalarida mazkur jarayonni takomillashtirish yo‘llari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy merosini, urf-odat, an’ana, diniy-axloqiy qarashlar, tarixiy tajriba va madaniy xulqiy me’yorlar majmuini ifodalaydi. Ular quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- **identifikatsion funksiya** — shaxsning o‘zligini anglashiga xizmat qiladi;
- **regulyativ funksiya** — xulq-atvorni tartibga soladi;
- **integrativ funksiya** — jamiyatni birlashtiradi;
- **tarbiyaviy funksiya** — yosh avlodda ma’naviyat, vatanparvarlik, g‘urur uyg‘otadi.

Talabalar yosh davri psixologik jihatdan mustaqil fikr shakllanishi, dunyoqarashning barqarorlashuvi va kasbiy o‘zlikni anglash bosqichi hisoblanadi. Shu sabab ular ma’naviy qadriyatlarga eng tez va chuqur ta’sirchan bo‘ladi. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya olgan talaba:

- ma’naviy yetuk;
- ijtimoiy faol;
- Vatan ravnaqi uchun mas’uliyatli;
- madaniy merosga hurmat ruhidagi shaxs sifatida shakllanadi.

Bu jarayonning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, integrativ pedagogika, madaniy-tarixiy yondashuv tashkil etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy ishlar quyidagi mazmun yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi:

1. Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya

- Ajdodlar merosi, buyuk allomalar merosi, xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirish;
- Talabalarda tarixiy xotira va milliy g‘ururni shakllantirish;
- Ma’naviyat soatlari, ma’rifiy uchrashuvlar, ma’naviyat yetakchilari faoliyatini rivojlantirish.

2. Vatanparvarlik tarbiyasi

- Yurt taraqqiyoti, mustaqillik g‘oyalari, milliy mafkura qiymatlarini o‘rgatish;
- Vatan himoyachilari bilan uchrashuvlar, muqaddas qadamjolarga sayohatlar;
- Yoshlar siyosati doirasidagi loyihalarda ishtirok.

3. Madaniy qadriyatlar asosida tarbiya

- Milliy urf-odatlar, marosimlar, an’analar mohiyatini tushuntirish;
- Musiqa, adabiyot, teatr va san’at orqali estetik didni shakllantirish;
- Milliy kiyim, milliy taom, xalq amaliy san’ati bilan bog‘liq mahorat darslari.

4. Axloqiy tarbiya

- Odob-axloq qoidalari, insonparvarlik, halollik, adolat tamoyillarini singdirish;
- Talabalarni bag‘rikenglik, tolerantlik, totuvlik ruhida tarbiyalash.

Pedagogik shart-sharoit — tarbiyaviy jarayon samaradorligini ta’minlaydigan tashkiliy, psixologik, metodik, ijtimoiy va texnologik omillar majmuidir. Ushbu jarayon quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo‘lgandagina samarali bo‘ladi:

Oliy ta’lim muassasasida milliy ruh, ma’naviy qadriyatlarni qadrlovchi sog‘lom ma’naviy-ma’rifiy muhit bo‘lishi shart. Bunda:

- ma’naviy-ma’rifiy markazlar faoliyati;
- talaba klublari;
- ma’naviy tadbirlar tizimi;
- universitet muhitida madaniy kommunikatsiya mavjudligi

muhim ahamiyatga ega.

Talabalarda milliy qadriyatlar ruhini shakllantirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri pedagogning:

- ma’naviy salohiyati;
- milliy meros haqidagi bilimlari;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish ko‘nikmalari bilan bog‘liq. Shu sabab pedagoglar uchun muntazam malaka oshirish, metodik seminarlar, ma’naviy-ma’rifiy treninglar tashkil etilishi lozim.

Milliy qadriyatlarni faqat tadbirlarda emas, **ta’lim jarayonining barcha fanlari va darslarida integratsiya qilish** zarur. Bunda:

- tarix, adabiyot, falsafa, pedagogika fanlarida maxsus mavzular;
- kasbiy fanlarda milliy tajriba va innovatsiyalar uyg‘unligi;
- o‘quv adabiyotlarida milliy materiallar ulushi;

oshirilishi tavsiya etiladi.

Talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda: interfaol metodlar (debate, case-study, brainstorm); loyiha asosida o‘qitish; media-ma’rifat; raqamli ta’lim platformalari; “Mahalla – OTM” hamkorlik loyihalari kabi yondashuvlar jarayonni yanada samarali qiladi.

Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash faqat auditoriyada emas, balki amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi. Bunda: tarixiy obidalarga ekskursiyalar; muzeylarga tashrif; milliy bayramlar va an’analarda ishtirok; milliy sport turlari bo‘yicha tadbirlar; ko‘ngilli yoshlar harakatlari ahamiyatlidir.

Talaba shaxsida barqaror qadriyatlar tizimini shakllantirish uchun uch tomonlama hamkorlik zarur:

- **Oila** – dastlabki tarbiya manbai;
- **Oliy ta’lim muassasasi** – ilmiy-nazariy asoslar beruvchi maskan;
- **Jamiyat** – shaxsning ijtimoiy tajribasini mustahkamlovchi maydon.

Mazkur tizimning uyg‘un ishlashi tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi.

Talabalarda milliy qadriyatlar shakllanganini quyidagi mezonlar orqali baholash mumkin:

Bilim mezonlari

- milliy tarix, madaniyat, meros haqida to‘liq tasavvur;
- milliy qadriyatlar mohiyatini anglash;
- an’ana va urf-odatlarning tarbiyaviy mazmunini tushunish.

Faoliyat-mezonlar

- ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok;
- ijtimoiy loyihalarda faollik;
- milliy madaniyatga oid tashabbuslarni ilgari surish.

Shaxsiy sifatlar mezoni

- vatanparvarlik, g‘urur, mas’uliyat;
- tolerantlik, muloqot madaniyati;
- milliy o‘zlikni anglash.

Xulosa va takliflar. Talabalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash — bu faqat ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalish emas, balki jamiyatning kelajagini shakllantiruvchi strategik jarayondir. Ushbu tarbiyaning samaradorligi ta’lim muassasasida yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. OTMlarda milliy qadriyatlar bo‘yicha kompleks dasturlar ishlab chiqish.
2. Pedagoglarning ma’naviy-kompetensiyaviy malakasini muntazam oshirish.
3. O‘quv jarayonida milliy merosga oid modullar ulushini ko‘paytirish.
4. Raqamli platformalarda milliy qadriyatlarga oid multimedia resurslarini yaratish.
5. Talabalarni amaliy-madaniy tadbirlarga keng jalb qilish.
6. “Oila – ta’lim – mahalla – jamiyat” tizimini yanada mustahkamlash.

Shunday qilib, talabalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish tizimli, ilmiy asoslangan, zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda amalga oshirilganda, har tomonlama yetuk, ma’naviy barkamol, milliy o‘zligini chuqur anglagan yoshlar avlodini voyaga yetkazish imkoniyatini yaratadi.

RAQAMLI TEXNOLOGIYA JAMIYAT RIVOJINING YANGI BOSQICHI

Yo.O.Axmedov, p.f.f.d.(PhD)., dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalarning mazmuni, turlari va ularning jamiyat hayotiga ta’siri keng yoritilgan. Unda sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, robototexnika va kiberxavfsizlik kabi asosiy yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim, tibbiyot, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda qo‘llanilishi, shuningdek, ular keltirib chiqarayotgan afzalliklar va ehtimoliy xavflar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Maqolada O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida olib borilayotgan islohotlar ham ko‘rib chiqilib, raqamli transformatsiyaning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: intellekt, raqamli transformatsiya, raqamli texnologiya, sun’iy intellekt, robototexnika, iqtisodiyot, jarayon.

Аннотация: В данной статье широко раскрываются сущность стремительно развивающихся цифровых технологий, их виды и влияние на общественную жизнь. Рассматриваются такие ключевые направления, как искусственный интеллект, облачные технологии, робототехника и кибербезопасность. Подробно освещается применение цифровых технологий в сферах образования, медицины, экономики и социальной жизни, а также их преимущества и потенциальные риски. В статье также анализируются реформы, проводимые в рамках стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030”, и освещается роль цифровой трансформации в развитии страны.

Ключевые слова: интеллект, цифровая трансформация, цифровые технологии, искусственный интеллект, робототехника, экономика, процесс.

Annotation: This article provides a comprehensive overview of the essence of rapidly developing digital technologies, their types, and their impact on social life. It examines key areas such as artificial intelligence, cloud technologies, robotics, and cybersecurity. The paper offers detailed insights into the application of digital technologies in education, healthcare, the economy, and social spheres, as well as their advantages and potential risks. The article also analyzes the reforms carried out within the framework of the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy and highlights the role of digital transformation in the country’s development.

Keywords: intelligence, digital transformation, digital technologies, artificial intelligence, robotics, economy, process.

XXI asr insoniyat taraqqiyotida tub burilish yasagan davr sifatida tarixda qolmoqda. Bu jarayonning bosh omili – raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishidir. Axborot almashinuvi, ishlab chiqarish, ta’lim, tibbiyot, iqtisodiyot, hatto kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalari endi raqamli echimlarsiz tasavvur etilmaydi. Raqamli texnologiyalar jamiyatda nafaqat qulayliklar yaratdi, balki butun boshli tizimlar va sohalarni qayta shakllantirdi, yangi imkoniyatlar va kasblarni yuzaga keltirdi. Mazkur maqolada raqamli texnologiyaning mazmuni, ahamiyati, turlari, afzallik va xavflari, shuningdek, O‘zbekiston misolida qo‘llanilishi batafsil yoritiladi.

Raqamli texnologiya tushunchasi va uning rivojlanish omillari. Raqamli texnologiyalar deganda axborotni raqamli ko‘rinishda qayta ishlash, saqlash, uzatish va tahlil qilishga xizmat qiladigan zamonaviy texnik va dasturiy vositalar majmui tushuniladi. Bunga kompyuterlar, mobil

qurilmalar, internet, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, robototexnika va boshqa ko‘plab tizimlar kiradi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishining asosiy omillari quyidagilar:

1.Komponentlarning arzonlashuvi va quvvatining ortishi. Kompyuter protsessorlari, xotira va tarmoq qurilmalari yildan yilga tezroq va arzonroq bo‘lmoqda.

2.Internetning ommalashuvi. Keng polosali internet tufayli axborot almashinuvi cheksiz ko‘lamda amalga oshadi.

3.Smartfon revolyutsiyasi. Mobil qurilmalarning keng tarqalishi raqamli texnologiyalarning har bir inson hayotiga kirib borishiga xizmat qildi.

4.Big Data (Katta ma’lumotlar). Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish imkoniyatlarining kengayishi raqamli xizmatlarni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqdi.

5.Bulutli texnologiyalar. Serverlarga bog‘liq bo‘lmagan holda istalgan joydan axborotga kirish imkonini berdi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning markazida turibdi va insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichiga asos bo‘lmoqda.

Raqamli texnologiyalarning asosiy turlari. Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar turli yo‘nalishlarda shakllanmoqda. Ulardan eng asosiylari quyidagilar:

1.Sun’iy intellekt (AI)-Sun’iy intellekt – bu kompyuterlarning insonchalik fikrlashi, o‘rganishi, qaror qabul qilishi va murakkab vazifalarni bajarishi imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir. AI tibbiyot, transport, ta’lim, xavfsizlik kabi sohalarda keng qo‘llanilmoqda.

2.Bulutli texnologiyalar-Bulutli xizmatlar foydalanuvchilarga dastur va ma’lumotlarga internet orqali kirish imkonini beradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham bulutli platformalar keng joriy etilmoqda.

3.Internet-of-Things (IoT)-IoT – turli qurilmalarni internet orqali bog‘lab, ular o‘rtasida avtomatik axborot almashinuvi imkonini beruvchi tizim. Masalan, aqlli uylar, aqlli sanoat, aqlli qishloq xo‘jaligi.

4.Robototexnika-Robototexnika hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat unumdorligini keskin oshirmoqda. Robotlar zavodlarda ishlaydi, tibbiyotda jarrohlarga yordam beradi, xizmat ko‘rsatish sohasida esa mijozlar bilan ishlaydi.

5.Kiberxavfsizlik texnologiyalari-Raqamli dunyo xavfsizlikni talab qiladi. Shu sababli shifrlash, biometrik identifikatsiya, antivirus, xavfsizlik devori kabi texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarning jamiyat va iqtisodiyotga ta’siri. Raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ularning ta’sirini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin:

1.Ta’lim sohasida

- Onlayn o‘quv platformalari (Coursera, EdX, ZiyoNet) ta’limni ommalashtirdi.
- Masofaviy ta’lim pandemiya davrida millionlab o‘quvchilarga yordam berdi.
- Sun’iy intellekt yordamida individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish mumkin bo‘ldi.

2.Tibbiyotda:

- Telemeditsina orqali bemorlar uyidan turib shifokor bilan muloqot qilishi mumkin.
- Sun’iy intellekt kasalliklarni erta aniqlashda yordam bermoqda.
- Robotlar jarrohlik amaliyotlarini yanada aniq bajarishga yordam beradi.

3.Iqtisodiyot va biznesda:

- Elektron tijorat (e-commerce) savdo hajmini bir necha barobar oshirdi.
- Raqamli to‘lov tizimlari (Payme, Click, PayPal) pul operatsiyalarini tezlashtirdi.
- Korxonalarda avtomatlashtirilgan tizimlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda.

4.Ijtimoiy hayotda:

- Ijtimoiy tarmoqlar odamlar o‘rtasidagi muloqotni o‘zgartirdi.
- Onlayn xizmatlar hayotni ancha yengillashtirdi: taksi, yetkazib berish, davlat xizmatlari.
- Raqamli hukumat tizimlari (e-gov) davlat xizmatlarini shaffoflashtirdi.

Raqamli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklar:

Afzalliklari:

1.Ish unumdorligini oshiradi.

2.Axborot almashinuvi tez va qulay.

3.Resurslardan samarali foydalanishga imkon beradi.

4.Ta’lim, tibbiyot, biznes kabi sohalarda sifatni oshiradi.

5.Yangi kasblar va imkoniyatlar yaratadi.

Kamchiliklari:

1.Kiberxavflar va ma’lumotlar o‘g‘irlanishi xavfi.

2.Yoshlarning texnologiyaga haddan ziyod bog‘lanishi.

3.Ba’zi kasblarning yo‘qolishiga sabab bo‘lishi.

4.Ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi ehtimoli.

5.Shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi.

Demak, raqamli texnologiyalar to‘g‘ri boshqarilganda jamiyat rivoji uchun ulkan manba bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonning raqamli transformatsiya yo‘lidagi islohotlari. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda raqamlashtirish jarayoni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- davlat xizmatlarining 90 foizi elektron shaklga o‘tkazildi;
- maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalarida kompyuterlar va internet tarmog‘i kengaytirildi;
- elektron tibbiyot kartalari joriy etilmoqda;
- transport va kommunal xizmatlarda raqamli boshqaruv tizimlari qo‘llanilmoqda;
- IT Park loyihasi orqali minglab yoshlar axborot texnologiyalari bo‘yicha o‘qitilmoqda.

Bu islohotlar O‘zbekistonni raqamli iqtisodiyotga o‘tishini tezlashtirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar bugungi kunda insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarmoqda. Ular yordamida ta’lim sifatini oshirish, tibbiyot xizmatlarini takomillashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat boshqaruvini samarali qilish imkoniyati mavjud. Biroq, raqamli texnologiyalar bilan birga keladigan xavflar ham mavjud bo‘lib, ularni oldindan ko‘ra bilish va zarur choralarni ko‘rish muhimdir. Shunday ekan, raqamli savodxonlikni oshirish, texnologiyalarni to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llash – zamon talabi va har bir fuqaroning vazifasidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Karimov, A., & Jo‘rayev, B. Raqamli texnologiyalar asoslari. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2021.

2.Turdiyev, M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va jamiyat. – Toshkent: «Innovatsiya ziyo», 2020.

3.Abdullayev, R. Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti, 2022.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–6079-son qarori. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. – Toshkent, 2020.

5.To‘xtayev, Sh. Sun’iy intellekt va uning qo‘llanilishi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2023.

6.Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016.

7.Astells, M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010.

8.OECD. Digital Transformation in the Public Sector. Paris: OECD Publishing, 2021.

9.McKinsey Global Institute. Digital globalization: The new era of global flows. – McKinsey Report, 2019.

10.UNDP Uzbekistan. Digital Transformation in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. – Toshkent, 2021.

TA’LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA: ZARURAT, JARAYON VA ISTIQBOLLAR

Navoiy davlat universiteti
p.f.d. (DSc)., dots. F.X.Holikulova

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida sinf-dars tizimining shakllanishi, uning rivojlanish bosqichlari hamda integrativ yondashuvning zamonaviy ta’limdagi o‘rni tahlil qilingan. Fanlar sonining ortishi natijasida yuzaga kelayotgan muammolar, jahondagi integratsiyalashgan o‘quv dasturlariga doir tajribalar va O‘zbekiston ta’lim tizimida integratsiya modelining joriy qilinishi ilmiy asosda yoritilgan. Integratsiyaning turlari, ularning amaliy ahamiyati va samaradorligi haqida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, sinf-dars tizimi, o‘quvchi, o‘qituvchi, pedagogik jarayon, modul, dastur, fanlararo bog‘liqlik, ta’lim samaradorligi, ijodiy faoliyat.

Аннотация: В статье анализируется становление классно-урочной системы в образовательном процессе, этапы её развития, роль интегративного подхода в современном образовании. Научно освещаются проблемы, возникающие в связи с увеличением количества предметов, мировой опыт интегрированных учебных программ и внедрение интеграционной модели в систему образования Узбекистана. Даны выводы о видах интеграции, их практическом значении и эффективности.

Ключевые слова: интеграция, классно-урочная система, ученик, учитель, педагогический процесс, модуль, программа, межпредметные связи, эффективность обучения, творческая деятельность.

Annotation: The article analyzes the formation of the class–lesson system in the educational process, the stages of its development, and the role of the integrative approach in modern education. It scientifically examines the problems arising from the increase in the number of subjects, the global experience of integrated curricula, and the implementation of the integration model in the education system of Uzbekistan. Conclusions are provided on the types of integration, as well as their practical significance and effectiveness.

Keywords: integration, class-lesson system, student, teacher, pedagogical process, module, program, interdisciplinary connections, learning efficiency, creative activity.

Hozirgi kunda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida integratsiyalashgan ta’limga e’tibor qaratilmoqda. Fanlarning ko‘payishi bilimlarni mayda bo‘laklarga ajratib yuborishi mumkinligi sababli, turli fanlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlash dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Jahon tajribasida integrativ yondashuv muvaffaqiyatli qo‘llanilayotganini hisobga olsak, o‘zimizning ta’lim tizimida ham bosqichma-bosqich ushbu modelni keng joriy etish maqsadga muvofiq. Integratsiyalashgan darsliklar va dasturlar o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ularni hayotiy jarayonlar bilan bog‘lash va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, ta’lim tizimini optimallashtirish jarayonida nafaqat yangi texnologiyalar, balki fanlararo bog‘liqlikni ta’minlaydigan yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim tizimida yangilanishlar, takomillashtirishlar va modernizatsiya jarayoni jadal rivojlanmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Maktabni maktab qiladigan kuch - bu o‘qituvchilardir.” Bu fikr ta’lim jarayonida o‘qituvchining yetakchi o‘rnini, shuningdek, darsni to‘g‘ri tashkil etishning naqadar muhimligini anglatadi. Shunday ekan, o‘quv jarayonining zamonaviy talablarga mos bo‘lishi uchun integrativ ta’limdan samarali foydalanish zarur.

Hozirgi zamon darsiga tizimli yondashuvning ahamiyati: Sinf-dars tizimi XVII asrda shakllanib, bugungi kungacha ta’limning asosiy tashkiliy modeli sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Darsning aniq vaqt va jadval asosida olib borilishi, o‘quvchilar tarkibining bir xil bo‘lishi, materialning izchil taqdim etilishi mazkur tizimning ustunliklaridir.

Zamonaviy dars - bu pedagogik jarayonning barcha komponentlari mujassam bo‘lgan murakkab tizimdir. M.I.Maxmutov va M.L.Mahmudov tadqiqotlarida darsga tizimli yondashuvning zarurligi alohida ta’kidlanadi. Dars:

- *maqsadga yo‘naltirilgan;*
- *mazmunan asoslangan;*
- *metodik jihatdan to‘g‘ri qurilgan;*

- *o‘quvchi faoliyatini boshqarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.*

Ta’limda yakka tartibdagi, guruhiy va umumiy ish shakllari. Ta’limda yakka tartibdagi ishlar o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bunda:

- o‘quvchining fikrlash va eslab qolish qobiliyati;
- oilaviy muhit;
- mehnat ko‘nikmalari;
- mustaqil o‘qishga bo‘lgan qiziqishi kabi omillar muhim sanaladi.

Guruhiy va frontal ishlar esa barcha o‘quvchilarni umumiy maqsad sari yo‘naltirishni ko‘zlaydi.

Ta’limda integratsiya zarurati: muammo va ehtiyojlar. O‘zbekiston ta’lim tizimida fanlar sonining ortib borishi quyidagi muammolarga sabab bo‘lmoqda:

1.Bilimlarning maydalanib ketishi;
2.Takroriy materiallarning ko‘payishi;
3.O‘quvchining vaqt va kuch sarfini oshishi;
4.Darsliklar hajmining kattalashishi;
5.DTS va dasturlar o‘rtasidagi nomutanosiblik.

Bu holat ta’lim mazmunini optimallashtirish va fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirishni talab qiladi.

Jahon ta’lim tizimidagi integrativ yondashuv tajribalari. Bugun dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlari integrativ o‘quv dasturlaridan foydalanadi. Jumladan:

- Singapur: 4 ta asosiy fan (Ona tili, Matematika, Estetika, Jismoniy tarbiya);
- Buyuk Britaniya va Avstraliya: integrativ fanlar;
- Koreya, Shveytsariya: integratsiyalashgan alohida predmetlar;
- Yaponiya, Germaniya: blok-dasturlar;
- Vengriya: madaniyat, inson va tabiat yo‘nalishlarida yondashuv. Bu tajribalar integratsiyaning ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi.

Integratsiyaning ta’lim jarayonidagi afzalliklari

Integrativ ta’lim:

- bilimlarni tizimlashtiradi;
- fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi;
- o‘quvchining ijodiy fikrlashini rivojlantiradi;
- darsliklar hajmini kamaytiradi;
- o‘quv yuklamasini optimallashtiradi;
- real hayotiy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Shunday qilib, integratsiya kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’limning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimini takomillashtirish uchun fanlararo integratsiyani joriy etish eng samarali yo‘llardan biridir. Integratsiya o‘quvchilar bilimlarining izchilligini ta’minlaydi, darsliklarni ixchamlashtiradi, o‘quv yuklamasini kamaytiradi va o‘quv jarayonini hayotiy tajriba bilan bog‘laydi. Jahon tajribasining tahlili integratsiyalashgan yondashuvning yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham integrativ dasturlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi ta’lim sifati va mazmunining yuksalishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.I.Maxmutov. “Современный урок”. 35-37-bet. Москва. 2021г.
2. 1.Maxmutov M.I. Zamonaviy dars nazariyasi. Toshkent
3. Mahmudov M.L. Dars va uni tashkil etish metodikasi. Toshkent
4. Korolyov F.F., Yudin E.G. Pedagogik tizimlar va darsning tuzilishi. 2020-T.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA ULARNING GLOBAL STANDARTLAR BILAN UYG‘UNLIGI

Axatova D.A.-NavDU Psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.
Axatova X.A.-NavDU Psixologiya kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlarning mazmuni, ularning xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashuvi hamda O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llanilish tajribalari yoritiladi. Globalizatsiya sharoitida ta’lim jarayonini kompetensiyaga yo‘naltirish, innovatsion metodlarni joriy etish va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish dolzarb masala sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: “Ta’lim to`g`risida”gi Qonun, zamonaviy ta’lim, pedagogik yondashuv, global standart, kompetensiya, innovatsiya, globallashuv, STEAM.

Аннотация

В статье рассматривается содержание современных педагогических подходов, их гармонизация с международными образовательными стандартами и опыт их применения в системе образования Узбекистана. В условиях глобализации ориентация образовательного процесса на компетентность, внедрение инновационных методов и повышение квалификации педагогов рассматриваются как актуальные проблемы.

Ключевые слова: Закон «Об образовании», современное образование, педагогический подход, мировой стандарт, компетентность, инновации, глобализация, STEAM.

Abstract

This article discusses the content of modern pedagogical approaches, their harmonization with international educational standards, and the experiences of their application in the education system of Uzbekistan. In the context of globalization, the orientation of the educational process to competence, the introduction of innovative methods, and the improvement of teachers' professional skills are analyzed as urgent issues.

Keywords: Law "On Education", modern education, pedagogical approach, global standard, competence, innovation, globalization, STEAM.

Kirish. XXI asrda ta’lim tizimi jadal o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy hayotdagi tezkor o‘zgarishlar pedagogik jarayonning mazmuni hamda metodikasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, ularni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ozbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 68-moddasida ta’lim sohasidagi xalqaqro hamkorlikka alohida e’tibor qaratildi. Ta’lim sogasidagi vakolatli davlat boshqaruv organlari qonun hujjatlariga muvofiq ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo`yicha tadbirlarni amalga oshirishi belgilab qo`yildi[1].

Bugungi kunda UNESCO, OECD (Economic Co-operation and Development) hamda PISA dasturlari ta’lim sifati va samaradorligini baholashda asosiy xalqaro mezon sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston ham bu tizimlarga integratsiyalashish yo‘lida bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirmoqda.

Asosiy qism. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun asosida **quyidagi yangiliklar kiritildi:**

- Ta’limning **davlat va nodavlat shakllari** huquqiy asosda tenglashtirildi;
- **Masofaviy, dual, inkluziv va oilaviy ta’lim** shakllari qonuniylashtirildi;
- Ta’lim muassasalari uchun **akreditatsiya va reyting tizimi** joriy etildi;
- **Hayot davomida ta’lim olish** (lifelong learning) tamoyili qonun darajasiga ko‘tarildi;

Qonunda “Ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta’lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o`tkazishga hamda ta’lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan” [1; 20-б.] ligi ta’kidlanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘qituvchidan bilim beruvchidan ko‘ra — yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, yo‘naltiruvchi rolini talab etadi. Ularning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

• o‘quvchining shaxsiy faol ishtirokini ta’minlash;
• mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
• o‘quv jarayonini amaliyot bilan integratsiyalash;
• hamkorlikda o‘rganish va refleksiya (o‘z-o‘zini tahlil qilish)ni yo‘lga qo‘yish.

Zamonaviy yondashuvlar orasida kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, integrativ, innovatsion, shaxsga yo‘naltirilgan metodlar muhim o‘rin tutadi.

Global standartlar bilan uyg‘unlik. Dunyo ta’limida qo‘llanilayotgan yondashuvlar — STEM/STEAM, CLIL (Content and Language Integrated Learning), project-based learning (loyihaviy o‘qitish), flipped classroom (teskari sinf) — ta’limni hayotiy ko‘nikmalar asosida tashkil etishga yo‘naltirilgan[3].

O‘zbekiston ta’lim tizimi ham bu yondashuvlarni milliy o‘quv dasturlariga moslashtirish orqali global standartlarga integratsiyalashmoqda. Masalan:

• STEAM yondashuvi texnik tafakkur, ijodkorlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
• CLIL metodikasi chet tillarni o‘rganishda fan mazmuni bilan birgalikda til kompetensiyasini shakllantiradi;
• Kompetensiyaviy yondashuv esa o‘quvchining amaliy faoliyatda bilimini qo‘llay olishini asosiy natija sifatida belgilaydi.

Bunday metodlar xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS baholash tizimlarida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash mezonlariga hamohangdir.

O‘zbekiston ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish tajribasi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘qituvchilar malakasini oshirish markazlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha treninglar o‘tkazilmoqda. Innovatsion maktablarda STEAM laboratoriyalari tashkil etilgan. Xalqaro dasturlar (Cambridge, IB, Erasmus+) asosida tajriba almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.

Shu bilan birga quyidagilarga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:
• Ta’lim dasturlarini global kompetensiyalar asosida yangilash;
• O‘qituvchilarni xalqaro sertifikatlashtirish dasturlariga jalb etish;
• STEAM va CLIL yondashuvlarini milliy metodikaga moslashtirish;
• Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish uchun raqamli infratuzilmani mustahkamlash;
• Ta’limda “soft skills” (yumshoq ko‘nikmalar)ni rivojlantirishni asosiy yo‘nalish sifatida belgilash.

Xulosa. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta’lim jarayonini global standartlarga yaqinlashtiruvchi eng samarali vositadir. Ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativligi, kommunikativ qobiliyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimining xalqaro standartlar bilan uyg‘unligi, avvalo, o‘qituvchilarning innovatsion fikrlashi, o‘quv dasturlarining moslashuvchanligi va o‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llashga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘RQ-637, 23.09.2020й.
2. Axatova D.A.Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyani amalga oshirish bo‘yicha ta’lim turlari. “Zamonaviy fan va talim-tarbiya: muammo, yechim, natija” ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari 2020. № 1. Noyabr, 11-13 b
3. UNESCO. Education 2030 Framework for Action. Paris, 2016.
4. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. – Paris, 2018.
5. Cambridge Assessment International Education. Teaching and Learning Approaches for Global Competence, 2023.

TA’LIMDA KREATIVLIK: ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING ASOSIY KOMPETENSIYASI

Navoiy davlat universiteti
p.f.d. (DSc)., dots. F.X.Holikulova

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimida kreativlikning roli, o‘qituvchining innovatsion yondashuvlarga tayyorligi hamda zamonaviy pedagogik jarayonning asosiy talablari yoritilgan. Shuningdek, maqolada kreativ o‘qituvchining ta’lim sifati va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri o‘rganilib, zamonaviy ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirishning dolzarbligi ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, pedagogik kompetensiya, divergent fikrlash, innovatsion ta’lim, ijodiy tafakkur, o‘qituvchi kreativligi, ta’lim metodikasi.

Аннотация: В данной статье раскрывается роль креативности в системе образования, готовность учителя к инновационным подходам, а также основные требования современного педагогического процесса. Кроме того, в статье изучается влияние креативного педагога на качество образования и личностное развитие учащихся, научно обосновывается актуальность развития креативности в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: креативность, педагогическая компетентность, дивергентное мышление, инновационное обучение, творческое мышление, креативность учителя, методика обучения.

Annotation: This article reveals the role of creativity in the education system, the teacher’s readiness for innovative approaches, as well as the main requirements of the modern pedagogical process. In addition, the article examines the impact of a creative teacher on the quality of education and the personal development of students, and scientifically substantiates the relevance of developing creativity in the contemporary educational process.

Keywords: creativity, pedagogical competence, divergent thinking, innovative education, creative thinking, teacher creativity, teaching methodology.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda ta’lim tizimi oldida yangi vazifalar vujudga kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi” degan fikrlari o‘qitish usullari va pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilishning nechog‘lik muhimligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, zamonaviy o‘quvchi uchun an’anaviy o‘qitish usullari yetarli emas; ta’lim jarayoniga kreativlik, innovatsiyalar va interaktiv metodlar joriy etilishi talab etiladi.

Kreativlik – shaxsning yangicha fikrlash, muammolarni noodatiy yo‘l bilan hal qilish, innovatsion g‘oyalar yaratish qobiliyatini ifodalovchi psixologik kategoriya bo‘lib, hozirgi ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu maqolada kreativlikning nazariy asoslari, psixologik mexanizmi va ta’lim jarayonidagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kreativlik inson tafakkurining yuksak shakli bo‘lib, yangilik yaratish, noodatiy fikr bildirish va mavjud vaziyatga yangi yechim taklif qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Psixologiyada kreativlik shaxsning intellektual, motivatsion va ijtimoiy xususiyatlari bilan bog‘liq kompleks mexanizm sifatida talqin qilinadi. Ta’lim jarayonida kreativlikning ahamiyati shundaki, u o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi, hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorgarligini oshiradi. Kreativ fikrlashni shakllantirish esa o‘qituvchidan zamonaviy metodlar, innovatsion vositalardan faol foydalanishni talab etadi.

Joy Pol Guilford nazariyasida kreativlikning talqini. Amerikalik olim Joy Pol Guilford kreativlikni ilmiy asosda tahlil qilgan tadqiqotchilardan biridir. Uning “Inson intellektining tabiati” nomli asarida kreativlik divergens fikrlash bilan bog‘lanadi. Divergent fikrlash muammoni ko‘p qirralab tahlil qilish, bir nechta yechim yaratish qobiliyatini bildiradi. Guilford kreativlikni quyidagi asosiy komponentlar orqali izohlaydi:

1.Fikrlashning ravonligi – ko‘p miqdordagi g‘oyalarni tez shakllantirish qobiliyati;

2.Moslashuvchanlik – muammolarga turli yondashuvlardan qaray olish;

3.Originallik – noodatiy, noyob g‘oyalar yaratish qobiliyati;

4.Tafsilotlarga e’tibor – g‘oyalarni chuqur rivojlantirish.

Ta’lim metodikasida kreativlikning o‘rni (Eggen va Kauchak qarashlari). Eggen va Kauchak o‘zining “Ta’limning metodik asoslari” asarida kreativlikni ta’lim jarayonining ajralmas elementi sifatida ko‘rsatadi. Ularning fikricha, kreativlikni rivojlantirish uchun pedagog quyidagi yondashuvlardan foydalanishi zarur:

1.Muammoga yo‘naltirilgan ta’lim-o‘quvchiga real hayotiy vaziyatlar berilib, noodatiy yechim topishga undaladi.

2.Kreativ fikrlashni qo‘llab-quvvatlash-o‘qituvchi yangi g‘oyalarni rag‘batlantiradi, o‘quvchining fikrlash erkinligini ta’minlaydi.

3.Individual yondashuv-har bir o‘quvchining qiziqishi va qobiliyatiga mos topshiriqlar berish kreativlikni kuchaytiradi.

4.G‘oyalarni rivojlantirish-o‘quvchilarga g‘oyalarni sinash, baholash va takomillashtirish uchun imkoniyat yaratish ijodiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Bu metodlar o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga va innovatsion fikr yaratish salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.

Kreativ o‘qituvchining ta’lim sifati rivojidagi roli. Kreativ pedagog – bu o‘quvchining fikrlash doirasini kengaytiruvchi, yangilikka yo‘naltiruvchi, shaxsiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi tarbiyachi. Ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalash va innovatsion jamiyat qurishda kreativ kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchi qalbiga yo‘l topuvchi san’atkor sifatida maydonga chiqadi. Kreativ o‘qituvchi quyidagilarga erishadi:

- dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi;
- o‘quvchilarga savol berish madaniyatini o‘rgatadi;
- har bir boladagi iste’dodni namoyon etadi;
- innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanadi;
- o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni shakllantiradi.

Shu tariqa, kreativ o‘qituvchi ta’lim sifati, o‘quvchilarning intellektual salohiyati va jamiyatning kelajagi rivojida hal qiluvchi o‘ringa ega.

Xulosa qilib aytganda, kreativlik zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘qituvchining innovatsion kompetensiyasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichdir. Guilfordning divergent fikrlash nazariyasi hamda Eggen va Kauchakning metodik yondashuvlari ta’limda kreativlikni ilmiy asosda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.

2. Guilford, J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.

3. Eggen, P., & Kauchak, D. Educational Psychology: Windows on Classrooms. – Pearson Education, 2012.

4. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. The Standard Definition of Creativity. Creativity Research Journal, 2007.

5. Torrance, E. P. Creativity in the Classroom. – Washington: National Education Association, 1992.

6. Hasanboyeva O., Yo‘ldoshev J.G. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2020.

7. Begimqulov U. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2011.

TINISH BELGILARIDAGI XATOLIKLARNI ANIQLOVCHI KOMPYUTER DASTURINI YARATISH TEXNOLOGIYASI

Jumayeva Dilnoza Baxshulloyevna-
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi katta o‘qituvchisi f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada punktuatsion xatolarni aniqlovchi kompyuter dasturini yaratish texnologiyasi haqida umumiy ma’lumot berilgan bo‘lib, punktuatsion xatolarni aniqlash va tuzatish tilning nafaqat grammatik to‘g‘riligi, balki matnning tushunarliligi va kommunikativ samaradorligi uchun ham muhim ekanligi takidlanadi. Shuningdek, punktuatsion xatolarni aniqlovchi dasturiy ta'minot turli xil matn tahlil qilish platformalari va ilovalarda muhim qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qilishi mumkinligi izohlangan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, axborot texnologiyalari, morfologik, sintaktik va semantik jihatlar, punktuatsiya, punktuatsion xatolar, morfologik va sintaktik tahlil, til modellari va algoritmlar, .

ТЕХНОЛОГИЯ СОЗДАНИЯ КОМПЬЮТЕРНОЙ ПРОГРАММЫ, ОБНАРУЖИВАЮЩЕЙ ОШИБКИ В ПУНКТУАЦИИ

Аннотация: В данной статье приводятся общие сведения о технологии создания компьютерной программы, обнаруживающей пунктуационные ошибки, и подчеркивается, что обнаружение и исправление пунктуационных ошибок важно не только для грамматической правильности языка, но и для разборчивости и коммуникативная эффективность текста. Также поясняется, что программное обеспечение для обнаружения пунктуационных ошибок может служить важным дополнительным инструментом в различных платформах и приложениях для анализа текста.

Ключевые слова: лингвистика, информационные технологии, морфологические, синтаксические и семантические аспекты, пунктуация, пунктуационные ошибки, морфологический и синтаксический анализ, языковые модели и алгоритмы.

TECHNOLOGY FOR CREATING A COMPUTER PROGRAM THAT DETECTS ERRORS IN PUNCTUATION

Abstract: This article provides general information about the technology of creating a computer program that detects punctuation errors, and it is emphasized that the detection and correction of punctuation errors is important not only for the grammatical correctness of the language, but also for the intelligibility and communicative effectiveness of the text. It is also explained that punctuation error detection software can serve as an important addition to various text analysis platforms and applications.

Keywords: linguistics, information technology, morphological, syntactic and semantic aspects, punctuation, punctuation errors, morphological and syntactic analysis, language models and algorithms.

Bugungi kunda tilshunoslik va axborot texnologiyalari sohasida tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) masalalari jadal rivojlanmoqda. Matnning morfologik, sintaktik va semantik jihatlarini avtomatik tahlil qilish texnologiyalari inson va kompyuter o‘rtasidagi muloqot sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday texnologiyalar orasida punktuatsion xatolarni aniqlovchi dasturlar ham o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Punktuatsiya xatolarini aniqlash va tuzatish tilning nafaqat grammatik to‘g‘riligi, balki matnning tushunarliligi va kommunikativ samaradorligi uchun ham muhim hisoblanadi. Adabiyot, jurnalistika, ilmiy maqolalar yozish va kundalik ish hujjatlari bilan ishlashda punktuatsiya qoidalariga rioya qilish muhim bo‘lgan bir paytda, bu qoidalarga amal qilmaslik muloqot jarayonida noto‘g‘ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, tilni o‘rganuvchilar va turli sohalarda matn yaratadigan mutaxassislar uchun bunday dasturlar yordamida xatolarni avtomatik tahlil qilish va tuzatish imkoniyati sezilarli darajada mehnat unumdorligini oshiradi.

Shuningdek, punktuatsion xatolarni aniqlovchi dasturiy ta'minot turli xil matn tahlil qilish platformalari va ilovalarda muhim qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Zamonaviy

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida matnlarni katta hajmda qayta ishlash talab qilinayotgani sababli bunday dastur algoritmlari til ishlov berishning eng zarur vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu texnologiyani rivojlantirish, birinchidan, kompyuter yordamida tilning sintaktik va semantik qoidalarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi; ikkinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatida va ta'lim jarayonida qo‘llash orqali yozma muloqot madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun punktuatsion xatolarni avtomatik aniqlash texnologiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda nafaqat lingvistika, balki dasturiy ta’minot sohasida ham dolzarb yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda.

Dasturiy ta’minot o‘z ichiga turli xil algoritmlar, ma’lumotlar bazasi, modellash texnikalari va dasturiy vositalarni oladi. Bu jarayon tabiiy tilni strukturalashtirilmagan holatdan strukturali ko‘rinishga olib keladi va matnni ma’lumotga aylantirish imkonini beradi. Buning natijasida matnlar o‘rtasidagi semantik aloqalarni aniqlash, jumlalardagi punktuatsiya qoidalariga amal qilish yoki grammatik xatolarni topish kabi vazifalar bajarilishi mumkin.

Til ishlov berish (NLP) asosan quyidagi bosqichlardan iborat:

Matnni oldindan qayta ishlash: Bu bosqichda matnlarni raqamli shaklda qabul qilish, tokenizatsiya (matnni so‘z yoki jumlalarga ajratish), stop-so‘zlarni olib tashlash, lemmatizatsiya yoki stemming (so‘zlarni asl shakliga keltirish) kabi jarayonlar amalga oshiriladi.

Morfologik va sintaktik tahlil: Matndagi har bir so‘zning rolini aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunish. Bu yerda so‘zlarning qaysi turkumga kirishi va grammatik struktura tahlil qilinadi. Bu jarayon punktuatsion va grammatik xatolarni aniqlash uchun juda muhimdir.

Semantik tahlil: Ushbu bosqichda jumla yoki matnning ma'nosini aniqlashga e'tibor qaratiladi. Semantik tahlil yordamida so‘zlar va iboralar orasidagi aloqalar tushuniladi, bu punktuatsion qoidalarni to‘g‘ri aniqlash uchun asosiy rol o‘ynaydi.

Til modellari va algoritmlar: Punktuatsion xatolarni aniqlashda, til modellari yordamida so‘zlar va gaplarning grammatik tuzilishi, qoidalari nazorat qilinadi. Bu jarayonda mashinaviy o‘qitish texnologiyalari, qoidalarga asoslangan algoritmlar, statistika usullari kabi turli xil dasturiy modellar qo‘llanadi.

Umumiy ko‘rinishda, til ishlov berish texnologiyalari nafaqat punktuatsiya, balki boshqa grammatik xatolarni aniqlashda, so‘zlarning ma'no bog‘lanishlarini tushunishda va avtomatik tarjima qilishda ham keng qo‘llaniladi. Shu sababli dasturiy ta’minot va til ishlov berishning kombinatsiyasi, matnlarni yanada samarali va to‘g‘ri tahlil qilish imkoniyatini yaratib, inson va kompyuter o‘rtasidagi aloqani sezilarli darajada osonlashtiradi.

Punktuatsiya qoidalarini avtomatik tahlil qilish algoritmlari quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Qoidalarga asoslangan yondashuvlar (Rule-based Approach)

Bu yondashuv punktuatsiya qoidalarini oldindan belgilangan qoidalar to‘plami asosida tekshirishni nazarda tutadi. Har bir til uchun punktuatsiya qoidalari aniq belgilab olinadi va bu qoidalarga asoslanib tahlil jarayoni amalga oshiriladi. Bunday algoritmlar quyidagilarni nazorat qiladi:

Vergulning to‘g‘ri qo‘llanishi (qo‘shma gaplar, bog‘lovchilar bilan ishlatilishi).

Nuqtali vergul yoki ikki nuqta kabi murakkab punktuatsion belgilarni to‘g‘ri qo‘llash.

Nuqtaning gap oxirida qo‘llanishi va qisqartmalar bilan ishlatilishi.

Qavslar va tirnoqlarning to‘g‘ri joylashishi.

Bu yondashuvning afzalligi uning aniqligi va aniqlangan punktuatsion qoidalar asosida ishlashidir. Biroq, qoidalarga asoslangan yondashuv ko‘plab qoida istisnolarini qamrab olishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

2. Sintaktik tahlil (Syntactic Parsing)

Sintaktik tahlil matnning grammatik tuzilishini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Punktuatsion belgilar matndagi so‘zlar va jumlalar o‘rtasidagi grammatik bog‘lanishlarga asoslanib qo‘llanadi. Algoritmlar gap tarkibiy qismlarini aniqlab, ularning o‘zaro grammatik munosabatini tahlil qiladi. Bu jarayon davomida punktuatsiya qoidalari buzilgan joylar aniqlanadi:

Bog‘lovchi va ajratilgan qismlar orasidagi vergul talablari.

Ega va kesim orasidagi mos kelishuv.

Birinchi va ikkinchi darajali jumlalar orasidagi punktuatsiya.

Sintaktik tahlil matnning grammatik strukturasi asosida qoidalarni aniqlashda samarali bo‘lib, juda murakkab gaplarda ham to‘g‘ri punktuatsiya tahlilini amalga oshiradi.

3. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari (Machine Learning Approaches)

Mashinaviy o‘qitish texnologiyalarida, punktuatsiya xatolarini aniqlash uchun algoritmlar katta miqdordagi matnlar asosida o‘qitiladi. Ushbu yondashuvda modellar ilgari o‘qitilgan ma’lumotlar to‘plamlaridagi namunaviy punktuatsiya qo‘llanishini o‘rganadi va yangi matnlarda xatolarni topishga harakat qiladi. Buning uchun quyidagi texnologiyalar qo‘llaniladi:

Supervizion o‘qitish: Bu usulda tizimga noto‘g‘ri va to‘g‘ri punktuatsiya qilingan matnlar to‘plami kiritiladi. Algoritm punktuatsiya qoidalarini ushbu o‘rganilgan ma’lumotlarga asoslanib tahlil qiladi.

Rekursiv neyron tarmoqlar (RNN) va Transformator modellar: Bu usullar ketma-ketliklardagi bog‘lanishlarni tahlil qilishda juda samarali hisoblanadi. Neyron tarmoqlar til strukturalarini o‘rganib, punktuatsiya qoidalarini semantik bog‘lanishlar orqali aniqlashga yordam beradi.

Mashinaviy o‘qitish texnologiyalari aniq qoidalarga asoslangan algoritmlarga qaraganda ancha moslashuvchan bo‘lib, matnning murakkabligini va turli kontekstlarni hisobga olish imkoniyatiga ega.

4. Statistik usullar

Statistik usullarda katta hajmdagi ma'lumotlar to‘plami tahlil qilinib, punktuatsiya belgilari va matn tuzilmalarining qo‘llanishi o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniqlanadi. Algoritmlar punktuatsion belgilarni joylashish ehtimolini hisoblab chiqadi va ular matnning turli qismlarida qanday ishlatilishi kerakligini aniqlaydi. Bu usullar katta hajmdagi yozma matnlar va korpuslar yordamida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

*1. **Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2019).** Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition**.** Nashriyot: Pearson. ISBN: 978-0131873216*

*2. **Manning, C. D., & Schütze, H. (1999).** Foundations of Statistical Natural Language Processing**.** Nashriyot: MIT Press. ISBN: 978-0262133609*

*3. **Goldberg, Y. (2017).** Neural Network Methods for Natural Language Processing**.** Nashriyot: Morgan & Claypool Publishers. ISBN: 978-1627052986*

*4. **Charniak, E. (1993).** Statistical Language Learning**.** Nashriyot: MIT Press. ISBN: 978-0262033039*

*5. **Briscoe, T. (1996).** Automatic Extraction of Grammar from Corpora**.** Nashriyot: MIT Press. ISBN: 978-0262527330*

*6. **Lison, P., & Tiedemann, J. (2016).** OpenSubtitles2016: Extracting Large Parallel Corpora from Movie and TV Subtitles**.**Nashriyot: LREC Proceedings.*

*7. **Andrej Karpathy (2015).** The Unreasonable Effectiveness of Recurrent Neural Networks**.** Onlayn manba: http://karpathy.github.io/2015/05/21/rnn-effectiveness/*

*8. **Genzel, D., & Charniak, E. (2002).** Entropy Rate Constancy in Text**.** Nashriyot: Association for Computational Linguistics (ACL)*

*9. **Bird, S., Klein, E., & Loper, E. (2009).** Natural Language Processing with Python**.** Nashriyot: O'Reilly Media. ISBN: 978-0596516499*

TA’LIMGA INDIVIDUAL YONDASHUV - O‘QUVCHILARINING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Abdusalomova Maftuna Sheraliyevna-
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi, 2-bosqich tayanch doktorant
Email: abdusalomovamaftuna34@mail.com, Tel 913398891

Annotatsiya: Mazkur tezis maktab o‘quvchilarining bilish jarayonini individual yondashuv asosida faollashtirish masalasiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, bilish jarayoni, bilish faolligi, o‘quvchining individualligi.

Abstract: This thesis is devoted to the issue of activating the cognitive process of schoolchildren through an individual approach.

Key words: pedagogical technology, cognitive process, cognitive activity, student’s individuality.

Аннотатsiя: Данный тезис посвещен вопросу активизации познавательного процесса школьников путем индивидуального подхода.

Ключевые слова: педагогическая технология, познавательный процесс, познавательная активность, индивидуальность школьника.

Mamalakatimizda umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta’lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko‘zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi farmoni asosida belgilangan [1].

Dars jarayonida o‘quvchi o‘qituvchining bevosita rahbarligi asosida, ta’lim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllari yordamida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi. Bunda darsdagi o‘quv jarayoni bilish jarayoni, o‘quv faoliyati esa bilish faoliyati hisoblanadi. Dars jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyati va o‘qituvchining pedagogik faoliyati o‘zaro uyg‘unlikda muvofiqlashsa o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyati o‘quv materiali bilan tanishish, o‘quv materialini o‘rganish, bilimlarni avval o‘zlashtirilgan bilimlar bilan taqqoslash, o‘zlashtirilgan bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash va o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi holatlarda qo‘llash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi o‘quvchi faoliyatini boshqarish holatini vujudga keltiradi. Bu jarayon o‘quvchi o‘z faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgunga qadar uzluksiz tarzda davom etadi. O‘qituvchi o‘quvchi faoliyatini tashkil etadi va boshqaradi. Bunda asosan, o‘quv predmetini o‘zlashtirish imkoniyati ta’minlanadi.

Dars jarayonida o‘qituvchining vazifasi – o‘quvchining mayllarini hisobga olish, rejalashtirish, uning faoliyatini nazorat qilish va tuzatish kabi uzviy bog‘langan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. O‘rganish o‘quvchiga o‘z xatti-harakatiga ishonch tug‘diradi. Bunda o‘quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish orqali erishishda hamkorlikda o‘qitish asosiy o‘rinni egallaydi [2].

Zamonaviy maktabda ta’lim jarayoni nafaqat o‘quvchi shaxsiga, balki uning individualligiga ham yo‘naltirilishi muhim sanaladi. Bunda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlari o‘quvchi shaxsini shakllantirish, ijtimoiylashtirish, unda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini imkon qadar erta aniqlash va rivojlantirishga qaratilishi talab qilinmoqda. Ta’lim jarayoni o‘quvchini ta’lim tizimiga moslashtirishni emas, balki uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Bizga ma’lumki, zamonaviy ta’lim – o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishiga, mustaqil bilim olishga, o‘zlarining ichki imkoniyatlari va qobiliyatlarini to‘la namoyon etishlari uchun sharoit yaratishi hamda safarbar qilishi kerak. Muvaffaqiyat har bir o‘quvchi erisha olishi uchun qulay bo‘lgan o‘quv vaziyatini vujudga keltirish orqali ta’minlanadi. Mutaxassislarning ta’kidlashiga ko‘ra, o‘quv vaziyatida o‘quvchining bilish ehtiyojlarini qondirish uning rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi.

O‘quv vaziyatini vujudga keltirish o‘quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishini didaktlar har tomonlama asoslashga harakat qilmoqdalar. Agar o‘quvchi bilishga intilsa, bilim olishga ehtiyoj sezsa, ularda sog‘lom mayllar va qiziqishlar hosil bo‘ladi va ular bilish jarayonida muvaffaqiyat qozonadilar.

O‘quvchida hosil bo‘lgan bilish, ijod qilish, muloqotga kirishish quvonchi uning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiruvchi asosiy omildir. Bu esa o‘qituvchi faoliyatining mazmun-mohiyatini oshirish imkonini beradi va o‘qituvchi hamkorlikdagi faoliyat orqali har bir o‘quvchi uchun muvaffaqiyat qozonishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyati hosil bo‘ladi [2].

Dars jarayonida har bir o‘quvchiga individual yondashilsa bilish jarayoni faollashadi. Biroq o‘quvchilarning barchasiga bir xil dars berilsa ham ular yangi ma’lumotlarni turlicha o‘zlashtiradilar [3].

Buning asosiy sababi – bolalarning individual lateralligidir. Individual laterallik – odam bosh miya yarimsharlari funksiyalarining asimmetriyasi natijasida yuzaga keladi. Har bir insonda turli psixofiziologik funksiyalar – tafakkur, nutq, xotira, diqqat, ko‘rish, eshitish, yetakchi qo‘l va oyoq kabilarning nisbatan mukammal faoliyat darajasi yarimsharlar asimmetriyasi, ularning dominantlik va subdominantlik darajalari bilan bog‘liq ravishda differensiyallashgan bo‘ladi [6: 165.].

Bu holat ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish intuitiv-hissiy (kommunikativ) hamda mantiqiy-ratsional (nokommunikativ) yo‘llar bilan sodir etilishida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida bosh miya chap yarimshariga tayanish faqat chap yarimsharning faol rivojlanishini, o‘ng yarimshariga tayanish esa yarimsharlarning har ikkalasi faol rivojlanishini ta’minlab, o‘quvchilarning bilish faolligini keskin oshish imkonini beradi [4; 5].

Shuning uchun ham o‘qituvchi ta’lim muhitini tashkil etishda berayotgan ma’lumotlar o‘quvchi shaxsi tomonidan tushunib qabul qilinishiga sharoit yaratishi, qiziqishlarini inobatga olishi va ta’lim texnologiyalaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishi – muhim pedagogik muammolardan hisoblanadi.

Bir vaqtning o‘zida turli bilim saviyasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarga tayyor testlar berilishi, yangi mavzuni tushuntirishda dars sifatini fotosuratlar, kliplar, kino va videolavhalar orqali oshirish mumkin.

To‘g‘ri, o‘quvchilarning bilish faoliyati va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘qitish texnologiyalari ongli faoliyatning yuqori darajada bo‘lishi va ongli ehtiyojning ortib borishiga ijobiy ta’sir etadi. Shu bilan birga ushbu texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etilishida quyidagi holatlarga tayanish – o‘quvchilarning bilish jarayonini yanada faollashtiradi, deb hisoblaymiz:

- har bir bolada ta’lim olish, atrof-muhitni tushunish va tafakkur qilish jarayoni turlicha kechadi;
- har bir bola tafakkurining o‘ziga xosligi – bosh miyasi yarimsharlarining ma’lumotlarni qabul qilish hajmi va ishlash tezligi, u yoki bu xotira tizimining ustunligi va tafakkur jarayonlarining borishi bilan farq qilishida namoyon bo‘ladi;
- ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini rejalashtirish va tashkil qilishda har bir individ bosh miya yarimsharlari faoliyatining o‘ziga xosliklarini hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-5712-sonli qarori/ https://lex.uz/ru/docs/-4312785

2. Boymurodova G. T., Tosheva N.T. Boshlang‘ich ta’limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. tosheva76@mail.ru

3. Gulyamov D.R. Bilish jarayoni faolligi va neyropedagogik tadqiqotlar talqini. // “Pedagogika” J., №5, 2015. –Б. 29-35.

4. Gulyamov D.R., Nurboyev K.M., Numonova D.U. On the Issue of the Organization of Integrated Student Learning // Journal of Advanced Zoology, 2023,44 (S-3), Retrieved from http://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/795
5. Гулямов Д.Р., Каланходждаева К.Б. К вопросу учета особенностей межполушарной функциональной асимметрии мозга обучаемых в учебном процессе // Межд. научно-исслед.Ж. “Евроазийский Союз Учёных”, № 11 (56), 2018. 5-часть. -С. 38-43.
6. Гулямов Д.Р., Нурбоев Қ.М., Ҳамидова Ф.Т., Турсунова Ф.О. Нейропедагогика асослари / Ўқув қўлланма. –Навоий, 2020. – 203 б.

BOLALAR ADABIYOTI -KELAJAK ADABIYOTI.

Shadiyeva D.U.-
Angren universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kun bolalar kitobxonligi va adabiyotining holati, adabiy muhitni shakllantirish haqida, bu borasida maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining maqsadli vazifalari xususida fikr yuritiladi. Bolalar adabiyotining yosh avlodga ta’sirini tahlil qilgan holda, tarbiyasida poydevor vazifasida ekanligi haqida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Bolalar adabiyoti, folklore janrlari haqida, axloqiy tarbiya, ma’naviy tarbiya,milliy qadriyat, nutq madaniyati, fikrlash salohiyati.

Аннотация:
В статье рассматривается современное состояние детского чтения и литературы, вопросы формирования литературной среды, а также целевые задачи воспитателей дошкольных учреждений и учителей начальных классов в этом направлении. Анализируется влияние детской литературы на подрастающее поколение, подчеркивается её роль как фундамента в процессе воспитания.
Ключевые слова: детская литература, жанры фольклора, нравственное воспитание, духовное воспитание, национальные ценности, культура речи, способность к мышлению.

Annotation:
The article discusses the current state of children’s reading and literature, the formation of the literary environment, and the specific tasks of preschool educators and primary school teachers in this regard. It analyzes the influence of children’s literature on the younger generation, emphasizing its fundamental role in moral and spiritual upbringing.
Key words: children’s literature, folklore genres, moral education, spiritual education, national values, speech culture, thinking ability.

“**Birovning bolasini birovning otasi tarbiyalamasin” – degan gap bor. Afsuski, bugun ko‘pchilik o‘zbek bolalari Evropa adabiyoti namunalarini o‘qib katta bo‘lishayapti. O‘zbek adabiyoti sahifalarini Evropa adabiyotiga berib bo‘ldik. Buning oqibati yaxshi bo‘lmaydi**”
Xudoyberdi To‘xtaboyev.

O‘zbek Bolalar adabiyoti jahon bolalar adabiyotining ilgor an’analari ta’sirida rivojlandi. Jahon Bolalar adabiyotining nodir namunalari o‘zbek tiliga tarjima qilindi, „Gulliverning sayohatlari“ (J. Svift), „Robinzon Kruzo“ (D. Defo), „So‘na“ (E.Voynich) kabi jahon adabiyotining nodir asarlari o‘zbek bolalarining ham mulki bo‘lib qoldi. Aka uka Grimmlar, Sh .Perro**,** Pushkin, Tolstoy asarlari va ertaklari bilan ulg‘aydik. Rago-rang yaltiroq qog‘ozdagi rasmli kitoblar kimga yoqmagan!? Haqiqatdan ham Zumraddan oldin Qizil shapkachani, “Ur to‘qmoq”dan oldin Bo‘g‘irsoqni, Laylakvoydan oldin Oltin baliqchani taniganimiz sir emasku…

Bola dunyoga kelganida uning ko‘zlari hali beg‘ubor,qalbi esa oppoq varoq singari bo‘ladi.U hali bu dunyoning qandayligini, yaxshiligini ham yomonligi ham bilmaydi. Ammo aynan shu sof, beg‘ubor qalbiga ilk bor ezgulik urug‘uni sochadigan, mehr va orzu nishini unib chiqishiga turtki bo‘la oladigan sehrli kuch –bolalar adabiyoti ekanligini hanuz anglashni xohlamayapmiz go‘yo.

Bolalar adabiyoti –murg‘ak qalb egalari dunyosiga yo‘l ochadigan sehrli kalitdir. Insonning eng go‘zal, va eng sof davri bu bolalikdir va aynan shu davrda bola atrofdagi hayotni: yaxshilik va yomonlik,do‘slik va razillik, mehr va qahr, rostgo‘ylik va riyokorlik tuyg‘ularini anglay boshlaydi.Bu jarayonda esa ustoz va murabbiylarga bolalar adabiyoti namunalari juda qo‘l keladi.

Aynan bolalar adabiyoti orqali bola yaxshilik bilan yomonlikni, rost va yolg‘onni go‘zallik, mehnatsevarlik, hozirjavoblik, tezkor xulosa chiqarishni o‘rgana boshlaydi. Bolalar adabiyoti — axloqiy va ma’naviy tarbiya vositasidir. Yaxshi asar bolani mehribon, sabrli, adolatli bo‘lishga chorlaydi. Ertak va hikoyalardagi ijobiy qahramonlar orqali bola ezgulik sari intiladi, yomon ishlardan esa tiyilishni o‘rganadi. Har bir kitob bolaning yuragiga nur soladi, qalbini go‘zallikka oshno etadi. Shu fazilatlar mujassamlashgan “ Besh bolali yigitcha”, “ Bir qultum buloq suvi”, “Bo‘sh kelma, Aliqulov”, “ Mungli ko‘zlar” kabi asarlar bola tarbiyasida biz aytib o‘tgan xulq-atvorni shakllanishida ota-ona va ustozlar uchun tayyor qo‘llanma ekanligini biz ustozlar anglagan holda, bolani yoshligidan adabiyot bilan oshno qilishimiz zarur. Zero, bolalar adabiyoti milliy qadriyatlarimizni avloddan avlodga yetkazishda beminnat xizmatchi. Folklorning ayrim janrlarini tarbiyachilar, boshlang‘ich sinf ustozlari bolalarga ilk ta’lim davridanoq tanishtirishsa, parchalar o‘qib berish orqali voqea-hodisalar, obrazlar bilan yaqinlashtirsalar, bolada dastlabki adabiy tushunchalar shakllana boshlaydi. Xalq og‘zaki ijodining ertak, topishmoq, tez aytish, maqol, qo‘shiq va doston kabi turlari xalq donoligining bebaho namunasi ekanligini shuuriga singdiradi. Axir, bola bu janrlar orqali o‘z xalqining o‘tmishini, madaniyatini, qadimiy urf-odatlarini bilib oladi. Natijada unda vatanparvarlik, milliy g‘urur va insoniylik tuyg‘ulari mustahkamlanadi.

Bolalar adabiyoti har bir bolaning tafakkurini va tasavvurini kengaytiradi va boyitadi.Ertak, she’r hikoya yoki turli xil mavzularda yozilgan dostonlar orqali xilma-xil voqealarni, qahramonlarni, hayvonlar va tabiatni his qiladi. O‘zbek kitobxonlarining kattayu-kichiklariga tanish bo‘lgan, barchamiz sevib o‘qigan “Zumrad va Qimmat” ertagida mehnatsevarlik, hallolik, sabr –toqat bilan yomonlik ustidan g‘alaba qozonish g‘oyalari ilgari surilsa, “Bo‘rining tabib bo‘lganligi” ertagida bola tafakkurini hayvonot dunyosi bilan yaqinlashtirilganligini, ”Alpomish” dostonidan mardlik,vatanparvarlik,do‘slik va mehr-muhabbat fazilatlarini o‘rgatganini bevosita guvohi bo‘lganmiz. Bolalar adabiyoti bola nutqi va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinflarda she’r yodlagan yoki hikoya o‘qigan bola so‘z boyligini oshiradi, ifodali, aniq va ravon nutq so‘zlashni o‘rganadi. Bu esa uning kelajakda o‘z fikrini erkin bayon eta oladigan, bilimli shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi. Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, adabiyot orqali bolalarda o‘z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli tushunish ko‘nikmasini o‘stirish, asarlar g‘oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlaydi va bola nutqini sofligini oshiradi.

Quvonarli holatlardan o‘zbek bolalar adabiyotida ayniqsa, adabiy ertak janri rivojlandi. Dastlab, Hamid Olimjonning “Oygul va Baxtiyor”, “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod”, Mirtemirning “Ajdar“, Shukur Sa’dullaning “Uch ayiq“, “Ayyor chumchuq“, Zafar Diyorning “Yangi ertak“, “Toshxon bilan Moshxon“, “Tulkining hiylasi“, Sulton Jo‘raning “Zangor gilam“ va “Qaldirg‘och“ singari adabiy ertaklari xalq og‘zaki ijodi an’analari asosida yaratilgan, shakl va mazmun jihatdan puxta badiiy asarlar hisoblangan bo‘lsa, XX-asrning o‘rtalarida o‘zbek bolalar adabiyoti yanada rivojlandi, bolalar yozuvchilarining safi Nosir Fozilov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Tolib Yo‘ldosh, Farhod Musajonov, Latif Mahmudov va boshqa qalamkashlar hisobiga kengaydi. Mirtemir, Shuhrat, Mirzakalon Ismoiliy, Mirkarim Osim singari kattalar adabiyoti vakillari ham bolalarga atab asarlar yaratdilar. Quddus Muhammadiyning “Tabiat alifbosi“ esa yosh kitobxonlarni ona tabiatga, hayvonot va o‘simliklar dunyosiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalovchi, quvnoq kulgi bilan yo‘g‘rilgan ajoyib adabiyot namunasi bo‘ldi. Har bir davrning ijtimoiy holati adabiy jarayonga ta’sir qilmay iloji yo‘q. Qachonlardir bolalar adabiyotida ko‘proq ma’rifatparvarlik g‘oyalari yetakchilik qilsa, keyinchalik bolalar adabiyotida realistik adabiyot tamoyillari ustuvor bo‘ldi, o‘tgan asr o‘rtalarida bolalar adabiyotida sarguzasht fantastik adabiyot elementlari kuchaydi.

O‘zbek Bolalar adabiyoti taraqqiyotida Mustaqillik arafasi yangilanish davri bo‘ldi. Istiqlol sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy va diniy qadriyatlarning tiklanishi, bolalar adabiyoti namoyandalari ijodiga ham sezilarli ta’sir qildi, ularning asarlarida haqiqiy o‘zbek qiyofasi tasviri yetakchi o‘rin egallay boshladi. H.Imomberdiyev, A.Ko‘chimov, K.Turdiyeva, D.Rajab, O.To‘xtash kabi ijodkorlar sermaxsul asar namunalari bilan bolalar adabiyotiga o‘z hissalarini qo‘shdilar va

qo‘shmoqdalar. Bolalar adabiyotining o‘ziga xosliklari uning qahramoni tasvirida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Bu borada yangi qadam tashlandi, o‘zbek bolasi o‘zbekning farzandi ekanligidan faxrlanish, ulug‘ ajdodlarga munosib bo‘lish ruhidagi, tom ma’nodagi vatanparvarlik g‘oyasi ustuvor asarlarni o‘qish baxtiga musharraf bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti — bu shunchaki kitoblar to‘plami emas, balki ezgulik, donolik va orzular maktabidir. U bolani nafaqat o‘qishga o‘rgatadi, balki hayotni sevishga, mehnat qilishga, insonlarga yaxshilik qilishga chorlaydi. Bolalar adabiyoti ta’sirida ulg‘aygan bola — qalbli nurli, keng fikrli va vatanini sevuvchi inson bo‘lib voyaga yetadi. Shu sababli, har bir oilada kitobga mehr, har bir maktabda bolalar adabiyoti alohida e’tibor bilan o‘qitilishi zarur. Chunki kitob bilan ulg‘aygan avlod — nur bilan ulg‘aygan avloddir.

“Kitob yig‘ish qiyin ish emas, kitobni varaqlash qiyin. Kitobni varaqlash qiyin emas, uni mutolaa qilish qiyin. Kitob mutolaa qilish qiyin emas, o‘qiganingdan xulosa qilish qiyin. O‘qiganingdan xulosa qilish qiyin emas, o‘qiganingni yodingda saqlash qiyin” -degan fikrni yozib qoldirgan hitoy adabiyotshunosi Чжан Чао naqadar haqiqatni aytganini bugungi kun nuqtayi nazaridan ham anglash qiyin emasday tuyuladi go‘yo. Kitob do‘konlariga, ijtimoiy tarmoq sahifalarida biz nomlarini yuqorida qayd etib ketgan shoir, yozuvchilarning kitoblarini topish amri mahol. Davlat bolalar adabiyotiga pul ajratarkan, xuddi ta’lim kabi, kelajak uchun muhim investitsiya qilayotganini anglashi zarur. Bolalar adabiyotini ilmiy va ijodiy jihatdan rivojlantirish uchun davlat dasturlari qabul qilinishi, sohaga yetarlicha pul ajratilishi, bolalar nashrlari uchun soliq imtiyozlari berilishi, mualliflarni rag‘batlantiruvchi tizim tashkillanishi kerak. 2023 yilda Janubiy Koreyada 7.3 mln bola uchun jami 70 mln nusxada kitob nashr etilgan. O‘zbekistonda 10.5 bola uchun jami 8.5 mln nusxada kitob chiqarilgan. Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyotini rivoji va ravnaqi hozirgi kunda davlat siyosati darajasida ko‘rib chiqilsa, bu xususda ilmiy tadqiqot ishlari oiib borilsa maqsadimizga erishgan bo‘lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Bolalar adabiyoti va zamonaviylik, T., 1981;
- Barakayev R., Jonajonim, she’riyat, T., 1997.
- Voronsov.,V Tafakkur gulshani, T.,1981.
- Jumaboyev M.,Bolalr adabiyoti, T.,O‘qituvchi-2001.
- Safarov O., O‘zbek bolalar poetik folklori, T., 1985;
- O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon, T., 1989;

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATIDA QO‘LLANGAN MA’NAVIY SAN’ATLARDA TIL VA BADIIYAT MUSHTARAKLIGI

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Eshniyozova Gulhayo Hamroqul qizi

gulhayoeshniyozova51@gmail.com

- **ANOTATSIYA.** Bu maqolada iste’dodli, mahoratli shoira, go‘zal dunyoqarash va o‘tkir anglash qobiliyatiga ega bo‘lgan ijodkor Halima Xudoyberdiyyeva she’riyatida qo‘llangan birliklarning badiiy-estetik vazifalariga kichik tajribalar yordamida to‘xtatilgan va ilmiy asosdagi xulosalar keltirilgan. Halima Xudoyberdiyeva she’riyatini lisoniy tahlil qilish jarayonida she’riy misralardagi emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklar aniqlandi va ular ijodkorning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilganligi haqida mulohaza yuritish imkoniyati paydo bo‘ldi. Quyida Halima Xudoyberdiyyeva she’riyatining leksik-poetik xususiyatlarini shu asosda tahlil etishga harakat qilamiz.

• **Kalit so‘zlar:** omil, she’r, ijodiyot, linvopoetika, badiiy tasvir, zid ma’noli so‘zlar antiteza birliklar, grammatik vositalar maqol va iboralar, she’riy san’at, lafziy san’at, ma’naviy san’at, harfiy san’at, husni taxallus, raddi matla’ sifatlash, tajnis, tashbeh, tazod.

• **АННОТАЦИЯ**

• В этой статье представлены духовные искусства, используемые в поэзии Халимы Худойбердиевой, талантливой, искусной поэтессы, творца с прекрасным мировоззрением и острым восприятием, и их анализ, а также художественно-эстетические функции этих единиц, которые подвешены с помощью небольших экспериментов и научно обоснованных выводов. В процессе лингвистического анализа поэзии Халимы Худойбердиевой были выявлены лексические единицы, воплощающие эмоционально-экспрессивную семантику поэтических строк, и стало возможным размышлять о том, в какой степени они служили художественно-эстетическому замыслу творца. Ниже мы попытаемся проанализировать лексические и поэтические особенности поэзии Халимы Худойбердиевой на этой основе.

• **Ключевые слова:** поэзия, творчество, лингвистическая поэтика, художественный образ, слова с противоположным значением, антитеза, грамматические приемы, пословицы и поговорки, поэтическое искусство, словесное искусство, духовное искусство, буквальное искусство, красивое прозвище, опровержение объекта, метафора, аллегория, аналогия, сравнение, восклицание, таджахиль-уль-ариф.

• **ANNOTATION**

• Below is an analysis of the artistic arts used in the work of the poet Halima Khudoyberdiyeva, who expressed elegant feelings through beautiful words in verses. But poetic art has not been deeply studied in the work of the poetess and her poems. The main goal of the article is to analyze and reveal the documents of poetic art in the poet's poems, to show the unique place of these poetic arts in the poet's work, and to analyze their content. the analysis is checked.

• **Key words**: poetic art, lafziy art, ma’naviy art, harfiy art, antonym, sifatlash, omonym, tashbeh, tazod.

• Ijodkorlarning faoliyatini ilmiy jihatdan o‘rganish ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik sohasining asosiy vazifalari sirasida qayd qilinadi, bu borada keng qamrovli ilmiy tadqiqot va izlanishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ijodkorning ichki dunyosi, his-tuyg‘ularini namoyon etish xususiyati poetik tilning eng asosiy xarakterli jihatlaridan biridir. Shu bois har bir ijodkorning til birliklariga xos uslubiy, badiiy imkoniyatlaridan foydalana olish, badiiy san’atlar va tasviriy vositalarni fikr va g‘oya maqsadi, mazmuniga mos tarzda xizmat qildira olish uslubi va mahoratiga birlamchi masala sifatida qaraladi.

• Ma’lumki, badiiy san’atlarning yuzaga kelishi til birliklarining asosan uslubiy imkoniyatlari bilan bog‘liq. Badiiy san’at va uning adabiy hodisa sifatida poetik nutq imkoniyatlarini oshirish xususiyatlari o‘zbek adabiyotshunoslari Y.Is’hoqov, Z.Hamidov, A.Rustamov, A.Hojiahmedov, I.Sultonov, T.Boboyev, N.Afoqova kabilar tomonidan keng ko‘lamda tadqiq qilingan.

• O‘zbek tilshunosligida esa badiiy san’atlarning lisoniy, uslubiy xususiyat va imkoniyatlari I.Mirzayev, S.Karimov, S.Boboyeva, G.Rixsiyeva, G.Muhammadjonova, N.To‘lanova kabi tilshunos olimlarimizning monografik tadqiqotlarida tekshirilgan.

• Halima Xudoyberdiyeva ijodi mavzu ko‘lamining kengligi, badiiy san’atlar va turli tasviriy vositalarga boyligi, badiiy so‘z imkoniyatlari yuksak g‘oya uchun xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Xususan, tamsil, husni ta’lil, talmeh, intoq, istiora, tashxis, raddu-us-sadr u al-ibtido, tajohil ul-orif, savol-javob, sifatlash, tashbeh, mubolag‘a, irsoli masal kabi ma’naviy san’atlar, poetik obrazlar, xalqonalikka boy vosita va unsurlar shoira lirikasida alohida o‘rin tutadi. Shoira she’riyatidagi badiiy san’atlar tahlilida A.Rustamov qarashlariga tayanildi.[1,120] Halima Xudoyberdiyevaning she’rlarida ma’naviy san’atlar, metonimiya, sinekdoxa, antiteza, ya’ni zid ma’noli so‘zlar va sinonimik imkoniyatdan, til birliklari va badiiy takrordan foydalanish mahoratining o‘ziga xos jihatlariga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Bilamizki, dastlab badiiy san’atlar mumtoz adabiyotda ravnaq topgan. Mumtoz adabiyot namunalari asosida badiiy san’atlar dastlab umumiy holda o‘rganilgan bo‘lsa, keyingi ilmiy izlanishlarda badiiy san’atning ma’naviy hamda lafziy turlari alohida hodisalar sifatida tadqiq qilindi.

• Shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodi tadqiqi davomida muallifning turli holat va hodisalar, narsalar mohiyatini anglashda takrorlanmas, o‘ziga xos o‘xshatishlar hosil qilinganligining guvohi bo‘lamiz. Ma’lumki, o‘zbek tilida o‘xshatishlar *kabi, singari, yanglig‘, qadar, xuddi, naq, go‘yo, misoli, misli, bamisoli, bamisli, monand, teng, o‘xshatmoq, eslatmoq, demoq, bo‘lmoq, bir, aynan, o‘zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki* va boshqalar leksik vositalar; *-day (-dek), -dak (-tak), -dag‘ (-dog‘), -dayin, -dan, -dir, -namo, -simon, -ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, chalik, -chasiga)* kabilar grammatik vositalar yordamida hosil qilinadi. Quyida shoira ijodiga mansub bo‘lgan tashbeh san’atining yuksak namunalarini kuzatamiz.

Bu dunyoda mening *kabi* g‘amdan barpo yo‘q,
Tog‘*day* g‘amin til uchiga chiqarmas tog‘ yo‘q.
Hech kim men*dek* o‘z ko‘z yoshin selida oqmas,
Yerda men*dek* gurros solib yig‘lar daryo yo‘q. (“Tanlangan asarlar”)

Olma sabog‘i*day* ingichka bo‘yin,
Goh yetib, goh yetmay ko‘rmadik to‘yin.
O‘lmasaydi... buyuk bo‘lardi tayin,
Yig‘im o‘layotgan bolalar uchun! (“Saylanma”)

Shoira she’rlarida tashbeh san’atini hosil qiluvchi *-day, -dek* kabi vositalar o‘xshatish, qiyoslash ma’nosini ifodalash bilan bir qatorda badiiy-estetik vazifa ham bajarib kelmoqda. “Shoirning mahoratini, xususan, uning tasavvur va xayol olamining boy yoki qashshoqligini ko‘rsatuvchi badiiy vositalardan biri o‘xshatishdir. Biror narsa yoki hodisaning xususiyatini shu xususiyati bor boshqa narsa yoxud hodisa orqali tasvirlash *o‘xshatish* yo *tashbeh* deb ataladi”.[2,65] Badiiy san’at turlaridan biri bo‘lgan o‘xshatish san’atida *-dek -day* qo‘shimchalari eng faol hisoblanadi. Shoiraning she’rlarida ham ushbu qo‘shimchalarning faol va unumli qo‘llanishi kuzatiladi.

Taqdir ulaganda umrlar zanjirin,
Nigohda ro‘para bo‘ldik ikkimiz.
Tushunmay yashirin qalblarning sirin,
Hissiz, yo‘l boshidan birga tushdik biz.

Mag‘rur *qushday* erkin edim va lekin,
Shuningdek, senga ham berolmadim qalb.
Tushday o‘tib ketdi bugun hammasi,
Yurakni foydasiz o‘rtamoq nechun.

Nurli *tong* oqarar, *tun* bo‘lar oxir,
Senga tilaklarim shu *tong kabi* oq.
Qiziq, goh baxting ham men uchun og‘ir,
Baxtsizliging esa yana og‘irroq! (“Taqdir ulaganda”)

Ushbu she’rida Halima Xudoyberdiyeva insonlar o‘rtasidagi taqdir va hissiy bog‘lanishlarni teran tasvirlaydi. Jumladan, *taqdir ulaganda umrlar zanjirin* jumlasida umrlarning o‘zaro bog‘liqligini, bir insonning boshqa bir inson bilan bo‘lgan munosabati taqdir tomonidan belgilanganligini ta’kidlaydi. *Nigohda ro‘para bo‘ldik ikkimiz* misrasida ikki inson o‘rtasidagi kuchli hissiy munosabat va uzviylik, nigohlar orqali qalbning anglanishi betakror ifodasini topgan. *Tushunmay yashirin qalblarning sirin* jumlasida esa ichki his-tuyg‘ularning botiniyligi, qalb tubidagi sirlar anglanishining mushkulligi zo‘r badiiy tasviriga ega bo‘lgan. Umuman olganda, she’r sevgi, taqdir va insonlar o‘rtasidagi chuqur, murakkab munosabatlar, shuningdek, insonning taqdirining yo‘rig‘i, hayot noaniqliklari, lirik qahramonning ichki kechinmalari badiiy ifodasidir. *Qushday erkin, tushday o‘tib ketdi, tong kabi oq* birkmalaridagi *-day, kabi* o‘xshatish vositalari tashbeh san’atining yuzaga kelish omili bo‘lib xizmat qilgan. Tajribadan ma’lumki, o‘xshatishda bir predmet yoki harakat-holat belgisi ikkinchi predmetning aniq bir belgisiga qiyoslanadi. Ushbu o‘rinda o‘xshatish, asosan o‘xshayotgan predmetda qoladi. Yuqoridagi birkmalarda *erkin, o‘tib ketdi* o‘xshayotgan predmet, harakat-holat bo‘lib, *qush, tush* o‘xshatilayotgan predmet va harakat-holatdir.

• Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Halima Xudoyberdiyevaning she’riyati o‘ziga xos rang, uslub, ohang va mazmunga ega ijod olami sanaladi. Shoiraning ijod olamini filologik aspektda, tilshunoslikning zamonaviy usullari va yondashuvlari asosida o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar, adabiyot, til, qadriyat va madaniyat sohalarida yangi ilmiy va amaliy imkoniyatlar hamda natijalar taqdim etadi. Ayniqsa, shoiraning she’riyatida til va adabiyot hodisalar uyg‘unligini dalillovchi badiiy she’riy san’atlar tadqiqi ham alohida lisoniy, badiiy, madaniy hodisalar mazmun-mohiyatiga yaqinlashtiradi, til va adabiyotimiz imkoniyatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 120 б.
2.Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 65;
3.Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 127.

ZAMONAVIY ELEKTRON O‘QUV LUG‘ATLAR YARATISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Botirova Adiba Erkinovna-
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada lug‘at tuzishning tarixiy bosqichlari, zamonaviy elektron o‘quv lug‘atshunosligining nazariy va amaliy asoslari hamda elektron lug‘atlar yaratishda qanday tamoyillarga amal qilinishi kerakligi haqidagi soha olimlarining fikr va mulohazalari keltirib o‘tilgan. Til aloqa vositasi va ijtimoiy madaniyatning aksi sifatida so‘z va grammatika shaklida asosiy darajalarga ega ekanligi aks etgan.

Kalit so‘zlar: lug‘at, leksikografiya, bir tilli, ko‘p tilli, elektron o‘quv lug‘atlar, foydalanuvchi, shakl, konsepsiya, zamonaviy texnologiyalar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ЭЛЕКТРОННЫХ СЛОВАРЕЙ

Ботырова Адиба Эркиновна доцент кафедры начального образования, Навоийский государственный университет.

Аннотация. В этой статье представлены исторические этапы составления словаря, теоретические и практические основы современной лексики, а также мнения и мнения ученых отрасли о том, каким принципам следует следовать при создании электронных словарей. Язык как средство общения и отражение социальной культуры имеет базовые уровни в виде слов и грамматики.

Ключевые слова: словарь, лексикография, одноязычие, многоязычие, электротн словари, пользователь, форма, понятие, современные технологии.

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF CREATING MODERN ELECTRONIC DICTIONARIES

Botirova Adiba Erkinovna Navoi State University, Faculty of Preschool and Primary Education, Associate Professor, Department of Primary Education

Annotation. This article cites the historical stages of dictionary construction, the theoretical and practical foundations of modern lexicography, and the opinions and opinions of scientists in the field of what principles should be followed when creating electronic dictionaries. Language as a means of communication and as a reflection of social culture has basic levels in the form of words and grammars. Keywords: dictionary, lexicography, monolingual, multilingual, electrnic dictionaries, user, form, concept, modern technologies.

Ta’lim mazmuni va maqsadi masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Insonlar rivojlanishning har bir davrida nimani o‘qitish kerakligi haqida o‘ylab kelganlar va bu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda. “Ta’lim mazmuni” tushunchasi turlicha talqin qilinadi. I.Y.Lerner va M.N.Skatkin kabi olimlar ta’lim mazmunini o‘rganish uchun tanlangan va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari uchun metodik jihatdan tayyorlangan boy ijtimoiy tajribaning bir

qismi sifatida ko‘rib, boshqa bir guruh olimlar esa bu tushuncha bilan birga o‘rganish usullarini ham nazarda tutadi.

Leksikografiyaning fan sifatida rivojlanishi, birinchi navbatda, mamlakatlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasida iqtisodiy, savdo, madaniy va diplomatik munosabatlarni o‘rnatish uchun aloqa zarurati bilan bog‘liq. Bunday ehtiyoj, o‘z navbatida, tegishli lug‘atlar yordamisiz mumkin bo‘lmagan chet tillarini o‘rganish uchun zarur shart bo‘lib xizmat qildi. Lug‘atlarga bo‘lgan talab ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan madaniyatlararo aloqa zarurati bilan birga paydo bo‘ladi. Binobarin, lug‘atlarni tuzish amaliyoti qadimgi davrlardan kelib chiqqan va shu kungacha davom etmoqda, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan takomillashtirish. Shunga ko‘ra, u kengayadi va miqyosi, zamonaviy jamiyat hayotining turli sohalarida o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan lug‘atlarni tuzish usullari optimallashtirilgan. Shu ma’noda lug‘atlarni hayotning moddiy va ma’naviy tomonining keng ko‘lamli ifodasi sifatida ko‘rish mumkin alohida madaniyat va nomlangan qadriyatlarni keyingi avlodlarga o‘tkazish usulidir. Elektron Grammatik o‘quv lug‘atlar garchi foydalanuvchilar doirasida anchayin mashhur bo‘lsa-da, biroq olimlar orasida ushbu leksikografik mahsulotning dizayn bosqichlari haqida yagona nuqtayi nazar, yagona yondashuv yo‘q. Boshqacha qilib aytganda, o‘ziga xos texnik echimlarni o‘z ichiga olgan elektron lug‘atlar yaratish bosqichlari batafsilroq bayon etilgan bo‘lib, aksar hollarda lug‘at tuzish ma’lum bir nazariya emas, balki mavjud dasturiy qobiq orqali amalga oshiriladi. E’tibor qilish kerakki, lug‘atni yaratish talablari juda muhim bosqichlardan oldin keladi. Xususan, har qanday lug‘atni tuzish analitik bosqichdan boshlanishi kerak. Bu ma’lum bir sohada leksikografik mahsulotlar maydonidagi haqiqiy vaziyatni va foydalanuvchilarning zaruriy ehtiyojlarini tahlil qilish, yangi lug‘atni yaratish dolzarbligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash, uning parametrlarini tanlashga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish jarayonini qamrab oladi. Lug‘at parametrlariga va uning yaratilish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar orasida leksikografik va tashqi faktorlar mavjud bo‘lib, bunda birinchi faktor lug‘at foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq sanalsa, ikkinchi faktor haqiqiy sharoitlardan kelib chiqqan holda lug‘at loyihasini yaratishni taqozo etadi. Elektron lug‘at leksikografik obyekt sanalib, shuning uchun uni yaratishda leksikografik birliklarni ta’riflashning umumiy tamoyillari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, V. Dubichinskiy leksikografik tavsifning besh asosiy tamoyilini ajratadi. Bular quyidagilar: 1) leksikografik asarlarning uzluksizligi – ma’lum bir lug‘at materialining bayoni doimo mavjud leksikografik an’analarga asoslanadi; 2) lug‘atlar yaratishda subyektiv omil alohida ahamiyat kasb etadi; 3) o‘zgarmas pragmatizm bilan bog‘liqlik; 4) so‘z turkumlarini tanlashda normativlikka asoslanish; 5) leksikografik asarlarning nazariy va amaliy xilma-xilligi. Har qanday lug‘atni loyihalashda muhim tipologik parametr funksional shartlilik hisoblanadi. V.Tabanakova va M.Kovyazinalarning fikricha, lug‘atda dominant parametr to‘rtta universal vazifani aks ettiradi: yozuv (axborot), tizimlashtirish, o‘quv va normativlik (5,176). V.Shirokovning qayd etishicha, an’anaviy tarzda lug‘at yozuvi kamida ikki komponentli hisoblanadi, ya’ni u registr (chap) va interpretativ (o‘ng) qismlardan iborat bo‘ladi. Chap yoki ro‘yxatga olish leksikografik qism bo‘lib, odatda, leksikografiya obyekti bo‘lgan tilning har qanday birligi bu qismni aks etirishi mumkin. Bunday lug‘aviy birliklar majmuyi uning registrini belgilaydi. Lug‘at yozuvining o‘ng qismining tuzilishi va mazmuni lug‘at turiga bog‘liq bo‘ladi: u tegishli ro‘yxatga olish birligining lingvistik tavsifini beradi (uning ma’nosi, boshqa tillarga tarjima qilish, leksik, grammatik xususiyatlar va b.q.) yoki nimani anglatishi haqida turli xil ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi (2, 12). Lug‘atdagi ro‘yxatga olish birliklari ko‘plab tarkibiy va semantik aloqalar bilan bir-biriga o‘zaro bog‘langan bo‘ladi va birgalikda tuzuvchilarning maqsadlarini amalga oshiradigan muayyan tizimni tashkil qiladi. Bundan tashqari, har qanday lug‘atning lug‘at maqolalari bir xil turdagi leksikografik tuzilmalarni tavsiflash uchun o‘xshash sxemalarga ega bo‘lishi kerak. Ro‘yxatga olingan birliklarni tavsiflash qoidalari, metodlari va vositalari tizimi lug‘atning asosini tashkil etadi. Shunday bo‘lsa-da, V.Shirokovning ta’kidlashicha, lug‘at yozuvining “chap” va “o‘ng” qismlari atamalari shartli hisoblanadi, chunki lug‘atlarning ayrim turlarida registr va interpretatsiya qismlari tuzilmalari elementlarining “almashinishi” yoki “aralashishi” uchrab turadi (2,13). N.Sivakova elektron lug‘atning gipermatnli tuzilishi “kompozitsion” atamasining an’anaviy tushunchasini qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi, deb hisoblaydi. Elektron lug‘at kontekstida kompozitsiyani lug‘at menyusi yoki interfeysi deb atash

mumkin. Ammo bu kompozitsiyani faqat “tashqi” identifikatsiyalash bo‘lib qoladi. Foydalanuvchi shaxsiy so‘rov yordamida lug‘atn ing axborot zonalarini faollashtirish orqali o‘zining kompozitsion echimini yaratishi mumkin (6,15). I.Kudashevning so‘zlariga ko‘ra, lug‘at tarkibini shakllantirishni mikrostatlar – lug‘at birliklari yoki ular haqidagi ma’lumotlar qismini to‘g‘ri loyihalash orqali boshlash tavsiya etiladi. Bunda yaratuvchi mikrostatlarning tasnifini tuzadi, ularning mazmuni va tuzilishini loyihalashtiradi va ularni birlashtiradi. Tarjima korrespondensiyalari bo‘lgan lug‘aviy birliklarning mikrostatlari ko‘p tilli lug‘atda lug‘atga kirishning juda ko‘p turini hosil qiladi (1, 364). Leksikograf V.Dubichinskiy ham lug‘atga kirishni lug‘atning eng muhim qismi deb hisoblaydi. Lug‘atning mikrostrukturasi yoki murakkab lug‘atga kirish modeli quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olishi mumkin: bosh birlik (so‘z, ibora, morfema, frazeologiya va b.q.), grammatik xususiyatlar (nutqning bir qismi, jinsi, soni va h.k.), fonetik xususiyatlar (transkripsiya, intonatsiya), birlikning semantikasi (talqin, ta’rif, tarjima ekvivalenti, sinonimlar), frazeologik o‘xshashliklar, so‘z shakllanish xususiyatlari, etimologik va tarixiy xususiyatlar, foydalanish illyustratsiyalari (iboralar, jumlalar, kotirovkalar), leksikografik belgilar (grammatik, semantik, uslubiy, emotsional-ekspressivlik, xronologik), referatlar, ensiklopedik ma’lumotlar (3, 44). E.Karpilovskaya elektron (kompyuter) lug‘atning maqola tuzilmasini unda tasvirlangan til obyektlari haqidagi ma’lumotni lug‘atda aks ettirish, joylashtirish va grafik tasvirlash modeli deb hisoblaydi. Til ma’lumotlarini dasturiy joylashtirish prinsipi moslashuvchan model bo‘lib, unda har bir axborot turiga alohida qism beriladi va bunday qismlarning mavjudligi (yoki aksi) juda muhim sanaladi. Bunday formatni ishlab chiqish ma’lumotlar bazasi va leksikografik protsessorni yaratish bilan birga, elektron lug‘at tuzish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi (7, 49). L.Belyayevaning fikricha, elektron lug‘at ma’lumot lar bazasi bo‘lib, unda har bir maqola guruhlashtirilgan matn sifatida taqdim etiladi. Bunday lug‘at qat’iy tuzilishi va ma’lumotlarni ifodalashning yuqori darajada rasmiylashtirilishi lozim (4,167). Elektron lug‘atlar nisbatan yangi hodisa bo‘lib, u tez rivojlanmoqda va keng foydalanuvchilar orasida mashhurlikka erishmoqda (1, 88). Elektron lug‘atlarni yaratishning nazariy va amaliy jihatlari allaqachon ko‘plab zamonaviy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, tarixiy jihadant Alchina A., balog V., Baranov A., Belyaeva L., Dubichinskiy V., Karpilovskaya E., Kupriyanova E., Marchuk yu., Palkova A., Pastor V. va boshqalarning asarlarida yoritilgan asarlari alohida e’tiborga loyiqdir. Kompyuterlar lug‘atlarni yaratishda qo‘llanila boshlagandan so‘ng, elektron kompaniyalar tarjima qilish uchun cho‘ntak gadjetlarini ishlab chiqish ustida ishlay boshladilar. Foydalanuvchilarga mo‘ljallangan interfeyslarga ega bo‘lgan birinchi elektron “lug‘atlar” (LK-3000 va Kreyg M100) texnik jihatdan ko‘chma elektron kalkulyatorlar va shaxsiy raqamli yordamchilarning avlodlari edi. 1976 yilda ishlab chiqilgan LK-3000 yoki Lexicon, va «Elektron lug‘at va til tarjimoni» sifatida patentlangan ekranda ingliz va boshqa bir qator tillarning (fransuz, nemis, yunon, italyan, ispan) so‘zlari o‘rtasidagi yozishmalarni namoyish etdi. Keyinchalik, Internet juda ko‘p miqdordagi axborot resurslarini joylashtirishning yana bir markaziga aylandi. Dastlab, lug‘atlarni ishlab chiqishga katta mablag‘ sarflagan noshirlar o‘z mahsulotlarini internetda bepul tarqatishni xohlamadilar. Bundan tashqari, tadqiqotchilar onlayn almashish lug‘atlarining qog‘ozga nisbatan ishonchsizligini ta’kidladilar, chunki hech kim onlayn lug‘atlar taqdim etgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgar emas edi va veb-manzillar va sahifalar tarkibi doimiy ravishda o‘zgarib turardi. Onlayn lug‘atlar sonining ko‘payishi va sifatining yaxshilanishi qisman o‘zlarining onlayn mahsulotlari uchun haq olishni boshlagan yoki ularni jalb qilish uchun marketing vositasi sifatida qo‘llagan noshirlar siyosatining o‘zgarishi (CD yoki matnga elektron kirishni sotib olish - Oxford English Dictionary Online, Cambridge Dictionaries Online va boshqalar) bilan bog‘liq edi. Ko‘pgina nashriyotlar uchun umumiy amaliyot turli formatlarda o‘z lug‘atlarini taklif qilish edi: qog‘oz, disk, onlayn. 2000-yillarning boshlarida yuqori tezlikdagi keng polosali texnologiyalardan foydalanish ko‘plab oddiy foydalanuvchilar uchun ma’lumot olish imkoniyatini kengaytirdi. Internetda lug‘atlarni rivojlantirishning yana bir tendentsiyasi ko‘p funktsiyali ko‘p tilli bepul to‘ldirish lug‘atlarini yaratish edi. Birinchi Wiktionary 2002 yilda ingliz tilida yaratilgan, uning sxemasi bo‘yicha boshqa tillarning lug‘atlari yaratilgan Shunday qilib, tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, dastlab kompyuterlar faqat lug‘atlarni tuzish jarayoniga yordam berishdi, so‘ngra qog‘oz ma’lumotlarini kompyuter muhitiga o‘tkazishga yordam berishdi va nihoyat elektron lug‘atlarni «noldan» tuzish uchun asos bo‘lishdi (3, 45). V. Pastor va A. Altsina bilan bugungi kunda

terminologiya tarjimonlar ishining asosiy omili ekanligiga rozi bo‘lish kerak. Ixtisoslashgan sohalarning rivojlanishi fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan o‘sib bormoqda va tarjimonlar matnning yuqori darajadagi ixtisoslashuvi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishlari kerak. Ushbu bozor talablari tarjimonlar nima uchun o‘zlarining terminologik ehtiyojlarini tez va samarali qondirish uchun resurslarni qidirayotganliklarini tushuntiradi (4, 77). Demak, elektron lug‘at yaratish ichki va tashqi aloqalar yig‘indisidagi murakkab tizimni loyihalash va uning tarkibiy qismlarini tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Shuning barobarida, ayni paytda elektron lug‘atni loyihalash bosqichlarining yagona qat’iy tizimi mavjud emas. Shuningdek, elektron lug‘at tuzishning muhim bosqichlari texnologik va konseptual bo‘lib, bu tuzuvchidan alohida ahamiyatli yondashuvni talab qiladi. Aks holda zamonaviy leksikografiya talablariga javob bermaydigan mahsulot yaratilishiga olib kelishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, ta’lim jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan elektron lug‘atlar ishlab chiqishda o‘ta do lzarb bo‘lib, tahliliy va konseptual bosqichdagi har qanday e’tiborsizlik, ehtiyotsizlik ta’lim resursidan foydalanishda didaktik tamoyillarning buzilishiga olib keladi.

Ijtimoiy hayotning soha va jabhalari keng, fan va texnika, sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlari ko‘p, ularning har biri juda ko‘plab o‘ziga xos hodisa va voqeliklarga boy, jamiyat, insoniyat, ilm-fan taraqqiyoti bilan uyg‘un holatda o‘zgarib, yangilanib, taraqqiy etib boradi. Bu holat tilning leksik qatlamida, xususan, maxsus leksikasida ham o‘ziga xos birliklar – termin va atamalar orqali o‘z ifodasini topadi. Har bir sohaning tushuncha va hodisalarini ifodalashning birlamchi vositasi so‘z/terminlar, ular tilning leksik tizimida alohida terminosistemalarning shakllanishi va tarkib topishida eng muhim omil sifatida xizmat qiladi. Kasb-hunar terminlarining o‘quv lug‘ati bo‘lmagani sababli umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilar, sohalarga doir terminlarni yetarli darajada o‘rgana olmaydi. Shu ma’noda, milliy til korpusiga mos holda grammatik terminlari o‘quv lug‘atini ham tuzish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кудашев И. С. проектирование переводных словарей специальных словарей. Хельсинки, 2007.

2. Лингвистико-информатические студии: Прази украинского мовноинформатического Фонда Национальной академии наук Украины: 3-jild. лексикография Тлумачна. Книга 1. Киев, 2018.

3. Дубичинский В.V. Лексикография: навч.- метод. постиб. Харкив: НТУ «ХПИ», 2012.

4. Беляева Л.N. Автоматизированная лексикография и потенциал прикладной лингвистики // Известия А. I. РГПУ имени Герцена. 2010.

5. Табакова В.D., Ковязина М.А. Функциональная модель переводной специальной лексики. 2006. 6. Сивакова Н.А. Лексикографическое описание английских и русских фитонимов в електронном словаре: Автореф. дисс. К.ф.н. Тюмень, 2004. 7. Карпиловка Е.А. Введение в прикладную лингвистику: компьютерная лингвистика: учебное пособие. Донецк, 2006.

ABDULLA QODIRIY HAJVIY RUHDAGI ASARLARIDA NASRIY QOFIYALARDAN FOYDALANISHI

Pardayeva Madixabonu Xakimovna –
Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi,f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Abdulla Qodiriy hajviy ruhdagi asarlari kinoyaviy xarakterda bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodiga doir dostonlarda uchraydigan nasriy qofiya, ya’ni sa’jdan foydalanilganligi ham alohida ta’kidlanishi misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: hajv, lisoniy, kulgu, tasviriy ifodalar , lof, mubolag‘a, maqola, ko‘chma ma’no, nominativ ma’no , figural ma’no

Аннотация. В статье на основе примеров анализируется использование Абдуллой Кадири специальных лексических ресурсов нашего языка в его юмористических произведениях.

Ключевые слова: юмор, лингвистический, смех, образные выражения, похвала, преувеличение, статья, переносное значение, номинативное значение, фигуральное значение.

Annotation. In the article, it is analyzed based on examples that Abdulla Qodiriy used special lexical resources of our language in his humorous works.

Key words: humor, linguistic, laughter, figurative expressions, praise, exaggeration, article, figurative meaning, nominative meaning, figurative meaning

Qodiriydan ma’lum qilinishicha, “...tanqidning ikkinchi xili bo‘lg‘an hajviyni (satira ma’nosi bilan) ommaviy deyilsa bo‘ladir. Chunki kulki tanqid-turmush bo‘lib uchquchi burgutdir. Hayot sharoitiga yaramag‘an zaif, qizg‘anch, manfur, muzir va shuning singari unsurlar unga yemdir. Hajviy tanqid avomning ruhiga yaqin va uning his etkan, ammo ifoda qilaolmag‘an masalalariga tarjimondir.

Qodiriy hajviy asarlarida joy nomlari ham kishida kulgu uyg‘otish, asar qahramonining qiyofasini aniq tasvirlash maqsadida o‘zgartirib berilgan, nazarimizda. *[Bu zot diniy bir olim bo‘luv ustig‘a siyosatdan ham xabarsiz emas edi. Amrika, Girmoniya, Ongliya,* Yapo‘niya, *Faransiya, Belgiya, shuning kabi har davlatlarni yodlab bilar edi. Bunlarning hunarlarigacha ayrim-ayrim ajratar edi]* shuningdek, asar qahramoni tasavvurida dunyoning lisoniy manzarasi ham qanday aks etganini hajv aralash ta’sirli bayon qilgan. *[Masalan, Amrika, o‘zi faranglarning bir tabaqasi, ya’ni qabilasi. Hunari: amirkon teri ishlaydir. Amirkon paxtani ham shu chiqarg‘an. Girmoniya to‘b to‘pxona, urush aslahalarini ishlaydir. Osmon popurini ham shu kofir chiqarg‘an. Ongliya – bu juda hunarmand, lokin o‘zining yer yuzinda joyi yo‘q. Ammo dengizga shaharlar bino qilg‘an. Shuning uchun dengizlar podshosi deb aytadirlar. Farantsiya yoki Farang – bu o‘zi mayda-chuyda ishlarga juda ham usta bir kofir; farangi igna, moshina, farangi ibi, gramafon, nag‘ma va shunga o‘xshash allaqancha ajoyib, g‘aroyib narsalarni chiqargan. Yapo‘niya – o‘rusdan Po‘rtortirni olg‘an... Ana bunlar endi chet qironlar to‘g‘risida bilgan siyosati. O‘zimizning yaqin qironlardan, masalan, Xitoy, Turkiya, Buxorolar haqqinda yetti yoshliq vaqtindan beri ma’lumoti bor. Xitoy – hunari xitoy qog‘oz, ipak jujum, jonon piyola... Nufusi juda ham ko‘b, na hisobda, na kitobda bor.][1]* Mazkur tavsifdan ham ma’lum bo‘lib turibdiki, Abdulla Qodiriy o‘zining hajviy ruhdagi asarlarida tilimizning alohida maxsus leksik boyliklaridan foydalanadi. Muallif hajviy asarlarida tasviriy ifodalardan ko‘proq foydalangani ko‘zga tashlanadi:

[Samarkentni olmoqg‘a qo‘shun tortg‘anda yo‘l ustida daryoyi Nilmi, Jayhunmi degan bir daryog‘a to‘g‘ri kelar ekan. Daryoni ko‘pruksiz ko‘rganda ijrg‘amig‘a kelturmay cherigini suvg‘a bosib odamdan ko‘pruk qilib o‘tub ketar ekan. Mana, ko‘bligi shuncha ekan!! Turkiya – yer yuzining sultoni, ahli kuffordan boj xiroj oladir.][2] Mazkur parchadan ham ko‘rinib turibdiki, Abdulla Qodiriy tasviriy ifodalardan tashqari lof, mubolag‘alardan ham unumli foydalangan. Xususan, “*Daryoni ko‘pruksiz ko‘rganda ijrg‘amig‘a kelturmay cherigini suvg‘a bosib odamdan ko‘pruk qilib o‘tub ketar ekan*.”, degan jumla har holda haqiqatdan ancha uzoq ekanligi o‘quvchiga ma’lum. Yana ta’sirchanlikni oshirish uchun quyidagi mubolag‘a ham qo‘llanilgan: *[Qahru -g‘azabidan zaminu-zamon, makinu makon titraydir.]*

Abdulla Qodiriyning o‘quvchida kulgili kayfiyat uyg‘otadigan, kuchli ta’sir qiladigan betakror o‘xshatishlari bor. *[“Ovozi tojik”ning tilagicha adovatimiz manashu ikki yo‘sin tabiiy ravishda ho‘kizning shoxidek o‘sib chiqqandir.] (704-bet)*

Yozuvchining 1926- yilda nashr qilingan “Mushtum” jurnalining 24-sonidagi “Burun va hozir” nomli maqolasi ham uning hajv ustasi ekanligini tasdiqlaydi. Maqola matnining dastlabki jumlasidan kulgu uyg‘otuvchi leksemalarning qo‘llanilishi muallifning maqsadini anglatib turadi. [*Har bir zamonning o‘z oldig‘a och devonalari, dambalsiz sharmandalari bo‘lg‘anidek, ikkinchi tomonda shahzoda va kiromandalari ham bo‘ladir*.] Bizning hozirgi kunimizda aksar misolni o‘z kasbimizdan olsaq muxbirlar borki, bir-ikki so‘m oladirg‘an gonorari (qalam haqqisi) uchun ertadan kechkacha idoradan idoraga, chuqurdan chuqurga tushib, itdek horib, o‘sha peshona terisi bo‘lg‘an uch yarim paqirni ham janjal va ovoragarchiliksiz ololmaydir. Yozg‘uchilarimiz borki, erta-yu kech matbaalarning taq-tuqi, qo‘rg‘oshinlarning zahri, baxtsizlikning qahri ostida ishlab, kezi kelganda non, deb kesak tishlaydirlar va idoralar marhamatidan har o‘n besh kunda bellariga tugib berilgan besh-o‘n tangani ham ko‘pincha uyga yetkuncha yo‘lda tushurib qo‘yadirlar.

Odamlar borki, mo‘ylabini burab, qornini silab, huzur va halovat deganingni ikki yamlab bir yutqani holda yana oyig‘a faloncha chervonni beliga tuflab tugadir.

“Til taraqqiyotining o‘rganilayotgan bosqichiga mansub leksik ma’no hozirgi leksik ma’no deyiladi. Masalan, ko‘z leksemasining yuqorida tasvirlangan ma’nolari o‘zbek tilidagi hozirgi leksik ma’nolardir.

Hozirgi leksik ma’nolar bosh ma’no va hosila ma’no, to‘g‘ri ma’no va ko‘chma ma’no, nominativ ma’no va figural ma’no deb bir necha nuqtayi nazardan tasnif qilinadi. Bu tasniflar biri ikkinchisini istisno qilmaydi, balki ayni bir hodisaga har xil yondashishni aks ettiradi. Leksik ma’noning yuqoridagicha turlari ko‘p ma’noli leksemalar asosida belgilanadi.”[3]

Bu o‘rinda yozg‘an gaplarimizning munosabati shunga bog‘likdirkim, idoramizga namanganlik “G‘iq” rafiqimiz o‘tkan asrning Qo‘qon shoirlaridan marhum Abdurazzoq devonaning o‘z asrining shahzodasiga salla so‘rab yozg‘an bir parcha tutalini yuborib “shuni jurnalingizga bossangiz ekan, aslidan ko‘chirib yubordim” deydir. Biz tutalni o‘qub chiqdiq va bobomiz devona marhumning fojiasi ko‘z o‘ngimizda gavdalandi.

[Mehnatkash yelkasida kun ko‘rguchi “baxtlilar” shoirning muhtojligidan isti’foda qilib, uning talantini o‘z kayflariga, ermaklariga qurol qilg‘anlar va o‘zini “devona”lar qatorig‘a kiritkanlar.][4] Ajratib ko‘rsatilgan leksemalar mazkur matn mazmuniga, nutqiy vaziyatga nisbatan teskari bo‘lgan holda kinoyaviy ma’no hosil qilmoqda.

Quyida keltiradigan matn butunlay kinoyaviy xarakterda bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodiga doir dostonlarda uchraydigan nasriy qofiya, ya’ni sa’jdan foydalanilganligi ham alohida ta’kidlanishiga arziydi. [*Ularning arzimag‘an in’omlari va ehsonlari uchun ko‘ringiz bechora bobo nimalarni yozadir: “Sayyidim, tojisarim, nuktarasim, axdi qadim bandaga bir salla karam qilg‘an edilar, magaram xotiri ashraflaridan mahv o‘lub ketkan uchun yodi muborakka solay, deb bahri tavil ayladim insho: Malikai dodi raso, muhtashamo, onglaki, kallamdagi sallam titilib qiymay-u parcha qiyilib, ilma uloq, laxlax-u ravzan, ko‘zaning teshigi, ugra yuvuq, burda chuviq, ko‘hna kafandek chirigan, eski yamoq solg‘ali bo‘lmas, yaramas ham suzuk, afsurda tugun, zo‘rg‘a turgan, kuya urgan, chirigi xo‘rda nadomat, ipi chandima chiltari gadodek o‘ralib, balki yuzuboshimg‘a tushib, sufra-sochug‘dek osilib, bu erta-yu kech bodi sabo qiladir.*][5] Mazkur namunada ma’no ko‘chishning metafora, metonemiya kabi turlari ham faol qo‘llanilgan. Ayniqsa, tashbehning bir necha namunalari noyob o‘xshatish orqali ifodalangan.

Devona so‘zi aqldan ozgan, savdoyi, darbadar, oshiq, majnun kabi ma’nolarni nutq vaziyatiga ko‘ra ifodalaydi. Quyidagi jumlalarda devona o‘z va ko‘chma ma’nolarda ifodalanmoqda: (*Shahzodaning eski sallasini so‘rab bahri tavil insho qilgan Abdurazzoq devonaning holi bilan bu kungi “devonalarimiz” orasida bo‘lsa ozg‘ina farq bordir. Ul ham Sho‘rolar hukumatining keyingi “devonalar” turmishini tuzatish niyatidaligi.*)[6] Shu o‘rinda Abdulla Qodiriyning hajviya haqidagi mulohazalariga ham munosabat bildirish lozim. Adibning ta’kidlashicha, adabiyot dunyosida ikki turlik tanqid bor; jiddiy tanqid va hajviy tanqid. Jiddiy tanqid o‘zining kuzatkan nishonasi ustida o‘zgarishlar yasasa ham ammo ko‘pincha avomga majhulroq bo‘lib o‘tadir. Aytish mumkinki, jiddiy tanqid bahs qiling‘an masalaning o‘z ahliga, ya’ni yuqori tabaqa – ziyolilarga maxsus kabidir. Undan so‘ng jiddiy tanqid turmushning har bir burchagiga kirib yurish uchun ham tanazzul etolmaydir. Bu jihat bilan qaralsa-da, u ommaviylik xususiyatidan yiroqdir.

Bizning kulguligimizning o‘z oldig‘a bir muncha tarixi bo‘lsa ham, ammo yangi hajviyotimiz o‘zining chin negizini hali sola olg‘an emas. Zero, O‘ktabr ijtimoiy inqilobining turtuti bizni intiboh ko‘chasiga tomon uyqusiratti. Onadan tug‘ma turlik sohalarda ish ko‘ra boshladiq. Shuning uchun-da, biz bu kungi hajviyotimizda keskinlik ko‘rolmaymiz, “Mashrab” va “Mushtum” kabi kulki majmualarimiz hajviyotda uncha chuqurlasha olmaydilar. Biroq, shuni aytish kerakkim, ular shu asosning ketmonini chopquchi va istiqbol hajvkashlarining undovchisidirlar”[7]. Umuman, adibning hajviya va uning turlariga bergan ta’rifi boshqa shu kabi ta’rifu tavsiflarni to‘ldiradi.

Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida o‘zbek tili lug‘at tarkibida berilmagan, ammo bugun faol foydalansa bo‘ladigan sof o‘zbekcha so‘zlardan, qo‘shimchalardan foydalangan. Ayniqsa, hajviy asarlarida o‘zbekcha so‘zlar nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu o‘rinda ham yozuvchi

qahramonning xarakterini ochib berish maqsadida zarur bo‘lganda o‘zlashma so‘zlardan ham foydalangan. Uning hajviy asarlarida qo‘llangan o‘zlashma so‘zlarni ham alohida o‘rganish zarurati mavjud.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1.Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 35.

2.Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 30.

3.Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 64.

4.Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: ”Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б.705.

5.Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: ”Sharq” нашриёт –матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б.707

6.Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: ”Sharq” нашриёт –матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б.708

7.Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 41.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA’LIMNING RIVOJLANISHI

Bo‘riyev Ibrohim Salohiddin o‘g‘li –
Navoiy innovatsiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so‘ng amalga oshirilgan islohotlar, jumladan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ikki bosqichli ta’lim tizimining joriy etilishi natijasida oliy ta’lim sifatining oshishi yoritilgan. Shuningdek, ta’limda innovatsion yondashuvlar, sifatni boshqarish tizimi hamda xalqaro hamkorlikning kuchayishi mamlakat taraqqiyotida muhim omil sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, islohotlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim sifati, innovatsiya, xalqaro hamkorlik.

РАЗВИТИЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В статье анализируются процессы формирования и развития системы высшего образования в Республике Узбекистан. Рассмотрены реформы, проведённые после обретения независимости, включая Национальную программу подготовки кадров и внедрение двухуровневой системы образования. Отмечается рост качества высшего образования, развитие инновационных подходов, системы управления качеством и усиление международного сотрудничества как важные факторы прогресса страны.

Ключевые слова: высшее образование, реформы, Национальная программа подготовки кадров, качество образования, инновации, международное сотрудничество.

DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: The article analyzes the formation and development of the higher education system in the Republic of Uzbekistan. It examines the reforms implemented after independence, including the National Program for Personnel Training and the introduction of a two-tier education system. The study highlights the improvement of education quality, the application of innovative approaches, the development of quality management systems, and the strengthening of international cooperation as key factors contributing to the country's progress.

Keywords: higher education, reforms, National Program for Personnel Training, education quality, innovation, international cooperation.

Kirish. Jahonda ta’limning globallashuvi va axborotlar oqimining tezkor rivojlanishi jarayonlarida oliy ta’lim muassasalarining transformatsiyasi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. YUNESKO ning oliy ta’lim kvalifikatsiyalarini tan olish to‘g‘risidagi “Global konvensiyasida” oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning innovatsion rivojlanishini ta’minlash oliy ta’lim muassasalaridagi transformatsion jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligi alohida qayd etiladi. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, ta’limdagi innovatsion jarayonlar hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan transformatsion jarayonlarni taqazo etmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida oliy ta’lim muassasalarining innovatsion salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy ta’lim kampusi sifatidagi ijtimoiy-madaniy mavqeini mustahkamlash, kreativ-ilmiy infrastrukturasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur jarayonlarda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalari transformatsiyasining tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarini yaratish, raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash hamda sifat menejmenti tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta’lim dargohlari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish, raqamli ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish asosida bilimlar transferini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biri – oliy ta’lim tizimini isloh qilish va uni jahon ta’lim makoniga integratsiyalashdir. Ushbu jarayon zamonaviy talab va ehtiyojlarga javob beradigan, xalqaro standartlarga mos, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan, ilm-fan va innovatsiyaga tayanadigan oliy ta’lim modelini yaratishni nazarda tutadi. Raqobatbardosh iqtisodiyot va fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida oliy ta’lim sohasi nafaqat mutaxassis tayyorlovchi tizim, balki ijtimoiy taraqqiyot, texnologik yangilanish va intellektual salohiyat markaziga aylanishi lozim.

Metodologiya

Mamlakatimizda oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni tasdiqlandi. Ushbu Farmonga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi.

Shunindek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta’lim kengashi tashkil etildi. Bugungi kunda ushbu Kengashlar faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilib, professor-o‘qituvchilar, talabalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Muhokama

Oliy ta’lim tiziming isloh qilinishi va xalqaro integratsiya ta’lim tizimini modernizatsiya qilish orqali raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib chiqarish, shu yo‘l bilan O‘zbekiston sohalarini rivojlantirish hamda iqtisodiyotni o‘stirish vazifasi bugungi kunda o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu maqsadni amalga oshirish yo‘lida esa oliy ta’lim muassasalarini transformatsiyalash zarurati vujudga keladi.[1:7]

Transformatsiya (ingl. transformation) bu ma’lum bir ijtimoiy-madaniy birlashma yoki yaxlitlikning krizisga uchrashi natijasida uning tashqi ta’sirlar natijasida yangitdan paydo bo‘lishi va rivojlanishi sifatida tushuniladi. Ta’limdagi transformatsion jarayonlar esa, ta’lim jarayonlarini modernizatsiyalash, ilg‘or xorijiy tajribalar, innovatsion yondashuvlar vositasidagi yangilanish,

o‘zgarish jarayonlari sifatida tushuniladi. Oliy ta’lim muassasasi transformatsiyasining ijtimoiy-pedagogik zaruratini asoslaydigan muhim komponentlardan biri ham ta’lim sifati va ta’lim sifatini boshqarish bilan bog‘liq jarayonlarning asosi ta’limdagi innovatsion jarayonlar sanaladi. Oliy ta’lim muassasasidagi innovatsion jarayonlar esa o‘z navbatida quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Ta’lim oluvchilar uchun ijtimoiy-madaniy qadriyatlar tizimining shakllanganligi, ta’lim mazmunining shaxsga va ehtiyojlarga yo‘nalganligi.

2. Ta’limning ekotizimlarga (davlat, jamiyat, ishlab chiqarish, ijtimoiy institutlar va boshq.) tezkor moslashish darajasi, barqaror rivojlanish maqsadlariga yo‘nalganligi, ta’lim sifatini doimiy (uzluksiz) ravishda takomillashtirib borish zarur.

3. Oliy ta’lim muassasalarining faoliyat yo‘nalishlari va ta’lim xizmatlari traektoriyasining kengayishi, diversifikatsiyasi hamda globallashuvi. Umuman olganda, jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishi bilan universitetlar funksiyalarining rivojlanish jarayonlari ham ma’lum bir tendensiyalarga ega bo‘lgan holda vaqt o‘tishi bilan ular o‘zgarib va takomillashib borgan va bu holat hozir ham davom etmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari tizimidagi islohotlar haqida so‘z borar ekan, **ta’lim dasturlarining yangilanishi va kompetensiyaviy yondashuv** borasidagi o‘zgarishlarga ham to‘xtalib o‘tish joiz. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim dasturlarini zamon talablari asosida yangilash va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanmoqda.[2:4-5] An’anaviy bilimga asoslangan, asosan nazariy yondashuvga tayangan ta’lim modelidan voz kechib, amaliyotga yo‘naltirilgan, ko‘nikma va kompetensiyaga asoslangan, zamonaviy metodlar bilan uyg‘unlashgan tizim bosqichma-bosqich qaror topmoqda. Ushbu islohotlar zamirida xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh, moslashuvchan va innovatsion fikrlovchi kadrlar tayyorlash g‘oyasi yotadi.

Eng avvalo, **kredit-modul tizimi** joriy etilishi oliy ta’lim mazmunini yangilashda muhim rol o‘ynadi. Mazkur tizim o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlab, talabaga mustaqil fan tanlash, fanlararo integratsiyani kuchaytirish, o‘zining shaxsiy o‘quv trayektoriyasini shakllantirish imkonini berdi.[3:9] Kredit-modul tizimi shuningdek, akademik mobillikni, ya’ni talabalar va o‘qituvchilarning boshqa oliygohlarda o‘qishi yoki dars berishini yengillashtirdi. Bu esa o‘z navbatida, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ta’lim sifatini baholashda yagona mezonlarga yaqinlashish imkonini yaratdi.

Kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi ta’limda tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Yangi yondashuv asosida o‘quv dasturlari faqat bilim olishga emas, balki talabaning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilishi, jamoada ishlashi, muloqot qila olishi, axborotni tahlil qilish va uni amaliyotda qo‘llay olishiga qaratilgan. Endilikda diplom nafaqat o‘qitilgan fanlar to‘g‘risidagi guvohnoma, balki egallangan kompetensiyalar to‘g‘risidagi tasdiqdir. Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasalarida ta’lim mazmuni va shakli to‘liq qayta ko‘rib chiqilib, har bir fan doirasida aniq kompetensiyalar shakllantirishga e’tibor berilmoqda.

Ta’lim dasturlarida raqamli savodxonlik, tadbirkorlik, ekologiya, gender tengligi, ijtimoiy javobgarlik kabi mavzularni o‘z ichiga olgan transversal (kesishuvchi) kompetensiyalar ham joriy etilmoqda.[4:12] Bu esa yoshlarni faqat kasb egasi sifatida emas, balki ijtimoiy faol, ongli, mas’uliyatli va zamon bilan hamqadam shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, talabalar bilimini baholash tizimi ham yangilanmoqda. Testlar, yozma ishlar, loyihaviy ishlanmalar, prezentatsiyalar va portfolio tizimlari orqali talabaning bilimini ko‘p qirrali baholashga e’tibor kuchaymoqda.

Shuningdek, ta’lim tizimining so‘nggi yillardagi islohlarida **ilm-fan va innovatsiyalar** bilan integratsiyani kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Bu boradagi chora-tadbirlar zamonaviy bilim iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi, ilmiy salohiyatga ega va innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni yetishtirish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini faqat ta’lim maskani emas, balki ilmiy va texnologik rivojlanish markazlariga aylantirishga qaratilgan.[5:5] Mazkur yo‘nalishda oliy ta’lim muassasalari tarkibida ilmiy-tadqiqot markazlarining tashkil etilishi, doktorantura tizimining takomillashuvi va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarining shakllanishi muhim bosqich bo‘ldi.

Misol tariqasida, oliy o‘quv yurtlarida **ilmiy-tadqiqot markazlarining** ochilishi ilm-fan va ta’limning uzviy bog‘liqligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.[6:15] Mazkur markazlar amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borish, ixtisoslashgan ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha innovatsion ishlanmalarni yaratish, ilmiy loyihalarda talabalar va yosh olimlarni faol ishtirok ettirish imkonini bermoqda. Ular ko‘p hollarda tegishli sohadagi ishlab chiqarish korxonalari yoki iqtisodiy tarmoqlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritmoqda. Bu esa, ilmiy izlanishlarning real iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy markazlar orqali talabalarning tadqiqot faoliyatiga erta jalb etilishi ta’minlanib, ularning kasbiy shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

XULOSALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimida boshlangan keng ko‘lamli islohotlar jamiyat taraqqiyotining eng muhim ustunlaridan biriga aylangan ilmiy-ma’rifiy muhitni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa 2017-yildan boshlab boshlangan yangi bosqichdagi strategik yondashuvlar ta’limning barcha bosqichlari va tarkibiy tizimlarini qamrab oldi. Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan ta’lim siyosati maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’lim va ilm-fan integratsiyasigacha bo‘lgan butun tizimni chuqur modernizatsiyalash, uni raqamlashtirish, inson kapitalining sifat jihatdan yangicha shakllanishiga yo‘naltirildi. Shu asosda III bobda yoritilgan uch asosiy yo‘nalish – tizimli islohotlarning boshlanish bosqichi, umumiy va kasb-hunar ta’limi, hamda oliy ta’limda amalga oshirilgan yangilanishlar – zamonaviy ta’lim arxitekturasining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ASOSIY)

1. Ta’lim-tarbiya istiqlol ko‘zgusida. // Ma`rifat 2010 yil 30 sentyabr. 7-bet.
2. Yuldoshev J. Ta`limimiz istiqloli yo`lida. – T.: Sharq 1996. 4-5-bet.
3. O‘zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbati materiallari. 1998 yil 9 oktabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998. 9-bet
4. G‘affarov.Sh Istibdod davrida Turkistondagi ta’lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 2000. 12-bet
5. Nazarov A. (2019). "Zamonaviy O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari." O'zbekiston Milliy Universiteti Ilmiy Jurnali. 5-bet
6. G'ulomov S., To'rayev B. (2021). "Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishining strategik ahmiyati." O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti. 15-bet

KO‘PHADLARNING QIYMATLARINI HISOBLASH ALGORITMLARINING TAHLILI

Ergasheva F.T.-
Navoiy davlat universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko‘phad qiymatlarini hisoblash uchun algoritmlar ko‘rib chiqiladi. Ushbu algoritmlarning samaradorligini baholash - arifmetik amallarning o‘sish tezligini aniqlovchi funksiyalarga asoslanadi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются алгоритмы вычисления значений многочленов. Оценка эффективности этих алгоритмов основана на использовании функций, определяющих скорость роста арифметических операций.

Annotation

This article examines algorithms for computing polynomial values. Evaluation of the efficiency of these algorithms is based on the use of functions that determine the growth rate of arithmetic operations.

Ma’lum bir masalani yechadigan turli algoritmlar mavjud. Bu algoritmlar ichidan eng samaralisini tanlab olish turli omillarga asosan amalga oshiriladi [1]. Algoritm samaradorligini

aniqlashdan oldin, uning qo‘yilgan masalani to‘g‘ri yecha olishini isbotlash kerak bo‘ladi, aks holda uning samaradorligini baholashning hojati qolmaydi.

Algoritmni tahlil qilishdan maqsad – algoritm uchun ma’lumotlarni muvaffaqiyatli qayta ishlash jarayonida kerak bo‘ladigan kompyuter xotirasi hajmi va ishlash vaqtining baholari hamda chegaralarini olish hisoblanadi. Algoritmda bajariladigan arifmetik, mantiqiy va h.k. amallar soni, uning qo‘yilgan masalani kompyuterda yechishga sarflanadigan vaqtini ifodalaydi. “Vaqt” birligi algoritm samaradorligini baholashda unchalik muhim emas [2].

Aslida bizni algoritm samaradorligini baholashda, qaralayotgan algoritmdagi amallar soni emas, balki algoritmga kiritiladigan berilganlar hajmi, ya’ni *n* oshib borishi bilan undagi amallar sonining qanday tezlikda oshishi muhim hisoblanadi.

Demak, biz muayyan masalani yechadigan ikki va undan ortiq algoritmlarni taqqoslash uchun qandaydir sonli mezon topishimiz kerak bo‘ladi.

Faraz qilaylik, *A* – qandaydir sinfga tegishli bo‘lgan masalalarni yechadigan algoritm, n – esa shu sinfdagi alohida bir masalaning tartibi bo‘lsin. Umumiy holda, n – oddiy skalyar yoki massiv bo‘lishi mumkin. $f_A(n)$ - n kattalikdagi ixtiyoriy masalani yechadigan *A* algoritm bajarish kerak bo‘lgan asosiy amallarning (qo‘shish, ayirish, taqqoslash va h.k.) yuqori chegarasini beradigan funksiyadir.

Algoritmning samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonni ishlatamiz.

Agar $f_A(n)$ o‘sishi - tartibi n ga bog‘liq bo‘lgan ko‘phaddan katta bo‘lmasa, *A* algoritm polinomial deb ataladi, aks holda *A* algoritm eksponensial hisoblanadi [1]. Shuningdek, tahlil jarayonida standart matematik iboralardan foydalanamiz.

f singari tez o‘suvchi funksiyalar sinfini biz $\Omega(f)$ orqali belgilaymiz. Agar hamma qiymatlarda erkin o‘zgaruvchi kattalik n va musbat c son uchun $g(n) > c\,f(n)$ o‘rinli bo‘lsa, g funksiya shu sinfga tegishli bo‘ladi. $\Omega(f)$ sinfi o‘zining quyi chegarasi bilan izohlansa, undagi hamma funksiyalar f kabi tez o‘sadi.

Biz algoritmlarning samaradorligi bilan qiziqamiz, shuning uchun $\Omega(f)$ sinfi bizni u darajada qiziqtirmaydi: masalan, $\Omega(n^2)$ ga n^2 dan tez o‘suvchi hamma funksiyalar kiradi, aytaylik n^3 va 2^n.

Spektrning boshqa tarafida $O(f)$ sinfi joylashgan. Bu sinf f dan tez o‘smaydigan funksiyalardan tashkil topgan. Funksiya f, $O(f)$ sinflari uchun yuqori chegarani belgilaydi. Formal nuqtai nazardan, agar barcha n va qandaydir musbat c konctanta uchun $g(n) < c\,f(n)$ o‘rinli bo‘lsa, u holda g funksiya $O(f)$ sinfga tegishli bo‘ladi.

Bu sinf biz uchun juda muhim. Ikkita algoritmdan birinchisining murakkabligi ikkinchisiga qaraganda katta *O* sinfiga tegishli bo‘lsa, u holda ikkinchi algoritm birinchisiga qaraganda qo‘yilgan masalani yaxshi yecha olmaydi.

$\Theta(f)$ orqali biz g singari tezlikda o‘suvchi funksiyalar sinfini belgilaymiz. Formal nuqtai nazardan bu sinf ikki avvalgi sinflarning kesishmasidan iborat, ya’ni $\Theta(f) = \Omega(f) \cap O(f)$.

Algoritmlarni taqqoslaganda bizni qaralayotgan masalani o‘rganilganlaridan ko‘ra tezroq yechadiganlari qiziqtiradi. Shuning uchun agar topilgan algoritm Θ sinfiga tegishli bo‘lsa, u bizni unchalik qiziqtirmaydi.

Berilgan funksiya $O(f)$ ga tegishli ekanligini ikki xil yo‘l bilan tekshirish mumkin: yuqoridagi tavsif orqali yoki quyidagi tavsif yordamida:

$g \in O(f)$, *agar* $\lim\limits_{n\to\infty} \dfrac{g(n)}{f(n)} = c$ ixtiyoriy c konstanta uchun.

Bu shuni anglatadiki, $g(n)/f(n)$ ning munosabatlar chegarasi mavjud bo‘lsa va u chekli bo‘lsa, $g \in O(f)$ bo‘ladi. Ba’zi funksiyalar uchun buni tekshirish oson emas. Lopital qoidasiga ko‘ra, bunday holda funksiyalar limitini ularning hosilasi limitiga almashtirish mumkin.

$\Theta(f)$, $\Omega(f)$ va $O(f)$ sinflarining har biri to‘plam hisoblanadi, shuning uchun “g – shu to‘plam elementi” iborasi ahamiyatlidir. Biroq, tahlillarda $g = O(f)$ deb yozishadi, aslida esa $g \in O(f)$.

Ko‘phadlarning qiymatlarini hisoblash algoritmlari tahlilini amalga oshirishdan oldin, bu masalaning ba’zi tadbiqlarini ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, ko‘phadlarning qiymatlarini hisoblash masalalari kompyuter grafikasida ko‘p uchraydi [2]. Bunday hisoblashlar, ya’ni kompyuter grafikasi masalalarida, kompyuter ekranining har bir nuqtasi uchun olib boriladi, shuning uchun hisoblash algoritmini hattoki, ozgina yaxshilash ham - hisoblash tezligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Kompyuterdagi oddiy tasvir o‘rtacha 1024 ta gorizontal va 1024 ta vertikal nuqtalardan tashkil topgan deb hisoblasak, bitta ko‘paytirish amalini kamaytirish natijasida har bir bunday o‘rindagi nuqta $1024 \times 1024 = 1\,048\,576$ ta ko‘paytirishni tejashi mumkin. Bunday usulni ko‘p karra qo‘llanilish jarayonida algoritmning samaradorligi real tarzda oshishini ko‘rish qiyin emas.

Ko‘phadlarni hisoblash algoritmlarining yana bir tatbiqini – trigonometrik funksiyalarning qiymatini hisoblashda [3] ham ko‘rish mumkin. Chunki, barcha trigonometrik funksiyalarning qiymatlarini hisoblovchi standart protseduralar, ularni darajali qatorlarga yoyish usuli bilan amalga oshiradi. Demak, trigonometrik funksiyalarning qiymatlarini kompyuterda hisoblash masalasi – ko‘phadlarning qiymatlarini hisoblash masalasiga keltiriladi.

Endi yuqorida keltirilgan baholash mezonlari asosida ko‘phadlarning qiymatlarini hisoblash algoritmlari tahlilini amalga oshiramiz.

Umumiy ko‘rinishda yozilgan quyidagi ko‘phadni qaraymiz:

$$p(x) = a_n x^n + a_{n-1} x^{n-1} + \text{L} + a_2 x^2 + a_1 x + a_0 .$$

Faraz qilaylik $a_n, a_{n-1}, \text{K}, a_0$ koyeffitsiyentlar ma’lum, doimiy va massivga yozilgan bo‘lsin. Bu shuni anglatadiki, ko‘phadlarni hisoblash uchun yagona kiruvchi ma’lumot *x* hisoblanadi, dastur natijasi esa x nuqtadagi ko‘phadlarning qiymati hisoblanadi.

Hisoblashning standart algoritmi chiziqlidir, ya’ni:

```
Evaluate(x)
x // nuqta, ko‘phadning qiymatini hisoblash uchun
result=a[0] + a[1]*x
xPower=x
for i=2 to n do
xPower=xPower*x
result=result+a[i]*xPower
end for
return result
```

Bu algoritm ancha sodda va uning tahlili aniq. For siklida ikkita ko‘paytirish amali mavjud bo‘lib, jami amallar soni $n-1$ ga teng. Bundan tashqari bir ko‘paytirish sikldan oldin bajariladi. Shu sababli ko‘paytirishlar umumiy soni $2n-1$. Siklda bitta qo‘shish amali bajariladi. Yana bitta qo‘shish amali sikldan oldin bajariladi. Shu sababli qo‘shish amallarining umumiy soni n ga teng.

Gorner sxemasi orqali hisoblash samaraliroq, chunki u murakkab emas. Bu sxema ko‘phadning quyidagi ko‘rinishiga asoslangan:

$$p(x) = ((\text{K}\,((a_n x + a_{n-1})x + a_{n-2})x + \text{K} + a_2)x + a_1)x + a_0 .$$

Ko‘rinib turibdiki, ko‘phadning bu ko‘rinishi oldingi ko‘phad bilan ekvivalent. Bu ko‘rinishdagi ko‘phadga mos algoritm quyidagi ko‘rinishga ega:

```
HornersMethod(x)
x // nuqta, ko‘phadning qiymatini hisoblash uchun
```

```
for i=n-1downto 0 do
result=result*x
result=result+a[i]
end for
return result
```

Sikl n marta bajariladi, bunda sikl ichida bitta ko‘paytirish va qo‘shish mavjud. Shu sababli Gorner sxemasi orqali hisoblashda n ta ko‘paytirish va n ta qo‘shish bajariladi – bu esa standart algoritmga nisbatan ikki marta kam.

Ko‘phad koyeffitsiyentlarini algoritm ishidan oldinroq qayta ishlash orqali natijani yaxshilash mumkin. Asosiy g‘oya shundan iboratki, ko‘phadni tasvirlash kichik darajali ko‘phadlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, x^{256} darajani hisoblash uchun paragraf boshidagi *Evaluate(x)* funksiyasiga o‘xshash siklli funksiyadan foydalanish mumkin. Natijada 255 ta ko‘paytirish bajariladi. Muqobil yondashuv shundan iboratki, *result=x*x* qo‘yiladi, shundan keyin $result = result * result$ amali 7 marta bajariladi. Birinchi bajarishdan so‘ng o‘zgaruvchi x^4, ikkinchidan keyin x^8 ni, uchinchidan keyin x^{16}, to‘rtinchidan keyin x^{32} ni, beshinchidan keyin x^{64}, oltinchisidan keyin x^{128} va yettinchisidan so‘ng x^{256} ni tashkil etadi.

Koyeffitsiyentlarni dastlabki qayta ishlash usuli ishlashi uchun ko‘phadlar unimodal (yani, koyeffitsiyent $a_n = 1$) bo‘lishi, ko‘phad darajasi esa ikkining qandaydir darajasidan 1 birlikka kam, yani ($n = 2^k - 1$, *k>1*) bo‘lishi kerak. Bu holda ko‘phadni quyidagi ko‘rinishda tasvirlash mumkin:

$p(x) = (x^j + b)q(x) + r(x)$, bunda $j = 2^{k-1}$.

Har ikki q va r ko‘phadlardagi hadlar p ga qaraganda ikki marta kam. Kerakli natijani olish uchun $q(x)$ va $r(x)$ larni alohida hisoblab, keyin $p(x)$ ko‘phadga qo‘yib hisoblaymiz. Agar bunda b ning qiymatini to‘g‘ri tanlasak, har ikki q va r ko‘phadlar unimodal bo‘ladi. Har birining darajasi ularning har biriga ushbu protsedurani qo‘llash imkoniyatini beradi. Bu protsedurani ketma-ket qo‘llash orqali hisoblashni ancha tejash mumkin.

Umumiy ko‘rinishdagi ko‘phadlar to‘g‘risida so‘z yuritmasdan, misolga e’tibor qaratamiz. Quyidagi ko‘phadni qaraymiz:

$p(x) = x^7 + 4x^6 - 8x^4 + 6x^3 + 9x^2 + 2x - 3.$

Avval $x^j + b$ ko‘paytuvchini aniqlaymiz. Ko‘phad darajasi 7, ya’ni 23–1, bundan esa, k = 3. Shundan kelib chiqadiki, j = 2^2 = 4. b ning qiymatini shunday tanlab olamizki, har ikki q va r ko‘phadlar unimodal bo‘lsin. Buning uchun $p(x)$ ko‘phaddagi a_{j-1} koyeffitsiyentga etibor qaratish va uni $b = a_{j-1} - 1$ ga qo‘yish kerak. Bizning holatda bu shuni anglatadiki, $b = a_3 - 1 = 5$. Endi biz

$x^7 + 4x^6 - 8x^4 + 6x^3 + 9x^2 + 2x - 3 = (x^4 + 5)q(x) + r(x)$

tenglikni qanoatlantiruvchi q va r qiymatlarni topishimiz kerak. q va r ko‘phadlar $p(x)$ ni $x^4 + 5$ ga bo‘lgandagi bo‘linma va qoldiq bilan mos tushadi. Qoldiqli bo‘lish

$p(x) = (x^4 + 5)(x^3 + 4x^2 + 0 \cdot x + 8) + (x^3 - 11x^2 + 2x - 37)$

ko‘rinishni beradi. Keyingi qadamda biz xuddi shu protsedurani har bir q va r ko‘phadlarga qo‘llashimiz mumkin:

$q(x) = (x^2 - 1)(x + 4) + (x + 12), \qquad r(x) = (x^2 + 1)(x - 11) + (x - 26).$

Natijada esa quyidagiga ega bo‘lamiz:

$p(x) = (x^4 + 5)((x^2 - 1)(x + 4) + (x + 12)) + ((x^2 + 1)(x - 11) + (x - 26)).$

Ushbu ko‘phadga qarab, ko‘rishimiz mumkinki, x^2 ni hisoblash uchun bitta ko‘paytirish kerak bo‘ladi; yana bir ko‘paytirish $x^4 = x^2 \cdot x^2$ ni hisoblash uchun zarur. Bu ikki ko‘paytirishlarda, ya’ni tenglamaning o‘ng tomonini hisoblashda jami 3 ta ko‘paytirish ishtirok etadi. Bundan tashqari, 10 ta qo‘shish amali ham bajariladi. Quyida keltirilgan 1-jadvalda ushbu hisoblash usuli va boshqa usullarning taqqoslash natijalari berilgan.

Ushbu protsedurani diqqat bilan o‘rganib chiqib, umumiy murrakablik formulasini keltirib chiqarish mumkin. Avvalo shuni ko‘ramizki, tenglamada bitta ko‘paytirish va ikkita qo‘shish amali qatnashgan. Shu sababli ko‘paytirishlar soni *M=M(k)* va qo‘shishlar soni *A = A(k)* uchun quyidagi rekurrent munosabatlarga ega bo‘lamiz:

M(1)= 0 *A(1)*= 0

M(к)=2M(к-1)+1, agar *к* > 1 *A(к)= 2A(к* - 1) + 2, agar *к* > 1.

Usul	**Ko‘paytirish**	**Qo‘shish**
Standart algoritm	13	7
Gorner sxemasi	7	7
Dastlabki qayta ishlash	5	10

1-jadval: *7-darajali ko‘phad qiymatini hisoblashdagi amallar soni.*

Bu rekurrent munosabatlarni yechib, ko‘paytirishlar soni taxminan $N/2$ ga, qo‘shishlar soni esa $(3N-1)/2$ ga tengligini aniqlaymiz. Hali ko‘paytma, ya’ni hisoblanishi zarur bo‘lgan $x^2,\ x^4,\ x^8, \text{K},\ x^{2^k}$ qiymatlar ketma-ketligi qoldi va uning uchun qo‘shimcha $k-1$ ta ko‘paytirish amali talab etiladi. Shuning uchun ko‘paytirish amallarining umumiy soni taxminan $N/2+\log_2 N$ ga teng.

Usul	**Ko‘paytirish**	**Qo‘shish**
1. Standart algoritm	$2N-1$	N
2. Gorner sxemasi	N	N
3. Koeffitsiyentlarni dastlabki qayta ishlash	$\frac{N}{2}+\log_2 N$	$\frac{3N-1}{2}$

2-jadval: N *-darajali ko‘phad qiymatini hisoblashdagi amallar soni.*

2-jadvalda standart algoritm, Gorner sxemasi va koyeffitsiyentlarni datslabki qayta ishlash algoritmlarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Oxirgi ikki algoritmni taqqoslaganda, ortiqcha $(N-1)/2$ qo‘shish amallari hisobiga $N/2-\log_2 N$ ko‘paytirishni tejadik. Barcha hisoblash tizimlarida ko‘paytirishni qo‘shishga almashtirish afzal hisoblanadi, shuning uchun oxirgi usul samaradorlikni oshiradi.

Adabiyotlar

1. Thomas H. Cormen and others. Introduction to algorithms. Massachusetts Institute of Technology. London, 2009. -1292 p.
2. Дж. Макконнелл. Основы современных алгоритмов. -М: Техносфера, 2004. -368 с.
3. Гагарина Л.Г., Колдаев В.Д. Алгоритмы и структуры данных: Учебное пособие. –М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М., 2009. -304 с.

O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHILARNING PEDAGOGIK HAMKORLIGI PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI HAL ETISH SHAKLLARIDAN BIRI SIFATIDA

Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi-
Buxoro Davlat Universiteti 1- bosqich magistri
E-mail: mavlonovamohlaroyim21@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qituvchi va o‘quvchilarning pedagogik hamkorligi pedagogik konfliktlarni hal etishning muhim shakllaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Ayniqsa, 24–“Nurli maskan” ko‘zi ojiz bolalar maktab-internatida olib borilayotgan amaliy tajriba asosida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, empatiya, ruhiy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Ushbu maskanda pedagogik hamkorlik nafaqat konfliktlarning oldini olish, balki o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni shakllantirish, jamoaga moslashuv, motivatsiya va shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning samarali vositasi ekanligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik muhitda sog‘lom psixologik iqlim yaratish pedagogik konfliktlarni konstruktiv hal etishga olib kelishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: pedagogik hamkorlik, pedagogik konflikt, kommunikativ madaniyat, empatiya, o‘qituvchi, o‘quvchi, psixologik muhit, hamkorlik, muloqot, ijtimoiy-psixologik muhit, murosa,24–“Nurli maskan” ko‘zi ojiz bolalar, maktab-internati.

Аннотация. В данной статье анализируется педагогическое сотрудничество учителей и учащихся как одна из важных форм разрешения педагогических конфликтов. В частности, на основе практического опыта работы в школе-интернате для слепых детей № 24 «Нурли Маскан» освещаются особенности образовательного процесса, организованного на основе взаимного доверия, эмпатии, психологической поддержки и сотрудничества между учителями и учащимися. Обосновывается, что педагогическое сотрудничество в данном учреждении является не только эффективным средством профилактики конфликтов, но и формирования у учащихся уверенности в себе, адаптации в коллективе, поддержки мотивации и личностного развития. Результаты исследования показывают, что создание здорового психологического климата в педагогической среде приводит к конструктивному разрешению педагогических конфликтов.

Ключевые слова: педагогическое сотрудничество, педагогический конфликт, коммуникативная культура, эмпатия, учитель, ученик, психологическая среда, сотрудничество, общение, социально-психологическая среда, компромисс, 24–«Нурли Маскан» незрячие дети, школа-интернат.

Abstract. This article analyzes pedagogical cooperation between teachers and students as one of the important forms of resolving pedagogical conflicts. In particular, based on practical experience in the 24-“Nurli Maskan” boarding school for blind children, the specific aspects of the educational process organized on the basis of mutual trust, empathy, psychological support and cooperation between teachers and students are highlighted. It is substantiated that pedagogical cooperation in this institution is not only an effective means of preventing conflicts, but also of building self-confidence in students, adapting to the team, supporting motivation and personal development. The results of the study show that creating a healthy psychological climate in the pedagogical environment leads to a constructive resolution of pedagogical conflicts.

Keywords: pedagogical cooperation, pedagogical conflict, communicative culture, empathy, teacher, student, psychological environment, cooperation, communication, socio-psychological environment, compromise, 24–“Nurli Maskan” blind children, boarding school.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Pedagogik hamkorlik – bu shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosi bo‘lib, unda o‘qituvchi o‘quvchini faol ishtirokchi, fikrlovchi va mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida ko‘radi. Shu bilan birga, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqot jarayonida turli xil tushunmovchiliklar yoki qarama-qarshiliklar – pedagogik konfliktlar vujudga kelishi mumkin. Bunday konfliktlar ta’lim sifati va sinfdagi psixologik muhitga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, zamonaviy ta’limda konfliktlarni hal etishning samarali yo‘llaridan biri sifatida pedagogik hamkorlik madaniyatini shakllantirishga katta e’tibor berilmoqda.

Ta'lim jarayoni – bu nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy va psixologik jihatdan murakkab, ko‘p qirrali ijtimoiy jarayondir. Bu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Ana shu munosabatlar turli ijtimoiy va psixologik omillar ta’sirida ba’zida ziddiyatli holatlarni, ya’ni pedagogik konfliktlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammoning hal etilishida o‘quvchilarning pedagogik hamkorligi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat bilim almashinuvi, balki ijtimoiy va psixologik jarayonlarning uyg‘unlashuvi orqali shakllanadi. Biroq bu munosabatlar har doim ham silliq kechavermaydi. Noto‘g‘ri muloqot, emotsional qarama-qarshiliklar, baholashdagi adolatsizlik kabi holatlar pedagogik konfliktlarni keltirib chiqaradi. Ushbu konfliktlar dars sifati, ijtimoiy muhit va tarbiyaviy samaradorlikka salbiy ta’sir etadi.Zamonaviy pedagogikada bunday nizolarni konstruktiv hal etish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik g‘oyasi ilgari surilmoqda. Bu maqolada pedagogik hamkorlik tushunchasi va uning konfliktlarni bartaraf etishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Mazkur maqolada aynan shu yo‘nalishda, 24-“Nurli maskan”maktab-internatida olib borilayotgan faoliyatim jarayoni misolida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi tahlil qilinadi. Ushbu maskanda o‘quvchilar bilan ishlash o‘ziga xos yondashuv, sabr-toqat, empatiya va individual psixologik qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik bu jarayonda konfliktlarning oldini olish va ularni ijobiy yo‘l bilan hal etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik konfliktlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi fikrlar, his-tuyg‘ular yoki qadriyatlarning to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Bunday holatlarda o‘qituvchining kommunikativ madaniyati, psixologik sezgirligi va ijobiy muloqot olib borish qobiliyati katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ko‘zi ojiz o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi ularning ichki dunyosini his etish, ularga ruhiy tayanch bo‘lish, o‘ziga ishonchini oshirish orqali ijobiy natijalarga erishadi.

24-“Nurli maskan”maktab-internatida o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan hamkorlikka asoslangan metodlar – guruhli ishlash, individual suhbatlar, rag‘batlantirish, o‘zaro yordam tizimi – o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, bu hamkorlik orqali o‘qituvchilar konfliktli vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlash, muammoni tinch yo‘l bilan hal etish, o‘zaro hurmatni mustahkamlashni o‘rganmoqda biz.

Pedagogik hamkorlik asosida ishlash natijasida maktab-internatdagi o‘quvchilar o‘zlarini jamoaning teng a’zosi sifatida his etadilar, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishi va o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi.

1.

2

Rasm 1. 24–“Nurli maskan” maktab-internatida o‘quvchilarning guruhli hamkorlikda ishlash jarayoni.

Rasm 2. O‘qituvchi tomonidan individual yondashuv asosida o‘quvchini ruhiy qo‘llab-quvvatlash jarayoni.

Pedagogik hamkorlik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga, shaxsiy qadr-qimmatini his etishiga va jamoada o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. Shuningdek, bu yondashuv o‘qituvchilarga konflikt holatlarini konstruktiv yo‘l bilan boshqarish, murosaga erishish, muloqot madaniyatini oshirish imkonini beradi.Shu sababli, pedagogik hamkorlikni rivojlantirish har bir ta’lim muassasasi, xususan maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlovchi maktab-internatlar faoliyatida ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolishi zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi va o‘quvchilarning pedagogik hamkorligi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, shuningdek, pedagogik konfliktlarni ijobiy yo‘l bilan hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 24-“Nurli maskan “maktab-internatida bu hamkorlikning o‘ziga xos jihatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Ko‘zi ojiz o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchidan nafaqat bilim berish, balki ularning psixologik holatini tushunish, hissiy qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro ishonchni mustahkamlash talab etiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o‘quvchiga faqat bilim berishni emas, balki uni har tomonlama rivojlantirishni maqsad qilgan. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi samarali, hamkorlikka asoslangan munosabatni talab qiladi. Pedagogik hamkorlik nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki pedagogik konfliktlarning oldini olish va ularni ijobiy hal etishning samarali vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Namangan davlat universiteti. (2024). Pedagogik konfliktologiya. — Nazariy-metodik qo‘llanma. NamDU Axborot-resurs markazi fondidan.

URL:https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/26/NamDU-ARM-11656-Pedagogik_konfliktologiya.pdf

2. Pedagogik konfliktlarni hal etish yo‘llari va usullari. (2024). — Ilmiybaza.uz elektron jurnalida chop etilgan maqola.

3.Yusupova Sh. (2025). Pedagog va talabalar orasida yuzaga keladigan konfliktlar hamda ularni bartaraf qilishning shakl va uslublari. — Urganch davlat pedagogika instituti. Zenodo elektron platformasi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО- КОММУНИКАТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Нажимова А.И.-
Старший преподаватель кафедры начального образования НавГУ

На сегодняшний день, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) рассматриваются как важнейший компонент общего образования, играющий большую роль в решении приоритетных задач обучения и воспитания.

Учитывая, что в начальной школе происходит постепенная смена ведущего вида деятельности ребенка с игровой на учебную, необходимо максимально использовать возможности применения информационно-коммуникационных технологий при организации учебной деятельности младших школьников.

Одним из результатов обучения и воспитания в школе первой ступени должна стать готовность детей к овладению современными компьютерными технологиями и способность актуализировать полученную с их помощью информацию для дальнейшего самообразования.

Для реализации этих целей возникает необходимость применения учителем начальных классов информационно-коммуникационных технологий в учебно-воспитательном процессе.

Использование информационно-коммуникативных технологий на уроках в начальной школе позволяет развивать умение учащихся ориентироваться в информационных потоках окружающего мира, овладевать практическими способами работы с информацией, развивать умения, позволяющие обмениваться информацией с помощью современных технических средств. Использование ИКТ на уроках в начальной школе позволяет перейти от объяснительно-иллюстрированного способа обучения к деятельностному, при котором ребенок становится активным субъектом учебной деятельности. Это способствует осознанному усвоению знаний учащимися. Таким образом, использование информационных и коммуникационных технологий (ИКТ) в учебном процессе является актуальной проблемой современного школьного образования.

Уроки с использованием ИКТ особенно актуальны в начальной школе. Учащиеся начальных классов имеют наглядно-образное мышление, поэтому очень важно строить их обучение, применяя как можно больше качественного иллюстративного материала, вовлекая в процесс восприятия нового не только зрение, но и слух, эмоции, воображение. Здесь, как нельзя кстати, приходится яркость и занимательность компьютерных слайдов, анимации. Организация учебного процесса в начальной школе, прежде всего, должна способствовать активизации познавательной сферы обучающихся, успешному усвоению учебного материала и способствовать психическому развитию ребенка. Следовательно, ИКТ должно выполнять определенную образовательную функцию, помочь ребёнку разобраться в потоке информации, воспринять её, запомнить

Внедрение информационных технологий основано также на учете возрастных особенностей учащихся: в начальной школе происходит смена ведущей деятельности ребенка с игровой на учебную. Использование игровых возможностей компьютера в сочетании с дидактическими, позволяет сделать этот процесс более плавным;· большая часть знаний, умений и навыков, полученных на уроках, ещё не используется младшими школьниками во внеурочной деятельности; их практическая ценность утрачивается, а прочность - существенно снижается. Применение же полученных знаний, умений и навыков в игровой компьютерной среде приводит к их актуализации и мотивации их приобретения;· высокая степень эмоциональности младших школьников значительно сдерживается строгими рамками учебного процесса. Занятия же на компьютере позволяют частично разрядить высокую эмоциональную напряженность и оживить учебный процесс;· мультимедиа-учебники призваны автоматизировать все основные этапы обучения - от изложения учебного материала до контроля знаний и выставления итоговых оценок. При этом весь обязательный учебный материал переводится в яркую, увлекательную, с разумной долей игрового подхода, мультимедийную форму с широким использованием графики, анимации, в том числе

интерактивной, звуковых эффектов и голосового сопровождения, включением видеофрагментов.

Использование компьютеров в школьной практике способствует совершенствованию традиционного процесса обучения, повышая его эффективность в области моделирования изучаемых процессов и явлений, управления процессом обучения, автоматизации контроля уровня знаний.

При условии систематического использования информационных технологий в учебном процессе в сочетании с традиционными методами обучения можно значительно повысить эффективность обучения. В рамках оптимального использования средств ИКТ для обучения разным предметам можно выделить следующие возможности практической реализации способов оптимизации учебного процесса при использовании ИКТ:

Комплексное решение образовательных, воспитательных и развивающих задач;

Постановка каждому обучающемуся конкретных задач в зависимости от его способностей, мотивации, уровня подготовки;

Формирование у обучаемых навыков самостоятельного овладения знаниями, развитие навыков поиска, сбора и обработки информации в сети Интернет;

Стимулирование положительной мотивации учения за счёт интегрирования всех форм наглядности, осуществления учебной деятельности с немедленной обратной связью и развитой системой помощи.

Использование информационных технологий помогает стимулировать творческую активность обучающихся. Результаты творческой деятельности ребят могут быть использованы учителями как иллюстративный, наглядный материал к урокам. Создание компьютерных презентаций способствуют развитию эстетической, общекультурной, коммуникативной, ценностно-смысловой, информационной компетенцией.

Информационная компетентность школьников необходима для качественного освоения всех учебных предметов. Овладение компьютерной культурой, формирование информационной компетенции школьников-необходимое условие включения подрастающего поколения в мировое информационное пространство.

Опыт использования ИКТ показывает их преимущество в обеспечении качества образования, так как:

Во-первых, вызывают интерес учащихся, «очарование» новизны, эмоциональный всплеск. Можно провести экскурсию-путешествие по любому городу и стране, увидеть движение на уроках окружающего мира, математики, почувствовать настроение героев, услышать звук моря, увидеть закат. Задача учителя найти новое, неизвестное, заинтересовать, используя качественные наглядные пособия, анимационные возможности

Во-вторых, создаются условия для индивидуализации обучения: учитель имеет возможность зафиксировать материал, «остановить» мгновение, вернуться к информации предыдущих уроков, обеспечить самопроверку, контроль, презентационное сопровождение уроков.

В-третьих, участие в деятельности, например, через учебные проекты открывает новые возможности созидания. Учащиеся получают дополнительный опыт общения, получения информации, возможность проявить себя. Учитель учится управлять информационными потоками, становится авторитетным консультантом для учащихся, следовательно, расширяется пространство взаимодействия

Учитывая вышесказанное, можно предположить, что использование мультимедиа на уроках, несомненно, оказывает содействие развитию личности ученика, который комфортно будет чувствовать себя в условиях информационного общества. Для учителя становится профессионально необходимым научиться совмещать собственный преподавательский почерк с теми техническими возможностями, которые предоставляют новые информационные технологии и вряд ли возможно движение в обратную сторону. При одном непременном условии-сохранении традиций высокой культуры учителя, и профессиональной, и творческой. Без этого не может быть качества образования.

Внедрение ИКТ (информационных и коммуникационных технологий) в практику работы учителя начальных классов осуществляется по следующим направлениям:

1. Создание презентаций к урокам.
2. Работа с ресурсами Интернет.
3. Использование готовых обучающих программ.
4. Разработка и использование собственных авторских программ.

Возможности ИКТ:

· создание и подготовка дидактических материалов (варианты заданий, таблицы, памятки, схемы, чертежи, демонстрационные таблицы и т.д.);
· создание мониторингов по отслеживанию результатов обучения и воспитания;
· создание текстовых работ;
· обобщение методического опыта в электронном виде и т. д.

Основная цель применения ИКТ состоит в повышении качества обучения. Качество обучения – это, то для чего мы работаем.

С помощью компьютерных технологий можно решить следующие задачи:

· усиление интенсивности урока;
· повышение мотивации учащихся;
· мониторинг их достижений.

Трудно представить себе современный урок без использования ИКТ. ИКТ технологии могут быть использованы на любом этапе урока:

1. Для обозначения темы урока.
2. В начале урока с помощью вопросов по изучаемой теме, создавая проблемную ситуацию.
3. Как сопровождение объяснения учителя (презентации, формулы, схемы, рисунки, видеофрагменты и т.д.)
4. Для контроля учащихся.

Одной из наиболее удачных форм подготовки и представления учебного материала к урокам в начальной школе можно назвать создание мультимедийных презентаций. “Презентация” - переводится с английского как “представление”. Как писал великий педагог К.Д.Ушинский: «Если вы входите в класс, от которого трудно добиться слова, начните показывать картинки, и класс заговорит, а главное, заговорит свободно…».

Со времён Ушинского картинки явно изменились, но смысл этого выражения не стареет. Мультимедийные презентации- это удобный и эффективный способ представления информации с помощью компьютерных программ. Он сочетает в себе динамику, звук и изображение, т.е. факторы, которые наиболее долго удерживают внимание ребенка. Одновременное воздействие на два важных органа восприятия (слух и зрение) позволяют достичь гораздо большего эффекта. Методическая сила мультимедиа как раз и состоит в том, что ученика легче заинтересовать и обучить, когда он воспринимает согласованный поток звуковых и зрительных образов, причем на него оказывается не только информационное, но и эмоциональное воздействие. Более того, презентация даёт возможность учителю самостоятельно скомпоновать учебный материал исходя из особенностей класса, темы, предмета, что позволяет построить урок так, чтобы добиться максимального учебного эффекта.

При разработке презентаций учитывается, что она:

Быстро и доходчиво изображает вещи, которые невозможно передать словами;

Вызывает интерес и делает разнообразным процесс передачи информации;

Усиливает воздействие выступления.

Таким образом, применение педагогических технологий, информационно-коммуникативных технологий в начальной школе способствует развитию у школьников познавательной активности, творчества, креативности, умения работать с информацией, повышению самооценки, а главное, повышается динамика качества обучения.

Методическая сила презентации состоит в том, что учащегося легче заинтересовать и обучить, когда он воспринимает согласованный поток звуковых и зрительных образов, причем на него оказывается не только информационное, но и эмоциональное воздействие. Она

предоставляет возможность педагогу самостоятельно скомпоновать учебный материал исходя из особенностей конкретного класса, темы, предмета, что позволяет построить урок так, чтобы добиться максимального учебного эффекта. Использовать презентации можно на всех этапах урока. Это и во время актуализации знаний, и при объяснении нового материала, и при закреплении. Использование программ-презентаций помогает психологически комфортно чувствовать себя учащимся на уроках. Можно неоднократно возвращаться к любому слайду презентации, вникая во все тонкости изучаемого урока. Использование богатых графических, звуковых и интерактивных возможностей компьютера настраивает на благоприятный эмоциональный фон на занятия, а также способствует развитию учащегося как бы незаметно для него, играючи.

Решение интерактивных задач – полезное занятие на любом этапе обучения. Кроссворды расширяют кругозор, помогают лучше ориентироваться в постоянно возрастающем потоке информации. Решение их тренирует память, развивает сообразительность, учит работать со справочной литературой, побуждает к углублению знаний, вырабатывает умение доводить начатое дело до конца. Условно все интерактивные задачи, применяемые в учебном процессе, можно разбить на три группы – текущие, тематические и обобщающие.

Первые направлены на проверку базовых знаний учащихся по текущему материалу, вторые – на проверку базовых и дополнительно полученных знаний по определенной теме, третьи – на общую проверку знаний.

Тестовый компьютерный контроль создается в качестве одного из способов оценки знаний и умений учащихся. От того, как он организован, на что нацелен, существенно зависит эффективность всей учебной работы.

Без оценки процесс усвоения знаний невозможен: везде должен действовать принцип обратной связи. Важно не только правильно организовать контроль, но и планомерно и систематически осуществлять его на каждом уроке. Именно поэтому методы непрерывного и интенсивного контроля знаний являются существенными компонентами современной информационной технологии в образовании и тестирования – важнейший из них. Поэтому очень важно сейчас привить ученикам навыки культуры тестирования, сделать этот процесс обыденным, не вызывающим страха, а лишь стимулирует детей к дальнейшему самосовершенствованию. Однако необходимо отметить, что тест должен создаваться лишь в том случае, если он может зафиксировать поведение ученика более корректно, чем это позволяли сделать другие методы.

Компьютерные игры тренируют память, логику, координацию движений, умение планировать свою деятельность, находить информацию, необходимую для достижения поставленной цели. Игры формируют у ребенка мотивационную и интеллектуальную готовность использования компьютерных средств для осуществления своей деятельности. Игровая деятельность – это многосложный и производительный процесс, структура которого включает интеллектуальную, познавательную, поисковую, проектную и другие формы проявления творческой активности.

Следует помнить, что Интернет является ценным ресурсом с большим количеством увлекательной и обучающей информации. Но нужно постоянно следить за тем, как ученик начальных классов использует Интернет, проверять сайты, на которые заходит ребенок. Жизненный опыт взрослого человека может стать неоценимым в помощи школьнику понять, как вести себя в виртуальном мире.

Важно знать и о том, что для каждого детского возраста существует ограничение по времени для работы за компьютером: в 3-4 года – ребенок может находиться у компьютера 25 минут, в 5-6 лет – 35 минут, в 7-8 лет – 40 минут.

Таким образом, информационно-коммуникационные технологии отличаются многообразием, они универсальны и практичны как для педагога, так и для ученика. Использование информационно-коммуникационных технологий на различных уроках в начальной школе помогает развивать умение учащихся ориентироваться в информационных потоках окружающего мира; овладевать практическими способами работы с информацией;

развивать умения, позволяющие обмениваться информацией с помощью современных технических средств.

Список литературы:

1. Гончар, С. А. Применение ИКТ как эффективного средства контроля знаний учащихся средней школы // В сборнике: Молодежь XXI века: шаг в будущее Материалы XIX региональной научно-практической конференции. В 3-х томах, 2018. – 268-269 с.

2. Расулов, Х. А. Проблемы внедрения инновационных технологий в педагогическую практику // Наука и образование сегодня, 2018. – № 4 (27). – 62-63 с.

3. Стадник, М. В. Использование медиауроков для развития мышления младших школьников. – Библиотека сообщества учителей начальных классов. Образовательный портал «Сеть творческих учителей» [Электронный ресурс] / URL: http://www.itn.ru/communities.aspx ?cat_no=5025&lib_no=5430&tmpl=lib (Дата обращения 12.05.2020).

4. Аглоткова, Н. Н. ИКТ-компетентность – фундамент для формирования УУД в современной школе // В сборнике: Интернет-технологии в образовании Сборник материалов Международной научно-практической конференции, 2018. – 128-131 с.

O‘QUVCHILARNING LINGVISTIK VA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV USULLARNING O‘RNI VA SAMARADORLIGI

Elmurodova Zulfizar Zafarovna-
Navoiy Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv usullarning o‘rni va samaradorligi tahlil qilingan. Lingvistik hamda nutqiy kompetensiyaning mazmuni, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy fikrlash, interaktiv metodlar, kommunikativ salohiyat, lingvistik kompetensiya, muloqot madaniyati, nutqiy kompetensiya, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье проанализированы роль и эффективность интерактивных методов в развитии лингвистической и речевой компетенций учащихся. Раскрыто содержание лингвистической и речевой компетенций, их взаимосвязь и значение в образовательном процессе.

Ключевые слова: интерактивные методы, коммуникативный потенциал, креативное мышление, лингвистическая компетенция, культура общения, речевая компетенция, эффективность обучения.

Annotation. This article analyzes the role and effectiveness of interactive methods in developing students’ linguistic and speech competences. The content of linguistic and speech competence, their interrelation, and their importance in the educational process are discussed.

Keywords: communicative competence, creative thinking, effectiveness of education, interactive methods, linguistic competence, speech competence, culture of communication.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy yo‘nalishlardan biridir. Chunki har bir shaxsning muloqotga kirishish, o‘z fikrini aniq va to‘g‘ri ifoda etish, tildan nutq jarayonida ongli foydalanish qobiliyati jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning asosiy shartidir. Shuning uchun ham o‘qitish jarayonida interaktiv usullarni qo‘llash o‘quvchilarning til imkoniyatlarini kengaytiradi, nutqiy faolligini oshiradi va tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Til — bu faqat so‘zlar tizimi emas, balki ijtimoiy muloqot vositasi hamdir. Shu boisdan ta’limda o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini shakllantirish, ularni muloqotga tayyorlash, fikrlash madaniyatini o‘stirish har bir pedagog oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Lingvistik va nutqiy kompetensiya tushunchalarining mohiyati

Lingvistik kompetensiya — bu o‘quvchining til tizimini, ya’ni fonetika, leksika, grammatika, morfologiya, sintaksis kabi birliklarni bilishi va ularni to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatidir. Tilshunos olim Noam Chomsky bu tushunchani “insonning ichki grammatik qobiliyati” deb ta’riflagan. Ya’ni, insonning tilni bilish darajasi u tilning qoidalarini ongli ravishda tushunishiga bog‘liqdir.

Nutqiy kompetensiya esa — o‘quvchining o‘z til bilimlarini amalda, ya’ni muloqot jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatidir. Bu atama dastlab tilshunos Dell Hymes tomonidan joriy etilgan bo‘lib, u tilni “ijtimoiy jihatdan mos va maqsadga muvofiq tarzda qo‘llay bilish” sifatida izohlagan. Shunday qilib, lingvistik kompetensiya bilim asosini, nutqiy kompetensiya esa shu bilimni amalda qo‘llashni anglatadi.

Interaktiv usullarning mazmuni va ahamiyati

Interaktiv metodlar — bu o‘quvchini o‘qitish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muloqotga kirishish imkonini beruvchi pedagogik usullardir. Interaktivlik o‘zaro muloqot, fikr almashish va hamkorlik asosida amalga oshadi.

Bunday usullar orqali o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki uni mustaqil ravishda anglaydi, tahlil qiladi va amaliyotga tatbiq etadi. Bu esa o‘z navbatida, uning nutqiy faolligi, fikr ifoda etish madaniyati va tilni amalda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Lingvistik va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv metodlarning roli

O‘quvchilarda tilni o‘rganish jarayonini samarali tashkil etishda quyidagi interaktiv metodlar alohida o‘rin tutadi:

“Aqliy hujum” (Brainstorming)

Bu usul o‘quvchilarning erkin fikrlashini, yangi g‘oyalar ilgari surishini rag‘batlantiradi. Masalan, “So‘zning kuchi nimada?” mavzusida o‘quvchilar o‘z fikrlarini og‘zaki bayon qiladi, o‘zaro bahs-munozara olib boradi. Natijada ularning nutqiy kompetensiyasi faol shakllanadi.

“Rol o‘ynash” (Role-play)

Til o‘rganishda eng samarali metodlardan biri bo‘lib, o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarni (do‘konda, maktabda, kutubxonada suhbat) jonlantirib, real muloqotni o‘rganadilar. Bu usul talaffuz, leksika, nutq ohangi va intonatsiyani o‘zlashtirishda juda foydalidir.

“Sinkveyn” texnikasi

Bu usulda o‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha besh satrli she’r yoki qisqa matn tuzadi. U leksik boylikni oshiradi, ijodkorlik va ifodali nutqni rivojlantiradi.

Interaktiv metodlarning samaradorligi

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish darajasini 30–40 foizga oshiradi. Chunki bu usullar orqali o‘quvchi darsda faol ishtirok etadi, mustaqil fikr bildiradi va o‘z nuqtayi nazarini himoya qiladi. Natijada:

• o‘quvchilarning so‘z boyligi kengayadi;
• talaffuz va intonatsiya yaxshilanadi;
• ijodiy fikrlash va og‘zaki nutq rivojlanadi;
• muloqot madaniyati shakllanadi.

Shuningdek, interaktiv usullar orqali o‘quvchilarda motivatsiya oshadi, chunki ular o‘zlarini dars jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladilar. O‘qituvchi esa ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir o‘quvchini nutqiy faoliyatga jalb etadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv usullar muhim o‘rin tutadi. Bunday metodlar o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtiradi, ularni muloqotga undaydi, tilni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Interaktiv o‘qitish natijasida o‘quvchi nafaqat til qoidalarini o‘rganadi, balki ularni hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llashni ham o‘rganadi. Shu tariqa, lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlaydigan, madaniyatli va faol shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. — Cambridge: MIT Press, 1965.

2. Hymes, D. On Communicative Competence. In: J.B. Pride & J. Holmes (eds.), Sociolinguistics, Penguin Books, 1972.

3. Mahmudov, N., Madvaliyev, A. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

4. Hasanboeva, O. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlar orqali nutqni rivojlantirish. — Toshkent: TDPU ilmiy to‘plami, 2021.
5. G‘ulomov, A., Yuldasheva, M. Til va nutq: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan, 2018.

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING O‘QUVCHILAR TAFAKKURIGA TA’SIRI

Axtamova Gulira’no Akram qizi
NDU TTNM-M 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarining o‘quvchilar tafakkurini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqollarning mazmuniy qatlamlari, ularning ma’naviy-tarbiyaviy xususiyatlari hamda yosh avlod dunyoqarashiga ko‘rsatadigan ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar*: o‘zbek xalq maqollari, tafakkur, mantiqiy fikrlash, tarbiya, qadriyat, nutq madaniyati, og‘zaki ijod, pedagogika*

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются роль и значение узбекских народных пословиц в формировании мышления учащихся. Раскрываются смысловые пласты пословиц, их духовно-воспитательные особенности и влияние на мировоззрение молодого поколения.

Ключевые слова:

Annotation. In this article, the role and significance of Uzbek folk proverbs in the formation of students' thinking are analyzed from a scientific-theoretical and practical point of view. The semantic layers of proverbs, their spiritual and educational features, and their influence on the worldview of the younger generation are highlighted.

Key words: *Uzbek folk proverbs, thinking, logical thinking, upbringing, values, speech culture, oral creativity, pedagogy*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi – milliy tafakkur, qadriyat va ma’naviyatning eng qadimiy qatlamini o‘zida mujassam etgan boy merosdir. Xususan, xalq maqollari ko‘p asrlik hayotiy tajriba, ijtimoiy kuzatishlar va hikmatlarning ixcham, tushunarli, aniq shaklda ifodasidir. Maqollar orqali turli avlodlar o‘z bilimi, dunyoqarashi va odob-axloq me’yorlarini keyingi avlodga yetkazgan. “ ***Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli so‘zlardan iboratdir.***” [Madayev O, 2010:33] Shu ma’noda, xalq maqollarining o‘quvchilar tafakkuriga ko‘rsatadigan ta’siri ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Xalq maqollari odatda quyidagi xususiyatlar orqali bilim va tafakkur shakllanishida faol vosita bo‘la oladi:

1. Ixchamlik va umumlashma – Maqollar ko‘p ma’noli, umumlashgan fikrga ega bo‘lib, o‘quvchilarni muayyan voqea-hodisalardan umumiy xulosa chiqarishga o‘rgatadi.
2. Mantiqiy ketma-ketlik — Sabab–natija, voqea–xulosa kabi mantiqiy tuzilmalar mavjud.
3. Mazmun — Halollik, mehnatsevarlik, sabr, adolat kabi fazilatlarni mustahkamlaydi. “***Mahmud Koshg‘ariyning 1074-yilda yozib tugallangan “ Devonu lug‘otit turk ” asarida ikki yuz*** oltmishdan ***ortiq maqollar yozilgan. Gulxaniy o‘zining “Zarbulmasal” ida esa 400 ga yaqin xalq durdonalirni Boyo‘g‘li bilan Yapaloqqushning quda bo‘lish voqeasida misol keltirgan.***” [Madayev O, 2010:4] O‘quvchilarda tafakkurni rivojlantirish uchun o‘qituvchi maqollardan quyidagi shakllarda foydalanishi mumkin:

– darsni maqol bilan boshlash;
– mazmuniy tahlil;
– munozara;
– hayotiy vaziyatlarga bog‘lash; 3-sinf I qism o‘qish kitobidagi vatan haqidagi maqollar orqali o‘quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirib, ularning ham bu mazvuda biladigan maqollarini so‘raladi:

Vataning tinch – sen tinch.
Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.
Begona tuproq – devona tuproq. [Toirova M, 2023:9]

Xulosa qilib aytgan-da, o‘zbek xalq maqollari o‘quvchilar tafakkurini shakllantirishda kuchli ta’limiy vosita bo‘lib, ularning mantiqiy, obrazli, axloqiy va sotsial fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ta’lim jarayonida maqollardan tizimli foydalanish o‘quvchilar intellektual salohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Madayev O.Xalq og‘zaki poetik ijodi.–Toshkent: Sharq, 2010.–4-33b

2.Aydarova U.B, Azizova N.K, Toirova M.E.O‘qish savodxonligi .4-sinf II qism.– Toshkent, 2023.–22b

3. Aydarova U.B, Azizova N.K, Toirova M.E. O‘qish savodxonligi.3-sinf II qism. – Toshkent, 2023.–9b

O‘ZBEK SHEVALARIDA OT YASALISHI

Hayitmurodova Sug‘diyona Yigitali qizi-
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-“B” guruh talabasi
Ilmiy rahbar: professor Ernazarova Manzura Saparbayevna,
Navoiy davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi mudiri,
Tel: +998 (94) 881 12 06
Elektron pochta: sugdiyona20061206@icloud.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘zbek tili leksik tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan otlarning yasalish jarayoni tahlil qilinadi. Asarda o‘zbek shevalarida ot yasovchi affikslarning turli shakllari, ularning morfologik faoliyati va semantik xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotda adabiy til bilan sheva o‘rtasidagi leksik farqlar, ot yasovchi vositalarning tarixiy ildizlari hamda ularning hududiy ko‘rinishlari ilmiy manbalarga tayangan holda izohlanadi.

Kalit so‘zlar: ot yasovchi qo‘shimchalar, sheva, morfema, derivatsiya, so‘z yasalishi, affiks.

ABSTRACT: This article analyzes the process of noun formation, which is an essential part of the Uzbek language's lexical system. It explores the various forms of noun-forming affixes in Uzbek dialects, as well as their morphological functions and semantic features. The study explains the lexical differences between the literary language and dialects, the historical roots of noun-forming elements, and their regional variations, all supported by scholarly sources.

Keywords: noun-forming affixes, dialect, morpheme, derivation, word formation, affix.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется процесс словообразования имён существительных, являющийся важной частью лексической системы узбекского языка. Рассматриваются различные формы аффиксов, образующих существительные в узбекских диалектах, их морфологические функции и семантические особенности. В исследовании даётся объяснение лексических различий между литературным языком и диалектами, прослеживаются исторические корни словообразовательных средств и их региональные варианты на основе научных источников.

Ключевые слова: аффиксы образования существительных, диалект, морфема, деривация, словообразование, аффикс.

Til — inson tafakkurining, madaniyatining va milliy o‘zlikning eng muhim ifodasidir. O‘zbek tili tizimida so‘z yasalishi yangi so‘zlarni hosil qilish orqali tildagi leksik boylikni kengaytiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Xususan, otlarning yasalish jarayoni o‘zbek tilining tarixiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shevalarda esa bu jarayon turlicha morfologik shakllanishni ko‘rsatadi. O‘zbek tili so‘z yasalish tizimini o‘rganish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham ega. Chunki xalqning tarixiy hayoti, madaniyati va dunyoqarashi til birliklari orqali ifodalanadi.

O‘zbek tilida otlarning yasalishi asosan so‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali amalga oshadi. Masalan, -chi, -lik, -kor, -zor, -goh kabi affikslar ot yasovchi vositalar sifatida faol qo‘llanadi.

Shevalarda esa bu qo‘shimchalar o‘ziga xos fonetik o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan: Farg‘ona shevasida -chi o‘rniga -chu ishlatiladi: “ovchu”, “do‘konchu”; Qashqadaryo shevasida -goh o‘rniga -xona shakli: “ishxona”, “nonxona”; Xorazm shevasida esa -lik o‘rniga -luk shakli saqlanib qolgan: “bolalik” → “bolaluk”.

Bu holatlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili shevalari umumtilga nisbatan qadimgi fonetik va morfologik shakllarni saqlab kelmoqda.Otlardan yasalgan yangi birliklar semantik jihatdan turlicha ma’no nozikliklariga ega: dehqon → dehqonchilik (kasb ma’nosi), ustoz → ustozlik (holat ma’nosi), ovchi → ovchilik (faoliyat ma’nosi).

Shuningdek, ayrim shevalarda yangi affikslarning paydo bo‘lishi yoki eski affikslarning faoliyati tiklanayotganini ko‘rish mumkin. Masalan, -mand qo‘shimchasi adabiy tilda kam uchrasada, ayrim shevalarda “ilmmand”, “boymand” kabi shakllarda qo‘llanadi.

Shevalarda ot yasalishining asosiy xususiyatlari:

1) Fonetik o‘zgarishlar: qo‘shimcha tovushlarning yumshash yoki almashish holatlari. 2) Morfemalarning qadimiy shakllarini saqlash: -g‘on, -luk, -chi kabilar misol bo‘ladi. 3) Yangi yasama birliklar hosil qilishga moyillik: xalq og‘zaki nutqida yangi so‘z yasash faolligi.

4) Affikslarning semantik kengayishi: masalan, -lik qo‘shimchasi zamonaviy tilda ko‘plab ma’nolarni bildiradi (holat, kasb, fazilat).

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, o‘zbek tili so‘z yasalish tizimi uch asosiy manbadan oziqlanadi: 1. ichki til imkoniyatlari; 2. boshqa turkiy tillar ta’siri; 3. zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar

Ayniqsa, o‘zbek shevalarida so‘z yasalish jarayonlari xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayot tarzini aks ettiradi.

1. Otlardagi so‘z yasalish vositalari. O‘zbek tilida otlar asosan affiksatsiya, kompozitsiya, semantik o‘zgarish va konversiya orqali yasaladi. Affiksatsiya eng faol usul bo‘lib, ot yasovchi qo‘shimchalar yordamida yangi so‘zlar hosil qilinadi. Masalan: “dehqon” → “dehqonchilik”, “bola” → “bolalik”, “do‘st” → “do‘stlik”, “do‘stona”. Bu qo‘shimchalar (-lik, -chi, -dor, -goh va boshqalar) o‘zbek tilining tarixiy qatlamlarida shakllangan bo‘lib, bugungi kunda ham faol ishlatilmoqda.

2.Shevalarda ot yasovchi vositalarning xilma-xilligi, Shevalarda ot yasovchi qo‘shimchalar adabiy tildagidan farqli tarzda ishlatiladi. Masalan, Farg‘ona vodiysi shevalarida “-voy”, “-xon” qo‘shimchalari bilan emotsional ma’no hosil qiluvchi so‘zlar ko‘p: oyivoy, bolaxon. Xorazm shevasida esa qadimiy “-g‘a”, “-qa” qo‘shimchalari uchraydi: toshqa (tosh joyi), suvga (suv joyi).

3. Otlardan hosil bo‘lgan yangi semantik birliklar. Shevalarda ayrim otlarning ma’nosi ham o‘zgaradi. Masalan, “ko‘za” so‘zi ba’zi hududlarda “idish” ma’nosidan tashqari, “suv saqlanadigan idish” ma’nosida qo‘llanadi. Bu hol tilning boyib borishidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida va uning shevalarida otlarning yasalishi murakkab, ammo tizimli jarayon hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat lingvistik, balki madaniy ahamiyatga ham ega. Otlardan yasalgan yangi so‘zlar tilni boyitadi, xalq tafakkuri va tarixiy tajribasini ifodalaydi. O‘zbek tili va shevalarining bu jihatini chuqur o‘rganish tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘rayev, T. (2018). O‘zbek tilining so‘z yasalish tizimi. Toshkent: Fan nashriyoti. — 45–67-betlar.
2. Rasulov, M. (2020). Hozirgi o‘zbek tili: Morfologiya. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. — 112–128-betlar.
3. Begmatov, E. (2016). So‘z yasalish nazariyasi va amaliyoti. Samarqand: SamDU nashriyoti. — 52–74-betlar.
4. Shukurov, Sh. (2015). O‘zbek shevalarida leksik-morfologik jarayonlar. Toshkent: Fan. — 89–105-betlar.
5. To‘xliev, B. (2019). Tilshunoslik nazariyasi va usullari. Toshkent: TDPU nashriyoti. — 33–49-betlar.
6. Axmedova, D. (2021). O‘zbek tilida yasama otlarning semantik tahlili. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi maqolalar to‘plami. — 14–26-betlar.
7. G‘ulomov, A., & Qodirov, I. (2008). O‘zbek tilining dialektologiyasi. Toshkent: Universitet nashriyoti. — 97–113-betlar.
8. Karimova, M. (2022). Hozirgi o‘zbek tili morfemik tuzilmasi. Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy jurnali, №3. — 58–64-betlar.
9. Yo‘ldosheva, N. (2020). O‘zbek tilida so‘z yasovchi affikslar tizimi. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, №4. — 21–35-betlar.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2023). Tilshunoslikka kirish: darslik. Toshkent. — 73–94-betlar.

ADABIY TILNING RIVOJIDA SHEVA VA LAHJALARNING MUHIM AHAMIYATI

Shaxnoza IZBASAROVA,
Navoiy davlat universiteti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy tilning rivojida sheva va lahjalar o‘zining munosib o‘rniga ega ekanligi. Shevalar vositasida adabiy tilning boyisi hamda taraqqiy etishi. Xalq tilida qayd etilgan sheva, lahja, dialekt, adabiy til, milliy til kabi tushunchalarning o‘ziga xos jihatlari, o‘zaro munosabatlari, farqli tomonlari, shakllanish davrlari va ta’riflari anchagina o‘rganilgan va ular asosida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan.

Annotation: In this article, dialects and dialects have an important place in the development of literary language. Enrichment and development of literary language through dialects. Specific aspects, mutual relations, differences, periods of formation and definitions of concepts such as dialect, dialect, dialect, literary language, national language recorded in the national language have been studied a lot, and several studies have been conducted based on them.

Kalit so‘zlar: sheva, lahja, dialekt, adabiy til, milliy til, mo‘ldir dialekti ,mo‘ltir-mo‘ltir leksemasi.

Adabiy tilning rivojida sheva va lahjalar o‘zining munosib o‘rniga ega. Shevalar vositasida adabiy til boyiydi hamda taraqqiy etadi. Xalq tilida qayd etilgan sheva, lahja, dialekt, adabiy til, milliy til kabi tushunchalarning o‘ziga xos jihatlari, o‘zaro munosabatlari, farqli tomonlari, shakllanish davrlari va ta’riflari anchagina o‘rganilgan va ular asosida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan38.

Zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlarida shoiralar xilma-xil so‘zlarni qo‘llashadi, ularning ma’lum qismi adabiy tilda ham, shevada ham ishlatilsa, ba’zi birlari faqat shevada yoki shevalararo qo‘llanadi. Shevada yoki shevalararo qo‘llanadigan so‘zlar dialektizmlar deyiladi. Shuning uchun ham badiiy asar tilidagi dialektizmlar, o‘zbek shevalarining lug‘at boyligi to‘la yig‘ib olinmaguncha, ayniqsa, o‘zbek shevalari lug‘ati tarkibidagi leksik qatlamlarning qonuniyatlari, bu qatlamlarning aniq chegarasi, o‘zaro miqdoriy munosabatlari va bir-biriga munosabatlari aniqlanmaguncha ayni bir tushunchani ifodalovchi shevalararo so‘zlarning adabiy tilga munosabatini chuqur ilmiy asosda aniq belgilash mumkin emas39.

Ularda sheva vakillarining maqsadi, kasbi, ro‘zg‘ori, urf-odati, an’analari o‘z ifodasini topadi. Shevalarda qo‘llanadigan turli xil narsa va hodisalar nomlariga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: kiyim-kechak, rang, urf-odat, ovqat, harakat-holat va uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlari40.

Shevada kiyim-kechak, rang, urf-odat, oziq-ovqat va uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlari turlicha bo‘lgani uchun ularni alohida o‘rganish kerak deb bilamiz[41].

Zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlarida uchraydigan sheva leksikasiga oid birliklarni quyidagi ma’noviy guruhlarga ajratib, tahlil qildik:

1) kiyim-kechak nomlari;
2) belgi-xususiyat nomlari;
3) urf-odat nomlari;
4) oziq-ovqat nomlari;
5) harakat-holat nomlari;
6) uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari;
7) qurilish ashyolari nomlari;
8) joy nomlari;
9) qarindosh-urug‘ nomlari.

*Keksa ko‘zlarida **mo‘ldir** va **mo‘ldir***
Qotgan ko‘z yoshlarga boqardim hayron.
Bu sokin jussani kemirar ne sir,

Ne bois muttasil dillari vayron…

Ushbu konstruksiyada muayyan tasvir maqsadi bilan shevaga oid *mo‘ldir* so‘zi qo‘llanilgan. Mo‘ldir dialekti mo‘ltir-mo‘ltir leksemasining sheva ko‘rinishi sanaladi. Bu kabi so‘zlardan Zulfiya badiiy matnda qahramon xarakteri, milliy mansubligi, ichki dunyosi tasviri hamda voqea-hodisaga xoslik ta’kidini berish maqsadida foydalangan. Shuningdek, voqea bilan aloqador shaxsga ishora qilish yoki nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi haqida ma’lumot berish istagi bilan kiritilgan.

Shoira Oydin Hojiyeva dostonlarida lirik obraz yaratish hamda tabiat manzarasini aks ettirishda ichki kechinmalarini, his-tuyg‘ularini, tabiat va atrof-muhitda bo‘layotgan manzarani xalqchil til bilan ifodalaydi va bu bilan o‘quvchi ko‘z o‘ngida voqealanayotgan joy obrazli bo‘lib tasavvur uyg‘otadi:

Cho‘pkori uy
Paxsa devor
Oq pilladay yetilgan tut
Darvozasi bor naqshinkor
Ota meros, avlodga qut.

Ma’lumki, Buxoro viloyati va Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida qadim davrlardan buyon uylar *cho‘pkori,* ya’ni cho‘pdan yoki *paxsa* – somon qo‘shib ishlov berilgan loydan ishlangan g‘ishtlardan qurilgan. Sababi, u yerlarning sho‘rlik darajasi juda yuqori bo‘lganligi uchun shu taxlid qurilgan. Shoira esa bunga alohida urg‘u berish maqsadida ham shu so‘zdan foydalangan.

*“Toshtarozi” **yobonda** bir choq*
Chakalakzor bor edi ovloq.
Yulg‘un, shuvoq, ko‘ztikan, burgan –
Butazorda shoqol in qurgan.

Bu misrada keltirilgan “yobon” leksemasi etimologik jihatdan tojikcha so‘z bo‘lib, cho‘l, yovon mazmunida keltirilgan. Shuningdek, O‘rta Osiyoga doir tarixiy manbalarda va badiiy adabiyotda ko‘p uchraydi. Joy nomlari tarzida ham ishlatiladi. Ushbu matnda qo‘llangan sheva orqali “v” tovushining shevalarda “b” tovushiga aylanganini, misralarning qofiyalanishiga ham ajoyib tarzda qo‘shimcha ma’no berayotganini sezish qiyin emas. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham ushbu leksemasining shevaga oid element ekanligi ta’kidlab o‘tilgan: **YOBON** shv. Dala, dasht. Kuz oqshomi to‘shalar sokin, pichan hidi anqir yobondan. Sh. Rahmon, Yurak sirralari. Zambaraklar yobonda bekor gumburlagani yo‘q, Bekor oqmadi qonlar... va o‘ldi mardonalar. Mirtemir.

Osh tortildi.
Ko‘pkari bo‘ldi,
Kurash tushdi nomdor polvonlar
*El-**hamsoya** yig‘ilib keldi*
*Yana to‘ldi uylar, **ayvon**lar...*

Zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlarida qo‘llanilgan o‘zbek shevalarining lug‘at tarkibida fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar boshqa o‘zbek shevalariga qaraganda ko‘p miqdorni tashkil etishi bilan ajralib turadi. Albatta, bunday so‘zlar badiiy matnga haqqoniylik, xalqonalik baxsh etishi bilan birga, o‘zbek shevalarining lug‘at tarkibini boyitish uchun ham boy manba bo‘lib xizmat qiladi. Kuzatishlarimiz jarayonida shunga amin bo‘ldikki, dostonlarda ishlatilgan shevalarning lug‘at tarkibida tojikcha so‘zlar turkiy so‘zlardan keyingi o‘rinda turadi. O‘zbek tilining boyishida ishtirok etgan bunday so‘zlarni tadqiq etish etimologik, leksik-semantik jihatdan ham muhimdir. N.A.Baskakovning bu boradagi fikrlari ham o‘rinlidir: “Turkiy tillardagi eron leksik elementlari Markaziy va O‘rta Osiyo territoriyalaridagi turkiy qabilalarning eron qabilalari bilan mustahkam aloqalari tufayli vujudga kelgan”. Ushbu matnda qo‘llanilgan hamsoya leksemasi ham fors tiliga mansub bo‘lib, uyi, hovli-joyi yonma-yon yoki yaqin bo‘lgan kishilar, oilalar, xonadonlarga nisbatan ishlatiladi, adabiy tildagi qo‘shni leksemasining shevadagi ko‘rinishidir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham ushbu leksema shevaga oid element sifatida keltirilgan: **HAMSOYA** [f. < A – d 1 l a – soya ostida birga: qo‘shni] *shv.* Yonma-yon hovlida yashovchi; qo‘shni. *Bir faqir bir badavlat odamga hamsoya ekan. «Ertaklar». Salom-alikdan so‘ng, albatta, hamsoyangiz «xo‘sh, xizmat?» deb*

so‘rashi tayin. Gazetadan. Bizda yo‘g‘i – hamsoyada, ularda yo‘g‘i bizda bor. Gazetadan42. Bu o‘rinda ijodkor asar tilidagi ba’zi xalqchil, sodda, ammo ta’sirchan vosita, jonli xalq tilini aniqlashga imkon bermoqda.

Bolasi-yu kuchuklari

*Bir **tavaqdan** yeydi osh-non...*

Ushbu matnda qo‘llanilgan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini ifodalovchi tavaq leksemasi o‘zbek adabiy tilidagi tovoq so‘zining sheva variantidir. Tovoq so‘zi etimologik jihatdan ko‘p iste’molda bo‘lgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha sharhlanadi: **TABAQ** [a. – qopqoq; likop, lagancha] **1** esk. kt. ayn. **tovoq** – Osh misoli tabaqda ko‘z yoshi, Ko‘rmagi ko‘p, gurunchidan toshi. Muqimiy. Lochira-yu patirlar, shirinliklar, tabaqlarda et-u kulchatoy, kosalarda sho‘rvalar… Mirmuhsin, Me’mor. Buxoro va Navoiy viloyat shevalarida bu so‘z hali ham tabaq yoki tavaq shaklida ishlatilib kelinadi. Bu matnda ijodkor sheva so‘zlarini keltirish orqali lirik qahramonning hayot tarzi, turmushini o‘ziga xos, xalqchil til bilan ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Davronova M. Hozirgi adabiy jarayonda uslub poetikasi. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 136.

2. Enazarov T.J., Karimjonova V.A. va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 2012. – B. 42–43.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 4-jild. – Toshkent: O‘zME, 2007. – B. 258.

4. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1971.

“BOSHQARUV FAOLIYATIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI”

Karimov Shuhrat Safoyevich-
Buxuro Xalqaro Universiteti Psixologiya yo`nalishi 1-kurs magistri.
karimov.shuhrat.1985@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshqaruv faoliyatida qaror qabul qilish jarayonining ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Qaror qabul qilish inson omiliga asoslangan murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u rahbarning shaxsiy fazilatlari, guruhdagi ijtimoiy munosabatlar, tashkilot madaniyati hamda kommunikativ muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotda qaror qabul qilishning motivatsion, kognitiv va emotsional omillari o‘rganilib, ularning samaradorlikka ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv psixologiyasi, qaror qabul qilish, ijtimoiy omillar, liderlik, guruh dinamikasi, tashkilot madaniyati.

"Socio-psychological characteristics of the decision-making process in management"

Abstract: This article analyzes the socio-psychological aspects of the decision-making process in management. Decision-making is a complex psychological process based on the human factor, which is closely related to the personal qualities of the leader, social relations in the group, organizational culture and communicative environment. The study examines the motivational, cognitive and emotional factors of decision-making and highlights their impact on efficiency.

Keywords: management psychology, decision-making, social factors, leadership, group dynamics, organizational culture

«Социально-психологические особенности процесса принятия управленческих решений»

Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические аспекты процесса принятия решений в менеджменте. Принятие решений – сложный психологический процесс, в основе которого лежит человеческий фактор, тесно связанный с личностными качествами руководителя, социальными отношениями в группе, организационной культурой и коммуникативной средой. В исследовании рассматриваются мотивационные, когнитивные и эмоциональные факторы принятия решений и выделяется их влияние на эффективность.

Ключевые слова: психология управления, принятие решений, социальные факторы, лидерство, групповая динамика, организационная культура

Zamonaviy boshqaruv tizimida qaror qabul qilish jarayoni faqat iqtisodiy yoki tashkiliy omillarga emas, balki inson omiliga – ya’ni rahbar va jamoaning psixologik, ijtimoiy, emotsional xususiyatlariga ham bevosita bog‘liqdir. Qaror qabul qilish – bu muammoni aniqlash, maqsadni belgilash, variantlarni tahlil qilish va optimal yechimni tanlash jarayonidir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati rahbarning shaxsiy fazilatlari, jamoaviy muhit va kommunikativ aloqalarning samaradorligiga tayanadi.

Boshqaruv faoliyatida qaror qabul qilishning ijtimoiy-psixologik jihatlari zamonaviy psixologiya, sotsiologiya va menejment fanlarining kesishgan nuqtasida o‘rganiladi. Chunki har qanday qaror inson tomonidan, insonlar uchun va insonlar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun rahbarning psixologik tayyorgarligi, liderlik qobiliyati va ijtimoiy idroki boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir.

1. Qaror qabul qilish jarayonining mohiyati va bosqichlari

Qaror qabul qilish – bu boshqaruvning markaziy funksiyalaridan biridir. Har qanday tashkilotda samarali boshqaruv to‘g‘ri, o‘z vaqtida va asosli qarorlar qabul qilishga tayanadi. Odatda bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

Muammoni aniqlash va uni anglash.

Axborotni yig‘ish va tahlil qilish.

Muqobil variantlarni ishlab chiqish.

Variantlarni baholash va tanlash.

Qarorni amalga oshirish.

Natijani nazorat qilish va tahlil qilish.

Har bir bosqichda inson psixologiyasining turli jihatlari – idrok, tafakkur, motivatsiya, emotsiya, shaxslararo muloqot, ishonch va empatiya – faol ishtirok etadi. Masalan, muammoni aniqlashda rahbarning tahliliy fikrlash qobiliyati muhim bo‘lsa, variant tanlashda uning tavakkalchilikka moyilligi, liderlik uslubi va jamoa fikrini inobatga olishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

2. Qaror qabul qilishda shaxsiy psixologik omillar

Rahbar shaxsining temperament tipi, emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati va kommunikativ kompetensiyasi qaror sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan: Ekstravert rahbarlar ko‘proq jamoaviy maslahatlashuvlarga tayansa,

Introvert rahbarlar mustaqil tahlil va individual fikrlashga suyanadilar.

Shuningdek, rahbarning o‘ziga ishonchi, qaror qabul qilishdagi qat’iyligi, va shaxsiy mas’uliyat hissi boshqaruv samaradorligining psixologik ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Psixologlar ta’kidlaganidek, qaror qabul qilishda “intuitiv” va “ratsional” yondashuvlar uyg‘unlashgan shaklda qo‘llaniladi. Intuitsiya tajriba va bilim asosida shakllangan ichki sezgi bo‘lib, murakkab va noaniq vaziyatlarda rahbarga tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi.

3. Guruh psixologiyasi va ijtimoiy ta’sir omillari

Tashkilotda qaror qabul qilish ko‘pincha jamoaviy xarakterga ega. Guruh dinamikasi, jamoa a’zolarining o‘zaro munosabatlari, rahbarlik uslubi va kommunikativ iqlim bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Guruh ichidagi “ijtimoiy ta’sir” (social influence) fenomeni natijasida ayrim a’zolar fikri boshqalar tomonidan qabul qilinadi yoki rad etiladi.

Jamoaviy qaror qabul qilishning afzalliklari – fikrlar xilma-xilligi, ijodkorlik, o‘zaro mas’uliyat hissining oshishi. Biroq, bu jarayonning salbiy tomonlari ham bor: konformizm, “guruh fikri” (groupthink), va mas’uliyatning bo‘linib ketishi natijasida xatolik ehtimoli ortadi.

Rahbar bu holatlarning oldini olish uchun erkin fikr bildirish muhitini yaratishi, tanqidiy tahlilni rag‘batlantirishi va ochiq kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yishi lozim.

4. Qaror qabul qilishda milliy-madaniy va ijtimoiy kontekstning roli

Madaniyat qaror qabul qilish uslubiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Individualistik madaniyatlarda (masalan, AQSh, G‘arbiy Yevropa) rahbarlar mustaqil qarorlar qabul qilishga moyil bo‘lsa, kollektivistik jamiyatlarda (masalan, O‘zbekiston, Yaponiya) guruh konsensusiga katta ahamiyat beriladi.

Shuningdek, tashkilot madaniyati, qadriyatlar tizimi, rasmiy va norasmiy ijtimoiy rollar ham qarorlarning qabul qilinishiga bevosita ta’sir etadi. Bu jihatdan, rahbar madaniyatlararo kommunikatsiya ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, turli ijtimoiy qatlam vakillarining psixologik xususiyatlarini inobatga olishi zarur.

5. Emotsional intellekt va ijtimoiy idrokning ahamiyati

Zamonaviy boshqaruv psixologiyasida emotsional intellekt (EI) tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Emotsional intellekti yuqori bo‘lgan rahbar o‘z hissiyotlarini boshqara oladi, boshqalar hissiyotini to‘g‘ri idrok etadi va ularni samarali yo‘naltiradi.

-Bu xususiyat qaror qabul qilishda quyidagi afzalliklarni beradi:

-Stressli holatlarda barqarorlikni saqlash;

-Konfliktlarni konstruktiv yo‘l bilan hal etish;

-Jamoaviy ishonchni mustahkamlash;

-Qarorlarning ijtimoiy qabul qilinishini ta’minlash.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, emotsional intellekt darajasi yuqori bo‘lgan rahbarlar o‘z tashkilotida innovatsion qarorlarni samaraliroq joriy etadilar.

Xulosa. Boshqaruv faoliyatida qaror qabul qilish samaradorligi nafaqat rasmiy jarayon, balki murakkab ijtimoiy-psixologik tizimdir. Rahbarning shaxsiy fazilatlari, jamoaning psixologik iqlimi, madaniy qadriyatlar, kommunikatsiya sifati va emotsional intellekt darajasi bu tizimning muhim tarkibiy qismlaridir. Shu sababli boshqaruv sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar psixologik bilim va ko‘nikmalarni muntazam rivojlantirib borishlari lozim. Bu esa nafaqat samarali qarorlar qabul qilish, balki tashkilotda sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Robbins, S.P. & Judge, T.A. (2019). Organizational Behavior. Pearson Education.

2. Mintzberg, H. (2009). Managing. Berrett-Koehler Publishers.

3. Likert, R. (1961). New Patterns of Management. McGraw-Hill.

4. Goleman, D. (1998). Working with Emotional Intelligence. Bantam Books.

5. Xodjayev, B. (2020). Boshqaruv psixologiyasi asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.

6. Vroom, V.H., & Yetton, P.W. (1973). Leadership and Decision-Making. University of Pittsburgh Press.

THE RELATIONSHIP BETWEEN CONSCIOUSNESS AND THE SUBCONSCIOUS IN THE ANALYSIS OF CREATIVE POETIC STYLE

Kobulova Nodira Bahodirovna-
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Badiiy tafakkurda ong va ong osti o'rtasidagi bog'liqlik masalasi ijodkor poetik mahoratini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ong va ongli munosabatlar ko'rib chiqiladi. Bu jarayonlarning ahamiyati adabiyotlar yordamida muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar

Ong, adabiy tanqid, o‘zbek nasri, yozuvchi mahorati, muallif fikri, nasr, ramziy nutq, poetik mahorat

Annotation

The question of the relationship between consciousness and the subconscious in artistic thinking is of great importance in analyzing the poetic skill of the creator. This article examines the relationship between consciousness and the subconscious. The importance of these processes is discussed with the help of literature.

Keywords

Consciousness, literary, criticizm, worksheet, the uzbek prose, the writer’s skill, author’s opinion, prose, symbolic effect, speak talking speech

It is known that the relation of consciousness and the subconsciousness, primarily philosophical concept, have recently entered in the terms of literary studies. The term of expression of consciousness primarily means social relations, issues, culture of behavior, the general complex of concepts of behavior, ethics, and aesthetics – the basic norms for society. These norms have long been significant for the literature of the East. It is noteworthy that in modern literature, both of these concepts are relatively equal. The plot of some works is completely built in accordance with the principles of the reflection of the subconsciousness.

If we compare the expression of the processes taking place in the mind with a bright and bright room, the processes taking place in the depths of the subconsciousness can be compared with a dark and unexplored basement, where nobody knows what can happen.

Modern Uzbek prose clearly shows that these features are best viewed through the prism of the study of the experience of world literature, in particular, the assimilation of essential traditions of modernist and postmodernist literature.

We shall try to consider the reflections mentioned above on the example of a short story by Erkin Azam "Poet's Jubilee".

First of all, it would be appropriate to consider the real life events taking place in the story through artistic expression. Indeed, the image of the Poet, Otashkalb (Fiery Heart), as he is called in the short story, is clearly associated with the tragic life of the poet Usmon Nosir, arrested and imprisoned for a false denunciation in late 1930s. The main plot of the short story is the Poet's anniversary celebration, half of century later after his death.

Most of the organizers of this event were those who had slandered the poet, finally those who were involved in poet's arrest and death.

“The festive event started with a flattering and high-flown (as usual) speech of Akasakal (The Eldest) poet – a childhood friend of the Poet, his most close companion (as he was introduced) – a mendacious and unprincipled man”. [1. p. 317]

In addition to Aksakal, other characters with "speaking" names present at the jubilee: Mafkurakhanum (Mrs Ideology), Ajoyib Domla (Great Teacher), Alvastikhanum (Mrs Witch), Mushukakhanum (Mrs Mistress), Jiyanbek (Mr Nephew), Fan Arboi (Mr Scientist).

By most of the features of his disposition, the Eldest Poet (Aksakal) is close to the character of Nazar Yakhshibaev from the novel by Murad Muhammad Dust "Lolazor" (Tulip Garden). He is also crafty, cunning, always striving to find the easy way in life; his words are never compatible with his acts. The author managed to describe the disposition of the characters, their spoken and unspoken words, their subconscious thoughts, their mental state, without giving direct characteristics to the characters themselves. Due to the fact that the author put the most dramatic events and difficult situations as the plot of the story, the reader is able to see clearly expressed tempers. All characters seem to hide their faces under masks. But in the subconscious, masks disappear and characters' true essence becomes evident.

Mafkurakhanum (Mrs Ideology) came to read the greetings of official authorities. She doesn't know her native language well, and reads the text of the message, written only on one page stammering, with many difficulties. She absolutely cannot imagine that such a poet lived and created. She thinks that the poet is still alive: "And Master, won't he come himself?" she asks showing her ignorance. When Mafkurakhanum came back and sat down in her seat, her eyes caught a man from the first row, staring at her. The appearance of this man seemed familiar to her and she plunged in youth memories.

It is now the Great Teacher's turn to speak about the life and work of the Poet. In fact, the Great Teacher was one of those who were directly involved in the arrest and condemnation of the Poet. Naturally, he went up to the podium with a "mask" on his face. Having gone through a lot of intrigue, involving others into difficult situations, adjusting his mask under the dictates of time and testified against the Poet fifty years before, he starts now to praise him in a grand manner, philosophizing with pleasure.

Watching the situation during the event and analyzing it, the Eldest Poet who controls himself and others, all conversations, has to recognize, somewhere in the depths of his soul, the truth, and,

under the pretext of the forum, shows indulgence towards the others and makes them watch this show until the end.

Analyzing the situation at the evening, the Eldest Poet, controlling his speech, has to recognize, somewhere in the depths of his soul, the truth.

"As usual, describing his friend, the Eldest Poet speaks with some irritation and embarrassment. Look at the senseless speech of the apologist, uttered with foam at the mouth! And is there any truth in that speech?..." [1. pp. 324-325]

Another crafty image of the story – Mashukakhanum. When Otashkalb's reputation was rehabilitated, hoping to spice up her wasted life with the story that she was the Poet's mistress, she came to the rostrum. Her attempt to advertize herself provokes deep emotions of the Poet.

"Here! he thought, - she had no humanity left. Look how this Scarecrow wants to sparkle like a peacock! Standing with one foot in the grave, she's still hoping for something... It so difficult to understand where is the truth!" [1.p. 327]

Trying to save the objectivity and "indifference", the author fill in the Eldest Poet's speech with great ideological and artistic value. This expresses a complex composition and diversity of the work.

"Now everybody knows from the school curriculum what Mr Scientist is saying. There was no need to see him personally and be aware of the jubilee". [1.p. 336]

The Eldest Poet fully exposed his emotions and the psychological drama became even more complicated. We can say that dozens of hypocritical characters were presented. In contrast, there is the image of the Young poet.

It is known that the author cannot always openly express his personal point of view in his work. The nature of a poetic work is quite different. Due to the fact that the poem does not have a third person's speech, the author's point of view is obvious, but in prose it is not considered as an advantage. The prose language is diverse and multilayered, it has polyphonic and polyphonic properties. If at the beginning of the work the author's point of view is reflected in the thoughts of the Eldest Poet, later author's point of view is realized in the speech of the Young poet.

In a number of Erkin Azam's works there is one conditionally symbolic image. In "The Poet's Jubilee" the author refers to this method one again. The Poet, deprived of language, hands and feet, wheelchair-bound, turns into a member of his own anniversary. Given in the first part of the work, the final part of the event fulfils artistic and compositional tasks: "Finally, it is over. All the bad has left behind, and the long-term dream came true – the Jubilee of the Poet was held. However, he is still anxious, trying to start another action, or relax, but there is always one picture in his mind: a cemetery on the edge of a dense pine forest with one lonely grave. The crowd digs it carefully, but finds only brinks. No bone, no piece of rotten matter, no hair – only brick, brick, brick" [1.p. 358]

This passage gives a new meaning to the symbolical description made by the author at the beginning of the work. That means that with the lapse of time the grave of the poet turned into a feast of him. It is clear that the poet's body in a wheelchair, his ardent heart and, as well as his spirit will know no rest.

The speech of the characters in the story performs the function of the form, and the essence of the characters can be discovered in their inner world. This order of the parts of the plot defines the construction methods and composition of this part of the text. In this work, the author is not the unique narrator. Sometimes the Eldest Poet is assigned as the main narrator. Secondly, the episodes which took part after the jubilee celebrations, are presented as author's remarks. These episodes describe the further life of each character, and this creates the compositional structure.

In a letter addressed to Erkin Azam, another writer Shukur Khalmirzayev defines "the Poet's Jubilee" as a good work, but expresses several suggestions as well. "It is great! You have revealed the theme which no one dared to touch, and raised it up to the level of a masterpiece. Erkin, how did you find the idea to "bring" the disabled poet from Siberia to Uzbekistan? It is perfect godsend. Not everyone is able to come to this idea... At the same time, I have got some suggestions concerning the final part. When you write that after the poet's death, when his personality became known in literary circles, it became a significant event. No! This conclusion is contrary to the spirit of the work. In my opinion, the final part should be like this: after the death or murder of the poet, the identity documents

were found in his pockets. But no one believed it. No one believed that he was the Poet! That is an event!"[2. Pp.179]

After reviewing the final Chapter of the work" Another of the secret events was that in the morning the watchman bypassing and inspecting the Palace, under one of the ayvans located on the side, found strange things: headphones, scraps of hair and beard, dirty pants, one boot with blood stains... "one boot on top of a tree branch.

The most remarkable feature is the fact that the identity papers were found in the pockets of the Poet died in faraway cold land.

This event, which caused a stir not only in the city but throughout the country, and neither authority could explain it. That was the context of the Poet's jubilee.

In our opinion, Shukur Kholmirzaev, expressed their opinions on the basis of ideas previously read, not paying attention to the text. Because in the afterword we also find excerpts " ... after the death of the poet, when his personality became known, in literary circles, for example, it caused a stir. As it was mentioned above, the image of a person who came in a wheelchair, armless, legless - one of the symbolic means. In our opinion, the writer in accordance with real factors concretized restless spirit of the poet".

It is known that speech is controlled by consciousness. The processes taking place in the subconscious do not always find their expression in speech. Exceptions are quite rare. Disputes and discussions about the prose of Erkin Azam are issued from the fact that the subconscious speech of the characters transmits the author's thoughts. That can be seen on the example of the Young Poet's speech.

This quality, manifested in other works of Erkin Azam, turns into one of the strong features of the writer's poetic method.

References

1. Erkin A'zam. Late person. Stories. Tashkent 2002. The rest of the information is also provided in this resource, they are displayed in the bracket.

2. Artistic world of Erkin Azam. Collection of scientific articles and interviews. Tashkent 2014. 179 page

INJINIRING (MUHANDISLIK) YO'NALISHI TALABALARI UCHUN INGLIZ TILI KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Yalg'osheva Mohichehra Olimovna-
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Lingvistika va ingliz tilini
o'qitish metodikasi kafedrasi tayanch doktoranti
yalgashevamohichehra@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada injiniring yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun ingliz tili ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriyati, o'qitishning samarali metodlari va pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Maqolada kasbiy ingliz tili (ESP)ni o'qitishda CLIL texnologiyasining o 'rni, o'qituvchilarning kompetensiyasi hamda innovatsion ta'lim vositalaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: injiniring ta'limi, ingliz tili ko'nikmalari, kasbiy ingliz tili, CLIL texnologiyasi, innovatsion metodlar, pedagogik yondashuv.

Abstract. This article analyzes the necessity of developing English language skills for students studying in the field of engineering, as well as effective teaching methods and pedagogical approaches. The article highlights the role of CLIL technology in teaching English for Specific Purposes (ESP), the competence of teachers, and the importance of using innovative educational tools.

Keywords: engineering education, English language skills, English for Specific Purposes (ESP), CLIL technology, innovative methods, pedagogical approach.

Аннотация. В данной статье проанализирована необходимость развития навыков английского языка у студентов, обучающихся по инженерному направлению, а также

эффективные методы обучения и педагогические подходы. В статье раскрыта роль технологии CLIL при обучении профессиональному английскому языку (ESP), компетентность преподавателей и важность использования инновационных образовательных средств.

Ключевые слова: инженерное образование, навыки английского языка, профессиональный английский язык (ESP), технология CLIL, инновационные методы, педагогический подход.

Kirish

Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalar sohasida ingliz tili asosiy xalqaro aloqa vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Texnik sohalarda, xususan, injiniring yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o'rganish zaruriyati tobora ortib bormoqda. Chunki muhandislik faoliyatida xalqaro standartlar, ilmiy nashrlar, texnik hujjatlar va dasturiy ta'minot asosan ingliz tilida yuritiladi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili ta'limini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism

1. Kasbiy ingliz tili (ESP) o'qitishning mazmuni va ahamiyati

ESP (English for Specific Purposes) – bu talabalar mutaxassisligiga moslashtirilgan ingliz tili o'qitish tizimidir. Injiniring yo'nalishida ESP darslari orqali talabalar texnik terminologiyani o'zlashtiradi, texnik matnlarni tahlil qilish va texnik hujjatlarni ingliz tilida tayyorlash ko'nikmasini shakllantiradilar. ESP o'qitish jarayonida ta'lim maqsadlari mutaxassislik talablari bilan bevosita bog'lanadi.

2. CLIL yondashuvi asosida integratsiyalashgan ta'lim

CLIL (Content and Language Integrated Learning) — bu fan va tilni birlashtirib o'qitish metodidir. Mazkur yondashuvda talabalar texnik mazmundagi fanlarni ingliz tilida o'rganadilar, natijada ular nafaqat lingvistik, balki kasbiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradilar. CLIL metodikasi talabalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil va ijodiy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

3. Innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalarining roli

Raqamli ta'lim vositalari – ingliz tili o'qitish jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omillardandir. Coursera, edX, FutureLearn kabi onlayn platformalarda texnik sohalarga oid ingliz tilidagi kurslardan foydalanish talabalar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, texnik terminologiya lug'atlari, interaktiv mashqlar va video darslar ingliz tili bilimini mustahkamlaydi.

4. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati

Kasbiy ingliz tilini o'qituvchi pedagog texnik sohaning o'ziga xos terminologiyasi, fan-texnika yutuqlari hamda xalqaro kommunikatsiya madaniyatidan xabardor bo'lishi lozim. Shu bois, o'qituvchilarning malakasini oshirish kurslari, xalqaro tajriba almashinuvi va innovatsion metodlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

5. Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) metodining afzalliklari

Talabalar ingliz tilida muhandislik loyihalarini ishlab chiqish orqali o'z bilimlarini amaliyotda qo'llaydilar. Bu usul nafaqat ingliz tilini o'rganishga, balki kasbiy muammolarni hal etishda jamoaviy ishlash, muloqot qilish va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Injiniring yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tili o'qitishning asosiy maqsadi – ularning kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishdir. Ta'lim jarayonida CLIL texnologiyasi, ESP konsepsiyasi, raqamli ta'lim vositalari va loyiha asosidagi o'qitish metodlarini qo'llash yuqori natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes: A Multi-disciplinary Approach. Cambridge University Press.

2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.

3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘rganishni ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5117-son qarori, 2021-yil 19-may.

5. Jalolova, M. (2022). “Kasbiy ingliz tili o‘qitish metodikasining zamonaviy yondashuvlari.” Filologiya masalalari, №3, 112–118-betlar.

TIL O‘RGATISHNING BOSHLANG‘ICH BOSQICHIDAGI MUAMMOLAR: NAZARIYA VA AMALIY TAHLIL

Aliqulova Dildora Iskandar qizi
G‘ulomova Ozoda Ibodullo qizi
Navoiy davlat universiteti
’’Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim ’’ fakulteti 2-kurs magistrantlari

Annotatsiya. Ushbu maqolada til o‘rgatishning boshlang‘ich bosqichidagi lingvodidaktik, psixolingvistik, pedagogik va metodik muammolar chuqur ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda N. Xomskiy, L. S. Vygotskiy, S. Krashen, J. Harmer, D. Larsen-Freeman, J. Richards, D. Cummins, O‘zbekiston olimlari D. Tojiboyeva, O. Hasanboeva, Q. Shodmonov, A. G‘aniyev kabi mutaxassislarning ilmiy qarashlari asos qilib olingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til o‘rgatish jarayonidagi lingvistik, psixologik, metodik muammolar va ularning yechimlari tizimli tarzda yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy yondashuvlar – kommunikativ metod, CLIL, STEAM, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim, multimodal muloqotni rivojlantirish kabi metodlar taqqoslanib, samaradorlik asoslari ko‘rsatilgan.

Аннотация

В статье представлен глубокий научный анализ лингводидактических, психолингвистических, педагогических и методических проблем на начальном этапе обучения языку. Исследование основано на научных взглядах таких специалистов, как Н. Хомский, Л. С. Выготский, С. Крашен, Дж. Хармер, Д. Ларсен-Фримен, Дж. Ричардс, Д. Камминс, а также узбекских учёных Д. Тоджибоевой, О. Хасанбоевой, К. Шодмонов, А. Ганиев. Системно рассматриваются лингвистические, психологические, методические проблемы в процессе обучения языку учащихся начальной школы и пути их решения. В исследовании сравниваются современные подходы – коммуникативные методы, CLIL, STEAM, деятельностно-ориентированное обучение, развитие мультимодальной коммуникации, – и показаны основы эффективности.

Abstract

This article provides a deep scientific analysis of linguodidactical, psycholinguistic, pedagogical and methodological problems at the initial stage of language teaching. The study is based on the scientific views of specialists such as N. Chomsky, L. S. Vygotsky, S. Krashen, J. Harmer, D. Larsen-Freeman, J. Richards, D. Cummins, Uzbek scientists D. Tojiboyeva, O. Hasanboyeva, Q. Shodmonov, A. Ganiyev. Linguistic, psychological, methodological problems in the process of teaching a language to primary school students and their solutions are systematically covered. The study compares modern approaches – communicative methods, CLIL, STEAM, activity-oriented education, multimodal communication development, and shows the foundations of effectiveness.

Kalit so‘zlar: lingvodidaktika, psixolingvistika, boshlang‘ich ta’lim, til kompetensiyasi, kommunikativ metod, til o‘rgatish, CLIL, STEAM.

Kirish

Boshlang‘ich ta’limda til o‘rgatish jarayoni o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, til tizimini anglash va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning boshlang‘ich poydevorini yaratadi. Ushbu bosqichda duch kelinadigan muammolar o‘quv jarayonining samaradorligini keskin pasaytirishi mumkin. Ilmiy manbalarda (Vygotskiy, Piaget, Ziyodova, Tojiboyeva) ta’kidlanganidek, bola psixikasi, lingvistik tayyorgarligi va ijtimoiy muhit o‘zaro bog‘liq omillar hisoblanadi.

1. Boshlang‘ich bosqichda lingvodidaktik muammolar

1.1. Fonetik ko‘nikmalarni shakllantirishdagi qiyinchiliklar

O‘quvchilar tovushlarni farqlash, to‘g‘ri talaffuz qilishda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. V.A. Artemov va L.S. Vygotskiy fikricha, fonetik idrok bola miyasida bosqichma-bosqich shakllanadi va ko‘p takror talab qiladi. Ko‘plab tadqiqotlarda noto‘g‘ri talaffuz keyingi yozuv ko‘nikmalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan.

1.2. Orfografik malakalarni shakllantirishdagi muammolar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun eng murakkab jarayonlardan biri – fonema va grafema mosligini to‘g‘ri anglash. Tojiboyeva (2020) qayd etishicha, fonetik-orfografik tahlil yetarli darajada o‘tilmasa, o‘quvchilarda barqaror xatolar shakllanadi. Maxsus mashqlar, diktantlar, interfaol metodlar yetarli qo‘llanmaganda muammo kuchayadi.

1.3. Grammatik bilimlarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar

Boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilar grammatik kategoriyalarni amaliy nutqda qo‘llashda qiynaladi. A.N. Gvozdev tadqiqotlarida bolalar grammatik tafakkuri asta-sekin shakllanishi, abstrakt qoidalarning 7–10 yoshdan keyin yaxshiroq anglanishi ta’kidlangan.

2. Psixolingvistik muammolar

2.1. Motivatsiyaning yetarli emasligi

Til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish o‘quvchining yoshi, oilaviy muhiti, o‘qituvchi bilan kommunikativ aloqasi bilan bevosita bog‘liq. Gardner va Lambert nazariyasiga ko‘ra, ichki motivatsiya bo‘lmasa, til o‘rganish jarayoni juda sekinlashadi.

2.2. Yosh xususiyatlariga mos bo‘lmagan metodlar

Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida abstrakt tafakkur hali to‘liq shakllanmagan. Shuning uchun murakkab qoidalarni yodlashga asoslangan metodlar natija bermaydi. Aksincha, o‘yin, vizualizatsiya, kuzatish, real kontekstda misollar samaraliroq usullar hisoblanadi.

3. Metodik muammolar

3.1. O‘quv qo‘llanmalarining yetarli emasligi yoki murakkabligi

Ba’zi darsliklar lingvodidaktik talablarni to‘liq qamrab olmagan. Tadqiqotchilar (Ziyodova, Umarova, Jalolova) darsliklarda:

— mavzularning izchilligi yetishmasligi,

— lug‘aviy birliklarning yoshga mos tanlanmaganligi,

— mashqlar tizimida noaniqliklar mavjudligini qayd etgan.

3.2. O‘qituvchilarning lingvodidaktik savodxonligi

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari barcha fanlarni o‘rgatgani bois ayrim hollarda tilshunoslik bo‘yicha chuqur bilimga ega emasligi muammo tug‘diradi. Lingvistik kompetensiya past bo‘lsa, grammatik va orfografik qoidalarni tizimli tushuntirish qiyinlashadi.

4. Amaliy muammolar

4.1. Nutq muhitining yetarli emasligi

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilari uchun nutq amaliyoti juda muhim. Ammo ko‘plab sinflarda:

— muloqot mashqlari kam,

— rolli o‘yinlar yetarli emas,

— tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar yo‘q.

4.2. Zamonaviy texnologiyalar yetarli qo‘llanmasligi

Multimedia, interfaol dasturlar, raqamli platformalar (Quizlet, Duolingo, LinguaLeo) o‘quvchilarning fonetik, leksik va grammatik ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Ammo ko‘p maktablarda texnik sharoit cheklangan.

Xulosa

Boshlang‘ich bosqichda til o‘rgatish jarayonida uchraydigan muammolar – fonetik, orfografik, grammatik, psixolingvistik va metodik omillar bilan bog‘liq murakkab jarayon. Olimlar tadqi buqotlari asosida samarali yechimlar sifatida:

— yoshga mos metodlar,

— ko‘p takror asosidagi mashqlar,

— nutq amaliyotini kuchaytirish,

— darsliklarni takomillashtirish,

— zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Ushbu ilmiy tahlil xalqaro standartlarda qo‘llaniladigan lingvodidaktik yondashuvlar asosida yoritildi va boshlang‘ich ta’lim amaliyotida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan ilmiy-uslubiy xulosalar bilan boyitildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Chomsky, N. — Language and Mind. Cambridge University Press, 2006 (3-chi nashr).

2.Krashen, S. D. — Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press, 1982.

3.Vygotsky, L. S. — Thought and Language. MIT Press, 1962 (asl nashr).

4.Harmer, J. — The Practice of English Language Teaching. Longman, birinchi nashr 1983

5.Larsen-Freeman, D. — Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press, 2000 (2-chi tahrir).

6.Richards, J. C. & Rodgers, T. S. — Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014 (3-chi tahrir).

7.Cummins, J. — Language, Power and Pedagogy. (Masalan, nashri 1996, oraliqda Clevendon Press yoki Ablex — manbaga qarab turlicha.)

8.Bruner, J. — Child’s Talk: Learning to Use Language. Oxford University Press, 1983.

9.Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. — CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press, 2010.

MATEMATIKA DARSLARIDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Davronova Sabina –
Navoiy innovatsiyalar universiteti,
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi
e-mail. abduraxmanovg1970@gmail.com
Abduraxmanov G‘ulom
Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika darslarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning didaktik ahamiyati, ularning o‘quvchilarning bilim faolligini oshirishdagi, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi va o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishdagi roli tahlil qilinadi. O‘yinli faoliyat orqali o‘quvchilar mavzuni osonroq anglaydi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotda o‘yin texnologiyalarini dars jarayoniga qo‘llashning samarali shakl va usullari, shuningdek, boshlang‘ich sinf matematika ta’limida ularning natijadorligi pedagogik tajriba asosida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: matematika ta’limi, o‘yin texnologiyasi, didaktik o‘yin, innovatsion metod, o‘quv faoliyati, tafakkurni rivojlantirish, motivatsiya, interaktiv yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируется дидактическое значение использования игровых технологий на уроках математики, а также их роль в повышении познавательной активности учащихся, развитии логического мышления и усилении учебной мотивации. Посредством игровой деятельности учащиеся легче усваивают материал, развивают навыки самостоятельного мышления, анализа и общения. В исследовании обоснованы эффективные формы и методы применения игровых технологий в учебном процессе, а также их результативность в преподавании математики в начальных классах на основе педагогического опыта.

Ключевые слова: математическое образование, игровая технология, дидактическая игра, инновационный метод, учебная деятельность, развитие мышления, мотивация, интерактивный подход.

Annotation. This article analyzes the didactic significance of using game technologies in mathematics lessons and their role in enhancing students’ learning activity, developing logical thinking, and increasing learning motivation. Through game-based activities, students comprehend

topics more easily and develop skills of independent thinking, analysis, and communication. The study substantiates effective forms and methods of integrating game technologies into the teaching process, as well as their effectiveness in primary school mathematics education based on pedagogical experience.

Keywords: mathematics education, game technology, didactic game, innovative method, learning activity, development of thinking, motivation, interactive approach.

Bugungi kunda ta’lim tizimida interaktiv va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida matematika fanini o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish samarali natijalar beradi. Chunki o‘yin faoliyati bolaning tabiiy ehtiyoji bo‘lib, o‘quv jarayonini qiziqarli, erkin va faol muhitda tashkil etishga xizmat qilmoqda. Ushbu o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, birgalikda faoliyat yuritish, xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, matematika darslarini samarali tashkil etishda didaktik o‘yinlardan foydalanish zamonaviy pedagogik yondashuvlarning muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

O‘yin texnologiyalari — bu o‘quvchilarning o‘yin faoliyati orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimdir. U o‘quv jarayonini tabiiylik, faollik, mustaqillik va ijodkorlik asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Psixolog olim L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, o‘yin bola uchun “eng yaqin rivojlanish zonasi”ni yaratadi, ya’ni u o‘yin jarayonida o‘zidan yuqori darajadagi aqliy faoliyatni amalga oshira oladi. J. Piaget esa o‘yin faoliyatini kognitiv rivojlanishning muhim bosqichi sifatida baholagan. Shu bois, matematika o‘qitishda o‘yin texnologiyasi bolaning psixologik xususiyatlariga mos, tabiiy rivojlantiruvchi vosita hisoblanganligiga alohida e’tibor berish o‘yin texnalogiyalarining ahamyati yanada ortganiligini izohlaydi. Shu bilan birgalikda o‘yin texnologiyasi bir qancha pedagogik maqsadlarni amalga oshiradi. Xususan, o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb etadi, bilimlarni mustahkamlashni ta’minlaydi, o‘quvchilarda ijobiy motivatsiyani shakllantiradi, o‘zaro hamkorlik va raqobat muhiti yaratadi.

Matematika darslarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish darsning maqsadiga, mavzusiga va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab tanlanadi:

1. **Didaktik o‘yinlar:** “Son top”, “Matematik domino”, “Qo‘shish zanjiri”, “Kim tez yechadi?”, “Matematik labirint”. Bu o‘yinlar orqali o‘quvchilar arifmetik amallarni mustahkamlamay qolmay balki, fikrlash tezligini oshiradi.
2. **Rol o‘yinlari:** O‘quvchilarga “Hisobchi”, “Savdogar”, “O‘lchovchi” kabi rollar berilib, amaliy masalalar yechiladi. Bu o‘yinlar real hayotiy vaziyatlarni modellashtirishga yordam beradi.
3. **Kompyuter va raqamli o‘yinlar:** “Kahoot”, “Quizizz”, “LearningApps” kabi onlayn platformalar yordamida testlar, viktorinalar o‘tkazish o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantiradi.
4. **Harakatli o‘yinlar:** “Matematik estafeta”, “Raqamli yugurish”, “Kim ko‘proq to‘g‘ri javob topadi?” kabi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, diqqatni jamlashga yordam beradi.
5. O‘yin texnologiyalari matematika darslarini tashkil etishda innovatsion yondashuv sifatida alohida ahamiyatga ega. Ular orqali o‘quvchilar bilimlarni mustahkam egallaydi, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dars jarayonida faol ishtirok etadi.

Umuman olganda, o‘yin texnologiyalarining ta’lim jarayoniga tizimli kiritilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini oshiradi, ularning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu sababli, o‘yin texnologiyalarini dars jarayonida oqilona va maqsadga muvofiq qo‘llash zamonaviy pedagogik yondashuvning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vygotskiy L.S. *Voobrazhenie i tvorchestvo v detskom vozraste.* – Moskva: Pedagogika, 1984.

2. Karimova G. *Didaktik o‘yinlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish.* – “Ta’lim va fan yangiliklari” jurnali, 2022.
3. Xolmatova D., Raximova S. *Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish.* – Toshkent: Fan, 2020.
4. Omonov Sh. *Matematika ta’limida o‘yinli yondashuvlar va ularning samaradorligi.* – “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2023.

ZAMONAVIY TA’LIM VA GLOBAL INTEGRATSIYA

Saitmurotova Moxichexra Rustamovna-
JAPAN LANGUAGE SCHOOL
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi
saidmdovamohi@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola globallashuv jarayonida zamonaviy ta’limning global integratsiyadagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada ta’limning jahon miqyosidagi o‘zgarishlarga moslashish zarurati, global kompetensiyalarni shakllantirish, raqamli ta’lim texnologiyalarining roli hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, global integratsiyaning ta’lim tizimlariga ta’siri, ta’lim standartlarini uyg'unlashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish istiqbollari atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, global integratsiya, ta’lim islohotlari, raqamli ta’lim, madaniyatlararo muloqot, jahon mehnat bozori, innovatsiya, akademik mobillik.

Аннотация: В статье анализируются роль и значение современного образования в глобальной интеграции в процессе глобализации. Рассматриваются необходимость адаптации образования к глобальным изменениям, формирование глобальных компетенций, роль цифровых образовательных технологий и развитие межкультурного диалога. Также всесторонне освещается влияние глобальной интеграции на системы образования, перспективы гармонизации образовательных стандартов и расширения международного сотрудничества.

Ключевые слова: Современное образование, глобальная интеграция, образовательные реформы, цифровое образование, межкультурный диалог, глобальный рынок труда, инновации, академическая мобильность.

Abstract: This article analyzes the role and importance of modern education in global integration in the process of globalization. The article considers the need for education to adapt to global changes, the formation of global competencies, the role of digital educational technologies, and the development of intercultural dialogue. It also comprehensively covers the impact of global integration on education systems, the prospects for harmonizing educational standards, and expanding international cooperation.

Keywords: Modern education, global integration, educational reforms, digital education, intercultural dialogue, global labor market, innovation, academic mobility.

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil sifatida yanada ko‘proq e’tibor markaziga aylanmoqda. Jahonning turli davlatlari o‘rtasida ta’lim sohasidagi hamkorlik, tajriba almashinuvi va standartlarni uyg‘unlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli integratsiya jarayonlari kechmoqda. Bu jarayon xalqaro reytinglar, akademik mobillik, diplomlarning tan olinishi va raqamli ta’lim vositalarining keng qo‘llanilishi orqali namoyon bo‘lmoqda. Global integratsiya zamonaviy ta’lim tizimiga yangi imkoniyatlar eshigini ochib bergan bo‘lsa-da, bir qator muammolar, nomutanosibliklar va muayyan tahdidlarni ham yuzaga chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimining global maydondagi o‘rni va rivojlanish dinamikasini chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Global integratsiya - bu mamlakatlar, tashkilotlar va jamiyatlar o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning kuchayishi, umumiy qadriyatlar va standartlarning shakllanishidir. Bunday sharoitda zamonaviy ta’lim tizimi global miqyosdagi talablarga javob berish, fuqarolarni jahon

hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. [1,92].

Global integratsiya ta’lim tizimlari oldiga butunlay yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda ta’lim faqatgina bilim berishdan tashqari, shaxslarni jahon miqyosida raqobatbardosh, moslashuvchan va mas'uliyatli fuqarolar etib tarbiyalashga qaratilishi lozim. Bu talablar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

•Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati: Murakkab global muammolar shaxslardan noan'anaviy yechimlarni topishni va mustaqil fikrlashni talab qiladi.

•Raqamli savodxonlik va texnologik kompetensiyalar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) globallashuvning ajralmas qismi bo‘lib, ulardan samarali foydalanish zamonaviy ta’limning asosiy ko‘rsatkichidir. Onlayn ta’lim platformalari, virtual hamkorlik vositalari va sun'iy intellektning ta’limdagi o‘rni tobora ortib bormoqda.

• Chet tillarini bilish va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari: Global dunyoda samarali muloqot qilish uchun kamida bir nechta xorijiy tillarni bilish va turli madaniyatlarga hurmat bilan yondashish, ularni tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

• Moslashuvchanlik va umr bo ‘yi ta’lim: Tez o‘zgaruvchan mehnat bozori va texnologik yangiliklar shaxslardan doimiy ravishda yangi bilimlarni egallashni va ko‘nikmalarini takomillashtirishni talab qiladi.

• Global fuqarolik tushunchasi: Shaxslarni nafaqat o‘z mamlakati, balki butun dunyo oldida mas’uliyatni his qilishga, global muammolarga (iqlim o‘zgarishi, qashshoqlik, tinchlik) yechim topishga hissa qo‘shishga tayyorlash. [2,40]

Zamonaviy ta’lim va global integratsiya jarayoni quyidagi jarayonlarda yoqqol namoyon bo‘lmoqda.

1. Ta’lim tizimlarini o‘zgartirish: Globallashuv ta’limga yondashuvlarning o‘zgarishiga olib keldi. An’anaviy o‘qitish usullari o‘z o‘rnini interfaol va multimedia texnologiyalariga bo‘shatib bermoqda. Dunyo bo‘ylab yetakchi universitetlar talabalarga joylashuvidan qat’iy nazar sifatli ta’lim olish imkonini beruvchi onlayn kurslar va almashinuv dasturlarini joriy qilmoqda. [3,4].

2. Texnologiyaning ta’siri: Ta’limni raqamlashtirish asosiy tendentsiyaga aylandi. Coursera va edX kabi onlayn ta’lim platformalari butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlar uchun ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Texnologiya nafaqat o‘rganishda, balki ta’lim muassasalarini boshqarishda ham yordam beradi.

3. Xalqaro hamkorlik: Globallashgan dunyoda mamlakatlar ta’lim sohasida hamkorlikka intiladi. Talabalar almashinuvi dasturlari, qo‘shma tadqiqotlar va xalqaro konferentsiyalar bilim va madaniy qadriyatlar almashinuviga yordam beradi.

4. Madaniy integratsiya: ta’lim madaniy xilma-xillikni tushunish va hurmat qilish vositasiga aylanadi. Chet tillari va madaniyatlarini o‘rgatish talabalarga madaniyatlararo kompetentsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi, bu ko‘p millatli jamiyatlarda ayniqsa muhimdir. [5].

Xulosa. Zamonaviy ta’lim global o‘zgarishlar chorrahasida. Global integratsiya o‘rganish va bilim almashish uchun yangi ufqlarni ochadi, ammo bu ta’lim tizimlaridan moslashuvchan va o‘zgarishlarga moslashishni talab qiladi. Ta’lim olishdagi tengsizliklarni bartaraf etish va o‘quv dasturlarini zamonaviy dunyo talablariga moslashtirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish muhim.

Adabiyotlar ro‘yhati

1.Altbach, P. G., Knight, J. (2007). «The Internationalization of Higher Education: Motivations and Realities». Journal of Studies in International Education, 11(3-4), 290-305.

2. Beine, M., Noël, R., Ragot, L. (2014). «Determinants of the International Mobility of Students.» Economics of Education Review, 41, 40-5

3. Abdullaeva, N. (2020). «O‘zbekistonda ta’limni globalizatsiya: Muammolar va yechimlar». O‘zbekiston ta’limi, 2(1), 15-23.

4. Karimov, A. (2019). «Zamonaviy ta’lim va uning innovatsion asoslari.» Ta’lim va innovatsiyalar, 3(2), 45-50.

5. Toshpulatov, B. (2023). «Ta’lim va global integratsiya: O‘zbekistonning strategik yo‘nalishlari». Ta’lim soha tahlillari, 5(1), 30-37.

ЗНАЧЕНИЕ ПЕСНИ КАК ИСТОЧНИКА ИНФОРМАЦИИ И СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ УСТНОЙ РЕЧИ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ГЛОБАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ

Юсуфзода Юнус Шабнам,
УрГПИ заведующий кафедрой методики начального образования, доцент
Абдуллаева Моҳира Бекмуратовна
УрГПИ магистрант 1-го курса

Аннотация. В данной статье рассматривается роль песни как эффективного источника информации и средства формирования устной речи в условиях современного образования и глобальной интеграции. Автор подчеркивает, что использование музыкальных материалов способствует развитию аудирования, расширению словарного запаса, улучшению произношения и повышению мотивации обучающихся. Песни содержат аутентичные речевые образцы, культурные элементы и современные языковые конструкции, что делает их ценным инструментом для формирования коммуникативной компетентности. В исследовании также анализируются педагогические преимущества применения песен на занятиях, приводятся методические рекомендации и практические задания, направленные на развитие устной речи учащихся

Ключевые слова. песня, устная речь, коммуникативные навыки, современное образование, глобальная интеграция, аутентичные материалы, аудирование, мотивация, культурная компетентность, лингводидактика

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim va global integratsiya sharoitida qo‘shiqning axborot manbai hamda og‘zaki nutqni shakllantirish vositasi sifatidagi roli yoritiladi. Muallif musiqa materiallaridan foydalanish tinglab tushunishni rivojlantirish, lug‘at boyligini kengaytirish, talaffuzni yaxshilash va o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishga yordam berishini ta’kidlaydi. Qo‘shiqlar autentik nutq namunalarini, madaniy unsurlarni va zamonaviy til konstruksiyalarini o‘z ichiga olgani sababli, ular kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqotda qo‘shiqlardan dars jarayonida foydalanishning pedagogik afzalliklari tahlil qilinadi, shuningdek, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar va amaliy topshiriqlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: qo‘shiq, og‘zaki nutq, kommunikativ ko‘nikmalar, zamonaviy ta’lim, global integratsiya, autentik materiallar, tinglab tushunish, motivatsiya, madaniy kompetentlik, lingvodidaktika.

Abstract. This article examines the role of songs as an effective source of information and a tool for developing oral speech in the context of modern education and global integration. The author emphasizes that the use of musical materials contributes to improving listening comprehension, enriching vocabulary, enhancing pronunciation, and increasing learners’ motivation. Songs contain authentic language samples, cultural elements, and modern linguistic structures, which make them a valuable instrument for developing communicative competence. The study also analyzes the pedagogical advantages of using songs in the classroom and provides methodological recommendations and practical tasks aimed at improving students’ oral speech.

Keywords: song, oral speech, communicative skills, modern education, global integration, authentic materials, listening, motivation, cultural competence, linguodidactics.

Песенный материал выступает как наиболее мощный инструмент для развития языка. Концепция употребления песен во время обучения языкам все больше притягивает интерес исследователей и практикующих преподавателей. Возможно увидеть схожесть между песней и речью в ряде исследований различных аспектов. Углубленно занимаясь исследованием песни как лингвистического явление, исследователи пришли к выводу, что каждый язык обладает своей музыкальной основой (темп, динамика, ритм) [5]. Тексты песенного материала играют роль культурно обогащенного и развивающего контекста, с помощью которого

учащиеся младшего школьного возраста имеют возможность раскрыть мир с различных точек зрения. Песня становится полезным приспособлением для овладения устной речью, так как она включает в себя оригинальную образовательно- культурную информацию, в добавок к этому способствует рекурсивному исследованию и запоминанию индивидуального языка [2]. В период улучшения устной речи, учащиеся младшего школьного возраста чаще всего полагаются на повторение и запоминание, для того чтобы приобрести современную лексическую информацию. Основная проблема в том, для того чтобы сделать повторение новой информации значимым аспектом, отбирая необходимые контексты, в которых можно выработать автоматизированность лексических навыков путем неоднократного повторения. В результате этого многократное прочтение, запоминание и заучивание текстов любимой песни стало общераспространенным в культурной среде явлением. Песенный подход к освоению речевого аспекта широко популярен в данное время потому, что введение его в методику образования даёт преимущество расширения кругозора учащихся младшего школьного возраста и вклинивания в процесс обучения роскошного лингвистического и мировоззренческого материала [7].

Лингвистический подход к изучению языка обеспечивает не только исследование учащимися жизненного опыта народа, его культуры (который включает нравственные и этические ценности, искусство, национальные традиции и религию), в добавок к этому духовно-эстетическое воздействие на чувства и мысли школьников младшего школьного возраста. Песенный материал-это свойственная часть культуры каждого народа. И в плане использования различных песен в процессе развития речи, является видным источником для приобретения лингвистических знаний, эстетического воспитания и духовного обогащения [4].

Использование песенного материала на уроках русского языка и читательской грамотности в общеобразовательных школах как учебного средства является действительным источником информации изучаемого, потому что содержание песни показывает характерные черты окружающей реальности современного мира (к примеру особенности быта, традиций, культуры). Благодаря песням повышается производительность работы над произношением в результате соответствующего использования ритма в песне, в добавок повышаются важнейшие коммуникативные навыки с использованием различных видов упражнений с текстом песни. Кроме этого, песни позволяют реализовать обучение сквозь эмоциональное участие и драматизацию контекста: смысл лирики в гармоничности с мелодией представляются как наилучшее средство для передачи эмоций. В некоторых случаях песенный контекст очень полезен для обучения к цивилизации, истории, географии и традиций страны [6].

Песня — одна из древнейших форм лирической поэзии, состоящая из нескольких стихотворных строк, предназначенных для пения. Песни поются на мелодию. Иногда во время игры играет песня. Итак, для песни нужны стихотворение и мелодия. Песня – один из самых распространенных и популярных жанров фольклора.

Произведения, которые созданы специально для детей младшего школьного возраста, составляют важную область народной поэзии – детский фольклор. Впервые серьезное внимание на детский фольклор обратил известный педагог К.Д.Ушинский. В 60-х г. XIX в. в журнале «Учитель» появились публикации произведений детского фольклора и их анализ с точки зрения физиологии и психики ребенка. Тогда же началось систематическое собирание народных произведений для детей. Народные песенки и потешки, также представляют собой прекрасный речевой материал, который можно использовать, как в организованной образовательной деятельности школьников [10, с. 104].

С их помощью можно развивать:

- ✓ фонематический слух
- ✓ грамматический строй речи
- ✓ звуковую культуру речи
- ✓ обогащать словарь

А. П. Усова считает, что потешки, сказки, загадки и пословицы являются богатейшим материалом для развития культуры речи [9].

Результаты осуществленных исследований указывают на то, что музыка и речь, являясь одним из важнейшей формой беседы, имеют немало схожести. К параметрам сходства музыки и речи исследователи относят коммуникативность, знаковые и акустические параметры, интонационную основу и прочее, но основное сходство в том, что и музыкальное искусство, и речь имеют общее начало — звук. Именно звук всегда был и будет выражением определенного смысла, определенной идеи. Еще до появления естественных для нас слов и уж тем более предложений и текстов, звук являлся единственно возможным средством общения между людьми. Так как человеческая община, жившая до нашей эры выражали свои эмоции, страхи через звуки [8].

Таким образом в вопросах, касающихся взаимосвязи музыки и речи, нельзя обойти вниманием и такой важный компонент, как интонация. Таким образом, выясняется, что общее между музыкой и речью это - их знаковый характер: музыка и речь пользуются собственными специфическими знаковыми системами. Понятен и тот факт, что именно у детей наиболее сформированы языковые способности разных видов, поскольку освоение языка является основным инструментом социализации ребенка. Поэтому виды деятельности, носящие языковой характер, наиболее адаптированы возможностям детской психики [1, с. 550].

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бабаназарова Мафтуна. (2022). Роль музыки в формировании речи. pedagogs Jurnali, 7(1), 547–556.
2. Беляева О.В. Особенности развития устной речи у детей младшего школьного возраста // Форум молодых ученых. 2018. №5-1 (21).
3. Бережковская Е. Л. Психическое и личностное в развитии ребенка при переходе от дошкольного к младшему школьному возрасту // Вестник РГГУ. Серия «Психология. Педагогика. Образование». 2013. №18 (119).
4. Богданович Г.Ю. Лингвистическая репрезентация: духовно-нравственные ценности в наивной картине мира современного социума // Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. Филологические науки. 2018. №1
5. Восковская А.С. Использование музыки и песен для повышения уровня мотивации к обучению иностранному языку в неязыковом вузе // мнко. 2023. №1 (98).
6. Даричева М. В., Минеева О. А., Насиханова А. З., Казначеев Д. А. Использование песенного материала для совершенствования лексических навыков на уроках иностранного языка // Мир науки. Педагогика и психология. 2020. №6.
7. Прудникова Т. И., Волкова В. О. Языковое развитие младших школьников на уроках русского языка // Проблемы современного педагогического образования. 2022. №74-2.
8. Ярмухаметова Р. С. Семантическая природа речевой и музыкальной интонации // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Социальные, гуманитарные, медико-биологические науки. 2018. №1 (58)
9. Белова В.А., Каримова О.А., Ахмедова М.М. Русский язык и читательская грамотность. 2 класс, 2021. стр 10
10. Вешневицкая, О. В. Устное народное творчество как средство развития речи детей раннего возраста / О. В. Вешневицкая, К. В. Браун, Н. Н. Карачевцева // Образовательная среда сегодня: теория и практика : Сборник материалов VII Международной научно-практической конференции, Чебоксары, 02 ноября 2018 года / Редколлегия: О.Н. Широков [и др.]. – Чебоксары: Общество с ограниченной ответственностью "Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс», 2018. – С. 104-106.

MIKROTA’LIM – TA’LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI AMALGA OSHIRISHNING SAMARALI VOSITASI.

p.f.f.d.(PhD), dots.Abdullayeva Nilufar Maxamadjanovna
Тел. 937761031 anilufar140577@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati va ularning ta’lim jarayoniga ta’siri haqida. maqolada raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni va zamonaviy pedagogik usullar kelajak avlodni raqobatbardosh va ijodiy fikrlovchi mutaxassis sifatida tarbiyalashdagi roli yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: mikrota’lim, raqamli ta’lim, qisqa darslar, microlearning, innovatsion ta’lim, mobil o‘qitish, onlayn ta’lim.

Аннотация. Данная статья посвящена значению современных педагогических подходов и их влиянию на образовательный процесс. В статье подчеркивается, что современные методы обучения помогают сделать процесс обучения более эффективным, интерактивным и интересным.

Ключевые слова: микрообучение, цифровое образование, короткие уроки, microlearning, инновационное обучение, мобильное обучение, онлайн-обучение.

Annotation. This article discusses the importance of modern pedagogical approaches and their impact on the educational process. It highlights how contemporary teaching methods make learning more effective, interactive, and engaging.

Keywords: microlearning, digital education, short lessons, innovative learning, mobile learning, online learning, adaptive learning.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi jadal rivojlanib, o‘quv jarayoniga yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar an’anaviy usullarning o‘rnini egallab, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bugungi yosh avlodning tafakkuri, dunyoqarashi va kasbiy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy o‘qitish usullari muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda ta’lim sohasida yangiliklar va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari o‘quvchilarga nazariy bilim berishga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy usullar esa bilimlarni amaliyotda qo‘llashga, mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga yo‘naltirilgan. O‘quv jarayonida interfaol metodlar, axborot texnologiyalari va ijodiy yondashuvlardan foydalanish zarurati kun sayin ortib bormoqda.

Shu sababli, ta’lim jarayonida yangi pedagogik metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish bilan birga, ularni kelajak kasblariga tayyorlashda ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va innovatsion metodlarning integratsiyasi o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu metodlar orqali har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va o‘rganish sur’atiga moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish mumkin.



Rasm 1. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning tamoyillari

Interaktivlik – o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘zaro faol muloqot olib boradi.

Texnologiyalardan foydalanish – elektron darsliklar, onlayn platformalar va raqamli ta’lim vositalari qo‘llaniladi.

Talabaga yo‘naltirilgan ta’lim – har bir o‘quvchining qiziqishi va ehtiyojlariga mos metodlar qo‘llaniladi.

Amaliyotga asoslangan ta’lim – nazariy bilimlarni real loyihalar va tajribalar orqali mustahkamlash.

Ko‘nikmalarni rivojlantirish – nafaqat bilim berish, balki muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning asosiy tamoyillari ta’lim jarayonini yanada samarali, interfaol va o‘quvchilarga moslashtirilgan holda tashkil etishga xizmat qiladi. Ulardan foydalanishning asosiy sabablari o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi, o‘quvchilarni tayyor bilimlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra, o‘zlari mustaqil ravishda bilim olishga va uni ijodiy qo‘llashga yo‘naltiradi.

O‘qitishni amaliyotga yo‘naltiradi. Nazariy bilimlarni hayotiy tajriba va kasbiy faoliyatga tatbiq etish imkonini beradi, bu esa mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga yordam beradi.

Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va o‘rganish sur’atini inobatga olgan holda ta’lim berish imkoniyatini yaratadi. Shaxsiy yondashuv va individual rivojlanishga asos bo‘ladi.

Jamoada ishlash, munozara va muhokamalar orqali o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish hamda jamiyatda faol ishtirok etishiga yordam beradi. O‘quvchilardagi interfaollik va ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini yanada qulay, qiziqarli va ta’sirchan qilishga imkon beradi va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoni yaratadi.

Shu sababli, zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirish va kelajak avlodni yanada raqobatbardosh va ijodiy fikrlovchi mutaxassislar sifatida tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o‘qitish usullari ta’lim jarayonini yanada samarali, interfaol va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy yondashuv imkoniyati va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ta’lim sifati oshadi va o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Shu bois, zamonaviy pedagogik yondashuvlar nafaqat o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, balki kelajak avlodni raqobatbardosh va ijodiy fikrlovchi shaxslar sifatida tarbiyalash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘qitish usullarining afzalliklarini ko‘rib chiqib, zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish bir qator muhim afzalliklarga ega degan xulosalarga kelishimiz mumkin.



Rasm 2. Zamonaviy o‘qitish usullarining afzalliklari

Shunday zamonaviy o‘qitish turlaridan biri Mikrolearningdir. Raqamli ta’lim transformatsiyasi davrida mikrota’lim (inglizcha: microlearning) tobora ommalashib bormoqda [3]. Bu atamaning o‘zi ham kichik hajmdagi (“mikro”) o‘quv materiallarini ma’lum bir mavzu yoki vazifaga yo‘naltirilgan holda o‘rganishni anglatadi.

«Mikrota’lim – bu ta’lim olish jarayonini juda qisqa intervalli mashg‘ulotlarga bo‘lishni taklif qiluvchi yangi ta’lim formati» [1]. «Microlearning – bu ma’lumotning “tabletka” shaklidagi ko‘rinishi. Ya’ni, o‘quv kontenti kichik qismlarga bo‘linadi va u, xuddi fraksion ovqatlanish prinsipiga o‘xshash tarzda, yaxshiroq o‘zlashtiriladi. Har bir blok 5-8 daqiqa davom etadi va shu vaqt ichida asosiy fikr, g‘oya yoki bilim yetkazilishi kerak» [4].

Aslida, mikrota’lim innovatsion tizim emas. Uning yangiligi faqatgina zamonaviy o‘quv vositalari – kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar va ularga mos dasturiy ta’minotlardan foydalanishda ko‘rinadi.

O‘quv materialini kichik qismlarga bo‘lib yetkazib berish g‘oyasini ilk bor XX asrning 50-yillarida amerikalik psixolog B. Skinner ilgari surgan. Uning maqsadi bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish uchun materialni ketma-ket taqdim etish va nazorat qilish orqali boshqarishdan iborat edi. Biroz vaqt o‘tib, N. Krauder nazorat natijalariga qarab o‘quvchilarga mustaqil ishlash uchun material taklif qiluvchi tarmoqlangan dasturlarni ishlab chiqdi [2]. O‘quv materialini maxsus o‘quv qurilmalari orqali boshqariladigan tarzda o‘zlashtirish dasturlashtirilgan ta’lim deb nomlangan.

Raqamli transformatsiya davrida mikrota’lim (microlearning) tobora ommalashib bormoqda. Ushbu ta’lim formati o‘quv materiallarini kichik qismlarga bo‘lishni, har bir qismi aniq mavzu yoki vazifaga qaratilishini nazarda tutadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalardan, masalan, mobil ilovalar, onlayn platformalar va moslashuvchan o‘qitish tizimlaridan foydalanish tufayli mikrota’lim keng auditoriya uchun qulay bo‘lmoqda.

Mikrota’lim quyidagi asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi va ta’lim jarayonida samaradorlikni oshiradi.



Rasm 3. Mikrota’limning asosiy xususiyatlari

Raqamlashtirish davrida mikro-mashg‘ulotlar odatda 1 dan 5 minutgacha davom etadi. Ushbu vaqt ichida o‘quvchi ma’lum bir ma’lumotni oladi, nazorat savollariga javob beradi yoki oldin o‘rganilgan materialni takrorlaydi. Bunday yondashuvga misol sifatida xorijiy tillarni (ingliz, ispan, nemis, frantsuz) individual o‘rganishga mo‘ljallangan Duolingo sayti va mashhur ilovasini keltirish mumkin. «Asosiy maqsad – texnologiyalar yordamida har kimga repetitor bilan shug‘ullanishga teng darajadagi ta’lim olish imkoniyatini yaratish» – bu saytning missiyasidir [5].

Keling, ushbu ta’limning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

- Birinchidan, **konsentratsiya**: mashg‘ulot iloji boricha qisqa bo‘lishi va yagona o‘quv maqsadiga mos kelishi, muayyan mavzuga qaratilgan bo‘lishi kerak. 2015 yilda nemis olimlari «mikrota’lim xotirada saqlash ko‘rsatkichlarini 20% ga yaxshilaganini» ma’lum qilishgan. Ularning tadqiqotiga ko‘ra, mikrota’lim usuli bilan o‘qigan talabalarga savollarga javob berish uchun 28% kamroq vaqt talab etilgan [1].
- Ikkinchidan, **xilma-xillik**: audio, video, testlar, infografika, interaktiv PDF-fayllardan foydalanish.
- Uchinchidan, **interaktivlik**: o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilish uchun interaktiv elementlarni qo‘shish.
- To‘rtinchidan, **moslashuvchanlik**: mikrota’lim turli qurilmalarda – smartfonlar, planshetlar, noutbuklar va shaxsiy kompyuterlarda mavjud bo‘lishi kerak [6].

Rasm 4. Mikrota’limning afzalliklari

Rasm 5. Mikrota’limning kamchiliklari

Mikrota’lim zamonaviy ta’lim tizimining muhim elementi bo‘lib, ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va bilimlarni amaliy qo‘llash imkoniyatini ta’minlaydi. Uning asosiy afzalliklari – qisqa vaqt ichida samarali bilim olish, eslab qolishning osonligi, moslashuvchanlik va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi. Bu usul o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlaydi, ularning motivatsiyasini oshiradi va real hayotda bilimlarini tezroq qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, mikrota’lim ta’lim samaradorligini oshirish va zamonaviy o‘quv jarayonini yaxshilashda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijobiy tomonlari	salbiy tomonlari
• **Tez va oson o‘zlashtirish** • **Vaqtni tejash** • **Yuqori motivatsiya** • **Moslashuvchanlik** • **Interaktivlik** • **Shaxsiy yondashuv** • **Takrorlash imkoniyati**	• **Chuqur o‘rganish yetishmovchiligi** • **Tizimli ta’lim yetishmasligi** • **O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga bog‘liqligi** • **Hamma fanlar uchun mos emas** • **Texnik bog‘liqlik** • **Diqqatni tez yo‘qotish ehtimoli**

1. **Tez va oson o‘zlashtirish** – Ma’lumotlar kichik qismlarga bo‘linganligi sababli, o‘quvchilar ularni tez va samarali o‘zlashtiradilar.
2. **Vaqtni tejash** – Qisqa darslar tufayli o‘quvchilar o‘rganishga kamroq vaqt sarflaydi.
3. **Yuqori motivatsiya** – Qisqa va mazmunli mashg‘ulotlar o‘quvchilarning qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi.
4. **Moslashuvchanlik** – O‘quv materiallari smartfonlar, planshetlar va kompyuterlarda mavjud bo‘lib, istalgan vaqtda va joyda foydalanish mumkin.
5. **Interaktivlik** – Video, audio, testlar va boshqa interaktiv elementlar o‘rganish jarayonini qiziqarli qiladi.
6. **Shaxsiy yondashuv** – O‘quvchilar o‘z ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda mashg‘ulotlarni tanlashlari mumkin.
7. **Takrorlash imkoniyati** – Qisqa darslar materialni tez-tez takrorlash va yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi.

Mikrota’lim samarali ta’lim usuli bo‘lsa-da, u murakkab va fundamental bilimlarni chuqur o‘rganish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun uni an’anaviy ta’lim usullari bilan birgalikda qo‘llash yanada yaxshi natijalar berishi mumkin.

1. **Chuqur o‘rganish yetishmovchiligi** – Kichik qismlarga bo‘lingan materiallar murakkab va chuqur bilim olish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin.
2. **Tizimli ta’lim yetishmasligi** – An’anaviy ta’lim tizimidan farqli ravishda, mikrota’lim ko‘pincha umumiy tasavvurni emas, balki alohida mavzularni qamrab oladi.
3. **O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga bog‘liqligi** – Mikrota’limda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘quvchilar o‘z vaqtlarini to‘g‘ri boshqarishlari kerak.
4. **Hamma fanlar uchun mos emas** – Ba’zi murakkab va amaliy fanlarni (masalan, fizika yoki tibbiyot) mikrota’lim orqali o‘rganish qiyin bo‘lishi mumkin.
5. **Texnik bog‘liqlik** – Mikrota’lim onlayn platformalar va qurilmalarga bog‘liq bo‘lgani sababli, internetga kirish imkoniyati bo‘lmagan hududlarda uni qo‘llash qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.
6. **Diqqatni tez yo‘qotish ehtimoli** – O‘quvchilar qisqa darslarga o‘rganib qolib, uzoq muddatli o‘qish jarayonlarida diqqatlarini jamlay olmasliklari mumkin.

Mikrota’lim zamonaviy ta’lim tizimida samarali yondashuv bo‘lib, ayniqsa, tezkor va interaktiv o‘qitish uchun foydalidir. Ammo uni an’anaviy ta’lim bilan to‘ldirish muhim, chunki har qanday fan yoki soha chuqur tushunishni talab qiladi.

Mikrota’limning muvaffaqiyatli misollaridan biri Duolingo bo‘lib, u qisqa interaktiv darslar orqali xorijiy tillarni o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, Coursera, Udemy, LinkedIn Learning kabi korporativ o‘quv platformalarida ham mikrota’lim professional rivojlanish uchun keng qo‘llanilmoqda.

Mikrota’lim shunchaki zamonaviy trend emas, balki ta’limning raqamli transformatsiyasining samarali vositasidir. U ta’limni yanada qulay, ochiq va shaxsiylashtirilgan qiladi. Biroq maksimal natijaga erishish uchun mikrota’limni boshqa o‘quv usullari bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Горчаков Д. Микрообучение - система образования будущего / Лайфхакер [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://lifehacker.ru/ microlearning (дата обращения: 27.06.2020).
2. Грицык В.А. Принципы и методы компьютерного обучения / SuperInf.ru [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://superinf.ru/view_ helpstud.phpid=1668 (дата обращения: 27.06.2020).
3. Коровин А. Уроки в стиле инстаграма: что такое микрообучение / Теории и практики [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https:// theoryandpractice.ru/posts/17463-uroki-v-stileinstagrama-chto-takoe-mikroobuchenie (дата обращения: 20.06.2020).
4. Монахов Н.В., Монахова Г.А. Сравнительный анализ программных средств для разработки образовательных продуктов // Дистанционное и виртуальное обучение. – 2015. - № 9 (99). – С. 111–116.
5. Arihainfo. Что такое микрообучение? Полное руководство для начинающих / Aruna. website [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://aruna.website/jeto-interesno/chto-takoemikroobuchenie-polnoe-rukov (дата обращения: 13.08.2020).
6. CORE / Платформа для онлайн-обучения [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://live.coreapp.ai/main (дата обращения: 12.06.2020).
7. Duolingo / Уроки в игровой форме [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://ru. duolingo.com (дата обращения: 27.06.2020).

MAQOLLARNI TADQIQ ETISHDA NAZARIY YONDASHUVLAR

Kodirova Saodat Abdiraximovna-
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi f.f.f.d.(PhD), dotsenti
Navoiy davlat universiteti Navoiy shahri, O‘zbekiston

Annotatsiya: Bu birliklarning mazmuni, shakli, nutqdagi o‘rni, milliy va umuminsoniy xususiyatlarini ochib berish uchun bir qancha nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Har bir yondashuv maqollarning ma’no qatlamlariga turli nuqtai nazardan yondashadi, ularning serqirra mohiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: Tipologik, tematik-kompozitsion, intertekstual, stilistik.

Abstact. A number of theoretical approaches have been developed to reveal the content, form, role in speech, national and universal characteristics of these units. Each approach approaches the layers of meaning of proverbs from different points of view, illuminating their multifaceted essence.

Key words: Typological, thematic-compositional, intertextual, stylistic.

Аннотатция. Разработан ряд теоретических подходов, раскрывающих содержание, форму, роль в речи, национальные и общечеловеческие особенности этих единиц. Каждый подход рассматривает смысловые пласты пословиц с разных точек зрения, раскрывая их многогранную сущность.

Ключевые слова: Типологический, тематико-композиционный, интертекстуальный, стилистический.

***Maqollarni tadqiq qilishda folkloristik nazariy yondashuvlar*.** Maqollar xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan va qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, ularda xalqning hayot tajribasi, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy-estetik qarashlari aks etadi. Folklorshunoslik maqollarni mustaqil folklor janri sifatida o‘rganadi: uning paydo bo‘lishi, shakllanishi, funksiyasi, janrlararo bog‘liqligi, ijodiy jarayoni va madaniy vazifalarini tadqiq etadi. Shu bois maqollarni tahlil etishda folklorga xos nazariy yondashuvlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixiy-genetik yondashuv. Bu yondashuv maqollarning paydo bo‘lishi, tarixi, avlodlar orasidagi uzluksizlik va folklor an’analarning saqlanishini o‘rganadi. Maqollar, odatda, tarixiy voqealar, turmush tajribasi va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan bo‘ladi. Misol: “Mehnat bilan yer ko‘karar, Duo bilan – el” maqolida mehnatga ishonch, duo bilan bog‘liq qadimiy e’tiqodlar aks etgan. Bunday tadqiq yondashuvining ahamiyati shundaki, arxetip

obrazlar paydo bo‘lish manbalari ochiladi; maqollarning og‘zaki taraqqiyot zanjiri tiklanadi; ularning ilk tarkibiy modellari tavsiflanadi. Bu yondashuv B.Jo‘rayevaning monografik ishi43da atroflicha tahlil qilinadi.

Janriy-struktur yondashuv. Folklorshunoslikda maqollar mustaqil janr sifatida tahlil etiladi va ularning janr xususiyatlari: qisqaligi, ma’noning zichligi, poetik strukturasi, og‘zaki an’analarga bog‘liqligi o‘rganiladi. Xususiyatlari: yaqqol ritm va qofiya; antiteza va parallellikka asoslangan tuzilish; bir necha variantda mavjudligi ochib beriladi. Misol: “Boshing osmonga yetsa ham Yerga qarab yur” – kamtarlik, ehtiyotkorlikni targ‘ib qiluvchi janr namunasi.

Funksional yondashuv. Maqollar faqat badiiy ifoda vositasi emas, balki ijtimoiy tartib, axloqiy nazorat va muloqotda ta’sir o‘tkazuvchi funksional vosita sifatida qaraladi. Funksional yondashuv maqollarning turli vaziyatlarda qanday vazifa bajarishini tahlil etadi. Bunda maqollarning quyidagi vazifalari: axloqiy tarbiya; tanqid va nasihat; yashirin siyosiy yoki ijtimoiy fikr bildirish; ta’lim va madaniy kodni uzatish tahlil qilinadi. Misol: “Gapni katta gapirma, Nonni katta tishlama” – kamtarlikka da’vat etadi. M.Volfgan funksional yondashuvni shunday ta’riflaydi: “Og‘zaki xalq ijodining turli janrlari (ertak, afsona, mif, latifa va topishmoq) orasida maqollar eng qisqa, ammo har doim ham eng sodda shakl emas. Maqollar insonning tajriba va kuzatuvlarini donolik durdonalariga aylantirib, shaxsiy munosabatlar va ijtimoiy hayotga oid tayyor fikrlar shaklida ifoda etish ehtiyojini qondiradi. Har qanday vaziyatga mos maqollar mavjud bo‘lib, ular hayotning o‘zi kabi qarama-qarshiliklarga to‘la. Ma’lum bir vaziyatga to‘g‘ri tanlangan maqol aynan o‘sha holatga juda mos tushadi va samarali formula sifatida xizmat qiladi. Jamiyatda maqollar og‘zaki nutqda ham, yozma matnlarda ham insonlarga xizmat qiladi, tayyor og‘zaki birliklar sifatida deyarli avtomatik tarzda yodga tushadi”44.

An’anaviylik va ijodkorlik munosabati. Folklorda an’ana va yangilik o‘zaro bog‘liq holda yuz beradi. Maqollar doimiy strukturasi va ramzlari bilan an’anaviy bo‘lsa-da, ular har bir avlod, har bir ijodkor tomonidan qayta ishlanadi, mazmun jihatdan boyitiladi, variantlar yaratiladi. Misol: “Baliq boshidan sasiydi” maqolining zamonaviy variantlari matbuotda, siyosiy tanqidda faol qo‘llanadi. Maqollarning zamon bilan birga yangilanishi ko‘rinadi; maqol ijodida folklor subyektlari roli ochiladi.

Tipologik yondashuv. Bu yondashuv turli xalq maqollaridagi umumiylik va farqlarni o‘rganishga qaratilgan. Xususan, tipik obrazlar, universal mavzular, madaniy kodlarning o‘xshashligi va individualliklari chuqur tahlil etiladi. Masalan, P.Bakirovning “Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, ўзбекского и казахского языков)” nomli doktorlik dissertasiyasida qiyosiy paremiologiyaning asosiy tamoyillari, usullari ishlab chiqilgan, maxsus tipdagi paremiologik birlik sifatida maqol maqomini o‘rnatgan, boshqa paremiyalar orasida maqolning o‘rni aniqlangan, maqollarni qièsiy o‘rganish uchun nazariy zaruriyatlar, shuningdek, turli tizimdagi tillarning paremiologik birliklarini kompleks tahlil qilish taklif qilingan, rus, o‘zbek va qozoq tillaridagi nominal markazli maqollarning semantikasi tavsiflanadi, uchta tilning nominal-markazli maqollarini tematik guruhlar bo‘yicha tasniflash amalga oshirilgan, ko‘p tizimli tillarda nominal markazli maqollar semantikasining qiyosiy xarakteristikasi berilgan. M.Temirovaning “O‘zbek va qirg‘iz xalq maqollari tipologiyasi” nomli dissertasiyasida o‘zbek va qirg‘iz xalq maqollarining yaratilish tarixi va vujudga kelish omillari, xalq falsafiy va badiiy-estetik qarashlarining shakllanishida ijtimoiy-tarixiy va geografik muhit o‘rni, shuningdek, o‘zbek va qirg‘iz xalq maqollarining struktural, poetik tipologiyasi masalalari yoritilgan, folklordagi eng kichik janr tadqiqi orqali o‘zbek va qirg‘iz maqollarining genetik mushtarakligi, o‘ziga xoslik va farqli xususiyatlari asoslab berilgan. G.Ergashevaning “Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi” nomli dissertasiya ishida ingliz va o‘zbek tillarida gender ko‘rsatkichli frazeologik birliklar hamda paremiyalarni qièsiy-tipologik,

43 Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: fil.fan.doktori (DSc) diss. – Samarqand, 2019. – 237 b.

44 Wolfgang M. Proverbs: A Handbook. Folk and Fairy Tales: A Handbook. D.L.Ashliman. Westport, Connecticut, London, 2004.

kognitiv va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan45. Z.R.Narmuratovning “Ingliz va o‘zbek tillarida “ta’lim”, “ilm” konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi” nomli dissertasiyasida ingliz va o‘zbek tillaridagi ta’lim, ilm konseptli paremiologik birliklarni chog‘ishtirib o‘rganish orqali ularning lisoniy-madaniy jihatdan o‘xshash va umumiy tomonlari tadqiq etilgan46. Z.Yunusova fransuz, ingliz, rus tillasi misolida maqollardagi lisoniy ziddiyatni tahlil qilsa47, O.Igbolov ingliz va tojik tillari maqollari leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etgan48. Da Zhenxin o‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiq ustida ish olib borgan49.

Xulosa. Demak, folkloristik yondashuv maqollarni faqat til birligi sifatida emas, balki madaniy-ijtimoiy institut, etnografik hujjat, axloqiy kodeks, estetik fenomen sifatida o‘rganish imkonini beradi. Mazkur yondashuv maqollarni tarix, ijtimoiy kontekst va janr xususiyatlari doirasida tahlil qilishga imkon beradi. Bugungi kunda folklorshunoslikda integratsiyalashgan yondashuvlar, ya’ni folklor + lingvistika + madaniyatshunoslik uyg‘unlashgan holda tadbiq etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: fil.fan.doktori (DSc) diss. – Samarqand, 2019. – 237 b.

2. Wolfgang M. Proverbs: A Handbook. Folk and Fairy Tales: A Handbook. D.L.Ashliman. Westport, Connecticut, London, 2004.

3. Темирова М. Ўзбек ва қиргиз халқ маколлари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дис. – Тошкент, 2018. – 166 б.

4. 1Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.

5. Юсупова З.А. Языковые аспекты реализации противопоставления в паремии (на материале французских, английских и русских пословиц): Дис… канд. филол. наук. – Уфа: БГУ, 2005. – 146 с.

6. Игболов О.Ш. Лексико-семантический анализ особенностей пословиц и поговорок в таджикском и английском языках (на материале “Маснавии маънави” Джалолуддина Руми): Дис... канд. филол. наук. – Душанбе, 2017. – 166 с.

7. Da Zhenxin. O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi: filol. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. – Toshkent, 2023. – 50 b.

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIATA’LIMNING ROLI

Suyarqulova Shukrona Behzodovna
Navoiy davlat universiteti,
Pedagogika ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi,
+998996524506, E-mail: shukronabehzodovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mediata’limning o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritiladi. Media axborotini anglash va baholash orqali o‘quvchilarning fikrlash madaniyati shakllanishi asoslab ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: mediata’lim, tanqidiy fikrlash, axborot tahlili, o‘quvchi-yoshlar, axborotni baholash.

45 Темирова М. Ўзбек ва қиргиз халқ маколлари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дис. – Тошкент, 2018. – 166 б.

46 Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.

47 Юсупова З.А. Языковые аспекты реализации противопоставления в паремии (на материале французских, английских и русских пословиц): Дис… канд. филол. наук. – Уфа: БГУ, 2005. – 146 с.

48 Игболов О.Ш. Лексико-семантический анализ особенностей пословиц и поговорок в таджикском и английском языках (на материале “Маснавии маънави” Джалолуддина Руми): Дис... канд. филол. наук. – Душанбе, 2017. – 166 с.

49 Da Zhenxin. O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi: filol. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. – Toshkent, 2023. – 50 b.

Аннотация: В данной статье подчеркивается педагогическое значение медиаобразования в развитии критического мышления у учащихся. Обосновано формирование культуры мышления студентов через понимание и оценку медиаинформации.

Ключевые слова: медиаобразование, критическое мышление, анализ информации, студенты, оценка информации.

Annotation: This article emphasizes the pedagogical importance of media education in the development of critical thinking in students. The formation of a culture of thinking among students through understanding and evaluating media information is substantiated.

Key words: media education, critical thinking, information analysis, students, information evaluation

Bugungi axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda o‘quvchilar har qachongidan ham ko‘proq ma’lumot oqimiga duch kelmoqdalar. Internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali va boshqa media manbalari orqali ularga son sanoqsiz xabarlar yetib keladi. Bu sharoitda o‘quvchilarda nafaqat ma’lumotni qabul qilish, balki ularni tanqidiy tahlil qilish, baholash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu yerda mediata’lim (media literacy) va tanqidiy fikrlash (critical thinking) o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik namoyon bo‘ladi.

Taniqli mediata’lim tadqiqotchisi David Buckhingam: “Mediata’lim faqat texnik ko‘nikmalarni egallash emas, balki media dunyosini tanqidiy tushunish va unda faol ishtirok etish qobiliyatidir” deb aytib o‘tgan [1, 4]. Mediata’lim – bu turli media mahsulotlarini (matn, tasvir, audio, video) tushunish, ularning yaratilish jarayonini, maqsadini va ta’sirini anglash, shuningdek, o‘z media kontentini yaratish ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan keng qamrovli jarayondir. U o‘quvchilarni media muhitida ongli iste’molchi va yaratuvchi bo‘lishga o‘rgatadi.

Tanqidiy fikrlash esa ma’lumotlarni shunchaki qabul qilmasdan, ularni chuqur tahlil qilish, haqiqatni yolg‘ondan ajratish, dalillarning asosliligini tekshirish va muammolarga yechim topishda ratsional yondashuvni qo‘llash qobiliyatidir. Bu jarayonda o‘quvchilar ko‘pincha media tomonidan taqdim etilgan xabarlarning yashirin sub’ektivligini tushunishlari muhimdir [2, 7].

Mediata’lim o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni quyidagi yo‘llar orqali rivojlantiradi:

1. Axborot manbalarini baholash: Mediata’lim o‘quvchilarni turli

axborot manbalarining ishonchliligi, ob’ektivligi va muallifning maqsadini aniqlashga o‘rgatadi. Bu esa ularga yolg‘on ma’lumotlar (fake news), noto‘g‘ri talqinlar va manipulyativ xabarlarni tanib olishga yordam beradi.

2. Yashirin maqsadlarni anglash: Reklama, siyosiy targ‘ibot yoki

ba’zi yangiliklar ortida yashirin maqsadlar bo‘lishi mumkin. Mediata’lim o‘quvchilarni ushbu yashirin xabarlarni stereotiplar va emotsional chaqiriqlar kabi manipulyativ texnikalarni aniqlashga o‘rgatadi [3, 5].

3. Turli nuqtai nazarlarni tushunish: Bir xil voqea turli media

vositalarida turlicha yoritilishi mumkin. Mediata’lim o‘quvchilarga bir mavzuga oid turli xabarlarni solishtirish, ulardagi farqlarni va buning sabablarini tahlil qilish orqali kengroq va ko‘p qirrali nuqtai nazarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, mediata’lim o‘quvchilarga zamonaviy axborot dunyosida muvaffaqiyatli harakatlanish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy fukrlash ko‘nikmalarini beradi. Bu ularni ongli, mas’uliyatli va faol fuqarolar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi, chunki ular ma’lumotlarni shunchaki iste’mol qilmasdan, balki ularni tahlil qilish, baholash va o‘z xulosalarini chiqarish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Shunday qilib, mediata’limni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish bugungi ta’limning ajralmas qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buckhingam, D. (2003). Media Education: Learning and Contemporary Culture. Polity Press.
2. Kellner, D, Share, J. (2007). Critical media literacy, democracy and the reconstruction of education. Media Literacy: A Reader, 2-7.
3. Livingstone, S. (2004). Media literacy and the challenge of new informationand communication technologies. The Communication Review, 3-5

MAKTAB TEXNOLOGIYA FANIDAGI BUYUMLARGA ISHLOV BERISH MAVZUSINI O‘QITISHDA MATEMATIKA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

Cho‘liyev E.A. Navoiy innovatsiyalar universiteti, prof.v.b.
Yorqulova M.Sh. Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 78-maktab texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab texnologiya fanida detallarga ishlov berish jarayonini o‘qitishda matematika elementlaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan.

Аннотация: В данной статье раскрыты теоретические и практические основы использования элементов математики при обучении обработке деталей на уроках технологии.

Annotation: This article discusses the theoretical and practical foundations of using mathematical elements in teaching part processing in school technology classes.

Kalit so‘zlar: matematika, texnologiya fani, detalga ishlov berish, geometrik o‘lcham, proporsiya, yuzani hisoblash, hajm, aniqlik, texnik tafakkur.

Ключевые слова: математика, технология, обработка деталей, геометрические размеры, пропорция, вычисление площади, объем, точность, техническое мышление.

Keywords: mathematics, technology education, part processing, geometric dimensions, proportion, area calculation, volume, accuracy, technical thinking.

Hozirgi vaqtda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning asosiy maqsadlaridan biri bu ta’limni amaliyot va ishlab chiqarish bilan integratsiya qilishdir. Bu esa maktabda o‘qitilayotgan amali fanlarni boshqa fanlar bilan bog‘lab, aloqadorlikda o‘qitishni taqozo qiladi. Ushbu maqolada maktab kursidagi texnologiya fanini o‘qitishda matematika elementlaridan foydalanishning ayrim xususiyatlari yoritib berilgan.

Bugungi kunda umumta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitish jarayoni o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, texnik tafakkurini shakllantirish va kasbga yo‘naltirishning muhim bosqichlaridan biridir. Texnologiya darslarining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan buyumlarga ishlov berish mavzusini samarali o‘qitishda matematika elementlaridan to‘g‘ri foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ishlov berish jarayonining har bir bosqichida aniqlik, o‘lchash, hisoblash, geometrik shakllarni tasavvur qilish kabi matematik kompetensiyalar talab etiladi [1,2].

Texnologiya fanida buyumga ishlov berish ko‘plab matematik amallarga asoslanadi, jumladan:

- detallarni chizish, ularni loyihalash yoki stanokda ishlov berish jarayonida uzunlik, radius, diametr, burchak, qiyalik kabi o‘lchamlarni aniqlashda geometric shakllar va o‘lchamlar bilan ishlash zarurati paydo bo‘ladi;
- chizmalar yoki modellarni yaratishda masshtabni to‘g‘ri qo‘llash, proporsiyalardan foydalanish matematikaning asosiy amaliy ko‘nikmalaridan biridir;
- yog‘och, metall yoki plastmassa kabi materiallarni tejab ishlatish uchun detalning umumiy hajmini va ishlov beriladigan yuzasini aniqlash talab qilinadi;
- detal o‘lchamlaridagi chetga chiqish me’yorlari *(±0.5 mm, ±0.1 mm*) esa aniqlik va taqribiylik kabi matematik tushunchalar asosida belgilanadi;
- qiya kesimlar, burchaklar bilan ishlash, egri chiziqlarni aniqlashda trigonometriyadan foydalanish o‘quvchilar uchun muhim amaliy tajriba hisoblanadi [2,3].

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, matematika elementlaridan foydalanishning pedagogik ahamiyatini aniqlab olish zarur. Texnologiya darslarida matematika elementlaridan foydalanish o‘quvchilarda:

- aniq o‘lchash ko‘nikmalarini,
- texnik tafakkurni,
- muammoni matematik yondashuv bilan yechish qobiliyatini,
- analitik fikrlashni,
- ijodiy ishlash madaniyati kabilarni shakllantiradi.

Masalan, detalni yasash jarayonida o‘quvchi har bir bo‘lakning o‘lchamini to‘g‘ri aniqlashi, chizmachilik qoidalariga amal qilishi, kesish yoki randalash jarayonida materialni samarali ishlatishi lozim. Bu esa matematik bilimlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularsiz amalga oshmaydi.

Endi esa fikrimizni tasdig‘i sifatida amaliy misollardan ayrim namunalarni keltirib o‘tamiz.

1. Yog‘ochdan $60 \times 40 \times 20\ mm$ o‘lchamdagi detal tayyorlash. O‘quvchi material hajmini hisoblaydi va $V=60 \times 40 \times 20=48000\ mm$ natijaga ega bo‘ladi.
2. Qiya kesim yasash jarayonida $30°$ burchak ostida kesish uchun o‘quvchi trigonometriya formulalaridan foydalanishi lozim.
3. Aylana shaklidagi detalni ishlov berishda esa diametri $50\ mm$ bo‘lgan aylananing uzunligini topish talab qilinsin. Bunda $L=\pi d=3.14 \times 50=157\ mm$ ga teng bo‘ladi.

Bu va shu xildagi boshqa ko‘plab masalalarni hal qilishda matematika elementlaridan foydalanish texnologiya darsini yanada sifatli va mazmunli qiladi.

Texnologiya fanida buyumlarga ishlov berish mavzusini o‘qitishda matematika elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash, aniqlik, mantiqiy fikrlash va texnik tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Integratsiyalashgan darslar STEAM ta’lim texnologiyasining asosiy maqsadi bo‘lgan “aql” va “qo‘l” ni birgalikda ishlatish g‘oyasiga mos bo‘lib, o‘quvchilarning ikki fan bo‘yicha bilimlarini uyg‘unlashtirishga, ularning kasbiy yo‘nalishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldoshev J., To‘xliyev B. Texnologiya ta’limi metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Nazarov Q., Mamatov A. Mehnat ta’limi va chizmachilik asoslari. – Toshkent, 2020.
3. UzME — O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Matematika” va “Texnologiya” moddalari.

HALIMA AHMEDOVA ASARLARIDA KIRITMALARNING QO‘LLANILISHI TARTIBI

Abdullayev Umidjon-
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti,
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek zamonaviy adabiyotining yorqin vakili Halima Ahmedovaning she’riy ijodida kiritmalarning badiiy funksiyasi, ularning estetik, mazmun va tuzilma darajasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Kiritmalar shoiraning ichki kechinmalari, poetik nutqining tabiiyligi va ekspressivligini oshirishda qanday rol o‘ynashi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Halima Ahmedova, she’riyat, kiritma, stilistika, ichki monolog, lirika, ekspressivlik.

Аннотация: В данной статье анализируется художественная функция вставных слов в поэтическом творчестве Халимы Ахмедовой, яркой представительницы современной узбекской литературы, их значение на эстетическом, содержательном и структурном уровнях. Раскрывается, какую роль играют вставки в повышении внутренних переживаний поэтессы, естественности и выразительности ее поэтической речи.

Ключевые слова: Халима Ахмедова, поэзия, вставка, стилистика, внутренний монолог, лирика, экспрессивность.

Abstract: This article analyzes the artistic function of insertions in the poetic work of Halima Ahmedova, a prominent representative of modern Uzbek literature, and their significance at the level of aesthetics, content, and structure. The role of introductions in enhancing the inner experiences of the poetess, the naturalness and expressiveness of her poetic speech is revealed.

Keywords: Halima Ahmedova, poetry, introduction, stylistics, inner monologue, lyricism, expressiveness.

Kirish: Zamonaviy o‘zbek she’riyati taraqqiyotida o‘ziga xos ovoz, o‘ziga xos poetik dunyoqarash egasi bo‘lgan Halima Ahmedova o‘zining chuqur falsafiy, lirik va ruhiy to‘lqinlarga boy she’rlari bilan tanilgan. Uning she’riy nutqida lingvopoetik vositalardan biri sifatida kiritmalar (parentetik birliklar, kirish gaplar, izohiy jumlalar) tez-tez uchraydi va ular poetik matnning estetik qatlamini boyitishga xizmat qiladi.

Tilimizda mavjud har bir uslubda qo‘llanayotgan so‘z anglatgan ma’noni tinglovchi yoxud o‘quvchi ko‘z o‘ngida yanada ravshanlashtirish asosiy o‘rin tutadi. Bunda anglashilayotgan ma’noni ta’kidlab, alohida ajratib, zarur o‘rinlarda qayta qo‘llab bu natijaga erishish mumkin. Ana shu jihatga ko‘ra takror badiiy uslubda eng faol qo‘llaniladigan stilistik usullardan biridir. “Badiiy uslubda takrorning vazifasi faqatgina ma’lum narsa-hodisani yoki holatni ajratib, ta’kidlab ko‘rsatish bilangina chegaralanmaydi. Badiiy asarda barcha uslubiy vositalarda bo‘lgani kabi, takrorning zimmasiga ham til birliklariga emotsional bo‘yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanadi. Agar imkoniyat bo‘lsa, shu vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda muallifning yoki asar qahramonining voqelikka subyektiv munosabatini ham bera olishi kerak.” [3, 55-56]

Til birliklarining, xususan so‘z, ba’zan so‘z birikmasining qaysi o‘rinda takrorlanib kelishiga ko‘ra takrorning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, umumiy holda ular o‘ttizga yaqinni tashkil qiladi. Ilmiy adabiyotlarda takrorning alliteratsiya, anafora, epifora, rifma (qofiya), assonans, konsonans, tavtologiya kabi turli xil ko‘rinishlari farqlanadi. Shunga ko‘ra, she’r yoki bandning boshida kelgan so‘z, so‘z birikmasi yoki gap har bir misra yoki band boshida takrorlanib kelishi anaforani tashkil qiladi. O‘rinli takrorlari, beqiyos jozibador ohangli misralari bilan adabiyot olamida alohida o‘rin tutgan shoira Halima Ahmedova she’rlarida ham takrorning ushbu turi – anaforadan ko‘p bor foydalangan. Shubhasiz, bu orqali she’r jozibador ohang va bo‘yoq bilan ta’minlangan.

Kiritma tushunchasi va uning she’riyatdagi vazifalari: Kiritma — bu grammatik jihatdan asosiy gapga bog‘lanmagan, biroq ma’naviy jihatdan unga bog‘liq bo‘lgan izohlovchi, tushuntiruvchi yoki muallif fikrini ifoda etuvchi unsurlardir. Ular nutqqa:

-Emotsional tus beradi;

- Muallifning subyektiv qarashini ifoda qiladi;

- Suhbat ohangini kuchaytiradi;

- Ichki monolog ko‘rinishini keltirib chiqaradi.

She’riyatda kiritmalar ko‘pincha lirizm, iztirob, kinoya, shubha, iltijo, tanbeh kabi ichki holatlarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Halima Ahmedova she’riyatida kiritmalarning namoyon bo‘lishi:

Halima Ahmedova she’rlarida kiritmalarning qo‘llanilishi ko‘proq ichki monolog va shaxsiy kechinma bilan bog‘liq bo‘lib, ular orqali shoiraning qalb holati, hayotiy falsafasi ochiladi. Quyidagi misollarda bu aniq ko‘zga tashlanadi:

"O‘zingni ayab yasha, ayol...
(deydi yuragim ohangda)
Har tong yangi azob, yangi kurash,
Lekin... yana chidash kerak, bilaman."

Bu misrada "(deydi yuragim ohangda)" kiritmasi orqali ichki ovoz, yurak sadosi ifodalangan bo‘lib, poetik ohangni kuchaytiradi, holatning lirizmini oshiradi.

Yoki:

"Men seni kechirdim, balki...
(yolg‘on emas, ishonsang)
Ichimda nola bordek, jim turadi,
Balki yomonlik ham charchar bir kun."

Bu yerda "(yolg‘on emas, ishonsang)" kiritmasi shoiraning iztirobli, shubhali his-tuyg‘ularini aniq ifodalaydi. U o‘quvchi bilan bevosita muloqotga kirishadi, bu esa she’rga dramatizm bag‘ishlaydi.

Kiritmalar orqali badiiy obraz va ohang uyg‘unligi: Halima Ahmedovaning ko‘plab she’rlarida kiritmalar obrazlar ichidagi dialog, ichki monolog, sukunatni buzuvchi ruhiy signal sifatida xizmat qiladi. Bu esa shoiraning lirik qahramoni bilan o‘quvchi orasidagi yaqinlikni oshiradi.

Kiritmalar ayrim hollarda satirik yoki kinoyaviy ma’no ham kasb etadi:

"Yana ayollar yig‘laydi...
(go‘yo faqat ulargina yig‘laydi)
Og‘riqning tilini biladigan yo‘q,
Ayb kimda? Bilmadik — kechirdik yana..."

Bu yerda kiritma — "(go‘yo faqat ulargina yig‘laydi)" orqali shoiraning ijtimoiy tanqidi, ayol taqdiriga bo‘lgan achinish, dard bilan aytilgan istehzo seziladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Halima Ahmedovaning she’riyatida kiritmalarning qo‘llanilishi tasodifiy emas. Ular shoiraning poetik nutqini jonlantiradi, subyektiv kayfiyatini oshkor qiladi, emotsional fonni kuchaytiradi va o‘quvchini ichki monologga sherik qiladi. Kiritmalar orqali Halima Ahmedova zamonaviy ayolning ichki kechinmalari, ichki ziddiyatlari va bardoshini o‘ziga xos poetik ifoda topgan.

Shunday qilib, Halima Ahmedova she’riyatida kiritmalar nafaqat stilistik vosita, balki mazmunning chuqurlashuvi, ohangning boyishi va g‘oyaning aniqlashuvi uchun xizmat qiluvchi muhim elementdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, “O‘zbekiston milliy enseklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009

2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoyetikasi. T.: Fan, 2008

3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010

4. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.:, 1989.

5. Abdulla Ulug‘ov “Hur gulsan, hayot” Davron.uz

6. Jumaboyeva J. Lirik she’rda ruhiyat qudrati. O‘zbek tili va adabiyoti. 1999. № 2. –B. 41-44.

7. Jumaboyeva J. Lirik qahramon ruhiy dunyosining teran manzaralari. O‘zbek tili va adabiyoti. 1998.№6.-B. 16-20.

MAQOLLARNI ADABIYOTSHUNOSLIK ASPEKTIDA TADQIQ ETISH

Kodirova Saodat Abdiraximovna-
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi
f.f.f.d.(PhD), dotsenti
Navoiy davlat universiteti Navoiy shahri, O‘zbekiston
saodat.abduraximovna@gmail.com

Annotatsiya: Maqollar xalq og‘zaki adabiyotining qadimiy janrlaridan biri sifatida turli fanlar – tilshunoslik, xalq og‘zaki ijodi, madaniyatshunoslik, falsafa, psixologiya kabi fanlarda keng tadqiq etilgan. Har bir yondashuv maqollarning ma’no qatlamlariga turli nuqtai nazardan yondashadi, ularning serqirra mohiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: Tipologik, tematik-kompozitsion, intertekstual, stilistik.

Abstact. Proverbs, as one of the ancient and meaningful genres of folk oral literature, have been widely studied in various disciplines - linguistics, folklore, cultural studies, philosophy and psychology. Each approach approaches the layers of meaning of proverbs from different points of view, illuminating their multifaceted essence.

Key words: Typological, thematic-compositional, intertextual, stylistic.

Аннотатция. Пословицы, как один из древнейших и содержательных жанров устного народного творчества, широко изучаются в различных дисциплинах – лингвистике, фольклористике, культурологии, философии и психологии. Каждый подход рассматривает смысловые пласты пословиц с разных точек зрения, раскрывая их многогранную сущность.

Ключевые слова: Типологический, тематико-композиционный, интертекстуальный, стилистический.

Maqollar xalq ijodining badiiy-falsafiy tafakkurini mujassam etuvchi birliklardan biri sifatida nafaqat folklor, balki adabiyotshunoslik, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham tahlil etiladigan muhim paremiologik birliklardir. Ularda milliy dunyoqarash, poetik obrazlar, axloqiy konsepsiyalar, vaqt va makon tuyg‘ulari, falsafiy qarashlar, estetik ideallar mujassamlashgan. Shu sababli maqollarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda bir necha nazariy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy-estetik yondashuv. Bu yondashuvda maqollar badiiy matn sifatida, ya’ni obrazlilik, ifodaviylik, allegoriya va metaforalar tizimi orqali tahlil etiladi. Maqollarning ko‘pchiligi qisqaligiga qaramay, katta ma’no yuki, kutilmagan obrazli parallellik va estetik ta’sir qobiliyatiga ega[50]. Misol: “Til – kalit, og‘iz – qulf” – bu yerda obrazli qarama-qarshilik orqali so‘zning mas’uliyati falsafiy tarzda ifoda etilgan. Bunday yondashuvda maqollar badiiy ijodga ta’sir etuvchi manba sifatida o‘rganiladi; estetik funksiya va obrazlilik tahlil qilinadi; qisqa shaklda teran ma’no mujassamligini ko‘rsatadi. Baddiylik mezonlari asosidagi tahlil haqida U.To‘ychiyev[51], B.Sarimsoqov[52] hamda A.Rasulov[53]ning tadqiqotlaridan atroflicha ma’lumot berilgan.

Janriy va uslubiy yondashuv. Adabiyotshunoslikda maqollar aforizm, hikmat, epigramma, nutq birliklari kabi shakllar bilan qiyosiy tahlil etiladi. Bu yondashuv maqollarning janrlararo aloqalari, uslubiy xususiyatlari va badiiy uslub nuqtayi nazaridan tahlil qilinishini ta’minlaydi. Misol: “Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi” – bu maqolda aforistik uslub, kesatma intonatsiya, va mukammal tuzilish ko‘rinadi.

Intertekstual yondashuv. Maqollar adabiy matnlarda sitata, allyuziya, intertekst, simvol sifatida faol ishlatiladi. Intertekstual yondashuv bunday birliklarning adabiy asardagi funksiyasi, poetik vazifasi va ma’no yaratishdagi roliga e’tibor qaratadi[54]. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida insonning doimo harakatda bo ‘lishi lozimligi uqtirilgan maqol ishtirok etgan: “Yurgan daryo, o‘lturgan bo‘ryo emish” dedi Akram hoji (21-b). Bu maqol intertekst sifatida qahramon fikrini ifoda etishda xizmat qiladi. Bunday yondashuning ahamiyati shundaki, maqollar matn ichida semiotik ishora sifatida ishlatilishi; qahramonning nutqiy portreti yaratilishi; maqolning adabiy asarda g‘oyaviy-estetik funksiyani bajarishi tahlil qilinadi.

Ma’naviy-falsafiy yondashuv. Adabiy asarlarda ishlatiladigan maqollar orqali xalqning falsafiy dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari, axloqiy mezonlari ochib beriladi. Bu yondashuv maqollarni adabiy obrazlar, muallif nutqi va mualliflik konsepsiyasi orqali tahlil qiladi[55].

Mavzuviy-kompozitsion yondashuv. Bu yondashuv maqollarning adabiy matndagi syujet qurilishi, qahramon xarakteri, janr stilistikasi bilan bog‘liq holda tahlil etilishini nazarda tutadi. Xususan, epik, dramatik va lirik asarlarda maqollar qahramon fe’l-atvorini ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa. Maqollarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish ularning badiiy, intertekstual, estetik, ma’naviy va uslubiy funksiyalarini ochib berishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar orqali paremiyalar adabiy matndagi semantik markaz, avtorlik pozisiyasi, milliy tafakkurning poetik shakllanishi kabi jarayonlarni tadqiq etish mumkin. Bu esa maqollarni faqat folklor yoki til birligi sifatida emas, balki badiiy tafakkurning tipik ifodasi sifatida qabul qilishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Данилевская Н.В. Методы лингвостилистического анализа / Н.В.Данилевская // Стилистический энциклопедический словарь русского языка; под ред. М. Н. Кожиной. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2006. – (С. 221- 230) – С. 28.

2. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент, 2011.

3. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004.

4. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.

50 Данилевская Н.В. Методы лингвостилистического анализа / Н.В.Данилевская // Стилистический энциклопедический словарь русского языка; под ред. М. Н. Кожиной. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2006. – (С. 221- 230) – С. 28.

51 Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент, 2011.

52 Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004.

53 Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.

54 Do‘smuradova Y. Badiiy matnda intertekstuallik va uning turlari // YOPA. 2024. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnda-intertekstuallik-va-uning-turlari (дата обращения: 15.07.2025).

55 Ochilova B.M. Axloq falsafasi: / O‘quv qo'llanma. B.M.Ochilova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Jizzax davlat pedagogika instituti. – Toshkent: “Ijod-print”, 2019. – 160 b.

5. Do‘smuradova Y. Badiiy matnda intertekstuallik va uning turlari // YOPA. 2024. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnda-intertekstuallik-va-uning-turlari (дата обращения: 15.07.2025).
6. Ochilova B.M. Axloq falsafasi: / O‘quv qo'llanma. B.M.Ochilova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Jizzax davlat pedagogika instituti. – Toshkent: “Ijod-print”, 2019. – 160 b.

METHODS FOR SOLVING PROBLEMS THAT WE CAME ACROSS WHILE READING BOOKS

Rajabova Afruza Saloxiddinovna
Student of the Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
Scientific supervisor: prof. D.I.Kamalova

Annotation: The article highlights the benefits of reading, such as increasing communication, reducing stress and boosting motivation. It also discusses common reading challenges and offer simple tips for improve your focus. Furthermore, the article encourages readers to make reading a regular habit for personal growth and to help them avoid common mistakes they may encounter.
Key words: reading books, issue, readers, mistakes, students, skills, methods, benefits, information, motivation, meditation, timer.
Аннотация: В статье подчеркиваются преимущества чтения, такие как улучшение коммуникации, снижение стресса и повышение мотивации. Также рассматриваются распространённые трудности, возникающие при чтении, и предлагаются простые советы для улучшения концентрации. Кроме того, статья призывает читателей сделать чтение регулярной привычкой для личностного роста и чтобы избежать распространённых ошибок, с которыми они могут столкнуться.
Ключевые слова: читать книги, проблемы, читатели, ошибки, ученики, методы, польза, информация, мотивация, медитация, таймер.
Annotatsiya: Maqolada o‘qishning afzalliklari - masalan, muloqotni yaxshilash, stressni kamaytirish va motivatsiyani oshirish - ta’kidlab o‘tiladi. Shuningdek, o‘qish jarayonida uchraydigan keng tarqalgan qiyinchiliklar muhokama qilinadi va diqqatni yaxshilash uchun oddiy maslahatlar beriladi. Bundan tashqari, maqola o‘quvchilarga o‘qishni shaxsiy rivojlanish uchun muntazam odatga aylantirishni va uchrashi mumkin bo‘lgan umumiy xatolardan qochishni tavsiya qiladi.
Kalit so‘zlar: kitob o‘qish, muammo, kitobxonlar, xatolar, o‘quvchilar, metodlar, usullar, ma’lumotlar, motivatsiya, meditatsiya, taymer.

In these days, it is not a secret that the world can be conquered through the science. So only way to gain a deep understanding of science is reading a book.

Nowadays, in our society great attention is paid to reading books. Young people`s interest in reading books is increasing day by day. We all know that reading books is really useful, because while we are reading, we spiritual awakening and gain knowledge, interesting facts and informations.

A.H. Baxmanyor once stated: “Look for a people whose a conversation feels like reading a book, and look for a book that feels like a conversation with philosopher.” This quote has really deep meaning, which helps you become more successful in your life by avoiding unnecessary people and books.

That is not secret, that a reader lives in two different worlds: the real world around us and the imaginative world within the book. Every book that I read feels like i am living on someone`s life, the worst part of it, it is finishing this life by not wanting it. It is really hard to describe the feeling that I got through while I read books. So, I want and wish reading books become everyone`s hobby, cause there are a lot of adventages of reading books.

Let me list top 3 benefits of reading books.

1) Improving your conversation skills.

More we read, more we learn, more we know. So, when you read a lot you become a really good companion. Like you are ready to discuss any theme that your friend is talking about, because your circle of worldview is expending. How? It is simple. You are reading, imagining it, getting and collecting really interesting facts and useful information. No one get bored with a reader.

2) Decreasing stress

As I told that readers live in two worlds, so when you transport yourself to the another world you totally forget your problems, you are away from monotonous daily routine. By doing so, reading can decrease stress, lower heart rate and reduce blood pressure.

3) It motivates you.

As a person who get all motivation from the books I read, I can tell that it is for real. You see through your image how hard it is for the character in book, but despite of any challenges, he stays positive and never give up. By comparing your life with him, you will understand that you have to be more patient, spend time on the thing which could increase our knowledge.

Many of us make tiny mistakes by not noticing them, while reading books. For example:

1) Articulation.

Articulation is reading aloud. Most of students` opinion reading out is really good method to catch the things easily, but unfortunately it is opposite. If you read aloud the steps will increase:

1- Step: your eyes will read
2- Step: you will read out with your mouth
3- Step: your ears will hear
4- Step: reaches the brain
5- Step: waste of your energy

Plus to these, by reading out, you could interfere people near you. If you don't read aloud, steps will decrease.

1- Step: your eyes will read
2- Step: reaches the brain

2)"Regressive" reading

Regressive reading is reading backwards. Well, this type reading is happening when you were thinking about something while reading. Then to understand the context or meaning of that paragraph, you reread that. After rereading firstly you waste your time by coming back to that paragraph that you already read, secondly this book seems boring to you. The problem with this is, that you can`t concentrate, let`s say you reading and the main character is describing his birthday. And you immediately image your birthday party, by thinking how cool it was, full of fun, that your parents bought you a pink bicycle… you are reading but you are thinking out of theme, which worsen the situation.

As we came across to the problem with the concentration, to solve this issue, I will tell you a few ways to develop your focus while reading.

1) 5-4-3-2-1 technique

1) pay attention to five things you see around
2) choose something you can hold and see
3) pay attention to three sound you heard
4) feel two smells around you
5) find one thing that you can eat

Without any hesitation I can say that, this method helped me to develop my focus, cause I was able to do this exercise whenever i want, wherever i want. It is convenient in anywhere. The main thing is to make it right.

2)Mindful meditation.

In modern psychotherapy meditation is used as an exercise to help you feel present and develop your concentration skills. To meditate, find a convenient place to do it. Close your eyes and silently observe your emotions, what are you feeling? What are experiencing. Do it every day for 5 minutes. If you want observe emotion more and stay calm, you can increase the time of meditation by 5or even 10 minutes. Meditation makes a person feel better, it can reduce stress and anxiety, improve focus as I told and your mental health, reduce symptoms of depression.

Another effective way to focus is called

3)"Listen to your interlocutor".

This method more than just making a conscious effort to listen to your interlocutor`s speech. Because it is important to spend time and mental effort to mentally process the information received. Then you start focusing on your companion`s speech, by only analyzing it on your mind.

4) "Orderly reading": In my opinion, every person should have time for reading, as it helps boost your knowledge and supports self-development. But, unfortunately, a lot of people are not able to find time for reading. Of course, in the morning they have school or work. Then they come back home to cook dinner, clean, and do homework. By the time they finally get some extra free time, they immediately scroll on TikTok or watch their favorite show or film. However, they could use this amount of time more usefully and wisely.

Let's say this extra time equals 1 hour. Instead of wasting it, they can dedicate it to reading. That is why I want to associate the "Pomodoro" method with spending time wisely. It helps you manage your time (1 hour) by dividing it into focused intervals, so even a busy person can read consistently and with better concentration.

How to use it?

1-step: you have to warn your parents that you will be busy for an hour, and tell them not to distract you.

2-step: then turn off all your gadgets, because they can interfere you from your task.

3-step: you need a timer and a book which you want read.

4-step: now, set the timer for 25 minutes, and read, by living inner world of that book, work with your imagination.

5-step: after 25 minutes, set the timer for 5 minutes to relax. Relax doesn`t mean scroll on Tik-Tok or play games. It means to analyze all the information that you get from the context.

6-step: then you going to do the same thing, 25 minutes-reading, 5 minutes- to relax.

You can use this method to save your time, study effectively and not to be distracted easily.

In conclusion, I want to say that by using different reading methods, you can easily avoid common mistakes and make your reading time more effective. When you read with intention and follow helpful strategies, you can improve your communication skills, reduce stress, and boost your overall motivation to learn. This article also discusses the most common reading challenges and provides simple tips that can help you stay focused and organized. By applying these suggestions, readers can build a stronger reading habit and experience steady personal growth. Ultimately, making reading a regular part of your daily routine not only expands your knowledge, but also helps you avoid the mistakes that often hold people back.

References:

1) Mamatraimova H. "Bibliografiya". O`zbekiston Milliy ensklopediyasi. A two-volume book. Teacher. 2001

2) Ahmadqulova A. "Kitob - hayotni yaratuvchi murabbiydir". Yangi O`zbekiston gazetasi . Toshkent. 2021.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VA GLOBAL INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Shavkatova Shaxrizoda Shavkatovna -
Navoiy davlat universiteti 1-bosqich
tayanch doktorant +998938912111
shaxrizodashavkatova98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasini zamonaviy ta'lim talablari va global integratsiya jarayonlari bilan uyg'unlashtirishning didaktik, metodik va innovatsion asoslari tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar, raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy o'quv vositalari va o'qitish texnologiyalarining ahamiyati ilmiy asosda

yoritiladi. Maqolada boshlangan o‘zgarishlar, mavjud muammolar va takomillashtirish yo‘nalishlari haqida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili metodikasi, zamonaviy ta’lim, global integratsiya, innovatsion texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta’lim.

Аннотация: В данной статье анализируются дидактические, методические и инновационные основы гармонизации методики преподавания родного языка в начальном образовании с современными требованиями образования и процессами глобальной интеграции. На научной основе раскрывается значение международного опыта, цифровой педагогики, компетентностного подхода, современных учебных средств и технологий обучения. В статье представлены научные выводы о начавшихся реформах, существующих проблемах и направлениях совершенствования.

Ключевые слова: начальное образование, методика преподавания родного языка, современное образование, глобальная интеграция, инновационные технологии, компетентностный подход, цифровое обучение.

Abstract: This article analyzes the didactic, methodological, and innovative foundations of aligning the methodology of teaching the native language in primary education with modern educational requirements and global integration processes. It scientifically highlights the significance of international experiences, digital pedagogy, the competency-based approach, modern learning tools, and teaching technologies. The article provides scientific conclusions on ongoing reforms, existing problems, and directions for improvement.

Keywords: primary education, native language teaching methodology, modern education, global integration, innovative technologies, competency-based approach, digital education.

XXI asrda ta’lim tizimi jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan globallashuv, raqamli transformatsiya va yangi pedagogik paradigma bilan chambarchas bog‘liq. Boshlang‘ich ta’lim esa ushbu o‘zgarishlarning poydevori bo‘lib, yosh avlodning savodxonligi, mantiqiy fikrlashi, nutq madaniyati hamda kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi. Ayniqsa, ona tili o‘qitish metodikasining takomillashuvi ta’limning sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir etadi. Global integratsiya sharoitida boshlang‘ich ta’limning zamonaviy talablarga moslashtirilishi, xalqaro standartlar, innovatsion texnologiyalar, ta’lim dasturlarining yangilanishi va o‘quv jarayonining kompetensiyaviy asosda qurilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimidagi ilg‘or yondashuvlar — kommunikativ o‘qitish, interfaol metodlar, media savodxonlik, raqamli vositalar, modulli-o‘quv texnologiyalari — ona tili darslarining samaradorligini oshirishda muhim omil sanaladi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy ta’lim trendlarining roli, global integratsiya jarayonlarining ta’siri, xalqaro tajriba va metodik yangiliklarning qo‘llanish mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi [1].

Zamonaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari va boshlang‘ich ta’limga ta’siri bir qancha bo‘lib, ushbu ta’lim an’anaviy, reproduktiv bilim berish modelidan voz kechib, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan, faol, kompetensiyaviy va interfaol ta’lim paradigmasi asosida qayta shakllanmoqda. Ta’lim jarayon quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Kompetensiyaga asoslangan ta’lim - boshlang‘ich sinf o‘quvchisidan faqat bilim egallashi emas, balki muloqot qilish, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifodalash, mustaqil o‘qish va tahlil qilish, ijodiy fikrlash, axborot bilan ishlash kabi universal ko‘nikmalarni shakllantirish talab etiladi. Raqamli ta’lim muhiti - ona tili darslarida elektron resurslar, multimediya vositalari, onlayn platformalar, virtual mashqlar, audio-video materiallar qo‘llanilishi o‘quvchini yanada faol qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv - o‘quvchilarning individual qobiliyati, psixologik xususiyatlari, nutq rivoji darajasiga mos metodlar tanlanadi [2].

Global integratsiya jarayonlari va ularning ta’limga ta’siri: globallashuv jarayonlari dunyo mamlakatlarining ta’lim tizimlari o‘rtasida standartlar uyg‘unlashuvi, tajriba almashinuvi, xalqaro reytinglar, o‘quv dasturlarini moslashtirish, akademik almashinuv kabi jarayonlarni kuchaytirdi. Ta’lim sohasida xalqaro tadqiqotlar va metodik tajribalarning ta’siri muhim ahamiyatga ega [3]. PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi va til ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratadi. Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya, Turkiya, Germaniya kabi davlatlar tajribasida kommunikativ yondashuv, o‘yinli ta’lim, integratsiyalashgan

darslar, loyihaviy ta’lim, keng qo‘llaniladi. Matn ustida ishlashning faol metodlar asosida tashkil etilishi, grammatikani amaliy nutq bilan bog‘lab o‘rgatish, o‘qish savodxonligini erta yoshdan rivojlantirish, multimodal matnlar bilan ishlay olish, media savodxonlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirish ona tili o‘qitishning global tamoyillari sifatida qayd etiladi [4]. Bular esa o‘z navbatida ona tili o‘qitish metodikasida yangi yondashuvlarni talab qiladi. Shuningdek, global tajribalar asosida ona tili darslarini takomillashtirish yo‘nalishlari quyidagilarni olishimiz mumkin. “Fonetik awareness” — fonetik anglashuvning rivojlantirilishi, Yevropa va AQSH maktablari tajribasida o‘qishni erta yengil o‘rgatish uchun juda samarali. “Reading literacy” — o‘qish savodxonligini oshirish, bunda o‘quvchi PIRLS talablari asosida matn mazmunini tushunishi, asosiy g‘oyani aniqlashi, qahramonlarga baho berishi, matndan xulosa chiqarishi lozim [5].

Boshlang‘ich ta’lim sohasidagi mavjud muammolar va ta’lim sifatini takomillashtirish yo‘llari: Ba’zi o‘qituvchilarda zamonaviy metodlarni qo‘llash ko‘nikmasining yetarli emasligi, darsliklar va metodik qo‘llanmalarning yangilanib borish zarurati, o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasi pastligi, raqamli vositalardan foydalanish madaniyatining yetishmasligi kabilar muammolar bo‘lsa, o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha doimiy seminarlar olib borish, xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish, raqamli kontentni ko‘paytirish, o‘quv jarayoniga STEAM elementlarini kiritish, ona tili darslarida “problem-based learning” va “project-based learning” metodlarini joriy etish kabilar amaliy yechimlar sifatida taklif etiladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy ta’lim va global integratsiya boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasining tubdan yangilanishiga olib keldi. Bugungi kunda ona tili darslari interfaol, kommunikativ, raqamli, kompetensiyaga yo‘naltirilgan, amaliy va hayotiy mazmunga ega bo‘lishi zarur. Global integratsiya jarayonlari xalqaro tajribalarni o‘rganish, ilg‘or metodlarni qo‘llash, raqamli resurslarni keng joriy etish imkoniyatini yaratadi. Ona tili metodikasining yangilanishi esa yosh avlodning savodxonligi, nutq madaniyati va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Karimova N., Abduqodirova S. Ona tili ta’limida interfaol metodlar. – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2022, 9-b.

2. Jonbekova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. – Samarqand, “NUR”, 2020, 24-b.

3. Mavlyanova, R. “Boshlang‘ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” — uslubiy qo‘llanma, Toshkent, “Gold Books”, 2024, 11-12-b.

4. Abdirazzoqovna, U. M. “Ona tili ta’limida global ta’lim amaliyotlariga integratsiya” — Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2024, 15-b.

5. Peltomaa, I. M. Methodology of Teaching the Native Language in Primary — GRN journal, 2019, 16-p.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ СТУДЕНТОВ

Ирназарова Гулрух Азаматовна
Учитель средней общеобразовательной школы №6 города Навои
Телефон: +998 97 283 88 50
E-mail: gulrux86@gmail.com

Аннотация

В статье рассматриваются возможности цифровых технологий как инструмента развития речевых компетенций студентов. Анализируются современные цифровые среды и сервисы, их влияние на коммуникативные навыки, особенности использования в образовательном процессе, а также педагогические условия, позволяющие повысить эффективность речевого развития в цифровой среде.

Ключевые слова

Цифровые технологии, речевая компетентность, коммуникативные навыки, цифровая образовательная среда, языковые приложения, искусственный интеллект, дистанционное обучение, профессиональная коммуникация.

Annotatsiya

Maqolada raqamli texnologiyalarning talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatidagi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy raqamli muhitlar va servislar, ularning kommunikativ ko‘nikmalarga ta’siri, ta’lim jarayonida qo‘llash xususiyatlari, shuningdek raqamli muhitda nutqiy rivojlanish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:

Raqamli texnologiyalar, nutqiy kompetensiya, kommunikativ ko‘nikmalar, raqamli ta’lim muhiti, til ilovalari, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim, professional kommunikatsiya.

Abstract:

The article examines the possibilities of digital technologies as a tool for developing students’ speech competence. Modern digital environments and services, their impact on communicative skills, features of their use in the educational process, as well as pedagogical conditions that allow increasing the effectiveness of speech development in a digital environment are analyzed.

Keywords:

Digital technologies, speech competence, communicative skills, digital educational environment, language applications, artificial intelligence, distance learning, professional communication.

Современное высшее образование развивается в условиях стремительной цифровизации, которая радикально меняет способы взаимодействия участников образовательного процесса, форматы обучения и характер речевой деятельности студентов. Интеграция цифровых технологий в образовательную среду стала не просто дополнением к традиционным методам, но и обязательным условием эффективного освоения профессиональных знаний и коммуникативных навыков. Речевая компетентность, являющаяся одним из ключевых компонентов профессиональной подготовки будущих специалистов, формируется и развивается в новой цифровой реальности, предъявляющей особые требования к владению устной и письменной речью, умению участвовать в различных формах коммуникации и использовать современные технические средства для выражения мыслей. Цифровая среда предоставляет студентам широкие возможности для совершенствования речевых умений. Доступ к разнообразным источникам информации способствует развитию словарного запаса, расширению кругозора, формированию навыков анализа и интерпретации текстов разных жанров. Интернет-коммуникация включает как устные, так и письменные формы речевого взаимодействия, позволяя студентам практиковать навыки диалогической и монологической речи в виртуальных дискуссиях, видеоконференциях, чатах, форумах и социальных сетях. Использование мультимедийных материалов — видеолекций, подкастов, образовательных видеороликов — развивает слуховое восприятие и способность воспринимать речь в различных ситуациях и темпах. Подобный многоформатный доступ к речи создаёт условия для постоянной тренировки и совершенствования коммуникативных навыков.

Значительную роль в речевом развитии студентов играют образовательные платформы, такие как Moodle, Google Classroom, Zoom и другие сервисы для организации онлайн-взаимодействия. Эти инструменты позволяют проводить лекции, семинары и дискуссии в дистанционном и смешанном форматах, обеспечивая студентам возможность участвовать в диалогах, формулировать вопросы, высказывать аргументированные мнения и получать обратную связь. Запись занятий предоставляет дополнительную возможность анализа собственных выступлений, что способствует самокоррекции и развитию навыков публичной речи. Текстовые коммуникационные сервисы создают среду для формирования письменной речевой компетенции. Работа в форумах, социальных сетях, электронная переписка, совместное редактирование документов в онлайн-платформах стимулируют студентов к созданию грамотно структурированных текстов, развитию лаконичности, точности и

логичности выражения мыслей. Важно и то, что цифровая письменная коммуникация требует соблюдения норм речевого этикета, что формирует культуру сетевого взаимодействия.

Отдельного внимания заслуживают языковые и обучающие приложения, а также технологии искусственного интеллекта, которые предоставляют студентам интерактивную среду для самостоятельной тренировки речи. Программы, основанные на распознавании и анализе устной речи, позволяют отрабатывать произношение, интонацию, темп речи, строить диалоги и получать автоматизированную оценку качества высказывания. ИИ-сервисы обеспечивают индивидуальный подход, предлагая упражнения с учётом уровня подготовки и типичных ошибок студента. Важным аспектом является и использование цифровых инструментов визуализации информации: презентаций, инфографики, видеопроектов. Подготовка мультимедийного материала требует от студента умения структурировать высказывание, выделять ключевые мысли, продумывать логику подачи информации и выступать перед камерой или аудиторией. Такой формат способствует синтезу речевых, творческих и аналитических умений.

Цифровые технологии обладают не только техническим, но и методическим потенциалом. Они позволяют моделировать ситуации реального профессионального общения: проведение онлайн-дебатов, участие в межвузовских видеоконференциях, создание групповых проектов и публичных цифровых продуктов. Эти виды деятельности усиливают мотивацию студентов, развивают уверенность в речевом самовыражении и расширяют коммуникативный опыт. Немаловажным преимуществом цифровой среды является возможность индивидуализации обучения. Адаптивные платформы подстраиваются под темп и способности конкретного студента, а преподаватель может варьировать задания, учитывая уровень речевой подготовленности, интересы и профессиональные потребности обучающихся. Такой подход повышает эффективность речевого развития, делает обучение более гибким и результативным.

Цифровая среда существенно увеличивает долю самостоятельной работы. Студенты могут многократно прослушивать аудио- и видеоматериалы, анализировать собственную речь, пользоваться интерактивными упражнениями, развивать навыки редактирования и самоконтроля. Самостоятельная деятельность способствует формированию ответственности, дисциплины и способности к саморазвитию — качеств, важных не только для речевой, но и для профессиональной компетенции в целом. Однако внедрение цифровых технологий в процесс речевого развития не избавлено от трудностей. Существует риск снижения живой устной коммуникации, что может привести к дефициту навыков непосредственного взаимодействия. Наблюдается и тенденция к поверхностному восприятию информации, обусловленная избытком цифрового контента. Неравномерный уровень цифровой грамотности студентов и отсутствие привычки к критическому анализу источников также затрудняют эффективное использование технологий.

Для достижения высокой результативности цифровых инструментов необходимо создание педагогических условий, обеспечивающих целенаправленное речевое развитие. Среди таких условий можно выделить продуманное проектирование коммуникативных заданий, ориентированных на формирование разных сторон речи; сочетание онлайн- и офлайн-взаимодействия для сохранения баланса между виртуальной и живой коммуникацией; организацию совместной деятельности; развитие навыков критического мышления и информационной культуры. Важным условием является также постоянная обратная связь, включающая как цифровые средства анализа речи, так и экспертные комментарии преподавателя.

Таким образом, цифровые технологии играют существенную роль в речевом развитии студентов, открывая доступ к разнообразным формам и форматам коммуникации, повышая мотивацию, обеспечивая индивидуализацию обучения и расширяя возможности самостоятельной работы. При грамотном методическом использовании цифровая среда становится важным инструментом формирования устной и письменной речи, развития критического мышления и коммуникативной компетентности. В то же время цифровые технологии требуют продуманной педагогической организации и баланса между виртуальными и традиционными формами взаимодействия. Их эффективное применение

возможно только при сочетании технологий с чёткими образовательными целями, методическим сопровождением и активной речевой практикой студентов. Именно такой подход позволяет использовать потенциал цифровой среды максимально результативно и способствует формированию современного, конкурентоспособного и грамотного специалиста.

Список использованной литературы

1. Бонк, В. Информационные технологии в обучении иностранным языкам. Москва: Просвещение, 2021. – Учебник о применении ИКТ в изучении английского и других языков, содержит практические задания и упражнения.

2. Лаптева, Л.А., Кузнецова, М.В. Методика обучения иностранным языкам с использованием цифровых технологий. Санкт-Петербург: Питер, 2020. – Пособие раскрывает методические подходы к использованию мультимедиа, интерактивных платформ и приложений.

3. Ковалева, И.В. Цифровая среда в современном языковом образовании. Москва: Академия, 2022. – Рассматривает интеграцию онлайн-ресурсов, видео- и аудиоматериалов в учебный процесс.

4. Нормуратова, В. Современные технологии в обучении иностранным языкам: учебное пособие для студентов вузов. Ташкент: Университет, 2023. – Практическое пособие с примерами заданий, упражнений и использования цифровых инструментов для развития речи.

JISMONIY TARBIYA DARSLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Pirimova Nargiza Adilovna-
NavDU Jismoniy madaniyat kafedrasi v.b dotsenti
E-mail: nargizabonu-81@bk.ru
998933113434

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanish, o‘quvchilarni jismoniy faollikka jalb qilishda, ularning salomatligini yaxshilashda va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion yondashuvlar, masalan, interaktiv texnologiyalar, raqamli vositalar va zamonaviy o‘qitish usullari orqali jismoniy tarbiya darslarini yanada samarali va qiziqarli qilish mumkin.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, innovatsion metodlar, sog‘lom turmush tarz, interaktiv texnologiyalar, o‘quvchilarning motivatsiyasi, zamonaviy o‘qitish usullari, jismoniy faoll

Annotation: The use of innovative methods in physical education classes plays a significant role in engaging students in physical activity, improving their health, and promoting a healthy lifestyle. Innovative approaches, such as interactive technologies, digital tools, and modern teaching methods, can make physical education classes more effective and engaging.

Keywords: Physical education, innovative methods, healthy lifestyle, interactive technologies, student motivation, modern teaching methods, physical activity.

Аннотация: Использование инновационных методов на уроках физической культуры играет важную роль в привлечении учеников к физической активности, улучшении их здоровья и формировании здорового образа жизни. Инновационные подходы, такие как интерактивные технологии, цифровые инструменты и современные методы преподавания, могут сделать уроки физкультуры более эффективными и увлекательными.

Ключевые слова: Физическая культура, инновационные методы, здоровый образ жизни, интерактивные технологии, мотивация учеников, современные методы преподавания, физическая активность.

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanish — bu nafaqat o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, balki ularning umumbashariy salomatligini ta’minlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jamiyatga yanada sog‘lom, faol yoshlarni yetishtirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilar zamonaviy

pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan faol foydalanishlari zarur. Innovatsion metodlarni jismoniy tarbiya darslarida qo‘llash o‘quvchilarni nafaqat sog‘lomlashtirishni, balki ularni sport va jismoniy faoliyatga jalb qilishni, shuningdek, ularda hayotga bo‘lgan ijobiy qarashni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Innovatsion metodlar, masalan, elektron ta’lim vositalari, virtual sinflar, raqamli o‘quv dasturlari va mobil ilovalar, jismoniy tarbiya darslarining yanada samarali va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Bu metodlarning asosiy maqsadi — o‘quvchilarning jismoniy faolligini o‘zgartirish, darslarni interaktiv va motivatsion tarzda tashkil etish, ularni sportga qiziqtirishdir. Shu bilan birga, o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni jismoniy tarbiya jarayoniga tadbiq etish, ularning kognitiv va jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Innovatsion metodlarning yana bir muhim tomoni shundaki, ular individual yondoshuvni ta’minlash, har bir 85 o‘quvchining qobiliyatiga mos keladigan mashqlarni tanlash va har bir o‘quvchining jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.[1]

O‘sib kelayotgan yosh avlodga ta`lim-tarbiya berish, ularni kasblarga to‘g‘ri yo‘naltirish, kasb o‘rgatish va kelajakda mohir kasb egalari bo‘lishlari mamlakatimizning kelajagini belgilab beradi. Hozirgi kun yoshlarini ularning talab va istaklariga mos keladigan zamonaviy o‘qitish usullari yordamida o‘qitish zarur. Chunki bugunning yoshlari qiziquvchan, izlanuvchan, bilimga chanqoq va dunyoqarashi keng yoshlardir. Bugungi kun o‘qituvchisidan ta`lim jarayoniga yangicha yondashuv asosida axborotlarni yetkazishining turli xil yo‘llaridan foydalanish talab etilmoqda. Bunga sabab tezkor o‘zgaruvchan jarayonda zamonaviy o‘quvchi bir vaqtning o‘zida turli xil manbalardan axborotlarni olmoqda. Hozirgi zamon o‘qituvchisi ta`lim jarayonini texnik vositalari asosida olib borishi hamda interfaol usullardan foydalanib tashkil etishi lozim. Shularni inobatga oladigan bo‘lsak xozirgi kunda ta`lim muassasalarimizda o‘tilayotgan darslar albatta, zamon talablari asosida tashkil qilinishi an`anaviy ta`lim keltirib chiqargan salbiy holatlarni hisobga olib jamiyatimiz uchun zarur bo‘lgan erkin fikrlovchi, o‘z fikrini mustaqil bayon qila oladigan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, huquqiy, siyosiy va ma’naviy ong darajasi yetuk bo‘lgan kadrlarni yetishtirish, biz pedagoglarning asosiy vazifalarimizdan biridir.Barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport sohasi ham mashaqqatli kasblardan biridir [2] Bu sohada ijodkor fidoiy bo‘lish bir muncha qiyinroq. Lekin ushbu qiyinchiliklarga qaramasdan o‘zining O‘zbekistonda sportni ham nazariy ham amaliy jihatdan rivojlantirishga, takomillashtirishga, yoshlarni jismonan va ruhan tayyorlashda ulkan ishlarni amalga oshirgan olimlar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bular – R. Salomov, T. Usmanxo‘jayev, K. Shakirjanova, F. Kerimovlarni jismoniy tarbiya va sport sohasida ijodkor-fidoiy pedagoglar safiga hech qanday mubolag‘asiz kiritish mumkin. So‘nggi yillarda ta`lim, tarbiya sohasida yosh mutaxassislarning kasbiyintellektual darajasini oshirishga yo‘naltirilgan ko‘pgina o‘zgarishlar yuz bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallamay turib, xorijiy tillardan birini o‘zlashtirmay turib, bo‘lajak mutaxassislar, hozirda oliy o‘quv yurtlari talabalari, muvaffaqiyatga erishishlari juda mushkul. Tanlangan kasb sohasidagi bo‘lajak yosh mutaxassis o‘z ustida muntazam ishlashi, o‘z kasbiy bilimlarini hamda dunyoqarashini kengaytirib borishi, tafakkurini yuksaltirishi zarur. Bugungi kunda yosh mutaxassis – bu ilmiy bilimlar asoslarini yaxshi egallagan, o‘z maqsadini to‘liq anglab olgan, keng ilmiy va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lgan va o‘z mutaxassisligini mukammal o‘zlashtirib olgan shaxs bo‘lishi lozim. Zamonaviy mutaxassis bu- mehnatni tashkil etish tamoyillarini amalda qo‘llay oladigan mohir tashkilotchidir. Va, albatta, zamonaviy mutaxassis – yuksak madaniyatga, aqliy salohiyatga ega inson. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash katta mehnat talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazishda nafaqat maxsus fanlarning, balki ularga aloqador bo‘lgan, ya`ni bo‘lajak kasb egalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda bevosita xizmat qiladigan fanlarning ahamiyati yuqori. Ta’limning hozirgi rivojlanish bosqichida ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan turli xil metodikalar va texnologiyalar mavjudki, o‘z mehnat faoliyatida o‘qitishda foydalana olish – bu o‘qituvchining zamonaviy va taraqqiy etgan malakasi ko‘rsatkichidir. Ta’lim jamiyat ehtiyojlariga mos bo‘lishi lozim, zamonaviy bozor jamiyatiga esa nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki real mehnat faoliyatiga tayyor, mehnat bozori talablariga tez moslasha oladigan mutaxassislar talab qilinadi. Talabalarning tayyorlash metodlarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri o‘quv jarayonida faol o‘qitish metodlaridan foydalanish, fanlararo aloqalarni e’tiborga olish hisoblanadi. Zamonaviy interfaol metodlar talabalarning ijodiy tafakkuriga tayanadi, ularning bilish faoliyatini yuqori darajada

faollashtiradi, ularni yangi g‘oyalar mualliflariga aylantiradi, optimal yechimlarni mustaqil qabul qilishga o‘rgatadi. Shunday interfaol metodlardan biri ishbilarmonlik o‘yini bo‘lib, undan yangi materialni o‘zlashtirish va mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga doir kompleks vazifalarni hal etish uchun foydalaniladi. “Sport”, “Trener” mavzusiga bag‘ishlangan amaliy mashg‘ulot jarayonida talabalar bilan turli xil vaziyatli, rolli va ishbilarmonlik o‘yinlarini qo‘llash mumkin. Bugungi kunda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy salohiyatiga katta talablar ko‘yilayotganligi bois ularning turli fan sohalaridagi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. “ROLLI O‘YIN” metodi. Rolli o‘yin – ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shartsharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir. Rolli o‘yinlarning ishbono‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Rolli o‘yinda ham ishbon o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta`lim oluvchilarda shaxslararo muommala malakasini shakllantiradi. O‘yin yakunida ta`lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta`lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi. “Rolli o‘yin” metodida o‘qituvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta`lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak.

“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:

• O‘quv jarayonida ta`lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;

• Ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;

• Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;

• Ta’lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi. “Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:

• Ko‘p vaqt talab etiladi;

• O‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;

• Ta’lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;

• Barcha ta’lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin. Masalan, sport musobaqasi jarayonini o‘yin tariqasida namoyish qilish uchun talabalarga rollar taqsimlanadi. Jumladan, musobaqa bosh hakami, uning kotibi, axborotchi hakam, qatnashchilar huzuridagi hakam, musobaqani bevosita kuzatib boruvchi hakamlarning rollari taqsimlanib, har bir talabaga musobaqa vaziyatini qayta aks ettirish vazifasi topshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduquddusov O. Malaka oshirish tizimida pedagogik innovatsiyalar.- «Xalq ta›limi», 1999.

2. Avliyakulov N.X. O‘qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, - Buxoro, 2000.

3. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari: O‘quv qo‘llanma. – B.: “Muallif” nashriyoti, 2001.

4. H.T.Omonov, N.X.Ho‘jaev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. Darslik. Toshkent 2009 yil.

NUTQ ODOBINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI O‘RNI

Jo‘rayeva Muqaddas Said qizi-
Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga o‘z vaqtida minnatdorchilik bildirish, nutq odobi, kattalarni hurmat qilib gapirish haqida fikr yuritilgan. Nutq odobi insonning ma’naviyatini-ma’rifatini belgilovchi asosiy mezon bo‘lib hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Nutq odobi, so‘z, fikr, hurmat, assalomu alaykum, barakalla, minnatdorman, otangizga rahmat.

РОЛЬ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Навоийский государственный университет
Преподаватель кафедры начального образования
Джураева Мукаддас Саид кызы

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о своевременной благодарности тем, кто сделал ребенку одолжение, выполнил сказанное дело, просьбу, о речевом этикете, уважительном отношении к взрослым. Речевой этикет считается главным критерием, определяющим духовность человека-просвещение.

Ключевые слова: Речевой этикет, слово, мысль, уважение, здравствуйте, благословение, спасибо, спасибо отцу.

THE ROLE OF SPEECH ETIQUETTE IN THE EDUCATION OF THE GROWING GENERATION

Navoi State University
Teacher of the Department of Primary Education
Dzhuraeva Mukaddas Said kizi

Abstract: This article discusses the issue of timely gratitude to those who have done a favor to a child, completed a task or a request, as well as the importance of speech etiquette and respect for adults. Speech etiquette is considered the main criterion that determines a person's spirituality and enlightenment.

Keywords: Speech etiquette, word, thought, respect, hello, blessing, thank you.

Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo‘lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko‘ngliga mos holda adabiy me’yordagi ifodalar bilan yetkazishdir. Xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so‘zlovchi tilni, mukammal bilishi kerak. Muloyim, yoqimli, odobli so‘zlash ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Unga yoshlikdan ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o‘rganish orqali erishiladi. O‘quvchi uchun esa eng yaxshi namuna o‘qituvchidir. Buni o‘qituvchi har doim his qilib turishi kerak. Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo‘ladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi.

Xalqning o‘g‘zaki, lahja va shevalardagi til va nutqqa oid fikrlari; qadimiy yozma obidalar(tosh bitiklardagi matnlar, tarixiy memuarlar, mumtoz adabiyot asarlari va boshqalar); xalq o‘g‘zaki ijodi asarlari – doston va ertaklar, maqol va masallar; qadimdan turli shakllarda saqlanib bizgacha yetgan mifologik asarlar – afsonalar, latifalar, miflar; “Ibratli hikoyalar”, “Hikmatlar” nomi bilan bizgacha yetib kelgan yozma asarlar shular jumlasidandir. Xorazm zaminida yaratilgan qomusiy asar “Avesto”dagi fikrlar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino asarlaridagi nutq odobiga oid mulohazalar tahlil qilingan. “Avesto”da til, nutq, nutq odobi, tilga munosabat, tilni ulug‘lashga oid fikrlar ham mavjud. Unda juda ko‘p joyda takror aytilishicha, o‘sha davr din ва ma’naviyat asosini e’tiqod, ezgu niyat, ezgu so‘z va ezgu amal tushunchalari tashkil qilgan.

Nutq tildagi ifoda vositalaridan foydalangan holda voqelikka aylangan fikrdir. Nutq nutq a’zolarining harakatiga ko‘ra yuzaga kelib, ikki xil bo‘ladi: ichki nutq va tashqi nutq. Kishilarning tovushlarni - so‘zlarni talaffuz qilmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o‘ylashi ichki nutqdir. O‘pkadan chiqqan havoning nutq a’zolariga ta’siri, shu ta’sir natijasida ularning harakati bilan aniq tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq tashqi nutqdir. Ulug‘ shoir Yusuf Xos Xojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash haqida: “Bilib so‘zlasa, so‘z bilig sanalur” degan edi. Gapirishdan maqsad so‘zlovchining ko‘zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to‘g‘ri, ta’sirchan yetkazishidan iborat. Shunday ekan, nutqning to‘g‘riligi, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir yana so‘zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda hovliqmasdan, so‘zning ma’nolarini yaxshi anglab, ravon nutq tuzishga chaqiradi.

Tilning foydasi talaydir, ortiqcha hovliqma, Goho til maqtaladi, goho so‘qiladi. Modomiki shunday ekan, so‘zni bilib so‘zla, So‘zing ko‘r uchun ko‘z bo‘lsin, (u) ko‘ra bilsin. “Qutadg‘u bilig” asarining bir necha bobi bevosita odob-axloq qoidalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda nutq odobi talablarini tushuntirish alohida o‘rin tutadi. Asarda “Til ardami” (“Til odobi”) deyilgan maxsus bob bo‘lib, unda tilning ahamiyati, nutq odobiga oid mulohazalar bayon qilinadi. Yusuf Xos Hojib ham o‘z asarining qismlaridan birida tilning ahamiyati haqida so‘zlaydi. Uning fikricha, til kishini bilim-ma’rifatga, e’zoz va hurmatga erishtiradi:

Aqlu idrok, bilim tarjimoni – til,
Ulug‘lovchi mardni ravon tilni bil
Til-la kishi bo‘lur ulug‘, baxtiyor,
Til-la beqadr er, g‘amga giriftor.

Yusuf Xos Hojib fikricha, ko‘p so‘z so‘zlagan qadrsiz bo‘lishi, topib so‘zlagan kishi esa iqbol topadi:

Bilib so‘zlangan har so‘zda iqbol bor,
Bilimsiz so‘z-la o‘z baxtin qilur xor.

Tilning aql ifodachisi ekanligi, til bilan dil bir bo‘lishi, haqiqatning doimo insonlarga foyda kelitirishini uqtiradi:

So‘z dilda yaralar, tilda tug‘ilar,
Egri so‘zdan poklik kuyar, bo‘g‘ilar.
To‘g‘ri so‘zlangan so‘z ko‘p foydali ish,
Gar egri so‘zlansa, barchasi so‘kish.

Yusuf Xos Hojib tilning, nutqiy odobning inson hayotidagi rolini shu darajada yuksak baholaydiki, bunga ko‘ra kishi tili tufayli podshohlikka erishishi, aksincha, “yashil ko‘k”ka, ya’ni qanchalik yuksaklikka erishgan bo‘lsa, undan judo bo‘lib, yerga qulashi mumkin:

So‘z foydasi tufayli, ko‘rgin, qora yerdagi,
Yashil ko‘kka yuksaladi, to‘rga chiqadi.
Agar til so‘zni uddalab so‘zlay olmasa,
Yashil ko‘kda bo‘lsa ham, u kishini pastga tushiradi, ko‘r.

Tilga e’tibor berish, har bir aytiladigan so‘z mas’uliyatini ta’kidlash hikoyadagi asosiy g‘oyaviy-badiiy niyatdir. Bu yerda donolik, hozirjavoblik ham ulug‘langan.

Avvalo, har bir muslim va muslima salomlashish ham farz, ham qarz ekanligini yaxshi anglab etmog‘i lozim. Chunki «So‘z boshi - salom», deganlaridek, suhbatdoshlar muloqoti «assalomu alaykum», «vaalaykum assalom» jumlalari bilan boshlanadi. Bu suhbatdoshlarning tanish yoki notanishligidan qat’i nazar o‘zaro hurmat va ehtirom belgisi hisoblanadi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: «Bitta salom bilan beshta narsaga - o‘zini yengil sezish, shon-shuhrat topish, qut-barakali, ilmli bo‘lish va nihoyat uzoq umr ko‘rishga erishiladi».

Ammo keyingi paytlarda biror joyga kirib borayotgan, telefonda suhbat boshlayotgan kishilarning salomlashishni unutib borayotganligiga tez-tez guvoh bo‘lib qolmoqdamiz. Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida nutqiy vositalar mavjud. O‘qituvchi ularni o‘z o‘rnida ishlatishda hamma uchun va o‘z shogirdlari uchun o‘rnakdir. Madaniyatli kishi o‘z aybini bo‘yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so‘rashni ham bilishi lozim. O‘z aybi uchun uzr so‘rash o‘z g‘ururini erga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir. Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan «xayr, sog‘ bo‘ling», «xayr, ko‘rishguncha», «xayr, omonlikda ko‘rishaylik», «xayr, sog‘ bo‘ling», «xayr, yaxshi qoling» iboralarini ishlatsa, o‘rinli bo‘ladi.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga o‘z vaqtida minnatdorchilik bildirish odobini ham o‘rgatib borish lozim. Tilimizda rag‘batlantirishni, minnatdorchilikni anglatadigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o‘z o‘rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O‘qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o‘quvchilar-ni «ofarin», «barakalla», «rahmat», «otangizga rahmat», «minnatdorman» kabi so‘zlar bilan rag‘batlantirishi lozim. Tilda har bir so‘zni, grammatik formani, har bir sintaktik qurilmani o‘z o‘rnida, ya’ni shu so‘z, shu grammatik shakl yoki sintaktik qurilma (gap) ishlatilayotgan vaziyatni (tinglovchi saviyasi, ularning holati kabilar) hisobga olgan holda to‘g‘ri qo‘llash, ularning shu

vaziyatga eng mos tushadiganini tanlab, nutq jarayonida ulardan unumli foydalanish, eng ixcham va fikrni lo‘nda ifodalaydiganini, eng sodda va hammaga tushunarlisini ishlatish nutqning ravonligini, tushunarliligini, aniqligini ta’minlaydi, uni g‘alizliklardan xalos etadi. So‘zlarni, grammatik shakllarni befarq qo‘llash, vaziyatga mos tushmaydigan gaplarni beixtiyor, nazoratsiz aytib yuborish, bo‘lar - bo‘lmasga u yoki bu so‘zdan yoki grammatik shakllardan foydalanaverish, umuman, ularni ortiqcha qo‘llash, o‘rinli - o‘rinsiz takrorlayverish nutqni bachkana qiladi, fikrni xiralashtiradi, uning ta’sirchanligiga putur etkazadi. Zero, donolar aytganidek:

Nodonlardek yuzlab so‘zni qilma qator,
Donolardek bir so‘z degil, lek ma’nodor.
(Sa’diy Sheroziy)
yoki
So‘z joyu vaqtiga bo‘lar ekan mos,
Sehru afsun uchun u bo‘lar asos.
(Abdurahmon Jomiy)

Xulosa o‘rnida aytsak, nutq bu harakatdagi tildir. Nutq til birliklarini o‘zaro mantiqiy bog‘lab, ularni harakatga keltiradi. Nutq so‘z, so‘z birikmalari va gaplardan iborat bo‘ladi. Nutq odobi insonning ma’naviyatini-ma’rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Demak, kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko‘rinadi. Nutq odobi jamiyat madaniy-ma’rifiy taraqqiyotining, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Tom ma’nodagi madaniy kamolotning muhim belgisidir. Haqiqiy ma’nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining muhim jihatlaridan biridir. Shuning uchun ham hozirda mamlakatimizdagi ma’naviy-ma’rifiy islohotlar har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov O‘. Nutq madaniyati va notiqlik. – Toshkent, 2007.
2. Xo‘jaeva L. Notiqlik san‘ati. – Toshkent, 1967.
3. Begmatov E., Jiyanova N. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent, 2006.
4. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent, 1992.

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASH

Buronova Dilafruz Tuxtayevna-
Ilmiy rahbar: Qudratova Gulzoda Mahmudovna
Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya.Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli siyosat va mexanizmlarni chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, bandligini ta'minlash va mamlakatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishdagi tadbirkorlikning muhim roli yoritilgan. Maqolada nazariy asoslar, joriy davlat siyosatlari, institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, moliyaviy va nomoliyaviy vositalar, shuningdek, qo‘llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligini baholash mezonlari o‘rganiladi. O‘zbekistonning demografik xususiyatlari, xususan, aholining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etishi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Tadqiqot natijalari mamlakatda tadbirkorlik muhitini mustahkamlash, yoshlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va ularning innovatsion salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha aniq tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *Yoshlar tadbirkorligi, O‘zbekiston, Davlat qo‘llab-quvvatlash, Moliyaviy vositalar, Yoshlar biznesi, Innovatsiyalar, Bandlik*

Kirish

XXI asr global iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida tadbirkorlik, ayniqsa, yoshlar tadbirkorligi katta ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021 yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e'lon qilinishi hamda aholining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etishi (jahon o‘rtacha ko‘rsatkichi 16 foizdan ancha yuqori) ushbu sohaning mamlakat strategik

rivojlanishidagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatib beradi. Yoshlar tadbirkorligi nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki innovatsiyalarni rag‘batlantirish, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash va umumiy milliy taraqqiyotga erishishning muhim omilidir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslari, hozirgi holati, amalga oshirilayotgan davlat siyosati va institutsional mexanizmlarini chuqur tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, mavjud moliyaviy va nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari va imkoniyatlari atroflicha ko‘rib chiqiladi, qo‘llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligi baholanadi hamda xalqaro tajriba nuqta nazaridan mavjud yutuqlar va kamchiliklar o‘rganiladi. Tadqiqot doirasida to‘plangan ma'lumotlar asosida yoshlar tadbirkorligini yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Yoshlar tadbirkorligi iqtisodiy rivojlanish nazariyasida innovatsiyalar, ish o‘rinlarini yaratish va barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida e’tirof etiladi. Bazi adabiyotlarda yosh tadbirkorlarning moliyaviy resurslar yetishmasligi, tajriba va bilim bazasining cheklanganligi, shuningdek, biznes aloqalari tarmog‘ining zaifligi kabi bir qator umumiy muammolarga duch kelishi ta’kidlanadi. Shu sababli, davlat tomonidan ko‘mak berish mexanizmlarining ahamiyati ortadi. O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sa’y-harakatlari tufayli yoshlar bandligini ta’minlash va ularning iqtisodiy faolligini oshirish bo‘yicha qator kompleks dasturlar joriy etilgan. So‘nggi sakkiz yil ichida yosh tadbirkorlar soni uch barobar ortib, hozirda biznes vakillarining qariyb 40 foizini tashkil etmoqda, yoshlar ishsizligi esa ikki barobarga kamaydi. Bu ko‘rsatkichlar amalga oshirilayotgan islohotlarning dastlabki samaralarini ko‘rsatadi. Hukumat tomonidan “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi keng qamrovli dasturlar ish o‘rinlarini yaratish va daromad manbalarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, tadbirkorlikni rag‘batlantirish uchun soliq va moliyaviy imtiyozlarni o‘z ichiga olgan mustahkam huquqiy va me’yoriy baza yaratilgan. Yoshlarga ishlab chiqarish maydonlari, biznes inkubatsiya va innovatsion loyihalar uchun amaliy yordam berish maqsadida Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari (YSSTZ) tashkil etilmoqda. 2021-yil sentyabriga qadar 77 ta Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyat boshlashi rejalashtirilgan edi. Institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari doirasida Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 426-sonli qarori Prezidentning PQ-60-sonli qarori asosida qabul qilingan bo‘lib, bu hujjat yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangi moliyaviy normalarni belgilaydi. “Yoshlar biznesi” dasturi 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, 350 ming yoshni jalb qilish va 18-30 yoshlilar uchun kamida 100 ming ish o‘rni yaratishni ko‘zda tutadi. Bu dasturning markaziy banki sifatida “Aloqadanki” tanlab olingan. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida “Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash jamg'armasi” tashkil etilib, unga Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan 100 million AQSH dollari miqdorida qaytarib berilmaydigan mablag‘ ajratilgan. Shuningdek, “Yoshlar Ventures” kabi venchur fondlari ham faoliyat ko‘rsatmoqda, bu fondlar startap loyihalariga sarmoya kiritadi. Bitiruvchilarning bandligini ta'minlash uchun Milliy bankka 100 million dollar ajratilgan yangi tizim ham yaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot sifatli, tavsifiy-analitik yondashuvga asoslanadi. Mavjud siyosat hujjatlari, rasmiy hisobotlar va akademik adabiyotlar sintez qilingan bo‘lib, O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning hozirgi holati va taklif etilayotgan mexanizmlariga keng qamrovli nazar tashlash maqsad qilingan. Tadqiqotda moliyaviy va nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari atroflicha o‘rganilib, ularning yosh tadbirkorlar uchun yaratayotgan imkoniyatlari tahlil etiladi. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari muhim ahamiyatga ega. Davlat Yoshlar Tadbirkorligini Rivojlantirish Maqsadli Jamg'armasi orqali tijorat banklari qator imtiyozli kreditlar taqdim etmoqda. Xususan, sug'urta polisi yoki uchinchi shaxs kafilligi asosida 100 million so‘mgacha, xizmat ipotekasi ostida 200 million so‘mgacha, boshqa garov turlari bilan 2 milliard so‘mgacha, shuningdek, qishloq xo‘jaligi kooperativlari loyihalari uchun 2,5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratilishi ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, Jamg'arma chekka hududlarda xorijiy tillarni o‘rganish xizmatlari uchun 320 barobargacha, bino qurish, ta'mirlash va jihozlar sotib olish uchun esa 6000 barobargacha bazaviy hisoblash miqdorida foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini beradi. Startap prototiplarini ekspertlar ishtirokida ishlab chiqish xarajatlarining 50 foizini (100 million so‘mgacha) va xalqaro inkubatsiya dasturlarida ishtirok etish uchun 10 ming AQSh dollariga teng

miqdorni qoplash ham ko‘zda tutilgan. “Aloqabank”ning “Yoshlar biznesi uchun” imtiyozli kredit mahsulotlari ham diqqatga sazovordir. “Biznesga birinchi qadam” mikrokreditlari o‘zini o‘zi band qilgan yoshlarga yetti yil muddatga 100 million so‘mgacha beriladi. “Yoshlar uchun ish o‘rinlari” kreditlari esa kamida 20 ta yangi ish o‘rni yaratadigan tadbirkorlarga 5 milliard so‘mgacha ajratiladi. Kreditlarning yillik foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasi ustiga 4 foiz qo‘shish bilan belgilanadi, bu hozirda 18 foizni tashkil etadi. Aylanma mablag'lar uchun 18 oygacha, asosiy vositalar va qurilish uchun esa 7 yilgacha muddatga beriladigan bu kreditlar olti oygacha asosiy qarz bo‘yicha imtiyozli davrni o‘z ichiga oladi. Loyihalarning kamida 30 foizi ayol tadbirkorlarga yo‘naltirilishi va yaratiladigan ish o‘rinlarining 50 foizi yoshlar uchun bo‘lishi belgilangan. “Yoshlar Ventures” startaplarga o‘z kapitali bilan 2 milliard so‘mgacha investitsiya kiritadi: minimal hayotiy mahsulot (MVP) yaratish uchun 500 million so‘mgacha, muvaffaqiyatli mahalliy loyihalar uchun 1 milliard so‘mgacha, xorijiy bozor salohiyatiga ega loyihalar uchun esa 2 milliard so‘mgacha. Oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi loyihalari uchun 8 foizli, 3-6 oylik imtiyozli davrli va uch yilgacha bo‘lgan imtiyozli kreditlar ham mavjud. Nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham kengayib bormoqda. Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari (YSSTZ) ishlab chiqarish maydonlari, biznes inkubatsiya va innovatsion loyihalar uchun amaliy yordam beradi. “Aloqa venture” jamg'armasi va yoshlar biznes inkubatorlari startaplarni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Raqamli texnologiyalar va xorijiy tillar kabi sohalarda yoshlarni kasbiy o‘qitish ham muhim o‘rin tutadi. Qo‘llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligini baholashda bir qator mezonlar inobatga olinishi lozim. Bu mezonlar yaratilgan ish o‘rinlari soni, bizneslarning barqarorligi, innovatsiyalar darajasi, yoshlarning iqtisodiy faolligining oshishi va umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirni o‘z ichiga olishi mumkin. Hozirda dasturlarning uzoq muddatli ta'sirini baholash va ular orqali eng zaif qatlamlarga qanchalik darajada yetib borayotganini aniqlash dolzarb vazifadir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy yordam bilan birga mentorlik, bozor ma'lumotlariga kirish va eksport imkoniyatlarini taqdim etish kabi kompleks yondashuvlar tadbirkorlik ekotizimini yanada mustahkamlaydi. O‘zbekistonning YSSTZ, inkubatorlar va venchur fondlarini rivojlantirishi xalqaro amaliyotga mos keladi va ijobiy baholanadi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va bu sohada sezilarli yutuqlarga erishilgan. Aholining demografik tarkibi va yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faolligini oshirish zaruriyati bu yo‘nalishdagi islohotlarni yanada dolzarb qiladi. So‘nggi yillarda yosh tadbirkorlar sonining sezilarli darajada ortishi va yoshlar ishsizligining kamayishi amalga oshirilayotgan kompleks dasturlarning samaradorligidan dalolat beradi. Davlat tomonidan moliyaviy va nomoliyaviy qo‘llab-qo‘vvatlashning keng mexanizmlari, jumladan, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, venchur investitsiyalar, Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari, biznes inkubatorlar, shuningdek, kasbiy ta'lim dasturlari yoshlarga o‘z biznesini boshlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Aloqabankning “Yoshlar biznesi uchun” dasturi, Yoshlar Tadbirkorligini Rivojlantirish Jamg”armasi va “Yoshlar Ventures” kabi tashabbuslar yoshlarning moliyaviy resurslarga kirishini sezilarli darajada osonlashtirdi. Kelajakda yoshlar tadbirkorligini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: 1. Mentorlik va inkubatsiya dasturlarini yanada kuchaytirish, yosh tadbirkorlarga tajribali mutaxassislar va muvaffaqiyatli biznes egalari tomonidan doimiy maslahat va yo‘nalishlar berish tizimini kengaytirish. 2. Bozor ma’lumotlariga, ayniqsa, eksport imkoniyatlariga kirishni osonlashtirish, yosh tadbirkorlarning mahsulot va xizmatlarini xalqaro bozorlarga olib chiqishga ko‘maklashish. 3. Mablag‘larni ajratish bo‘yicha ariza berish jarayonlarini yanada soddalashtirish va shaffofligini oshirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish. 4. Qo‘llab-quvvatlash dasturlarining uzoq muddatli ta’sirini baholash uchun mustahkam monitoring va baholash tizimini yaratish, bunda nafaqat ish o‘rinlari soni, balki bizneslarning barqarorligi va innovatsion salohiyati ham inobatga olinishi lozim. 5. Yuqori texnologiyalar, IT va innovatsion sohalar uchun ixtisoslashgan o‘quv dasturlarini joriy etish orqali yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish. 6. Ayollar tadbirkorligini va qishloq yoshlarini qo‘llab-quvvatlashga doimiy e’tibor qaratish, ularga maxsus imtiyozlar va dasturlar orqali qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish. Ushbu tavsiyalar O‘zbekistonda

yoshlar tadbirkorligi ekotizimini yanada mustahkamlashga, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga va mamlakatning barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.De Vita, Laura. Yoshlar Tadbirkorligi va Ijtimoiy Inklyuziya. Abingdon: Routledge, 2017.

2.Audretsch, David B., Erik Lehmann, Michele Meoli, Silvio V. Sciarelli (Eds.). Yoshlar Tadbirkorligi va o‘zini o‘zi ish bilan ta’minlash. Cham: Springer, 2021.

3. Van Der Zwan, P.T., Van Den Berg, R. M. M., & Van Staveren, A. M. M. “Yoshlar tadbirkorligi: Kelajak tadqiqotlari uchun sharh va kun tartibi”. Yoshlar tadqiqotlari jurnali, jild. 20, son. 8, 2017, s. 969-992.

4.Gupta.V., Turban. D. B., & Wasti, S. A. “Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar va yoshlar tadbirkorligi: Nazariya, amaliyot va siyosat tahlili.” Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar tadbirkorligi Jurnali, vol. 10, no. 2, 2018, pp. 209-224.

MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASINI INKLYUZIV TA’LIMDA RIVOJLANTIRISH

Omonboyeva Meruyert Erkin qizi-
Navoiy State University
Teacher of the Department of Primary Education

Abstract: The purpose of this study is to study the possibilities of developing mathematics teaching methods in inclusive education. The study analyzes effective teaching methods, pedagogical strategies, and methodological tools for children with different abilities.The research results include recommendations for using an individual approach in mathematics lessons, introducing interactive methods, and making the learning process convenient and effective for all students. This work will help educators improve mathematics teaching methods in inclusive education settings.

Keywords: mathematics teaching methodology, inclusive education, individual approach, pedagogical strategies, interactive methods, integration in education, development opportunities.

Аннотация: Целью данного исследования является изучение возможностей разработки методики обучения математике в условиях инклюзивного образования. Проводится анализ эффективных методов обучения, педагогических стратегий и методических средств для детей с различными способностями. Результаты исследования включают рекомендации по использованию индивидуального подхода на уроках математики, внедрению интерактивных методов, созданию удобного и эффективного процесса обучения для всех учащихся.Это работа поможет педагогам усовершенствовать методы преподавания математики в условиях инклюзивного образования.

Ключевые слова: методика преподавания математики, инклюзивное образование, индивидуальный подход, педагогические стратегии, интерактивные методы, интеграция в образовании, возможности развития.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi matematika fanini o‘qitish metodikasini inkluziv ta’lim sharoitida rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.Ishda turli imkoniyatga ega bolalar uchun samarali o‘qitish usullari,pedagogic strategiyalar va metodik vositalar tahlil qilinadi.Tadqiqot natijalari matematika darslarida individual yondashuvni qo‘llash, interfaol metodlarni joriy etish hamda ta’lim jarayonini barcha talabalar uchun qulay va samarali qilish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.Ushbu ish pedagoglarga inklyuziv ta’lim sharoitida matematikani o‘qitish metodikasini takomillashtirishga ko‘mak beradi.

Kalit so‘zlar: matematika o‘qitish metodikasi,inklyuziv ta’lim, individual yondashuv, pedagogik strategiyalar, interfaol metodlar, ta’limda integratsiya,rivojlanish imkoniyatlari.

Despite the fact that the inclusive education system aims to organize the educational process in a way that is adapted to the individual capabilities of all students, the methodological foundations of this approach have not been sufficiently developed in school practice. In particular, since mathematics requires logical thinking, analysis of problem situations and the mastery of abstract concepts, its

effective teaching in an inclusive environment requires the introduction of special methodological approaches. Students with different developmental needs need additional support, adapted tasks and multimodal teaching aids in the process of mastering mathematics. The development of convenient and adapted teaching strategies for students is one of the main tasks of this direction. Today, an inclusive model of mathematics teaching is being created worldwide, in which pedagogical technologies are used that take into account the individual characteristics of the student, psychological needs, intellectual development rates and independent work skills. This article provides a scientific and methodological analysis of methodological approaches to teaching mathematics in inclusive education, their advantages, and their impact on educational effectiveness.

Methodological foundations of teaching mathematics in inclusive education. The core of inclusive education methodology is a student-centered approach. In this approach, mathematics lessons should be understandable, convenient and adapted for all students. Mathematics teaching in inclusive conditions is carried out based on the principles of a differentiated approach, adapted tasks, multimodal presentation and formative assessment. The speed of perception, attention stability, memory ability and level of speech development of each student are taken into account . The teacher implements an individual approach to the student by simplifying or gradually complicating the educational content.

The main principles of the methodology are as follows:

1.Differential approach. Mathematical tasks are offered in a graded format according to the level of knowledge, speed of thinking and ability of students. The same topic is offered to students in the form of standard level, medium level and high level tasks. Giving each student a task at a level appropriate to their abilities: ensures the gradual consolidation of knowledge, increases self-confidence, and the development of independent thinking. For example, in the topic “Geometric shapes”, one student can only distinguish shapes, another compares shapes, and still another can perform the task of calculating the perimeter or area. This ensures active participation of students at the level of their abilities.

2.Multimodal education. Multimodal learning is based on delivering material through three main channels - visual, auditory and kinesthetic. Multimodal learning is considered the most effective approach for students with different needs. Mathematics is especially easy to learn when enriched with visual, audio and kinesthetic tools. In mathematics lessons: colorful diagrams, tables, graphic images; manipulative materials: cubes, colored sticks, geometric models; interactive presentations and animations; performing tasks through sensory devices increases the effectiveness of learning. This allows students with different needs to perceive the same topic differently.

3.Adapted teaching methods. Mathematical concepts should be explained clearly, simply, and step-by-step. Adapted teaching methods are a key component of mathematics teaching in inclusive education. Students with different needs do not perceive mathematical content in the same way, so the teacher should adapt the teaching process by simplifying the content, phasing it, increasing demonstration, and using individual learning strategies. This approach helps the student to actively and successfully participate in the learning process, regardless of their abilities. The main areas of adapted teaching include:

-Expressing concepts in a simplified and coherent form. One of the most important requirements is to explain complex mathematical ideas in simple language, without unnecessary terms, step by step. For example, the concept of "fraction" is not immediately demonstrated through a mathematical definition, but through visual examples - dividing the whole into equal parts, and then moving on to a formal explanation. This method helps to form an abstract concept on a concrete basis.

- Active use of visual aids. For many students, especially those with developmental difficulties, visual images significantly facilitate the perception of concepts. Therefore, diagrams, graphs, colorful shapes, manipulatives, and models are used during the explanation. For example, showing the process of addition and subtraction with colored sticks helps to more clearly visualize the connection between numbers.

-Break down problems into smaller steps. The student may have difficulty performing complex operations at once. Therefore, problems are broken down into smaller steps and presented as

sequential operations. For example, a “multiplication problem” is first explained as repeated addition, and then as a generalized multiplication operation.

-Explanation based on real-life examples. Explaining mathematical concepts through real-life situations is extremely effective for students. For example, fractions are explained through the example of products that are divided in a store, interest is explained through the example of a deposit in a bank, and geometric shapes are explained through everyday objects. This helps the student science practice with tied to understand help gives.

- combination of verbal and physical cues.Some students verbal the instruction to hear through , others and physical activity through understands.For example , the perimeter the concept in explanation students in the classroom the subject around output it is possible , this the concept physical movement through strengthens.

Teaching from technologies use.Inclusive mathematics in their classes modern of technologies place big .Inclusive education in the environment electronic textbooks , audio commentary , special training applications , touch devices and interactive from platforms use recommendation Interactive resources student's attention attraction does the lesson dynamic and interesting does.This technologies not only students activity increases , maybe complicated mathematician of concepts to be mastered For example , geometric figures dynamic measurement programs through show or algebraic expressions interactive in a way analysis to do result gives.

1.Electronics training programs.Adaptive training platforms student's to the mistake looking at new assignment offer does this individual learning for very convenient . Example for :multimedia textbooks , online example solution programs , mathematics simulators.

2.Special necessary students for assistant technologies.View defect was students for : audio description materials , large with font issues , contrast from colors use.In hearing defect was students for:subtitled video lessons, infographics.In development delay was students for : stepwise animations , repetition exercises system .

Evaluation and monitoring inclusive model.Inclusive in class assessment process individual development of the student at the pace suitable to be demand Formative assessment methods — official not been observations , small examinations , individual interviews and reflection tasks is used.The evaluation main purpose student's disadvantages determination not ,maybe him/her step by step from development consists of will be.The evaluation main types:daily formative assessment , individual portfolios , small writing developments , self evaluation , in pairs evaluation.This approach student's in itself motivation strengthens and to the teacher pedagogical decisions right acceptance to do help gives .

Teacher's role.Inclusive mathematics teacher not only science related to knowledge , but special pedagogical also has approaches to be necessary : psychological-pedagogical knowledge , methodology adaptations planning skills , individual cards of students conduct , lesson material grading ability , social-emotional support organization Teacher every one student's psychological features knowledge , adapted lesson plans to compose and different pedagogical technologies harmonization Also , in the classroom positive psychological environment create , students between cooperation on the road to put and socio-emotional support important is considered . Teacher in the classroom all to students relatively equal in a relationship to be , cooperation environment create and education process permanent analysis as progress necessary .

Conclusion as in other words , inclusive in education mathematics teaching methodology develop modern pedagogical approaches integration , lesson content adaptation , multimodal instructions application , differential assignments offer to grow and modern technologies current to reach demand This will do . methodical approaches consistent application the individual needs of the student satisfies , mathematical literacy increases and education process efficiency provides . Methodical innovations all students for equal opportunity to create , mathematical literacy to increase and training process efficiency to strengthen service does .

REFERENCES USED

1.Matchonov S., Qosimova D., Kholikov A. Elementary in the classrooms mathematics teaching methodology . – Tashkent: Teacher , 2021. – 642 p.

2.Inclusive education : theory and practice . Educational and methodological manual. – Tashkent, 2020.
3.Tomlinson C. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. – ASCD, 2014.
4. Mathematics in teaching modern pedagogical technologies . – Tashkent: Innovation , 2019.

TA’LIM JARAYONIDA O‘QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Alimov Alisher Yarashevich,
katta o‘qituvchi, Navoiy davlat universiteti, Navoiy, tel: +998942513974,
ayaa25091968@.gmail.com
Fazliddinova Gulasal Farxod qizi,
Navoiy Davlat Universiteti “Tasviriy san’at” – magistratura ta’lim o‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada tasviriy san’at fanini o‘qitish jarayonida o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini shakllantirish masalalari tahlil etilgan.
Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, ta’lim, metodika, kompetensiya, STEAM.
Аннотация: В статье анализирован вопросы формирование методических компетенции учителей в процессе обучения изобразительного искуства
Ключевые слова: изобразительного искуства, образования, методика, компетенция, STEAM
Annotation: In this article analyses issues of developing teachers’ methodological competences in the process of teaching arts.
Key words: Arts, education, methodology, competence, STEAM

Bugungi globallashuv va innovatsiyalar davrida ta’lim tizimi oldida yangi talablar paydo bo‘lmoqda. Xususan, tasviriy san’at ta’limi sohasida o‘qituvchining nafaqat ijodiy salohiyati, balki metodik tayyorgarligi ham zamon talablari asosida rivojlanishi zarur. Tasviriy san’at ta’limi o‘quvchilarning estetik didini, badiiy tafakkurini, ijodiy fikrlashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan, ushbu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini shakllantirish masalasi pedagogika fani uchun dolzarb yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Hukumatimiz ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa, tasviriy san’at ta’limida metodik yondashuvlar orqali o‘qituvchilarning ijodiy va didaktik faoliyatini samarali tashkil etish zarurati yanada ortib bormoqda. Darhaqiqat, tasviriy san’at ta’limi jarayonida o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini shakllantirish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi. Bunda quyidagi vazifalar ko‘rib chiqilishi lozim:

- metodik kompetensiya tushunchasining mazmunini ochib berish;
- metodik kompetensiyani shakllantirish bosqichlarini aniqlash;
-zamonaviy pedagogik texnologiyalarni metodik tayyorgarlik jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- o‘qituvchining kasbiy-metodik salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tasviriy san’at ta’limi insonning estetik dunyoqarashi, his-tuyg‘ulari va badiiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan murakkab ijodiy jarayondir. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchini san’at orqali fikrlashga, ko‘rish, idrok etish va estetik qadriyatlarni tushunishga yo‘naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodik kompetensiya - bu o‘qituvchining o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni ijodiy rivojlantirish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- didaktik komponent: dars jarayonini ilmiy asosda tashkil etish malakasi;
- tahliliy komponent: o‘quvchilarning faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash ko‘nikmasi;

- ijodiy komponent: badiiy tafakkur asosida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish;
- kommunikativ komponent: o‘quvchi va pedagog o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlash;
- texnologik komponent: zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati.

Metodik kompetensiyani shakllantirish uch bosqichda amalga oshadi:
1-bosqich. Nazariy tayyorgarlik bosqichi — pedagogika, san’atshunoslik, psixologiya va metodika fanlaridan zarur bilimlarni o‘zlashtirish;

2-bosqich. Amaliy-metodik bosqich - o‘quv jarayonida dars modellarini sinovdan o‘tkazish, interaktiv metodlardan foydalanish;

3-bosqich. Ijodiy integratsiya bosqichi - o‘z pedagogik uslubini shakllantirish, innovatsion texnologiyalarni ijodiy tatbiq etish.

Tasviriy san’at ta’limida zamonaviy yondashuvlar, jumladan, STEAM texnologiyasi, portfolio, raqamli chizmachilik va virtual muzeylardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. O‘qituvchilar uchun treninglar, seminarlar va ijodiy laboratoriyalar tashkil etish ularning metodik salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at ta’limida o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini shakllantirish pedagogik jarayonning markaziy vazifalaridan biridir. Metodik kompetensiya o‘qituvchining kasbiy mahoratini, ijodiy tafakkurini va o‘quvchilarga ta’sirchan yondashuvini belgilaydi.

O‘qituvchining metodik tayyorgarligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalarida “Tasviriy san’at” ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilari uchun maxsus metodik modullarni joriy etish;
2. Amaliy mashg‘ulotlarda interfaol metodlar ulushini oshirish;
3. San’at va texnologiyani integratsiya qilgan yangi o‘quv dasturlarini yaratish;
4. O‘qituvchilarning uzluksiz malaka oshirish tizimini kuchaytirish;
5. Raqamli san’at platformalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish.

Shunday qilib, tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik kompetensiyasini shakllantirish - bu pedagogik jarayondir.Tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik kompetensiyasini shakllangtirish dolzarb va istiqbolli yo`nalishlardan biridir. O‘quvchilar orasidan iqtidorli, zukko bolalarni aniqlash va ularni dastur asosida oq‘itish malakali mutaxassis tayyorlash demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saidova S. Tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanish muammolari. – “Pedagogika va innovatsiyalar” jurnali, 2023.

2. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Navoiy davlat universititi dotsenti
Ermatova Gulnoz Pirimovna
NavDU, 70110201- ta’lim va tarbiya nazariyasi
va metodikasi mutaxasisligi magistranti
Nishonova Munisa

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadryatlarni anglash va shakllantirish orqali ularda milliy g‘urur, vatanga muhabbat va milliy o‘zlik hissini rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh, milliy qadriyatlar, milliy g‘urur, vatanga muhabbat, umuminsoniy, maktabgacha ta’lim, urf-odat, madaniyat, xalq o‘yinlari.

ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические основы воспитания гордости, любви к Родине и чувства национальной идентичности у детей дошкольного возраста через понимание и формирование национальных ценностей.

Ключевые слова: Дети дошкольного возраста, национальные ценности, гордость, любовь к Родине, общечеловеческий, дощколъное образование, обычаи, кулътура, народные игры.

THE IMPORTANCE OF NATIONAL VALUES IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation: This article discusses the pedagogical foundations for developing pride, love of the homeland, and a sense of national identity in preschool children through the understanding and formation of national values.

Keywords: Preschool children, national values, pride, love of the homeland, universal human, preschool education, customs, culture, folk games.

Ma’lumki jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma xil tarzda namayon bo‘ladi. Mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida qadriyatlar, milliy tiklanish, milliy ong, milliy g‘urur, milliy iftixor kabi islohatlar keng qo‘llanilib kelinmoqda. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi yangi taxrirdagi Konsitutsiyasining 78 moddasida Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni mamlakatdan hamda xalqning boy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi degan fikrlar alohida e’tirof etilgan[1]. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunida esa bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadryatlar O‘zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf odatlari va an’analari bilan tanishtirish kabi fikr va mulohazalar alohida e’tirof etilganligini ko‘rishimiz mumkin[3].Shu bilan birgalikda maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida ham ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganlik darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorgarligini, shuningdek bolalarning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda vatanga muhabbat hissini, oilaga, xalqimizga, milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozimligi aytib o‘tilgan[2].

Milliy qadryatlar-xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, tili, dini, san’ati, odob- axloq va turmush tarzini o‘zida mujassam etgan ma’naviy boylikdir. Ushbu qadryatlar bolani oilada, tengdoshlari orasida, jamiyatda shaxs bo‘lib kamol topishida asosiy o‘rin egallaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy qadryatlarni o‘rgatish vositalari quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

1.Xalq og‘zaki ijodi orqali.

Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, dostonlar, qo‘shiqlar orqali bolalarda ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, mehr- oqibat kabi fazilatlar shakllanadi. Masalan, Zumrad va Qimmat, uch og‘ayni botirlar, Egriboy va To‘g‘rivoy ertaklari orqali singdirish mumkin.

2.Milliy o‘yinlar orqali.

Arqon tortish, chillak, lanka, oq terakmi ko‘k terak o‘yinlari orqali.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadryatlar asosida tarbiyalashda milliy xalq o‘yinlarining ahamiyati kattadir.

Milliy xalq o‘yinlari o‘z o‘rnida 2 turga bo‘linadi:

1.Milliy xalq o‘yinlar.

2.Milliy harakatli o‘yinlar.

Milliy harakatli o‘yinlar sport turlari hamda xalqimiz qadryatlari bilan aloqador bo‘lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib e’zozlanib kelingan.

Xalq milliy o‘yinlarida esa millatning o‘tmishi tarixi, ma’naviy va madaniy rivojlanishining xarakter -xususiyatlari, urf odatlari, an’analari jamlangandir.

Xalq milliy o‘yinlari orqali bolalarni ma’naviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida ularda o‘z vatanini sevish, uning boyliklarini avaylab-asrashga, ardoqlashga, qadriga yetishga o‘rgatish bilan birga, buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy ma’naviy

merosimizni e’zozlab, ularni keyingi avlodlarga bekamu-ko‘st yetkazishga o‘z hissalarini qo‘shishlarini anglashlariga yordam beradi. Bu jarayonda bolalarda qyidagi axloqiy sifatlar: tevarak-atorof va insonlarga hurmat, milliy g‘urur, chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlik, botirlik kabi sifatlar shakllanib boradi.

Xalq milliy o‘yinlarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

-xalq milliy o‘yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo‘llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;

-milliy o‘yinlarni tashkil etishda ma’naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda milliy xalq o‘yinlaridan maqsadli foydlanish;

-xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;

-bolalarning o‘ynashlari uchun shart-sharoitlari (o‘yin uchun jihozlar, atributlar)yaratish;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, oila va mahallalar o‘rtsida milliy o‘yinlar bo‘yicha ko‘rik tanlovlar va musobaqalar o‘tkazish[6]. Milliy qadryatlarga tayanilgan tarbiya insonning butun umri davomida yo‘l yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda milliy qadryatlar har bir bola shaxsining ma’naviy-ruhiy poydevorini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biri bo‘lib, ular orqali bola o‘z xalqining tarixi, urf-odati, an’analari, madaniy merosi bilan tanishadi va jamiyatda o‘z o‘rnini anglay boshlaydi. Shuningdek qadryatlar bolaning axloqiy tasavvurlarini boyitib, mehr-oqibat, hurmat, vatanparvarlik, mas’uliyat kabi fazilatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi berilgan milliy tarbiya bolada mustaxkam manaviy tarbiya hosil qilib, kelajakda yuksak madaniyatli, o‘z milliyligini qadrlaydigan va jamiyatga foydali shaxs bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konsitutsiyasi 2023- yil 30- aprel.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni 2019 yil, 16-dekabr, O‘RQ №.595.

3. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish” Konsepsiyasi. 2019-yil 8-may, PQ-4312-son.

4. A.Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2018

5. J.To‘lanov “Qadriyatlar falsafasi’Toshkent-O‘zbekiston-1998.

6. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova Maktabgacha pedagogika. “Tafakkur” nashriyoti Toshkent 2019.

BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING ZAMONAVIY INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNI TASHKIL QILISHDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASHGA O‘RGATISH MASALALARI

Otamurodova Aziza Sultonmurodovna-
UrDPI “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
orcid.org/ 0009-0000-1805-7257
F.F.Sadullayeva Feruza Farxod qizi -
UrDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lg‘usi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining zamonaviy integratsiyalashgan ta’limni tashkil qilishda axborotlar bilan ishlashga tayyorgarligi tahlil qilingan. Integratsiyalashgan ta’lim mazmuni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, tanqidiy va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik yo‘nalishdagi talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Аннотация. В статье проанализирована готовность будущих учителей начальных классов к работе с информацией в условиях современной интегрированной системы обучения.

Освещается значение интеграции предметов, использование информационно-коммуникационных технологий, а также формирование навыков критического и системного мышления. Представлены практические рекомендации по развитию информационной компетентности студентов педагогических направлений в вузах.

Annotation. This article analyzes the preparedness of future primary school teachers to work with information in the context of modern integrated education. It highlights the importance of integrated approaches, the use of information and communication technologies (ICT), and the development of critical and systematic thinking skills. Practical recommendations are provided for improving the information competence of pedagogical students in higher education institutions.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, integratsiyalashgan ta’lim, axborotlar bilan ishlash, raqamli savodxonlik, pedagogik tayyorgarlik, zamonaviy ta’lim.

Ключевые слова: начальное образование, интегрированное обучение, работа с информацией, цифровая грамотность, педагогическая подготовка.

Keywords: primary education, future teacher, integrated education, working with information, digital literacy, pedagogical training.

KIRISH

Globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ta’lim tizimida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim sohasida kelajak avlodni zamon talablariga mos, har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishda o‘qituvchining roli beqiyos. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari nafaqat o‘z fanidan chuqur bilimga ega bo‘lishi, balki zamonaviy ta’lim metodlarini, xususan, integratsiyalashgan ta’limni tashkil etishda axborotlar bilan samarali ishlash malakasiga ham ega bo‘lishi zarur.

Integratsiyalashgan ta’lim — bu turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochish, bilimlarni yaxlit holda yetkazish orqali o‘quvchida kompleks dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan ta’limiy yondashuvdir. Bu yondashuv:

- bilimlar orasidagi uzviylikni ta’minlaydi;
- o‘quvchining tanqidiy fikrlashi va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishiga xizmat qiladi;
- turli fanlar va real hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglatadi.

Integratsiyalashgan ta’limni samarali tashkil qilish uchun o‘qituvchidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, metodik bilim, shuningdek, axborot bilan ishlash ko‘nikmasi talab etiladi. Integratsiya jarayoni orqali kichik maktab o‘quvchilari olamni bir butunligicha qabul qilish bilan xarakterlanadi. Ularning aqliy salohiyati, dunyoqarashini boshlang‘ich ta’limdanoq kelajakka raqobatbardosh, o‘tkir zehnli qilib tarbiyalash integratsiyaning asosiy funksiyasi hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining zamonaviy, integratsiyalashgan ta’limni tashkil qilishda axborotlar bilan ishlashga o‘rgatish masalasi, o‘quvchilarni zamonaviy dunyo talablariga moslashtirishda hamda axborotlar oqimi orasidan zarurini ajratib olish, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu o‘qituvchilarga o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Yurtimizda yoshlarning bilim olishlariga keng imkoniyatlar yaratilgan va bular qonuniy asoslarga ega. Muhtaram Prezidentimizning 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931 sonli qarori intelektual, yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Integratsiya - bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda birbiriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integrasiya fanlararo bog‘liqlikdir.

Fanlararo bog‘liqlik asoslari tabiatni to‘la holda o‘quv darsliklarda ko‘rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo‘lgan. Ulug‘ didaktik Yan Amos Komenskiy ta’kidlashicha: “Bir biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o‘rganilishi kerak”. “Ta’lim mazmunining

aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak”. Pestalotsi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto mazmunining aniqlashishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak. Pestalotsi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavliligini ta’kidlaydi.

Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo‘ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. AQSH o‘rta maktablarining katta sinflarida o‘z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shu kabilarni o‘z ichiga oluvchi “Yerni o‘rganish” fani kiritilgan. Chexoslovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan “Fuqaro tarbiyasi” deb nomlangan kurs katta sinflarda kiritilgan.

NATIJALAR

Birinchi navbatda, fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish uchun qaysi darslarning bir-biriga mos kelishini aniqlash lozim. Tushunchalarning, ma’lumotlarning mazmuni o‘zaro yaqinligi va mantiqiy aloqalariga qarab integratsiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Integratsiyalash jarayonida dars va darsliklar orasida vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda mos tushushini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Aloqaga kirishayotgan tushunchalar bir-biriga mos bo‘lishi, bir-birini to‘ldirishi ahamiyatlidir. Darsliklar asosida integratsiyalashning vertikal uslubi o‘quvchi bir tushuncha o‘rganib bo‘ldi, keyinroq boshqa fanda shu tushunchaga mos bo‘lgan atamaga duch kelsa, ma’lumot sifatida oldin o‘rganilgan tushuncha yodga olinadi va bu tushuncha bilan birlashtiriladi. Natijada, ma’lumotlar bazasi kengayadi, o‘quvchilar bilimlarni aniqroq va puxtaroq egallaydi. Gorizontal yo‘nalishda integratsiyalash ma’lum bir kichik davr oralig‘ida bir tushunchaning ko‘plab variantlari bilan ishlash jarayoni tushuniladi.Vertikal bog‘lanishda oldinroq olingan bilim to‘liq holda yodda saqlanmay qolishi mumkin, gorizontal yo‘nalishda bir vaqtning o‘zida bir necha ma’lumotlar bilan ishlanadi.

MUHOKAMA

Bugungi kunda ta’limning rivojlanayotganini o‘quvchilarning intelektidan bilish qiyin emas. Endilikda sodda, odatdagidek darslar o‘quvchilarni qoniqtirmaydi. Ta’lim ham zamon bilan hamnafaslikda o‘sib bormoqda, o‘quv jarayonini mukammal va sifatli bo‘lishi uchun kerakli barcha jihozlar bor. Faqatgina metodist ulardan to‘g‘ri foydalanib, mavzuga mos bo‘lgan metodlarni tanlab, bilim berish jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olsa bo‘lgani. Ta’lim berish jarayonida integratsiyalashgan bilimlardan foydalanish, odatdagidan ko‘proq ma’lumotlar olish mumkinligi hammaga ayon.

Integratsiyalashgan darsda o‘quvchi o‘rganayotgan tushunchasini bir tomondan emas, balki boshqa sohalarda ham shu tushunchani qo‘llanilishini va olayotgan bilimlari to‘liq va asosli bo‘lishini ta’minlaydi. Integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarning hayotida barcha narsalar uzviyligini tabiatan tushunib yetishga o‘rgatadi. Kichik maktab yoshidagilar uchun fanlararo aloqadorlik kam ishlab chiqilgan. Integratsiyalash asosida o‘rganilayotgan obyektning butunligi tartibga solinadi va o‘quv fanlari mazmunini tizimli yondashish asosida soddalashtiriladi va aniqlashtiriladi. Zamonaviy metodikada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashuvchi eng sodda va eng samarador yo‘li tanlab olinadi. Ma’lumotlarni integratsiyash zamonaviy metodikaning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

XULOSA

O‘qituvchi darslarni integratsiyalash orqali turli fanlarni kuzatishlari mumkin va olingan xulosalar asosida ma’lumotlarni kengaytirib, tasdiqlab olish imkoniyatiga ega. Ammo ma’lumotlar bazasini o‘quvchilarning yosh xususiyatiga moslab jamlagan ma’qul. Negaki, haddan tashqari ko‘p ma’lumotlar va bolaning yoshiga mos bo‘lmagan tushunchalarning dars davomida qo‘llanilishi o‘quv faoliyatining inqiroziga olib kelishi aniq. Bu jarayonda o‘quvchiga mavzu qiziq tuyilmaydi. Haddan tashqari ko‘p ma’lumotlar uni charchatadi, zeriktiradi, asabiylashtiradi. Eng asosiysi, bola asosiy negizidagi sodda tushunchani farqlamaydi va o‘zlashtira olmaydi. Buning oldini olish uchun o‘qituvchi yuqorida keltirilgan ilmiy asoslangan manbalar va berilgan takliflarni inobatga olishi kerak. Bayon qilingan pedagogik va psixologik dalillar ta’limning barcha bosqichlarida integratsiyalashning mazmunini yoritib bera olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “Q” harfi. -T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 143-b.

2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi-T.: “ILM ZIYO”, 2009. 15-b.
3. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. 396-b.
4. https://lex.uz

BOSHLANG‘ICH TA'LIM JARAYONIDA INTEGRATIV USULLARNING SAMARADORLIGI

Kazbekova Fariza Po‘latovna-
Navoiy Davlat universiteti Boshlang'ich ta’lim
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimidagi integrativ yondashuvlarning o'rni va ularning o'quv jarayonidagi samaradorligi ko'rib chiqiladi. Integratsiya tushunchasining pedagogik mohiyati ochib berildi, sub'ektlar o'rtasidagi aloqa orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va bilim faolligini oshirish yo'llari namoyish etildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, integrativ yondashuvlar yosh maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ta'lim mazmunini chuqur tushunishga va amaliy ko'nikmalarni takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: integratsiya, integrativ yondashuv, boshlang'ich ta'lim, fanlararo aloqa, samaradorlik, o'qitish usullari.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль интегративных подходов в системе начального образования и их эффективность в образовательном процессе. Раскрыта педагогическая сущность понятия интеграции, показаны пути расширения кругозора учащихся и повышения их познавательной активности через общение между субъектами. Исследования показали, что интегративные подходы положительно влияют на развитие творческих способностей младших школьников, глубокое понимание содержания образования, совершенствование практических навыков.

Ключевые слова: интеграция, интегративный подход, начальное образование, междисциплинарная коммуникация, эффективность, методы обучения.

Abstract: This article examines the role of integrative approaches in the primary education system and their effectiveness in the educational process. It reveals the pedagogical essence of the concept of integration and shows ways to broaden students' horizons and increase their cognitive activity through communication between subjects. Research has shown that integrative approaches have a positive impact on the development of creative abilities in younger students, deepening their understanding of educational content, and improving their practical skills.

Keywords: integration, integrative approach, primary education, interdisciplinary communication, effectiveness, teaching methods.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida integratsiya tushunchasi eng muhim pedagogik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Integrativ yondashuvlardan foydalanish, ayniqsa boshlang'ich ta'lim darajasida, o'quv jarayonini faollashtiradi va talabalarga fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga imkon beradi. Integratsiya-bu ta'lim mazmunini yagona tizim sifatida shakllantirish va talabaning fikrlash, tahlil qilish va taqqoslash qobiliyatini oshirishga qaratilgan jarayon.

Boshlang'ich ta’lim - bu insonning dunyoqarashi va asosiy o'rganish qobiliyatlari shakllanadigan birinchi bosqich. Shu sababli, ushbu bosqichda o'qitishda integrativ yondashuvlar o'quvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni hayot bilan uyg'unlashtirishi uchun sharoit yaratadi. Endi bizda savol bor, integral usul nima? Integrativ usul-bu o'qitishda turli fanlar, bilim sohalari yoki ta'lim faoliyatining o'zaro bog'liqligini yagona integratsiyalashgan tizim sifatida o'tkazish usuli. Ya'ni, talaba bir xil mavzuni nafaqat bitta mavzu doirasida, balki uni bir nechta mavzular bilan bog'lash orqali ham tushunadi. Masalan, "dunyo bilimlari" fanini adabiy o'qish yoki tasviriy san'at bilan birlashtirish talabalarning bilimlarini turli tomonlardan to'ldiradi va ularni ijodiy fikrlashga undaydi. Mavzu "bahor":

- Ona tili fanidan "bahor" haqidagi matnni o'qish;
- Dunyo bilimida: bahor hodisalarini tushuntirish;
- Mehnat darslarida: bahor sahnasini chizish;
- Musiqa darslarida: bahor haqida qo'shiq o'rganish beriladi. Bitta mavzu bir nechta fanlar doirasida bog'langan. O'quv jarayoniga fanlararo integratsiyani amalga oshirish ta'lim sifatiga ta'sirini ko'rsatadi, ta'limni modernizatsiya qilish, innovatsion ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya tomonidan taqdim etilgan muhitda darsni tashkil etishga muvaffaq bo'lgan o'qituvchi talabalarga ushbu fanni o'rganishga yordam beradi, shu bilan birga ularning faniga qiziqishni oshiradi. Fanlararo integratsiyaning tizimli yondashuvi natijasida o'quv jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Integrativ yondashuvning asosiy xususiyati turli mavzular tarkibidagi umumiy tushunchalar va g'oyalarni birlashtirish orqali yaxlit idrokni shakllantirishdir. Ushbu yondashuv talabalarga fan doirasidan tashqariga chiqishga imkon beradi, ya'ni faqat bitta mavzu mazmuni bilan cheklanmaydi.,

Uchinchidan, u bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash orqali qo'llashni o'rganadi. Masalan, tabiat hodisalarini o'rganishda talabalar bir vaqtning o'zida matematikada hisoblash ko'nikmalarini, til darsida tavsiflashni va rasm chizish darsida tasviriy san'atni qo'llashlari mumkin. Bundan tashqari, integrativ yondashuv o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishni talab qiladi. Dars mazmunini rejalashtirishda o'qituvchi fanlarning o'zaro bog'liqligini, ta'lim maqsadlarining birligini va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi kerak. O'qituvchi integratsiyalashgan darslarni tashkil etish jarayonida nafaqat fan o'qituvchisi, balki o'quvchilarning o'qish va yaratishga rahbarlik qiluvchi shaxs sifatida ham ishlaydi. U dars rejasini tuzishda fanlarning mantiqiy aloqalarini aniqlaydi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga oladi va samarali usul va usullarni tanlaydi.Integratsiyalashgan sinflar an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanadi, masalan, loyihaga asoslangan ta'lim, o'yin usullari, tadqiqot elementlari va axborot-kommunikatsiya vositalari.

Shu bilan birga, dars davomida talaba tomonidan bajarilgan vazifalarga yaxshi munosabatda bo'lish va uni xizmatlari uchun mukofotlash kerak. Dars davomida turli o'yinlarni tashkil etish dars sifati va samaradorligini oshiradi. Masalan, bir nechta talabalar tanlanadi va sinf guruhlarga bo'linadi. Ularga berilgan matn uchun mavzuni tanlash vazifasi beriladi. Eng yaxshi mavzuni tanlagan talaba mukofotlanadi. Shuning uchun biz har bir usulni qo'llab-quvvatlaganimizdan keyin talabani mukofotlashimiz kerak. Bu ularni ham qiziqtiradi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim jarayonida integrativ yondashuvlardan foydalanish zamonaviy talablarga javob beradigan ta'limning eng samarali usullaridan biridir. Integratsiya orqali o'rganish ta'lim mazmunini yaxlit o'zlashtiradi, o'quvchilarning fikrlash, dunyoqarash va ijodiy faolligini rivojlantiradi. Har bir o'qituvchi o'quv jarayonida fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdan oqilona foydalanishga muvaffaq bo'lganda, yosh o'quvchilarning o'quv yutuqlari va kognitiv qiziqishlari sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aitmambetova B. Boshlang'ich maktablarda o'qitish metodikasi asoslari. - Olmaota: "Ta'lim", 2018.

2. Asqar Zunnunov. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Aloqachi", 2006 Yil

3. Abylkasymova A. E. Pedagogika va psixologiya asoslari. Olmaota: Daryn, 2019.

4. Jumabekova F. Integratsiyalashgan ta'limning nazariy asoslari. - Nur-Sulton: Foliant, 2021.

5.Koyanbaev J. B., Koyanbaev R. M. Pedagogika. - Olmaota: Rauan, 2020.

6. Seisenbaeva G. Boshlang'ich ta'limda integrativ yondashuvlarni qo'llashning ilmiy asoslari. Chimkent: SKSPU nashriyoti, 2022.

7. Tolipova J., Numonova N. O'qish davridagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar "Narodnoe uchenie" jurnali, 3-son

«ИНТЕГРИРОВАННЫЕ УРОКИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ПО СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ STEM В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ»

Навоийская область город навои общеобразовательная школа № 13
Учитель начальных классов высшей категории
Ходжаева Хилола Баходыровна
(тел.99891-4157530, hilolahodjaeva3000@gmail.com)

Аннотация

Интегрированные уроки естественных наук по системе STEM в начальных классах представляют собой современный образовательный подход, направленный на формирование у младших школьников целостного понимания природных явлений и развитие исследовательских, технических и математических навыков. STEM-интеграция позволяет объединять знания из различных предметных областей — естествознания, математики, технологий и инженерного мышления — в рамках одного урока, делая процесс обучения более практико-ориентированным и мотивирующим. Использование опытов, проектной деятельности, работы с цифровыми инструментами и моделирования способствует развитию критического мышления, творческих способностей и умения решать реальные задачи. Интегрированные STEM-уроки создают условия для активного участия каждого ученика, помогают формировать навыки XXI века и повышают качество усвоения учебного материала, делая обучение более интересным, доступным и эффективным.

Если нужно, могу подготовить введение, цель и задачи, актуальность, мини-реферат или выводы.

Ключевые слова:

Современный урок, интегрирование, STEM- образование, технологии, инженеринг, математика, инновация, практические умения, безопасность, критическое мышление, естественные науки.

Данное методическое пособие рассматривает интегрированный подход к образованию новых педагогических технологий преподавания естественных наук в начальных классах. В современном мире обучение требует современных и новаторских подходов.

Согласно постановлению Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» № ПФ-5712 с учетом необходимости внедрения ИКТ и новых методов обучения, организация учебного процесса на основе требований образовательной технологии STEAM, преподавание предметов STEM (естественные науки, технология, инженерия, дизайн и математика). С помощью игровых методов мы развиваем базовые интересы в исследовательских и лабораторных открытий, а также в практических работах формируем фундамент знаний, умений и навыков подготовке новых лидеров в выборе профессий подрастающего поколения. Решая, развивая навыки критического мышления и творческого подхода анализа исследований позволяет интерес к науке и технике. Такие инновационные уроки улучшают пониманию программного материала и готовит учащихся к успешному вхождению разнообразной области профессий - инженера, научного исследователя, программиста, врача, военного спасателя, аналитика и многих других профессий.

Развивая интеллектуальные и практические умения детей на уроках естественных наук мы развиваем навыки, связанные с заботой о собственном здоровье и чувство уверенности в своих возможностях. Во время урока дети не только погружаются в тему, но и получают возможность проявить фантазию, вообразить ситуацию, повторить правила безопасности, получить удовольствие, высказать свои предложения и сделать выводы. Даёт возможность приобрести собственный жизненный опыт, который занимает особое место в нравственном воспитании ребёнка.

Главной целью интегрированных уроков является не вызубривание предметов, а развитие у учащихся логического, креативного и творческого мышления, навыков командной работы, умения адаптироваться и находить новаторские решения, повышая мотивацию и

интерес к предмету. STEM - это нечто большее, чем школьные уроки. Благодаря новой системе дети учатся осознанно усваивать полученные знания в собственное будущее. Это стимулирует интерес, которого часто не хватает при изучении предметов. Чтобы школьники увлеченно изучали естественные науки, мы проводим интегрированные уроки в игровой, командной, практической и исследовательской форме метода обучения.

. Интегрированный урок - мой любимый тип урока, который объединяет в себе обучение по нескольким предметам при изучении одной темы или явления. А проведение такого типа урока - это не только удовольствие, радость и развлечение для учащегося, но и проверка полученных знаний и умений, которыми он недавно овладел, а также их закрепление. Интерактивные игры, путешествия, слайд-шоу и различные формы метода обучения становятся важнейшей и неотъемлемой частью урока на современном этапе. Например, на уроках естественных наук в начальных классах по разделу Части тела: можно провести исследование и изучение особенностей органов чувств, их работы и восприятия в практической и лабораторной работе. Этот урок формирует представление об органах чувств и их роли в жизни человека;

Развивать интеллектуальные и практические умения детей, а значит развивать навыки, связанные с заботой о собственном здоровье, учить детей наблюдательности, воображать и делать выводы; Воспитывая санитарно-гигиенические навыки ухода за органами чувств. Рассказывая, беседуя, само-наблюдая, экспериментируя, играя в логические игры «Угадай на вкус»,
«Чудесный мешочек», «Узнай по запаху», мы раскрываем интеллектуальные навыки саморазвития.

Наглядные пособия на уроках STEM играет важную роль в развитии и раскрытии лидерских способностей подрастающего поколения **(к**омпьютер, наглядные пособия, раздаточные материалы, карточки, кроссворды, загадки, фрукты, овощи, соки, вода)

Урок-исследование зависит от этапов: постановки проблемы, наблюдения, выдвижения гипотезы, проведения опыта и анализа результатов, которые помогают ученикам самостоятельно приходить к новым знаниям. Именно эта структура помогает ученикам не только понять новый материал, но и научиться мыслить как исследователи: задавать вопросы, проверять предложение и делать обоснованные выводы., Итак, интегрированные уроки в естественных науках делают обучение более интересным, осмысленным и полезным. Они помогают детям видеть взаимосвязи между разными предметами, развивают исследовательские умения и формируют целостное понимание окружающего мира.

Использованная литература:

Белов С. В., Ильницкая А. В., Козьяков А. Ф. «Безопасность жизнедеятельности»,
Глинская Е. А. , Титова 6.В. Межпредметные связи в обучении.
Зверев И.Д. Интеграция и "интегрированный предмет".
Мальченко Н. С. – «Безопасность жизнедеятельности»;
Чемеков В.Н., Крылов Д.А. – «STEM - новый подход к инженерскому образованию».
Шарифбаева Х.П. - «Интегрированне в образовании стратегии формирования STEM компетенции комплексный анализ от начальной и высшей школы».

1-SINF O‘QUVCHILARIGA QO‘SHIB VA AJRATIB YOZISHNI O‘RGATISHNING METOD VA INTERFAOL USULLARI

Saidaxmatova Sevinch Tohirjon qizi-
Navoiy davlat universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishining 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada metod va interfaol usullar asosida qo‘shma fe’llarning yozilishi, ko‘makchi va yordamchi fe’llar bilan birikmalarning ajratilishi, izofa qo‘llanishi, murakkab sonlarning yozilishi, ko‘makchilar shakllari, kuchaytirma sifatlar, juft so‘zlar, takror so‘zlar, affiks yuklamalarning chiziqcha bilan yozilishi kabi normativ imlo masalalari o‘rgatilgan. Shuningdek,

qo‘shib yoziladigan qo‘shma so‘zlar, joy nomlari, ruscha-baynalmilal atamalar va qisqartmalar imlosi ham yoritib berilgan. Maqola o‘zbek tilidagi imlo qoidalarining amaliy qo‘llanilishini, qo‘shib va ajratib yozishni va yozma nutqda to‘g‘ri imlo me’yorlariga amal qilishni osonlashtiradi.

Kalit so‘zlar: Metod, interfaol usullar, izofa, affiks, ruscha-baynalmilal, qisqartmalar, imloviy me’yorlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы нормативной орфографии, такие как написание сложных глаголов, разделение вспомогательных и вспомогательных глаголов, использование суффиксов, написание сложных числительных, формы вспомогательных глаголов, усиление прилагательных, парные слова, повторяющиеся слова и написание аффиксов с дефисом, на основе метода и интерактивных методов. Также рассматривается написание сложных слов, географических названий, русско-международных терминов и сокращений. Статья способствует практическому применению правил орфографии в узбекском языке, написанию суффиксов и дефисов, а также соблюдению правил правильного правописания в письменной речи.

Ключевые слова: Метод, интерактивные методы, суффиксы, аффиксы, русско-международный, сокращения, стандарты орфографии.

Abstract: This article teaches normative spelling issues such as the writing of compound verbs, the separation of auxiliary and auxiliary verbs, the use of suffixes, the writing of complex numbers, forms of auxiliary verbs, strengthening adjectives, paired words, repeated words, and the writing of affixes with a hyphen, based on the method and interactive methods. It also covers the spelling of compound words, place names, Russian-international terms and abbreviations. The article facilitates the practical application of spelling rules in the Uzbek language, writing with suffixes and hyphens, and adhering to correct spelling standards in written speech.

Keywords: Method, interactive methods, suffixes, affixes, Russian-international, abbreviations, spelling standards.

Kirish: Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish eng muhim poydevor hisoblanadi. Xususan, 1-sinfda qo‘shib yozish, ajratib yozish va chiziqcha bilan yozish qoidalarini o‘zlashtirish keyingi sinflardagi imloviy kompetensiyalarning to‘g‘ri shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. [4,11 − b] Mazkur imlo birliklari o‘quvchining so‘z tarkibini anglash, til birliklari orasidagi bog‘lanishlarni farqlash, gapda ma’no munosabatini to‘g‘ri ifodalash kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli ushbu mavzuni o‘rgatishda metodik yondashuvlarning samaradorligi nihoyatda muhimdir. [2,128 − b]

Bugungi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullar, o‘yin texnologiyalari, ko‘rgazmali qurollar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning e’tibori va qiziqishini oshiradi, mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, 1-sinf o‘quvchilariga qo‘shma fe’l birikmalarini ajratish, juft so‘zlarni chiziqcha bilan yozish yoki qo‘shma so‘zlarni qo‘shib yozish kabi imlo qoidalarini o‘rgatishda ko‘rgazmalilik, amaliy mashqlar va faol ishtirokga asoslangan metodlar o‘zini oqlaydi.[5,12 − b]

№	Asosiy tushuncha	An’anaviy dars	Interfaol dars
1	**Qo‘llanish darajasi**	Barcha mavzular bo‘yicha ular uchun qulay bo‘lgan dars turlari shaklida qo‘llaniladi.	Ayrim mavzular bo‘yicha interfaol darsning qulay bo‘lgan turlari shaklida qo‘llaniladi. Boshqa mavzular uchun an’anaviy dars qo‘llaniladi.
2	**Dars maqsadi**	Dars mavzusida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo‘yicha: mustaqil fikrlash, mushohada qilish, ularni bayon qilish, himoyalashga o‘rgatish.
3	**O‘qituvchining vazifalari va ish usullari**	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat topshiriqlarini berish.	O‘quvchilarning mustaqil ishlashini taqdimoti, nazorat qilish, guruhlarda ishlashini qo‘llab-quvvatlash va yakuniy xulosaga kelish.

4	**Darsga tayyorgarlikka talablar**	Dars rejasi: vazifalarni mustahkamlash, takrorlash va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	**O‘quvchilarning vazifalari va ish usullari**	Oldingi dars bo‘yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma’lumotlarni bilish.
